

NUSRATULLO JUMAXOJA, IQBOLOY ADIZOVA

921.  
J-92.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI  
(XVI-XIX ASR I YARMI)



94.  
1-92.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI


NUSRATULLO JUMAXO'JA, IQBOLOY ADIZOVA

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI  
(XVI-XIX ASR I YARMI)

- 10888 -

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rtalik maxsus ta'limgazalariga asosan  
5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish yo'naliishi bo'yicha  
bakalavriat bosqichi talabalari uchun darslik

Qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashri



Toshkent – 2020

UDK: 894.375  
BBK: 83.3(O<sup>z</sup>)  
J 92

**Nusratullo Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova**  
**O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi) / darslik/. – Toshkent:**  
**«Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 540 bet.**

*Darslik O'zbekiston respublikasi oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi hamda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan umumiyligi maxsus ta'lim dargohlari o'qituvchilari, o'quvchilari va talabalari hamda adabiyotimiz tarixi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar foydalanishlari mumkin.*

*Darslikda XVI-XIX asr I yarmidagi adabiy jarayon, madaniy muhit, undagi ijodkorlar haqidagi eng muhim ma'lumotlar qamrab olingan. Yangi qarashlar, tushunchalar bilan boyitilib, mavjud matnlarning yangicha talqinlari havola etilgan. Davr adabiyoti haqida yaratilgan ilmiy asarlar, monografiya, risola, so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlardagi ilmiy yangiliklardan yetarli foydalanilgan. Darslikka ilk bor Qul Ubaydiy, Amiriyy, So'fi Olloyor kabi allomalar ijodiga bag'ishlangan boblar kiritilgan.*

**Mas'ul muharrir:**  
**Sh.Sirojiddinov - filologiya fanlari doktori, professor**

#### **Taqrizchilar:**

- H.Boltaboyev** - filologiya fanlari doktori, professor  
**N.Jabborov** - filologiya fanlari doktori, professor  
**D.Yusupova** - filologiya fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 21-noyabr 5-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9943-6789-3-0**

**© N. Jumaxo'ja va boshq., 2020.  
© “Innovatsiya-Ziyo”, 2020.**

## UQTIRISH XATI

Vatanimiz O'zbekiston mustaqillikka erishgani sharofati bilan mumtoz adabiy merosimizga munosabat yangilandi. Uni o'rganishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining strategik yo'l xaritalarida bu masala alohida inobatga olinmoqda. Ko'plab xorijiy, jumladan, Rossiya, Fransiya, Hindiston, Germaniya kabi ulkan qo'lyozmalar zahirasiga ega mamlakatlar bilan madaniy aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash borasida ulkan qadamlar tashlandi. Yurtimizdagi qo'lyozmalarni va mumtoz merosimizni o'rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan qarorlarning qabul qilinishi ham bu yo'ldagi o'zgarishlar qamrovini ko'rsatib turibdi.

Ilunga bo'lgan bunday e'tibor va rag'bat mumtoz adabiy merosimizni o'rganuvchilarga kuch-quvvat va ishtiyoq bag'ishladi. Uni yanada chuqurroq tadqiq etish, falsafiy asoslarini teran anglash jarayoni boshlandi. Natijada, mavjud darslik va qo'llanmalardagi ayrim fikr-mulohazalarning ma'naniq eskirganligi, o'z mohiyatini yo'qotganligi ayon sezilib goldi.

Mazkur darslik yangi qarash va ma'lumotlarni to'la qamrab olib aks ettirish, mumtoz merosimiz namunalarini obyektiv va yangicha tadqiq etish ehtiyojini qondirish yo'lidagi urinish natijasidir.

Unda XVI asrdan XIX asr I yarmigacha yaratilgan adabiy merosimiz namunalarini, adabiy jarayon, ilmiy-madaniy hayot talqin etilgan. Ularga obyektiv baho berishga harakat qilingan. Uzoq yillar darslik va qo'llanmalarga kiritilmagan, merosi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida o'ringa ega bo'lgan Qul Ubaydiy, So'fi Olloyor, Amiri kabi ijodkorlarning hayoti va adabiy merosini o'rganishga mazkur darslikda alohida e'tibor qaratildi.

Darslikda qo'yilgan muammolarni yoritishda, mustaqil izlanishlar natijasi bilan bir qatorda, ilmda mavjud yangiliklar, tadqiqot va dissertatsiyalardagi muhim ma'lumotlar ham qamrab olishga harakat qilindi. Adabiy namunalar dunyoviy va tasavvufiy nuqtayi nazardan yondashishni taqozo etganligi sababli, bunga diqqat bilan yondashildi.

Muhtaram kitobxon! Mazkur darslik bilan bog'liq samimiy fikr-mulohazalarining kutib qolamiz.

## DARSLIK IMLOSIDAGI AYRIM XUSUSIYATLARGA IZOHLAR

Tarixiy manbalarda “Xevaq” shaklida yozilgan shahar nomi keyinchalik rus tili ta’sirida tovush o‘zgarishlariga uchrab, “Xeva”, “Xiva” shakllarini olgan. Biz darsligimizda nomning asliyatiga yaqin “Xeva” shaklini asos qilib oldik.

Sharq mumtoz adabiyotiga oid “matla”, “maqta”, “tatabbu”, “tashbih”, “misra”, “iyomon”, “iyhom” kabi terminlarni biz darsligimizda “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (“Fan”, T., 1976) hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2006-2008)ga muvofiq ravishda “matla”, “maqta”, “tatabbu”, “tashbeh”, “misra”, “imon”, “iyhom” shakllarida ishlatishni to‘g‘ri deb topdik. Chunki, birinchidan, bu lug‘atlar hozirgi zamон o‘zbek adabiy tiliga asoslanib tuzilgan, ikkinchidan, so‘zlarning bunday shakllarda qo‘llanishi imlo uslubida soddalikni ta’minlaydi va xatoga yo‘l qo‘yilishi ehtimolini kamaytiradi.

Darslikda arabiy izofa bilan yoziladigan nomlar yagona shaklida – “Badoe ul-vaqoe”, “Tazkirat ush-shuaro”, “Tuhfat ul-abob”, “Muntaxab ut-tavorix” va h.k. tarzda berilishi qabul qilindi. Mazkur nomlarning turli adabiyotlarda turlicha yozilishidan saqlanish va kitobxonlar uchun imlosi, talaffuzi, eslab qolinishi qulayligini ko‘zlab shunday shakl ma‘qul ko‘rildi.

Ulug‘ mutafakkir Nizomiddin Mir Alisherning taxallusi asliyatiga muvofiq “Navoyi” shaklida yozildi. O‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining yirik namoyandası Abdurauf Fitrat o‘z asarlarida taxallusni shunday qo‘llagan, asarlardagi taxallus imlosi zamonaviy nashrlarda ham asliche chop etildi. Professor Hamid Sulaymon “Alisher Navoyi nomining yozilish shakllari va imlosi haqida”gi (“Adabiy meros”, 1977-yil, 9-son, 43-bet) maqolasida masalaga manbashunos sifatida yondashib, “Navoyi” shaklidagi g‘alati mashhurning kelib chiqishi tarixini batafsil yoritdi va muammoni to‘g‘ri hal etdi. Adabiyotshunos olim N. Jumaxo‘ja 1990-yillari O‘zbekiston matbuotida e’lon etilgan qator

maqolalarida va “Istiqlol va ona tilimiz” kitobidagi “Navoyi” taxallusining badiiy ma’no miqyoslari va imlosiga doir” sarlavhali maqolasida (“Sharq”, T., 1998, 79-90-betlar) taxallusning to‘g‘ri yozilishini isbotladi. Shu kitobda , “Xalq so‘zi” gazetasi va “Mushtum” jurnalida bir muddat taxallusning shu imlosiga o‘tildi. Taxallusni qanday yozish haqida biror qaror qabul qilinmagan bo‘lsa-da, jamiyat maxsus qarorga ehtiyoj sezdi shekilli, yana xato imloga qaytdi. Shunday pishib yetilgan masalalar to‘g‘risida uzilkesil qaror qabul qilib, uni matbuotda chop ettirib, ijrosini ta‘minlashni Davlat tilini rivojlantirish departamenti o‘z zimmasiga olsa, yaxshi bo‘ldi. Biz darslikda taxallusni asliga muvofiq shaklda qo‘llashni lozim topdik. Tildagi o‘zagi unli tovush bilan tugagan taxalluslarga yoyi nisbat “yi” shaklida qo‘silishi qonuniyati asosida Navoyi, Atoyi, Gadoyi taxalluslari bir xil yoziladi.

Yirik mutafakkir shoir Ogahiyning ismi ham “Muhammad Rizo” shaklida ikkiga ajratib ko‘p adabiyotlarda xato yozib kelinadi. To‘g‘ri, ism ikki o‘zakdan iborat, lekin eski o‘zbek yozuvidagi “dol” (d) harfi o‘zidan keyingi harfga qo‘silmaligi qoidasiga binoan arab yozuvidagi qo‘lyozmalarda ikki o‘zak ajratib yozilgan. Ammo bu Ogahiy ismi joriy kirill va lotin yozuvda ham ajratib yozilishini bildirmaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bir necha o‘zakli nomlar qo‘sib yoziladi.Masalan, Tursunpo‘lat, Sultonmurod, Muhammadqosim kabi. Mana shu qoidaga muvofiқ, Ogahiyning nomi ham “Muhammadrizo” shaklida ishlataladi. Bundan tashqari, bir qancha asosiy ilmiy manbalar (masalan, 5 tomlik “O‘zbek adabiyoti tarixi” tadqiqoti, IV tomi, “FAN” nashriyoti, 1978-yil, 413-441-betlar; “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 6-tomi, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil, 452-454-betlar)da Ogahiy taxallusining to‘g‘ri “Muhammadrizo” shakli aniq va yorqin ifodasini topgan. Biz ana shunday asoslarga binoan, Ogahiy ismi sharifini darsligimizda “Muhammadrizo” shaklida qo‘llaymiz va boshqalarni ham to‘g‘ri yo‘lga o‘tishga chaqiramiz.

## XVI-XIX ASR I YARMIDAGI TARIXIY SHAROIT, MADANIY HAYOT VA ADABIY-ILMIY MUHIT

### *Reja:*

1. XVI-XIX asrning I yarmidagi tarixiy sharoit.
2. Manbalar va ularni o'rganish tamoyillari.
3. Madaniy hayot.
4. Davr adabiy jarayoni.

**Davrning tarixiy sharoiti.** XVI asr siyosiy hayotda katta o'zgarishlar bilan boshlandi. Hukmron sulolalar almashishi yuz berdi. 137 yil Movarounnahr va Xurosonni boshqargan temuriylar sulolasi o'mini shayboniylar egalladi. Temuriylar sultanatining so'nggi vakillari tanazzulga uchradi – Husayn Boyqaro vafot etib, shahzodalar parokanda bo'ldi. Bebur esa o'z vatanidagi parokandalikning, siyosiy tarqoqlikning qurbanini bo'lib, yurtini tark etdi. Kobul, undan Hindistonga o'tib, uch asrdan (332 yil) ko'proq hukm surgan boburiylar sultanatiga asos soldi.

Muhammad Shayboniy o'zbek urug'inining shabon sulolasidan bo'lib, Dashti Qipchoqdagi o'zbek davlatining asoschisi Abulxayrxonning nabirasi edi.

Shayboniyxon 1499-yilda Buxoroni, 1500-yilda Samarqandni, 1505-yilda Xorazmni, 1507-yilda Xuroson poytaxti Hirotni egalladi.

1510-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shini bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. So'ng taxtga amakisi Ko'chkunchixon (1510-1530), o'g'li Abusaid (1530-1533), Shayboniyxonning jiyaniga Ubaydulloxon (1533-1539), keyin Abdullo I (1539-1540), Abdulatif (1540-1551) chiqdilar. 1550-yillarda shayboniylar orasida toj-taxt uchun kurash kuchaydi. Abdullo II ning qo'li baland keldi. U Xuroson va Movarounnahrni birlashtirib yagona sultanatga aylantirishga harakat qildi. Xalqning turmushini yaxshilash, ma'naviy dunyosini boyitish yo'lida ko'p tadbirlarni amalga oshirdi. Uning faoliyati haqida tarixiy manbalarda ko'p ijobjiy fikrlar bayon etilgan. Ammo, u 1598-yilda o'g'li

Abdulmo'min tomonidan zaharlab o'ldiriladi. Amakisi, uning o'g'illarini ham qatl ettiradi. Nizomiy "padarkush shoh bo'lolmaydi, bo'lsa ham olti oydan oshmaydi" deganidek, olti oydan keyin u ham amirlari tomonidan o'ldiriladi. Taxt Pirmuhammadxon qo'liga o'tadi.

1599-yilda Astraxanlik o'zbeklardan Boqimuhammad (1599-1605) avval Samarqandni, keyin Buxoroni egalladi. Shundan 150 yil davom etgan Ashtarkoniylar davri boshlandi. Bu davrda ham siyosiy hayotdagি beqarorlik, parokandalik davom etdi. Amir Temur davridagi barqaror, mustahkam, markazlashgan yirik saltanat orzu va armonga aylanib qoldi. Mamlakatdagи ichki tarqoqlikdan tashqari, Eron podshohi Shoh Abbas, Hindiston hukmdorlari Shohjahon va Avrangzebler ham bobolari Mirzo Bobur uchun armon bo'lgan mamlakatni olishga intilishardi. Bu kurashlar, albatta, yurting siyosiy va madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi. Jumladan, ashtarkoniylardan bo'lgan Buxoro xonlari Abdulazizzon bilan Subhonqulixon o'rtasidagi uzoq yil davom etgan kurash taloto'larini va oqibatlarini shu davrda yaratilgan tarixiy asarlardan, ayniqsa, voqealarning bevosita kuzatuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan Turdi Farog'iy asarlari talqinidan anglab olishimiz mumkin. Yoki Xorazm xonligini talashishgan aka-uka Habash va Elborslar o'z otalari Arabmuhammadxonning ko'zlarini o'yib olishi va qatl etishi kabi jaholatlarning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shu davrlargacha Movarounnahr Sharq mamlakatlariaro savdo yo'li sifatida katta mavqega ega edi. Dengiz suv yo'llarining ochilishi uning bu rutbasiga putur etkazdi. XVI-XVII asrdagi tarqoqlik natijasi sifatida XVIII asr boshlarida mavjud ikki xonlik uch xonlikka (Buxoro, Xeva, Qo'qon) bo'linadi.

Ammo, bu fikrlardan butun jamiyat inqirozga yuz tutgan, madaniyat va adabiyot tanazzulga uchragan degan xulosaga kelish kerak emas (ayrim ilmiy ishlarda shunday fikrlar ham bayon etilgan). Chunki har qanday mushkul vaziyatlarda ham, inson hamisha ezgulikka, taraqqiyotga intiladi. Eng g'amgin, qorong'u

kunlaridan ham umid izlaydi. Shuning uchun ham, bizga bu davrlarda yaratilgan ulug' meros etib kelgan.

Ma'lumki, Sharq mamlakatlarda davlat boshliqlari, podshohlarni har tomonlama yetuk, qomusiy donishmand, ijodkor inson sifatida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Shu sababli, ularning ko'pchiligi badiiy ijod bilan shug'ullanish iqtidoriga ham ega bo'lishgan. Abulg'ozi, Bobur, Qul Ubaydiy, Amiriy, Feruz kabi (shu davrda yashab ijod etgan) allomalarimiz o'zlarining ana shunday nodir layoqatlarini namoyon eta olganlar. Ular hukmdor sifatida qattiqqo'l siyosatchi bo'lsalar-da, ijodkor qalb bilan hayotning turfa evrilishlari oldida iztirobga tushishgan. Dunyo va bashariyatni kamolga yetkazish dardi bilan yashashgan. Mamlakat ravnaqi yo'lida imkonlar izlashgan. Ular o'z saroylariga uzoq-yaqindagi barcha ijodkorlarni yig'ib, rahnamolik qilganlar. Ko'plab ijod chashmalari ko'z ochishiga da'vatkor va homiy bo'lishgan. Adabiyot va san'atning ko'plab nodir namunalari yaratilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog'liqdir.

**Davrni yorituvchi manbalar.** Bu davrning to'g'ri, obyektiv bahosini berish uchun, albatta, o'sha paytda yaratilgan ilmiy, adabiy, tarixiy manbalarni mukammal o'rganish taqozo etiladi. Chunki ular davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixiy sharoiti, adabiy muhiti haqida ma'lumot berib, falsafiy, ijtimoiy qarashlarni tahlil etish uchun muhimdir.

Bunday asarlar sirasiga Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", muallifi noma'lum "Tavorixi guzidan-nusratnoma", Kamoliddin Binoyining "Shaybonynomma", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Boburning "Boburnoma", Zayniddin Mahmud Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe" Husayn Voiz Koshifiyning "Rashahot aynul-hayot", Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro", Maleho Samarqandiyning "Muzakkiri ashob", Fazliy Namangoniyning "Majmuayi shoiron", Vozehnning "Tuhfat ul-ahbob", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Mirmuhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullonoma", Hakimxon To'raning "Muntaxab

ut-tavorix”, Munis, Ogahiy, Abulg’ozining tarixiy asarlarini kiritish mumkin.

Bu asarlarning mohiyati faqat davrning muhim tarixiy, siyosiy hodisalari haqida ma’lumot berish bilangina cheklanmaydi. Balki, u asarlar keng qamrovli, qomusiy mazmunga egadir. Ularda zamonning adabiy va madaniy hayotiga, iqtisodiyotiga, etnografiya, toponimiyasiga doir ma’lumotlarni ham uchratish mumkin.

*Memuar va tazkirananavislik.* Davr hayotini tasavvur qilishimizda tazkira va memuar asarlarning ham katta o’rnii bor. Jumladan, *Zayniddin Vosifiyning “Badoe ul-vaqoe” asari* badiiy-memuar janriga mansub. U “Boburnoma” bilan bir janrga kiradi. Ammo, undan tasvir uslubi, voqealarga munosabati, badiiylikning nisbati nuqtayi nazaridan farqlanadi. “Badoe ul-vaqoe”da muallifning munosabati yaqqolroq seziladi. “Boburnoma”da esa izchil tarixiylik tamoyili ustunlik qiladi. Vosify asarining qahramonlari turli soha vakillari. Unda sultonlar, musiqachilar, naqqoshlar, rassomlar, adiblar kabi xalqimizning ko‘plab ulug‘ alloma farzandlari haqidagi qiziq hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Solnomada ularning hayoti va ijodi bilan bog‘liq voqeahodisalar, qiziqarli ma’lumotlar bayon etilgan. Asarda biz boshqa manbalarda uchratmagan muhim dalillarni kuzatamiz. Muallif bevosita o‘zi guvohi bo‘lgan, insonlardan eshitgan ishonchli fikrlarni o‘quvchilar diqqatiga havola etadi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek, Firdavsiy, Navoyi, Binoyi, Qul Ubaydiy, Muhammad Solih kabi allomalarimiz taqdiri bilan bog‘liq noyob hodisalar tasviri yangiligi, ishonchliligi, aniqligi bilan ilmiy qimmatga ega va muhimdir. Ulug‘bek haqidagi hikoyatlarda uningadolati, davlat boshqaruvtizimi, ilm-fanga muhabbatasi va e’tibori namoyon bo‘lsa, Firdavsiy va Navoyi shaxsiyatiga oid va Qul Ubaydiyning ijodiy salohiyati borasidagi yangiliklar tasavvurlarimizni yanada kengaytiradi.

“Badoe ul-vaqoe” bir necha marta fors tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. 1826-yilda Dilovarxo‘ja, keyinchalik Ogahiy, Naim Norqulovlar tarjima qilishgan.

Zayniddin Vosifiyning bizgacha faqat “Badoe ul-vaqoe” asarigina etib kelgan. Tarixchining hayoti va ijodi borasida xulosalarni shu asar asosida chiqaramiz. Asardagi ma'lumotlardan kelib chiqib, muallif taxminan 1485-1486-yillarda Hirotda tug'ilgan degan xulosaga kelamiz. Uning otasi Abdujamil olim va ma'rifatli, ijodkor inson edi.

Zayniddin ziyoli oilada tarbiya ko'rgani sababli yoshligidan she'riyatga, adabiyotga, ilmga qiziqqan. Kitobga muhabbatি baland bo'lgan. U 15-16 yoshlaridanoq, shoir, olim sifatida tanila boshlagan. U lirik she'riyat va nasr yo'nalishida ijod qilgan. Ayniqsa, XV-XVI asr Hirotda adabiy muhitida eng murakkab janr hisoblangan muammolar yaratishda, yechishda eng mahoratli va mashhur ijodkor edi. Kichik hikoyalalar yaratishda benazir, mashhur tarixiy shaxslar haqidagi xotiralarini badiiy hikoyalarga aylantirib bayon etishda unga teng keladigani yo'q edi. Bunday mahoratiga dalillarni biz “Badoe ul-vaqoe”da ko'plab ko'rishimiz mumkin. U Hirotda madrasani tugatib, Husayn Boyqaroning o'g'illariga mudarrislik qiladi.

XVI asr boshlaridagi temuriylar tanazzuli, avj olgan jangu jadallar sababli Vosifiyning sargardonlik hayoti boshlanadi. 1507-yil Hirotda Shayboniyxon, Xuroson Eron shohi Ismoil Savafiy tomonidan ishg'ol qilinganidan keyin u Eron, Xuroson, Movarounnahr, Samarqand, Buxoro, Sabron (Turkiston shahridan 40-50 km.), Farkat, Toshkent, Sahrisabz shaharlariga safar qiladi.

“Badoe ul-vaqoe” 1532-yilgacha bo'lgan voqealarni qamrab oladi. Vosify hayotining so'nggi yillari Toshkentda kechadi. 1566-yilda shu erda vafot etadi.

“Badoe ul-vaqoe” Xuroson, Movarounnahr, Turkiston va Erondagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan birga ilmiy-adabiy jarayon, madaniy hayot, mashhur ajdodlarimiz dunyoqarashi, yashash va ijod qilish tamoyillari borasida chuqur ma'lumot beruvchi nodir asardir. Undagi mushoira, munozara, suhbat kechalari haqidagi lavhalarni o'qiganda, ajdodlarimizning idrok va tafakkur qamroving naqadar bepoyonligini anglaymiz. Jumladan, Keldimuhammad Sulton saroyidagi Jomiy she'riyati,

Ubaydulloxon saroyidagi muammo janri borasidagi bahsmunozara manzarasi bizni ulug' moziy sari etaklaydi. Bobokalonlarimiz tafakkur olamining sarhadlaridan voqif etadi. U davralardagi samimiylilik va teran mushohadalar bizni havaslantiradi. Asarda esa bunday lavhalar sanoqsiz. Ular bilan tanishish bizni kamolotga boshlaydi.

Asarni rus sharqshunosi A. N. Boldirev ilk bor ilmiy tadqiq etib, 1954-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning tanqidiy matnnini 1961-yilda 2 jildda nashr ettirgan. Mazkur matnni olim 25ta qo'lyozmani o'zaro qiyoslash asnosida amalga oshirgan. 1971-yilda tojikistonlik olim Kamol Ayniy tomonidan Tehronda asarning ikkinchi nashri e'lon etildi.

Mazkur asar ustida Sadriddin Ayniy ham tadqiqotlar olib borgan. 1956-yilda izlanishlari natijasi o'laroq, "Vosifiy va xulosai "Badoe ul-vaqoe" kitobi nashr etilgan. Asar tarkibini shartli ravishda 2ga bo'lish mumkin: 1) Movarounnahr safari; 2) Xuroson safari.

*Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asari* tazkira janriga mansub. Unda XVI asr Movarounnahr, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Sharqiy Turkiston va Hindistonda yashagan 288 ta ijodkor haqidagi ma'lumot jamlangan. "Muzakkiri ahbob"ning hozirgacha jahon kutubxonalarida saqlanayotgan 14 ta qo'lyozma nusxasi ma'lum. Shundan muallif hayotligida ko'chirilgan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. 1969-yilda Pokistonda Angliyadagi 1, Hindistondagi 3 nusxa asosida asarning ilmiytanqidiy matni ham yaratilgan.

Asar ilk bor 1993-yilda sharqshunos olim Ismoyil Bekjonov tomonidan Toshkentdag'i nusxalar asosida fors tilidan o'zbekchaga o'girilib chop etilgan.

Tazkirada Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiran ush-shuar" va Navoyining "Majolis un-nafoyis" asari an'analari davom ettirilgan. Nisoriyning e'tiroficha, tazkirani yaratishdan maqsad "... Amir Alisherning "Majolis un-nafoyis"idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va

ularning yoqimli nafaslari isini toliblarning jon dimog‘iga etkazish” bo‘lgan.

Tazkira “Maqola” qismi, 4 bob va xotimadan iborat. Maqola Chingiziy va Chig‘atoy sultonlariga, xususan, shayboniylar, temuriylar, boburiylardan yetishib chiqqan ijodkorlarga bag‘ishlanadi. Birinchi bobda muallif uchrashmagan va bu olamdan o‘tgan ulug‘lar borasida hikoya qilinadi. Ikkinci bob Nisoriy uchrashgan va dunyodan ketganlar haqida. Uchinchi bob tazkiravisi uchrashgan va hozirda hayot zotlar haqida. To‘rtinchi bob muallif uchrashmagan va hozir yashayotgan tabarruk kishilar haqida. Xotima qismini esa u bobosi, otasi, amakisi, aka-ukalari kabi yaqin qarindoshlaridan yetishib chiqqan ijodkorlar zikriga bag‘ishlaydi.

Asardan Shayboniyxon, Ubaydulloxon, Bobur, Majlisiy, Muhammad Solih, Husomiy, Najmiddin Kavkabiy, Xoja, Komron, Bayramxon, Mushfiqiy kabi buyuk allomalarimiz faoliyatları borasida keng tafsilotlar olishimiz mumkin. O‘rnı bilan Jomiy, Navoyi, Husayn Boyqaro, Husayn Voyiz Koshifiy kabi mashhur ustoz ijodkorlarga oid alohida muhim va noyob dalillarga ham duch kelamiz. Undagi ma’lumotlarning aniq va noyobligi mazkur tazkiraning ilmdagi benazir qimmatini belgilaydi.

Tazkirada ijodkorlar faoliyatining yoritilishi orqali XVI asr madaniy, ilmiy-adabiy jarayoni borasida mukammal tasavvur uyg‘otildi. Unda faqat adabiyot, she’riyat muhitigina emas, balki musavvirlik, musiqa, xattotlik, miniatyura kabi san’atning turli yo‘nalishlari qamrab olinadi va yetarli darajada baholanadi.

Asarda muallif iste’dodli, hassos va yetuk shoir sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, kitobxonda talabchan va sinchkov adabiyotshunos olim sifatida ham taassurot qoldiradi. U tazkirada asarlarni tanlash, ularni talqin va tahlil etishda o‘ziga xos mezonlarga amal qiladi. Ba’zan birligina keltirilgan baytni sharplash orqali ijodkor faoliyatini aniq va mukammal baholashga erishganligining guvohi bo‘lamiz. Ba’zi ijodkorlar haqidagi xulosalarni “Majolis un-nafoyis” bilan qiyoslaganda, Navoyi fikrlari bilan mutanosiblikka duch kelamiz (Husomiy Xevaqiy

v.b.). Ayrim ijodkorlarga baho berilganda, jo‘g‘rofiy dalillarning ilmiyligi, aniqligi muallif bilimi, dunyoqarashi, tafakkuri va iste’dodining keng qamrovidan, cheksizligidan dalolat berib turadi (Qul Ubaydiy v.b.).

Unda ijodkorlar faoliyatiga baho berish bilangina cheklanilmaydi. Ularga bog‘liq ravishda, jo‘g‘rofiy, handasaviy, astronomik, fizik, zoologik, tabiatshunoslikka oid ma’lumotlar berishga ham e’tibor qaratiladi. Bular unga qomusiylik bag‘ishlaydi. Asar o‘zining qomusiy xarakteri bilan avval yaratilgan tazkiralardan ustunlik kasb etadi. Bu borada asarning, ayniqsa, muqaddima qismi muhim o‘rin tutadi. Unda Buxoro, Hindiston kabi hududlar haqida nodir dalillarni uchratamiz. Mazkur ma’lumotlar hozirgacha ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Xususan, adabiyot nazariyasi, adabiy hodisalarga oid yangidan-yangi dalillar bu sohalarni rivojlantirish, taraqqiy ettirishga qo‘shilgan ulkan hissa sifatida baholanmog‘i lozim.

Bu davrda Nisoriydan keyin ham bir qancha tazkiralardan yaratildi. Jumladan, *Sultonmuhammad Mutribiyning 1604-1605-yillarda tuzilgan “Tazkirat ush-shuaro”*sida XVI asr 2-yarmi – XU11 asr boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiylar Turkiston, Eron, Turkiya, Iroq, Yaman mamlakatlarda yashab ijod etgan 343ta iste’dod sohibi haqida ma’lumot berilgan. Ular orasida shoir, musiqachi, xattot, musavvir, naqqoshlarni uchratamiz. Adabiy muhitlar, ular o‘rtasidagi adabiy ta’sir va aloqalar masalalari yoritilgan.

Tazkiradan Ulug‘bek madrasasi devoriga chizilgan dunyo xaritasi, muhandislik ixtirolari, ayrim tarixiy voqealar haqida ham muhim ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Tazkirada muallifning qomusiy bilim qamroviga egaligi yaqqol namoyon bo‘ladi. U biror ijodkor faoliyatiga baho berar ekan, u bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy-nazariy, tarixiy, manqabaviy manbalardagi dalillarga murojaat etadi. Ular bilan kitobxonni tanishtirib ketadi. Ba’zan o‘z mulohazalarini to‘ldiruvchi muhim matn va manbalarni tavsiya etish usulidan ham foydalanadi. O‘quvchi e’tiboriga yangidan-yangi asarlarni havola etib boradi.

“Tazkirat ush-shuaro” Samarqandda Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadga bag’ishlab yaratilgan. Ammo asar yozib tugatilganda, xon vafot etib, o’rniga ukasi Vali Muhammadxon Buxoro bosh xonlik taxtiga o’tiradi. Shu sababli, asarning bag’ishlov qismida Vali Muhammad ismi ham keltiriladi va muallif asarni unga tuhfa etadi.

Asarning dunyoda yagona hisoblangan, muallif qo’li bilan ko’chirilgan dastxat qo’lyozma nusxasigina mavjud. U O’zbekiston FA ShI qo’lyozmalar fondida 2253 raqami ostida saqlanadi. Keyinchalik tazkira tojikistonlik olim A. Jonfido tomonidan mazkur qo’lyozmadan qayta ko’chirilgan nusxa asosida eronlik adabiyotshunos A. Marvdashtiy bilan hamkorlikda 1999-yilda chop ettirildi.

“Tazkirat ush-shuaro” o’ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. U mumtoz an’anaga ko’ra hamd va na’t bilan boshlanadi. So’ngra muallif kitobning yozilishiga sabab va turtki bo’lgan holatlarga to’xtaladi. Ijodkor, shoirlarning jamiyatdagi o’rni, bebafo xizmatlarini e’tirof etadi. Muallif o’zigacha yaratilgan tazkiralari, ularning adabiy jarayondagi o’rni haqida so’zlaydi. Salaflari Davlatshoh Samarqandiy, amir Alisher Navoyi va Mutribiyga bevosita ustozlik qilgan Hasanxoja Nisoriyning tazkiralarini alohida e’tibor va ehtirom bilan tilga oladi. Ayniqsa, “Muzakkiri ahbob”ga “oliy bayonli kitob”, “kitoblarning eng sarasi”, deya yuksak ta’riflar beradi. Ustozining tadqiq va tahlil uslubining mukammal va teranligini ehtirom bilan ta’kidlaydi.

Shundan so’ng o’zi ham ularning ezgu ishlarini davom ettirish maqsadida zamondosh shoir va fazillarning mo’tabar ismlari va faoliyatlarini “bitik qaydi”ga kiritganini xabar beradi: “Yaxshilar ravishiga ergashmoq savobli ish deydilar. Shu sabab bu gunohlarga to’la yo’qsil kamina imkon doirasida zamondosh shoirlar va fazillarning atoqli otlarini bitik qaydig’a kiritmoqqa urinib, ularning salim tab’lari fikrlarining nodir mahsuli va mustaqim zehnlari natijalariga tartib libosi va islohot kiyimini kiydirib, har sohada mos oyatlaru hadislar va hikoyatlar hamda turli-tuman ajib ixtiro’ ishlar va badi’ usullar qo’llab, boshlanishining tarovati va

yakunlanishining uforidan latofat va malohat nasimi ufurib turuvchi, baland maqomi ustunlarining matla va maqtasidan qalb osmoni ufqida dilpazir ma'nolar quyoshi charaqlab turuvchi bir kitob yaratdim”<sup>1</sup>.

Asarning yaratilish tarixi izohlanganidan so'ng, davr podshohi Vali Muhammadxonga an'anaviy bag'ishlov keltiriladi. Unda xonning ilmparvar, saxovatli, adolatli boshqaruv usuli ta'riflanadi va kitob unga sovg'a, baxshida etiladi.

Muqaddima so'ngida muallif asarning tuzilish tarkibi haqida ham alohida to'xtaladi. Unga ko'ra asar tasmiya<sup>2</sup> va uch qismdan tarkib topadi. Muallif shoirlar ismlarini odatdagagi alifbo tartibida emas, abjad<sup>3</sup> tartibi bilan joylashtirgan: “Tasmiya mamlakat olmoq martabasi va yurt boshqarmoq rutbasi ulug' vorligiga qaramasdan, ma'nolar o'lkasi va so'zamollik maydonida fasohat bayrog'i va notiqlik tug'ining sanjog'ini hilpiratgan maqsadi hosil xoqonlar hamda nomi mashhur sultonlar “bo'lib, u uch qismdan iboratdir.

Birinchi qism ushbu satrlar muallifi ularni ko'rgan, xizmatlariga yetishish izzati bilan e'zoz topgan podshohlarning humoyun maqtovi va baxtiyor vasflari bayonida.

Ikkinci qism muallif ularni ko'rgan, ammo xizmatlari sharafini topmagan podshohlarning ahvoli bayonidadir.

Uchinchi qism muallif ularni ko'rmagan, balki vasflarini boshqalardan eshitgan sultonlar zikridadir”<sup>4</sup>.

Ko'ringanidek, tasmiya qismida 17ta ijodkor sulton faoliyati yoritilgan. Keyingi alifbo harflari bo'limida, ijodkorlar ismi shariflarining bosh harflariga ko'ra joylashtiriladi. Harflarning har biri esa, muallif zikricha, uch nuqtadan iborat:

“*Alifbo harflari* bo'limi she'r dagi taxalluslari o'sha harf bilan boshlanuvchi shoир va fozillar zikrida bo'lib, mazkur harflarning har biri *uch nuqtadan* iboratdir.

Birinchi nuqta muallif ularni ko'rgan, xizmatlariga etishgan va she'rlarini o'zgalar vositasisiz qo'lga kiritgan fozillar zikridadir.

<sup>1</sup>Mutribiy Samarqandiy. Tazkiraт ush-shuarо. -T: Mumtoz so'z, 2013, 13-bet.

<sup>2</sup>Tasmiya – ism ko'rsatkichi.

<sup>3</sup>Abjad – arab alifbosining 1dan 1000 gacha bo'lgan sonlarin belgilashda foydalilanildi. Undagi birinchi harflarbirikmasi nomi bilan “abjad” (a,b,j,d) deb nomlangan.

<sup>4</sup>Mutribiy Samarqandiy. Tazkiraт ush-shuarо. T.: Mumtoz so'z, 2013, 17-bet.

Ikkinchi nuqta muallif ularni ko'rgan, ammo xizmat qilmagan, she'rlarini esa o'zgalar orqali qo'lga kiritgan shoir va fozil kishilar zikridadir.

Uchinchi nuqta muallif ularni ko'rmagan va she'rlaridan boshqalar vositasida xabar topgan shoirlar zikridadir”<sup>5</sup>.

Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”si qomusiy xarakterga ega. Unda adib allomalar faoliyati borasidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda adabiyot nazariyasiga tegishli noyob xulosalar, ilmiy yangiliklarni ham kuzatamiz. Muallif asarining o'ziga xos xislatlari haqida so'zlar ekan, shu davrgacha tazkiranavislar e'tibor qaratmagan yangi jihatlarini ta'kidlaydi. Mavjud usullarni esa yanada takomillashtirishga harakat qiladi. Asarda keltirilgan barcha she'riy namunalarning vaznini ham aniqlab, qo'lyozma hoshiyasiga yozib qo'yganini e'tirof etadi: “Va bu so'zlar roqimining hali hech bir muallifning iltifot nuri bul fanda unga shu'la sochmagan maxsus ishlaridan biri shuki, qayerda g'azal yoki qasida yoxud shunga o'xshashlar havola etilgan bo'lsa, aruz o'lchov ruknlari bilan uning bahr nomlarini ma'lumotnomaya yo'sini bo'yicha qo'lyozmaning o'shal she'r yozilgan joydagi varaq hoshiyasiga raqam qilindi”<sup>6</sup>.

Asarda adabiyotdagi ramzlarga boy, taddiq etish murakkab bo'lgan tasavvuf haqida, mutasavvuflarning dunyoqarashini anglash, asarlari, faoliyatları zamiridagi teran ma'no sarhadlarini zabit etish borasida ham muallif noyob iste'dodga egaligini namoyon eta oladi. Hazrati Alining bir mulohazasini keltiradi. Uni o'z xulosalari bilan yanada rivojlantiradi va soliklar uchun dunyoning ham, oxiratning ham hech qanday ahamiyati yo'qligi, ular hayotning mohiyatini ilohiylikda deb tushunishlariga ishora etadi.

Mutribiy o'z asarini tarixiy voqealar, she'riy namunalar taqdimidan tashqari, kichik va qiziqarli hikoyatlar bilan ham bezaydi. Bu qo'yilgan muammoni yoki ijodkor faoliyatini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi, yanada joziba bag'ishlaydi.

<sup>5</sup>Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush- shuaro T.: Mumtoz so'z, 2013, 17-bet.

<sup>6</sup> Mutribiy Samarqandiy. Tazkirat ush- shuaro T.: Mumtoz so'z, 2013, 17-bet.

Jumladan, Abdulloxon II, Nuh alayhissalom haqidagi hikoyalar ana shunday nodir adabiy namunalardandir.

Muallif adabiy parchalarni tahlil etar ekan, ularning chuqur ma’no qirralariga e’tibor beradi. Aniq, tushunarli tarzda tahlil va tadqiq etadi. Badiiy tasvir vositalarining eng murakkab turlarini ham izohlab, sharhlashga harakat qiladi. Jumladan, Alfiy Shomiy faoliyatini baholay turib, uning noyob tasvir vositalaridan unumli foydalanganini e’tirof etadi va bir misol keltiradi. Unda tadvir (mudavvir-N. J., I. A.) san’ati qo’llangan. Muallif shu o‘rinda tadvir san’atini batafsil ta’riflaydi. “Hadoyiq us-sehr” (Rashididdin Vatvot) asaridagi mukammal sharhga ishora qiladi. Hatto, uning shaklini chizib ham ko’rsatadi: “She’riy san’atlardan bexabar emasdi va tadvir (she’r so‘zlarini doira shakli ichiga joylashtirish) san’atida bir bayt bitib menga ko’rsatdi.

Bilgilki, tadvir san’ati shundaykim, nazm qiluvchi hazaji musammani solim bahrida to’rt ruknni o‘z ichiga oluvchi bir misra aytadi va uni doira shaklidagi yozuvga, qaysi bir ruknni o‘qisa, mavzun misra va muqaffo hosil bo‘luvchi yo‘sinda bitadi. Buni ushbu doiradan bilsa bo‘ladi. Yashirin qolmasinkim, “Hadoyiq us-sehr” kitobining muallifi bu san’atni “bolalar o‘yini” deb atagan”<sup>7</sup>.

Tazkirada adiblar faoliyati yoritilar ekan, o‘rni bilan adabiy tahlilning noyob namunalarini yaratilganining guvohi bo‘lamiz. Badiiy san’atlar, turli tasviriy vositalar inkishofini kuzatamiz. Davr adabiy jarayonida faol qo’llanilgan, takomillashtirilgan janrlar tadqiqi bilan tanishamiz. Jumladan, Ashkiy Samarqandiyning she’riyatiga yuqori baho beradi. Muammo, qasida kabi janrlardagi mahorati aniq, tushunarli tilda, noyob, jozibali uslubda yoritiladi: “Yaxshi tab’i so‘zamollikda tengsiz va she’rlari ma’nolari g‘oyatda dilga o‘rnashuvchidir. She’r aytishda tab’i aniqlik ko’rsatadi va pokiza ma’nolarni nazm libosiga burkaydi.

Turli ilmlar bo‘yicha tahsil olib, mavlonolik kasb etgan. Muammo fanida o‘ta bilimdon bo‘lib, amallari tafsilini takmil qilib, ma’nolarni aniqlash bobida mushkila muammolarni juda oson yechib, fazl to‘pini yaqinlari qo‘lidan olib ochadi. Ko‘pgina

<sup>7</sup>O’sha asar, 98-bet.

she'rlari Iroq tarzi bilan bezangan. Qasidago'ylikda ham tili burrodir. Badiiy ma'nolarni latif so'zlar bilan yozadi”<sup>8</sup>.

Keltirilgan ayrim asarlarning vaznlari aniqlanadi. Har bir bob kichik muqaddima-debocha bilan boshlanadi.

Mutribiy 1627-yilda “*Nusxayi zeboyi Jahongir*” tazkirasini ham tuzadi. Unda 300dan ortiq muhojir Movarounnahrlik ijodkorlar zikr etilgan.

1692-yilda Maleho Samarcandiy “*Muzakkiri ashob*” tazkirasini yaratdi. Unda 160 alloma zikri berilgan.

1821-yilda Fazliy Namangoniy “*Majmuai shoiron*” tazkirasida 93<sup>9</sup>, 1871-yilda Qori Rahmatulloh Vozeh “*Tuhfat ul-ahbob*” tazkirasida esa 145 shoir borasida ma'lumot beradi.

XVI-XIX asr I yarmidagi tazkirananavislik tarixini kuzatib, shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Bu davrda yaratilgan tazkiralar Navoyining “Majolisun-nafoysis”i an'analarini davom ettirgan.

2. Tazkirananavislik takomillashtirilgan. Turli yangiliklar kiritilib, ularning ilmiy qimmatini yanada oshirishga erishilgan. Bu borada, ayniqsa, Hasanxoja Nisoriy va Mutribiyning faoliyati muhim.

3. Tazkiralardagi ma'lumotlar boshqa manbalarda uchramasligi, davr madaniy hayoti, adabiy muhiti haqida yaxlit va yangi tasavvur uyg'otishi bilan ham qimmatlidir.

4. Ayrim tazkiralarda qomusiy, ilmiy qamrov ko'zga tashlanadi. Adabiyot nazariyasи, adabiyot tarixini yorituvchi va boyituvchi muhim ma'lumotlar ko'pligi bilan ham noyob va qimmatlidir.

*Tarixnavislik va uning takomil tamoyillari.* Yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur davrni har tomonlama izohlash, xarakteristika berish, yaratilgan meros namunalarini to'g'ri anglash va talqin etishda tarixnavislikning muhim o'rni bor. Tarixiy asarlar davrni ko'zgudagidek tiniq namoyon etib bera oladi. Biz ular yordamida siyosiy-ijtimoiy hayotni ham, ajdodlarimiz dunyoqarashiyu tafakkur ko'lamini ham, adabiy muhit va jarayonni

<sup>8</sup>O'sha asar, 93-94-betlar.

<sup>9</sup>Tazkiraning turlidavrлarda ko'chirilgan nusxalaridajodkorlar miqdoribir-biridan farqlanadi.

ham mukammal va aniq tasavvur etish imkoniga ega bo'lamiz. Shunday muhim asarlardan biri *Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma"* sidir. U tugallanmay qolgan bo'lsa-da, XVI asr hayoti borasida batafsil tasavvur uyg'ota oladi. Ushbu manba shayboniylar sulolasining so'nggi xoni Abdullaxon II hukmronligi tavsifiga bag'ishlangan. U Movarounnahr ravnaqi, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalar taraqqiysi uchun jonfido hukmdorlardan edi. Ammo, umri fojia bilan yakun topadi. O'g'li tomonidan toj-taxt uchun kurashlar jarayonida qatl etiladi.

"Abdullanoma" faqat tarixiy asar emas. Unga Hofiz Tanish Buxoriy mahorati tufayli badiiy asar sifatida ham baho berishimiz mumkin. Tarkibiga kiritilgan "O'g'izzon" kabi hikoya va rivoyatlar asarning ilmiy va badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Ikkinci muhim tarixiy asar *"Tavorixi guzida – nusratnoma"*dir. U 1502-1504-yillarda yozilgan. Muallifi noma'lum. Asar Shayboniyxonning tarixiga bag'ishlangan. Mazmunidan uning saroyda, jangu jadallarda xon bilan yonma-yon yurgan tarixchi tomonidan yozilgani ma'lum bo'ladi. Ushbu manba ma'lumotlarning ko'pligi va aniqligi bilan qimmatlidir.

Bu davrda yaratilgan *Abulg'ozি Bahodirxonning "Shajarayi turk"*, *Munis va Ogahiylarning tarixiy asarlari* ham nodir dalillari, betakror uslubi bilan ahamiyatli manbalardir.

*Davr adabiy jarayonida xalq kitoblarining o'rni*. Sharq mumtoz adabiyoti buyuk sarchashmalarga ega. Uning o'q ildizi xalq og'zaki ijodi manbalaridan boshlanadi. Ulug' allomalardan biri "birinchi shoir va birinchi faylasuf bu xalqdir", degan edi. Haqiqatan ham, xalq ijodi tunganmas xazina. Uning orzu-o'yłarı, dardu armonları, quvonchu tashvishlari – barcha-barchasi badiiy adabiyotda o'z ifodasini topadi. Bu borada jahon adabiyotida o'zbek xalq ijodi kabi boy adabiyot uchramaydi. Ularni turli – qo'shiq, latifa, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, askiya, topishmoq kabi o'nlab janrlarga ajratib o'rganib kelamiz. Ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari, belgilari va tarkiblari mavjuddir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining ko‘plab variantlari mashhur. Jumladan, birgina “Go‘ro‘g‘li” dostonining Ozarbayjonda 17ta, O‘zbekistonda esa 40dan ortiq variantlari bor. Shu yolg‘izgina doston misolida ham o‘zbek xalq og‘zaki ijodi naqadar boy ekanligini tasavvur eta olamiz. “Go‘ro‘g‘li” dostonini Ozarbayjonda chop ettirgan A. Xodako shunday yozgan edi: “uning (“Go‘ro‘g‘li” dostonining – N. J., I. A.) Osiyodagi shuhrati Gomerning Gretsiyadagi shuhrati qadar buyukdir”<sup>10</sup>.

Og‘zaki tarzda yaratilgan bu tipdagи asarlar keyinchalik xalqning talab va taklifi hamda noshirlik ishlарining taraqqiyisi bilan bog‘liq ravishda xalq kitoblari ko‘rinishida chop etila boshlandi. O‘zbek adabiyotshunosligida xalq kitoblari atamasi mavjud. Ammo uning o‘ziga xos belgllari, xususiyatlari, shartlari va talablari kabilar yetarli darajada o‘rganilgan emas. To‘g‘ri, ayrim tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ayrim mulohaza va qarashlar bayon qilingan. Biroq bu masala maxsus, yanada chuqur tadqiq etishni taqozo etadi. Akademik V. Abdullayevning bu boradagi kuzatishlari ilk tadqiqot sifatida ahamiyatli<sup>11</sup>. Unda olim xalq kitoblarining shakllanishi, tadriji, ayrim xos xususiyatlari haqida mulohaza bildiradi. Unga ma‘lum ma’noda ta’rif beradi: “Ana shunday xalqchil dostonlar, jumladan, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonlari ayrim shoirlar yoki Mutribiy va Maleho tazkiralarda zikr etilgan xattotlar tomonidan qalamga olingach, og‘zaki adabiyot bilan yozma adabiyot o‘rtasidagi ko‘prik sifatida xalq kitoblari shaklini ola boshlagan edi”<sup>12</sup>.

V. Abdullayev xalq kitoblari haqida nazariy fikrlarni keltiradi. Uning o‘ziga xos maxsus belgi-xususiyatlarini ko‘rsatishga harakat qiladi. Ammo talqin etilgan xalq kitobi namunalariga biryoqlama yondashuvlar, sinfiylik nuqtayi nazaridan baholash hollari kuzatiladi. Jumladan, muallif Sayyodiyning shoir sifatidagi dunyoqarashini baholar ekan, quyidagi xulosalarga keladi: “Sayyodiyning dunyoqarashi diniy-tasavvufiy ideologiyaning ta’siridan xoli emas. Bu hol “Tohir va Zuhra” dostonining ko‘p

<sup>10</sup> V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”, T.: 1980, 54-bet.

<sup>11</sup> V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”, T.: 1980

<sup>12</sup> V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”, T.: 1980, 54-bet.

o‘rinlarida sezilib turadi. Ba’zan shoir o‘z qahramonlarining xatti-harakatlariga, fikr-qarashlariga tamomila diniy tus beradi. Ularni xudoning iltifotiga, madadiga mute qilib qo‘yadi”<sup>13</sup>.

Bugun mustaqillik sharofati bilan adabiyotshunoslikda yuz ko‘rsatayotgan teranlikdan, bevosita badiiylik mezonlaridan turib talqin etish tamoyillaridan kelib chiqib, mazkur asarlar o‘zgacha yondashuvni taqozo etadi. Shu sababli, ularning har tomonlama: ham mazmun, ham mahorat jihatidan mumtoz adabiyotdagi o‘rnini belgilash, teran tahlil va talqin etish bugunning nihoyatda dolzarb muammolaridandir.

Xalq kitoblari o‘ziga xos xususiyat va belgilarga ega. Ular, asosan, xalq ijodida mavjud syujetlar asosida ma’lum bir ijodkorlar, xattotlar tomonidan ijodiy qayta ishlangan, individual uslub xususiyatlari ega, badiiy jihatdan original asarlar sifatida yaratilgan. Bunday asarlar o‘zidagi sodda, xalqona uslubi bilan el ko‘ngliga juda yaqin va ma’qul bo‘lgan. O‘zidagi ramziyilik, falsafiylik, teranlik xususiyatlari bilan esa yozma adabiyotning taraqqiyoti va takomiliga samarali xizmat qilgan. Ular og‘zaki va yozma ijod o‘rtasidagi mustahkam ko‘prik vazifasini o‘tagan.

Xalq kitoblari atamasining qachondan boshlab ishlatilganligi borasida aniq bir xulosani bayon etish mushkul. U dastlab nemis adabiyotshunosligida XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida ishlatila boshlangan. Olimlarimiz bu atamaning jahon adabiyotshunosligida paydo bo‘lishini F. Engelsning 1839-yilda yaratilgan “Nemis xalq kitoblari” maqolasida qo‘llanilishi bilan bog‘lashadi. O‘zbek adabiyotshunosligida esa V. Jirmunskiy va H. Zarifovlarning “Uzbeksiy narodniy geroicheskiy epos”<sup>14</sup> asarida ilk bor istifoda etilgan. Ammo Sharq adabiyotida xalq kitoblari atamasining qachon qo‘llanilganligidan qat’i nazar, uning noyob namunalarining yaratilish tarixi juda uzoq yillarga borib taqalishi aniq. Hatto, bizga ma’lum bo‘lgan Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston”, Navoyining “Xamsa” asari asosida yaratilgan qator manbalar, Xojaning “Gulzor” va “Miftoh

<sup>13</sup>V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”, T.: 1980, 64-bet.

<sup>14</sup>В. Жирмунский ва Ҳ. Зарифов “Узбекский народный геройческий эпос”. М., 1947, с.286.

ul-adl”, Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi asarlari ko’rsatadiki, xalq kitoblarining turlicha ko’rinishlari asrlar davomida mavjud bo’lgan. O’ylaymizki, ularni bir-biri bilan qiyoslab o’rganish xalq kitoblari tarixi, rivojlanish bosqichlari, turli ko’rinishlari borasida muhim xulosalar chiqarishimizga asos beradi.

Adabiyot tariximizni kuzatsak, ayniqsa, XVIII-XIX asrlarga kelib, xalq kitoblari turkumlari eng yuksak taraqqiyot bosqichiga ko’tarilganini ko’ramiz. Bu davrga kelib xalq ma’naviyatini, dunyoqarashini o’stirishga juda katta e’tibor qaratilgan. Savdosotiq rivojlanishi, dengiz yo’llarining ochilishi natijasida dunyoga keng yo’l topilgan. Natijada, ko’plab fors, ozarbayjon, hind, usmonli turk tilidagi manbalar Mavarounnahr hududiga kirib kela boshlaydi. Hukmdorlar adabiyot, tarjima, madaniy taraqqiyotga katta e’tibor qaratishadi. Navoyi, Nizomiy, Dehlaviy kabi ulug’ ustozlar asarlari qatidagi dono hikmatlarni, axloqiy-falsafiy mezonlarni soddalashtirib xalq ongiga mustahkam singdirish tadbirilarini amalga oshirishadi. Inson qalbi va ongini mudroqlikdan uyg’otish choralarini qidirishadi. Natijada, ana shunday niyat tufayli xalqqa yaqin, soddalashgan, muhim ijtimoiy ahamiyatga ega el adabiyoti rivojlanadi va yuksak bosqichga ko’tariladi.

Taniqli adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat ham o’z tadqiqotlarida xalq og’zaki ijodi va xalq kitoblari borasida muhim xulosalarini bayon etadi. Olim xalq adabiyotini el adabiyoti deb ataydi. Vadud Mahmudning fikrlarini e’tirof eta turib, o’zining bu boradagi qat’iy xulosalarini bayon etadi. U xalq og’zaki ijodining xos xususiyatlarini nihoyatda aniq va tushunarli tarzda belgilab beradi. Jumladan, el adabiyotini shunday izohlaydi: “V.Mahmudning gapi juda to’g’ri. Bu ikki turli adabiyot orasidagi farqni yozmoq, yozilmag’anliqda yoki egasining belgili belgisiz bo’lg’onida ko’rmak yanglishdir. Shunday bo’lsa ham, bizning san’atkor adabiyotimizga qarshu o’zining samimiyligi, soddaligi bilan o’z borlig’ini saqlab kelgan bir adabiyotning borligi-da

ma'lumdir. Biroq buning ayirmasi yozma bo'lmashligida yo egasining ma'lum emashligida emas, o'zining ruhidadir”<sup>15</sup>.

Olimning bu fikrlari, biz folklor asarlariga baho berganimizda, uning ruhidan kelib chiqishimiz lozimligini ko'rsatadi. Bu ma'lum ma'noda folklorshunoslikning taraqqiyot tendensiyalarini belgilab beradi. Uning quyidagi fikrlari ham el adabiyotining mumtoz badiiy adabiyotdan farqli xususiyatlarini aniqlashda, yondashuvni teranlashtirishda muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi: “Mana el adabiyotini “adabiyot”dan (tor san’atkorona adabiyotdan) ayirg'an narsa, uning yozilmag'anligi emas, uning ruhidadir. U soddadir, tabiiydir, ko'bchilikning zavqiga yararliqdır”<sup>16</sup>!

Olim el adabiyoti janrlarini sanar ekan, doston haqida so'zlayotib, “Alpomish”ni eslaydi. So'ngra el adabiyotidan yozma adabiyotga o'tgan doston nomlarini sanab o'tadi: “Bundan burun ham yozishga o'tkarilgan el dostonlari bizda ko'bdir. “Sanavbar”, “Tohir Zuhra”, “Bahrom Gulandom”, xevalik Nurmuhammad Andalibning “Yusuf va Zulayho” hikoyasi shu yo'sunda yozilg'an, hatto, bosilg'an el dostonlarimizdandir”<sup>17</sup>.

E'tibor bersak, Fitratning xalq adabiyoti haqida aytilgan “soddalik, tabiiylik, xalqonalik” kabi xususiyatlarni biz bemalol xalq kitoblariga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin. Chunki madaniy merosimizning mazkur turiga oid namunalarni kuzatar ekanmiz, bu belgilarning xos xususiyat sifatida namoyon bo'lishini ko'ramiz. Ularning barchasida xalqonalik, tabiiylik, soddalik kabi samimiylilikni ta'minlovchi fazilatlarning guvohi bo'lamiz.

Adabiyotshunos olim R.Jumaniyozov xalq kitoblari borasida maxsus izlanishlar olib borgan. Uning bir qancha xos xususiyatlarini, janriy tarkibini, mavzu qamrovini, badiiy qimmatini aniqlashga harakat qiladi. Mazkur atamaning adabiyotshunoslikdagi mavjud tarixi bilan tanishtiradi. Jumladan, uzoq yillar u “qissa” atamasi bilan nomlangani, keyinchalik esa “xalq kitoblari” atamasi qabul qilingani; ba'zi olimlar uning tarkibi haqida mulohaza yurgizib, “janr”, ba'zilar “og'zaki epos”, ba'zilar

<sup>15</sup> А.Фитрат. Адабиёт қоидалари.” Ўқитувчи”, Т., 1995, 82-бет.

<sup>16</sup> Ўша асар, 83-бет.

<sup>17</sup> Ўша асар, 88-бет.

“yo‘nalish”, ba’zilar esa “soha” deya turlarga ajratganini ta’kidlaydi. Olim mavjud ma’lumotlarni qiyosan tadqiq etar ekan, bunday asarlarni “xalq kitoblari” degan nom bilan atash ma’qul ekanligini e’tirof etadi: “...uzoq davrlar mobaynida kuylanib, so‘ylanib, tildan-tilga ko‘chib yurgan qo‘shiq, doston, ertak, rivoyat, latifalar zaminida qayta ishlanib, kitobat qilingan, muallifi, ko‘chiruvchisi ma’lum yoki noma’lum bo‘lishidan qat’i nazar, bizgacha etib kelgan, xalq jonli tiliga yaqin bir tilda yaratilgan yozma manbalarni xalq kitoblari atamasi bilan yuritish ma’quldir”<sup>18</sup>.

Xalq kitoblarini maxsus o‘rgangan R. Jumaniyozov uni turli xususiyatlariiga ko‘ra bir qancha guruhlarga ajratadi. Avvalo, kelib chiqishiga ko‘ra ularni ikki turga bo‘ladi:

1. Original xalq kitoblari – milliy zaminda tildan tilga ko‘chib yuruvchi syujet asosida yaratilgan asarlar (Yusuf va Ahmad, Xirmondali, Oshiq G‘arib va Shohsanam, Malikayi Dilorom, Shoh Mashrab...);

2. Tarjima xalq kitoblari – arab, fors, hind tillaridan tarjima asosida yaratilgan syujetlar (“To‘tinoma, Kalila va Dimna, Ming bir kecha, Shohnoma”...).

Xalq kitoblarining nazmiy, nasriy va qorishiq shaklda yaratilgan namunalari mavjud. O‘zbek xalq kitoblarining ko‘pchiligi doston janrida yaratilgan bo‘lsa-da, ayrim nasriy yo‘l bilan yozilgan ertak, latifa, rivoyat shaklidagi namunalar ham uchraydi. Ba’zan esa bir asarning turli janr ko‘rinishidagi namunalari ham uchraydi. Jumladan, “Tohir va Zuhra”ning xalq dostoni shakli mavjud bo‘lishi bilan birga, ertak janrida yaratilgan namunasini ham ko‘ramiz. “Shohnoma” asosida yaratilgan “Rustami doston”, “Qissayı Rustam”, “Jangnomayi Jamshid” singari xalq kitoblarida esa ertak, afsonaga xos xususiyatlarga duch kelamiz. Afandi, Mahmud G‘aznaviy, Amir Temur haqidagi rivoyatlar asosida jamlangan ayrim xalq kitoblarida latifa janriga xos hajviylik xususiyatlarini kuzatamiz.

<sup>18</sup> Р.Жуманийзов. Халқ ижоди – ҳақ ижод. Т.: Ўзбекистон, 1993, 40-бет.

“Anglashilib turibdiki, xalq kitoblari keng ma’noda qo‘llanilib, badiiy ijodning bir turi sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga bir necha janrlar sintezidan ham tarkib topgan ekan. Xalq kitoblarining bunday qorishiq xususiyati esa maxsus tadqiq etilishi lozim bo‘lgan masaladir. Mazkur yozma ijodiyot namunalari bo‘yicha fikr bildirilgan ishlarda, asosan, xalq kitoblarining faqat doston tipidagi ko‘rinishlariga asoslangan xulosalar chiqarish hollari uchraydi. Vaholonki, xalq kitoblarining ertak, afsona, latifa, hikoya tipidagi namunalari ham mavjud bo‘lib, ularni e’tibordan soqit qilish aslo mumkin emas”<sup>19</sup>.

Xalq kitoblarini kuzatadigan bo‘lsak, ayrimlarining og‘zaki adabiyotda ham variantlari borligini ko‘ramiz. Bulardan kelib chiqib, Xalq kitoblarini tadqiq etish ularga turli jihatdan yondashishni taqozo etadi. Janriy, badiiy tasvir usullari, ifoda tarzi, san’atkorlik, og‘zaki va yozma adabiyotga munosabati, mavzu qamrovi kabi masalalarni e’tibordan soqit qilmaslikni talab etadi.

R. Jumaniyozov xalq kitoblarini tadqiq etar ekan, ularni mavzu jihatidan uch turga ajratadi:

1. Qahramonlik mavzusidagi (Qissayi Alpomish, Yusufbek va Ahmadbek, Alibek va Bolibek, Qissayi Jamshid, Qissayi Rustam);
2. Ishqiy-romantik (“Oshiq G‘arib va Shohsanam, Tohir va Zuhra, Yusuf va Zulayho, Bahrom va Gulandom”);
3. Tarixiy syujet asosida yaratilgan xalq kitoblari (“Tulumbiy”, “Shayboniyxon”).

Ko‘rinadiki, xalq kitoblari milliy madaniyatimiz maydonida muhim o‘ringa ega. Ularda xalqimizning dunyoqarashi, urfu-dummlari, qalb tug‘yonlari, dardu armonlari mukammal ifodasini topgan. Ularni o‘qiganda tasavvurda bирgina yoki bir nechagina obraz emas, balki butun millatga xos qiyofa paydo bo‘ladi. Shu sababli ham, xorijiy olimlarning bunday asarlarni o‘rganishga qiziqishi yuqori. Ularga bo‘lgan hayrat xorijiy olimlarning ko‘plarining diqqatini hamisha o‘ziga jalb qilib keladi. Mazkur adabiy meros namunalarini o‘rganishga ruhlantiradi. Jumladan, vengriyalik sharqshunos H. Vamberi o‘z tadqiqotlarida xalq

<sup>19</sup> Ўзга асап. 43-бет.

kitoblari – xalq romanlarining o‘zbek millati madaniyati tarixida tutgan o‘rnini nihoyatda aniq chizib beradi: “O‘zbekistonda bunday romanlar son-sanoqsiz darajada ko‘p bo‘lib, o‘zbeklar, asosan, shu xildagi asarlarni g‘oyat sevadilar. Bunday asarlardan o‘zbeklarning milliy his va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko‘pgina manzaralarni topish mumkin”<sup>20</sup>. Demak, xalq kitoblarini har tomonlama, chuqur o‘rganish ajdodlarimizning milliy dunyoqarashi va milliy qiyofasini anglashda nihoyatda muhimdir.

Ma’lumki, Alisher Navoyining “Xamsa” asari ta’sirida juda ko‘plab dostonlar, xalq kitoblari yaratilgan. Ayniqsa, “Sab’ayi sayyor” asosidagi Bahrom obrazi, taqdiri bilan bog‘langan asarlar alohida diqqatga sazovor. Ularning adabiyotdagi o‘rni masalasida, M. Jo‘rayev va M. Narziqulovalar o‘z tadqiqotlarida muhim xulosalarni bayon etishgan: “Alisher Navoyi dostonlari asosida shakllangan folklor asarlari hamda xalq kitoblari shoir yaratgan badiiy qadriyatlarning aynan qaytarig‘i emas, balki o‘ziga xos motivlar tarkibi va epik talqiniga ega bo‘lgan mustaqil asarlar sanaladi”<sup>21</sup>. Mualliflar Fozil shoir repertuaridagi “Bahrom va Gulandom” asari haqida fikr yuritishar ekan, uning yaratilishida Sobir Sayqaliy tomonidan xalq kitobi shaklida yaratilgan “Bahrom va Gulandom” asarining alohida o‘rni borligini ta’kidlashadi. Bu esa xalq kitoblarining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini belgilashda muhimdir. Chunki ular yozma adabiyot taraqqiyotiga qanchalik ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, xalq og‘zaki ijodi ravnaqiga ham shunchalik ko‘maklashgan: “Bizningcha, “Bahrom va Gulandom” dostonining Fozil shoir repertuaridan joy olishini Alisher Navoiy yaratgan “Sab’ai sayyor” asaridan bevosita ta’sirlanish deb baholamaslik kerak. Bunda yozma adabiyot bilan folklordagi epik an’ana o‘rtasida turadigan “oraliq shakl”ning badiiy o‘rnini ham nazardan soqit qilmaslik lozim. V. Jirmunskiy va H. Zarifovlarning yozishlaricha, xalq dostoni bilan Navoiy asari oralig‘ida muayyan bir manba mavjud bo‘lib, bu manba xalq kitobidir”<sup>22</sup>. Mazkur fikr xalq

<sup>20</sup>V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. “O‘qituvchi”, Т.: 1980, 55-бет.

<sup>21</sup> М. Жураев, М. Нарзикулова. Миф, фольклор ва адабиёт. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006, 173-бет.

<sup>22</sup> Уна китоб, 175-176-бет.

kitoblarining adabiyotdagи o'rnini ko'rsatib berishi bilan birga, uning ayrim xos xususiyatlarini belgilashi bilan ham muhimdir. Bundan unda ham yozma, ham og'zaki shaklga xos belgilar mujassamlashganini yana bir bor anglaymiz. Mualliflar tilga olgan Sobir Sayqaliyning mazkur asari borasida R. Aliyev va M. Muhiddinovlar maxsus tadqiqot yaratganlar<sup>23</sup>.

Xalq kitoblari, albatta, ko'p kitob mutolaa qilgan, yetuk ziyoli, iste'dodli ijodkor shaxslar tomonidan yaratilgan. Shu sababli ham bunday kitoblarda ham og'zaki, ham yozma adabiyotga xos xususiyatlar mavjud.

2008-yili S. Ro'zimboyev, A. Ahmedovlar tomonidan chop etilgan "Oshiqnoma" deb nomlangan asar tarkibiga "Gul va Sanobar" dostoni ham kiritilgan. U O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning ko'plab variantlari bor. Ayrim manbalarda uning XVIII asrda turkman shoiri Shaydoi tomonidan yaratilgani aytildi<sup>24</sup>. Ayrim manbalarda esa asar genezisi yanada chuqurroq va kengroq talqin etiladi: "Gul va Sanobar haqida rivoyat, hikoyat, ertak va dostonlar arab, fors va hind folklorida ham uchraydi. Uning bir manbasi "Ming bir kecha" ertaklariga borib bog'lanadi"<sup>25</sup>. Mazkur doston 1908-yilda Toshkentdagи G'ulomiya bosmaxonasida chop etilgan. Xorazmda uning ko'plab nusxalari qissaxonlar, xalfalar tomonidan o'qiladi

Mazkur asarda ham ba'zan xalq og'zaki ijodi, ba'zan mumtoz adabiyot uslubiga xos tasvirlaru ifodalarni kuzatamiz. Ayrim qo'llanilgan obrazlar zamirida XVI-XVIII-asr yozma adabiyotiga xos tasvir vositalariga duch kelamiz. Ramziylik, tasavvuf ta'lomi g'oyalarining ifodasini ko'ramiz:

*G'avvosdek jondin kechib do'stlarim,  
Shukur sad la'l konig'a etushdim,  
Soqiyning qo'lidin bodalar ichib,  
Qayta boshdin chiqg'on jong'a yetushdim (240-b.)*

<sup>24</sup> В.Абдуллаев Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1980, 126-бет.

<sup>25</sup>Мередов А., Ахатлы С. Туркмен классык эдебиятынын созлуги. Ашгабад. "Туркменистан", 1988. 94-бет.

Mazkur baytlar asarning bosh qahramoni Sanobar bog‘da tunagan kechasi bog‘ o‘rtasidagi daryodan og‘zida nur taratuvchi gavharni olib chiqqan ho‘kizni ko‘rganda aytilgan so‘zlardir.

Muallif gavhar jozibasini mammunlik bilan ta’riflaydi. Ho‘kizni esa ulkan, qo‘rqinchli vahshiy sifatida tasvirlaydi. Nur taratuvchi gavharning maxluq og‘zida ekanligida ham muallif ramziylikni nazarda tutgani seziladi. Chunki vahshiy maxluq (nafs) va nur sochuvchi gavhar(ilohiylik)ning zidlantirilishi ham ma’lum jihatdan ma’noga egadir:

*Bir turfa ho‘kuzning ul sifati jabbor,  
Chun ko‘h tani, boshi oni gumbazi davor,  
Kim shoxi chor va tili mavrudiki g‘or,  
Bir damda qilodur yerning yuzini shudgor,  
Azm etdi chiroq etmaka bir sham‘i shabiston(241-b.).*

Asarning katta qismini she’riy, nisbatan kam qismini esa nasriy parchalar tashkil etadi. Undagi she’riy matnlar murabba, muxammas, g‘azal shakllarida berilgan. Ammo aruz qoidalariga amal qilinmagan. Ayrim o‘rinlarda ruknlar mutanosibligiga putur etgan. Aruz vazni me’yorlariga qat’iy amal qilinmagan. Misollardan ko‘rinadiki, muallif mumtoz adabiyot, undagi janrlar bilan yaxshi tanish. Bu faqat asardagi shakliy mutanosiblikda emas, balki ma’no va badiiy tasvirdagi uyg‘unlikda ham o‘zini namoyon etgan:

*Shaydoi giriftori ul qoshi qaro bo‘ldim,  
Hijron o‘tida kuydim, o‘rtandim, ado bo‘ldim,  
G‘am dashtida Majnundek ishqinda gado bo‘ldim,  
Bir toza nihol erdim g‘am birla ado bo‘ldim,  
Albatta, borib aytg‘il ul yorg‘a salomimni.*

*Hajrinda samandardek o‘tlarg‘a tutoshibman,  
Bir zarra vafo ko‘rmay g‘am birla uloshibman,  
Majnuni balokashdek cho‘llarda adoshibman,*

*Ko 'ksum tilibon har dam qonimg'a bo'yoshibman,  
Bu navo borib aytg'il, ul yorg'a salomimni (242-b.).*

O'z navbatida asarda xalq og'zaki ijodi namunalariga xos fantastik, mifologik tasvirlarga ham duch kelamiz. Jumladan, bog'da to'satdan ho'kizning paydo bo'lishi, gavharni tashlab qaytib ketishi, yana bir bog'da jodugarning Sanobar boshiga tuproq sochishi natijasida uning kiyikka aylanib qolishi, tush motivining asar kompozitsiyasida alohida muhim o'ringa egaligi kabi hodisayu tasvirlar buni tasdiqlaydi.

Asarda insoniyatni ogohlantiruvchi, hushyorlikka chorlovchi ko'plab donishmandona hikmatlarga duch kelamiz. Jumladan, nafs va dunyo moli zidlantirilib, olamning o'tkinchiligi, vafosizligi ta'kidlanadi. O'quvchi diqqati muhabbat, mehr-oqibatni g'animat bilish lozimligiga qaratiladi (245-246-b.).

*Quvonma, ko 'nglum, quvonma,  
Bu dunyo hech kimga vafo etmadni.  
Birovga kiydurib toji xusraviy,  
Birovni el ichra gado ayladi.*

*Hargiz quvonmagin dunyo molig'a,  
E'timod etmag'il mohi solig'a.  
Birovni hetkurib yor visoliga,  
Birovga ming turliq jafo ayladi (245-b.).*

Sanobar voqealar rivojida ko'p to'siqlarni kechib o'tadi. Ishq yo'lidagi riyozatlarni bosib o'tgandan keyin, asar so'ngida yor diydoriga erishadi. Bunday ifodalar, ramziy mohiyatlar qamroviga egalik Muhammadniyoz Nishotiyning XVIII-asrlarda yozma adabiyotda mavjud "Husn va Dil" kabi ramziy dostonlari uslubini eslatadi.

Sanobar bir muhtasham imoratda Mehrangez bilan xayrashgandan so'ng bir toqqa etib boradi. Uning ustida bir muddat dam olib mizg'iydi. Shu payt tushida chiltanlarni ko'radi.

Ular “nazari iltifot qilib mayi vahdati Ollodin ichirdilar. Masti loyaqil bo‘lib (mazkur jumla Nishotiy muxammaslaridan birida naqarot sifatida takrorlanadi. Mazkur dostonning ham Xorazmda yaratilganligini hisobga olsak, muammo yanada oydinlashadi), ko‘ziga arshi kursi lavhi qalam ko‘rundi:

*Rasulni ham ko‘rdum ummat g‘amida  
Sahoba yonida kavsar labinda.  
Har qaysi bir yonda kosa qo‘linda,  
Rasulni to‘rt sevar yorini ko‘rdum.  
To‘rtinchi olamda hazrati Iso,  
To‘rtinchi falakda masjidi qazo,  
Bu maqomg‘a etgan jami anbiyo,  
Jabroil maqomin ul joyda ko‘rdim (246-247-b.)*

Mazkur 36 misradan iborat kattagina she’riy parchadagi tasvirlar o‘quvchini g‘ayb olamiga etaklaydi. Muallif shu o‘rinda diniy-tasavvufiy g‘oyalar talqiniga e’tiborini qaratadi. “Bu dunyoni ko‘rdim yo‘qdur vafosi”, deya insoniyatga olamning o‘tkinchiligi g‘animatligini anglash lozimligini uqtiradi.

Asarda xalq og‘zaki ijodi namunalariga xos xususiyatlar ham namoyon bo‘ladi. Xususan, “Alpomish” kabi dostonlarda keng qo‘llanilgan yumoristik va satirik tasvir uslubi ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, zangilarning qizi ta‘riflangan she’riy parchalarda xuddi shunday holatni kuzatamiz:

*Soching arg‘amchidur, qadding minora,  
Qulqing o‘xshaydur shoxi chinora,  
Mango boqib ko‘p so‘zlama beoro,  
Zaharli achchug‘dur so‘zlarling sani (249-b.)*

Asarda ruhiyat manzaralarining noyob va ta’sirli tasvirlariga ham duch kelamiz. Jumladan, Zevarshoh vafot etganda, Sanobar tomonidan aytilgan marsiya nihoyatda samimiyl, ta’sirli va yurakka etib boruvchi ifodalar vositasida yaratilgan:

*Ishrat bilan yoqa banding ochilmay,  
Bu dunyoning sharobidin icholmay,  
Mehnat chekib murodig'a etolmay,  
Mening uchun g'arib o'lgan Zevarim (239-b.).*

Xalq kitoblaridan yana biri XVII-XVIII asrlarda Sayyodiy tomonidan yaratilgan “Tohir va Zuhra” asaridir. Uning 8ta qo‘lyozma nusxasi bor. 1938-yilda Sobir Abdulla shu asar asosida musiqali drama yozgan. 1940-yilda sahnaga qo‘yilgan. U asosda kinofilm ishlandi. Bu asar haqida venger olimi Herman Vamberi ham ma’lumot beradi<sup>26</sup> va 1867-yilda Leypsigda undan parcha nashr ettiradi. Asarni 1960-yilda T. Nishonboyeva O‘zbekiston FA Shi, Adabiyot muzeyi, Leningrad Sharqshunoslik instituti, Leningrad xalq kutubxonasida saqlanayotgan mazkur 8 qo‘lyozma asosida qiyosiy matn tayyorlab, to‘liq nashrini amalgga oshiradi. Bunga qadar esa “O‘zbek poeziyasining antologiyasi”da va Herman Vamberining xrestomatiyasida ayrim parchalar chop etilgan edi, xolos.

“Tohir va Zuhra” asrlar osha xalqimizning eng sevimli kitoblaridan biri bo‘lib kelgan. Mazkur sevishganlar qissasidan bexabar biror o‘zbekni uchratish mumkin emas. U o‘zbeklar hayotida, ularning tabiatida odamiylik, mehr-oqibat, vafo, sadoqat, muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishda, ulg‘aytirishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli uning og‘zaki va ko‘plab yozma variantlari keng tarqalgan. Uni o‘zlashtirish va talqin etishda ham turlicha munosabatlarni kuzatishimiz mumkin. Hatto, u xorijlik olimlarning ham diqqatini o‘ziga jalb etgan. Jumladan, venger olimi Herman Vamberi asardan parchalar nashr etish bilan birga, u haqdagi ayrim mulohazalarini ham bayon etadi: “Tohir va Zuhra” nomli ushbu she’riy roman arab, fors va usmonli turklarning xalq adabiyotida mavjud bo‘lgan shu turdag'i qissalardan birining tarjimasi bo‘lsa kerak. Bu dostonning tili Buxoro shevasiga yaqin. Bu asar ancha durust yozilgan bo‘lsa ham, unda ko‘p xato va yanglishlar mavjud”<sup>27</sup>.

<sup>26</sup> Hermann Vambery. Cagataische sprachstudien, 34-bet.

<sup>27</sup> Yma acap, 34-6er.

Ko'rinadiki, asar Vamberi e'tiborini o'ziga tortgan. Muhabbatini qozongan. Olim u haqda o'z mulohazayu munosabatini bildirishni lozim ko'rgan. Bu asarning o'rganilish tarixida juda muhim. Ammo tadqiqotchining hamma fikrlariga ham qo'shilib bo'lmaydi.

Bu doston syujeti faqat O'rta Osiyo xalqlari orasidagina emas, balki arab, hind, ozarbayjon, usmonli turk xalqlari orasida ham og'zaki ijod namunasi sifatida keng tarqalgan. Uni ilk bor Sayyodiy XVII-XVIII asrlarda she'riy doston sifatida qayta ishladi.

Doston o'ziga xos kompozitsiyaga ega. U og'zaki dostonlardan, variantlardan farqli ravishda yozma adabiyot namunalari kabi hamd, na't va chahoryorlar tavsifi bilan boshlanadi. Ijodkor forscha, arabcha so'zlarni ham aralashtiradi. Muallif keng bilimga, ulkan she'riy iste'dodga ega. Tafakkuri teran va keng qamrovliligi sezilib turadi.

Asarning mazmuni kichik sarlavhalar ostida bayon etiladi. Har bir bobchadan keyin, lirk chekinish tarzida dostonda **60**ga yaqin g'azallar keltiriladi. Ammo ularning barchasi faqat lirk chekinish vazifasinigina bajarmaydi. Balki asar syujetida va badiiyatida muhim o'rinn tutadi. Timsollar tabiatini yoritishda ulkan vazifani bajaradi. O'quvchiga voqeа va syujetni ta'sirli, badiiy tarovatlari shaklda etkazishga xizmat qiladi. G'azallarning barchasi yuksak saviyada. Mumtoz g'azalchilik qonuniyatlariga amal qilib yaratilgan. Barchasining maqtasida shoirning taxallusi ham keltirilgan. U g'azallarida turlicha, Sayyodiy, Qul Sayyodiy, Miskin Sayyodiy kabi shakkarda qo'llangan. Qofiya ishlatishda mumtoz adabiyotda an'anaviy tarzda uchraydigan "koshki, istaram, qani" kabi so'zlardan ham foydalilanladi. Bu holat Sayyodiyni faqat dostonnavis emas, balki mahoratli lirk shoir, g'azalnavis sifatida ham e'tirof etishimizga asos beradi.

Sayyodiyning adabiy merosi haqida ma'lumot kam etib kelgan. Manbalarda uning bizgacha "Tohir va Zuhra" dostonidan boshqa, faqat birgina g'azali O'zbekiston FA ShI qo'lyozmalar fondida

saqlanayotgan 9355-raqamli bayozning 363-364-sahifalarida yetib kelgani haqida so‘zlanadi<sup>28</sup>.

Ammo , “Ey mehribonim, istasam, tobqaymumen, yorim seni,

Ey yori jonim, istasam, tobqaymumen, yorim seni”, -

bayti bilan boshlangan mazkur g‘azal izlanishlarimiz natijasida “Tohir va Zuhra” dostonidagi Tohirni izlab ixtirob chekayotgan Mohimxonim tilidan aytildi g‘azal ekan<sup>29</sup>ligi ma’lum bo‘ldi.

Bayozda uchragan g‘azalidan kelib chiqib ikki xil taxminni o‘rtaga tashlashimiz mumkin: 1. Shoir doston uchun, uning syujetidan kelib chiqib maxsus g‘azallar yaratgan. 2. Shoir o‘zi yozgan g‘azallardan tanlab olib mutanosib mazmunilarini doston tarkibiga kiritgan. Ko‘rinadiki, mazkur holat bu borada qo‘srimcha izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Kitobning xotimasi ham o‘ziga xos. Unda ham og‘zaki, ham yozma adabiyotga xos xususiyatlar namoyon bo‘ldi. Asarning so‘nggi bobি “Mohimxonim birla qizlar korvondin Mirza Tohirning xabarini eshitgani” deb nomlanadi. Bunda Totor elidan karvon kelishi va undan Mohimning kanizaklari Tohirning qatl etilish xabarini eshitgani haqida so‘z boradi. Unda shoirning mahorati, so‘zga chechanligi, so‘zlarni ko‘p ma’noli, pardali tarzda ifodalash iste’dodi namoyon bo‘ldi. Shunday shum xabarni muallif nihoyatda noziklik va mayinlik bilan, istiora san’atini qo‘llagan holda o‘quvchiga havola etadi:

*Gulistong‘a xazon bodi tegibdur,*

*O‘shal gul tozasin uzub ketibdur.*

*Qilibdur gulni xirman bir daravgar,*

*Qani ul Tohiri qaddi sanavbar?*

*Bu korvon shum xabarni kelturubdur,*

*Tutub Tohirni ul shoh o‘lturubdur (155-b).*

<sup>28</sup> Сайинд Мухаммад Сайёдий. Тохир ва Зухра. Тошкент, 1960, 6-бет. Кейинги мисоллар шу манбадан олинади ва саҳифаси кўрсатилади.

<sup>29</sup> Ўша асар. 149-бет.

Doston xalq kitobi shaklida bo'lganligi sababli unda ham yozma, ham og'zaki ijod xususiyatlari namoyon bo'ladi:

1. Voqealar rivoji, syujet chizig'ida ko'proq og'zaki ijodga xoslikni;

2. Badiiy tasvir vositalari, badiiy ifoda uslubida esa yozma adabiyot unsurlarini kuzatamiz.

Mazkur doston kompozitsiyasi va uslubida XVIII-XIX-asr adabiyoti uchun mansub bo'lgan ramziylik, haqiqiy ishqqa oshuflalik, irfoniylit kabi teran fazilatlarga ham duch kelamiz. Jumladan, bu holat biz so'z yuritayotgan so'nggi bobda ham namoyon bo'ladi. Mohim muhibining vafotini eshitgandan so'ng foniyl dunyodan ko'ngil uzadi. Kanizaklari ham, Mohim ham chin, abadiy hayotga rihlat qilishadi. Bundan qattiq iztiroblangan Mohimning ota-onasi tush ko'rishadi. Tushlarida Haqdan nido keladi. Ana shu g'ayb xabarida ishq va oshiqlikning yuksak maqomidan so'z boradi:

*Ikisi uyqug'a birdek qotildi*

*Ki, nogah bir nido Haqdin etildi.*

*Ki aydi: "Bexabarlar, na yig'idur,*

*Na sizlarga yig'idur, na sig'idur.*

*Ki o'ldi, jon jonong'a ulondi,*

*Hama oshiq qo'shulub bir bo'londi..." (157)*

Shoir asar boshlanishidayoq, doston syujetining ko'p mamlakatlarda tarqalganiga, undagi serqatlam ma'no xosu avom uchun saboq ekanligiga ishora qiladi:

*Chunon ertakki erdi xosu oma,*

*To'lub erdi bu Hindistonu Shoma (16).*

Dostonning turli o'rinalarida keltirilgan g'azallarda ham tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq tushunchalar, obrazlar va ifodalarni ko'ramiz.

...*Kel, ey soqiy, bukun bir jom icholi,*

*Bu damda sokini mayxonadurman...*

...*qaroru sabrimi san aylading toq*

*Ki, sansan jonu man jononadurman.*

...*Jamoling bo'lmasa, rizvonni naylay,*

*Oningdek jazra<sup>30</sup> din bezordurman (32).*

*Tavakkul qilmag'on oshiq emasdur*

*Kim ul Haq yo'lig'a loyiq emasdur (47).*

*Muhabbat bog'lasa oshiq tajalli nuri Ollog'a*

*Ki, bo'lmastur anga aslo zamone fikrati do'zax.*

*Bu dunyo mo'mina do'zaxki, kofirlarg'a jannatdur,*

*Chu olmas bahra jannatdin ko'tarur minnati do'zax (139).*

Shoir mohiyatan oshiq va zohid faoliyatini bir-biri bilan qiyoslab, ularga o'zini tanish yo'llaridan saboq beradi. Ishq va zohidona turmush tarziga bir tomonlama yondashuvchilarni ogohlantirib ularni hushyorlikka chorlaydi:

*Yor bila yurdung, Sayyodiy, bilmading el qadrini,*

*Oqilu dono bilur ham yoru ham el qadrini (123).*

Ishq bilan bog'liq ravishda Sayyodiy oshiqlik maqomi, o'rni va ruhiy holati borasida ham chuqur ma'noli izohlar berib o'tadi:

*Kimki oshiqdur, yoronlar, rahbari Ollohdur,*

*Kimki oshiq ermas Ollohg'a, o'shal gumrohdur.*

<sup>30</sup>Jazira – orol.

*...Lof ururlar ko 'p xaloyiq bulhavas oshiq kabi,  
Oshiqi dononing rangi kahraboyu kohdur (36).  
...bu ishq mayxonasiq'a kirdim ersa,  
Nigorim soqiyu paymona<sup>31</sup> bo 'ldum (44).*

Shoir bob so'ngida, ma'lum ma'noda, doston syujetidagi ishq mohiyatiga izoh beradi. U qizlar misolida asardagi ishq majoziy emas, balki haqiqiy ekanligini oshkora ta'kidlaydi. Shu sababli ham, Tohir va Zuhra muhabbatি borasidagi sevgi, ishq dostoni, ularning qismati el orasida mashhurligini e'tirof etadi. Qiyomatga qadar musaffo, haqiqiy ishq ramzi sifatida abadiy yashajagini, inson zotiga sevgi-muhabbat, vafo-sadoqat yo'lida saboq va ibrat bo'lajagini baralla kuylaydi. Shoir shu o'rinda majoziy va haqiqiy ishq mohiyatiga nozik izoh ham berib o'tadi. Uningcha, majoziy ishq – nafsniz izlash, haqiqiy ishq esa Haqni izlash demakdir:

*Dedilar: "Bu edi ishqqa giriftor  
Ki, ishq o'ti alarni qildi nokor".  
Agar oshiq majoziy bo'lsa qizlar,  
Alar gumroh erur, nafsci izlar.  
Bu so'z bo'ldi bori elning tilinda,  
Vale qizlar edi Haqning yo'linda(158).*

Dostonning so'ngida yozma adabiyotga xos xususiyatlar yana bo'rtib ko'rindi. Asarning yaratilish tarixi, sanasi, muallif tarjimai holi haqida ma'lumotlar keltiradi. O'ziga nisbatan faqir, g'arib so'zlarini ko'p qo'llagan shoir kamtarlik bilan asar yaratilishida ustozlar xizmatini e'tirof etib, uning sayyor syujet asosida yaratilganligiga ishoralar qiladi. Ustozlarni yodlab, ularga ehtiromini izhor etadi:

*Ayo, ustodlar, sizga bu ta'zim  
Ki, sizlarning duongiz bizga lozim.*

<sup>31</sup>Paymona – may piyolasi, qadah.

*Bu qissa ichra borchasi xatodur,  
Ayo, ustodlar, sizdin atodur(159).*

O‘quvchiga murojaat etib, Sayyodiyni unutmasligini, uni xotirlab ruhini shod etishini so‘raydi:

*Bu qissadin, rafiq, unutmagaysan,  
O‘qug‘onda unutib ketmagaysan.  
Duo birla faqirni yod qilg‘il,  
G‘arib Sayyodiy ruhin shod qilg‘il(159).*

Doston so‘ngida adib asarning yozilish vaqtini aniq qilib, kunigacha aytadi:

*Baqar yili munga bo‘ldi inoyat  
Ki, jum‘a kun edi qildim rivoyat...  
Rabiul avval oyinda bitildi,  
Yana bilgil, o‘shal oyda yetildi.  
Ki jum‘a kunda boshladim to oxshom  
Ki, shanba kunda qissa topti itmom...  
Arodin to‘rt yil o‘tdi tamomi  
Ki, shanba kuni bo‘ldi ihmomni.  
Shukr Ollohga bu bitdi nahangda  
Ki, har kimki so‘rar mehri naharda.  
... Tamom topti qissa rajab oyinda,  
Dushanba kun to (vuq)<sup>32</sup>yil oxirinda (160).*

Adabiyotshunoslikda shoir Sayyodiy tarjimai holi haqida ma‘lumotlar juda kam. Ammo dostonda shoir o‘zini o‘quvchiga yaqindan tanishtirishga urinadi. Undan tug‘ilgan joyi, nasl-nasabi borasida xabardor bo‘lamiz:

<sup>32</sup>Noshirlar qavslar “to” so‘ziga “vuq”ni qo‘shib, “tovuq yili” deya tuzatib qo‘yishibdi. Bizningcha, asar yuqorida keltirilgani kabi, nahang (baliq) yilida tugatilgan. Keltirilgan misrada shoir “to yilning oxirigacha yozib tugafildi”, demoqchi bo‘lgan, nazarimizda. Bu holat yana qo‘srimcha izlanishlarni taqozo etadi.

*Ki anda Balxning darvozasidur,  
Jahonga ketgan ul ovozasidur.  
Faqir Sayyodiy Xayrobod eliman  
Ki, sayyod eliman, Haqning quliman  
Qiyomatda o'ronim<sup>33</sup> Ko 'ktemurdur,  
Bu Ko 'ktemurdek o'tgan bir umurdur.  
Hamisha Ko 'ktemur xo'ja o'ronim,  
Iki dunyoda manga mehribonim.  
... tammatul kitob bi'avnil malikil vahob,  
Mulla Sayid Muhammad guftagi kitob hamun ast(160).*

Dostonda tush motivining o'mni betakror. Bir necha o'rinda shoir undan badiiy detal sifatida foydalanadi. Hatto, asarni yozishni boshlashiga ham shoirning tush ko'rishi, oshiqlarning o'z takliflariga binoan asarning yaratilishi borasida ma'lumot berib ketiladi.

Ikkinci marta Tohirning otasi Totor mamlakati podshohi Boboxonning vaziri Bohirning tushida ikkalasining farzand ko'rishi ayon bo'ladi.

Mohimning ota-onasi ko'rgan tush ham asar syujetida muhim hisoblanadi.

Asarda og'zaki va yozma adabiyot xususiyatlari bir-birini taqozo etib, o'rin almashib keladi. Jumladan, dostonning og'izdan-og'izga, xalqdan-xalqqa o'tib kelgan sayyor syujet asosida yaratilgani undagi rivoya, bayon uslubida yaqqol namoyon bo'ladi.

Dostonda Tohir va Zuhraning maktabda hamsaboqlikda bir-biri bilan uchrashuvi va ko'ngil qo'yishi o'quvchiga "Layli va Majnun" dostonini eslatadi.

Mazkur dostonda xalq kitoblarining o'ziga xos ko'plab belgi va xususiyatlarini kuzatamiz. Ammo adabiyotshunoslikda hali ular to'liq o'rganilmagan. Uning o'ziga xos jihatlari aniq belgilab berilmagan. Juda ko'p qirralari yetarli aniqlanmagan. Fitrat xalq og'zaki ijodi haqida gapirib, uning boshqa namunalardan farqi ruhida ekanligini takidlagan edi: "Bu ikki turli adabiyot orasidagi

<sup>33</sup>O'ron – nasl-nasab.

farqni yozmoq, yozilmag'anliqda yoki egasining belgili belgisiz bo'lg'onida ko'rmaq yanglishdir. Shunday bo'lsa ham, bizning san'atkor adabiyotimizga qarshu o'zining samimiyligi, soddaligi bilan o'z borlig'ini saqlab kelgan bir adabiyotning borligi-da ma'lumadir. Biroq buning ayirmasi yozma bo'lmasligida yo egasining ma'lum emasligida emas, o'zining ruhidadir"<sup>34</sup>. Xalq kitoblarining ham xuddi shunday o'ziga xos ruhi mavjud. Ammo o'sha ruh nimada namoyon bo'lishini aniqlab berish uchun hali ko'plab tadqiqotlar, izlanishlar olib borish taqozo etiladi. Buning uchun esa bunday adabiyot namunalarini ko'plab nashr etish, ularni bir-biriga qiyoslab o'rganib chiqish lozim. Demak, bu borada adabiyotshunoslar amalga oshirishi lozim ishlar nihoyatda ko'pdir.

Dostonning asosiy mavzusi ishq-muhabbatga bag'ishlangan bo'lsa-da, shoir o'mni bilan dunyoning mohiyatiga, uning g'animat ekanligiga; olam, odam va Olloh munosabatlariiga; hayotning mazmunini anglab etmagan, dunyo moliga ruju qo'ygan g'ofillarni ogohlantiruvchi saboqlar masalalariga ham e'tiborini qaratadi:

*G'animat tutmadi g'ofil chu o'tkardi hayotini,  
Vale qilmadikim, jonig'a bir zarra najotini  
Ki, yig'di bu jahonning muncha asbob-olotini,  
Bu moldin zarra xayr aylab chu bermadi zakotini,  
Sayyodiykim, bu ishlarni suvi yo'q anhore ko'rdum(132).*

Dostonni o'qir ekanmiz, Sayyodiyning donishmand, hayot, inson, va so'z qadrini baland tutuvchi, chuqur anglaguvchi ulug' ijodkor ekanligini his etamiz. Asardagi har bir misra, bayt teran ma'noga, noyob did bilan yaratilgan badiiy tarovatga egaligini kuzatamiz. Asarni odamzodga yuksak ma'naviyat, kamolot, madaniyat, did, farosat va donolik yo'llarini ko'rsatuvchi noyob yo'riqnomasi sifatida qabul qilamiz. Quyidagi baytda keltirilgan so'zlash madaniyati haqidagi o'gitlari bizni befarq qoldirmaydi:

<sup>34</sup>Fitrat. Adabiyot qoidalari. T.: O'qituvchi. 1995, 81-85-bellar.

*So 'zni saqlab so 'zlaganlar xo 'b bilur so 'z qadrini,  
Farqi yo 'q ko 'p so 'zlaganlar na bilur o 'z qadrini (123).*

Sayyodiy dostonda o'ziga xos pishiq ishlangan, asar syujetini yoritishda muhim o'rinda turuvchi obrazlar galereyasini yaratadi. Jumladan, Boboxon, Bohir, Tohir, Zuhra, Qorabotir, Odilshoh, Mohim, Xubon kabi ko'plab insonlar obrazlari asar voqealarini jonli, tabiiy ifodalashga xizmat qilgan. Ular vositasida shoir inson ruhiy holatlarini o'quvchiga ta'sirli etkazib berishga erishadi. Oshiq va mahbuba, ota va ona, ijobiy va salbiy timsollar kechinmali, tuyg'ularining tabiiy va samimiylashtirilishi tasvirlari kitobxonni o'ziga mahliyo etadi. Asarda bunday real, hayotiy obrazlar bilan bir qatorda o'rni bilan yozma adabiyotga xos, tasavvufiy timsollarga ham duch kelamiz. Ba'zan shoir ishqni tasvirlaganda, dunyoviylik sarhadlaridan o'tib, haqiqiy ishq po'rtanalariga mohirona safar qiladi. Ishqni insoniyat mohiyatini ochuvchi teran ma'noli falsafa maqomida talqin etadi. Bu borada, tasavvuf falsafasiga aloqador timsollar unga ko'maklashadi. Jumladan, adib jon va jonona talqinida o'ziga xos yo'l tutadi. Uning nazdida oshiq – jonona, mahbuba esa uning jonidir. Bu o'rinda oshiq va mahbubaning jon va jonona timsolida uyg'unlashtirilishi xosu avom kitobxonlar uchun muhim ochqich vazifasini o'taydi. Ularni mazkur timsollar vositasida ishqu oshiqlikning teran mohiyatini anglash maqomiga etaklaydi:

*Qaroru sabrimi san aylading toq  
Ki, sansan jonu man jononadurman (32).  
Ki Zuhra jonu man jononasiman  
Ki, Zuhra sham 'u man parvonimasiman(35-b.).*

Mazkur ikki obrazning yagona vujudda uyg'unlashuvi ishq yo'lidagi birlik va yagonalikni vujudga keltiradi. Jonu jononaning birligi o'quvchiga tafakkur etish, tasavvuf ta'limotidan xabardor xoslarga esa borliq mohiyatini teran anglash imkonini yaratadi.

Soqiy timsoli ham asarda keng qo'llanilgan. Shoir ishq mavzusini qamrovli ifodalash, uning faqat dunyoviy, tor doirada qolib ketmasligini ta'minlash maqsadida hayotiy obrazlar bilan bir qatorda, yozma adabiyotga xos soqiy obrazidan ham unumli foydalanadi:

*Sunub soqiy manga sharbat azaldin,  
Mani mastonalar qilg'on o 'zingsan (124).  
Sunub erdi piyola bizga soqiy,  
Olur-olmas edim, sindurdi bu ishq (120).  
Kel, ey soqiy, bukun bir jom icholi,  
Bu damda sokini mayxonadurman (32).*

Hatto, shoir dostonning boshlanishida, na't qismidayoq, tasavvuf ta'limoti asosini tashkil etuvchi to'rt bosqich haqida so'zlaydi:

*Bizingdek osi-jofi ummatig'a,  
Shariat sharti, sunnatlig' Muhammad.  
Tariqatni, haqiqatni deding haq  
Ki, ma'rifatda ma'nolig' Muhammad(14-b.).*

Ana shu, kirish qismida e'tibor qaratilgan bosqichlar, ularning inson hayoti bilan aloqasi masalalari asarning oxirigacha o'mi bilan inobatga olinadi. E'tibordan soqit etilmaydi.

Asarda mumtoz adabiyotda faol qo'llanib kelingan badiiy san'atlar keng istifoda etilgan. Ayniqsa, tashbeh, irsoli masal, ishtiqoq, takrir, mubolag'a, tanosub kabi o'nlab tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Asar tarkibiga kiritilgan g'azallar ichida noyob san'atkorlikni taqozo etadigan musajja g'azal turi ham keng qo'llanilgan.

Ammo dostonning noshiri T. Nishonboyeva uni badiiy jihatdan pishiq emas deb hisoblaydi: "Sayyodiy asari badiiy jihatdan ancha kuchsiz bo'lsa ham, uning stili, tili ancha yengil va ravondir"<sup>35</sup>.

<sup>35</sup>O'sha kitob, 8-bet.

Ammo asarni kuzatish jarayonida bu fikr uncha asosli emas deb hisobladik. Chunki shoir voqealarni bayon etar ekan, har bir so‘zni mohirlik bilan qo‘llashga harakat qiladi. O‘nlab badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Syujetning pishiq va izchilligiga qat’iy e’tibor beradi. Xususan, bosh obraz Zuhraning ta’rifida mumtoz adabiyotdagি mahbubalar tasviriga mutanosiblikni ko‘ramiz:

*Labi la ‘lu tishi durdona erdi  
Ki, ko ‘rsang turfa bir jonona erdi.  
Qamardek qoshi, yuzi shamsi anvar,  
Ko ‘zining ravshani monandi gavhar.  
...sochi sunbul, siyohi anbarafshon,*

Isi – mushki Xo‘tan, nasrinu rayhon (22-b.).

Shoir dostonda yetakchi badiiy san’at sifatida tashbehni keng qo‘llagan. Uning noyob va takrorlanmas namunalarini yaratishga muyassar bo‘lgan. Adib keltirgan oddiygina muqoyasa ishq va obrazlar mohiyatini teran yoritganining guvohi bo‘lamiz:

*Chu ishqqa hamdamu hamroh bo ‘ldi,  
Qizil guldek yuzi chun koh bo ‘ldi (28-b.).  
Mani man aylamang bu ishq yo ‘lidin,  
Misoli man tanurning noridurman (33-b.).*

O‘zbek adabiyotshunosligida xalq kitoblari masalasi nihoyatda kam o‘rganilgan. Uning o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan xususiyatlari, mavhum jihatlari juda ko‘p. Bularga oydinlik kiritish uchun, avvalo, mazkur tipdagи asarlarni maxsus “Xalq kitoblari” seriyasida to‘la nashr etish lozim. Matnlar tugal bo‘lgandan keyin, navbatdagи hal etilishi lozim masalalarga diqqatni qaratish kerak bo‘ladi. Jumladan, nasriy bayonlar, xalq qissalari, qissa-manoqiblar, xalq dostonlari kabi turli yo‘nalishdagi asarlar turkumlari borki, bularning xos xususiyatlari belgilab berilmaganligi sababli adabiyotshunosligimizda ularga baho berganda chalkashliklar ko‘zga tashlanadi. Ba’zan ular bir-biri bilan aralashtirib yuboriladi.

Bir qancha maxsus tadqiqotlar ham amalga oshirilgan. Ammo dastlabki ishlar bo‘lganligi sababli, muammo yetarli darajada hal etib berilmagan.

**Madaniy hayot.** Bu davrga kelib madaniy markaz Hirotdan Samarqand va Buxoroga ko‘chdi. Hunarmandchilik va savdo rivojlandi. U bilan bog‘liq ravishda rabot, sardoba, karvonsaroy kabi ko‘plab o‘ziga xos binolar qurildi. Ilm maskanlari, madrasalar barpo etildi. “Boburnoma”da ta’kidlanishicha, 1502-yilda Zarafshon daryosida suv taqsimlovchi moslama o‘rnatalgan.

Bu davrda Samarqand va Buxoro musiqa maktabi dovruq taratgan edi. Mavarounnahr va Xurosonning barcha hududlaridan bu erlarga toliblar ilm istab kelishardi. Manbalarda Muhib Ali Qonuniy, Hasan Kavkabiy, Najmuddin Kavkabiy, Mavlono Riyoziy Samarqandiy, Yusuf Dutoriy kabi ijrochi va bastakorlar haqida ma’lumotlar mavjud.

Xususan, tarixiy va tazkira asarlarda san’atning bu yo‘nalishi borasida muhim, mukammal ma’lumotlarni uchratamiz. Jumladan, “Muzakkiri ahbob” tazkirasida ham bu holni kuzatamiz. Muhimi shundaki, asar uslubidan kelib chiqib, musiqachi va musiqashunoslar haqida so‘zlash bilan bir qatorda muallif musiqa tarixi, etimologiyasi bilan bog‘liq qiziqarli dalillarni ham keltirib o‘tadi. Bu esa musiqa san’ati bilan bog‘liq bilimlarimizni yanada kengaytirishga, boyitishga xizmat qiladi: “... hazrat Muso alayhissalom “hassangni toqqa ur” amriga ko‘ra asoni toshga urganlar va Muso alayhissalom asoni toshga urgach, o‘n ikkita chashma buloq oqa boshlabdi va har bir buloq suvi bir kuy va tovush bilan quyilgan. Shunda bir nido eshitilibdikim, “musoq”, ya’ni “bu ohanglarni asra” mazmunida ekan. Va bular 12 maqom nomi bilan mashhur. Shu munosabat bilan bu ilmga “musiqiy” deb nom qo‘yanlar...”<sup>36</sup>

Qadimda xattotlikka ham san’atning noyob turi sifatida qaralgan. Ularning mahorati samarasini o‘laroq, xalq orasiga kitoblar vositasida ma’rifat ulashilgan. Biz o‘rganadigan davrda ham Mavlono Sulton Ali Ubahiy, Mavlono Mir Ali Kotib, Mir Abdulla,

<sup>36</sup>O’sha asar. 139-bet.

Mir Husayniy, Sulton Mirak Munshiy kabi mashhur xattotlar tomonidan ko'chirilgan noyob kitoblar davr ma'naviyati, madaniyatini yuksaltirishda munosib o'rinn egallagan.

Ushbu davrda rassomlik, naqqoshlik va miniatyura san'ati o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Ayniqsa, "Boburnoma"ga, "Tavorixi guzida-nusratnama"ga va Muhammadmurod Samarqandiy tomonidan "Shohnoma"ga chizilgan miniatyuralar diqqatga sazovordir. Bu asarlardagi ruhiy manzaraning, tarixiylikning chuqurligi davrning tirik, teran qiyofasini tasavvur etishimizga ko'maklashadi. Mahmud Muzahhib, Rustam naqqosh kabi rassomlarimizning yaratgan asarlari ham tariximizning nurli, yorqin sahifalarini tashkil etadi. Ularning ijodi shu davrda yaratilgan tazkiralarda batafsil yoritilgan. Madaniy hayotdagি o'miga yuksak baho berilgan.

Bulardan tashqari, ushbu davrda amaliy san'at yodgorliklari ham yaratilgan. Jumladan, Jalol Buxoriy tomonidan bunyod etilgan antiqa sandiq-soat e'tiborlidir. Manbalarda tasvirlanishicha, Jalol Buxoriy bir sandiq yasaydi. Uning ichida chiroyli daraxt. Daraxt ustida bir maymun bir qo'lida lagan, bir qo'lida tayoqcha ushlagan holda o'tiribdi. Ma'lum bir fursatda maymun harakatga kelib tayoqcha bilan laganga uradi. Shunda soat zangiga o'xshagan tovush chiqadi. Bu harakatlar mexanik tarzda bajariladi.

O'yaylmizki, qisqa ma'lumotlardan ham XVI-XIX asr I yarmi madaniy hayoti haqida, taraqqiyoti haqida yetarli xulosalarga ega bo'lamiz.

*Adabiy-ilmiy jarayon.* XVI-XIX asr adabiy jarayoni haqida ko'plab tarixiy, tazkira va badiiy asarlar orqali tasavvurga ega bo'lamiz. Xususan, Nisoriyning "Muzakkiri ahbob", Vosifiyning "Badee ul-vaqoe" (Nodir voqealar), Boburning "Boburnoma", Mutribiyning "Tazkirat ush-shuaro" kabi asarlari qimmatlidir. Ular davr siyosiy-tarixiy hayotidan tashqari, madaniy-adabiy muhit borasida yaxlit ma'lumot beradi. Yashab, ijod etgan adiblar, ularning fe'l-atvori, ijodiga xos xususiyatlar, asarlari ko'lami xususida tasavvur hosil qiladi. Mazkur asarlar ma'lumotlarning aniqligi, asosan, voqeа ishtirokchilari tomonidan yozilganligi va

dalillarning mo'lligi bilan nodir manbalardir. Ularda Husomiy, Majlisiy, Bobur, Ubaydiy, Shayboniy, Muhammad Solih, Xoja, Husayn Boyqaro, Navoyi, Binoyi, Firdavsiy kabi mashhur ijodkorlar haqidagi takrorlanmas hikoyalar bilan tanishamiz. Uzoq yillar saroy va diniy adabiyot vakillari deb o'rganilmay kelingan Ubaydiy, Shayboniy, Aziziy, Fazliy, Ado, Amiriy, Feruz kabi mo'tabar insonlar-ijodkorlarning haqiqiy, asl qiyofalari bilan oshno bo'lamic. Har birlarining ijodlari chuqur tadqiq etishga munosib, ulkan adabiy merosimizga daxldor o'ziga xos noyob namunalar ekanligini anglaymiz.

XVI-XIX asr 1-yarmi adabiyoti Navoyi, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Jomiy, Nizomiy, Xusrav kabi daho ijodkorlar yaratgan badiiy chashmadan bahra olgan. Ular ijodiy maktabini o'tagan adabiyotdir. Shuning uchun ham unda ustoz ijodkorlar an'analari mujassamlashgan. Mavzu, g'oya, janrlar takomillashtirilgan. Ularning yangi qirralari kashf etilgan (Bu masalaga adiblar ijodi tadqiqi jarayonida yana qaytiladi).

XVI-XIX asr 1-yarmi adabiyotining o'zidan oldingi davr adabiyotidan ayrim farqli tomonlarini ta'kidlab ko'rsatish mumkin:

1. Navoyi davri adabiyotida romantik uslub yetakchilik qilgan. Biz o'rganadigan davrda esa romantik uslub ham qo'llangan. Ammo, realistik uslub ancha ustun mavqega ko'tarilgan. Bu borada Bobur, Muhammad Solih, Xoja, Turdi ijodlari diqqatga sazovor.

2. Mavjud janrlar takomillashtirildi. Yangi janrlar yuzaga keldi:

- tarixiy memuar (Bobur. "Boburnoma");
- tarixiy doston (Muhammad Solih. "Shayboniynoma");
- v) kichik hikoyalar turkumi (Xoja. "Gulzor", "Miftohul-adl").

3. Ushbu davrda "Xamsa" tipidagi turkumlashgan emas, balki alohida, mustaqil masnaviy dostonlar ko'proq yaratildi.

4. Shu sababli dostonchilikda an'anaviy timsollardan kam foydalanildi.

5. Abulqosim Kohiy, Humoyun, Komron, Bayramxon kabi muhojir shoirlar o'zbek eli va tili mavqeini yanada oshirishga hissa qo'shishdi.

6. Davr adabiyotiga o‘g‘uz turkchasi, xususan, Fuzuliy tili va ta’siri kuchli bo‘lgani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

7. O‘zbek adabiyotining jo‘g‘rofiy hududi kengaydi. Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Eron mamlakatlarida ham o‘zbek tilidagi adabiyot namunalari keng tarqaldi. U erlarda yashayotgan movarounnahrlik ijodkorlar asarlar yaratishdi.

8. Shu sababli boshqa elat ijodkorlariga Alisher Navoyining ijodiy ta’siri kuchaydi.

9. Tarixiy va tazkira asarlar yaratishga alohida e’tibor berildi.

XVI-XIX asr 1-yarmi adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida adabiyotshunosligimizda xilma-xil mulohazalar bildirilgan. Ularning ayrimlari bahsu munozaralarga ham sabab bo‘lgan. Jumladan, ayrim olimlarimiz ushbu davrda siyosiy hayotdagi tanazzul va parokandalik adabiy jarayonga salbiy ta’sir qilgan. Adabiyotda turg‘unlik va pasayish sodir bo‘lgan deyishadi. Ammo, bu fikrga qo‘silib bo‘lmaydi. Chunki, shu davrda birgina Ogahiyini olsak, u hajm jihatidan ham, mahorat jihatidan ham Navoyivor maqomda ijod etgan. Bobur, Uvaysiy, Nodira kabi o‘nlab ijodkorlar merosini kuzatib, ularning har biri o‘ziga xos uslubga, ijodiy yangilikka erishgan mahoratli adiblar ekaniga amin bo‘lamiz (Ular ijodidagi yangilik va mahorat masalalariga o‘z mavridida yana qaytiladi).

Atoqli olim Abdurauf Fitrat “XVI asrdan so‘ngra O‘zbek adabiyotig‘a umumiylar qarash” maqolasida XVI asrdan keyingi davr adabiyotiga baho berar ekan, uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi (uning ayrim fikrlari ham munozaralidir):

“1.Bu davrning adabiyoti o‘zidan burung‘i davrg‘a qaraganda, umuman, san’aticha tuban, biroq son jihatdan ko‘pdir.

2.Bu davrning adabiyotiga XVIIasrnning ikkinchi yarimlaridan boshlab o‘g‘uzchaning, ayniqsa, Fuzuliyning kuchli ta’siri bor.

3. Bu davrda tarixiy asarlarga ayricha ahamiyat berilgan.

4.She’nda Yassaviy maktabi bu davrda saroyg‘acha ko‘tariladir”<sup>37</sup>.

<sup>37</sup> Фитрат. Таъланган асарлар. 2-жилд. Т.2000, 60-61- бетлар.

Fitrat mazkur maqolasida davr adabiy jarayonidagi cvrilishlarni sinchiklab tekshiradi. Temuriylar sultanati tanazzulga uchrab, taxtga O'zbekxonlar sulolasi o'tirgandan keyin ular "savdo sarmoyasi adabiyoti"<sup>38</sup>ga qarshi bo'lmadi. Balki uni o'sha darajada ushlab qolishga, rivojlanadirishga harakat qilishdi. Ammo, tabiiy, ijtimoiy sharoit bunga yo'l bermas edi. Fitratning fikricha: "1) San'at va madaniy hayotni burungidek "davom ettiruv, u davrdagi iqtisodiy sharoitni burung'icha saqlab va taraqqiy qildirishga bog'liq edi";

2) "dengiz yo'llarining taraqqiysi sababli karvon yo'llarining ahamiyatdan tushub qolishi bu maqsadni vujudg'a chiqarishg'a yo'l qo'ymas edi"<sup>39</sup>.

Ko'ringanidek, Fitrat xulosalariga ko'ra, ijtimoiy hayotdagagi iqtisodiy tanazzul, turli tabiiy vaziyatlar adabiy jarayonning pasayishiga sabab bo'ladi. Maqolada muallif davr adabiyotining umumiy darajasini belgilashda shu davrda etishib chiqqan ko'plab shoirlar merosi yetarli o'r ganilmagani sababli Shayboniyxon, Muhammad Solih, Qul Ubaydiy va Xoja ijodinigina baholab o'tadi, xolos. Shularga tayanib, umumiy xulosaga keladi. Ammo bu unchalik ham to'g'ri emas. Bunday qarashni o'z davrida Fitrat zamondoshlari munosabatida ham kuzatamiz. Jumladan, Fitratning o'zi ham ijodiga yuqori baho bergen Vadud Mahmudning qarashlarida ham buning isbotini ko'ramiz: "Sharq turk adabiyotining oltin davrlaridan (Navoyi davri – N. J., I. A.) so'ngg'i ishlanmay qolg'onini da'vo qilaturg'onlar bo'lsa ham, bu fikr to'g'ri emasdir, tekshirmaslik va yuzaki qarashdan kelgandir"<sup>40</sup>.

Nazarimizda, mazkur davr adabiyotiga bunday salbiy qarash, E. E. Bertelsning "К вопросу об Индийском стиле в персидской поэзии"<sup>41</sup> maqolasida XVI asrdan keyingi davr adabiyotiga bergen bahosidan keyin boshlangan. Ammo mazkur maqolada Bertelsning maqsadi davr adabiyotidagi o'zgarishlarni ta'kidlashdan iborat bo'lgan.

<sup>38</sup>Фитрат бу давр адабиётини шундай атаган.

<sup>39</sup>Фитрат. Таъланган асарлар. Тошкент, 2000, 56-бет.

<sup>40</sup> В.Махмуд. Таъланган асарлар. Т.: 2007, 98-бет.

<sup>41</sup>Е.Э Бертельс. История литературы и культуры Ирана. М.: «Наука», 1988, стр.439.

Davr adabiy jarayonidagi ikkinchi xususiyat, ya’ni Fuzuliy ijodining kuchli ta’siri borligi masalasi asoslidir. Bu, ayniqsa, Qo‘qon va Xorazm adabiy muhitida yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarlariga ko‘plab tatabbular bog‘lanadi. Hatto, “Layli va Majnun” dostoniga ham javob dostonlar yaratilgan. Qo‘qon ahli tili o‘g‘uz lahjasidan uzoq bo‘lib, qarluq lahjasida so‘zlashiga qaramay, Amiriy, Uvaysiy, Nodira, Xon kabi ko‘plab ijodkorlarning asarlarida Fuzuliy tiliga mutanosib tarzda o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi so‘zlar qatlaming qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

Fitrat davr adabiy jarayoniga xos uchinchi xususiyat sifatida “tarixiy asarlarga ayricha ahamiyat berilgan”ini ko‘rsatadi. Haqiqatan ham, XVI asrdan boshlab izchil va ko‘plab tarixiy asarlar yaratilganining guvohi bo‘lamiz. Maqolada buning sababini muallif quyidagicha izohlaydi: “Bu davrda o‘zbekcha tarix adabiyoti juda boy edi. O‘lkani yangi istilo qilgan o‘zbek xonlari Jo‘ji vositasi bilan Chingizxonga borib etar edilar. Chingiz avlodи bo‘limg‘an temuriylarg‘a ko‘ra, xonliqqa o‘zlarini haqli ko‘rar edilar. Shu tomonni ochib, xalqni o‘zlarig‘a isindirmak uchun tarixiy asarlarg‘a ayricha ahamiyat berildi”<sup>42</sup>.

Fitrat shu davrda yaratilgan “Jome ut-tavorix”, “Zafarnoma” tarjimalari “Shayboniynoma” (Binoyi), “Zubdat ul-asar”, “Tarixi Xoniy”, “Bahr ul-asror”, “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Firdavs ul-iqbol” kabi 20dan ortiq asarlarni sanab ko‘rsatadi.

Fitrat davr adabiy jarayonining real suratini tasvirlab beradi. Ijtimoiy jarayondagi notinchlik va tanazzul O‘rtta Osiyo san’ati taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Temuriylar davrida yuksak maqomlarga ko‘tarilgan adabiyot bu davrga kelib biroz susaydi. Ijodkorlar undagi “saroyning muhtasham, takallufli, bezakli uslubini tashlab, omma uslubiga yaqinlashuvga tirishdilar”<sup>43</sup>. So‘fi Olloyor, Mashrab Namangoniy, Huvaydo, Xoja kabi ijodkorlar asarlarida diniy-tasavvufiy g‘oyalari talqini yaqqolroq va oshkora namoyon bo‘la boshladи. Ammo Turdi Farog‘iy kabi ijtimoiy hayotning, jamoa ma’naviyatining

<sup>42</sup>Фитрат. 2-жилд, 57-бет.

<sup>43</sup>Ўла асар. 58-бет.

noqisliklariga faol, isyonkorona qarshi tura olgan, xalq manfaatini himoya qilishda jonbozlik ko'rsatgan jasoratlari shoirlar ham etishib chiqdi. Shunga qaramay, mazkur davr adabiyotini umumiy baholab Fitrat shunday xulosaga keladi: "Bu davr o'zbek adabiyotining san'atga tuban tushg'an davri bo'lub, XIX asrning boshlarig'acha davom qildi"<sup>44</sup>.

Ammo Fitratning bu fikriga juda ham qo'shilib bo'lmaydi. Chunki XVI-XIX-asrlar orasida ko'plab tazkiralari yaratilgan. Ulardagi ijodkorlar miqdorining ko'pligidan, yaratilgan asarlar yuqori baholanganidan, san'atning rang-barang yo'naliishlaridagi taraqqiyotlar talqinidan adabiy muhitdagi qizg'in va faol jarayonni tasavvur etish mumkin.

Undan tashqari, O'rta Osiyodagi tarqoqlik, ijtimoiy tanazzul tufayli bir qancha ijodkorlar Bobur Mirzo asos solgan, rahnamolik qilgan Hindiston sari hijrat qildilar. Adabiy muhitdagi bunday bo'linish, albatta, undagi mustahkam yaxlitlik, barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ammo adabiyotshunoslikdagi Fitratning qarashi uzoq yillar mazkur davr adabiyotiga adabiyotshunoslari e'tiborining susayishiga sabab bo'ldi.

Birinchidan, mazkur davr mahsuli bo'lgan ko'plab namunalar o'rganilmay, chetda qolib keldi.

Ikkinchidan, diniy, tasavvufiy yo'naliishlarning oshkora ustuvorlashishi ham, ma'lum yillar ularning diqqat markazidan chetda qolishiga sabab bo'ldi.

Hozirgacha mazkur davr adabiyotshunoslikdagi eng kam tadqiq etilgan davr hisoblanadi. Ammo mustaqillik sharofati bilan adabiy merosni o'rganishga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Natijada, mazkur adabiy davr namunalarini o'rganish yangi, faol bosqichga ko'tarildi. O'yaymizki, bu jarayon mazkur davr adabiyotining obyektiv bahosini berishga erishishda muhim bosqich bo'ladi.

Fitrat davr adabiyotiga xos muhim xususiyatlardan biri sifatida "Yassaviy maktabining saroygacha ko'tarilgani"ni

<sup>44</sup> Ўна асаб, 58-бет.

ta'kidlaydi. Bunda adabiyotshunos nimani nazarda tutadi. Ma'lumki, hikmat janri o'zbek adabiyotida bevosita Yassaviy nomi bilan bog'liq. U XII asrda hikmatning noyob namunalarini yaratgan. Bu janrni didaktik va irfoniy adabiyotning o'ng qanotiga aylantira olgan. Chunki hajm jihatidan qisqaligi, barmoq vazniga yaqin, engil ohangi unga xalqonalik bag'ishlaydi. Bu esa ijodkor badiiy niyatining o'quvchi va tinglovchiga oson etib borishini ta'minlaydi. Afsuski, bu janr Yassaviy va uning shogirdlaridan so'ng nofaol janrga aylanadi. Bu tanaffus 400 yilga cho'ziladi.

Ammo o'zbek adabiyotida o'z tafakkur qamrovi, noyob badiiy mahorati bilan muhim o'rinni tutuvchi Qul Ubaydiy ijodida mazkur janr 4 asrdan so'ng qayta faollik kasb etadi. Bu haqda venger sharqshunosi Y. Ekman "Qul Ubaydiyning Chig'atoy adabiyotidagi xizmati hikmat janrini qayta jonlantirishidadir", - deya baho beradi.

Qul Ubaydiy merosida 235ta, 7786 misradan iborat hikmat janridagi asar bizgacha etib kelgan. Qul Ubaydiy ijodiy faoliyatida ikki tariqat g'oyalariiga amal qilgan. Birinchisi, o'zi yaratgan hikmatlar va amaliy faoliyatidagi jahriylik orqali Yassaviylik; Navoyi g'azallariiga ergashuv orqali esa naqshbandiylik yo'liga amal qilgan. Fitrat davr adabiyoti haqida xulosa chiqarganda, shuni nazarda tutgan edi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan ma'lum bo'ladiki, XVI-XIX asr 1-yarmi o'zbek adabiyoti teran tahlil va talqinni taqozo etadigan ulkan ma'naviy merosimizdir. Uni qanchalik chuqur o'rgansak, ajdodlarimiz orzulagan ma'naviy, ruhiy kamolotga shunchalik yaqinlashamiz. Undagi umumbashariy mazmun va g'oyalarni ko'nglimizga va hayotimizga singib boraveradi.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Shayboniylar, ashtarxoniyalar, manbalar, tazkiralari, miniatyuralar.*

### **Savol va topshiriqlar:**

*1. Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" asarini to'liq o'qib chiqing.*

2. XVI-XIX asr I-yarmida qanday muhim siyosiy voqealar yuz bergan?

3. Qanday tarixiy va tazkira asarlar yaratilgan?

4. Ushbu davrda madaniy hayot qanday edi?

5. Vosifiyning "Badoe 'ul-vaqoe" asarini to'liq o'qib chiqing.

6. Adabiy jarayonning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor?

7. "Muzakkiri ahbob" asari va muallifi borasida so'zlang.

8. "Badoe ul-vaqoe" asari va muallifi borasida so'zlang.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.

2. Zayniddin Vosify. Badoe ul-vaqoe, T.: 1979.

3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-4-jild. T.: 1978.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

4. Bobur. Boburnoma. T.: 2002.

5. B. Valixo'jaev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: 1993.

6. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. T.: 2000.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483 – 1530)

### *Reja:*

1. *Bobur – serqirra iste 'dod sohibi.*
2. *Bobur hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.*
3. *Ijodkor tarjimai holiga oid ma 'lumotlar.*
4. *Adibning adabiy merosi.*
5. *Bobur she'reiyatiga oid ma 'lumotlar.*
6. "Voldiya" asarining yaratilish tarixi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.
7. *Mumtoz adabiyotshunoslikda "Risolayi aruz" asarining o'rni.*
8. "Boburiy xati"ning yaratilish tarixi va taqdiri.
9. "Boburnoma" – qomusiy asar.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbeklar nomini jahonga tanitgan ulug‘ allomalardan biridir. U noyob qobiliyatga ega sarkarda va podshoh, ulkan tafakkur qudratiga ega tarixchi, olim va shoir sifatida dunyonи hayratga soldi. U adabiyotimizning Alisher Navoyidan keyingi eng teran fikrli va sohir tuyg‘ular kuychisi ekanligi bilan bizga qadrli.

Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda Farg‘ona viloyati hokimi Umarshayx Mirzo xonadonida tavallud topdi. U Amir Temurga beshinchi (Umarshayx Mirzo – Abu sayid Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh – Amir Temur) avlod edi. Onasi Qutlug‘nigorxonim tomonidan esa o‘n ikkinchi avlod bilan Chingizxonga tutashgan. Bobur Umarshayx Mirzo uch o‘g‘lining to‘ng‘ichi edi (Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo).

Umarshayx Mirzo 1494-yil 9-iyunda poytaxt shahar Aksi Qo‘rg‘onidan jarga qulab halok bo‘ladi. Bu fojiadan so‘ng, temuriylar an’anasiga binoan valiahd Bobur podshoh bo‘ladi. Uning shoh asari «Boburnoma» xuddi ana shu xabar bilan boshlanadi: «*Tangri taoloning inoyati bilan ... seshanba kuni*

*rima on oyining beshida tarix sakkiz yuzto 'qson to 'qquzda (1494 y.) Farg'onan viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo 'ldim»<sup>45</sup>.*

12 yoshli Bobur otasining sodiq beklari Shayx Mazidbek, Boboqli Boboalibek, Qosim Qavchinlar yordamida hokimiyatni boshqarishga kirishadi. Samarqand buyuk Temurxon davlatining poytaxti edi. Shuning uchun har bir temurzodaga uni egallash eng katta orzu bo'lgan. Jumladan, Bobur hayotini ostin-ustun qilib yuborgan ko'p jangu jadallar ham Samarqand bilan bog'liq.

1495-yilda Samarqand Sulton Ali qo'lida edi. Ammo, akalari Sulton Mas'ud va Boysung'ur Mirzolar ham Samarqand uchun kurash boshlaydilar. Amakivachchalaridan ilhomlangan Bobur ham bu kurash girdobiga qo'shiladi. Bir muddat Samarqandni qamal qiladi. Ammo, do'stlik va sulh taklifi bilan chiqqan Sulton Alining so'zini qabul qiladi va ortga qaytadi. Boysung'ur Mirzo esa Samarqandni egallaydi.

1497-yilda Bobur yana Samarqandga yurish boshlaydi. Boysung'ur Mirzo Shayboniyxonidan madad so'raydi. Yetti oy davom etgan jangu jadaldan so'ng Boburning qo'li baland keladi. Shahar ahlining xayrixohligi unga madad bo'lib, bobolarining muqaddas poytaxti nasib etadi.

Ammo, Boburning g'alaba nashidasi uzoq davom etmaydi. Talon-tarojlar natijasida Samarqand nochor ahvolga tushib qolgan edi. Hatto, lashkar ta'minoti ham qiyinlashadi. Natijada, uylarini ham sog'ingan cherik ahli birin-ketin Andijonga qochib keta boshlaydi. Hatto, ibrat bo'lgan beklari – Ahmad Tanbal, Xonquli, Ibrohim Bekchik kabilar ham Samarqandni tark etadi: «*Samarqandni olg'onda Samarqand andoq xarob edikim, madad va tuxm va taqovig'a ehtiyoj bor edi... Bu jihatlardan cherik eli ko'p tanqislik torttilar... Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkirar qochmoqg'a yuz qo'ydilar...»<sup>46</sup>.*

Ushbu fursatda Andijonda ham notinchlik boshlanadi. Ahmad Tanbal va Axsini vaqtincha boshqarish uchun qoldirilgan Uzun

<sup>45</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т. Юлдузча, 1989, 5-бет. «Boburnoma»дан олинган loying parchalar shu manbadan keltiriladi va sahifasi ko'rsatiladi.

<sup>46</sup> O'sha asar, 49-bet.

Hasan xiyonat yo'lini tutishadi. Boburning ukasi Jahongir Mirzoni Andijon hokimi etish rejasini tuzishadi va Andijonni qamal qilishadi. Vaqtincha Andijonni boshqarish uchun qoldirilgan Ali Do'st Tag'oyi Boburning Samarqandda og'ir betobligi va o'lim to'shagida yotgani xabarini eshitib, vahimaga tushib Andijonni Jahongir Mirzo tarafдорларига topshiradi.

Shu kunlarni xotirlab «*to 'rt kungacha tilim tutildi, og 'zimg'a paxta bilan suv tomizurlar erdi*»<sup>47</sup> deya yozgan xasta Boburni bu xiyonat va nomardona hodisa qattiq qayg'uga soladi. Bobur validasi va piri murshidi Xoja Qozi maktublari va da'vatlari sababli Samarqandni tark etdi. U bu fathida Samarqandda 100 kun podshohlik qilganini e'tirof etadi: «*Bu navbat Samarcand shahrida yuz kun podshohlik qildim*»<sup>49</sup>.

1498-yil fevral oyida Andijon sari yo'l olgan Bobur bir haftadan so'ng Xo'jandga yetganda, Andijonning muxoliflar qo'liga topshirilganini eshitadi. O'rtada ham Samarqand, ham Andijondan ajragan, davlatsiz va mulksiz qolgan Bobur qattiq ruhiy iztirobga tushadi: «*Andijong'a bo 'la Samarcandni ilikdin berduk. Andijon ham ilikdin chiqmish edi... Bisyor shaq va dushvor keldi. Ne uchunkim, to podshoh bo 'lub edim, bu nav navkardin va viloyattin ayrylmaydur edim. To o 'zumni bilib edim, bu yo 'sunluq ranj va mashaqqatni bilmaydur edim*».

Ammo, Bobur o'zini yo'qotmaydi. Bu mushkullikdan qutulish yo'lini izlab topadi. U sodiq beklaridan Qosimbekni Toshkentga Xon bobosi huzuriga madad uchun yuboradi. Xon Ohangaron orqali Kandir dovoniga kelib Bobur bilan birlashadi va Pop qo'rg'onida muxoliflar bilan sulh tuzadi. Bobur Xonning Andijonni qaytib olish imkonи bor joyda sulhga rozi bo'lganidan qattiq ranjiydi. Bu holdan umidsizlangan ko'pchilik cherik ahli Boburni tark etishadi. Uning oldida 200dan ko'proq, 300dan kamroq kishi qoladi. Buadolatsiz mag'lublik Boburni qattiq iztirobga soladi: «*Mening bila qolg'onlar g'urbat bila mehnatni ixtiyor qilg'onlar,*

<sup>47</sup> O'sha asar, 50-bet.

*yavshi-yomon, taxminan ikki yuzdin ko'proq, uch yuzdin ozroq bo'lg'ay edi... Manga bisyor dushvor keldi, beixtiyor g'alaba yig'ladim» . Shundan keyin Boburning sargardonlik kunlari boshlandi. U ikki yilga yaqin Xo'jand, O'ratega atroflarida davlatsiz, mulksiz, ma'naviy mashaqqatli hayot kechirdi.*

1499-yilning yoz oylarida O'ratega atrofida Ali Do'st Tag'oyidan xabar keladi. U, agar gunohlari afv etilsa, Marg'ilonni Boburga topshirish niyatida ekanligini aytadi.

Bu taklifni Bobur uzoq muhokama etmay qabul qiladi. Bir necha kun yo'l yurib, Bobur atrofidagi 240 kishisi bilan Marg'ilonga etib keladi. Ahmad Tanbal va Uzun Hasanning zulmu sitamidan bezgan xalq Boburni mammunlik bilan qarshi oladi. Bir necha kunlik jangdan so'ng Andijon qayta qo'lga kiritiladi: «*Ota viloyatikim, ikki yilga yovuqlashib edikim, ilikdin chiqib edi, tengri inoyati bila zulqa'da oyida sana 904da (1499 y.)yana tuyassar va musaxxar bo'ldi*»<sup>51</sup>.

Ammo, Ahmad Tanbal Jahongir Mirzoni podshoh ko'tarish rejasidan qaytmagan va janglar davom etar edi. Nihoyat, urush sulh bilan yakunlanadi. Jahongir Mirzoga Aksi, Bobur Mirzoga Andijon taraflar bo'ysundi. Bobur 1500-yilda Sulton Ahmad Mirzoning qizi Oyshabegimga uylandi. Shu yildan boshlab she'rlar mashq qila boshladi. Bu davrda hali ham ichki ziddiyatlar davom etar, Ahmad Tanbal va uning og'a-inilari o'z rejalaridan voz kechmaganliklari sezilib turardi. Shunday notinchliklar bezdirgan Bobur Muhammad Mazid Tarxon boshliq Samarqand beklarining anchadan beri davom etayotgan taklifini qabul qiladi.

Bobur Samarqandga yo'l oladi. Sangzorga kelganda Samarqand beklari bilan maslahatlashadi. Bir qancha muzokaralardan so'ng Samarqand taxti «xohoni» -talabgorlaridan Xoja Yahyo uni Boburga jangsiz topshiradi.

Shayboniyxon katta qo'shin bilan Samarqandga kelayotganini eshitib, Bobur bir qancha Samarqand beklari bilan Keshga ketadi. Bir-ikki haftadan so'ng Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxonga topshiradi. Onasi Zuhrabegin bunga sababchi

<sup>50</sup>O'sha asar, 52-bet  
<sup>51</sup>Yunusov, 59-60

bo'ladi. Zuhrabegim o'zini Shayboniyxon qo'liga topshirib, o'g'lining hayoti va sultanatini saqlab qolmoqchi bo'ladi. Ammo, Shayboniyxon Sulton Ali mirzoni bir qancha beklari bilan o'ldiradi. Xoja Yahyoni ikki o'g'li bilan Xurosonga ketishga ruxsat berib, ortidan odam yollab, ularni ham shahid qiladi.

Bobur Samarcand atrofida uni egallash rejasini tuzar edi. Nihoyat shaharning «Feruza» darvozasidan yorib qo'rg'onga kirishadi va Samarcandni ikkinchi marta qo'lga kiritadi. Shahar ahli Boburshohni xayrixohlik bilan qarshi oladi. Xalq Shayboniyxon navkarlariga qarshi jangga kirishadi. Ahvolni anglagan Shayboniyxon Samarcandni tark etishga majbur bo'ladi. Bobur g'alaba nashidasini «Boburnoma»da shunday eslaydi: «Yuz qirq yilg'a yovuq Samarcand poytaxti bizning xonavodada edi. Qandag'i yot yog'iy, o'zbak kelib mutasarrif bo'lub edi. Ilikdin ketgan mulkni yana tengri berdi. G'orat va toroj topgan viloyat tasarrufimizg'a kirdi»<sup>52</sup>.

Zafaridan mamnun Bobur O'ratepadan onasi va ahli ayolini Samarcandga ko'chirib keladi. Oyshabegimdan Faxrunniso ismli qiz ko'radi. Alisher Navoyidan maktub oladi. Bobur ham javob maktubi yozadi. O'zining turkiyda yozgan she'rini ham jo'natadi. Mullo Binoyi Shayboniy huzuridan Bobur mulozamatiga keladi.

Ammo, quvonchli kunlar uzoqqa cho'zilmaydi. Faxrunniso qizi chillasi chiqmay qazo qiladi. Bobur Samarcand qo'rg'onini berkitishga majbur bo'ldi. Qamalning mashaqqatli kunlari boshlandi. U olti oy davom etdi. Xalq og'ir kunlarni boshidan kechirdi: «Elga bisyor tanqislik bo'ldi. Anga ettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otga bo'g'uz kam yost bo'ldi. Daraxtlarning bargini otqaberurlar edi... ba'zi quruq yig'ochlarni randa qilib, taroshasini suvg'a ibitib otg'a berurlar edi».<sup>53</sup>

Bobur har tarafga elchilar yuborib ko'mak so'raydi. Ammo, hech kimdan madad kelmaydi. Bobur, ayniqsa, Husayn Boyqarodan ranjiydi. U Boburga qayishish o'miga Shayboniyxonga elchi yuboradi. Muhsosara uzoqqa cho'ziladi.

<sup>52</sup>O'sha asar, 76-bet

<sup>53</sup>O'sha asar, 83-bet.

Shayboniyxon sulh taklif qiladi. Boburning boshqa chorasi yo‘q edi. Taklifni qabul qilishga majbur bo‘ladi. Tunda o‘z yaqinlari bilan Samarqandni tark etadi. Ammo, Bobur «*Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboniyxonning iligiga tushti*»<sup>54</sup> deb, afsus bilan xotirlaydi.

Samarqanddan chiqqan Bobur Jizzax, O‘ratepa, Dahkat atroflarida sargardonlikda qoladi. Toshkentga Xonbobosi huzuriga madad izlab boradi. Ular yaxshi mehmon qilishadi. Ko‘p va’da ham berishadi. Ammo, vafo qilishmaydi. Amalda hech qanday yordam berishmaydi. Pskent, Shohruhiya atroflarida Shayboniyxon bilan qisqa to‘qnashuvlar bo‘ladi.

1502-yilda Ahmad Tanbalning Toshkentga hujumga thyyorlanayotgani xabari keladi. Buni eshitib, Boburning tog‘alari - Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Andijonga yurish boshlashadi. Bobur ham ularga qo‘shiladi. Bu jangda Bobur katta jasorat ko‘rsatadi. «Boburnoma»da uning mahoratli sarkarda ekanligini ko‘rsatuvchi jonli manzaralar, mardona janglar tasvirini ko‘ramiz.

U O‘shni qo‘lga kiritadi. O‘zgand va Marg‘ilon xalqi xayriyohlik bilan Boburni chorlashadi. Raboti Ro‘zaqda qattiq jang bo‘ladi. Tunda g‘aflatda bostirib kelgan Tanbal lashkarining qo‘li baland keladi. Shu jangda Bobur boshi va oyog‘idan yaralanadi. Tanbal bilan yuzma-yuz to‘qnashib jang qiladi. Nihoyat, mo‘g‘ul xonlari g‘olib keladi. Ahmad Tanbal qochadi. U Shayboniyga birlashish uchun odam yuboradi.

Andijon qaytib olindi. Ammo, tog‘alari Boburga viloyat berishmadni. Jon chekib qo‘lga kiritgan hududlarini ham unga taklif qilishmadni. Bundan Bobur qattiq ranjiydi. U "Boburnoma"da 1502-yil voqealari haqida hikoya qilar ekan, ilk bor bosh olib ketmoq fikriga keladi: "*Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib itsam yaxshi. Bu nav xorliq va zorliq bila el bilguncha, oyog‘im etgancha ketsam yaxshi*"<sup>55</sup>.

Shayboniyxon katta qo‘sish bilan Andijon sari yo‘lga tushganini eshitib, tog‘alari orqaga qaytishadi. Shu kunlarda

<sup>54</sup>O‘sha asar, 85-bet

<sup>55</sup>O‘sha asar, 92-bet

Axsida 100tacha navkari bilan qolgan Boburga qarshi Ahmad Tanbal bir necha ming yigit bilan jang boshlaydi. Tengsiz to'qnashuvda Bobur engiladi. U ikki kecha-kunduz yolg'iz dashman ta'qibidan qochib qutuladi, omon qoladi.

**Kobulga yo'l**. 1503-yilda Bobur Xurosonga yo'l oladi. Hech qanday madad yo'q edi. Husayn Boyqarodek zabardast temurzoda Shayboniyxonga qarshi hujumga o'tmay, o'z hududi himoyasiga kirishadi. Hisorda Xusravshohdan ham hech bir yorug'lik chiqmaydi. Shayboniyning esa borgan sari dovrug'i ortib, Xurosonga yaqinlashayotgani xabari kelar edi. Bunday beparvolik va sustkashlikdan Bobur iztirob chekar edi. Bunday nochor vaziyatda Boburning ota-bobolari yurtini qo'lga kiritishdan umidi uzildi: «*Sulton Husayn Mirzodek Temurbek o'miga o'lturg'on ulug' podshoh g'animning ustiga yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorliq qolg'ay?»<sup>56</sup>*. 1503-yil kuzda Bobur Kobul va G'aznani jangsiz qo'lga kiritadi: «... Tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G'azna mulk va viloyatini bejangu jidol tuyassar va musaxxar qildi»<sup>57</sup>.

«Boburnoma»da Bobur Afg'oniston haqida ma'lumot beradi. Uning iqlimi borasida so'zlab, «*Bisyor latif havosi bor. Kobul havosidek havoliq yer olamda ma'lum emaskim, bo'lg'ay...*», - deydi. Ushbu hududda yetishtiriladigan mevalar xususida ma'lumot beradi. Vatanidan olubolu niholini keltirib ektingani, mevalar berayotganini eslaydi. Afg'oniston 14 viloyatga bo'linishi, ular tuman deb atalishini so'zlab, har biriga batafsil tavsif beradi. Ushbu hududlarda arab, fors, turk, mo'g'ul, hind, afg'on kabi o'n bir-o'n ikki tilda so'zlashuvchi aholi qatlamining yashashi haqida xabar beradi. Afg'onistondagi ko'p g'aroyib joylar, tog'lar, daryolar nomlarining (Ko'hi Safid, Lamg'on, Xoja Seyoron, Go'spandliyor) etimologiyasi borasida o'z mulohazalarini bildirib, izohlab ketadi. 1508-1509-yillarda Bog'i Vafoni bunyod etganini yozadi. Ammo, Boburning Kobulda kechirgan, ayniqsa, dastlabki yillari og'ir keldi. 1505-yilda bir haftalik og'ir xastalikdan so'ng onasi Qutlug'nigorxonim vafot etdi. 1506-yilda Boburning o'zi 40

<sup>56</sup>Osha asar, 111-bet.

<sup>57</sup>O'sha asar, 116-bet.

kun og'ir xastalanib yotib qoldi. Bir necha bor bo'lgan davomli, vayronkor zilzila va suv toshqinlari mashaqqatli qismatini yanada og'irlashtir edi.

Boburning o'zi Afg'oniston hududida bo'lsa ham, o'sha erda Shayboniyxon yurishlarini kuzatib turardi. Ularga munosabatini bildirib borar edi. Ayniqsa, Xorazm muhosarasi tasvirida Chin So'fining mardligi, jasorati, vatanparvarligiga tahsin aytadi. Unga havas qiladi. Uning mag'lubiyatiga ham o'z kishilarining xiyonati bois bo'lganini fosh qiladi. Bu voqealar bayonini o'qir ekanmiz, Bobur yuragidagi ichki bir armon va iztirob tuyg'ularini his qilamiz. Chunki Bobur temuriy shahzodalarning birlashib, xuddi shunday mardonilik bilan o'z yurtlarini himoya qilishlarini orzu qilgan edi: «*Ushbu yil Shayboniyxon Chin So'fini Xorazmda o'n oy muhosara (qamal –N. J., I. A.) qilib oldi, bu muhosarada qalin urushlar bo'ldi. Xorazm yigitlari bisyor mardonaliqlar qildilar... O'n oy qabaldorliq torttilar, hech erdin umidvorliq bo'lmadi. Ba'zi yigit-yalangi bedillik qilib, o'zbak bila so'lashib, o'zbakni qo'rg'onga chiqardilar... Chin So'fi xabardor bo'lib, o'zi kelib qo'rg'onga chiqqanlarni urib tushurur mahalida shiba o'qi tegib, o'zining chuhrasi keyindin o'q bila urdi, o'ldi. Urushur kishi qolmadi, qo'rg'oni oldilar. Rahmat Chin So'fig'a»<sup>58</sup>.*

Shayboniyxon Chin So'fini yengib, Xorazmni egallagandan so'ng Xuroson sari yo'l oldi. Unga qarshi Husayn Boyqaro hujum rejasini tuzadi. Barcha temuriy shahzodalarning boshini birlashtiradi. Boburni ham taklif qiladi. Bobur bu taklifni «*Shayboniyxondek g'anining ustiga ozim bo'lg'onda, el oyoq bila borg'onda, biz bosh bila borg'aymiz, el tayoq bila borg'onda, biz tosh bila borg'aymiz*», - deya mammuniyat bilan qabul qiladi. Ammo, bu reja amalga oshmay qoladi. 1506-yilning mayida «*Sulton Husayn Mirzo cherik tortib Bobo Ilohiyga etganda*» vafot etadi.

1506-yilning kuzida yana barcha shahzodalar Murg'obda yig'ilib, Shayboniya qarshi yurish rejasini tuzishadi. Muzokaralardan so'ng yurish bahorga qoldiriladi. SHu muddatda

<sup>58</sup>O'sha asar. 146-bet.

Bobur 20 kuncha Hirotda bo‘ladi. Navoyi yashagan uyda istiqomat qiladi. Ko‘rish orzusida yurgan shaharni tomosha qiladi. Muhtasham obidalar bilan tanishadi. Bog‘i Safidda, Bog‘i Jahonoroda bo‘ladi. Hirot safari unga katta xursandchilik va faxr tuyg‘usini bag‘ishlaydi.

Dekabr oxirlarida Bobur Hirotdan Kobulga qaytadi. Qish edi. Kobul tog‘larida ko‘p mashaqqatlar chekadi. “*Har qadam qo‘yg‘onida beligacha, ko‘ksigacha bota-bota qor tepib*” yo‘l ochib oldinga yurishganini hikoya qiladi.

Shunday og‘ir mashaqqatli yo‘lni bosib Kobulga etganda, Bobur xiyonatning ustidan chiqadi. Xiyonatchilar Husayn Boyqaro o‘g‘illari Boburni Ixtiyoriddin qal’asida hibsga olgan, deya bo‘hton tarqatib, jiyani Mirzoxonni podshoh ko‘taradilar. Bobur jasorati va mardonaligi tufayli Kobulni qaytarib oladi. Jiyani Mirzoxonni qattiq jazolamaydi. Ammo, zamon nosozliklari va zamondoshlari xiyonatidan yana bir bor ranjiydi. O‘zurda ko‘ngil iztiroblarini shu kunlarda yozilgan quyidagi matla bilan boshlanuvchi g‘azalda sharhlaydiki, undan Boburning ruhiy tug‘yonlarini anglash mushkul emas:

*Mening ko‘nglimki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,  
Agar yuz ming bahor o‘lsa ochilmog‘i ne imkondur<sup>59</sup>.*

1507-yil Shayboniyxon Xuroson poytaxti Hirotni ham egallaydi. Shundan so‘ng Boburning o‘z yurtiga umidvorligi yana bir karra susayadi. U temuriylar an’anasini o‘zgartirib, o‘zini Mirzo deb emas, podshoh deb atay boshladи. Ammo, «Boburnoma»dan ko‘rinadiki, Bobur umrining so‘ngigacha ham o‘z yurtidan ko‘nglini uzmagan. Har doim unga qaytish ishtiyoqi va orzusi bilan yashagan.

**Bobur Hindistonda.** Bobur o‘z rejasini o‘zgartirib, Hindistonni zabt etish maqsadini ko‘ngliga tugdi. Biroq u 1525-yildagina Hindistonni egalladi. Bobur 1519-1525 (295-932 h.) yillar orasida Hindistonga 5 marta yurish qilib, uni beshinchи marta 1525-

<sup>59</sup>O‘sha asar. 182-bet.

yil Sulton Ibrohim Lo'diydek 100 ming askarlik lashkar va mingdan ortiq jangovar filga ega g'animning qo'lidan 12000 kishilik jangovar lashkari bilan zabit etadi.

Bu juda ulkan ranju mashaqqatlar evaziga erishilgan g'alabaning qimmatini Bobur tarixiy ma'lumotlar bilan qiyoslab ko'rsatib beradi. Uning turli tarixiy-ilmiy manbalar asosida dalolat berishicha, hazrati payg'ambarimiz «zamonidin bu tarixqacha ul yuz podshohlaridin uch kishi Hindiston viloyati»ni zabit etishga muyassar bo'lgan:

Sulton Mahmud G'oziy.

Sulton Shihobiddin G'uriy.

Bobur.

Ammo, Boburdan farqli o'laroq, ikkala podshoh ulkan hududli mamlakatga va hiri 200 ming kishilik, ikkinchisi 120 ming askarga yovuq lashkarga ega edi. Boburning qo'lida esa Afg'onistonning ayrim viloyatlari va 12 ming askarlik lashkar bor edi, xolos. Bu tafovutdan Bobur g'alabasining ko'lami va bahosini anglashimiz mumkin. Bobur fathini qiyinlashtirgan ikkinchi sabab, ilgari Hindiston tarqoq – viloyatlarga bo'lingan edi. Bobur fathi arafasida esa ancha mustahkam, nisbatan markazlashgan edi.

Bobur: «G'arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bitur edik, ne alar bizning tilimizni»<sup>60</sup>, - deya yozgan edi. Albatta, butunlay yot bir mamlakatni zabit etish oson bo'lмаган. Bobur Hindistonning har bir qarichini kurashlar evaziga qo'lga kiritgan: «Bir Dehli va Ogradin o'zga jami qo'rg'onliq erlar qo'rg'onlarini berkitib, itoat va inqiyod qilmadilar... O'zga va otga oshliq va xas topilmas edi. Yo'llar ravon bo'lmaydur edi... Yana ul yil xeyli issiq edi. Xeyli el bodi samumning ta'siridin har zamonda yiqilib-yiqilib, o'la kirishtilar»<sup>61</sup>. Yuqoridagi parchalardan mashaqqatlar ko'lamini bir oz tasavvur qilish mumkin.

«Boburnoma»da Hind elining o'z mustaqilligini qattiq turib himoya qilganini ko'rsatuvchi chizgilar ham uchraydi. Bobur ba'zi hududlarni oson qo'lga kiritgan bo'lsa, ayrim joylarni katta

<sup>60</sup>O'sha asar, 243-bet.

<sup>61</sup>O'sha asar, 270-bet.

talafotlar, mashaqqatli janglar evaziga olgan. Ayniqsa, Chandiriyni olishda hindlarning vatan va ozodlik uchun ko'rsatgan jasoratlari hayratlanarli. Ular ahli ayollari va o'zlarining ham g'anim tomon qo'liga tiriklay tushishlaridan orlanishgan. Ularning jasoratlariida Muqanna kabi tarixiy qahramonlar shijoatini ko'ramiz: «*Oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rib, yalang'och bo'lub urushqa kelmishlar... Ushbu havolida aksar o'zları bir-birlarini o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzatib turubtur»*<sup>62</sup>.

Bobur «Boburnoma»da Hindistonning taraqqiyot darajasi, miqyosi haqida ham batafsil ma'lumot beradi: «... *yaxshi ot yo'q va yaxshi it yo'q va uzum va qovun va yaxshi mevalar yo'q va yax yo'q va sovuq suv yo'q va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo'q va hammom yo'q va madrasa yo'q va sha'm yo'q va mash'al yo'q, sham'don yo'q. ... Bog' va imoratida oqar suvlar yo'q. Va imoratlarida safo va havo va siyoq va andom yo'q. Raiyat rezapoy, eli tamom yalang'och yuruydurlar. Lunkutadek bir nima bog'laydurlar»<sup>63</sup>.*

Boburning Hindiston to'g'risidagi chizgilarini o'qib, uning uerda amalga oshirgan obodonchilik ishlaringin ko'lami va ahamiyatini tasavvur qilish mumkin. Uning Hindistonga rivojlangan sharqona madaniyatni olib kirganini ko'ramiz. Hindistonning yuksalishi, madaniyatining taraqqiy etishida Bobur va boburiylarning o'rni beqiyos. Bobur Hindistonga dastlab kirib borganda, uning suvlarsiz, bog'larsiz, tarovatsiz, sahrovash bir o'lkaligidan dilgir bo'ladi: «*Andoq besafo va xarob erlar edikim, yuz karohat va noxushluq bila andin ubur ettuk»*<sup>64</sup>.

Ammo, ko'p o'tmay u erni ham o'z ona Vatani kabi sayilgoh, so'lim go'shaga aylantirganini faxr bilan so'zlaydi. Hovuzlar, bog'lar, hashamatli imoratlar barpo etgani haqida ma'lumot beradi. Hammom qurdirganini so'zlaydi: «*Ul ulug' chohkim, hammom suvi andindur, bunyod bo'ldi. Yana bu parcha yerkim, ambuli*

<sup>62</sup>O'sha asar, 307-bet.

<sup>63</sup>O'sha asar, 267-bet.

<sup>64</sup>O'sha asar, 275-bet.

*daraxtilari va musamman havz andadur, bulardin so'ng ulug' havz va sahne bo'ldi. Andin so'ng tosh imorat olidag'i havz va tolor bo'ldi. Andin so'ng «Xilvatxona» bog'chasi va uylari bo'ldi. Andin so'ng hammom bo'ldi. Mundoq besafo va besiyq Hindta tavr tarrohliqlar va siyoqliq bog'chalar paydo bo'ldi. Har go'shada maqbul chamanlar, har chamanda muvajjah gul va nastaranlar murattab va mukammal bo'ldi»<sup>65</sup>.*

Bobur Hindistonda hirfagar – hunarmandlarning ko'pligi va hunarlarning qadimligidan mamnun bo'ladi. Hindistonni bog'u bo'stonga aylantirishda, muhtasham shaharlar buniyod etishda Hind xalqining hunarmandu mehnatkashligi qo'l kelganini e'tirof etadi. O'zining buniyodkorlik ishlarini bobokaloni Temurning faoliyati bilan qiyoslab, uning miqyosu qimmatini baholaydi. «Zafarnoma» ma'lumotlariga ko'ra, Temurning «Masjidi sangin» imoratini qurishda 200 kishi ishlagan bo'lsa, Bobur e'tiroficha, u buniyod etgan inshootlarda Agrada 680, boshqa hududlarda 1491 kishi mehnat qilgan.

Bobur Hindistonning o'ziga xosliklari, latofatlji jihatlari haqida ham so'zlaydi. Uning ulkan hududga ega bo'lib, yetti xonlikdan iboratligi, boyliklari bisyorligi, kuz havosining yoqimli bo'lishi haqida ma'lumotlar beradi. U «Boburnoma»da Hind eliga xos ilg'or odatlar, o'ziga xos urf-udumlar haqida ham xabar beradi. Yil fasllari, yiloykun (kalender), vaqt va og'irlilik o'chovining qiziqarli, farqli tomonlari haqida so'zlaydi. Hindistonning o'ziga xos olami, Movarounnahr va Xurosondan farqli tabiat, boyliklari, daryolari, tog'lari, hayvonot va nabotot dunyosini mukammal tavsiflaydi.

Bobur Hindistonda mustahkam bir davlatni maydonga keltirdi. U davlatni tashkil etish va boshqarishda Temur tajribalaridan mohirona foydalandi. Ovrupoda «Buyuk mo'g'ullar imperiyasi» nomi bilan shuhrat topgan boburiylar sulolasini XIX asr o'rtalarigacha – inglizlar istilosiga qadar Hindistonda davlatni boshqardilar.

*Hayotining so'nggi yillari.* Bobur hayotining so'nggi yillari Hindistonda kechdi. U Hindiston kelajagi va ravnaqi yo'lida katta

<sup>65</sup>O'sha asar. 275-bet.

xizmat qildi. Uning bu xizmatlarini qadrlagan Hind xalqi uni o‘z farzandlari qatorida aziz biladi. Hindistonning sobiq prezidentlaridan biri Rajiv Gandhi quyidagi so‘zlarida ana shu yaqinlikning ifodasini ko‘ramiz: «*Farg‘onalik mard, nozikdid Bobur Gang tekisliklarimizgacha etib kelgan, buyuk mo‘g‘ullar sulolasi atalgan sultanatimizga asos solib, o‘zini hind deb bilgan edi*».

Bobur Hindistondagi tarqoq viloyatlarni markazlashtirdi. Davlat ishlarini adolat bilan boshqardi. G‘ayridinlik solig‘ini bekor qildi. Vafot etgan erni tirik xotin bilan kuydirishni man etdi. Bu bilan xalqaro inson huquqlari ravnaqiga katta hissa qo‘shti. Kiynish madaniyatini takomillashtirdi. Adabiy muhitni shakllantirdi. Ijodkorlar ahliga rahnamolik qildi. Hindistonda so‘lim bog‘lar barpo qildi. O‘z yatanidan uzum va qovun urug‘larini oldirib, ektirdi. Hindiston elining o‘ziga xos urfu-dumlariga, qadriyatlariga hurmat bilan qaradi. Yuuqlarini o‘rgandi. Keng tatbiq qildi. Kamchiliklarni bartaraf etdi. Qoloq o‘lkani madaniy va so‘lim go‘shaga aylantirdi.

Bobur 1526-yil dekabrda dushmanlari tomonidan zaharlandi. Tasodif tufayli omon qoldi. Rano Sango boshliq hind va afg‘on feodallarining katta qo‘shini bilan mardona kurashdi. Unga g‘alaba muyassar bo‘ldi. Ammo, borgan sari sog‘lig‘i yomonlashdi. Bir oyga yaqin isitma, uyqusizlik, holsizlik azob berdi. Shu o‘rtada o‘g‘li Humoyun Mirzo og‘ir xastalanib qoladi. Dori-darmonlar kor qilmaydi. Shunda tabiblar Humoyunning eng yaxshi ko‘rgan narsasini sadaqa qilishni tavsiya qilishadi. Shunda Bobur «*Men o‘zum tasadduq bo‘layin, xudo qabul qilsun*», -deya iltijo qiladi. «*O‘shal holatda kirib, uch qatla boshidan o‘rgulub, dedimkim, men ko‘tardim harne darding bor. O‘shal zamon men og‘ir bo‘ldum, ul engil bo‘ldi. Ul sihat bo‘lub qo‘pti. Men noxush bo‘lub yiqildim*»<sup>66</sup>. Bobur 1530-yil 26-dekabrda Agrada vafot etdi. Keyin uning vasiyatiga ko‘ra xoki Kobulga ko‘chirildi.

***Boburning adabiy merosi.*** «*Bobur – dilbar shaxs... Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan*».

<sup>66</sup>O‘sha asar, 335-bet.

Hindistonning mashhur davlat boshliqlaridan bo‘lgan Javoharla’l Neru tomonidan berilgan bu baho Boburning shaxs sifatidagi qiyofasini mukammal ko‘rsatib beradi. Bobur shoh sifatida ham ijodkor sifatida ham takrorlanmas shaxsdir.

U o‘z faoliyati, hayot yo‘li bilan odamzodning sabr-toqatiga haykal qo‘yan jasoratlari insondir. Bobur hayoti harakatchanlikning, mehnatkashlikning, izlanuvchanlikning noyob naimunasi. Shuning uchun ham u sarson-sargardonlikda, vatandan yiroqda kechgan mashaqqatlari qismatdan g‘olib keldi. Shoh sifatida hamma hukmdorga ham nasib etavermaydigan buyuk imperiya tuzdi. Ijodkor sifatida esa o‘zining nodir salohiyat va iqtidor sohibi ekanligini namoyish eta oldi.

U sohibi ~~devon~~ shoir. O‘z devonini bir necha nusxada ko‘chirtilgani, bir nusxasini Samarqandga yubortilgani haqida «Boburnoma»da ma’lumot beradi. Asarda ayrim she’rlarining yozilish tarixini yoritadi. She’riyatidagi samimiyligi, dardli va sohir tuyg‘ular tasviri hech bir o‘quvchini loqayd qoldirmaydi.

Uning «Boburnoma» asari o‘zbek mumtoz adabiyotining shoh asarlaridan biri. Uning jahon madaniyati tarixidagi beqiyos ahamiyati butun dunyoda tan olingan va e’tirof etilgan.

Bobur shoir, yozuvchi, tarixnavislikdan tashqari teran tafakkur miqyosiga ega olim sifatida ham nom taratgan. Uning «Risolayi aruz» asari turkiy aruz nazariyasi va amaliyotini yorituvchi noyob hodisadir. Undagi yangi fikrlar va umumlashmalar aruz ilmi taraqqiyotida muhimdir.

U shariat qonun-qoidalariiga bag‘ishlangan «Mubayin al-zakot» nomli asar ham yaratdi.

Musiqa bilan shug‘ullandi. «Chorgoh» savtini bog‘ladi. Musiqiy bilimlarini umumlashtirib «Musiqa ilmi» risolasini yaratdi. Mohir sarkarda sifatida jang qoidalari, yo‘l-yo‘riqlari va o‘zi yaratgan yangicha usulu yo‘sinlar haqida ma’lumot beruvchi «Harb ishi» asarini yozdi. Afsuski, bu ikki risola hozirgacha topilgani yo‘q.

Bobur tarjimon sifatida ham o‘z salohiyatini sinab ko‘rdi. U Xoja Ahrori Valining «Voldiya» asarini fors tilidan o‘zbek tiliga o‘girdi.

U «Boburnoma»da xattot sifatida Navoyi she’rlaridan saralab, «Saylanma» tuzganini eslaydi. Bobur 1504-yilda «Boburiy xati»ni yaratgan. Ushbu alifboda asarlar kitobat qilingan. Dunyoning turli hududlariga yuborilgan.

**Bobur she’riyati.** Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari jahon adabiyoti durdonalariga aylandi. «Boburnoma», “Risolayi aruz”, “Mubayyin”, “Voldiya” kabi ijod namunalari avlodlarni ma’naviy kamolotga ko‘taruvchi ulkan badiiy chashmalar. Sohir tuyg‘ularga, chuqur fikrlarga boy she’riyati shoirni dillarga yaqin etguvchi qanotlardir.

Boburning she’riy asarlari – lirk she’rlar (devon), masnaviyalar («Mubayyin», «Voldiya») dan iborat. Ular sodda va ravon uslubda yozilgan. Shoir she’riyatining o‘ziga xosligi shundaki, tasvir umumiyligidan konkretlikka o‘tadi. Tarixiylik badiiylik bilan muzayyan holda ifodalanadi. An’anaviy oshiq tuyg‘ulari real shaxs kechinmalarini bilan hamohanglashadi.

Bobur «Boburnoma»da she’rlaridan ikki marta devon tartib bergenligi haqida ma’lumot beradi. Birinchi marta 1519-yillarda Afg‘oniston daligida devonini tilga oladi: «Hofiz Mir kotibning og‘a-inisi Samarqandtin kelib erdi, bu fursatta Samarqandg‘a ruxsat berib, Fo‘lod sultong‘a devonimni yibordim»(217-bet). Bu devon adabiyotshunoslikda «Kobul devoni» nomi bilan ataladi. U topilgan emas.

Bobur 1528-1529-yillarda Hindistonda yaratgan lirk she’rlarini jamlab ikkinchi marta devon tartib bergen. «Boburnoma»da Ushbu asarlarini o‘z yaqinlariga taqdim etgani borasida so‘zlaydi: «Humoyung‘a tarjimanikim, Hindustong‘a kelgali aytqon ash’orni yuborildi. Hindolg‘a va Xoja Kalong‘a ham tarjima va «Ash’or» yiborildi. Mirzobek tag‘oyidin ham Komrong‘a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash’or va «Boburiy xati» bila bitilgan sarxatlar yiborildi» (328-bet).

Boburning ushbu she'rlar majmuasi «Hind devoni» nomi bilan yuritiladi. U 38 varaqdan iborat. Tarkibida Xoja Ahrori Valining «Voldiya» asari tarjimasi, 2ta kichik masnaviy, 2 g'azal, 24 ruboiy, 3 qit'a va "Aruz risolasi" dan bir parcha jamlangan. Asl nusxasi Rampur kutubxonasida saqlanuvchi ushbu devonga turlicha qarashlar bor. Ba'zi olimlar uni shoirdevonining avtograf nusxasi sifatida baholashgan. Ammo, Denison Ross (noshirlardan biri) uning juda chiroyli yozuvda, mukammal xattotlik san'ati namunasi darajasida ko'chirilganini hisobga olib, bu avtograf emas, degan xulosani bayon etadi. Rampur nusxasi tarixini mukammal o'rganib chiqqan olima S. Azimjonova ham D. Ross fikrini ma'qullaydi: «*Tak tshatelno oformit rukopis mog tolko kalligraf, a ne sam Babur, tak kak u nego ne bylo by vremeni dlya etogo*». Ammo, nazarimizda, bu muammoni chuqurroq tahlil qilib ko'rish lozim. Chunki, «Boburnoma» tasvirlaridan biz Boburning yaxshigina xattot bo'lgani haqida ham ma'lumotga ega bo'lamiz. Bir necha o'rinda asarlarni ko'chirayotgani haqida so'zlaydi. Jumladan, Navoyi «Xazoyin ul-maoniyy» devonidan «Saylanma» devon ko'chirib tugatganini eslaydi: «*Odina kuni oyning yigirma uchida Alisherbekning to'rt devonidin buhur, avzon tartibi bila g'azallar va abyotkim, intixob qililadur edi, itmomig'a etti*»(227-bet). «Hind devoni» 20 varaq hoshiyalaridagi Shohjahonning yozuvlari, Bobur tomonidan amalga oshirilgan tuzatishlar, yozuvlar va so'nggi varaqda keltirilgan e'tiroflar bizga avtograf nusxa bo'lishi ham mumkin, degan xulosaga kelishimizga asos beradi.

Bobur "Devon"ining zamonamizdag'i mukammal nashrlaridan biri Turkiyada amalga oshirilgan. Uni Bilol Yujel Anqarada Otaturk madaniy markazi tomonidan 1995-yilda chop ettingan. Yujel uni nashrga tayyorlashda 5ta – Parij, Rampur va Istanbulning turli kutubxonalarida saqlanuvchi yana 3ta qo'lyozma nusxadan foydalangan. She'rlarning vazni aniqlab ko'rsatilgan.

Dunyo kutubxonalarida Bobur devonining 9ta qo'lyozmasi mavjud. Shulardan bittasi Fransiyada, 3tasi Turkiyada, 3tasi Hindistonda, 1tasi Angliyada, 1tasi Toshkentda saqlanadi.

1. Hindiston, Rampur Navvob kutubxonasida 19 raqami ostida;

2. Fransiya, Parij Milliy kutubxonasida 1230 raqamida;  
3. Istanbul universiteti kutubxonasida 3743 raqami ostida saqlanadi. Bu nusxani Turkiya olimi B. Yujel tadqiq etgan. Olim ayrim dalillarga asoslanib, ushbu manbani dastxat nusxa degan xulosaga keladi. U mavjud nusxalar ichida eng to‘lig‘idir. 105 varaqdan iborat. U ham an’anaviy devon tartibida emas. Tarkibida 121 g‘azal, 211 ruboiy, 8 masnaviy, 53 muammo, 18 qit‘a, 15 tuyuq, 79 fard, masnu’ g‘azal, “Risolayi Voldiyya” va nasriy parchalar bor. Qo‘lyozma faksimilesini B. Yujel 1995-yilda nashr ettirgan.

Turkiyadagi 2314 raqamli qo‘lyozma Istanbul, To‘pqopni saroyi Ravon kutubxonasida, 332-qo‘lyozma ham Turkiya, Istanbul shahar kutubxonasida saqlanadi.

Hindistondagi yana 2ta nusxa 18 raqami bilan Haydarobod, Salorjang muzeyida saqlanadi.

Angliyadagi nusxa London, Britaniya muzeyi kutubxonasida 1402 raqami bilan saqlanadi.

Hindiston va Angliya nusxalarining kotiblari va ko‘chirilgan vaqt ma‘lum. Ko‘pchiligi XVIII asrda ko‘chirilgan.

Bobur devonining 9-nusxasi Toshkentda O‘z FA Alisher Navoyi nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondida 317 raqami bilan saqlanadi. Matn novvotrang Qo‘qon va fabrika qog‘ozlariga 1996-yil To‘xtamurod Zufarov tomonidan nasta‘liq xatida ko‘chirilgan.

Bobur she’rlarini devonchilikning an’anaviy qolipiga amal qilgan holda tuzishga ulgurmagan ko‘rinadi. Chunki dunyo kutubxonalarida saqlanuvchi 9 qo‘lyozma nusxaning birortasida ham devonning mukammal talablari to‘liq bajarilmagan. Faqat 1776-yilda ko‘chirilgan, Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanuvchi nusxa ma‘lum talablarga biroz javob beradi. Ammo u qo‘lyozma kotib tomonidan tartiblangan. Shoир devoni hozirgacha 10 martadan ortiq chop etilgan. Bobur lirik she’rlarini 8ta janarda yaratgan. Hozirgacha uning 126ta g‘azal, 12ta masnaviy, 23ta qit‘a, 20ta tuyuq, 117ta fard, 54ta muammo, 230ta ruboiy, 2ta masnu’ she’ri bizga ma‘lum. Lirik she’rlarida ramal, rajaz, hazaj, mujtass vaznlari faol maqomda turgan.

Bobur g'azallari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular qisqa hajmli. Bobur, asosan, 5-7 baytli g'azallar yaratgan. 4 baytlilari ham uchraydi. Musajja g'azalning noyob namunalarini ijod etgan. Mumtoz adabiyotda noyob hisoblangan "Masnu" g'azal ham yaratgan. Shoir, ayniqsa, ruboijanrida o'zining betakror iqtidorga egaligini namoyish eta olgan. U an'anaviy janrni takomillashtirishga erishadi. Ayrim ruboilyarida taxallus qo'llaydi. Shoir mumtoz adabiyotda faol hisoblangan – tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda ham o'z mahoratini ko'rsata olgan. U zullisonayn shoir. Ikki – turk va fors tilida erkin ijod qila olgan.

Bobur tuyg'ulari samimiyl, tabiiy shoir. She'rlarining katta qismi hasbi hol yo'naliishida. Ularda shoirning taqdiri, qismati, hayoti va faoliyati bilan bog'liq hodisalarga aloqador kechinmalarning ifodasini ko'ramiz.

Shoir she'riyatining mavzu qamrovi xilma-xil. Ularni shartli ravishda oshiqona, hasbi hol, falsafiy-orifona yo'naliishlarga ajratib talqin etish mumkin.

Bobur tuyg'ulari tovlanuvchan shoir. Lirik qahramon ba'zan hayotning g'animatligini teran anglagan, ruhiy erkinlikni qadrlagan hayotsevar inson sifatida, ba'zan esa armonlar iskanjasida azoblanuvchi mahzun, tushkun kayfiyatli inson sifatida tasavvurimizda paydo bo'ladi. Ammo, har qanday vaziyatda ham shoir chapdastlik bilan o'z ruhiy holatini yaxshilik va umidvorlikka yo'naltira oladi. Quyidagi baytda shoir o'zining yashash tamoyilini ifodalab bera olgan:

*Bori elga yaxshiliq qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q,  
Kim degaylar, dahr aro qoldi falondinyaxshilig'.*

Shoir she'riyatini kuzatar ekanmiz, nazarimizda, shunday bir mavzu borki, har bir asariga tomirda oquvchi qondek jon, tiriklik ato etib turadi. Bu keng ma'nodagi sog'inch, sog'inish tuyg'usidir. Muhabbatni sog'inish, yaxshilikni, vafo, sadoqatni, xiyonatsiz dunyoni, vatanni sog'inish...

Bobur – tuyg‘ulari ulkan shoir. U dunyoni ko‘ngil ko‘zlar bilan ko‘ra oladi. Borliqdagi har bir ashyodagi mo‘jiza, tilsimni anglaydi. Ularning tilini, qalbini tushunadi. Atrofidagi insonlarning ham xuddi shunday ruhiy yuksaklikda umr kechirishlarini orzulaydi. Ammo, shoir «ko‘ngliday ko‘ngil topa olmay» ozor chekadi:

*Hamdark yore qonikim, bir g‘amgusore qonikim,  
Abri bahore qonikim, Bobur kibi yig‘lay bila.*

Hayotdagi eng katta fofija beparvolik, loqaydlikdir. Ko‘p yo‘qotishlarning sababchisi – shu. Bedardlar hamisha dard ahlini iztirobga solgan:

*Mening ko‘nglumni har dam og‘ritib parvoe qilmaysen,  
Sen, ey bedard, naylaykim, ko‘ngul dardini bilmaysen...*

Bu tuyg‘ular, zamonlar o‘tsa-da, bizning dilimizga qanchalar yaqin, qanchalar tanish va oshno. Bu, albatta, tasvirdagi samimiylit, tabiiylit va hayotiylik natijasidir.

Ko‘ngul timsoli mumtoz she’riyatimizda keng qamrovli, katta tadqiqotlarga manba bo‘lgulik mavzudir. Bu Bobur she’riyatida ham o‘ziga xos, yangicha talqinini topgan:

*Tanimg‘a nechakim nazzora qilsang, dog‘ ko‘rgaysen,  
Ko‘ngulda, har nechakim istasang, ozor topqaysen...*

Lirik qahramon tani otilgan «o‘qlaru tikanlardan» dog‘larga to‘lgan. Ozoru og‘riqlardan bag‘ri pajmurda. Zamona zarbidan, xiyonatu sotqinliklardan yuragi tilkalangan. Mana, baytdan paydo bo‘ladigan tasavvur.

Bobur she’rlari hayotiy falsafaga, teran fikrlarga boy. Yuqoridagi baytda ham biz ana shu inson ruhiy holati manzarasining noyob tasvirini, uning yangicha, o‘ziga xos badiiy ifodasini kuzatamiz. Bir qaraganda, bayt oddiygina ruhiy kechinma

Izboridek tuyuladi. Ammo, misralarning tashqi ma’nosи bilan birga, mumtoz adabiyotda keng qo’llangan harfiy san’atlar orqali ifodalangan ichki mazmun ham borligini anglash qiyin emas. «*Tuning'a nechakim nazzora qilsang, dog' ko'rgaysen*» satriga «*tan*» so‘zining arab imlosida yozilishiga ishora bor. «*Tan*» so‘zida «*te*» va «*nun*» harflari ustida qo‘ylgan nuqtalar zadalangan tan ifoda mohiyatini chuqurlashtirishga xizmat qilgan.

“*Ko'ngulda, har nechakim istasang, ozor topqaysen*”.

«*Ko'ngub*» so‘zining yozilish shaklidagi egilishlar, siniqliklar dilzadilik inkishofini teranroq aks ettirgan.

Bobur – yuksak badiiy mahorat sohibi. O‘zbek adabiyotida Alisher Navoyidan so‘ng ruhbob she’riyat (lirika) ravnaqi va takomilda Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o‘rin tutadi. Bobur she’riyatning o‘zi qalam surgan har bir turida mislsiz badiiy mahorat namunalarini ko‘rsatgan. Butun Sharq she’riyati singari, Bobur nazmida ham g‘azal yetakchi mavqe egallaydi.

G‘azalshunoslikda g‘azalning eng yetuk va nodir turlaridan biri voqeaband g‘azal ekanligi e’tirof etiladi. Voqeaband g‘azalda lirik mazmun biror voqeа-hodisa bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. Bunday g‘azal ikki xil usulda shakllanadi: 1. G‘azal biror voqeа-hodisa munosabati bilan, uning ta’sirida yoziladi. Bunday g‘azalda o‘sha voqeа taassuroti yaqqol sezilib turadi. 2. G‘azal mazmuni muayyan voqeа-hodisa asosiga quriladi. Ya’ni asarda bevosita bo‘lib o‘tgan voqeа ruhbob yo‘sinda tasvirlanadi. Bunday voqeaband g‘azallarda lirik qahramon kechinmalari bilan bog‘liq voqeа-hodisa ixcham shaklda, ruhbob manzaralarda ifodalanadi.

Bobur voqeaband g‘azalni ham nazariy, ham amaliy jihatdan kashf etgan olim va ijodkordir. O‘zbek g‘azaliyotida voqeaband g‘azalning keng yoyilishida Boburning alohida xizmati bor. Birinchidan, Bobur Alisher Navoyi g‘azaliyotidagi voqeabandlikni birinchi bo‘lib olimona baholadi va bu to‘g‘rida aruz haqidagi risolasida yozdi. Bu – Navoyi g‘azaliyoti, shu bilan birga, voqeaband g‘azal ham tadqiq va targ‘ib etildi, degan so‘z. Ikkinchidan, Boburning o‘zi ham voqeaband g‘azalning ajoyib namunalarini yaratdi. Voqeaband g‘azal lirik hikoyat deb ham

yuritiladiki, ushbu atamaga Bobur ta'biri asos bo'lgan. "Risolayi aruz"da Bobur Navoyining voqeaband bir g'azaliga: "*Boshtin oyoq bu g'azalda bir hikoyat manzum bo 'libtur*", -deya ta'rif beradi va asarni o'mnak sifatida to'liq keltiradi.

*O'tgan kecha men erdimu ul siyntan erdi,  
Gulshan to'rida maskanimiz bir chaman erdi.  
Gulbul uza ikki kishiga siqqucha manzil,  
Bulbul ila guldek ikimizga vatan erdi...*

Shubhasiz, bunday badiiy mazmun va qurilmali g'azal yaratish mahoratini Bobur Navoyi maktabidan o'zlashtirgan. Aruz haqidagi risolasini yaratish chog'ida voqeaband asarlar Bobur g'azaliyoti g'aznasida bor ediki, kezi kelganda u: "*Mir Alisher Navoyi g'azali tarzida bu g'azalda dog'i boshtin-oyoq bir hikoyat manzum bo 'lubtur*", - deb yozadi va o'z voqeaband g'azallaridan birini keltiradi:

*Tuno kun birla bu tun majlisi asru xush edi,  
Majlis ahli bori dilxohu bori dilkash edi.  
Borining so 'zi edi xo 'bu latifu rangin,  
Ne parishonu ne bema 'nivu ne chirmash edi.  
Yaxshi may yo 'q edivu nash 'ayi may yaxshi edi,  
Noxush el yo 'q edivu asru havoyi xush edi.  
Bori ahbob edi hozir, bori asbob edi jam,  
Sozu xonanda bila naqlu mayi beg 'ash edi.  
Goh purxanda edi el base sarxushluqtin,  
Mastlig 'din yana goh el ko 'zi to 'la yosh edi.  
Barcha ta 'zim qilib bir-birini mastona,  
Goh boshta oyoq erdi, goh oyoqda bosh edi.  
Tun yarmig 'acha bu nav ' edivu ondin so 'ng  
Majlis ahlining ishi har sorig 'a tarqash edi.  
Men iliktin borib erdim, tutib ilgimni birov  
Meni uyg 'otti, ko 'z ochtim esa, ul mahvash edi.  
Bobur ar harza dedi, majlis eli, ayb etmang,  
Karam aylang, oni ma 'zur tutung, sarxush edi.*

Ushbu g'azal bo'lib o'tgan voqeа manzarida lirik qahramon kechinmalarini nafis tasvirlashi bilan go'zaldir. Boburning yana bir g'azali do'stu yor diydoridan, munis va g'animat davradan tug'ilgan taassurot asosida yozilgan. G'azal yozishga ilhom bergen voqeaning manzili, mavsumi, sharoiti ilk baytdayoq san'atkorona izhor etilgan:

*Yoz fasli, yor vasli, do'stlearning suhbat,  
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.*

An'anaviy g'azalnavislik qoidasidan farqli o'laroq, ushbu matlada pishiq, lisoniy tugal jumla tuzib, hikmatomuz bir fikr — g'oyani ilgari surish ko'zda tutilmagan. Unda faqat shoir xotirasiga o'rashgan huzurbaxsh bir manzara chizilgan, xolos. Lekin shu manzara g'azalning mavzusi, mundarijasi hamda g'oyaviy mazmunini belgilashga tatifulikdir. Matlaning san'atpardonligi shundaki, bir-biriga mutanosib, har misrada uchtadan, oltita tushuncha yoxud holat uyg'un aks etgan. Ular bayt doirasida ataylab, badiiy sir saqlash ma'nosida, tartibsiz joylashtilgan. Bu usulni laf va nashri nomurattab deb ham ataydilar. Ziyrak g'azalxon bu san'atni sharhsiz ham sezadi. Jumboqning bor-yo'q murakkabligi shundaki, baytda uch narsa uch narsaga muvofiqligi aytilgan. Ularning o'zaro tanosibini matladan maqtagacha bo'lган baytlar izohlaydi.

*Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,  
Kimga bu nash'a tuyassar bo'lsa, bordur davlati.*

Matla bilan qiyoslab, ko'rish mumkinki, undagi birinchi mashum va oltinchi mashum ikkinchi baytda mutanosib. Yoz mavsumi bilan mayxo'rlik bazmi matla tarkibida o'zaro olisda joylashgan bo'lsa, keyingi baytda yonma-yon keltirilgan. Demak, bodaning kayfiyati bilan mashg'ul bo'lmoq yoz fasliga munosib ekan. Mantiqiy muvofiqlik shakliy mutanosiblikni ham tartibga solmoqda. Bunday so'z san'atkorligidan chiqadigan hissa-hikmat oraliq baytlarning ikkinchi misralarida mujassamlashgan. Kimda-

kim chog'ir ichmaklikning nash'asini yoz faslida sursa, u davlatmand, "Sog'lig'ing - boyliging" degan naqlidan kelib chiqadigan bo'lsak, sog' -salomat bo'lar ekan.

*Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor,  
Ul zamon bo 'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.*

Boshlanma baytda "*yor visoli*" bilan "*ishq dardi*" eng yaqin, ketma-ket joylashtirilgandir. Uchinchi baytda esa ushbu timsollar misraning avvali va oxiridan o'r'in olgan. Baytlarning shakliy-mantiqiy qiyosi, avvalo, ishq dardi bilan "*vasli yor*" timsollarini mutanosib ekanligini ko'rsatadi. Qolaversa, timsollar masofasining torayib, kengayishi shunchaki shaklbozlik emas. Timsollarning yangi tartibi lisoniy, ruhiy, mantiqiy asoslarga tayangan. Jumlaning boshqacha tuzish kutilgan badiiy hosilani bermaydi. Aytaylik, timsollar ters joylashtirilsin: "*Toparga vasli yor har kimki cheksa ishq dardini*". Yoxud timsollar yonma-yon o'r'in olsin: "*Chekib har kimki ishq dardini vasli yor topsa*". Har ikki holatda ham lisoniy, ruhiy, mantiqiy asoslarga putur etadi. Jumlaning boburona tuzilishi qonuniy. Chunki sabab va oqibat qonuniyati timsollarning oldinma-ketin kelishini taqozo etadi. Ishq dardini chekish bilan yor vasliga tuyassar bo'lish mobaynida bepoyon hijron vodiysi yastanib yotibdiki, bu ruhiy masofa timsollar misraning ikki qanonida qoyim-maqom turishini muqarrar etgan. Demak, shaklan "*ishq dardi*"ning muvofig'i "*vasli yor*" bo'lsa, ma'nani, ishq dardining malhami yor vasli ekan. Alqissa, baytdan chiqadigan hikmat shuki, ishq dardini chekish har qancha uqubatli bo'lmashin, oxir-oqibatda oshiqqa yor diyordi nasib etarkan, ayriliqning asriy azobi o'sha lahzadayoq unutiladi.

*Do 'stlarning suhbatida ne xush o 'lg'ay bahsi she 'r,  
To bilingay har kishining tab 'i birla holati.*

Yana timsollar tizimi e'tiborni tortadi. Bu gal timsollarning o'r'in almashtirish jarayonida tardi aks – ters takror usuli qo'llangan. Ya'ni avval "*do 'stlarning suhbat*" misra oxirida, "*she'r bahsi*" misra boshida turgan bo'lsa, endi ular teskari tartibda

joylashgan. Demak, o‘zaro muvofiq timsollarning uchinchi jufti ham mazmunga muvofiq qaror topgan. Do‘srlarning suhbatida eng maroqli mashg‘ulot – she‘r bahsi. Bu shoh va shoir Boburning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan umumlashma xulosa. Bayting ikkinchi misrasida she‘r bahsi jarayonlarida Bobur insonshunos aflatida hosil qilgan yana bir xulosa mujassam. She‘r bahsi, mushoirayu bahri bayt mashqlari shunisi bilan go‘zalki, har bir davra ahlining ruhiy holati, kayfiyati, dunyoqarashi, didi, saviyasi, tab‘i nazmi, hofizasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, matlada qo‘yilgan uch narsaning uch narsaga muvofiqligi keyingi uch baytda to‘lig‘icha badiiy sharhlandi. Bu sharhlar nimaga xizmat qiladi? Matla mohiyatini maydalab tushuntirishgami? Yo‘q, badiiy misraning vazifasi bu emas. Oraliq baytlar kattaroq hayotiy-adabiy umumlashma izhori va iqroriga zamin hozirlaydi. Maqta – tugallanma bayt ana shunday uzil-kesil, tugal xulosa yanglig‘ maydonga keladi.

*Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,  
Mundin ortiq bo‘lmag‘ay, Bobur, jahoning ishrati.*

Darvoqe, bu uch ishni uch vaqtga muvofiq keltirish chog‘ir ichmakklik bilan yoz faslida lazzatlanish, ishq dardiga yor vaslidan hiso topish, do‘srlarning davrasida she‘r bahsidan bahramand bo‘lish har kimga ham tuyassar bo‘lmaydigan saodat. Ammo mudmandu saodatmand biror zot u uch narsani bu uch narsaga muvofiq topolsa, jahoning ishratiga erishgan bo‘lar ekan.

Endi oraliq baytlarni bir lahza nazardan soqit qilib, matla bilan maqta munosabatlariga e’tibor bering. Shu holatda ham baytlar ornsida chambarchas mantiqiy jipslik, muammo va uning yechimi, tugal va yaxlit badiiy mazmun mujassam. Ammo bu holatda qo‘shtbayt faqat umumlashma badiiy fikrdangina iborat bo‘lib qolardi, g‘azalning emas, balki to‘rtlik, ruboiy yoki qit‘anining masallig‘ini tashkil etardi. Demak, g‘azal badiiyati (poetikasi), janr qonuniyati matlada adabiy muammo izhori, oraliq baytlarda uning badiiy tahlili, maqtada chiroyli yakun, umumlashma xulosa o‘rin

olishini taqozo etarkan. Voqeaband g‘azalning ahamiyati shundaki, shoir hayotiy hodisalardan olgan taassurotlari, shaxsiy kechinmalarini badiiy ifodalar bilan yo‘g‘irib, mag‘zi to‘q xulosalar izhori orqali umuminsoniy qadriyatga aylantirgan.

Mantiqiy izchillik, timsollar tiziminining pishiqligi, fikriy tugallik Boburning voqeaband bo‘lmagan boshqa turdag'i azallari badiiy go‘zalligiga ham xos xususiyat. Bobur g‘azallari puxta ishlangan zanjirga, mustahkam va munaqqash qurilgan me’moriy obidalar imoratiga o‘xshaydi. Bu obidalarni maxsus mutolaa chog‘idagina ziyorat etmaysiz. Ya’ni ularni ko‘rgandagina eslamaysiz, balki tabiat manzaralari, hayotning quvonch va tashvishlari Bobur g‘azallarini tez-tez yodlab turishga undaydi:

*Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzing hajrida sarg‘ardim,  
Ko‘rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim...*

Yoniq dard bilan kuymanayotgan xazon yaproqlari tiyra ko‘nglingizga shuur shu’lasini soladi. Ko‘ngil ka’basi yorishadi. Xazon fasli bilan Bobur g‘azalining mahzun kayfiyati ruhingizda ajib uyg‘unlik uyg‘otadi. Ishq qismatidagi chigallik chehralarga nomuvofiqlik nurini solgan: mahbub yuzi hayot gupurib turgan qizil qondek lolarang – habib chehrasi o‘lim soya solgani singari za’faron. Lirik qahramon shu ishq bilan o‘rtanadi. Shoir xazon yaprog‘ining mahzun taqdirida o‘z qismati ifodasini ko‘radi.

Bobur she’rda so‘z qo‘llashga katta mas’uliyat bilan yondashadi. Har bir so‘zga chuqr ma’no yuklaydi. Ushbu baytdagi birgina «*xazon yaprog‘i yanglig‘*» tashbehining zaminida qancha teranlik mujassam. Yaproq bahordan olisda – kuzda, uni qo‘msab, sog‘inib sarg‘ayadi. Uning ildizi daraxtda. Daraxtdan uzildimi, tamom. Qovjiraydi. Uning yaproqligi unutiladi. Bu bizga inson taqdirini qanchalar eslatadigan holat. G‘azaldagi “*lolarux*” – yor va unga murojaat ko‘p ma’noda. Shulardan birini vatan va unga nido deb tushunamiz. G‘azalni biz shoirning ona Vatani – Mavarounnahr bilan bog‘liq armonlari, sog‘inchlari ifodasi sifatida tushunishga harakat qilamiz.

Vatan tuyg'usi, unga muhabbat inson ko'ngliga ravshanlik berib turuvchi noyob mo'jizadir. Undan ayro tushgan inson taqdiri xazon yaprog'i qismati yanglig' fojiadir. Boburning mahorati shundaki, shu birgina o'xshatish vositasida butun boshli bir taqdir tadrijini, kechmishini ifodalashga erishgan.

*Sen, ey gul, qo 'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,  
Ayog'ingga tushib bargi xazondek buncha yolbordim.*

Oshiqning bargi xazondek yolborishi kuzning salqin yellari yeldirayotgan qovjiroq yaproqlarga naqadar monand. Oshiq mana shu yaproqlardek jonsarak yelib-yugursa ham, ma'shuqa sarkashligini qo'ymaydi. Voqe'an, shoir nima uchun uning sarkashligini sarvga qiyoslaydi, nega mahbuba sarvdek sarkashlik qiladi? Negaki, Tangri taolo azal-azaldan sarvni ozod yaratmish. U - mevasiz daraxt. U boshqa hech bir o'simlik bilan chatishmaydi, juft bo'lmaydi, qovushmaydi, yakka-yolg'iz, mag'rur va sarkash umr o'tkazadi.

Mazkur g'azalni sof dunyoviy ruhda talqin etish dushvor. Undagi badiiy manzara va timsollar chuqur ramziy mohiyatga ega. Lekin "Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Bobur, barobardur, Bu olamda o'zumni chun yamon, yaxshidin o'tkardim" satrlari Boburning og'ir hayotiy kechmishi asoratidan darak beradi. Bobur she'riyatini shoir ruhiyatining vujudi deb oladigan bo'lsak, yamonu yaxshidan ko'rgan jabrlari, chekkan azob-uqubatlari haqidagi baytlar jarohatdek qontalash bo'lib turadi:

*Har yong'aki azm etsam, yonimda borur mehnat,  
Har sorikim yuzlansam, o'trumg'a kelur qayg'u.*

*Yuz javru sitam ko'rgan, ming mehnatu g'am ko'rgan,  
Osoyishi kam ko'rgan mendek yana bir bormu ?!*

Haiqiqatan, ezgulik izlaganidan yovuzlik ko'rgan, xayrixohlik kutganidan badxohlik qaytgan ko'ngil muayyan darajada vaqtincha badgumonlikka berilishi, yaxshidan ham, yomondan ham

umidsizlanib qolishi tabiiy. Lekin yomonlik qilgan kishiga ham yaxshilik bilan javob qaytarish, yaxshilik qilmagan taqdirda, loaqal, yomonlik ham qilmaslik milliy islomiy mafkuramizning umuminsoniy, umriboqiy hikmatlaridandir. Musulmonlarning eng yaxshisi elga hamisha yaxshilik qiluvchilar ekanligi Qur’oni karim va hadisi shariflarda xo‘b aytilgan. Bobur ham komil inson orzusida shu fazilatni ulug‘laydi va yaxshilikni katta umidvorlik bilan targ‘ib etadi.

*Bori elga yaxshilik qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q  
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshiliq.*

G‘azalning ibtidosi bo‘lganidek, intihosi ham muqarrar. Mazmun va shakl butunligi, g‘azal imoratining Bobur ko‘zda tutgan badiiy qurilmasi tugallanma baytni ham taqozo etadi.

*Yaxshiliq ahli jahonda istama Bobur kibi,  
Kim ko‘rbdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshiliq.*

Yaxshilikning bezavol va umriboqiy xislat ekanligi haqidagi saboqdan so‘ng bu baytni shunday tushunish mumkinki, “ey ko‘ngil, sen yaxshi bo‘l va hamisha yaxshilik qil, ammo bu yaxshililingga javob tama etma, bunga Tangrining o‘z mukofot-va’dasi bor, hargiz Bobur kabi ahli jahondan yaxshilik qidirib sarson-sargardon bo‘lma. Zero, dunyo va dunyo ahlidan kim yaxshilik ko‘ribdiki, sen ko‘rsang”. Matladagi birinchi misraning maqtaning ikkinchi misrasida aynan takrorlangani mumtoz badiiyat ilmidagi radd ul-matla (matlaning qaytarilishi) san’ati bo‘lib, bu usul g‘azalning shakliy-mantiqiy butunligini ta’minlovchi muhim omildir. Bobur asarni qanday kayfiyat va so‘zlar bilan boshlagan bo‘lsa, oxirigacha shu ruhiy muvozanatda saqladi. Muxlisni g‘azal mulkiga qaysi makondan olib parvoz etgan bo‘lsa, shu manzilga ohista qo‘ndirdi. Bobur g‘azaliyotining maftunkor, ko‘ngilni shavqqa to‘ldiruvchi, ruhni ko‘taruvchi, aqlga quvvat beruvchi sehri mana shularda.

Bobur she'riyati – mahzun she'riyat. Unda armonning suratini ko'tish mumkin:

*Mening ko'nglumki gulning g'unchasidek tah-batah qondur,  
Agar yuz ming bahor o'lса, ochilmog'i neimkondur...*

Yoki:

*G'unchadek ko'nglum mening gulzor mayli qilmag'ay,  
G'um bila butgan ko'ngul gulgasht ila ochilmag'ay...*

G'uncha –ayriliqdagi oshiq kayfiyatini, ruhiyatini ifodalovchi timsol. Uning gul bo'lib ochilishi shodlik barq urib turgan yuzga monanddir. Bobur lirik qahramoni ko'ngli esa g'unchadek yumilgan. Nega? Chunki, unga yorug'lik baxsh etuvchi Vatan ismli quyoshidan mosuvo. Shoir faqat so'zlar bilan emas, balki timsollar bilan likrileydi. Bu esa tuyg'ular manzarasini ranginroq ifodalash imkonini yaratadi. «**G'uncha**» so'zi zamiriga singdirilgan dard tilsimlarini anglashga ko'mak beradi.

Boburning quyidagi g'azali 5 baytdan iborat kichik hajmli asar. Ammo, unda shoirning mahorati, uslubi yaqqol ko'ringan. G'azal oshiqona yo'nalishda. Unda oshiq va ma'shuqa timsollari ishtirok etadi. Shoir dastlab tabiatdagi noyob manzaralar muqoyasasida mahbuba tashqi qiyofasini tasvirlaydi. Keyingi baytlarda uning fe'l-atvoriga e'tiborni qaratadi. Nihoyat, so'nggi baytlarda ma'shuqa go'zalligi va tabiatni tufayli yuzaga kelgan oshiqning rohiy holati o'z ifodasini topadi:

*Xating aro uzoring sabza ichida lola,  
Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola.  
Barcha parilar, ey jon, girdingda zoru hayron,  
Go'yo erur namoyon oy tegrasinda hola.  
Mehru vafoni ag'yor ko'p ko'rdi sendin, ey yor,  
Javru jafoni bisyor qilding manga havola.  
Hajringda, ey pariro', ko'zumdin uchti uyqu,  
Har kecha tongg'a degru ishimdur ohu nola,*

*Yuz safhasinda xatlar yoshdinki har taraf bor,  
Ishqingda Bobur aylar bu nav' yuz risola .*

Shoir dastlabki baytda ma'shuqaning yuz ila ko'ziga e'tiborni tortadi. Ularni tasvirlar ekan, tabiatdan go'zal manzarani topadi va uni musavvir mo'yqalamidan toza chiqqan suratdek tasavvurimizda namoyon eta oladi. Nafis maysalar uzra ochilgan lola – mahbubanining e'tiborni tortuvchi mayin tukli yuzi. Lolazor ichra turgan ohu esa uning xumor ko'zлari. Yuzni lolaga, ko'zni ohuga o'xshatish yangilik emas. Ammo, Bobur shu an'anaviylikni birlashtirib, yangi manzara yarata oladi. Uning mahorati ham shunda. Lolazor va undagi ohu qiyofasi o'quvchiga manzaradan ko'ra ko'proq so'zlaydi. Uni taшavvur va mushohada etishga undaydi. Ammo, shoir bu tasvir bilan qanoatlanmaydi. Ma'lumki, mahbuba yuzini oyga qiyoslash mumtoz adabiyotda an'ana. Bobur bu tashbehni ham kengaytiradi. Oy va uning atrofidagi halqani mahbuba go'zalligidan hayratda, uning jamolini tomosha qilayotgan parilar zanjiriga o'xshatadi. Bu ham yuqoridagi kabi tasvirdagi mubolag'ani kuchaytiradi. Uni yanada jonlantiradi.

Navbatdagi baytda mahbuba qiyofasiga uning fe'l-atvori zidlantiriladi. Bir kam dunyo ekanligi uning qilmishida o'z ifodasini topadi. Chunki u ag'yorga qancha mehru vafo ko'rsatsa, oshiqli shuncha javru jafo havola etadi. Uning tabiatidagi ziddiyat, o'jarlikni fosh etishga shoir tazod – qarshilantirish san'atidan foydalanadi:

*Mehru vafoni ag'yor ko'p ko'rди sendin, ey yor,  
Javru jafoni bisyor qilding manga havola.*

Bobur she'riyatida tazod san'ati faol qo'llanilgan. Bu san'at lirik qahramonning ziddiyatlari kechinmalarini ifodalash uchun qo'l keladi. Uning yuragidagi hijron, g'urbat, sog'inch va armon ranglarini tasvirlashga xizmat qiladi. Zid tuyg'ularning parallel qo'llanishi ruhiy tahlilni chuqurlashtiradi.

Nihoyat, so'nggi ikki baytda hijron azobida qolgan, yor yodi ishtiyoqida ko'zidan uyqu qochib, tonggacha to'lg'anib chiqayotgan oshiqning ruhiy holatlari o'z ifodasini topadi. Ushbu j'azalda Boburning ruhiy manzaralarni chuqur talqin etuvchi shoir isfatidagi mahoratini kuzatamiz. U psixologik tahlilning teranligiga badliy san'atlardan unumli va o'rinli foydalanish orqali erishgan.

So'nggi baytda shoir tajnis, ihmom, kitobat kabi bir necha san'atlarni qo'llagan:

*Yuz safhasinda xatlar yoshdinki har taraf bor,  
Ishqingga Bobur aylar bu nav' yuz risola.*

Bayt boshida va oxirida ishlatilgan «*yuz safhasinda*» «*yuz risola*» yaratishda ham bir hikmat ko'ramiz. Shoir «*yuz*» so'zi orqali tajnis san'atini qo'llagan. «*Xat*» so'zi vositasida ikki –yozuv va xat (mayin tuklar) ma'nolarini nazarda tutib ihmom san'atini yaratadi. Yuz so'zining arab yozuvidagi shaklini ( ) e'tiborga olib, undagi nuqtalarni yosh tomchilariga qiyoslab, kitobat san'atini ham qo'llaydi. Ko'rinaradiki, Bobur so'zlarni qo'llashda bor mahoratini namoyon eta oladi. Har bir so'zning turli ma'no toylanishlarini nazarda tutib ishlatadi.

Bobur oshiqona mavzudagi she'rlarida faqat ishqiy lechinmalar –iztiroblar, vasl ayyomidan shodumonliklarni kuylash bilangina cheklanmaydi. Ularning zamiriga hayotiy tajribalaridan anglagan, murakkab qismat zarbalaridan his qilgan falsafalarni, yulosalarni ham singdiradi:

*Ey ko'ngul, yuzin ko'rib zulfı parishonin sog'in,  
Shomi hijrondin tavahhum ayla vasl ayyomida .*

Hayot ziddiyatlarga to'la. O'z taqdirida buning guvohi bo'lgan Bobur yuqoridagi baytda qarama-qarshiliklarga yo'g'irilgan inson umri sahifalarini tazod san'ati vositasida yoritishga harakat qiladi. Shoir ko'ngilga murojaat etib, diydorga erishganda, yuzni to'suvchi zulfni, visol ayyomida esa hijron tunini unutmaslikni

uqtiradi. Bundan shoirning maqsadi, birinchidan, bu ikki – shodmonlik va qayg‘u holati har daqiqada o‘rin almashishi mumkinligini eslatish bo‘lsa, ikkinchidan, masrur damlar g‘animatligini, uni qadrlashni anglashga da’vat, uchinchidan esa, har qanday vaziyatda ham insonni o‘z muvozanatini saqlashga chorlovdir. Bu kabi chuqur hayotiy mulohazalar shoir she’riyatining ijtimoiy mohiyatini oshiradi.

«Boburnoma» tarixiy asar bo‘lgani sababli, unda Bobur siymosi tarixiy shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U ishtirok etgan voqealar ham, fikrlar ko‘lami ham, asosan, tarixiylik nuqtayi nazarida turadi. Shundan kelib chiqib, adabiyotshunoslar Bobur she’riyatiga baho berganda ham, asosan, shoir hasbi holi bilan bog‘lash yo‘lidan borishgan. Aslida esa, Bobur she’rlarini kuzatar ekanmiz, lirik qahramon tabiatini biz\_bilgandan ko‘ra murakkabroq ekanligini ko‘ramiz. Shoirning falsafiy dunyoqarashi, olam va odam mohiyatini anglash miyosi, hodisa va mohiyatning aloqadorlik darajasiga munosabati kabi chuqur masalalar she’riyatida o‘z ifodasini topgan. Boburning botiniy olami, ruhiy dunyosi lirik qahramon tabiatida ko‘proq oydinlashgan.

Ta’kidlaganimizdek, Bobur she’riyatida ishq yetakchi mavzu. Biz uni ko‘proq dunyoviy yo‘nalishda talqin etamiz. Ammo, timsollar olamini, ularning mohiyatini sinchiklab o‘rgansak, Bobur she’rlari falsafiylikdan, orifona hikmatlardan yiroq emasligini anglaymiz. She’riyatida shunday ishoralar, ramzlar borki, uni chuqurroq tahlil etishmaqsadga muvofiqdir:

*Olam ahli birla odamdin manga sensen g‘arez,  
Zoti poking bo‘lmasa, olamda odam bo‘lmasun .*

Olti baytli ushbu g‘azalda shoir ilohiy ishq kechinmalarini tasvirlashni nazarda tutgan. Ma’lumki, olam va odamning mavjudligi, bir-biriga munosabati ilohiy tajalli bilan bog‘liq.

Ularning mohiyatini anglash komillashish, ilohiylashish bilan barobar. Shu sababli lirik qahramonning asosiy maqsadi ham ana shu – asl mohiyat. U mohiyatsiz hodisada mantiq ko‘rmaydi.

*Yangi oy yor yuzi birla ko 'rub el shodu bayramlar,  
Manga yuzu qoshindin ayru bayram oyida g'amilar*

matlasi bilan boshlanuvchi g'azalni ham shoir hasbi holi bilan bog'liq zohiriya va mohiyatu hodisa munosabatlariga aloqador botiniy mazmunda anglash lozim. Adabiyotshunoslikda uning yor va diyordan ayro oshiq kechinmalari sifatidagi talqini ma'lum. Ammo, g'azalni mutolaa etib, uning zamirida ramzlar vositasida ilohiy oshiqlikka ham ishoralar borligini ko'ramiz:

*Menu g'am kunjiyu ohu fig'onu ashki xunolud,  
Ne xushdur go'shai xoliy, mayi sofiyu hamdamlar.*

G'am, oh, ashk, kimsasiz go'sha, sof may bilan hamdamlik o'shiqqa mushohada imkonini yaratadi. «Mushohada esa o'z navbatida g'ayb pardalarining ochilib, ilohiy sirlarning kashf etilishiga yo'l ochadi».

Shunday ruhiy holat tasviridan so'ng esa shoir **«yuzi navro'zu bayramlardan»** a'lo **«yuzi navro'ziyu vasli iydi»** haqida shavq bilan u'zlaydi:

*Yuzi navro'ziyu vasli iydin, Bobur, g'animat tut  
Ki, mundin yaxshi bo'lmas, bo'lsa yuz navro'zu bayramlar.*

Imon – e'tiqod ko'ngil ishi. U ruhiy ehtiyoj mahsuli. E'tiqodni ko'rsatmalar vositasida singdirib bo'lmaydi. Buni yaxshi fushungan shoir zohid ko'rsatmalaridan og'rinadi. Shaxs erkini qondrashni talab qiladi:

*Agar muxlismen, ar mufsid vagar oshiqmen, ar obid,  
Ne ishing bor sening, zohid, meningki ixtiyorim bor.*

Shoir lirik qahramoni e'tiqodni, toat-ibodatni yuzaki tushunmaydi. Botiniy a'mol deb biladi.

*Ibodat vaqtি bo'lsa har necha mehrob o'trumda,  
Qoshin naqshin tasavvur qilmag'uncha erga bosh cholmon .*

Lirik qahramon ishqni taqvo bilan qiyoslaydi. Haqiqiy ishqqa girifstor bo'lgan oshiq o'zini, borlig'ini unutadi. Fikri yodini mahbuba xayoli chulg'aydi. U jazba holatiga tushadi. Shuning uchun ham oshiq nazdida, taqvo ishq bilan muqoyasalanganda, majoziy, malakaviy vosita bo'lib ko'rindi:

*Ishq borida salohу tavbau taqvo  
Barchasi tahqiq bil majoz ko'rundi.*

Tasavvuf ta'limoti bo'yicha, vujud solikni asl muddaodan chalg'itadi. Shu sababli ham, avvalo, u shu ashaddiy raqibni, ulkan to'siqni yengishga da'vat etiladi:

*Tan hijobin ra'f qil gar yor vaslin istasang,  
Ey ko'ngul, bilkim aroda hoyil ushbu pardadur.*

Tariqat maqomlarining eng yuqori bosqichi fanodir. Bu mohiyatan o'zlikdan kechib, o'zi bilan tirlishdir. Ya'ni, bu bosqichda solik vujudiy intilishlardan forig' bo'ladi. Faqat jamolga ehtiyojgina qoladi. Butun nafsoniy g'ovlarni engib yagona – ilohiy birlikka erishadi. Boburning yuqoridagi baytida ana shu mohiyatga e'tibor qaratilyapti.

Bobur she'rlariga xos mazmuniy teranlik boisi uning so'zlarni, badiiy tasvir vositalarini va timsollarni mahorat bilan qo'llashidadir.

Tavsifiy yo'nalishdagi g'azallarida Bobur mahbuba qiyofasidagi go'zal va jozib holatlarni ifodalashda tabiatdan juda mutanosib ko'rinishlarni topa oladi:

*Ochildi zulfiyu xaylar namudor o'ldi yuzinda,  
Gul uzra chun bo'lur paydo kecha ochilsa shabnamlar .*

Nazarimizda, subhidamda ustida shudringlar olmosdek jilolanayotgan chaman gullar tabiatdagi eng go'zal manzaradir. Bobur yuqoridagi baytda mahbubaning yuzida yoyib taralgan sochlarni yig'ish holatini tabiatning xuddi ana shu maftunkor hahzalariga qiyoslaydi. Tim qora sochlarning ochilib, ter bosgan yuzlarning ko'rinishi qop-qora tun tarqab tongda shudring tushgan gulga qiyoslanyapti. Bu bir qaraganda, zohiran ko'zga tashlanadigan o'xshatish. Ammo, shu o'rinda Boburning so'z tanlash va qo'llash mahoratini namoyon etuvchi yana bir yususiyatni sezish qiyin emas. Shoир bu noyob tashbehni qo'llar ekan, unda tilga olinayotgan har bir timsolning o'z muqobilini ham tushbehlantirib qo'llaydi. Birinchi misrada *zulf*, *xay (ter)*, *yuz* timsollariga, ikkinchi misradagi *kecha, shabnam* va *gul* timsollari parallel qo'yiladi. Mumtoz adabiyotda laff va nashr deb ataluvchi bu san'at shoирning tasviriy maqsadini mukammal yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Shoирning ayrim g'azallari boshdan oxirigacha ma'lum bir badiiy san'at bilan muzayyan bitilganini kuzatamiz. Jumladan, quyidagi g'azal laff va nashr san'ati bilan yaratilgan. Bu san'at Bobur yuragidagi armonni aniqroq va ta'sirliroq sharhlashga xizmat qilgan:

*Ko'ngulni zoru meni xoru tanni tor etgan,  
Biri jaфou biri g'urbatu biri hijron.  
Tanu ko'ngul bila ko'z vaslu nozu husni uchun  
Biri xarobu biri volau biri hayron.  
Tamomi umrida Boburg'a uch so'z aytibdur,  
Biri so'kunchu biri qattiqu biri yolg'on.*

Bobur she'rлarida ihm, tajnis kabi murakkab san'atlardan ham mahorat bilan foydalangan.

*Do'stlar, ko'nglumdagin qabrim toshig 'a yozg'asiz  
Toki birdek bo'lgay ul oy ishqida ichim, toshim.*

Ushbu baytda shoir “*tosh*” so‘zi orqali ham tajnis, ham ihom san’atini qo‘llagan. Ikkinci misradagi “*tosh*” so‘zi tosh va tashqari ma’nolarini ifodalagan. Bu san’atlar shoirga qisqa jumlalarda kengroq mazmunni ifodalash imkonini bergen. Bunday misollarni shoir devonidan ko‘plab topish mumkin.

Bobur she’riyati ulug‘ daryo. Biz aytgan fikrlar undan bir tomchi. Uni o‘rgangan sari naqadar teran she’riyat ekanligini anglab etish mumkin, xolos.

“*Volidiya*” asari. Xoja Ubaydulloh Ahror Naqshbandiya tariqati piri komili, oshiq va orif zot. U musulmonlar hayotida katta rol o‘ynagan. Hayotining mohiyati, insoniyat taqdiridagi xizmatlarini uning qabr toshiga yozilgan lavhidagi quyidagi so‘zlar oydinlashtiradi, deb o‘ylaymiz: «„*Oolloh taolo menga boshqa vazifani yukladi. Mening zimmamga musulmonlarni ozod qilish vazifasi yuklandi*».

Ma’lumki, temurzodalar Xoja Ahrori Valini o‘zlariga pir deb bilishgan. Davlat boshqaruvida ko‘p masalalarda u bilan maslahatlashishgan. Xojaning sa’y-harakati tufayli ancha urushlar yarashga aylangan. Ziddiyatlar sulh bilan bartaraf etilgan. Bobur «Boburnoma»da bir necha marta Xoja Ahrorning o‘z faoliyatiga ta’siri haqida, temurzodalarning unga munosabati borasida ma’lumot beradi. Bobur otasi – Umarshayx Mirzoning ham Xoja Ahrorga ixlosmandligi, o‘z navbatida u ham otasini farzand qatorida ko‘rishi haqida ma’lumot beradi. Bir necha bor Boburning ham tushlariga kirib, unga ruhan madadkorlik qilganini eslaydi.

Ana shu ruhiy yaqinlik, Xoja Ubaydulloh ilmu kamoliga ehtirom uning «*Volidiya*» asarining Bobur tomonidan tarjima etilishiga sabab bo‘lgan. “*Volidiya*” risolasini Xoja Ahror otasi Xoja Mahmudning iltimosiga ko‘ra yozgan. Shuning uchun u “*Volidiya*” (otaga atalgan) deyiladi. Unda naqshbandiylik tariqati aqidalari, uning boshqa tariqatlardan farqlari, Muhammad s.a.v.ning mukammal axloq va sunnatlarining ibratli jihatlari yoritib beriladi. Asarning forsiyidan turkiyga o‘girilish tarixi “Boburnoma”da bayon etilgan: “*Seshanba kechasi safar oyining yigirma yettisida (1528-yil – N. J., I. A.) Hazrati Xoja*

*Ubayduhlloning «Voldiya» risolasini nazm qilmoq xotirimg'a kechti ...»<sup>67</sup>.*

Bobur, o'sha paytda xastaligiga qaramasdan, asarni tezkorlik va ilhom bilan tarjima qiladi. Uni besh kunda – seshanbada boshlab, shanba kuni yakunlagani haqida xabar beradi. Ilgarilar 30-40 kunga cho'ziladigan shunday xastaligidan ham payshanbag'a borib, ya'ni uch kunda xalos bo'lganini aytadi: «... *Ushbu niyat bila rumali musaddasi maxbuni aruz va zorb, gohi maxbuni mahzuf vaznidakim, mavlono Abdurahmon Jomiyning «Subha»si ham bu vaznadur, risola nazmig'a shuru' qildim, ham o'shal kecha o'n uch bayt aytildi. Iltizom yo'sunluq, kunda o'n bayttin kamrak aytilmash edi... Bir kun elliq ikki bayt aytildi»<sup>68</sup>.*

Tarjima yozilgan vazn haqida Bobur «Muxtasar» asarida quyidagi fikrlarni bayon etadi: «*Bu vaznda masnaviy oz aytibdurlar. Xoja Xusravning «No'h sipehr»ining bir sipehri bu vaznadur. Mavlono Abdurahmon Jomiyning «Subha» si dag'i bu vaznadur, xeyli latif»<sup>69</sup>.*

«Voldiya» tarjimasining 15ta qo'lyozma nusxasi ma'lum. Ularning 10tasi Turkiya kutubxonalarida, 1tasi Afg'oniston, Kobul tarix jamiyati muzeyida, qolgan 4tasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Pokistonlik olim Orif Navshoniy 2 qo'lyozma nusxa (O'zR FA ShI, Bursa Milliy kutubxonasi) asosida tanqidiy matn tuzgan (Tehron, 1994-yil). M. Hasaniy, D. Rajabova o'zbek tiliga nasriy tarjima qilgan (2004-yil). M. Kenjabek tarjima va sharhlar bilan nashr ettirgan. Tarjima 318 misra 159 baytdan iborat. U hamd va na'tdan tashqari 4 faslga bo'lingan. «Voldiya» nashiyatda fasllarga bo'linmagan. Uni Bobur o'z maqsadini o'quvchiga aniqroq etkazish uchun fasllarga ajratgan. Bobur «Risola» nazmining sababini izohlar ekan, to'rtta asos keltiradi.

I-asos: Asardan o'zi anglagan hikmatlarni o'quvchilarga, toliblarga yetkazish maqsadi:

<sup>67</sup>Бобур, Бобурнома. Т., 1989, 318-6.

<sup>68</sup> Ушба асар, 318-6.

<sup>69</sup> Бобур. Мухтасар."ФАН", Т., 1971, 165-бет.

*Har so 'z andaki, man anga yetsam,  
Yetti ko 'nglimga: ani nazm etsam.*

2-asos: Risolani tarjima qilish jarayonida, undagi ilm va ma'rifat shoir ko'nglini ham nurlantirishi. Shu nur vositasi bilan ilohiy ishq asroridan ogohlik ko'shkiga ko'tarilish maqsadi:

*Toki bo 'lg'ay manga hushyorlig'i,  
Uyqulik ko 'nglima bedorlig'i.*

3-asos: Ushbu nazmn ni o'qigan har bir talabgor ko'ngliga ham ilohiy fayz yetib, poklanib, ko'zgu kabi tiniqlik va yorug'lik kasb etish maqsadi:

*Yana bu nazm o 'qusa har tolib,  
Ko 'ngluning rag 'bati bo 'lgay g 'olib.  
Rag 'bat aylab, anga fayze etsa,  
Tiyralik ko 'nglidin aning ketsa.*

4-asos: «Voldiyya»dagi chuqur va murakkab mazmunni Boburning sodda she'riy uslubi bilan o'quvchiga singdirishning osonligi.

Shundan so'ng Bobur o'quvchini bevosita «Risola» mazmuni bilan tanishtirishga kirishadi. U diniy – tasavvufiy yo'nalishdagi asardir. Bu yo'nalishning bosh g'oyasi kamolot hosil qilish – komillik yo'lidir. Komillikning asosi – ma'rifatdir. Ma'rifat hosil qilishning ham uch yo'li bor. So'z, fe'l va hol ma'rifati, Bobur tarjimada ana shu uch masalani tushunarli, sodda tilda izohlab, sharhlab beradi. Bobur tarjimasining muhimligi shundaki, unda u so'zma-so'z tarjima qilish yo'lidan bormaydi.

Asar faqat tarjima emas. Bobur nasriy yo'lda yozilgan manbani she'riy yo'lda erkin o'giradi. O'zidan yangi talqinlar, izohlar qo'shadi. Xoja Ahror aytgan irfoniy fikrlarni sharhlab, izohlab o'quvchiga mantiqiy mohiyatni tushuntirib beradi. Ilohiy ishq va uning asrori bilan o'quvchini chuqurroq tanishtirishga intiladi.

Kirish va xulosa qismni yangidan yozib, asarga qo'shadi. Yetuk, badiiy nazm namunasi sifatida asarga yangi hayot bag'ishlaydi.

"Voldiyya" ingliz, turk, urdu tillariga tarjima qilingan. Xorijda A. Ayyubiy, J. A. Bodrojlijeti, A. F. Bilkan, E. Mano, M. Abdusalom, M. Sobir va A. Z. Xon kabi sharqshunoslar asar tadqiqiga bag'ishlangan maqolalar e'lon ettirishgan.

«Risolayi aruz». Bobur «Boburnoma» asarida noyob alohiyatli adabiyotshunos olim sifatida tasavvur uyg'otadi. U ijodkorlarga baho berarkan, adabiyotshunoslikning ko'p masalalariga e'tibor qaratadi. Bobur 1526-yil voqealarini bayonida bir baytini keltirib, uni 504 vaznga solganini aytadi. Bu ish «Risola» yozilishiga turtki bo'lganini ta'kidlaydi: «Ushbu ayyomda bu baytimni:

*Ko'zu qoshu so'zu tilinimu dey,*

*Qadu xaddu sochu belinimu dey, -*

*besh yuz to'rt vaznda taqtı' qildim. Bu jihatdin risola tartib berildi»<sup>70</sup>.*

«Risolayi aruz»da ham Hindiston fathining so'nggi yili Sanbalga borayotganda 16 ruknli bir bayt aytganini eslaydi: «Aruz itmomidin ikki – uch yil so'ng, Hindiston fathining so'ng'i yili, Sanbal sarig'a borur fursatta bir mutatavval bayt o'n olti rukn bila aytilib edi»<sup>71</sup>.

«Boburnoma»dan keltirilgan yuqoridagi baytni Bobur zulhijja oyining ikkinchisida yozganini aytgan. Xuddi shu o'rinda shu oyning yigirma to'qqizinchisida Sanbal sayriga otlangani haqida gapiradi.

Asarning yozilish va tugallanish vaqtiga xususida filologiya fanlari doktori, professor Sayidbek Hasanovning quyidagi kuzatish va xulosasi diqqatga sazovordir: "Yuqoridagi keltirilgan parsha Boburnomada 1525 – 1526-yillar voqealarida eslatilgan. Demak, Bobur Muxtasar nomli bu asarini 1521 – 1522 (928) yillarda yozib tugatgan deb taxmin qilish mumkin" <sup>72</sup>. Biz ham ilmiy asoslangan shu xulosaga qo'shilamiz.

<sup>70</sup> Бобурнома. Т., 1989, 303-боб.

<sup>71</sup> Мұхтасар Т., 1971, 54-бет.

<sup>72</sup> Мұхтасар. Сүзбопи. Т., 1971, 6-бет.

«Risolayi aruz»ning yagona qo‘lyozmasi Parij milliy kutubxonasida 1308 raqami bilan saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma haqida dastlabki ma’lumot E. Bloshe<sup>73</sup> katalogida uchraydi. XX asr 30-yillardan adabiyotshunoslik ilmida «Risolayi aruz» haqida mulohazalar bayon etila boshlagan. Turk olimi F. Ko‘prulizoda, 1960-yillarda uyg‘ur adabiyotshunosi M. Hamroyev, rus sharqshunoslari V. I. Aslanov, A. M. Shcherbak va M. Shayxzodalarning tadqiqotlarida asarning ilmdagi qimmati e’tirof etila boshlandi.

1968-yil prof. Hamid Sulaymon Alisher Navoyining 525-yillik yubileyi munosabati bilan Angliya va Fransiyaga uyuşhtirgan ilmiy safari natijasida asar qo‘lyozmasining mikrofilmini O‘zbekistonga Adabiyot muzeyi fondiga olib keldi. 70-yillar boshlarida o‘zbek olimlari «Risolayi aruz»ni maxsus tadqiq etishni boshladilar. 1971-yil Sayidbek Hasan asarning transliteratsiyasi va faksimilini chop etti<sup>74</sup>.

Risola XVI asrdayoq adabiyot ixlosmandlari va mutaxassislarida katta taassurot qoldirgan. 1556-yilda yozilgan Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbab» tazkirasida muallif unga «Risolayi aruz» duru gavharlarga to ‘la dengizdir»<sup>75</sup>, deya juda yuqori baho beradi.

“Boburnoma” asari qo‘lyozmasi kotibi tomonidan ham “Risola” alohida e’tirof etiladi. Shoир ijodidagi muhim va qimmathi hodisa ekanligi ta’kidlanadi: “Va ul podshohning aruz va qofsiyag ‘a ham oid risolalari bor va ul jumladin “Mufassal” degankim, ushbu fan sharhi bo‘lg‘ay, ko‘pdin-ko‘p yaxshi tasnif qilibturlar”. Asar Azfariy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan.

Bobur “Risolayi aruz”da arab va fors aruzi nazariyasini aynan takrorlamaydi. Balki uni turkiy fonetika va grammatika qonuniyatlaridan kelib chiqib boyitadi va takomillashtiradi. Ilmiy bayon uslubida o‘ziga xos tizimga asoslanadi. Boburgacha vaznlar 7tagacha doiraga solingan bo‘lsa, “Aruz risolasi”da u yanada

<sup>73</sup> Blochet E. Catalogue de la collection de manuscrits orientaux – arabes, persans et turcs, formee par M.C.H. Schefer, Paris, 1900.

<sup>74</sup> Бобур, Мухтасар. Т. Фан, 1971.

<sup>75</sup>Хасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. Т.. “Халқ мероси” нашриёти, 1993, 53- бет.

tukomillashib, 9taga yetkaziladi. Hazaj bahrining mahbuz va ramal bahrining makfuf vaznlari o'rtasida o'xshashlik topib, mujtalibai muxtari'a nomli doira tuzib aruz ilmiga yangilik kiritadi.

Ma'lumki, mumtoz aruzshunoslikda nazariyani o'rganishni osonlashtirish maqsadida doiralardan foydalanilgan. Aruz doiralari ruknlar tarkibi jihatidan bir-biriga yaqin bahrlarni bir doirada birlashtirish, jamlash imkonini beradi. Yaqin bahrlar soniga qarab doira bo'laklarga bo'linadi. Keltirilgan misra bir necha vaznga solib ko'rildi (1-so'zdan o'qilsa, boshqa vazn, 2-yoki 3-so'zdan o'qilsa, boshqa vaznlar hosil bo'ladi). Biz yuqorida shunday usul bilan Bobur bir baytni, hatto, 504 vaznga solib o'qigani haqidagi sikrini ham keltirg'an edik.

Mumtoz aruzshunoslikda turli olimlar vaznlarni turli miqdordagi doiralarga solishgan. Jumladan, Xalil ibn Ahmad 5 doira, Shams Qays Roziy 4ta, Nosiriddin Tusiy 5ta, Sayfi Buxoriy 5ta, Atoulloh Husayniy 5ta, Vohid Tabriziy 6ta, Alisher Navoyi 7ta, Bobur esa 9ta doiradan foydalanishgan.

“Risolayi aruz” asarining qo'lyozma nusxasi kotib Muhammad Samarcandiy tomonidan 1533-1534-yillarda ko'chirilgan.

Risola ikki bobdan iborat. Birinchi bob hijolar va ularning turlari, ruknlar, zihoflar, bahrlar va doiralarga bag'ishlangan. Ikkinci bobda vazn va taqte' haqida ma'lumot beriladi. Bobur vaznlarga namunalarni turk va fors adabiyotidan keltiradi. Har bir misol muallifini ko'rsatgan. Muallifi ko'rsatilmagan she'rlar Bobur qalamiga mansubligi aytib o'tilgan.

Aruz ilmida 19ta bahr borligi ma'lum. Bobur risolasida esa ularni yanada mukammal tasniflab, 21 bahr, 537 vazn taqdim etiladi. Musta'mal (faol qo'llanuvchi) va muxtara' (yangi ixtiro qilingan) vaznlar haqida ma'lumot beriladi: «Xotirg'a mundoq kechdikim, jami' buhurning musta'mal va muxtara' vaznlarining odudlarini bitilgay... Bilgilki, bu yigirma bir bahrda besh yuz o'ttiz etti vazn kelturuldi. Bu jumladin musta'mal vazn ikki yuz sakson to'qquz, muxtara' vazn ikki yuz qirq sekkiz... »<sup>76</sup>.

<sup>76</sup> Ўзбек таасиути, 116-бет.

Bobur «Aruz risolasi»da turkiy aruz tadqiqiga bag‘ishlangan Navoyining «Mezon ul-avzon», Sayfiy Buxoriyning «Aruz», Nosiriddin Tusiyning «Me’yorul-ash’or» asarlari bilan ko‘p masalalarda munozaraga kirishadi. Aniq va qimmatli yechimlar, xulosalarni bayon etadi. Bu bilan turkiy aruz ilmining taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadi.

Bobur asari «Risolayi aruz» deb atalsa-da, unda adabiyotshunoslikning ko‘p muammolari tilga olingan. Ularga oydinlik kiritilgan. Jumladan, o‘zbek mumtoz she’riyatidagi janrlar, badiiy tasvir vositalarini qo’llash bilan bog‘liq masalalarga ham e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, uning tuyuq janri vaznlari bilan bog‘liq qismdagi mulohazalar muhimdir. Bobur u erda tuyuqning 7 turini ajratib ko‘rsatadi. Shundan 4 turi o’sha davr she’riyatida uchraydi. Ularga misollarni Bobur va boshqa shoirlarning merosidan keltiradi. Yana 3 turiga misol keltirar ekan, Bobur o‘zi ijod qilganini e’tirof etadi. Ular boshqa hech bir ijodkorda ko‘rilmaganini ta’kidlaydi: «*Tuyuqda yana bir necha nav’ xotirg‘a yetib turkim, hech yerda ko‘rilmaydur...*”<sup>77</sup>.

Bundan tashqari, asarda o‘lan, turkiy, tarxoniy kabi xalq qo’shiqlari va ularning vaznlari haqida noyob ma’lumotlar beriladi. Mumtoz adabiyotda juda kam qo’llaniladigan mutatavval she’rlar haqida alohida to‘xtalib o’tadi.

Bobur «Risolayi aruz»da hazaj bahri haqida ma’lumot bera turib, Navoyining hazaji musammani maqsur (V---/ V---/ V--- /V--) vaznida yaratilgan bir musajja g‘azalini keltiradi. Shu o‘rinda musajja bilan bog‘liq tanqidiy mulohazalarini bayon etadi. Bu bilan ijodkorlar e’tiborini poetikaga oid ma’lum muammoga qaratadi. Va o‘z ijodidan bir namuna keltirib, poetikadagi kemtiklikni to‘lg‘azishga intiladi: «*bu baytning (Navoyi baytining – N. J., I. A.) misralarining hashvidag‘i qofiyalari ruknning oxirida voqe bo‘lmaydur, musajja g‘azallarning matlaida saj kamroq riyat qilibturlar. Agar riyat qilinsa, yaxshiroq bo‘lg‘usidur, nechukkim:*

<sup>77</sup>Y illaacad, 168-6er.

*Qaro zul sing firoqida parishon ro 'zgorim bor,  
Yuzungning ishtiyoqida ne sabru ne qarorim bor...»<sup>78</sup>*

Ko'rinadiki, «Risolayi aruz» o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlar hujjatiyotini o'rganish uchun muhim manbadir. Unda bahr, vazn, janr, poetika bilan bog'liq ko'p masalalar tadqiq etilgan. «Risolayi aruz» o'ziga xos bayoz-majmua sifatida ham qadrlidir. Chunki unda Bobur 70dan ortiq ijodkorlarning eng sara asarlaridan namunalar keltiradi. Eng mashhur masnaviyilar yozilgan vaznlari hisob etiladi. Bu ma'lum darajada dostonchilik borasidagi tasavvurlarimizni ham boyitadi. Asardagi «Gul va Navro'z» dostonining Haydar Xorazmiy qalamiga mansubligi kabi ayrim dalillar adabiyotshunoslikdagi munozarali masalalarga oydinlik kiritadi. Ko'ringanidek, «Risolayi aruz» asarining ahamiyati beqiyos. Uni kelajakda yanada chuqurroq tadqiq etish o'zbek adabiyotshunoslik ilmi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shiladi.

**Boburiy xati.** Bobur «Boburnoma»da «Boburiy xati» borasida bir necha o'rinda ma'lumot beradi. Husayn Boyqaro umarolaridan biri Qozi Ixtiyor haqida yozar ekan, 1507-1508-yillarda u bilan Murg'obda Mirzolar qarorgohida ko'rishganini, suhabat davomida «Boburiy xati» borasida so'z ketganini eslaydi. Fiqhda donishmand, risolalar yozgan Qozi Ixtiyor «Boburiy xati»ga qiziqib qoladi. Uning qoidalarini Bobur yordamida o'zlashtirib namunalar yozib ko'radi: «Murg'obta Mirzolar bila muloqot qilganda, Qozi Ixtiyor va Muhammad Mir Yusuf bila kelib meni ko'rdilar. «Boburiy xati»din so'z chiqdi, mufradotni tiladi, bitidim. O'shal majlisda mufradotni o'qub qavoidini bitib, nimalar bitidi»<sup>79</sup>.

Bobur 1504-yil voqealari bayonida «Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim»<sup>80</sup>, deya ma'lumot bergen. U o'z ona tili tovushlariga mos alifbo yaratishni maqsad qiladi. Niyatiga erishib, arab alifbosi asosida 29 harfdan iborat alifboni yaratadi. "Boburnoma"ni kuzatar ekanmiz, ayrim dalillar ushbu xat bilan

<sup>78</sup> Ушасар, 127-бет.

<sup>79</sup> Ушасар, 161-бет.

<sup>80</sup> Ушасар, 132-бет.

Bobur umrining oxirigacha ham ayrim asarlar kitobat qilganini tasdiqlaydi.

U 1528-yilda Kobuldag'i o'g'illariga maktub yo'llaganda, sovg'a-salomlar jo'natganda, «Boburiy xati» bilan ko'chirilgan o'z asarlarini ham yuborganini eslaydi: «*Hindolg'a ... Boburiy xatinining mufradotini yuborildi. Yana Boburiy xati bila bitilgan qit'alar yuborildi... Komrong'a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash'or va Boburiy xati bila bitilgan sarxatlar yuborildi*»<sup>81</sup>.

Ko'rindiki, garchi keng tarqalmagan bo'lsada, «Boburiy xati» unutilib ketmagan. U asosda asarlar ko'chirilib turilgan. Arab xati bilan yonma-yon ishlatilib kelingan. Turli manbalarda uning «Xatti Boburiy» deb forsiy izofa bilan ishlatilganini ko'ramiz. Ammo, Boburning o'zi uni hamma o'rinda «Boburiy xati» deya ataydi. Bu xat turkiy grammatika qoidalarini nazarda tutib yaratilgan ekan, uni nomlashda ham muallif buni e'tiborda tutgan. Shuning uchun «Boburiy xati» atamasini qo'llash o'rni deb hisoblaymiz.

Nizomiddin Huluviy «Tabaqoti Akbariy» asarida Boburning xat ixtiro qilgani, shu xat bilan ko'chirilgan qo'lyozmani Makkaga va boshqa yirik shaharlarga yuborgani haqida ma'lumot beradi<sup>82</sup>. Uning bir qo'lyozmasi "Al-Mus'hafin Boburiya" nomi bilan Mashhaddagi Imom Rizo yodgorlik majmuasi kitob fondida saqlanadi. Afg'on olimi Halim Yorqin xatga bag'ishlangan kitob chop ettirgan (Kobul, Oydin farhangi bunyodiy, 2005, 54 sahifa). Kitob kirish va Boburiy xatning o'rganilishi qismlaridan iborat. Unda "Boburiy xat" bilan arab alifbosining qiyosiy jadvali berilgan. Muhammad Tohir binni Abulqosimning «Ajoyib ultabaqot» asarida esa «Boburiy xat» bilan ko'chirilgan mufradot keltirilgan<sup>83</sup>. Bobur bir she'rida ham «Boburiy xati»ni eslab o'tgan:

*Turklar xatti nasibing bo'lmasa, Bobur, ne tong,  
Boburiy xatti emasdur, xatti sig'noqiydurur<sup>84</sup>.*

<sup>81</sup>Ўшаасар, 328-бет.

<sup>82</sup> Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. "ФАН", Т., 1971, 122-бет.

<sup>83</sup> Ўша асар, 122-бет.

<sup>84</sup> Ўша асар, 127-бет. (Хатти сигнокий – ингичка, нозик ёзиладиган хат).

“Boburnoma”. Zahiriddin Muhammad Boburning eng yirik va mashhur asari «Boburnoma»dir. U o‘zbek adabiyotidagi dastlabki narsiy-memuar, tarixiy-ilmiy asardir. Muallif barcha asarlarining yozilishi, tarixi haqida ma’lumot beradi. Ammo, «Boburnoma»ning qachon yozilgani haqida ma’lumot bermaydi. Amdagi ayrim chizgilar, dalillardan kelib chiqib, u taxminan 1518-1519-yillardan maxsus asar sifatida yozila boshlangan degan xulosaga kelamiz. Ammo, uning qoralamalari, kundaliklar sifatidagi nusxasi mavridi bilan yozib borilgan.

Bobur o‘z asariga «Boburnoma» deb nom bermagan. Uni «Vaqoe» (Voqealar) deb atagan. Bir ruboysiida ham buni e’tirof qilib, asarining qimmatini ta’kidlab o‘tgan:

*Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,  
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,  
Har kim bu «Vaqoe» ni o‘qur, bilgaykim,  
Ne ranju ne mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum<sup>85</sup>.*

Bu ruboiyda Bobur «Boburnoma» o‘z hayot yo‘lini yorituvchi, zamon va ahli zamon – insoniyat borasidagi fikr-o‘ylarini ifodalovchi ko‘zgu ekanligini ta’kidlaydi. Turli adabiyotlarda u «Voqeti Boburiy», «Tuzuki Boburiy», «Tavorixi Boburiy», «Boburiya», «Boburnoma» kabi nomlar bilan ataladi.

Takror ta’kidlaymizki, Bobur ushbu asarini asosan «Vaqoe» deb tilga olgan. Faqat ikki o‘rindagina «Tarix» deb atagan. Qizi Gulbadanbegim «Humoyunnoma» asarida ham uni «Vaqoe», «Vaqueanoma» deb eslaydi. Ammo, «Boburnoma» nashrlari bunday nomlanmagan. Faqat XX asrning 40-yillarda Turkiyada chop etilgan nusxa «Vaqoe» nomi bilan atalgan<sup>86</sup>. 2002-yil Toshkentda chop etilgan eng so‘nggi nashr ham «Boburnoma» nomi bilan chiqdi<sup>87</sup>.

<sup>85</sup> Бобур. Асарлар. З жилдлик, 1-жилд. Т.: 1965, 168-бет.

<sup>86</sup> Gazi Zahiriddin Muhammad Babur. Vekayi. I-II cild.-Ankara: 1944-1946/

<sup>87</sup> Захиридин Мұхаммад Бобур. Бобурнома.- Т.: Шарқ НМК, 2002.

Nazarimizda, bu xatoni tuzatish, asarni o‘z nomi bilan yuritish fursati allaqachon etgan. Asarni muallifning o‘zi nomlaganidek «Vaqoe» deb atash va nashr ettirish o‘rnildidir.

«Boburnoma» 1494-yil, otasining Axsi qo‘rg‘onida jardan qulab vafot etishi va Boburning 12 yoshida Farg‘ona viloyatida podshoh bo‘lgani voqeasi tasviri bilan boshlanadi. Hijriy 936 (milodiy 1529) yil voqealari tasviri bilan yakunlanadi. Ammo, ushbu yillar oralig‘idagi voqealar to‘liq emas.

Yillar oralig‘ida uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Shundan kelib chiqib asarni 3 qismga bo‘lish mumkin:

1494-1509-yil voqealari bayoni;

1519-1520-yil voqealari bayoni;

1525-1529-yil voqealari bayoni;

“Boburnoma”ni fransuz tiliga tarjima qilgan Pave de Kurteyl, bunday uzilishlar asl nusxada ham, forscha, inglizcha tarjimada ham mavjudligini ta’kidlaydi. Bu esa ilmda ayrim muhim hisoblanmagan yillar va voqealarni Bobur asliyatda umumlashtirib ketgan, ularga alohida, maxsus to‘xtalishni lozim topmagan, degan fikrning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

*O‘rganilishi.* «Boburnoma»ning 20dan ortiq qo‘lyozma nusxalari bor. Ular dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Asarni 1857-yilda Qozonda N. I. Ilminskiy, 1905-yilda Londonda A. S. Beverij nashr ettirdilar. O‘zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda asardan parchalar e‘lon qildi. «Boburnoma» 1948-1949-yillarda 2 jildda nashr etildi. 1960, 1965, 1989-yillarda tuzatilgan nashri amalga oshirildi. 1993-yil V. Tekston, 1995-yil yapon olimi E. Mano tomonidan 4 jildda “Boburnoma”ning tanqidiy matnini nashr etdi. 2002-yil S. Hasanov tomonidan to‘ldirilgan, mukammallashtirilgan nusxa chop qilindi. 2007, 2008-yillarda olima Sh. Yorqin Afg‘onistonda nashr ettirdi.

«Boburnoma» XVI asrdayoq turli tillarga tarjima qilina boshlangan. 1586-yil fors tiliga, 1705-yil Vitsen Golland tiliga, 1826-yil J. Leyden va V. Erskin ingliz tiliga, 1871-yil Pave de Kurteyl fransuz tiliga, Mixail Sal‘e ruschaga, XX asrda Rashit Raxmati Orat turkchaga tarjima qildilar. 1995-yil Eyji Mano yapon

tiliga o'girib, tanqidiy matnini chop ettirdi. 2002-yil asar Ispan tilida ham yangi hayot boshladi. «Boburnoma» 20dan ortiq xorijiy tillariga tarjima qilingan. Jumladan, 9 marta ingliz, 3 marta fransuz, 4 marta fors, 1 marta nemis tiliga o'girilgan.

Jahon adabiyotida «Boburnoma» asosida o'nlab badiiy asarlar yaratilgan. Flora Anna Stilning «Boburxon» (Parij, 1940), Fernard Grenardning «Bobur» (Parij, 1930), Harold Lembning «Bobur - yo'lbars» (Nyu-York, 1961) romanlari, Vambek Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk mo'g'ullar» (Nyu-York, 1980) esse – romanlari shular jumlasidandir. Hindistonlik Muni La'l boburiylar haqida 6ta roman yozgan.

O'zbek adabiyotida P. Qodirov, X. Sultonov, B. Boyqobilov, X. Davron kabi ko'plab ijodkorlar Boburga bag'ishlab roman, qissa, doston va she'rlar yaratdilar.

Bobur ijodiga, xususan, «Boburnoma»ga Rossiya va G'arbiy Yevropa olimlari – Veselovskiy, Ilminskiy, Erskin, Eduard Xolden, Elfiniston kabilar yuqori baho berishgan. Javoharla'l Neru «Hindistonning kashf etilishi» kitobida Bobur va boburiylarning Hindiston taraqqiyotidagi, jahon sivilizatsiyasidagi mavqeini haqqoniy e'tirof etdi.

Bobur ijodi o'zbek adabiyotshunosligida ham chuqr o'rganilmoxda. Bu borada olimlarimiz – V. Zohidov, S. Azimjonova, P. Shamsiev S. Hasanov, H. Qudratullaev, D. Hoshimova kabilarning tadqiqotlari ahamiyatga molik. Boburshunoslik tobora takomillashib bormoqda. "Boburnoma" adabiyotshunos olimlar Vahob Rahmonov va Karomat Mullaxo'jayevalar tomonidan hozirgi o'zbek tiliga tabdil qilindi hamda 2008 yili "O'qituvchi" NMIU orqali nashr etildi. 2013-yilda "Bobur ensiklopediyasi" yaratildi va ikki marta nashr qilindi. Adib ijodi bilan qiziquvchi, maqola-tadqiqotlar yaratuvchilar jahon adabiyotshunosligida shu qadar ko'PKI, ularni bu o'rinda sanab ko'rsatishning imkoniy yo'q.

**«Boburnoma» - qomusiy asar.** «Boburnoma»da, avvalambor, 1494-1529-yillar orasida Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston kabi ulkan hududda sodir bo'lgan tarixiy voqealar haqida

ma'lumot beriladi. Muallif temuriylar tanazzuli, o'zbekxonlarning hukmronlikni o'z qo'liga olishi, temuriylar so'nggi vakillarining taqdiri, qismati, o'y-kechinmalari, toj-taxt uchun kurashlari tarixi bilan tanishtiradi.

Undan tashqari, asardan o'quvchi davlatchilik tarixi, boshqaruv usullari, himoyalanish va hujumga o'tish yo'sinlari, davlatni mustahkamlash yo'riqlari, siyosat yurgizish tamoyillari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Bobur asarni yozayotgan davrda bu borada ancha tajribaga egaligi, siyosatdon sifatida kamolga yetganligi seziladi. Podshohlar faoliyati haqida so'zlar ekan, ularning yutuq va kamchiliklarini bilimdonlik va donishmandlik bilan tahlil etadi. O'zining yutuqlari va nuqsonlarini mashhur podshohlar faoliyati bilan qiyoslaydi. Mag'lubiyat va yutqiziqlarining sabablarini topishga va ularni bartaraf etishga urinadi.

Bobur temurzodalar tanazzulidan ko'p qayg'urgan. Ularning xatolarini tahlil qilgan. Bu tahlillardan Boburning tabiatini ancha boshqacha – jiddiy, mas'uliyatli, jonkuyar ekanligi sezilib turadi. U Sulton Husayn Boyqaroni tadbirkor, ishbilarmon, jasur, mard xonlardan deb biladi. Unga ehtirom bilan qaraydi. O'g'illari – shahzodalarning hayotga engil qarashlari, aysh-ishratga berilishlarini tanqid qiladi, afsuslanadi, ulardan ranjiyidi: «*Bu mirzolar andoq ifrot bila fisq va ayshg'a mashg'ul edilarkim, otasidek kordiyda va kordon podshoh tushchilik yo'l kelib, ramazondek mutabarrak va aziz oyg'a kechalik fursat qolib, otasidin iymanmay, tengridin qo'rqlay, hanuz ishi chog'ir ichmak edi. Nashot bila majlisoroliq edi. Inbisot bila muqarrardurkim, mundoq bo'lg'on kishi andoq shikast topqay va bu nav' o'tgan elga har kim dast topqay»<sup>88</sup>.*

Ba'zan Bobur tadbirlar ko'rishda o'zining oldingi faoliyatlaridan ham saboq chiqarganini ko'ramiz. Xatolarining yana qaytarilib qolishining oldini olishga harakat qilgan. Har bir hukm chiqarganda chuqur, har taraflama o'ylab mulohazakorlik bilan ish yuritganining guvohi bo'lamiz: «*Mulgirlilikda va*

<sup>88</sup> Бобур. Бобурнома. Т.. Юлдузча, 1989. 40-бет.

*mamlakatdorlikta agarchi ba'zi ishlar zohirda ma'qul va muvajjah ko'runur, vale har ishning zimnida yuz ming mulohaza vojib va lo'imdur. Ushbu bir bemulohaza hukm qilg'onimizdin ne miqdor sho'r va fitnalar qo'pti. Axir Andijondin ikkinchi navbat chiqq'onimizg'a sabab ushbu betaammul hukm qilg'onimiz bo'ldi»<sup>89</sup>.*

Bu o'rinda Bobur o'zining xatosidan saboq chiqarganini amplaymiz. O'ylaymizki, bu kabi saboq, ibratlar faqat Bobur uchungina emas, balki kelajak uchun, tarix uchun ham muhim nihamiyatga molik.

Bobur «Boburnoma»da o'z faoliyatini hamisha tahlil etib borganini ko'ramiz. Xatolari haqida ham, yutuqlari haqida ham oshkora so'zlaydi. Xususan, yutuqlari borasida eslar ekan, obyektiv, asosli so'zlashga urinadi. Jumladan, o'zinig 19 yoshida Samarqandni egallagani bilan Husayn Boyqaroning Yodgor Muhammad Mirzo qo'lidan Hirotni olganini muqoyasa etadi. Va bu ikki muhorabaning farqini 5 asos bilan ko'rsatib beradi. O'zining, birinchidan, yosh va tajribasizligi, ikkinchidan, g'animi Shuyboniyxondek «purtajriba» kishi ekanligi, uchinchidan, Samarqandning ichki ahvolidan xabar etkazuvchi kishining yo'qligi, to'rtinchidan, g'animning mustahkam qo'rg'onda o'mashgani, beshinchidan, shaharni ikkinchi kelishda olayotgani edi.

Yuqorida sanalgan farqlar bizga Boburning sarkardalik valohiyati, tadbirkorlik layoqati haqida xulosa chiqarishimizga asos beradi. U erishgan g'alabaning miqyosini, sipohigarchilikdagi noyob qobiliyatini ko'rsatadi.

Bobur tarixiy hodisalarni bayon etar ekan, ma'lumotlar miqyosini kengroq qamraydi. Voqealar bilan bog'liq shaharlar haqida ham ma'lumot beradi. Ayniqsa, uning bobokaloni Amir Temur jahongirga poytaxt bo'lgan Samarqandga muhabbatib beqiyosligini ko'ramiz.

Asarda «balrai mahfuz» deya alqangan shahar haqida izchil, mukammal ma'lumot beradi. Unga o'zgacha mehr-muhabbat, ixlos

<sup>89</sup> Vifny asap. 60-бет.

va havas bilan qarashi sezilib turadi. Samarqandning jo‘g‘rofiy o‘rni, daryolari, havosi, tabiat, hayvonot va nabolot olami haqida ma’lumot beradi. U erda yashab o‘tgan ulug‘ shayxlar, allomalar, ularning amalga oshirgan ishlari haqida iftixor bilan so‘zlaydi. Temur bobosini chuqur ehtirom bilan eslaydi. Uning davrida bunyod etilgan inshootlarni kuzatadi. Shu o‘rinda Bobur tabiatidagi sinchkovlik, olimona kuzatuvchanlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hatto, u Samarqand qo‘rg‘oni uzunligini qadamlatib o‘lchatganini so‘zlaydi. Uning 10600 qadam (metr) chiqqani haqida avlodlarga ma’lumot qoldiradi. Samarqandda yashab, dunyoga dong‘i ketgan Abu Mansur Moturudiy, imom Ismoil Buxoriy, Ahmad Farg‘oniylar kabi ulamolar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Amir Temur, Ulug‘bek Mirzolar amalga oshirgan ishlar sarhisob etiladi. Ziji Ko‘ragoniyning jahonshumul ahamiyati dunyo fani bilan qiyosan ko‘rsatib beriladi. Jahon ilmida Ulug‘bekka qadar 7-8 zиж yaratilgani, ammo Ulug‘bek yaratgan zиж amalda qo‘llanishi faxr va g‘urur bilan e’tirof etiladi: «*Ulug‘bek Mirzo bu rasad bila Ziji Ko‘ragoniyini bitibturkim, olamda holo bu zиж musta‘maldur. O‘zga zиж bila kam amal qilurlar*»<sup>90</sup>.

Yaratilgan zijklarning, bir-biri bilan qiyoslab, ilmiy qimmatini ham belgilaydiki, bu Bobur dunyoqarashi kengligidan, bilim qamrovi va salohiyatidan dalolat beradi.

Muallif Samarqanddagagi binolar turli inshootlar, bog‘lar, masjid, madrasa kabi ko‘plab osori atiqalarimiz borasida mufassal ma’lumot beradi. Ularning qurilish sabablari, ashylari bilan tanishtiradi. Xususan, Masjidi laqlaqaning arxitekturasi haqidagi ma’lumotlarni o‘qib, ajodolarimiz kashfiyotlaridan, qurilish sohasidagi did va salohiyatidan hayratga tushamiz.

Bobur Afg‘oniston, uning tabiat, o‘simgilik dunyosi, hayvonot olamiga katta qiziqish bilan qaragan. G‘ayrioddiy ashylar, noyob tabiat mo‘jizalari uning e’tiborini tortgan. Dashti Shayxda o‘suvchi lolalarining rango-rang navlarini sanatgani va 32-33 turli lolaning mavjudligi haqida xabar beradi. Lolayi gulbo‘y, sadbarg lola kabi nodir turlari borasida alohida to‘xtaladi. U erdagidagi

<sup>90</sup> Ўна асап. 45-бет.

shaharlar, daryolar, tog‘lar borasida ham qiziqarli ma’lumotlar beradi: «Bu kentlar orasida Istalif va Istarg‘ichcha kent yo‘qtur. Ulug‘bek Mirzo bu kentlarni Xuroson va Samarcand deb akandur»<sup>91</sup>.

Bobur Afg‘onistonda amalga oshirgan obodonchilik ishlari haqida ham ma’lumot beradi. Bog‘i Vafoga o‘xshash o‘zi yaratgan bog‘lar haqida so‘zlaydi. Ulug‘bek Mirzo bunyod etgan Bog‘i Kalonning keyingi qismati bilan tanishtiradi: «Bu kentta (Istalif – N. J., I. A) Bog‘i Kalon otliq Ulug‘bek Mirzoning bir mag‘sub bog‘i bor edi. Men egalarig‘a baho berib oldim». Boqqa yaqin atroflarni obod qildirib, ariqlarni ta’mirlaydi. Xuddi shu kabi ko‘plab ariqlar barpo etgani, viloyatlarni obod qilgani haqida so‘zlaydi.

Bobur «Boburnoma»ni rostgo‘ylik bilan yozadi. Hamma voqe – hodisalarni ro‘y-rost, haqqoniy yoritganini e’tirof etadi. Hatto, ota – og‘a, qarindosh-urug‘larining ham yaxshi va yomonini yashirmay oshkor etganini ta’kidlaydi: «Bu bitilganlardin g‘araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlardin maqsud o‘zning ta’rifi emas, bayoni voqeい bu ettkim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qilibturkim, har so‘zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota – og‘adir har yaxshiliq va yomonlig‘kim, shoe edi, taqrir qildim va qarindosh va begonadin hur ayb va hunarkim bayoni voqe edi, tahrir ayladim. O‘qug‘uvchi ma‘ur tutsun, eshitg‘uvchi taarruz maqomidin o‘tsun»<sup>92</sup>.

Boburning bu kabi fikrlari «Boburnoma» asarining ilmiy qimmatini oshiradi. Uning ishonchli, haqqoniy va muhim manba olaligini yana bir bor asoslaydi. Asar bilan tanishar ekanmiz, Bobur o‘zi ta’kidlagan tamoyilga har doim amal qilganini ko‘ramiz.

Bobur «Boburnoma»ni yozish jarayonida ko‘p tarixiy asarlar bilan tanish bo‘lganini sezamiz. «Tabaqoti Nosiriy», «Zafarnoma» kabi asarlarni ko‘p marotaba yodga oladi. Ularga munosabat bildiradi. Ba’zan eng mashhur tarixiy asarlardagi ma’lumotlarga oydinlik kiritadi. Ulardagi kamchiliklarni bartaraf etadi. Jumladan,

<sup>91</sup> 91ta acap, 124-бет.

<sup>92</sup> 92ta acap, 180-бет.

G'azna viloyati haqida gapirib, Sulton Shihobiddin G'uriyning ismini ba'zi tarixiy manbalarda Muiziddin deb yozganlarini eslatadi. To'g'ri deb hisoblangan xulosasini keltirib o'tadi: «*Sulton Mahmudning va avlodining poytaxti G'azna ekandur. Ba'zi G'aznin ham bitibdurlar. Sulton Shihobiddin G'uriyning ham poytaxti bu ekandur. Bu Sulton Shihobiddinni «Tabaqot Nosiriy»da va ba'zi hind tarixida Muiziddin bitibturlar»*<sup>93</sup>.

Bobur «Zafarnoma»dek mashhur tarixiy asardagi ba'zi ma'lumotlarni mukammallashtiradi: «*Behradin etti kuruh shimolsari bir tog' tushubtur. Bu tog'ni «Zafarnoma»da va ba'zi kitoblarda «Ko'hi Jud» bitibturlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, so'ngralar ma'lum bo'ldi*»<sup>94</sup>. Ko'rindiki, bu erda ta'riflangan tog' «Jud tog'i» deb atalishi va nomlanish tarixi noma'lumligi haqida gapiradi. Ammo, shu o'rinda Bobur «Zafarnoma»dagi ma'lumotlarni o'z kuzatishlari orqali yana davom ettiradi, to'ldiradi. Jud tog'inining nomlanish tarixini mufassal yoritadi<sup>95</sup>. Bu kabi dalillar «Boburnoma»ni o'zigacha bo'lgan tarixlarni yanada mukammallashtiruvchi, ularda uchramaydigan ko'p ma'lumotlarni keltiruvchi mo'tabar manba ekanligini tasdiqlaydi.

**«Boburnoma»da muallif shaxsi.** «Boburnoma» da bosh qahramon Boburning o'zi. U yuqorida eslatganimizdek, voqeahodisalarни bayon etar ekan, xolislikka amal qiladi. Shuning uchun ham muallif timsoli ideallashtirilмаган. Tasavvurimizда у hayotning butun achchiq-chuchugini, past-balandini ko'rgan real inson sifatida namoyon bo'ladi. Asarda uning fe'l-atvori butun murakkabligi bilan o'z ifodasini topgan. Tabiatiga xos ezgu fazilatlar, ko'nglidagi takrorlanmas, sohir tuyg'ular, his-hayajonlar bilan birga hukmdor sifatidagi qattiqxo'llik va talabchanlik ham oshkora tasvirlangan.

Kobul yo'lidagi mashaqqatli kunlarda, ayniqsa, Bobur fe'lidagi olighthimmatlik, adolat va kamtarlik fazilatlari yuzaga chiqadi. U navkarlar bilan barobar qor tepib yo'l ochadi. Ular bilan birga kechani qor ostida o'tkazadi. Uni issiqroq g'or ichiga taklif

<sup>93</sup> Ўша асар, 125-бет

<sup>94</sup> Ўша асар, 203-бет

<sup>95</sup> Ўша асар, 203-бет.

qilib ganda rad etadi. El chekkan mashaqqatni birga chekishni afzal biladi. Navkarlari sovuqda, qorda bo'lib, u issiqda, istirohat va farog'atda bo'lishini o'ziga or deb biladi. «Kemaga tushganning Joni bir» maqoliga amal qiladi. Forslarning «Do'stlar bilan birga o'lmoq to'ydir» hikmatli so'zini esga oladi. «Men ham har tashvish va mashaqqat bo'lsa ko'rayin, har nechuk el toqat qilib tursha turayin, bir forsi masal bor: «Marg bo yoron sur ast»<sup>96</sup>.

Sovuqning qattiqligidan ko'p kishining qo'l-oyoqlarini sovuq undi. Bobur shu kecha o'z qulog'iga ham sovuq ta'sir etganini o'zlaydi. Muallif ana shu mashaqqatli kunlarda:

*Charxning men ko'rman javru jafosi qoldimu,  
Xusta ko'nglum chekmagan dardu balosiqoldimu?*

matlali g'azali yaratilgani haqida xabar beradi. Ushbu tasvirlarda Boburning shaxs sifatidagi qiyofasi, xarakteri, yuksak ma'naviy dunyosi tasavvurimizda jonlanadi.

«Vaqoe»ning kotibi Boburga baho berib, uning sakkiz fazilatini sanab o'tadi: «...Sekkiz sifati asil aning zotig'a muttasil erdi; birisi bukim, najhati baland erdi; ikkimchisi, himmati injumand erdi; uchumchisi, viloyat olmog'; to'rtumchisi, viloyat vixlamog'; beshimchisi, ma'murlug'; oltimchisi, rafohiyat niyati Tongri taolo bandalarig'a; ettimchisi, cherikni ko'ngli(ni) qo'lg'a olmoq; sekkizimchisi, adolat qilmoq»<sup>97</sup>.

Balandnasablik, himmat, jahongirlik, obodonchilik va turovonlikka e'tibor, adolatlilik va sipohigarlik fazilatlari unga xos edi. Bu fikrlar asosli va obyektiv ekanligini «Vaqoe»dagagi hodisalar bayoni va undagi Bobur timsoli tasdiqlaydi. U shu fazilatlarini butun umr yo'qotmaslikka, asrashga intildi.

Bobur o'z hayoti davomida adolatsizlik va zulmni taqiqlashga harakat qilgan. «Boburnoma»da bir navkar zabt etilgan yurtda birovning bir ko'za yog'ini zo'ravonlik bilan tortib olgani uchun, ibrat bo'lsin deb, kaltaklatganini so'zlaydi<sup>98</sup>. Bobur munofiqlik, ko'zbo'yamachilik va xiyonatni sezganda, uni keskin yo'qotish

<sup>96</sup> 9 min aqap, 175-6er.

<sup>97</sup> 9 min aqap, 356-6er.

<sup>98</sup> 9 min aqap, 114-6er.

tadbirini ko'rgan. Jumladan, G'aznada makr bilan qabrnini tebratib, xalqni laqillatayotgan aldamchilarni sinchkovlik bilan fosh etadi. Ular faoliyatini taqiqlaydi<sup>99</sup>.

Bobur «yaxshilik» radifli g'azalida o'zining yashash prinsipini bayon etgan. Uning hayot yo'li, eng murakkab vaziyatlarda ham shu tamoyilga sodiqligini ko'rsatadi. U hayot mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan, faylasufona, hikmatomuz xulosalarni bayon etadi. Donishmandlar kabi u ham «*shuhrat bilan yodlanishni ikkinchi umr*» deb hisoblaydi: «*G'arazkim, bu dunyoda kishidin ushmundog' nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo'lsa, nega andog' harakatga iqdom qilg'aykim, andin so'ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asar bo'lsa, nega andog' amrga ehtimom qilmag'aykim, qilg'ondin so'ng mustahsan degaylar. Zikri nomero, hakimon umri soniy guftaand*»<sup>100</sup>.

Bobur ko'p xiyonatlar ko'rdi. Fitnalardan ko'ngliga ko'p ozorlar etdi. Ammo, bular uning tabiatidagi ezgu fazilatlarni yo'qotolmadi. Aksincha, o'zining ta'kidlashicha, ota-bobolarining an'analariga amal qildi. Xalqning «yaxshilik qil suvgaga sol, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar» degan donolik bilan aytgan so'zini umr yo'lida dasturilamal deb bildi. Hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, o'zi ham shunga yaqin donishmandona xulosalarga keldi: «*Har kimdin yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning bila amal qilmoq kerak. Agar ota yamon ish qilg'on bo'lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak*»<sup>101</sup>.

Bobur qarindoshlik rishtalarini mustahkam saqlagan. O'ziga jafo qilib bo'lsada, aymoqlariga mehr-oqibat ko'rsatgan. «Boburnoma»da buni isbotlovchi dalillar ko'p. Hatto, o'zi bilan taxt talashgan ukasi Jahongir Mirzoga ham xiyonat va jabr qilmagan. «*Uluqlar ko'tarimlik kerak*» degan o'z aqidasisiga amal qilib, kechirimli bo'lishga harakat qilgan. Bu Bobur fe'lidiagi yana bir fazilatni – jaholatga ma'rifat bilan javob berish tamoyilini bizga ko'rsatadi: «*Chun mening sha'ninda bu emas edikim, og'a-ini va uruq-qayoshtin har necha izoyliq voqe bo'lsa, mendin mutanaffir*

<sup>99</sup> Ўша асар, -бет.

<sup>100</sup> Ўша асар, 168-бет.

<sup>101</sup> Ўша асар, 169-бет.

*bo'lg'aylar. Agarchi Jahongir Mirzo bila bizningoramizda burun mulk va navkar jihatidin kuduratlar va nigorlar xeyli bo'lub edi, vale bu navbat ul viloyattin mening bila hamroh bo'lib kelib edi»<sup>102</sup>.*

Bobur juda sinchkov inson. U eng oddiy va kichkina ko'ringan narbalarga ham e'tibor beradi. So'n yoqasidan o'z o'r dasigacha otning qadamini sanatadi. 23 ming bir yuz qadam ekanligi, u 46200 qadam 11 yarim kuruh bo'lishini aytadi. Gang daryosida necha qo'suzganini hisoblaydi: «*Ushbu kun Gang daryosini qo'l solib o'ttim. Bir qo'lni sanadim, o'ttiz uch qo'l bila o'ttum, yana tinmay yuzub bu yunga ham o'ttum. Bori daryolarni yuzub, kechib edim, Gang daryosi qolib edi»<sup>103</sup>.* Sochini oldirgani, tishi sinib tushgani, qulog'i og'rigani, barmog'i singanigacha batafsil yozadi.

Bobur umri so'ngigacha jangu jadallar ichida kechdi. Uning maqsadi ulug' edi. U tanazzul topayotgan temuriylar mavqeini qayta tiklashga intilardi. Bu yo'lda ko'p ranju alamlarga sabru toqat qilardi. U, ayniqsa, Hindistonda ekanida o'z yurtini, Kobulda vashayotgan farzandlarini, yaqinlarini qo'msar edi. Bunday kechinmalar borasida «Boburnoma»da ko'p so'zlaydi. Ayniqsa, 1528-yilda Kobulga Xoja Kalonga yozgan maktubida o'zining shunday holatini juda ta'sirli ifodalaydi: «*Ul viloyatlarning latofattlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus, mundoq toyib va torik bo'lg'onda qovun va uzumdek mashru' hazni kishi ne tavr yotirdim chiqarg'ay. Bu fursatta bir qovun kelturub edilar, kesib eyuch, g'arib ta'sir qildi. Tamom yig'lab edim»<sup>104</sup>.*

Bobur Afg'oniston yoki Hindiston haqida yozar ekan, har bir piyohda, hayvonot olamida, daraxtu mevalarda o'z vatani og'inchini his qiladi. Ularni qiyoslab ko'radi: «*Hindistondakim, oqar suv hargiz bo'lmas, chashma xud ne tilar, Ahyonan chashma hamkim bor, yerdin zax suyidek sizib chiqar. Ul yerning chashmalaridek qaynab chiqmas»<sup>105</sup>.*

<sup>102</sup> Ушба асар, 110-111-бетлар.

<sup>103</sup> Ушба асар, 333-бет.

<sup>104</sup> Ушба асар, 329- бет

<sup>105</sup> Ушба асар, 301- бет

Bobur tabiat qo'ynida bo'lishni, undagi go'zal manzaralarni tomosha qilishni xush ko'rgan. Undagi g'ayrioddiy ko'rinishlar va hodisalarini nozik fahmlagan. Ularni ehtiros va hayrat bilan kuzatgan. U, ayniqsa, kuz faslini yoqtirgan. Xazonrezgi bog'larni sayr qilish unga zavq va ilhom baxsh etgan. Bu fikrimizning isbotini «Boburnoma»da ko'p uchratamiz. Asarda kuz tasvirini muallif nazarida qayta-qayta kuzatamiz. Quyidagi parchada tabiat go'zalliklariga uning shoirona munosabatini yaqqol ko'ramiz: «*Istarg'achning oyog'idagi podshohiy bog'ini sayr qilildi. Bir olma niholi yaxshi xazon bo'lub edi. Har qaysi shoxida besh-olti barg siyoq bila qolib edi, andoqkim, agar naqqoshlar takalluf bila tortsalar, ancha torta olmag'ay edilar*»<sup>106</sup>.

«Boburnoma»da Boburning ota sifatidagi fe'l-atvori ham o'z ifodasini topadi. U oilasiga yaqin yoki uzoq yashaganda ham, yumushlari haddan ko'p bo'lganda ham hech qachon farzandlari tarbiyasini e'tibordan chetda qoldirmagan. Farzandlari onalaridan va maxsus murabbiylardan hayot sirlarini o'rganishgan. Ammo, Boburning o'zi ham bu masalaga jiddiy qaragan. Suhbatlarda, yiroqdaligida esa maktublar orqali ularni barkamol inson etib tarbiyalashga harakat qilgan. U «Boburnoma»ning bir necha o'mida Komron, Humoyunga yozgan maktublari haqidagi ma'lumot beradi. Komron kadxudo etib tayinlanganda, Askariy devonbegi etib tayinlanganda o'z xursandchiligini yashirmaydi. Humoyunning sipohigarlikda va janggohlarda ko'rsatgan jasoratu matonatini ko'rganda faxr tuyg'usini oshkor bayon etadi. Ayniqsa, to'ng'ich farzand va valiahd Humoyunning har tomonlama to'kis inson bo'lib etishganidan mammunlik izhor qiladi. 1529-yil bir yillik ayriliqdan so'ng Badaxshondan Agraga kelgan Humoyun bilan diydorlashuvini «Boburnoma»da shunday eslaydi: «...Ograga yetib, o'shul soatkim, biz aning onasi bilan otini tutub, so'zlashib o'lтуруб erdukkim, yeta o'q keldi. Ko'ngullar gul yanglig' ochilib, ko'zlar chirog'dek yorudi. Muqarrar har kun jashn edi... Va necha muddatgacha bir erda bo'lub, musohibona

<sup>106</sup> Ушаков, 227-бет

*bir-bir bilan suluk qilur erdik. Va alhaq suhbatta bebadal erdi va insoni komilkim derlar, o'shal erdi».*

«Boburnoma»da 1528-yil Humoyunga yozgan bir maktubini to'liq keltiradi. Unda biz Boburni donishmand va talabchan tarbiyachi qiyofasida ko'ramiz. U Humoyunda adolatli, jasoratli, jahongir podshoh fe'l-atvorini mukammal shakllantirishga harakat qiladi. Uni har bir narsaga e'tiborli bo'lishga da'vat etadi. Farzandiga Al'amon deb ism tanlashi munosabati bilan ismning ma'nosi va talaffuzini hisobga olish lozimligini uqtirib fikrlar bildiradi: «...kasrati iste'mol bila avom Alamo derlar, yo El Amon derlar, o'zga mundoq aliflom otta kam bo'lur».

Farzandlarini har doim temurzodalar tanazzuliga bois bo'lgan nonhillikdan saqlanishga da'vat etgan: «Yana ining bila yaxshi maosh qilg'aysan, Uluqlar ko'tarimlik kerak, umidim borki, sen ham yaxshi ixtilot qilg'aysan. Aning ham mutasharri' va yaxshi yigit qo'yubtur, ul ham mulozamat va yakjihatliqta taqsir qulmag'ay».

Ushbu maktubda podshohlikning o'ziga xos mashaqqatlari, tilablari haqida so'z boradi. Bo'shlik va sokinlik podshohlikka yot, tezkorlik va g'ayratlilik unga xos xususiyat bo'lmog'i ta'kidlanadi: «Garanjonliq bila, kohilliq podshohliq bila rost kelmas...».

Podshoh o'zining shaxsiy tashvishlarinigina o'ylashi aslo nomunosib ekanligini, u har doim xalq dardu tashvishi bilan uyg'oq va hamkor bo'lishi lozimligini uqdiradi. U podshohlikni qaydga – kishanga qiyoslaydi. Shu topib ishlatilgan birgina so'z Bobur aytmoqchi bo'lган ko'p nasihatlarni, ruhiyatning rango-rang tilsimlarini o'zida mujassamlashtiradi: «Yana xatlariningda yolg'uzluk, yolg'uzlukkim, debsen, podshohliqda aybdur... Hech qayde podshohliq qaydicha yo'qtur. Podshohliq bila yolg'uzluk rost kelmas».

Bobur Humoyunga davlat ishlarini hal etishda atrofidagi ishibilarmon, tadbirdi, donishmand umaro bilan kengashib ish qilishni maslahat beradi. Xalqning orasiga yaqinroq kirib borish, ularning dardu tashvishlaridan yiroqlashmaslik lozimligini uqtiradi. Ularning orzu-amonlarini anglashga, ular bilan bir xil

havodan nafas olishga chaqiradi: «... *ish ko'rgan, ray va tadbirlik beklar bila kengashib, alarning so'zi bila amal qilg'aysen.*

*Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnoshinlikni va el bila kam ixtilotlikni bartaraf qilg'il...*».

Bobur Humoyunning yozgan maktubini eslatib, yozma nutqiga, savodxonlik salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratadi. Bu narsalar el nazaridagi insonning saviyasi, madaniy darajasini belgilashini uqtiradi.

Bobur shu o'rinda Humoyunning xato va kamchiliklarini ko'rsatish bilan birga, maktub yozish madaniyati haqida ham saboq beradi. Bu har bir o'quvchini befarq qoldirmaydi. O'ziga kerakli ibratni ola oladi: «*Xatingni xud har tavr qilib o'qusa bo'ladur, vale bu mug'laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo'lmaydur. G'olibo xat bitirda kohillig'ing ham ushbu jihattindur. Takalluf qilay deysen. Ul jihattin mug'laq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qug'uchig'a.*».

Ko'rinaradiki, bizga e'tiborsizdek tuyulgan kichik narsalarga ham Bobur tarbiyachi – ota sifatida jiddiy qaraydi.

Bobur «Boburnoma»da mahoratlari sarkarda sifatida ham gavdalanadi. U yoshligida tajribasizligi tufayli yo'l qo'ygan xatolarini ko'p eslaydi. Ulardan muhim saboqlar chiqaradi. Lashkarni boshqarishda tadbirli, salohiyatli, noyob iqtidorli sipohigarga aylanadi. Bu sohada turli kashfiyotlar qiladi. Yangiliklar kiritadi. Jangda ustod Aliquli yaratgan to'p – zambaraklardan foydalanishni yo'lga qo'yadi. Cherikni 6 bo'lakka bo'lib, har bir polkning kechqurunlari qorovullik qilishini tashkil qiladi. Lashkarni sodiqlik va ahillikda saqlash maqsadida Qur'oni ushlab qasamyod qilishni joriy etadi. Hindiston muhorabasida jang oldi cho'chib, hayiqib turgan lashkar oldida Boburning murojaatini o'qib uning naqadar ta'sirli nutq so'zlovchi notiqligining ham guvohi bo'lamiz.

«Boburnoma»da uning yosh, tajribasiz sarkardadan janggoh pastu balandini shaxmat taxtasidek aniq ko'ruvchi, lashkarni uning donalaridek bexato joylashtiruvchi, bobosi Amir Temur kabi

salohiyatli, tadbirkor sipo higarga aylangungacha bo'lgan umr daftaring ifodasini ko'ramiz.

Bobur «Boburnoma»da o'zining yaxshi amallari bilan birga ba'zi xatoliklari, qattiqqo'lliklari, shafqatsizliklari haqida ham oshkora yozadi. Yashirmaydi. Uadolatni barqarorlashtirish maqsadida ba'zan qattiq chora-tadbirlar ko'radi. Ibrat bo'lishi uchun amalga oshirgan ba'zi ishlarida talabchanlikni haddan oshirib yuboradi. Ba'zi joylarda kalladan minoralar yasaganini so'zlaydi. Ammo, «Boburnoma»ni yozishda xolislikka qat'iy amal qilgan Bobur faoliyatiga biz ham xolis baho bermog'imiz lozim. U yashagan davr, vaziyat, ijtimoiy muhitni to'g'ri anglamog'imiz darkor. Bobur faoliyatining bu jihatni haqida «Boburnoma» tarjimoni va tadqiqotchilaridan biri shotlandiyalik olim Uilyam Erskin (1773-1852) shunday mulohaza bildirgan edi: *«Boburnoma» da ba'zan beshafqat qatl etish manzaralari uchrab turadi, lekin buning sababini ayrim bir shaxsning faoliyatidan mas, balki o'sha tarixiy muhitudan qidirish zarur»<sup>107</sup>.*

«*Tarixiy shaxslar timsoli*» «Boburnoma»da juda ko'p tarixiy shaxslar haqida ma'lumot beriladi. Muallif ularga baho berar ekan, fuzilatlarini ham, nuqsonlarini ham mufassal tasvirlaydi. Ba'zan nihiyatda qisqa – bir yoki ikki jumla bilan bir shaxsning tabiatini, fe'l-atvori, iqtidoru salohiyati haqida tasavvur bera oladi.

Bobur o'ziga yaqin kishilar – otasi, amakilari, tog'alari, ukalari, o'g'illari haqida ham, temurzodalar, o'zbekxonlar haqida ham, ijodkoru san'atkorlar haqida ham muhim dalillarni keltiradi.

*Umarshayx Mirzo timsoli.* Bobur otasi Umarshayx Mirzo haqida faxr bilan yozadi: *«Umarshayx Mirzo baland himmatliq va ulug' doiyaliq podshoh erdi. Hamisha mulkgirlilik dag'dag'asi bor erdi...»*<sup>108</sup>

Uning «pokiza e'tiqodliq kishi» ekanligini ta'kidlaydi. Adabiyot muxlisi sifatida doston va masnaviyalar, tarix va «Shohnoma» o'qishni yoqtirganini aytadi. She'mni yaxshi anglashi va his qilishini e'tirof etadi: *«Ravon savodi bor edi. «Xamsatayn»*

<sup>107</sup> Уильям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. Инглизчадан Ҳ. Сотимов тарж., Т., Чўлпон, 1995, 107-бет.

<sup>108</sup> Ўша асар, 10-бет.

*va masnaviy kitoblarni o'qub edi. Aksar «Shohnoma» o'qur edi. Tab'i nazmi bor edi, vale she'rg'a parvo qilmas edi»<sup>109</sup>.*

Bobur qisqa chizgilarda otasining fe'l-atvori haqida ham mukammal tasavvur uyg'otadi. Bunday tasvirlarni o'qir ekanmiz, Bobur tabiatidagi ko'p fazilatlar otameros jihatlar ekanligini ko'ramiz: «*Bisyor saxovati bor edi. Xulqi dag'i bor erdi, xushxulq va harrof va fasiq va shirinzabon kishi erdi, shujo' va mardonan kishi edi»<sup>110</sup>.*

Uningadolati haqida ham havas bilan so'zlaydi. Bu boradagi ishlaridan ayrim misollar keltiradi. Jumladan, bir Xitoy karvoni kelayotganda, Andijon yaqinidagi tog'lardan qor ko'chadi va karvon qor ko'chkilari ostida qoladi. Mingdan ortiq kishidan atigi 2 kishi omon qoladi. Umarshayx Mirzo vorislarni topib, karvondagi barcha mol-mulklarni ularga ziyonsiz topshiradi. Hatto, ayrim merosxo'rлarni bir necha yillargaэha izlatib, ularga ham o'z ulushlarini salomat etkazadi.

**Husayn Boyqaro tasviri.** Bobur temurzodalar orasida Husayn Boyqaroga katta ehtirom bilan qaragan. Uning haqiqiy podshohga xos fazilatlar egasi ekanini ta'kidlaydi. Uni «*karimut-tarafayn edi»*, asl podshoh edi deya alqaydi.

Bobur «Boburnoma»dauning shakl-shamoyili, axloq va atvori haqida mufassal ma'lumot beradi: «... *Harrof va xushxulq kishi edi. Xulqi bir nima guzaroroq voqe bo'lib edi, so'zi ham xulqidek edi. Ba'zi muamatotta shar'ni bisyor rioyat qilur edi»<sup>111</sup>.* U adolat va shariatga qattiq amal qilgan. Bir o'g'li bir kishini o'ldirgani uchun uni o'zi qozixonaga yuborgani haqida so'zlaydi. Bu dalil uning vatanparvarlik, xalqparvarlik burchini otalik burchidan ko'ra ustun qo'ya olganini ko'rsatadi. Bu fazilat uning asl vaadolatli podshohligini tasdiqlaydi.

Husayn Boyqaro Xurosonda 40 yilga yaqin podshohlik qildi. Bobur uning podshoh va jangchi sifatidagi matonati va mardonaligni ko'rsatuvchi dalillar keltiradi. Temurbek naslidan hech kim qilichbozlikda Husayn Boyqarochalik mahorat

<sup>109</sup> Ўзга асап, 10-бет.

<sup>110</sup> Ўзга асап, 10-бет.

<sup>111</sup> Ўзга асап, 147-бет.

qozonmaganini ma'lum qiladi. Uning Husayniy taxallusi bilan she'rlar yozgani, devon tuzgani haqida so'zlaydi. She'rlariga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baho beradi. Yutuq va kamchiliklarini ko'rsatadi: «*Ba'zi baytlari yomon emastur, vale Mirzoning devoni tamom bir vazndadur*»<sup>112</sup>.

Bobur Husayn Boyqaroni ta'riflar ekan, unga xolis baho berishga harakat qiladi. Uning davlat boshqaruvidagi, shohigarchilikdagi mahoratiga tan bergani, havas bilan qaragani holda, umrini farog'atnishinlikda o'tkazganini ma'qullamaydi. Temur kabi mamlakatini markazlashtirishga intilmaganlikda, ihsratparastlikka berilganlikda ayblaydi. Husayn Mirzoga baho berar ekan, uning fe'l-atvoridagi nuqsonlarni ham yashirmay bayon etadi: «... hech kun yo'q edikim, namozi peshindin so'ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o'g'lonlari va jami' sipofig'a va shahrig'a bu hol edi. Ifrot bila aysh va fisq qilurlar edi»<sup>113</sup>.

Bobur temurzodalar tanazzuli sabablarini tahlil qilib boradi. Bu nuqtayi nazari Husayn Boyqaro va uning o'g'illari faoliyatiga baho berganda ham ko'rindi. Ular inqirozining sababini fisq-fujur va noahillikda deb biladi: «*Fisq va fujur o'zida, o'g'lonlarida va el – ulusida asru shoe edi. Ushbularning shomatidin edikim, mundoq sonavodadin 7-8-yilda bir Muhammad Zamon Mirzodin o'zga osor va alomat qolmadi*»<sup>114</sup>.

Boburning Husayn Boyqaroga hurmati yuqoriligini «Boburnoma»dagi ko'p dalillar ko'rsatib turadi. Ayniqsa, uning zamonasida Hirotning har taraflama taraqqiy etganini faxr bilan e'tirof etadi: «*Hiriynikim, rub'i maskunda andoq shahr yo'qtur va Sulton Husayn Mirzoning zamonida Mirzoning tasarrufidin va takallufidin Hiriyning zeb va ziynati birga o'n, balki yigirma taraqqiy qilib edi*»<sup>115</sup>.

Bobur uning davridagi Xuroson va Hirot madaniy taraqqiyotiga, adabiy muhit qiyofasiga, adabiyot va san'at rivojiga katta e'tibor beradi. Bu jarayonni xolis baholaydi: «*Sulton Husayn*

<sup>112</sup> Ўма ақап, 148-бет.

<sup>113</sup> Ўма ақап, 147-бет.

<sup>114</sup> Ўма ақап, 153-бет.

<sup>115</sup> Ўма ақап, 170-бет.

*Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxsis Hiri shahri mamlu edi»<sup>116</sup>.*

**Alisher Navoyi tasviri.** Bobur «Boburnoma»da Alisher Navoyini ko‘p marta tilga oladi. Hayotida u bilan uchrashmagan bo‘lsada, asarlaridagi mulohazalaridan seziladiki, Navoyini ijod yo‘lida o‘ziga ustoz deb biladi. 1500-yilda Navoyidan bir bor olgan maktubini «Boburnoma»da faxr bilan yodga oladi. Shu maktubga qaytarilgan javob xatida ustoz nazariga turkiyda yozgan bir she’rini yuboradi: «*Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg’onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yuborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yuborib edim»*<sup>117</sup>.

Navoyining asarlari Bobur uchun ibrat maktabi bo‘lgan. Ulardagi donolik va hikmat, sohir tuyg‘ular va go‘zal ifoda unga hamisha ilhom bergen. Bobur Navoyining barcha asarlari bilan tanish edi. «Boburnoma»da ularning deyarli barchasi haqida o‘z mulohazalarini bildiradi. Masnaviy – dostonlariga, 4 devondan iborat «Xazoyin ul-maoniy»siga yuqori baho beradi. «*Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas*», deya birgina jumlada ularning adabiy qimmatini baholaydi. Hatto, Afg‘onistonda ustoz devonidan ko‘ngil dardlariga monand tuyg‘ular ifodalangan shoh g‘azallar va baytlardan saralab «Saylanma» devon ko‘chirganini ma’lum qiladi: «*Alisherbekning to‘rt devonidin buhur, avzon bir bayti bila g‘azallar va abyotkim, intixob qililadur edi, itmomig‘a etti*»<sup>118</sup>.

Navoyi ijodiga baho berar ekan, Bobur o‘z bilim qamrovining kengligi va teranligini, badiiy didining yuksakligi va adabiyotshunos olim sifatida tafakkur miqyosining cheksizligini namoyon eta oladi. U Navoyidek daho shoir merosining ham ayrim nomukammal tuyulgan jihatlariga e’tibor qaratadi. «Mezonul-avzon»da ayrim vaznlar talqinida xatoliklar ko‘radi. «Maktubot»ida Jomiyga taqlid sezilganidan qoniqmaydi. Forsiy

<sup>116</sup> Уш асап, 159-бет.

<sup>117</sup> Уш асап, 78-бет.

<sup>118</sup> Уш асап, 227-бет.

she'rlarida turkiyda aytganchalik tarovat va yangilik ko'rishga ishtiyoq sezadi.

«Boburnoma»da Alisher Navoyi tasvirida Hirot adabiy muhitining pirimurshidi va homiysi siymosini ko'ramiz. Uning bu yo'nalishdagi faoliyatiga ham Bobur yuqori baho beradi. Ustoz Qulmuhammad, Shayx Noyi, Udiy kabi musiqachilar, Behzod, Shoh Muzaffar kabi musavvirlar, shoirlar, xattotlar va hunarmandlarga rahnamoligi ular kamolida muhimligini ko'rsatadi: «Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'l mish bo'lg'ay»<sup>119</sup>.

Asarda Navoyining siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvidagi o'rni, mavqeい haqida ham mukammal tasavvur beriladi. Bobur asarida ba'zi dalillarni keltiradiki, ulardan Navoyining xalq orasidagi hurmati<sup>120</sup>, obro'si haqida xulosa chiqaramiz. Navoyiga zamondoshlarining hurmati beqiyos edi. Uning har bir so'zi, har bir qadami ibrat edi: «Alisherbekki, qalin nimalar ixtiro' qilib edi va yaxshi nimalar ixtiro' qilib edi, har kishikim, har ishta bir nima paydo qildi, ul nimaning rivoj va ravnagi uchun «Alisheri» der edi»<sup>121</sup>.

**«Boburnoma»dagi salbiy timsollar.** «Boburnoma»da yuqorida nyrimlari tilga olingan ijobjiy shaxslar bilan bir qatorda Bobur salbiy munosabatda bo'lgan timsollar tasvirini ham ko'ramiz. Umakizodalaridan Sulton Mahmud Mirzo haqida ma'lumot berar ekan, ko'p noma'qul xislatlarini sanab o'tadi: «Zulm va fisqqa ko'p mashg'ul edi. Mutaassib, chog'ir ichar edi...tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmog'on yaxshiroqdur. Bad e'tiqod kishi edi... Badkalom edi»<sup>122</sup>.

Sulton Mahmudxon amirlaridan Xusravshoh haqida o'zlaganda ham ana shunday salbiy munosabatni sezish mumkin: «...gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh

<sup>119</sup> Ўша асар, 154-бет.

<sup>120</sup> Ўша асар, 162-бет.

<sup>121</sup> Ўша асар, 26-бет.

*kun o'tar dunyo uchun bir o'zi o'sturg'on valine matzodasini ko'r qildi, yana birini o'lturdi»<sup>122</sup>.*

Bu kabi tasvirlarda Boburning dunyoqarashi, inson ma'naviyatini baholash mezonlari o'z ifodasini topgan. Albatta, asardagi ayrim shaxslarga bunday munosabatiga ular bilan hayoti davomidagi to'qnashuvlari, ziddiyatlari ham sabab bo'lgan. Ammo, shunda ham Bobur xolislikni saqlab qolishga intilgan. Salbiy bo'yoqlarni biroz mubolag'ali yo'sinda qo'llagan bo'lsada, bu shaxslar hayot yo'lidagi, fe'l-atvoridagi ijobjiy qirralarni ham ko'rsatib o'tadi. Jumladan, Sulton Mahmudxon haqida ba'zi fazilatlarni ham tilga oladi: «*Namozni tark qilmas edi. Tuzuki va zabti bisyor yaxshi edi. Siyoq<sup>123</sup> ilmini xo'b bilur edi...»<sup>124</sup>.*

O'z farzandlari qotili sifatida tarixda dog' qoldirgan Xusravshoh tabiatida xiragina ko'ringan nurli qirrani ham nazardan chetda qoldirmagan: «*Agarchi namoz qilur edi va taomdan parhez qilur edi, vale tiyra fosiq edi...»<sup>125</sup>.*

*Shayboniyxon timsoli.* Bobur asarda Shayboniyxon timsolini chizishda o'zining asosiy g'animi sifatida salbiy bo'yoqni ko'proq ishlataladi. «*Agarchi saharxez edi va har vaqt namozni tark qilmas edi, qiroat ilmini tavre bilur edi, vale mundoq go'lona ablahona va kofirona ahvol va af'ol andin bisyor sodir bo'lur edi»<sup>126</sup>,* -deya Shayboniyning Islom, Qur'on va hadis sohasida yaxshi ilmga egaligini e'tirof etgan holda, uning o'z ilmiga amal qilmaganini isbotlovchi dalillar keltiradi. Muzaffar Mirzoning Xonzodaxonim ismli zavjasini shariatga xilof ravishda, iddasi chiqmay nikohga olganini, Husayn Boyqaroning xotini Xadichabegimga podshohlarga yarashiqsiz harakatlar bilan ko'p ozor bergenini nafrat bilan so'zlaydi.

Hiroting ulug' fuzalo va shuarolariga, mullo va olimlariga behurmatlik qilganidan g'azablanadi. «Boburnoma»da Shayboniy o'ziga o'ta bino qo'ygan takabbur shaxs sifatida tasvirlangan. Bobur uning zamonasining bilimdon ulamolaridan Qozi Ixtiyor va

<sup>122</sup> Ўша асар. 29-бет.

<sup>123</sup> Сиёқ – илми сиёқ, хисоб, арифметика.

<sup>124</sup> Ўша асар. 26-бет.

<sup>125</sup> Ўша асар, 29-бет.

<sup>126</sup> Ўма асар. 29-бет.

Muhammad Mir Yusufga tafsirdan saboq bergenini aytib istehzoli kuladi. Muallif nuqtayi nazarini hurmatlashni yuksak madaniyat deb bilgan Bobur Shayboniyning Behzod musavvirning va Sulton Ali Mashhadiyning «*tasvir va xattig'a qalam kiyurub, isloh qilgan*»ini takabburlik o'rnida qabul qiladi. Uning shoir sifatida yaratgan she'rлarini ham ijobjiy baholamaydi: «*Yana har necha kunda bir bemaza bayt aytur edi va minbarda o'qutub, Chorsuda osturub, shahr elidin sila olur edi*»<sup>127</sup>.

Ammo, bu munosabatni biz to'g'ri tushunishimiz lozim. Bu fikrlar Boburning Vatanidan bosh olib ketishiga, butun umrini yot yurtlarda sarson-sargardonlikda o'tkazishiga sababchi bo'lgan shaxslardan biri xususida aytilayotganini unutmashligimiz kerak.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasida Shayboniy haqida ijobjiy fikrlarni bildirgan: «*Sohibqiron xon (Shayboniyxon – N. J., I. A.) ilmu fazilatlardan xabardor... She'riyat sohasi va shoirlarga e'tiqod – e'tibori katta bo'lgan. Mudom olimu fozillarni o'ziga hamsuhbat qilgan. Yaxshi she'rлari bor*»<sup>128</sup>.

Shayboniy devon tuzgan shoir edi. Devoni bizgacha etib kelgan. Ko'rnatadiki, Bobur asarda o'z g'animlariga baho berganda, mubolag'ali bo'yoqlardan foydalanadi. Ularning salbiy xislatlarini bo'rttiribroq tasvirlaydi.

«*Boburnoma*»da *Hirot adabiy muhitit tasviri*. Bobur «*Boburnoma*»da Hirot adabiy muhitining mukammal qiyofasini ko'rsatgan. Bu ijodkorlar jamoasining sardaftari Abdurahmon Jomiy edi. Bobur asarda san'atning turli yo'nalishida ijod qilgan 30dan ortiq sohibqalamlar haqida mulohaza bildiradi. Ular orasida turli saviyadagi shoirlar, musavvirlar, xattotlar, bastakoru musiqashunoslar, sozandalar, musanniflar, adabiyotshunos olimlar bor. Bobur ularning ijodlariga o'ta sinchkovlik bilan munosabatda bo'ladi. Yutuq va kamchiliklariga baho beradi. Bu borada xolislik tamoyiliga amal qiladi. Bobur ularning ijodlariga baho berar ekan, tasavvurimizda adabiyot va san'atni chuqur anglovchi, sinchkov olim sifatida paydo bo'ladi.

<sup>127</sup> Ўна асар, 186-бет.

<sup>128</sup> Ҳасанхўжа Нисорий. Музаккири аҳбоб. Т.: 1993, 20-бет.

Bobur qisqa hajmda Hirot adabiy muhitini jonli, harakatda tasvirlab bera olgan. U asarda ijodkorlar iqtidorining barcha qirralarini yoritadi, qiyofasiga baho beradi. Shaxsiy fe'l-atvorini tasvirlashni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Asarda Alisher Navoyi tabiatining bizga noma'lum yangi jihatlari bilan tanishamiz. Uning noqulay vaziyatlardan hazil-mutoyiba bilan chiqib keta oluvchi, xushxulq, hazilkash kishi bo'lganini tasavvur etamiz. Boburning tasvirlashicha, bir shatranj majlisida Alisherbek oyog'ini uzatganda, Binoyiga tegib ketadi. Shunda Navoyi mutoyaba bilan shunday deydi: «*ajab baloest dar Hiri agar poy daroz mekuni ba (pushti) shoir merasad*» (mazmuni: *Ajab bir balodirki, Hirotda oyog' ingni uzatsang, shoir (ning keti)ga tegadi*). Shunda Binoyi ham bu quvnoq kinoyaga munosib javob qaytaradi: «*agar jam' mekuni ham ba (pushti) shoir merasad*»<sup>129</sup> (Mazmuni: *yig'sang ham shoir (ning keti)ga tegadi*).

Bobur Shayxim Suhayliy haqida so'zlayotib ham, xuddi shunday quvnoq lahzalarni tasvirlaydi. Suhayliy quyidagi baytini Abdurahmon Jomiy huzurida o'qibdi:

*Shabi g'am girdibodi oham az jo burd gardunro,  
Furo 'burd ajdahoi seli ashkam rub 'i maskunro.*

(Mazmuni: *g'am tunida ohim quyuni osmonni o'rmidan  
qo 'zg'atdi. Ko'z yoshim ajdahosi er yuzini yutib yubordi*).

Bu g'azalni eshitgan Jomiy quvnoqlik bilan «*Mirzo, she'r  
aytasiz yo odam qo'rqtasiz?*»<sup>130</sup> deya chuqur mazmunli munosabatini izhor qiladi. Yuqorida keltirilgan ayrim misollardan biz Hirot adabiy muhitidagi jonli jarayonni tasavvur qilamiz. Ulug' allomalarimizning yuz ifodalarini ko'z oldimizga keltiramiz. U davralardagi qahqahalar jarangini eshitganday bo'lamiz. Bu, albatta, Boburning o'ziga xos ifoda uslubi va mahoratinining natijasidir.

Bobur Hirot adabiy muhiti tasviri jarayonida, yuqorida e'tirof etganimizdek, badiiy ijodni nozik va chuqur tushunuvchi olim sifatida namoyon bo'ladi. U qisqa hajmda badiiy matnlarni tahlil etib bera oladi. Har bir asarning o'rni va mavqeini belgilay oladi.

<sup>129</sup> Ўша асар, 162-бет.

<sup>130</sup> Ўша асар, 156-бет.

Binoyi, Mir Husayn Muammoysi, Shoh Husayin Kamoliy, Ohiy kabi o'nlab shoirlarning asarlarini obyektiv baholaydi.

Adabiy muhitda masnaviygo'ylik maqomi haqida ma'lumot beradi. Abdullo Hotifiyning «Xamsa» muqobalasida dostonlar aytganidan xabardor bo'lamiz. «Haft paykar», «Iskandarnoma», «Layli va Majnun» muqobalasida «Haft manzar», «Temurnoma», «Layli va Majnun» dostonlarini yaratganini aytadi. Ularning badiiy qimmatiga e'tibor beradi. "Bu masnaviylardin «Layli va Majnun mashhurroqtur. Agarchi latofati shuhraticha yo'qtur»<sup>131</sup>, deya baho beradi. Ammo, shunga qaramay, bu ma'lumot adabiyotshunoslik ilmida katta qimmatga ega. Chunki, unda Hirot adabiy muhitida «Xamsa» yaratishga urinishlar bo'lganini anglaymiz. «Temurnoma» dostonining yangidan kiritilishi ko'zga tashlanadi. Bu doston, Bobur nuqtayi nazaricha, muvaffaqiyat qozonmagan bo'lsada, xamsachilik an'anasini yangilashga urinish namunasi sifatida e'tiborga molikdir.

Hiloliy ijodiga baho berar ekan, «Shoh va darvesh» dostoniga alohida to'xtaladi. Unda badiiy jihatdan diqqatga sazovor o'rinalar borligini e'tirof etgan holda, «vale bu masnaviyning mazmun va ustuxonbandlig'i bisyor kovak va xarobtur»<sup>132</sup>, deya taassuf bildiradi. Bu erda Boburning dostonchilik talqinida mazmun va kompozitsiyaga e'tibor qaratib, uning muhimligini ta'kidlaganining guvohi bo'lamiz.

Bobur ijodkorlarga baho berar ekan, xolislikni unutmeydi. Jumladan, Hiloliyning masnaviyalarini tanqid qilsada, lirik she'rлarini "G'azallari hamvor va rangin va kamxadshadur", deya tavsiflaydi. Quvvayi hofizasiga havas bilan qaraydi: "Bisyor qaviy hofizasi bor emish, o'ttuz-qirq ming bayt yodida bor emish. Derlarkim, "Xamsatayn"ning aksar abyoti yodida bor"<sup>133</sup>. Aruz, qofiya va she'r ilmining bilimdoni ekanligini tan oladi.

Hirot adabiy muhitidagi dostonchilik saviyasini anglashda Boburning Muhammad Solih dostoniga munosabati ham muhimdir. Muhammad Solih ashaddiy g'animi saroyida yashab

<sup>131</sup> Ўша асар, 163-бет.

<sup>132</sup> Ўша асар, 163-бет.

<sup>133</sup> Ўша асар 163-164 бетлар.

ijod qilgan bo'lsada, Bobur uning asarlarini xolis baholashga urinadi. Hikmat va donolik bilan yaratilgan g'azallarining badiyiliги bir xil darajada bo'lmasada, ma'no xususiyatlari diqqatga sazovorligini e'tirof etadi: "*choshniliq g'azallari bor. Agarchi hamvorlig'i choshnisicha yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur*"<sup>134</sup>. Boburning bu boradagi fikrlari Navoyi mulohazalariga mutanosib keladi: "*Tab'ida xeyli diqqat birla choshni bor*"<sup>135</sup>. Ammo, Bobur "Shayboniynoma" dostoni xususida ijobji fikr bildirmaydi: "*Shayboniyxon*" otig'a bir turkiy masnaviy bitibtur. *Ramali musaddasi maxbun vaznidakim, "Subha" vazni bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridin bee'tiqod bo'lur*". Bunday baho berishining bir qancha sabablari bor. Birinchidan, doston Shayboniyxon huzurida e'tibor qozonish maqsadi bilan yaratilgan. Asar yaratishda maqsad, tama birinchi o'rinda turgan. Ikkinchidan, dostonda his-tuyg'ular talqini va ruhiy tug'yonlar tahlili yetakchilik qilmaydi. Uchinchidan, mazmun taqozosi bilan badiylikka putur etgan o'rinalar ham yo'q emas. Ko'rindaniki, Boburning dostonchilik borasidagi mulohazalarini aynan qabul qilmasakda, ammo, ular asossiz emasligini ham tan olishimiz kerak.

Hirot adabiy muhitida ilm-fan, adabiyot va san'atning turli yo'nalishlari taraqqiy etgan. Badiiy ijod bilan bir qatorda adabiyotshunoslik ilmi ham rivoj topgan. Bu yo'nalishda qator asarlar yaratilgan. Bobur "Boburnoma"da, ayniqsa, Mir Atouollo Mashhadiy (Husayniy – N. J., I. A.), Sayfiy Buxoriy kabi ijodkorlarning risolalariga e'tibor qaratadi. Ularning olim sifatida keng qamrovli va chuqur bilim sohibiligini e'tirof etadi. Badiiyat ilmining mohir tadqiqotchisi Atouollo Husayniy asarlarining qimmatini belgilaydi. Uning she'riy san'atlar talqiniga bag'ishlangan "Badoe us-sanoe" risolasini hurmat bilan tilga oladi: "*Yana sanoei she'rda "Badoe us-sanoe" otlig risola bitibtur, xeyli yaxshi bitibtur*"<sup>136</sup>.

<sup>134</sup> Ўла асар, 163-бет.

<sup>135</sup> Навоий. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами. 9-жилд. Ф.Фулом номидаги НМИУ, 2011.-бет.

<sup>136</sup> Ўла асар, 161-бет.

Undan tashqari, qofiya ilmiga bag‘ishlangan risolasiga ham yaxshi baho beradi. Shaxslarga baho berganda, ularni har homonlama kuzatish "Boburnoma" uslubiga xos xususiyat. Undan kelib chiqib, "Qofiya" risolasi haqida so‘zlayotib, Husayniyning shaxsiyatiga, fe'l-atvoriga ham e’tibor qaratadi. Kuntarinlikni madaniyat belgisi deb bilgan Bobur, risola muallifi tilkini dalillash uchun misollarni faqat o‘z she’rlaridan keltirishi va uni ta’kidlab ko‘rsatishi Boburga nokamtarlik bo‘lib tuyuladi: "*Osiyada bir forsi risola bitibtur, tavre bitibtur, aybi budurkim, amsila uchun tamom o‘zining abyotini kelturubtur. Yana har baytidin burun "chun onki dar in bayti banda" lafzini lozim tutubtur*"<sup>137</sup>.

Asarda Sayfiy Buxoriy qiyofasi ham mufassal yoritiladi. Bobur uning donishmandligi va notiqligini tan oladi. Ikki devoni haqida so‘zlab, ulardan biri hunarmandlar uchun aytiganini eslatadi. Bu dalil Hirot adabiy muhitida maxsus mavzuli devonlar ham tuzilpanini ko‘rsatadi. Uning masal janridagi asarlari mashhurligini, ammo masnaviy yaratmaganini ma’lum qiladi. Va uning sabablarini ham ko‘rsatadi. Bobur Sayfiyning badiiy ijoddagi yutuqlarini sarhisob etish bilan birga, "Aruz risolasi"ning maromiga etmagan jihatlari xususida ham o‘z mulohazalarini bildiradi: "*Bir forsiy aruzi bor. Bisyor kamsuxandur, bir hisob bila asru pursuxandur. Kamsuxan bu ma’ni bilakim, keraklik nimalarni bitimaydur. Pursuxan bu ma’ni bilakim, ravshan va zohir kulimalarni nuqta va e’robig ‘acha bitibtur*"<sup>138</sup>.

Ana shu bir jumladagina aytigan xulosa Sayfiy risolasining badiiy saviyasi haqida tasavvur uyg‘ota oladi. Shu o‘rinda biz Boburning so‘z qo‘llash mahoratiga yana bir bor tan beramiz. "Kamsuxan" – kamso‘zlik va "Pursuxan" – ko‘pso‘zlik so‘zlarini qo‘llash va ularni izohlash bilan risola mohiyati va uslubiga oid, bir niola bo‘lgulik mulohazalarini ifodalay olgan.

Hirot adabiy muhiti tasvirida xattot, musavvir, musiqashunos, murannif kabi san’atning turli yo‘nalishlarida ijod etgan iqtidor usublari ham tilga olinadi. Bobur ular haqida maxsus bilimga ega

<sup>137</sup> Ўзиз асаб, 164-бет.

<sup>138</sup> Ўзиз асаб 162-бет.

kishi kabi fikrlaydi. Yutuqlari va kamchiliklarini ko'rsatadi. Musavvir Behzod, Shoh Muzaffar tasvirlarini nozik baholaydi. Shoh Muzaffarning musanniflikdagi mahoratiga, did va qobiliyatiga ham tan beradi: "Yana bir tasnifi bor, ul tasnifi tasavvuftadur, yamon emas, g'olibo agar so'z aning emas"<sup>139</sup>.

Xuddi shuningdek, ayrim ijodkorlar san'atning, hunarning bir necha turlarini barobar mahorat bilan egallaganliklari haqida havas bilan so'zlaydi. Qulmuhammad Udiy, Shayx Noiy, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy kabi musiqashunoslar san'atkorligini, ularning hayot sahifalarini yorituvchi qiziqarli hikoyalarni so'zlaydi. Ulardan ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga molik musiqashunoslik takomili borasida yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Sarhisob etilgan qisqacha dalillardan ko'rindiki, "Boburnoma"da Hirot adabiy mühitining yaxlit, jonli ko'rinishi, tasviri o'z ifodasini topgan. Buni chuqur talqin etish adabiyotimizning rivojlangan bir davri bilan bog'liq ko'p masalalarni oydinlashtirish imkonini beradi.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Tarix, hasbi hol, tasavvuf, orifona, risola, qofiya.*

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining jahon tamaddunidagi o'rni haqida fikrlang.
2. Alloma ijodining o'r ganilish tarixi bo'yicha bibliografiya tuzing.
3. Ijodkor tarjimai holiga oid ma'lumotlarni jadvalga solib o'zlashtiring.
4. Bobur adabiy merosi ko'lami haqida so'zlang.
5. Shoir she'riyatida ma'no va badiiy san'atlar uyg'unligi masalasini misollar yordamida aniqlang.
6. Shoir she'riyatining o'r ganilish tarixi, matniy tadqiqi borasidagi fikrlaringizni bayon eting.

<sup>139</sup> Yima acap, 164-ber

7. "Risolayi aruz"ni "Mezon ul-avzon" bilan qiyoslab o'rghaning.
8. "Voldiya" asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini aniqlang.
9. "Boburnoma"ning qomusiy asar ekanligini talqin eting.
10. Bobur devoniidagi asarlarni to'liq o'qib o'zlashtiring. She'rlaridan tanlab yod oling.
11. "Boburnoma" asarining asl matnini o'qib o'zlashtiring.
12. "Boburnoma"ning hozirgi o'zbek tiliga tabdilini topib o'qing.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: Sharq, 2002.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdili. "O'qituvchi", T., 2008.
3. Bobur. Muxtasar. T.: Fan, 1971.
4. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. T.: Fan, 1971.
5. Bobur Asarlar. 3 jildlik. T.: 1965.
6. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. T.: Cho'lpon, 1995.
7. H. Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.
8. Alisher Navoyi. Majolis un-nafois. To'la asarlar to'plami. 9-jild. G'.G'ulom nomidagi NMIU, T., 2011. B. 290-448.

## BUXORO ADABIY MUHITI. XOJA IJODI. ASARLARINING TALQINI

*Reja:*

1. *Buxoro adabiy muhiti.*
2. *Xoja hayoti va ijodi manbalari.*
3. *Adibning adabiy merosi.*
4. *Kichik hikoyachilikning shakllanish va taraqqiyot bosqichlari.*
5. *Xoja ijodida kichik hikoyachilik takomili.*

**Buxoro adabiy muhiti.** XVI –XIX asr 1-yarmi Buxoro adabiy muhiti ayrim o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Bu, albatta, bevosita ijtimoiy-siyosiy jarayon bilan bog‘liq. Buxoro ijtimoiy hayotida islom dini g‘oyalari, qoidalari yetakchi mavqeda turgan. Ammo, san’at, hunarmandchilik, adabiyot ham o‘z yo‘lida taraqqiy etgan. Chunki, xalq buyuk san’atkor. U hamisha ilg‘or g‘oyalari yaratadi. O‘z ijodi bilan kamolotga intiladi.

Buxoro adabiy muhiti aholi etnik qatlamidan kelib chiqib, ayrim xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, u erda zullisonaynlik (ikki tillilik) an’anasining uzoq tarixi bor. Ijod sohiblari, asosan, ikki – o‘zbek va fors-tojik tilida ijod qilishgan. Ikkala tilda ham ibratlari asarlar yaratilgan. Xususan, Ubaydiy, Xoja, Vola, Shavqiy, Shukuriy, Xiromiy, Joniy kabi ko‘plab ijodkorlar yaratgan adabiy merosni e’tirof etish mumkin. Ikkinchidan, boshqa xonliklardan farqli o‘laroq, ijodiy jarayon tarqoq holda mavjud edi. Ammo, bu adabiyot ravnaqiga salbiy ta’sir etmagan.

Adabiy muhitda yaratilgan asarlarni kuzatar ekanmiz, yuqorida eslatilganidek, ularda diniy tushunchalarining faolligini ko‘ramiz. Dunyoviylik esa ular zamirida yuzaga chiqadi. Bu adabiy muhitda Navoyi, Fuzuliy, Bedil, Hofiz kabi donishmand shoirlarimiz an’analari davom ettirildi. Mavzu, g‘oya va janrlar takomillashtirildi. G‘azal, muxammas, ta’rix, qit’a, masnaviy kabi an’anaviy janrlarning yangi qirralari kashf etildi. Yangi zamonaviy fikrlar bilan boyitildi.

*Xoja hayoti va ijodi manbalari.* Buxoro adabiy muhitida muhim o'rinn tutgan ijodkorlardan biri Ibodulla Sayid Podshoxoja binni Abdulvahhobxoja Xoja taxallusi bilan ijod qilgan. U o'zbek adabiyotida kichik nasriy hikoyalari ustasi sifatida mashhur. Xoja va uning hayot yo'li, ijodi haqida ma'lumot kam. Mavjud fikrlar da bizgacha adibning asarlari va o'g'li Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkirasi orqali etib kelgan. Ushbu tazkirada ziki etilishicha, Xojaning ota-bobolari yirik davlat arboblari va bo'lar yozuvchi ijodkor kishilar bo'lishgan. U 1484-yilda Balxda tavallud topgan. Ma'lum vaqt sadrlik (vaqf yerlarining hisobi va tekshirishlarini olib boruvchi shaxs), keyinchalik eng yirik diniy lavozim shayxul-islomlik (bu mansabdagi kishi podshohning o'ng tomonida 1 o'rinda turgan) mansablarida ishlagan. U davlat bo'lgaruvida e'tiborli shaxslardan hisoblangan. Xoja Ahrori Vali kabi ko'p ziddiyatli vaziyatlarni sulh yo'li bilan hal etishga hissa qo'shgan.

Xoja faoliyati zamonaviy adabiyotshunosligimizda ham jiddiy tadqiq etilgan. Filologiya fanlari nomzodi M. Mirzaahmedova o'z iqlamishlari natijalarini «Xoja»<sup>1</sup> nomli monografik asar sifatida chop ettirgan. Unda adibning kichik hikoyalari majmuasi «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» chuqur tahlil etilgan. A.Tohirjonov «Xojaning yangi topilgan asari»<sup>2</sup> maqolasida uning Nizomiy Ganjaviy «Xamsa»sining 1-dostoni “Maxzan ul- asror”ga javob tarzida yaratilgan “Maqsad ul-atvor” dostoni borasida to'xtaladi. N. Mallayev, V. Zohidov, V. Abdullayev kabi adabiyotshunoslari ham bu shartda tadqiqotlarida Xojaning hayoti va ijodi haqida muhim ma'lumotlar berishadi. Matnshunoslik yo'nalishida esa uning bo'lar, hikoyalari va dostonidan parchalar bir necha bor chop etilgan<sup>140</sup>.

Xojaning vafot yili noma'lum. Ammo, Nisoriy “Muzakkiri ahbob” tazkirasining ma'lumotlaridan kelib chiqib, u XVI asrning o'nggi choragigacha umr kechirgan, deyish mumkin.

<sup>1</sup>М. Мирзаахмедова. Хожа. Т., 1975.

<sup>2</sup>А. Тохиржонов. Кожанинг янги топилган асари. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали. 1975, 3-сон.  
Чиёғизбек адабиёти. Т.: 1959.

*Adabiy merosi.* Adibning she'r, doston, hikoya yozgani haqida ma'lumot bor. U ikkita (o'zbek va fors-tojik tilida) devon tuzgan. Ammo, devoni qo'lyozmalari taqdiri noma'lum. U bizgacha etib kelmagan. Ayrim she'rlari tazkiralarda, hikoyalar to'plamida saqlangan. U Zahiriddin Muhammad Boburni shoir sifatida hurmat qilgan. Raqib sulola, ya'ni shayboniylar saroyida yashaganiga qaramasdan, u bilan do'stona munosabat o'matishga harakat qilgan. Bir-birlariga maktublar yo'llashgan. Xoja Boburga o'z she'rlaridan namunalar ham yuborganligi haqida ma'lumotlar bor. Uning xonadoniga Boburning ham asarlari etib kelgan. Nisoriy tazkirasida otasining Bobur podsho bilan iliq, samimiy munosabatda bo'lganini eslaydi. Turli yozishmalar olib borish bilan birga o'rtalarida ijodiy hamkorlik, fikr almashishlar ham bo'lganini e'tirof etadi. Otasi "kechadur" radifli g'azalini unga yuborganini ta'kidlaydi.

Xoja 1528-yilda Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostoni ta'sirida «Maqsad ul-atvor» manzumasini yaratgan. Bizga mazkur asarning ayrim parchalari, namunalarigina ma'lum.

Ko'rindiki, Xoja ijodi o'z davri adabiy jarayonida muhim o'ringa ega bo'lgan. Uning asarlarini o'rganish, maqomini belgilash adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir.

*Xoja merosida kichik hikoyachilik takomili.* Xojaning eng keng tarqalgan asari «Gulzor» va «Miftohul-adl» (adolat kaliti) hikoyalar majmuasidir.

«Gulzor» axloqiy-ta'limiy ruhdagi kichik ibratlari hikoyalardan iborat. Unda qirqqa yaqin hikoya kiritilgan. Asar muqaddima, kitob tasnifi va hikoyalardan tarkib topgan. Muqaddimada asarning yozilish sabablari haqida gapiriladi. Asar Shayboniyxonlar sulolasidan Jonibekxonning o'g'li, Balk hokimi Kistan Qaro sultonga bag'ishlanadi. Muallif uning turkiyzabon qavmi ehtiyojini hisobga olib, ibratlari hikoyalar majmuuni turkiy tilda yaratganini e'tirof etadi: «Saodat axtar podshohning (Kistan Qaro sulton) xaylu hashami turku totor qavmidan bo'lur erdilar va turk alfozi va gustorig'a moyil va shomil erdilar. U jihatdin shikastaxotirg'a bu andisha yo'l berdikim, bir turkiy kitob bu qavmning alfozi birla

*humif qilib, adl va insof birla maosh qilgan anbiyoyu salotin va rovoqining ravishlari birlan atvori pisandidalaridin darj qilib, hikoyati xilosatpanohi mulkining humoyun odig'a muammal qilishimkim, olam ichinda tuhfai namudor va bani odam orasinda humoyu va yodgor o'lg'ay»<sup>141</sup>.*

Xoja «Gulzor»ni yaratganda, 60 yoshda ekanligini ta'kidlaydi. Bu 1538-39-yillarga to'g'ri keladi. «Gulzor» yagona syujetga ega emas. U turli-tuman mavzularda.

Amar tuzilish jihatidan Sa'diyning “Guliston”iga o‘xshaydi. Hikoyalar hajm jihatidan kichik bo‘lishiga qaramay, tugal kompozitsiyaga ega. Ular muallif fikri, hikoya va yakuniy xulosa, yo‘ni qisadan hissa shaklida tuzilgandir. Hikoyalari ichiga qit'a, ruboy, masnaviy, g‘azal janridagi lirik chekinishlar, she’riy mohilar, she’riy xotimalar ham kiritilgan.

Adabiyotshunosligimizda «Miftohul-adl» uzoq yillar XIV asr adabiy yodgorligi deb kelindi. Ammo, 1960-yillarda V. Zohidov uning XVI asrga mansubligi, muallifi Xoja ekanligini aniqladi<sup>142</sup>. «Miftohul-adl» o‘n besh bobdan iborat. Ular olimlar bayoni, odil sultonlar bayoni, zolim sultonlar bayoni, Sultonlarga mute bo‘lmoqning bayoni, sultonlar vazirlar bilan maslahatlashishi, hum qilmoq bayoni kabi nomlar bilan atalgan. Qolgan 9 bobda hujut nazariy-didaktik fikrlar bayon qilinadi. «Miftohul-adl» Shuyboniyxonning o‘g‘li shahzoda Temur Sultonga bag‘ishlanadi. Amar tuzilish jihatidan «Gulzor»ga yaqin. Unda ham nazariy-didaktik fikrlar, hikoya, hikoyadan keyin esa yozuvchining xulosani beriladi. «Miftohul-adl»da ham qirqqa yaqin hikoya jamlangan.

Hikoyalarda Xoja insoniylik, halollik,adolat, saxovat, ogohlilik, qollik kabi go‘zal fazilatlarni tasvirlaydi. Adib hikoyalari qisqa hajmpa ega. Ammo uning zamirida teran hayotiy ibrat, saboq mujahamantiriladi. Muallif voqealarni tanlashda ham mahoratini namoyon eta oladi. U syujetning ixcham va qiziqarli bo‘lishiga alohida nhamiyat beradi. Bunday tanlov natijasida o‘quvchi doppatini o‘ziga jalb etadigan, uni tafakkur etib yashashga

<sup>141</sup> Xoja Gulzor. T.: 54-55-betlar.

<sup>142</sup> И. Зохидов. Узбек адабиёти тарихидан. Т., 1961.

yo‘naltiradigan noyob asarlar maydonga keladi. Ma’nolarining o‘tkirligi, falsafiyligi, insonlarni hushyorlantiruvchi kuchga egaligi, xalqonalikka, Ezop masallari kabi donolikka muzayyanlikda namoyon bo‘ladi.

Jumladan, “Shayx va murshid” hikoyasi. Unda aytishicha, bir murshid bir shayx huzuriga kelib, xatolari, gunohlari ko‘pligini aytib uzrxohlik qiladi. Shunda shayx unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, tavba qilishdan avval, bir amalni bajarishi lozimligini uqtiradi. Ya’ni, oldin ko‘ngliga besh ariq orqali kiruvchi nomashru’ ishlarning yo‘lini bog‘lashni tavsiya etadi. U ariqlarni esa quyidagicha izohlaydi: *“Saning ko‘ngling bir havzga o‘xshar va anga besh arig‘din loy suvlar kirib, taqi ul havzni tiyra qilurlar...”*. Shundan so‘ng u kishi o‘z nuqsonlarini tushunib, to‘g‘ri yo‘lga tushadi va sohibkamol murshid darajasiga ko‘tariladi. Hikoyaning syujeti shundan iborat. Muallif oddiy, hayotiy voqeadan chuqur ma’noli asar yaratadi. Adib xulosa chiqarmaydi. O‘quvchiga aql o‘rgatmaydi. Ammo kamolotning to‘g‘ri yo‘nalishli xaritasini tasvirlab beradi. Har bir o‘quvchi undan o‘z yo‘lini topa oladi. Hayratlanarlisi shundaki, hikoya kompozitsiyasi bиргина dialog va ikkita muallif gapidangina tashkil topgan. Adibning butun g‘oyasi, niyati va maqsadi shayx nutqida mujassamlantirilgan. Shu bиргина nutq hikoyaning asosini, mag‘zini tashkil etgan. Qisqa hajmli bo‘lishiga qaramasdan, unda muqaddima, tugun, voqeа rivoji, yechim kabi hikoyaga xos unsurlar tugalligining guvohi bo‘lamiz. Bu esa asarning mazmun va maqsadining to‘laqonli maqomda yechilishini ta’minlaydi.

Asar Xoja hikoyanavisligiga xos bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi uslubida, roviylik uslubida yaratilib, “ayturlarkim” ifodasi bilan boshlanadi. Hikoya qissadan hissa shaklidagi 12 misrali masnaviy bilan yakunlanadi. Adibning o‘quvchiga qaratilgan barcha pandu o‘gitlari ana shu so‘nggi qismda, yechim sifatida beriladi:

*Xalqg‘a altofni kam qilmag‘il,  
Hech kishiga javru sitam qilmag‘il.  
Ayla xudoning g‘azabidin hazar,*

*Solma kishining haramig'a nazar...  
Murshid ila birga bo'lu mo'taqid,  
Ayla irodat yo'lida jahdu jid...<sup>143</sup>*

Namuna sifatida ko'rganimiz ushbu hikoyadan biz adib mahoratining noyob qirralarini kuzatish imkoniga ham ega bo'lamiz. Uning nasriy qismida jumlalarning ixcham, ravonligi, hikrning chuqur va donishmandona qurilmasi e'tiborimizni tortadi.

Nazmiy qismida muallifning she'riy mahorati namoyon bo'ladi. Keltirilgan masnaviy Sa'diy, Rumiy, Jomiy, Navoyi uslubiga xos didaktik yo'nalişning noyob namunasi darajasiga ko'tarilgan. To'q qotiyalar, ayrim baytlarda radiflarning qo'llanishi, o'quvchi diqqatining yetakchi so'zga qaratilishini ta'minlagan. She'riy parchaga ohangdorlik bag'ishlagan.

Xoja hikoyalarida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy g'oyalalar ilgari surilgan. Uning timsollar qamrovi turli-tuman. Podshohlar, vazirlar, cho'pon, shayx, murid, kambag'al kampir, payg'ambarlar, batto pashsha, yel kabi obrazlar majmuiga duch kelamiz. Hikoyalarning tili sodda va ravon. Ularning yaratilishiga xalq og'zaki ijodi namunalari, Nizomiy, Navoyi asarlaridagi turli syujetlar turtki va asos bo'lgan. Xojaning maqsadi ham, bizningcha, fors-tojik adabiyotidagi ibratli syujetlar bilan, yuqorida tu'lidlaganimizdek, turkiyzabon qavmni tanishtirish bo'lgan. Ammo, u hech bir mavzuni, folkloridan oladimi, fors-tojik adabiyotidan oladimi, aynan keltirmaydi. Ularni qayta ishlaydi. O'z kontaziysi bilan boyitib, zamonaviylashtiradi. Asardagi g'oyalarni teranlaشتiradi. O'zining donolik va hikmatlarga boy hayotiy culonalarini hikoyalar zamiriga singdiradi. Bu jihatdan uning Iskandar va Chin xoqoni» hikoyasi ibratlidir. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha: Iskandar Chin mamlakati musodarasi uchun otlanadi. Xoqon qon to'kishdan saqlanib, Iskandarga taslim bo'ladi. Uni kechki ziyofatga taklif etadi. Dasturxonga oltin va lumush idishlarni bo'sh qo'yadi. Iskandar ovqati qani deb

so'raganda, xoqon sening maqsading osh emas, balki oltin, kumushlar-ku! Shuning uchun qon to'kasani-ku deb xijolat qiladi.

Xoja hikoyanavisligida Mahmud G'aznaviy, Horun ar-Rashid, Iskandar Zulqarnayn kabi mashhur tarixiy shaxslar bilan bog'liq syujetlar ham katta o'rinni egallaydi. Ayniqsa, shu yo'nalishdagi asarlarida adibning o'ziga xos mahorat qirralari namoyon bo'ladi. Jumladan, Iskandar bilan bog'liq voqealar yechimini Nizomiy, Navoyi, Xoja talqinida ko'rib chiqsak, Xojaning adib sifatidagi dunyoqarashi, tafakkur tarzi, yondashuv tamoyili ayonlashadi. Bu, ayniqsa, uchala asarda ham mavjud bo'lgan Iskandar va Chin xoqoni munosabati yechimida yaqqol ko'rinadi. Mazkur voqeа syujetida katta farq yo'q. Uchala ijodkorda ham Xoqon kuch-qudrati, boyligi yetarli bo'lishiga qaramay, qon to'kilishining oldini olish uchun sulhni ma'qul ko'radi. Ammo ijodkorlar g'oyalari yechimida turlicha yo'l tutishadi. Nizomiy dostonida Iskandarga uch narsa – ov lochini, bir ot va uch noyob xislatli bir qiz sovg'a qiladi. Bu detallarda, ma'lum ma'noda, tinchlik, xotirjam hayot taqdimi ifoda etiladi. Navoyi "Saddi Iskandariy" sida molu mulk shaydosi Iskandar oyog'i ostiga duru gavharlar sochib, yana 1000ta ot, 1000ta tuyu, 1000ta xachir, 9000 qimmatbaho kiyim-kechak, idish-tovoqlar, 1000ta kanizak, tilsimli ko'zgu va ajoyib fazilatlarga ega bir qiz tortiq qiladi. Ko'rinadiki, Navoyi asaridagi hadyalar yanada real hayotga mutanosibroq. Davr ijtimoiy hayotining aniq tasvirining namoyoni.

Xoja esa mazkur holatga o'ziga xos, yangicha yondashadi. Vaziyatni kinoya bilan uyg'unlashgan, satirik-yumoristik badiiy ashyoga aylantirib qo'llaydi. Chin yurtiga kelgan Iskandarni Xoqon tilla, kumushlardan yasalgan bo'sh idishlar bilan mehmon sifatida kutib oladi. O'zaro suhbat jarayonida, shohning maqsadi tilla, kumushlardangina iboratligini ta'kidlab, uni o'z ochko'zligidan mulzam qiladi. Bir yillik xirojning yarmini jasorat bilan Iskandardan o'z xalqi uchun olib qola oladi. Ko'rinadiki, Xoja hikoyasi qisqa hajmli bo'lishiga qaramay, undagi Xoqon obrazi xarakter jihatidan ideal podshoh darajasigacha ko'tariladi. U o'z manfaatidan, hattoki, o'z hayotidan ham xalq manfaatini, vatani

tinchligini ustun ko‘radi. Bu yo‘lda jasorat va jur’at bilan odilona harakat ham qiladi. Xoja syujetga, obrazlar tizimiga sezilarli o‘zgartirish kiritmagan. Ammo ularga yondashuvda yangiliklar olib kirishga harakat qiladi. Bu kichikkina o‘zgarish esa asar g‘oyaсини, ijodkor badiiy niyatini yangi va yuksak pog‘onaga ko‘tarishiga xizmat etadi.

Xoja hikoyalardaadolat masalasi birinchi o‘rinda turadi. Deyarli, barcha asarlarida mualif adl tushunchasini turli rukuslardan turib yoritishga harakat qiladi. “Podshoh va zohid”, “Mahmud G‘aznaviy va boyqush”, “Sulton Mahmud G‘aznaviy, vazir va Ayoz”, “Shayx Bahlul va Xorun ar-Rashid”, “Sulaymon, poishha va yel” kabi hikoyalarda bosh g‘oya sifatidaadolat masalasi qo‘yilgan.

Zohid bir saatlik adolatga 20 martalik haj savobini almashtrishga tayyorligini aytadi. No‘shiravoni odil bosqinchi qaroqchilar haqida shikoyat tushganda, mabodo o‘g‘li adashib, bu yo‘lga kirib qolgan bo‘lsayu otalik mehri xalaqit bermasligi uchun chiroqni o‘chirib, ular bilan kurashgani va qatl ettirgani haqida hikoya qiladi. Ko‘rinadiki, Xoja hikoyalari katta ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga molik asarlardir. Ularning zamiriga chiqur gumanizm, insonparvarlik, bag‘rikenglik g‘oyalari qo‘yilgan. Shu sababli ham mazkur hikoyalari, hozirgi kunda oshirgan, podshohlar, vazirlar, darveshlar, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq syujetlar asosida yaratilganiga qaramay, o‘zining axloqiy-didaktik, ijtimoiy-zamonaviy qimmatini yo‘qtumagan. Ular bugun ya kelajak uchun ham birday xizmat qiladi.

Xoja asarlariga e’tibor bersak, ularda o‘z davrida Xoja Ahrori Vali kabi ulkan ijtimoiy vazifani bajarish maqsadi bilan yashagan ulup shaxsiyatni ko‘ramiz. U bu borada o‘zining, shayxul-islomlik maqomidan turib, amaliy faoliyati bilan bir qatorda, badiiy ijodi, ixtari orqali ham beqiyos xizmatlarni amalga oshirgan. Uning ayrim hikoyalarda xalq og‘zaki ijodiga xos belgililar ko‘zga ta’blanadi. Jumladan, ular ertaklardagidek «ayturlar, debdurlar, muql qihurlar» kabi iboralar bilan boshlanib, qissadan-hissa

chiqarish bilan yakunlanadi. Ko'ringanidek, Xoja hikoyanavis sifatida mashhur bo'lib, asarlari bizgacha etib kelgan.

Ammo shoir sifatida ham uning maqomi nosirligidan kam bo'limgan. She'rlari kam miqdorda yetib kelgan bo'lsa-da, mavjud asarlari uning mahorati, so'z qo'llash mas'uliyatining noyobligidan dalolat beradi.

"Kechadur" radifli g'azal 5 baytdan (ayrim manbalarda 4 baytdan) iborat. Ijodkor asarda "kechadur" so'zi vositasida takrir, ihmom, tashbeh va tajnis kabi san'atlarni qo'llagan. G'azalda muallif ichkin ruhiyat holatlarini tasvirlar ekan, ayniqsa, "kecha" so'zining ma'no tovlanishlaridan san'atkorona foydalangan. Asarda ko'p bora takrorlangan so'zning har biri yangi ma'no bilan jilolanganini sezish qiyin emas. Bu shoirning so'zga munosabati, ular zamiridagi mudroq ma'nolarni uyg'ota olish mahoratini ko'rsatadi.

Xojaning mazkur g'azali dastlab "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasida chop etilgan. Unda asar 4 baytdan iborat. Shoirning o'g'li Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida esa u 5 bayt shaklida keltiriladi. Muallif e'tiroficha, mazkur g'azalni shoir Hindistonga Boburga birinchi o'zbek elchilaridan Hofiz Ko'hakiy orqali 1528-yilda yuborgan. Tazkiradan ikki mamlakat o'rtaсидаги madaniy aloqalar haqida xabardor bo'lish bilan birga, Boburning Xoja she'riyatiga munosabati va bahosi bilan ham tanishamiz. Muallif "...podshohga ma'qul bo'lib, maqtagan edilar"<sup>144</sup>, -deya ma'lumot beradi.

G'azal oshiqona yo'nalishda. Uning chuqur tafakkur mahsuli sifatida yaratilgani sezilib turadi. U zohiriyl va botiniy mazmun qamroviga ega. G'azalning yuza qatlamida majoziy ishq talqinini kuzatsak, ichki qatlamida esa chuqur irfoniy ma'nolar ham nazarda tutilganining guvohi bo'lamiz. Majoziy ma'no oshiq – hajr-mahbuba tuzilmasida namoyon bo'ladi. Ayriliq asar qahramoni ko'nglidagi iztirob tuyg'ularini junbushga keltiradi. Ko'z oldida butun dunyoni qorong'u zulmatga chulg'aydi.

Asar, ta'kidlanganidek, irfoniy ma'noga ham ega. Oshiq, mahbub, sham, jon kabi timsollar ramziy mohiyatni ham ifodalab

<sup>144</sup> Ҳасанхўжа Нисорий. Музаккири ахбоб. Т. Ҳалқ мероси наприёти, 1993, 275-бет.

beladi. Ular orqali shoir haqiqiy ishq talqiniga e'tibor qaratadi. G'azalga teranlik va botiniy ma'no bag'ishlaydi.

Shoirning bunday serqatlamlilikka erishishida she'riy son atlarni mahorat bilan qo'llash, so'z tanlash va undan foydalanishdagi mas'uliyat, munosabat muhim o'ringa ega.

G'azal 5 baytdan iborat. Barcha baytlarda "kechadur" so'zi vazifasida takrorlanib kelgan. Nolon, parishon, inson, oson, tobon, afg'on so'zлari qofiya sifatida qo'llangan. Asarda qofiya va radif muhim badiiy vazifani bajargan. Qofiyaning "nolon" so'zi bilan buishlanib, "afg'on" so'zi bilan tugallanishining o'zidayoq, shoirning ruhiyat manzarasini musavvirona yagona doira atrofida buishfiganini ko'rsatadi. Bu g'azal kompozitsiyasida tuyg'ular, holatlar tasvirining zinama-zina takomillashib borishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, shoirning radif sifatida qo'llagan "kechadur" so'zi asar kompozitsiyasida alohida, muhim vazifalarni bajargan. 5 bayt – 10 min sh'e'rda mazkur so'z 9 marta qo'llanadi. Hayratlanarlisi hundaki, shoir undan har bir o'rinda o'zgacha ma'noda va jami 10 sil mazmunda foydalanadi.

Quyidagi jadvalda "kechadur" so'zining shakl va ma'no munosabati izohlangan:

<i>Tartib raqamid ta'siri</i>	<i>"Kechadur" so'zi qo'llangan bayt va misralar</i>	<i>So'z shakli</i>	<i>So'z ma'nosi</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,</i>	<i>Kechadur</i>	<i>kechasi;</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,</i>	<i>kechadur</i>	<i>Kechmoq, o'tmoq</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.</i>	<i>kecha</i>	<i>tun;</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.</i>	<i>kechadur</i>	<i>zulmat;</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Anbarin zulfung xayolidin ko'zunga, ey pari, Yilu oyu soatu kun bori yakson kechadur.</i>	<i>kechadur</i>	<i>qorong'u</i>
<i>Ko'rin</i>	<i>Ulkı jondin kechadur shomi visolningni ko'rub,</i>	<i>kechadur</i>	<i>Voz kechmoq;</i>

<i>7-o'rin</i>	<i>Vah, na xush vaqtu na xush soat na oson kechadur.</i>	<i>kechadur</i>	<i>voz kechmoq;</i>
<i>8-o'rin</i>	<i>Ravshan o'lg'ay davlati vaslida hijron oqshomi, Gar gunohimidan bilib ul mohi tobon kechadur.</i>	<i>kechadur</i>	<i>Voz kechmoq</i>
<i>9-o'rin</i>	<i>Xoja yanglig' nola qil zulfi g'amidin kechalar,</i>	<i>kechalar</i>	<i>tunlari</i>
<i>10-o'rin</i>	<i>Kim mahalli nolavu faryodu afg'on kechadur.</i>		<i>kechmoq, o'tmoq.</i>

Xoja mazkur so'zning 9-10 ma'nosini ilg'ashga erishadi. Shu birgina so'zni qo'llashi, uning zamiriga chuqur kirib borishi, ma'nolarining cheksiz hududlarini ko'ra olishi, rang-barang ma'noviy jilolarni tovlantirishining o'ziyoq Xoja she'riy mahoratining noyob va betakrorligidan dalolatdir. G'azalning Boburga "ma'qul kelib, uni maqtagan" ham bejiz emas. Bizningcha, uning e'tiborini tortgan jihat ham ana shu holat bilan bog'liq bo'lishi kerak. So'zlardagi noyob jilvakorlik Boburni maftun etib, unga ma'qul kelgan.

G'azal ramali musammani mahzuf vaznida (*foilotun – foilotun - foilotun - foilun; taqte'si - V - - / - V --/ - V --/ - V -*) yozilgan. Turkiy g'azalchilikda eng ko'p qo'llanilgan bahr bu ramal bahridir. Oshiqona lirik she'rlarda hazaj va ramal bahrlari faol ishlatilgan. Ammo ularning asarda bajaruvchi vazifasi bir-biridan farq qilgan. Hazaj she'rغا mahzunlik, og'irlik bag'ishlaydi. Ruhiyatdagi ichtirob, dard, armon tuyg'ularini mahzunlik bilan muzayyan tasvirlaydi. Tushkunroq kayfiyatni ifodalaydi. Ramal esa kayfiyatdagi nisbatan yengillikni, umidvorlikni tasvirlash vazifasini bajaradi. Shu sababli ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'azalda kecha, zulmat, qorong'ulik kabi tushunchalar yetakchilik qilganiga qaramay, o'quvchi ko'nglida umidvorlik uchqunlari paydo bo'ladi. Buni uning o'ynoqi, yengil ritmiga ega ramal bahrida yozilgani bilan dalillashimiz mumkin. Demak, shoir g'azalni yaratganda, vazn tanlashga, uning badiiy unsur sifatida, bajarayotgan vazifasiga e'tibor qaratgan. Shunchaki to'g'ri kelgan

bir vaznni tanlab qo'ya qolmagan. Uning lirik qahramon ruhiy manzaralarini to'liq qamrab va yoritib bera olishini inobatga olgan.

G'azalda zulmat haqida ko'p so'zlanadi. Ammo ana shu qorong'ulik zamirida bir yorug'lik, ishq nuridan taraluvchi ravshanlikni o'quvchi ko'ngli bilan his etib turadi. Hatto, shoir marda sham, ravshanlik kabi so'zlarni ham qo'llaydiki, bu fikrimizni tasdiqlaydi:

*Ravshan o'lg'ay davlati vaslida hijron oqshomi,  
Gar gunohimdin bilib ul mohi tobon kechadur<sup>145</sup>.*

Lirik she'r badiiyatida she'riy san'atlarning o'rni beqiyos. U oddiy so'zlardan mo'jiza yaratuvchi vosita. Mazkur g'azalda ham shoir ihmom, tazode, tashbeh, tajnis, istiora, nido kabi o'nlab ana shunday tasvir unsurlaridan mahorat bilan foydalangan.

Buni biz birinchi baytdayoq kuzatamiz:

*Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur,  
Kecha ham zulfung kibi holim parishon kechadur.*

Shoir birinchi misrada "**kunduz**" va "**kecha**" so'zlar bilan turod san'atini yaratgan. Lirik vaziyatdagagi qarama-qarshilik, ruhiy holatdagagi zid kechinmalarni aniq tasvirlash imkonini yaratadi. Zid ma'noli so'zlarning misra boshida va misra oxirida o'tinlleshishining o'zida ham mahorat va ma'no mavjud. Misra so'ngidagi "**kechadur**" so'zi bilan ihmom san'atini ham yaratgan. Zid ma'noli "**kunduz**" so'zi bilan bog'liq ravishda birinchi o'rinda mazkur so'zni ham **tun** ma'nosida, ham **kechmoq** ma'nosida qo'llaygan. Birinchi misra "**kecha**" so'zi bilan tugab, 2-misra ham shu so'z bilan boshlanadi. Bu "**raddul aruz ilal ibtido**" deb nomlanuvchi san'at turi ham ma'nolar zanjirini bog'lashga o'z hisasini qo'shami. Ikkala misradagi "**kechadur**" so'zi bilan shoir, shakldosh so'zlar yordamida, **tajnis** san'atini vujudga keltirgan.

Ko‘rinadiki, mazkur g‘azal Xoja lirik merosining gultojidir. Unda shoir so‘zlarning qat-qat ma’nolar silsilasini nazarda tutib qo‘llagan. Xususan, bir so‘zni tovlantirish orqali she’riyatni olmos kabi jilolantirish bu – ulkan va noyob mahorat talab qiladi. G‘azalning qolgan barcha baytlari ham xuddi shunday yuksak va noyob iste’dod mahsuli sifatida maydonga kelgan. Shoirlarning ruboiy va qit’alari g‘azalidan farqli ravishda axloqiy-didaktik yo‘nalishda yozilgan.

“Muzakkiri ahbob” tazkirasi muallifi Xojaning fors va o‘zbek tillarida ikkita devon tuzgani haqida ma’lumot beradi. Ammo ularning taqdiri noma’lum. Bizgacha kam sonli she’rlarigina etib kelgan. Tazkirada uning o‘z davri sultonni Kistan Qaro madhiga bag‘ishlangan bir mashhur forsiy qasida yaratgani eslanadi. U maqlubi mustaviy, muttasila, munfasila, seporiy, izhori muzmar, murabba kabi sharq adabiyotidagi eng murakkab she’riy san’atlar bilan muzayyan bitilgan.

Muallif: “qasidada masnu’ usulini bu diyor shoirlari orasida ul kishi yoyganlar”, -deya qasidasining noyob yo‘lda yozilganini e’tirof etadi.

Xojaning lirik merosidan bizga, hikoyalari tarkibidagi she’riy parchalardan tashqari, 2 g‘azal, 5 qit’a, 2 ruboiy, 1 masnaviy, Nizomiying “Maxzan ul-asror” dostoniga javob tarzida yaratilgan “Maqsad ul-atvor” nomli dostoni yetib kelgan. Sankt-Peterburglik olim, filologiya fanlari doktori A. Tohirjonov LDUNing Sharq fakulteti kutubxonasida 3706 inv. raqami va Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti kutubxonasida V-3985 inv. raqami bilan saqlanayotgan qo‘lyozma “Maqsad ul-atvor” dostoni ekanligini aniqlagan, asarning ilmiy-tanqidiy matnnini yaratgan.

Xoja asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy mavzular bugun uchun ham ibratli. O‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

#### *Tayanch tushunchalar:*

*Sadrlik, adabiy muhit, axloqiy-ta’limiy, kichik hikoyachilik, folklor.*

## **Savol va topshiriqlar:**

1. *Mazkur davr Buxoro adabiy muhitining xususiyatlari haqida so'zlang.*
2. *Xoja hayoti va ijodi manbalari bibliografiyasini tuzing.*
3. *Xoja adabiy merosiga annotatsiyali taqriz yozing.*
4. *Kichik hikoyachilikning o'zbek mumtoz adabiyotidagi va Xoja ijodidagi o'mini aniqlang.*
5. "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlarini to'liq o'qing.
6. *M.Mirzaahmedovaning "Xoja" monografiyasini konseptlashtiring.*

## **Asosiy adabiyotlar:**

1. *Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.*
2. *M.Mirzaahmedova. Xoja. T.: 1975.*
3. *Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. T.: 1961.*
4. *Xoja . Miftoh ul-adl. T.1962.*
5. *Xoja. Gulzor. T.: 1961.*
6. *O'zbek adabiyoti. Xrestomatiya. 3-kitob. T.: 1959.*
7. *O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.*
8. *Tohirjonov A. Xojaning yangi topilgan asari. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1975, 3-son.*

# UBAYDIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI (1487-1540)

## *Reja:*

1. *Ubaydiy hayoti va ijodining o'r ganilish tarixi.*
2. *Tarjimai holi.*
3. *Adabiy merosi.*
4. *Asarlarining janriy tarkibi.*
5. *Shoir she'riyatining mavzu qamrovi, g'oyaviy xususiyatlari.*
6. *Ubaydiy asarlarida badiiy mahorat masalasi.*

**O'r ganilishi.** Ko'plab shoh – shoirlar qismati kabi uzoq yillar Ubaydiyning hayoti va ijodi ilmiy nuqtayi nazardan o'r ganilmay kelindi. Ammo, bizgacha ko'p manbalarda ma'lumotlar yetib kelgan. O'z zamonasida – XVI asrdayoq yaratilgan tarixiy, ilmiy, tazkira asarlarda uning siyosiy faoliyati, g'ayrat-shijoati, noyob iste'dod egasi ekanligi, merosi haqida qimmatli dalillarni ko'ramiz<sup>146</sup>. Zayniddin Vosifiyning «Badoe ul-vaqoe», Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob», Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” «Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarlari kabilar ana shunday muhim manbalardir. Ubaydiy ijodi G'arb olimlari e'tiboriga ham tushgan. Mashhur adabiyotshunos olim Fitrat o'zining maqolalarida Ubaydiya yuqori baho bergan<sup>147</sup>. Shoh va shoir faoliyatini o'r ganish mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarildi. Uning ijodi ilmiy nuqtayi nazardan izchil tadqiq etila boshlandi<sup>148</sup>. 2000-yilda Muhammad Abdullayev

<sup>146</sup>Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. Т.: 1999; Масъуд Кўҳистоний. Тарихи Абулхайрхоний; Рӯзбеков. Мехмонномай Бухоро; Мирмуҳаммад Амин Бухорий. Убайдулланома; Мирзо Ҳайдар. Тарихи Рашидий. Т.: 20015; Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири ахбоб. Т.: 1993; Мутрабий. Тазқирад учи-пушаро. Т.: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2013 ; Зайниддин Восифий. Бадоесъул-вақоев. Т.: 1979; Бобур. Бобурнома. Т.: 2002.

<sup>147</sup> Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. Т.: 2000. Фитрат. Яссавий ким эди. Т.: 1995.

<sup>148</sup> А.Жузжоний. Тасаввuf ва инсон. Т.: 2001; Э.Очилов. Тасаввuf адабиётида рубойи. “Ўзбек тили ва адабиёти” жури., 2006, 2-сон. 14-24-бет; Я.Экман. Турк тили ва адабиёти. Истанбул.

«Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati» mavzuida fan nomzodligi disertatsiyasini himoya qildi<sup>149</sup>.

Azurlaridan namunalar kirill alifbosida 1994-yil «Vafo qilango»<sup>150</sup>, 2000-yil «Ishq daftari»<sup>151</sup> majmualarda, 2005-yil «Muhabbat taronalari»<sup>152</sup> nomli ruboiylar to‘plamida chop etildi. Ubaydiy “Hikmatlar”i 2019-yili M. Abdullayev tomonidan nashr etildi<sup>153</sup>.

**Tarjimayi holi.** Ubaydiy 1487-yil Xorazmda Vazir shahri yiqinida (amakisi Shayboniyxon va otasi Mahmud Sultonlarning Xorazmga yurishi paytida) tug‘ilgan. Otasining piri Ubaydulloh Xoja Ahrori Vali unga o‘z ismini beradi. U otasining yolg‘iz o‘g‘li bo‘lgan, Yoshligi Buxoroda kechgan. U Amir Abdullo Yamaniy (Mir Arab), Xoja Muhammad Sadr kabi allomalardan tahsil olgan. Ubaydiyning, ayniqsa, Abdullo Yamaniyga ixlosi kuchli edi. U Xoja Ahrorning, ular Ya’qub Charxiyning, ular esa Bahovuddin Naqshbandning muridlari edi. Ubaydulloxon o‘z faoliyati davomida Mir Arab bilan hamisha maslahatlashib ish olib boradi. Bu fikrimizni «Badoeul-vaqoe» va «Muzakkiri ahbob»da keltirilgan ko‘p dalillar tasdiqlaydi.

Ubaydulloxon sarkarda sifatida juda shijoatli, tadbirkor edi. O‘zbekxonlarning 1511-1512-yillarda Movarounnahrni qayta qillashida uch ming kishilik qo‘shin bilan 60 ming kishiga qarshi jang qilib g‘alabaga erishgani, Shayboniyxonning ko‘p zafarlari ham Ubaydulloxon matonati natijasi ekanligi manbalarda e’tirof etiladi.

Otasi Mahmud Sulton vafotidan keyin(1504-yil) amakisi Shayboniyxon uni Buxoroga hokim etib tayinlaydi. 1533-yilda esa Ubaydulloxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko‘chirishga majbur bo‘ladi va bosh xonlik marosimini o‘sha shaharda o‘tkazadi. O‘z nomiga xutba o‘qitadi. Sundan so‘ng u umrining oxirigacha – 1540-yilgacha Buxoro xonligini boshqaradi. Undan

<sup>149</sup> Абдуллаев М. Убайдий ҳаёти ва адабий фаолияти. Автореферат. Т.: 2000.

<sup>150</sup> Куд Убайдий. Вафо қилсанг. Т.: 1994.

<sup>151</sup> Ишқ дафтари. Рубоийлар. Т.: 2000.

<sup>152</sup> Муҳаббат тароналари. Рубоийлар. Т.: 2004.

<sup>153</sup> Убайдий. Хикматлар. Т. 2019.

Abdulazizzon va Muhammadrahimxon ismli o‘g‘illar qoldi. Abdulazizzon otasidan so‘ng 1540-1550-yillarda xonlik qildi.

Ubaydulloxon o‘z davrida shariat qonunlarini bid’atlardan xoli saqlashga katta e’tibor qaratdi. Ularning amaliyotini nazorat qilib bordi. Buxoroda bog‘lar barpo qildi. Mir Arab madrasasi, Ko‘hak daryosidagi Mehtar Qosim ko‘prigi kabi inshootlar querdirdi.

U ijodkor – shoir sifatida ilm-fan, san‘at, adabiyot ravnaqiga keng yo‘l ochadi. Har kuni Buxoro shahrining fozil, olim va shoirlarini jamlab suhbatlar, mushoiralar uyushtiradi.

Ma’lumki, Mavarounnahr va Xurosondagi madaniy hayotning eng gullagan davri Husayn Boyqaro(Jomiy va Navoyi) zamoniga to‘g‘ri keladi. Mirzo Haydar o‘zining «Tarixi Rashidiy» asarida Ubaydulloxon davridagi Buxoro madaniy hayotiga «*Buxoro Hirot va Husayn Boyqaro zamonini eslatadi*» deya juda yuqori baho beradi. U Ubaydiyning «*barcha fazilatlar bilan bezangan*» shaxs ekanligini e’tirof etadi. Bir qancha manbalarda uning saltanat tashvishlari bilan bandligiga qaramasdan, tirishqoqlik bilan ilm o‘rganganligi, vaqtidan nihoyatda unumli foydalanganligi, uni hech behuda ketkazmagani e’tirof etiladi.

Ubaydiy serqirra iste’dod, bilim va tafakkur ko‘lamiga ega edi. U hadis ilmida Xoja Mavlono Isfahoniying, fiqhda Mavlono Mahmud Azizonning, Qur‘on qiroatida Mavlono Yormuhammad Qoriy kabi zamonasining peshqadam allomalarining shogirdi edi. Shu boisdan bu yo‘nalishlardagi faoliyatida chuqur bilim va asosli dalillarga tayanganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. U Qur‘on qiroatida tajvidsiz o‘qishni nojoiz sanagan. Turkiy tilda Qur‘onga tafsir yozgan. Fiqhga bag‘ishlangan risola ham yaratgan.

U yetti xil husnixatda yoza olgan. Nasx xatini yozishda mahorati beqiyos bo‘lgan. Musiqa ilmining bilimdoni, chaluvchi sozanda, kuylovchi navozanda sifatida zamondoshlarining tahsiniga sazovor edi.

*Adabiy merosi.* Ubaydiy shoir sifatida turk, fors, arab tillarida ijod qilgan. Bizga uning uchala tilda yaratgan asarlari jamlangan, 695 sahifadan iborat “Kulliyot”i etib kelgan. Uning 4-200-betlarida

foriy, 201-210-betlarida arabi, 211-695-betlarida turkiy asarlari joylashgan.

«Sustlik tab’ning bo’shashishiga sabab bo’ladi va zehnni o’tmaslashtiradi» degan tamoyilga qat’iy amal qilgan Ubaydiy zamondosh ijodkorlarni har kuni ijod bilan shug’ullanishga da’vat qilgan. Ularga rahnamolik qilgan.

Ubaydiyning ijodkor sifatida Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Kotibiy narsarlariga ixlosi baland bo’lgan. Adabiyotni teran anglagan. Tafakkuri keng miqyosli rivojlangan. Hatto, zamondoshlari xon bilan uchrashishdan oldin, imtihonga borayotgan talaba kabi, ko’p kitoblar o’qib, she’rlar yodlab, yangi asarlar yaratib borishga harakat qilishganini eslashadi. Chunki uning tafakkur ko’lami mubbatdoshidan chuqur bilimdonlikni, donishmandlikni taqozo qilar edi.

Shoir “Kulliyot”ining yagona qo’lyozma nusxasi O’zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondida 8931 raqami ostida saqlanadi. Uning tarkibida uch tildagi asarlardan tuzilgan devondan tashqari diniy-tarixiy, axloqiy-didaktik ruhdagi “Omonatnoma”, “Shavqnomha”, “G’ayratnoma”, “Sabrnoma” masnaviyllari ham bor.

Ubaydiy mumtoz adabiyotning ko’plab lirik janrlarida qalam tebrutgan. Ayniqsa, uning g’azal, ruboiy, hikmat, tuyuq kabi janrlardagi mahorati diqqatga sazovor.

Ubaydiyning o’zbek tilidagi devonda 310dan ortiq g’azali mavjud. Ular mavzu jihatidan rang-barang. Olam va odam bilan bog’liq barcha masalalarga munosabatini ko’ramiz. Uning lirik qahramoni hayot mazmunini chuqur anglaydi. Shoh bo’lishiga qaramay, dunyoning o’tkinchi, yaltiroq jilvalariga aldanmaydi. Insonni kamolga etkazuvchi asl maqsaddan chalg’imaydi. Onyidagi g’azalda shoir dunyoqarashining shu jihatni o’z ifodasini topgan:

*Hosilu kavnu makon ko ‘yungda bir xasdur manga,  
Ushbu himmat ikki olam ichida basdur manga.*

*Ham ko 'runmas er yuzi bir tirnoqchakim,  
Etti ko 'k ayvoni bir toqi muqarnasdur manga<sup>154</sup>.*

Ubaydiy Qur'oni karim, hadisi sharif g'oyalarini mukammal egallagan. Shu sababli, u dunyo, hayot, tirkilik va inson mohiyatini teran mushohada etadi. Shoир she'rlarida yetakchi mavzu ishq. U majoziy muhabbat haqida so'z aytganda ham ilohiy muhabbat nazaridan chetda qolmaydi. Shuning uchun, uning g'azallaridagi ishq tushunchasini ikkiga ajratib bo'lmaydi. Fitrat Ubaydiyning shoирlik maqomi haqida gapirib: "Ubaydulla shoир ham mutasavvuf shoirdir... Uning forsicha bir g'azali mashhur mutasavvuf Maxdumi A'zam tomonidan tasavvuf uslubida sharh qiling'on"<sup>155</sup>, - deya baho beradi.

Ma'lumki, vahdati vujud, Olloh vasliga etish tasavvuf ta'limotining bosh g'oyasi. Bu maqomga esa faqat ishq vositasi bilangina erishish mumkin. Shu sâbabli, mumtoz adabiyotimizda ishqqa insonni ruhiy kengliklarga boshlovchi vosita sifatida qaraladi. U barcha tor qafaslardan, g'am-g'ussalardan ko'ngilni ozod qiladi. Uni hurlikka oshno etadi. Ubaydiy lirik qahramoni ham olam va odamni ana shu – jonbaxsh ishq vositasi bilan anglaydi. U orqali lahzalik mavjudlik ustidan g'alaba qozona oladi:

*Ishqingda sening g'ulg'ula olamg'a solurmen,  
Ishqing sipohi birla bu olamni olurmen...<sup>156</sup>.*

Yoki:

*Shod aylab aning yodi bila xasta ko 'ngulni,  
O'zimni g'amu g'ussadin ozod etadurmen<sup>157</sup>.*

Shariat ahkomlarining qattiq himoyachisi bo'lishiga qaramay, shoирning ayrim she'rlarida ishq zuhdu vara'dan ustun kelgan ruhiy holatlar tasvirini ham kuzatamiz:

<sup>154</sup> Кул Убайдий. Вафо қилсанг. Тошкент, 1994, 5-бет. Кейинги парчаларнинг саҳифаси кўрсатилиди.

<sup>155</sup> Фитрат. Яссавий мактаби шоирлари тўғрисида текширишлар. Яссавий ким эди? Тошкент, А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нацириёти, 1994, 3-бет.

<sup>156</sup> Уша асар, 30-бет.

<sup>157</sup> Уша асар, 31-бет.

*Zuhdu varaim daftarin, ey banda Ubaydiy,  
Bir-bir qilibon, ishqida barbod etadurmen*<sup>158</sup>.

«Muzakkiri ahbob» tazkirasida shoirning bir forsiy g‘azali keltirilgan. Unda lirik qahramon ko‘nglidagi Ollohga ishqning quanchular yuksak darajada ekanligini his qilamiz. Ishq maqomining sonziga aylangan Robiya al-Adaviya haqidagi rivoyatda muhabbatli otashining balandligidan hayratda Ka’ba uning ziyoratiga borgani e’tirof etiladi. Ubaydiy lirik qahramoni ham ishq nufuzida o‘zini shunday yuksakda his qiladi. Va bu tuyg‘uni oshkor etishdan hayiqmaydi:

*Bo‘yi arbobi vafo az guli mo meoyad,  
Ka’ba zi o‘n ro‘ba tavofi dili mo meoyad*

Mazmuni: Vafo ahlining hidi bizning guldan keladur, shuning uchun Ka’ba ham bizni yurakni ziyorat etgani keladur.

Shoirning tasavvuf ta’limotidagi mavqeini “Muzakkiri ahbob” mullisi shunday e’tirof etgan edi: “*Tasavvufda fikrlari mazmuni avosli va kuchli namoyon bo‘lar, baland ma’nolarni dilpisand ihoratlar bilan bayon qilar edi*”<sup>159</sup>. Haqiqatan ham, Ubaydiy lirik qahramoni o‘z fikrlarida sobit. O‘z maqomida mustahkam. O‘z tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga ishonchi qat’iy. Soliklarga rahnamolik qilishga qudrati, idroki yetarli:

*Dar biyoboni talab soliki gumgashta ba roh,  
Ba sadoi jarasi mahmili mo meoyad...  
Har kujo dardi dile hast, Ubaydiy, hosil  
Ba tavofi dili behosili mo meoyad.*

Mazmuni: talab sahrosida adashib qolgan solik bizning karvonimiz qo‘ng‘iroq‘i tovushini eshitib yo‘lini topib oladi. Har

<sup>158</sup> Ша асар, 31-бет.

<sup>159</sup> Насиҳота Нисорий. Музаккири ахбоб. Тазкира. Т.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси шарқияти, 1993, 23-бет.

qayerda dili dardli odam bo'lsa, ey Ubaydiy, bizning murodiga etmagan dilimizni tavof etgali keladur.

She'riyat – inson ruhiyatini, botinini talqin etuvchi maydon, ko'ngil mulkiga sayohat. Shu sababli Ubaydiy she'riyatida insonni anglash, uni tushunishga da'vat etakchilik qiladi. Hatto, lirik qahramonning jinoyatchiga munosabati ham o'zgacha. U insonning jinoyatchiga aylanish sabablarini to'g'ri tushunishga chorlaydi. Ularga ham insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondashish lozimligiga e'tiborni qaratadi. Uning boisini atrof-muhitdan, ijtimoiy hayot tarzidan izlaydi. Bu esa bizni Ubaydiyning faqat shoir emas, balki shoh sifatidagi fazilatlaridan ham boxabar qiladi:

*Jinoyat ahliga ko'p ta'na urmag'il zinhor,  
Yo'q ul sifat kishikim, bo'lmag'ay xiyonatsiz<sup>160</sup>.*

Naqshbandiylik tariqatining "Hush dar dam, nazar bar qadam" aqidasining zamirida g'animatlikni anglashga da'vat ham singdirilgan. Shundan kelib chiqib, Ubaydiy she'rlarida mavjudlikni, insonni g'animat bilish, uning omonatligini anglash, qadrlash kabi tuyg'ular ham o'z ifodasini topgan:

*Diydor g'animat turur, ey telba Ubaydiy,  
Diydoridin ayrilmaki, diydor topilmas<sup>161</sup>.*

Ubaydiy g'azallaridagi o'ziga xoslik rost tuyg'ularning kuylanishida ularning samimiyy, tabiiy ifodalar, tasvirlar orqali bayon etilishida ham ko'rindi. Xalq jonli so'zlashuv uslubiga yaqin iboralar, so'zlar tizimidan mohirona foydalanadi. Bu she'riyatidagi soddalik va samimiylikka bois bo'ladi:

*Meni zor etting, ey ko'ngil, dame ul oy jamolig'a  
Ilohi, sen dog'i mendek birovg'a zor bo'lg'aysen<sup>162</sup>.*

<sup>160</sup> Ўша асар, 14-бет.

<sup>161</sup> Ўша асар, 14-бет.

<sup>162</sup> Ўша асар, 27-бет.

Yoki:

*Men ko 'ngul dardig'a yig'larmen, ko 'ngul ham holima,  
Men anga hayronmanu ul dog'i hayrondur manga<sup>163</sup>.*

Shoir g'azallari qisqa hajmli. Asosan, 5-7 baytdan iborat. Ammo ularda tugal va keng qamrovli, chuqur mazmunli fikrlar bayon etilgan. Ifoda uslubi o'ziga xos. Xalqona, sodda, aniq, hikmat va maqollarga monand xulosalar bayon qiladi. G'azallarida intilmagan, jur'atli xulosalar keltiriladi. Birinchi misrada keltirilgan tezisga ikkinchi misrada hayratomuz izohlar beriladi. Shoh Ubaydiyning tabiatiga xos jasorat, jur'at g'azallarida ham o'zini namoyon etadi.

Tavrimni dag'i ne so'rasin, zor Ubaydiy,

Yaxshi bila yaxshiyu, yomon bila yomonmen<sup>164</sup>.

U Navoyi va Bobur ijodiga ehtirom bilan qaragan ruboynavislikda ham ular izidan bordi. Navoyi ijodi davomida 700dan ortiq, Bobur 230dan ortiq ruboiy yaratgan bo'lsa, Ubaydiyning turkiy devoniga 485dan ortiq, forsiy devoniga 418ta ruboysi kiritilgan. Demak, Ubaydiy o'zbek adabiyotida eng ko'p – 900dan ortiq ruboiy ijod qilgan shoir sifatida qadrli.

U ruboiy janrida faqat son jihatidan emas, balki mazmun, mohiyat jihatidan ham o'quvchini hayratga soladigan asarlar yarata olgan. Ularni shartli ravishda mavzusiga ko'ra uch turga bo'lamiz:  
1. Oshiqona 2. Axloqiy-didaktik 3. Orifona yo'naliishdagi ruboilyar.

Ma'lumki, mazkur mumtoz janr talabiga ko'ra, uning tarkibi 4 qismidan tashkil topadi. Ammo har doim ham ularning hammasi ihtirok etavermasligi mumkin:

1. Tezisda ruboiyda aytilmoqchi bo'lgan fikr, mavzu bayon etiladi.
2. Antitezisda birinchi misraga parallel muqobil fikr keltiriladi.
3. Moddayi ruboiy to'rtinchi misrani bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi.
4. Sintez, ya'ni xulosalovchi, yakuniy misra.

<sup>163</sup> 9 illa acap, 7-ber.

<sup>164</sup> 9 illa acap, 28-ber.

Ko‘rinadiki, shoir ruboiylari ham kichik hajmga ega bo‘lishiga qaramay, o‘quvchi diqqatini jalb etuvchi tugun, fikr va tuyg‘ular rivoji, yechimdan iborat o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. Dastlab muxlisda fikr va savollar uyg‘otuvchi tezislar o‘rtaga tashlanib, so‘ng asosiy xulosa bayon etiladi. Bu ruboiydagi mantiqiy yaxlitlikni, izchil bog‘liqlikni ta’minlaydi:

*Bulbulg‘a dedimki, gul yana so ‘lg‘usidur,*

*Ko‘nglung g‘amu anduh bila to ‘lg‘usidur.*

*Bulbul dedi: “- Ey do ‘st, - manga nola qilib, -*

*Taqdiri xudoy ne bo ‘lsa, ul bo ‘lg‘usidur”<sup>165</sup>.*

Ushbu rubooya savol-javob usulini qo‘llash chuqur ruhiy dramatik manzarani ifodalash, timsollar qiyofasini oydinroq yoritish imkonini bergan. Shoir inson tabiatining ziddiyatlari kechimlarini tabiiy tasvirlashga erisha olgan. Ayrim rubooyerlarda esa, dastlab, chuqur mazmunli hayotiy xulosa berilib, keyin undan lirik qahramon ruhiyatini sharhlash uchun foydalananadi:

*Ey yor, ko ‘ngul ishini buzub bo ‘lmaydur,*

*Ag‘yor jafosig‘a to ‘zub<sup>166</sup> bo ‘lmaydur.*

*Har necha uzay ko ‘nglumni dermen sendin,*

*Sendek kishidin ko ‘ngul uzub bo ‘lmaydur.*

Ko‘ngil – tilsim. Uni anglash mushkul. U har doim ham inson xohishiga bo‘ysunavermaydi. Shoir ana shu murakkab mavjudlikning asrorini anglashga intiladi. Xususan, so‘nggi ikki misrada uning bosh g‘oyasi ifodalanadi. Mahorat bilan qo‘llangan fikr va so‘zlar tizimi inson sirli olamini butun ziddiyati bilan, sinoati bilan tasvirlashga imkon yaratadi.

Ubaydiy rubooyerlarda ko‘proq faylasuf shoir sifatida namoyon bo‘ladi. U olam, odam va Olloh munosabatlari borasida chuqur mazmunli fikrlarni bayon etadi. Shoir bularni bir butunlikda –

<sup>165</sup> Вафо қиласанг. Т.: 1995, 42-бет.

<sup>166</sup> Тўзмок-чишамок маъносидা.

yingona xilqat sifatida idrok qiladi. Ularni bir-biridan ayro tasavvur etolmaydi:

*Sendan rizo ko 'zlagan Ubaydullohdir,  
Lutfing so 'rab bo 'zlagan Ubaydullohdir.  
Har ikki jahonda ko 'zu ko 'ngul birlan  
Sendan seni izlagan Ubaydullohdir (87-b.).*

Ubaydiyning shoir sifatida ma'naviy olami juda yuksak. Uning o'zi podshoh bo'lishiga qaramay, oshiqlik va darveshlikni shohlikdan ustun qo'ya oladi:

*Gar bo 'lsa ziyoda qayg 'uga eshligimiz,  
G'am dastidan bexudligu behushligimiz,  
Ollohga shukr, afzal erur shohlikdan,  
Ey darveshlar, hamisha darveshligimiz! (94-b.)*

U oshiqlarning, so'filarning kamalakday serjilo ruhiy dunyosini teran idrok qiladi. Ularni qadrlaydi va yuqori baho beradi:

*Ul qavm asiri dog'i hijrondirlar,  
Tuproq bilan yakrangu yaksondirlar.  
Darvesh kabi bo 'lsa-da ular suvratda,  
Ma 'no olamida shohu sultondirlar. (95-b.)*

Dunyoning o'tkinchilagini, hayotning mazmun va maqsadini anglashning o'zi noyob fazilatdir. Chunki inson shunda to'g'ri yo'ldan adashmaydi. Jahonni egallagan Iskandar ham hayotining so'ngida ko'nglida bir bo'shliqni his etganki, insoniyatga ibrat uchun tobutdan bo'sh qo'lini chiqarib qo'yishni vasiyat qilgan. U anglab etgan xatosining keyingi avlod hayotida qaytarilmasligini istagan. Ubaydiy ham xuddi shunday o'z tajribalaridan, kechinmalaridan saboq berishni muhim deb hisoblaydi:

*Hukmingda magar mamlakati Misru Yaman,  
Farmoningda mulki Xitoy hamda Xo'tan,  
Bor boyligini yig'sang-da er yuzining,  
Ey shoh, jahondan etasan bitta kafan! (85-b.)*

Inson yuragida ezgulik va yovuzlik qutblari mavjud. Yovuzlik g'olib bo'lgan vujud qo'rqinchlidir. Chunki u faqat o'zini emas, balki atrofdagilarni ham muvozanatdan chiqaradi. Ollohdan uzoqlashtiradi. Shoir lirik qahramoni ham ana shunday holatga tushishdan xavotirda. Uning she'riyatida olam mohiyati haqidagi falsafiy mushohadalar bilan bir qatorda, ana shunday oddiy insoniy ixtirolar, dardu armonlar ham o'z ifodasini topgan:

*Ey dil, meni na devu na dard qo'rqtgay,  
Yo aybu gunohlar beedad qo'rqtgay,  
Olamda bulardan sira yo'q xavfim, lek  
Do'st ko'nglidagi kinu hasad qo'rqtgay.*

Shoir lirik qahramoni dunyoning mayda tuyg'ularidan bezganda, undan xalos bo'lish yo'lini izlaydi. Yorug' xayollar, nurli manzillar sari intiladi. Ishqqa xaloskorlik vositasi sifatida umidvor boqadi:

*Tokay bu zamon g'amidan afsona bo'lay,  
Afsonayi har oqilu farzona bo'lay.  
Oshiq bo'layu ikki jahondan kechibon,  
Bir laylisifat ishqida parvona bo'lay. (95-b.)*

Shoir lirik qahramon qiyofasini ishqning turli ruhiy pog'onalarida talqin etadi. Ba'zan majoziy mehru muhabbat tasviriga, ba'zan esa Ollohga bo'lgan ishq, imon, e'tiqod tuyg'ulariga duch kelamiz. Ba'zan ishqning eng yuksak po'rtanalarida bexudu behush, o'zini unutgan oshiq kechinmalari bayonini ko'ramiz. Ularda mashrabona ruh va uslub ustuvorligining guvohi bo'lamiz:

*Davron g'amidan zarracha g'am yo 'q menda,  
I'harx aylanishidan-da alam yo 'q menda.  
Ishqingda yo 'qotnishman o 'zimni andoq,  
Parvo senga ham, o 'zgaga ham yo 'q menda. (87-b.)*

Ubaydiy lirik qahramoni komil axloq targ'ibotchisi. Himmel-muruvvut, rahim-shafqat, vafo-sadoqat kabi ezgu fazilatlar sohibi etadirda ta'savvur qoldiradi. Insonlarni bir-birini g'animat bilishga, har doim o'zaro yaxshiliklar sog'inishga da'vat qiladi. Sho'r shetlarining umumbashariyligi, insonparvarligi ham ana shunday jayovalarida namoyon bo'ladi. U imon salomatligida, asl maqsadga yetekhishnida insonni qadrlashda, uni anglashda deb biladi:

*Muhtojga qayish – asli karomat shuldir,  
Bir ishki, yo 'q ortida malomat – shuldir.  
Har ikki jahonda, soliko, imonni  
Qutqaruvchi chin rohi salomat shuldir. (88-b.)*

Biz Ollohg'a muhabbat qo'yishni, ko'nglimizdan unga makon oqatishni ba'zan tor mistik doirada tushunamiz. Ammo, unga ihqimiz tiyosiz, sof bo'lsa, bizni u ko'p kulfatlardan omon qoqlaydi. Qalbimizni qullikdan ozod etadi. Bizni loqaydlik va i'affatdan hushyorlantirib, ko'nglimizga tiriklik va hayot baxsh etadi. Sho'r lirik «men»i ham xuddi shunday fikrda:

*Kim Haqni unutsa – o 'sha g'ofil bo 'lgay,  
Ko'ngli o 'laru, tuproq ila gil bo 'lgay.  
Kim ko 'ngliga Haq yodi bila bersa hayot,  
Ul ikki jahonda barhayot dil bo 'lgay! (88-bet.)*

Venger turkshunosi Y. Ekman "Ubaydiyning birinchi xizmati chiq'atoy adabiyotida hikmat shaklini jonlantirishidadir", deb baho beradi. Fitrat ham XVI asr adabiyotiga baho berar ekan, "Fayaviy maktabi saroygacha ko'tarilgan"ini ta'kidlab o'tadi. Albita, Ubaydiyning o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni faqat shu

janr takomili bilan belgilanmasa-da, Ahmad Yassaviy zamonidan keyin to‘rt asr kam qo‘llanilgan, aniqrog‘i, deyarli qo‘llanilmagan hikmat shoir ijodida yana faol janrga aylanganini e’tirof etish lozim. Uning devoniga 1786 baytdan iborat 235ta hikmati kiritilgan.

“Vafo qilsang” to‘plamida shoirning tuyuqlaridan ham namunalar berilgan. Undan ushbu janrga mansub 5ta asari joy olgan. Ularning barchasida shoirning so‘z tovlanishlaridan, ma’noviy jilolaridan mahorat bilan foydalanganining guvohi bo‘lamiz. U shakl va mazmunning mutanosib uyg‘unligiga erisha oladi. Teran fikrlar, ko‘lamdor xulosalarni o‘ziga xos, yangicha tasvir tizimi vositasida ifodalaydi. Tuyuqlar mavzu jihatidan ham keng qamrovli. Ularda dolzarb ijtimoiy masalalar, mardlik va jasoratga chorlovchi komil axloqiy tushunchalar va an’anaviy ishqiy kechinmalar o‘z ifodasini topgan.

Ammo, Ubaydiy “Kulliyot”idagi ayrim asarlar borasida ilmda munozarali fikrlar ham mavjud. Jumladan, quyidagi tuyuqning muallifligi masalasida bir yagona xulosaga kelishimiz uchun qo‘sishma maxsus tadqiqotlar olib borish taqozo etiladi deb o‘ylaymiz:

*So ‘g‘d ichinda o‘liturubtur yobular,  
Yobularning mingan oti yobular.  
Yobularning ilgidin el tinmadni,  
Yobular tursin bu erda, yo bular.*

Ushbu tuyuqda “yobular” so‘zi vositasida tajnis yaratilgan. Uch o‘rinda uch ma’noda (1-misrada urug‘ nomi, 2-misrada ot turi, 4-misrada “yoki bular” ma’nosida) qo‘llanilgan. 1566-yilda yozilgan Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasida aynan shu tuyuq Shayboniy qalamiga mansubligi aytildi va to‘liq keltiriladi<sup>167</sup>. Noshirning e’tiroficha, tazkira muallif hayotligi davrida ko‘chirilgan qo‘lyozma asosida nashr etilgan. Ubaydiy “Kulliyot”i esa 1583-yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan

<sup>167</sup> Ҳасанхўжа Нисорий. Музаккири ахбоб. Т.: 1993, 20-бет.

bu chirligan. Manbalar jihatidan tazkira qadimiyroq bo'lsa-da, muammo shoir devoni asosliroq manba ekanligidan kelib chiqib, tuyuq Ubaydiy qalamiga mansub bo'lishi haqiqatga qopinroq, degan xulosaga kela olamiz.

Ubaydiyning muammo, lug'z janrlarida ham nodir salohiyat ekanligi haqida ma'lumotlar bor. U ularda asar yaratish doni humandlik, noyob badiiy anglam va mahorat talab qilishini tushungan. Shuning uchun ham ularga adabiyotshunos olim maylari nazari bilan baho beradi. Uning fikrlari adabiyotshunosligimiz tarixini, janlar o'mni va taraqqiyotini urinashimizda ham muhim. Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe" surʼida quyidagicha hikoya qilinadi: "Hazrati xon (Ubaydulloxon N.J., I.A.) dedilar: Kotibiyning lug'zlar ko'p. Hammasi tab'ga mavofiq va maqbul. Lug'z she'ring shunday nav'iki, tab' juro usida g'oyat mavzundir. Tab'i halol kishilarning unga mayli hukm ziyoddir. Hazrati xon o'z lug'zlaridan birini o'qidi..."<sup>168</sup>.

Ubaydiy mumtoz adabiyotdagagi eng murakkab janrlardan biri aytish va echish usullarini ham mukammal egallagan. Shuning quyidagi suhbat jarayonidan anglash qiyin emas: "Shundan to'ng' dedilar (Ubaydulloxon-N.J., I.A.): muammolaringiz uslubi to'minan ma'lum bo'ldi. Ko'proq muammolaringizni benom topa shunnan. Bir qancha yodda qolgan muammolaringiz bo'lsa, xotirga lojtirib yozing. Muammolardan bir qanchasi (79ta) yonimda edi. Ha'ru yon dedilar: yozgan nomlaringizni o'chiring. Men varaq buhudagi nomlarni miqroz bilan o'chirdim va hazrati xonga tushirdim. Shu muammolardan o'n to'rttasi nomini aytishga ruxsyoj bo'ldi. Qolganini hazrati Ubaydulloxon nomsiz topdilar..."

Ubaydiy ko'p shoirlarni o'ziga ustoz deb bilgan, ularning shoirlarini mutolaa qilib, she'riyat siru sinoatini o'rganib borgan. U, Mavlono Kotibiyning ijodiga ehtirom bilan qaragan. Uning asatlariga o'zi ham, zamondosh shoirlari ham naziralar, imamlar yozishgan. Bundan Ubaydiyning she'riyatni, uning ko'p qirrali ma'no-mohiyatini chuqr his qiluvchi, nozikfahm shoir

<sup>168</sup> Абдусалом Исаевий. Бадоев ул-вакъеъ. Т.: 1979, 48-бет.  
Узб. зори. -48-бет.

ekanligini anglaysiz. Chunki, Kotibiy haqida Navoyi "Majolis un-nafoyis" asarining 1-majlisida hurmat bilan eslaydi. Unga "... aning asrindin bu kungacha anga g'olibi mag'z she'rning barcha uslubida kishi yo'qtur", deya yuqori baho beradi.

XVI asrdan keyingi o'zbek adabiyotini tadqiq etgan adabiyotshunos olim Fitratning "Bu kungi materiallarga ko'ra, Ubaydulloxonni bu davrning eng yaxshi shoiri, deb qabul qilishga to'g'ri keladi"<sup>170</sup>, degan xulosaga kelishi bejiz emas. Chunki u "she'r ilmlarida sohibi fan"<sup>171</sup> – mahorat sohibi edi. Shoир she'riyatiga qilingan qisqa sayohatdan ham ko'rinib turibdiki, asarlari mazmuni, ma'no jihatidan qanchalik serko'lam bo'lsa, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan ham shunchalik takrorlanmasdir.

Shoир she'rlari, avvalo, so'zlar xazinasining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ifoda usulining sodda, xalqonaligi uni dillarga yaqin etadi. Asarlarini o'qir ekanmiz, bizga tanish tuyg'ular tasvirini ko'ramiz, hammaga ma'lum kechinmalarning musavvirona noyob chizgilari duch kelamiz:

*G'uncha kabi paykonliq o'qi ko'ngluma etgach,  
Paykonin aning oh o'qi birla tarotibmen (32-b).*

Kishi yuragi siqilganda "oh" tortishini shoир naqadar chiroyli sharhlab bergen! Gap, asosiy timsol – g'unchadek ko'ngul haqida boryapti. Bu timsol yumuqlik. Undagi ozorlar – o'qlar. Yurakka engillik berish uchun "oh" tortiladi. Shoир shu holatni o'ziga xos timsollar va so'zlar tizimi vositasida izohlayapti: g'unchadek siqiq ko'nglimga etgan o'qlarni "oh" tortish orqali tarqataman, chiqarib tashlayman.

Xalqona hikmatlarning, ifodaning ustuvorligi shoир she'rlariga tabiiylik bag'ishlaydi:

*Men ko'ngil dardig'a yig'larmen, ko'ngil ham holima,  
Men anga hayronmanu ul dog'i hayrondur manga (7-bet).*

<sup>170</sup> Фитрат. Танланган асарлар. Т.: 2000. 2-жилд, 57-бет.

<sup>171</sup> Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб. Т.: 1993, 29-бет.

Ilar ko'ngil – bir tilsim. Uni to'liq anglash mushkul. Shuning nechun ham xalq “bo'yimday bo'y topdimu ko'nglimday ko'ngil topu olimndim”, deya afsus chekkan. Haqiqatan ham, hayotni munakablashtiradigan, kishilarni azoblaydigan narsa bu – ko'ngil dardi, uni anglamaslik iztirobi. Yuqoridagi baytda shoir xuddi ana shu ruhiy g'alayonni tasvirlaydi. Shoir tomonidan so'zlar tizimi shunday tanlanganki, ular lirik “men”ning ichki kechinmalarini juda teran talqin eta olgan.

Ma'lumki, she'riyat inson ruhiyatini, botinini talqin etuvchi maydon, ko'ngil mulkiga sayohat. Unda kamalakday rangin tuyg'ularni his etamiz. Shoir she'riyatida kechinmalarning noyob talqinlarini mumtoz adabiyotda keng qo'llangan badiiy san'atlar vositasida mahorat bilan ifodalanganini ko'ramiz:

*Uzoriniyoshurub, gulni tashladi **"Ol!"** deb,  
Ne **ol** etar manga ul sarvi **gul uzori** bila.*

Ushbu baytdan dastlab mahbubaning **tashqi qiyofasi** – sarv babi qomati, gulni eslatuvchi **nafis chehrasi** borasida tasavvur hohl qilamiz. Uzor, gul, sarv, guluzor kabi so'zlar tizimining o'ziyoq mahbuba go'zalligini ta'kidlashga xizmat qilgan. Buni yuz, chehra o'zlarining muqobili “uzor”ning qo'llanishidanoq anglash umumliq. Ammo shoir uning **tabiat** haqidagi chizgilarni ham shu qisqa misralarga singdira oladi. Albatta, bunga u so'zlarning ma'noviy jilolaridan mahorat bilan foydalinish orqali erishadi.

Mahbubaning gul berishining o'zi oshiqqa nisbatan muruvvatli, mehr-muhabbatli ekanligini ko'rsatadi.

Birinchi misrada oshiqning ruhiy holati ham ifodalanaadi. U mahbubaning gul uzoridan iztirobda edi. Endi unga gul hadya qilib, i'ttimobi alangasini yanada kuchaytiradi.

Shoir baytda “ol” so'zining bir necha ma'nosini ishlatgan.

Birinchi misradagi “ol” – buyruq fe'li, ya'ni **olmoq** va **qizil** ma'nolarida qo'llangan. Ushbu o'rinda shoir bu so'z vositasida *ishon* san'atini yaratgan.

## TURDI FAROG'İY (XVII ASR O'RTALARI – 1699/1700)

*Reja:*

1. *Turdi Farog'iy hayoti va ijodi manbalari.*
2. *Shoir asarlarining mavzu doirasi va g'oyaviy ko'lami.*
3. *Hasbi hol tasviri.*
4. *Vatan va millat qismati.*
5. *Subhonqulixon qiyofasining badiiy tasviri va tarixiy haqiqat*
6. *Islom va tasavvuf ma'rifatining badiiy talqini.*
7. *Shoirning so'z qo'llash mahorati qirralari.*

***Turdi Farog'iy hayoti va ijodi manbalari.*** Turdi Farog'iy Buxoro adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biridir. Merosi kam hajmda yetib kelganiga qaramasdan, o'zbek mumtoz adabiyotida Turdi Farog'iyning munosib o'rnii bor. U o'ziga xos uslubi, badiiy timsollar tizimi, i'shlatalilgan tarhi toza so'zlar xazinasi, yangicha ifoda vositalari bilan bizga qadrlidir. Shuning uchun ham, asarlari adabiyotshunosligimizda ma'lum bo'lgandan beri unga qiziqish hech ham susaygani yo'q. Shoir ijodiga yuksak baho berilgan, ba'zan esa munozarali fikrlar ifodalangan tadqiqotlar yaratilgan.

Turdi Farog'iy merosi dastlab 1924-yil Abdulhamid Majidiy tomonidan topilgan. 1925-yil "Zarafshon" gazetasida u haqda ma'lumot va she'rlari chop etilgan.

A. Majidiy mazkur 1925-yil "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida<sup>172</sup> ham "O'zbek shoiri Turdi" maqolasi va she'rlaridan namunalar e'lon qiladi. Shoir asarlari yuksak ijtimoiy g'oyalar talqiniga bag'ishlangani e'tirof etilib, yuqori baholanadi.

1928-yil shu jurnalning 12-sonida Fitratning "O'zbek shoiri Turdi" maqolasi e'lon etildi<sup>173</sup>. Unda shoir asarlari yuksak ijtimoiy g'oyalar talqini bo'lishi bilan bir qatorda, siyosiy hayotdagi shaxsiy raqobat, ziddiyatlar, keskin kurashlar mahsuli va ifodasi sifatida ham baholandi. Mazkur maqola A. Majidiy xulosalariga

<sup>172</sup> "Маориф ва ўқитғувчи" журн., 1925, 9-10-сон.

2. Фитрат Танланган асарлар 2-жилд. Т.: "Маънавият" наш-ти, 2000, 61-72-6.

monobat, javob tarzida yozilgan. Fitrat unda hamkasbining mulohazalariga oydinlik kiritadi. Turdi tarjimai holini tiklashga barakat qiladi. Shoир yashagan, asarlari yaratilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy hayot hodisalarini chuqur taftish etadi. Ishonchli sulolalarni muhokama uchun o‘rtaga qo‘yadi. U bu tadqiqot joriyonida, avvalo, Turdining o‘z asarlariga suyanadi. Ko‘plab tarixiy manbalar qatidagi ma’lumotlarni o‘rganib chiqadi. Ayniqsa, Halomxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Xo‘ja Samandar Temiziyning “Dastur ul-muluk”, “Tarixi Muqimxoniy”, “Tazkirai Arzo Bade’ Kitobdor” kabi o‘nlab manbalardan qiyosan boydalaniadi va muhim ilmiy xulosalarga keladi.

Ughbu munozara hozirgacha ham ayrim tadqiqotlarda davom etib kelmoqda. Shoирning ayrim asarlari shaxsiy ziddiyatlar in‘ikosi atafida e’tirof etiladi. Ammo, shu o‘rinda bir mulohazani bildirmoqchi edik. To‘g‘ri, ayrim she’rlarning yaralishida shaxsiy monobatlar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkindir. Biroq, bu ularning ijtimoiy ahamiyatini, zamiridagi milliy vatanparvarlik g‘oyalarini inkor eta olmaydi. Chunki Turdi ijodini kuzatib, asarlari shaxsiy manfaatdan yuqori ko‘tarilganiga amin bo‘lamiz. Shuning uchun ham shoир merosi asrdan-asrga o‘tib bizgacha etib kelgan. Eng muhimmi, bugungi kunga kelib yana yangi mazmun kasb etdi.

Shoир she’rlarning o‘zak mohiyati – Vatanning qismati uchun qayg‘urish, kelajagi uchun kuyinish, ba’zi amaldorlarning qilishiqlaridan nafratlanish. Bunday bedor tuyg‘ular ko‘ngillarda Vatan tuyg‘usini shakllantiradi, ulg‘aytiradi. Bugun hurligimizni, mustaqilligimizni mustahkamlash, barqarorlashtirish uchun esa suiddi ana shunday milliy uyg‘oqlik, tirik ma’naviyat kerak. Turdi habibi shoirlarning asarlari esa milliy o‘zlikni anglashga, qadriyatlarni qat‘iy himoya qilishga, millatni hushyorlikka, birlik va ahillikka chaqiruvchi, vatan uchun fidoyilik bilan qayg‘urishga o‘rgatuvchi manbalardir.

1930-yilning oxirlarida Turdi ijodini o‘rganish bilan O. Sharafiddinov, H. Yoqubovlar shug‘ullanganlar. Maqolalar chop etganlar. 1951-yilda H. Yoqubov shoирning “Tanlangan asarlar”ini nashri ettirdi. 1971-yil shoир asarlari professor A. Hayitmetov

tomonidan yana nashr etildi. Bu ancha mukammal nashrligi bilan muhimdir. Unga yozilgan so‘zboshi ham katta ilmiy qimmatga ega Ushbu maqolada olim Turdining hayoti, ijodi borasida ancha yangi ma’lumotlar bayon qiladi. Oldingi nashrlardagi matn xatoliklarini imkon qadar bartaraf etadi.

Turdi Farog‘iyning hayoti, ijodiga oid ma’lumotlar juda kam Uning qachon tug‘ilgani ham noma’lum. XVII asrlarda yaratilgan tazkiralarda ham, jumladan, Maleho Samarqandiyning “Muzakkiri as‘hob” tazkirasida ham Turdi haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi. Faqat shoirning asarlari bilan tanishib, undan ayrim xulosalar chiqarib olish mumkin.

Turdi XVII asrning o‘rtalari va oxirida yashab, taxminan 1699 yoki 1700-yilda vafot etgan. Shoirning umri Buxorodagi ashtarxoniyalar sulolasidan 1640-yili taxtga o‘tirgan Nodir Muhammadxon, 1645-yili xon ko‘tarilgan Abdulazizzon, 1680-yili hokimiyatni qo‘lga kiritgan Subhonqulixon sultanatlari davrida kechgan. Turdi yashagan asrda Markaziy Osiyo uch xonlikka bo‘lingan, xonlar, beklar, ota-o‘g‘ilu og‘a-inilar orasidagi ichki nizolar avjiga mingan. Mamlakat va millat parokandalik hamda inqirozga yuz tutgan edi. Turdining hayoti va ijodi ana shunday jangu jadallar jarayonida, ijtimoiy-madaniy muhitning tushkun bir pallasida kechgan.

Nodir Muhammad Xorazm istilosiga kirishgan paytda, o‘zining davlati sarhadlaridagi yuz urug‘i vakillari Boqi Yuz boshchiligidagi Xo‘jandda isyon ko‘taradilar. Nodir Muhammad isyonni bostirish uchun to‘ng‘ich o‘g‘li Abdulazizni yubordi. Boqibiy va boshqa Yuz urug‘i a‘yonlari Xo‘jandga kelgan Abdulaziz bilan til topishib, uni podshoh ko‘tardilar. Abdulazizzon Yuz isyonchilari ishtirokida o‘z otasiga qarshi yurish qildi va Buxoro taxtini zabt etdi. Shu zamonlarda Turdi Yuz urug‘ining nufuzli namoyandalaridan edi. Abdulazizning shaxsiyati hamda uning sultanatni egallashi Turdida katta umidvorlik uyg‘otdi. G‘alabadan ruhlangan shoir o‘zi orzu etgan davlat boshlig‘i fazilatlarini Abdulaziz sha’niga shoyon bitadi:

*Shoh Abdulaziza bo‘ldi jahonbonlig‘ xatm,*

*Ahdi shohanshahiyu fursati xoqonlig' xatm,  
Shar'i insofu karampeshalig' u xonlig' xatm,  
Rasmi dodu ravishoyini musulmonlig' xatm,  
Yaxshi ot etti alam arsayi davri ofoq.*

Turdi orzulagan "jahonbonlig'", "insofu karampeshalig'", "rasmi dodu ravishoyini musulmonlig'" fazilatlari Abdulaziz nomosi va faoliyatidan ayon bo'la qolmaydi. Aksincha, shajaraviy kurash keskinlashadi, mulku millat daraxti ichidan darz keta bochlaydi. Avvaliga, Subhonqulixon otasi Nodirmuhammadxon bilan birga akasi Abdulazizxonga qarshi jang qiladi. Orada Subhonqulixon akasi Qutlug' sultonni qatl etadi va ota-o'g'il ittifoqidan putur ketadi. Keyin Abdulazizzon bilan Subhonqulixon ittifoq tuzib otaga qarshi kurashadilar. O'g'illari dastidan Eronga qochib, bir qadar kuchlanib, Balxni egallagan Nodir Muhammad baribir farzandlari zabitiga bas kelolmay, taxtu baxtga etak silkib, Makkayi mukarramaga qochib qutuladi. Endi Abdulaziz bilan Subhonquli bir saltanat sarhadiga sig'may qoladi. Subhonquli sonandonning eng yaxshi farzandi, o'n ming misralik she'riyati bilan "devon" tuzgan jiyani Qosim sultonni qatl ettiradi. Subhonquli o'ttiz yildan oshiqroq Balxda hukmonlik qiladi. Bu yillard mobaynida u doimo Buxoroni akasi bilan talashib-tortishadi. Xeva xonlari, Buxoro, Balx o'rtaida ham doimo qirg'inbarot murabslari bo'lib turadi. 1680-yilda Abdulazizzon saltanatidan umidini uzib, tarki diyor etib Madinayi munavvaraga jo'naydi. Shundan keyin ham Subhonqulixon Buxoro va Balxda yana yigirma to'rt yil hukm suradi. Ammo, bu bilan siyosiy vaziyat o'zparmedi. Jangu jadallar, isyonlar avjga chiqdi. Tashqi daxolat kuchaydi.

Turdi Abdulazizzonni adolatpesha, insofu diyonatli, muruvvatlari xon sifatida e'tirof etgan edi. Unga ehtiromi bekanor edi. O'z navbatida, shoirning so'zi ham, o'zi ham Abdulazizzon davrida e'tiborli, izzatga sazovor edi. Yuz urug'ining obro'li oqpoqoli bo'lindi. Subhonqulixon davrida esa u nazardan chetda

qoldi. Oqsoqollik lavozimidan ham uzoqlashtirildi. Saroy ahli orasidagi nufuzi yo‘qoldi.

Uzoq yillik toj-taxt uchun kurash bo‘hronlarining guvohi bo‘lgan shoir Subhonqulixon siyosatidan norozi edi. O‘z akasi Qutlug‘ Sultonni, jiyani Qosim Sultonni, o‘z o‘g‘li Muhammad Siddiqni o‘ldirtirgan insonga yurt taqdirini ishonolmasdi. Ana shunday salbiy munosabatlari natijasida Turdi Subhonqulixon zamonida ko‘p mashaqqatlar chekadi. Buxorodan bosh olib ketib, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand atroflarida sarson-sargardonlikda qolgan umrini kechiradi. Qirq yoshlarida (1680-81) yozgan bir muxammasida bu kechmishlarini quyidagicha ifodalaydi:

*Voqife yo‘q, bu musofirlig‘da mandin ne o‘tar,  
Baski yuz ko‘yi bila ro‘ze kelib, ro‘ze ketar,  
O‘zmag‘ay bundin baloe, bo‘lmag‘ay bundin batar,  
Aqrabolar suhbatimdin or eðdar, qoshin chatar,  
Salb dillarda, nazarlarda karih suprundiman.  
Yuz farozidin ozib, tushdum nishebi qirqqa,  
Xavfu biymu vahm arosinda qaribi qirqqa,  
Dona deb pobast o‘lub, domi firibi qirqqa,  
Voy, yuz ming voy, yuz bo‘ldum g‘aribi qirqqa,  
Hokimi Dizzax mute‘i, payravi jurqundiman.*

Turdi faqat nola-afg‘on chekuvchi passiv shaxs emas. U faol Fitrat bergen ma‘lumotlarga ko‘ra, bir qamcha isyonlarda ham qatnashgan. Turdining murakkab hayoti va ijodi sahifalarini mana shunday mojarolar qoralab, dog‘lab o‘tdi. U Rahimbiy va Oqbo‘tabiy kabi hukmdorlarni ham ko‘rdi. Ulardan ham o‘ziga, yurtiga, millatiga najot istab, osoyishtalik, adolat, fuqaroparvarlik, himmat, saxovat so‘radi. U butun umr yurt ravnaqi uchun qayg‘urdi. Beku xonlarga adolat-insofdan, o‘tkinchi olamning mohiyati-maqsadidan, poklikdan, vatan istiqbolidan nasihatlar qildi. Ammo sarson-sargardonlikdan o‘zga farog‘at ko‘rmadi, armondayu darmonda ketdi. U 1700-yilda olamni tark etdi.

*Shoir asarlarining mavzu doirasi va g'oyaviy ko'lami.* Turdi Farog'iy zullisonayn shoir bo'lib, o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan. Uning devoni haqida ma'lumot yo'q. Bizgacha Turdi ijodiyotidan 434 misradan iborat jami 18 she'r etib kelgan. Ushbu merosning tarkibi 5 muxammas, 12 g'azal, 1 farddan iborat. Demak, Turdi she'riyatining mavzu doirasi singari, turlari ham cheklangan. Turdining 434 misra she'ridan 397 misrasi o'zbekcha, 17 misrasi tojikcha bitilgan.

Turdi, ijodiy qiyofasi va adabiy merosining uslubiga ko'ra, lirk shoirdir. Lekin uning nazmiy bisotida sof ruhbob she'r kam uchraydi. Ammo bu dalil Turdi lirk salohiyatini kansitishga asos bo'lolmaydi. Turdi go'zal lirk she'rlar yaratgan va bizga etib kelmagan bo'lishi mumkin. Bu borada Fitratning quyidagi fikrlari asoslidir: "... balki Turdining bir ko'b she'rlari bo'lg'andir, balki cheng tuproqlari oyog'ida ko'milib yotgan muhimrak asarlar hali maydonga chiqmagandir. Bularni ham topib chiqarishni yosh iukshiruvchilarimiz g'ayratlaridan kutib qolamiz".

Shoiring birgina baytiyoq uning lirk mahoratini namoyish eta oladi. Turdi: "Yuragingni poralab fido etmaguningcha do'st dyhoriga, orzu-umidingga, oliv maqsadingga, kamolotga erisha olmaysan. Chunki, tong – subh yoqa yirtmagunicha quyosh chiqmaydi", degan badiiy fikrni aytish va uni chiroyligi, ishonarli dalillash maqsadida tabiat hodisalaridan yangicha muqoyosa topadi:

*Har qanda g'ami do'st dili porani istar,  
To subh yaqo yirtmadi – mehr o'ljadi paydo.*

Naqadar hayotiy, falsafiy, badiiy ma'no bor bu baytda. Do'st g'anni, muhabbati shaksiz dili pora – darz ketgan, jarohatlangan, parchalangan yurakni taqozo etadi. Chunki yurakning bir parchasini do'stga berish, uning mehrini yurak chokiga joylash shart. Bu misrani sadoqatli do'st topish yurakni qon etish bilan barobar deya tushunish ham mumkin, do'st tutishni istagan kishi yurakni keng ochishi lozim, deb talqin etsa ham bo'ladi. Ushbu ko'p ma'noli misrani shoir badiiy asoslash uchun tabiatdan tamsil

keltiradi. Ma'lumki, tongda osmonning bir cheti yorishib, oftob chiqadi. Shu holatni shoir *to tong yoqa yirtmagunicha, quyosh chiqmaydi, shuningdek, do'st muhabbatiga o'rin berish uchun yurakni "yorish" talab etiladi*, deya badiiylashtiradi.

Turdi she'riyatida insoniy kechinmalar ijtimoiy hodisa va muammolar talqini bilan uyg'un yo'g'irilgan holatda mujassamlashgan. She'riyatning asl vazifasi jamiyatni badiiy inkishof etish emas, albatta. Biroq Turdi ijodiy faoliyati keskin ijtimoiy qarama-qarshilik va kurashlar girdobida kechdi. Bu shoirning badiiy olamida o'z asoratini qoldirdi. Badiiyatga ijtimoiy muammolar nuqtayi nazaridan yondashuv, she'riyatida ijtimoiy ruhning ustuvorligi Turdi achchiq qismatining bir qirrasidir. Ehtimolki, ixtilosiz, osoyishta bir zamon va makonda yashaganida, Turdidan bizga dilbar she'riyat meros qolardi. Turdining ijtimoiy lirikasi Vatan—va millat qayg'usi bilan qorishgan. Vatan saodati, millatning birligi va butunligi Turdining orzu-armoni edi. Turdi ijodiyoti milliy mustaqillik uchun kurash tarixining badiiy sahifalarini tashkil etadi. Ushbu mumtoz nazm durdonalari istiqlolga erishgan O'zbekiston xalqining mustaqillik mafkurasi oziqlanadigan teran tomirlaridandir.

Shoir ijodida vatan va xalq qismati eng asosiy mavzulardan biridir. Bu mavzu tadqiqi shoir she'riyatining o'ziga xosligini, originalligini ta'minlagan. Badiiy salmog'ini oshirgan. Chunki bu davr adabiyotida ham an'anaviy ishq talqini yetakchilik qilardi. Turdi o'z ijodi bilan shu an'anaviylikni yorib chiqib, ma'lum darajada yuqori ko'tarila oldi. Bu holatni Fitrat o'z maqolasida alohida ta'kidlaydi: "*Turdi boshqa shoirlar kabi "may, ishq, savdo" yo'llarida oz she'r yozgan. Uning she'rлари о'зининг Subhonquli saroyidagi raqiblari bilan bo'lган kurashni aks ettirgan*"<sup>174</sup>.

Turdi Farog'iyning ijtimoiy-madaniy muhitda tutgan o'rni, ijtimoiy-adabiy mavqeい va qudrati haqida uning quyidagi she'ri yaqqol tasavvur uyg'ota oladi:

<sup>174</sup> Ўна асар, 71-бет.

*Oatrayam nochiz, ammo zoti qulzum Turdiman,  
 Kelturan amvojg'a bahri talotum Turdiman.  
 Qirq, yuz, ming aqrabolar etdilar mandin nufur,  
 Ne balo baxti qaroru tolei shum Turdiman.  
 Rishtadek ming bor ro'ze chashmi so'zandin o'tar,  
 Bovujudi e'tibori chashmi mardum Turdiman.*

Shoir o'zining iste'dodi qudrati haqida "men qatradek kichkina, hech narsaga arzimaydigan, nazarnogir vujud, ammo po'rtanavor mavjlanadigan, ruhi ummonida o'rkach-o'rkach to'qinlar to'fon chekadigan dengiz zotidanman", deya faxrlanadi. Qurq, yuz, ming aqrabo – turkiy urug'lar. Xo'sh, nega shu ulusga manub shoir mazkur urug'lar menga nisbatan nafrat paydo qildilar, baxti qaro va tolei shum Turdiman, deya o'ksinadi ? Tushunish bir oz qiyin bo'lsa-da, bu azaliy shoirlilik qismati. Mayda inbhalliychilikka qarshi milliy birlik uchun, ulkan haqiqatlar yo'lida kurashgan mutafakkir siymolar hamisha ulusning ta'nayu malomatiga, e'tiroz, inkor va nufuriga uchraganlar. Bunga o'zga mumtoz ijodkorlarimizdan ham "Ulusning ta'nu ta'rifi manga, Itobur, barobardur" yoki "Malomat qilsa qilsunlar, alar guftorini naylay" kabi miskin satrlarni ko'plab misol keltirish mumkin. Turdi ham mulku millat deya jon chekib, minnatga qolgan qalamkash edi. Bunday siymolarni abadiyat va haqiqat yo'lidagi mayda manfaatlar ovunchi ila umrguzaronlik qilayotgan kimsalar tushunmas, qadrlamas va kundalik huzur-halovatini kelgusi borog'atlariga almashtirmas, qurban qilmas edi. Bunday ulug' siymolar nazarkarda, ya'ni Tangri nazari tushgan, xalq e'tibori qaratilgan bo'ladilar. Ayni paytda, ulusning nazorati, ta'qibi ostida qoladilar. Buni shoir timsoliy tarzda: "bamisolip ignaning ko'zidan o'tgani singari, men bir kunda ming bora odamlar ko'zidan o'taman", -deya ifodalaydi.

Turdi she'riyatida shoirning hayoti, qismati, ruhiyati manzaralarini tasvirlovchi **hasbi hol mazui** ham yetakchilik qiladi. Turdining hayotiy kechmishini aks ettiruvchi manbalardan biri uning Oqbo'tabiy davrida bitilgan turkiy muxammasidir.

Ma'lumki, Turdi Oqbo'tabiy hukmronligi davrida keksayib qolgan edi. Keksa shoirning o'z shaxsiy qismati haqidagi ushbu muxammasi muallif hayotiy kuzatishlari xulosasini ifodalaydi.

*Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko'rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman,  
Halqayi ushshoqda bazmi majolis qurdiman...*

Bu satrlar Turdi o'z umrining ma'lum davrlaridan mamnun ekanligini ko'rsatadi. O'zining iqror etishicha, shoir bir mahallar yaxshi hayot kechirgan, do'stu ulfatlari bilan birligida aysh-ishrat bazmlarida ishtirot etgan. U vaqtarda ilohiy ishq shaydolari, ya'ni so'filar halqa qurib o'tirib, Tangri-taolo yodini zikr etib, ma'rifat majlislari o'tkazishgan. Bunday anjumanlarda Qur'on va tasavvuf ta'limotidan, ilohiy-islomiy bilimlardan bahs etilgan. Turdi ana shu davralarda faol qatnashgan.

Ammo Turdi hayotining bunday masrur damlari uzoq davom etmagan:

*Qilmadim shukronae, soldurdi tufrog' oshima,  
Qolmadi juz dardu g'am hamdam, musohib qoshima,  
Haq o'zi rahm aylagay ohi sahar, ko'z yoshima,  
Tafriqa toshini yog'durdi zamona boshima,  
Xonumon ovora, selobi havodis surdiman.*

Mustaqil fikrli shoir farovon hayotiga shukru qanoat qilmadi. Zamona zayliga mayl, hokimlar hukmiga itoat etmadi. Saroy muhitida maskan tutganiga qaramay, xonu beklar faoliyatiga xayrixoh, jilla qursa, loqayd qarayolmadı. Oqibatda, zamona zo'ravonlari shoirning turmush taomiga tuproq soldirdi. Uning dardu g'amdan o'zga hamdam, hamsuhbati qolmadi. Zamona Turdi va uning maslakdoshlari, xonadoni boshiga ixtilof, bo'linish, ajralish kulfatlarini yog'dirdi. Shoir xonumoni – ro'zgori, ahli ayoli, turish-turmushi ovoragarchilikka yuz tutdi. Yuqorida qayd etilgan hodisalar selobi shoirni sargardonlik vodiysiga surib

yubordi. Musofirchilikda shoir holidan xabar oluvchi xolis do'stlar topilmadi. Yaqin do'stu qarindoshlari suhbatidan or etadigan bo'ldi. Shoir odamlarning ko'ngil va ko'zlaridan yiroqlashdi – nu'ardan qoldi.

*Yaxshi vaqtlar yod etib, o'zdin ketib, aldin qolib,  
Harza tifli ashkdek ayni nazarlardan qolib,  
Nosara dirham sifatlik rad qilib, qo'lg'a olib,  
Dasti farsuda, yuzi qatib, ayog'larda qolib,  
Ko'hna tig'i tah-batah g'am zangi tutg'an kundiman.*

Bunday satrlar faqat shoirning hasbi holi yoki jamiyatga imunosabatini emas, balki umr sarhisobini, turmushning achchiq huqiqatini, boshqalarga dars bo'ladigan hayot saboqlarini ham ifodalaydi. Mana, yakkalangan, xor bo'lgan shaxsning ko'ngil ko'chimmalari: “*O'tgan yaxshi kunlarni eslab, o'zimdan ketar durijaga etaman. Eh, eldan qanchalik ajralib, yakkalanib qolib bo'libman-a ! Ko'z yosh donalari har yonga behuda yugurgan bolalar kabi beixtiyor ko'z kosasi, nigoh maskanidan sochilib ketganimdek, men ham o'tkinchi va bevafo hayot sargardonliklari qilibatida nazargohdan yiroqlashdim, el nazaridan osongina tushib qoldim. Qadrim shu qadar tushib ketdiki, odamlar meni yaxshi bo'lmagan dirham pulini yoqtirmay qo'liga olganlari kabi, turaddudlanib yodga oladigan bo'lib qoldilar. Jamiyat meni dastasi yorilgan, yuzi qotib ketgan, oyog'osti bo'lgan, qavatma-qavut g'am zangi bosgan eski pichoq, yaroqsiz matoh yanglig' yaratmay qo'ydi*”.

Shoir o'z sarguzashtlarini kelgusi avlod hayot murakkabliklaridan ogoh bo'lishi uchun shunchalar oshkora va to'irchan izhor etgan. O'z aybini tan olish, xatolarini to'g'ri turbonish, gunohlariga iqror bo'lish, ko'rguliklari sababini o'z te'li, faoliyatidan axtarish poklanuvchan insonning fazilatidir. Turdi lirik qahramoni ham yuqoridagi foje ahvolining boisini o'z qilinishidan qidiradi:

*Oh, bu umri kiromi sarfi g'aflat ayladim,  
G'ussayi behuda, asbobi nadomat ayladim,  
Bilmadim o'z aybimi, xalqa mazammat ayladim,  
Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne'mat ayladim,  
Zaxmi neshi ro'zgor ahlini talxu tundiman.*

Ijodkor umri ijtimoiy faollikda, isyonlar, xonu beklar aro jangu jadal suronlaridan o'tdi. Bu fidokorlik, aslida, ulug' maqsadlarni ko'zlagan edi. Ammo, umr sarhisobida ayon bo'ldiki, ushbu faoliyat ham g'aflatdan iborat ekan. Chunki orzulari oliy haqiqatni mayda manfaatlarga bo'ysundirilgan tarafkashlik qarashlaridan topib bo'lmasdi. Aziz va qimmatli umrni bunday ijtimoiy jangovarlikka sarflash g'aflatning aldamchi ko'rinishi edi. G'aflat – umrni jismoniy, ma'naviy uyquda, mudroqlikda, nodonlikda, hayot va haqiqatning asl mohiyatidan bexabarlikda o'tkazish. G'aflat nasiya narsalarga xomtama bo'lib, umr naqdini bilar-bilmas sarflab yuborishdir. O'tar dunyo manfaatlari uchun behuda g'amg'ussa, afsus-nadomat chekish ham ayni g'aflatdir. O'z aybini bilmay turib, xalqning ustidan kulish, uni masxaralash ham g'aflatning o'zlikka, g'ururga bino qo'yishdek bir shaklidir. Shoir bu iqrornomasida qahri qattiq, goho tahqiqomuz so'z-iboralardan tiyilmagan hajviy asarlar yaratganini ham nazarda tutmaganmikin? Umr nihoyasida Tangrining bergen ne'mati, yumushi, dardiga o'z vaqtida shukrona qilish shakkaru boldek laziz tuyuladi. Asli, shukru qanoat komil musulmonning xos fazilatlaridandir. Shukr shahdini bilmaslik kufroni ne'matdir. Turdining bu tanti tazarrulari Tangri insonga bergen g'animat umrning haqqoniy mohiyatini anglash, o'zlikni tanish va ruhni o'zlik yukidan ozod etishdek ma'naviy komillashish belgilaridir. Tiynatini har qanday gunohdan tozalashga kirishgan shaxs o'zini ayovsiz fosh etishdan, izzat nafsi-da tahqirlashdan ham toymaydi. Turdi o'zligini ro'zg'or ahli, ya'ni omonat dunyo manfaatlari domiga duchor bo'lgan kimsalardan, qo'rs, dag'al, tezfe'l, jarohatlovchi toifasiga mansub deya haqoratlaydi va inkor etadi. Go'yo Yassaviyning "nafsn"

"*hikmatiga* riosa etadi. Darvoqe, Turdi she'riyatining yalpi  
tahlidida mana shu talxu tundlikdan bir tomchi tuyish mumkin.

She'rda umrning qadrdon, farog'atli davrlari bilan beqadru  
benovo mavsumi qayta-qayta muqoyasa va sarhisob qilinadi.

*Hukm jori, so'z qabuli, bir duri dargo 'sh edim,  
Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdo 'sh edim,  
Hoyu-ho 'yi bazmlarda shahdi no 'sho-no 'sh edim,  
Xush zamonlar Yuz qazoni boshida sarxush edim,  
Bu zamon yuvgan qazon ostida qolg'an yundiman.*

Buxt kulib boqqan kunlarda Turdi Yuz urug'ining eng obro'li  
edami edi. Uning hukmi hayallamay hayotga joriy bo'lardi.  
No'chungan so'zini shohu fuqaro qabul qilib, doimiy yo'ldosh va  
siznat bo'lguvchi tilla zirakdek qadrlab, qulqlariga  
qo'rg'oshinday quyib olardi. Donishmand bu zot davlat rahbarlari  
va dunyodorlar bilan yoru do'st, hamsuhbatu hamkor edi. Umrning  
sushbaxt fasllari tantanavor, to'kin, sho'x-shan bazmlar to'rida,  
omish va ichkilik lazzatlaridan sarmastlikda o'tgan. Farahli  
zamonalarda Turdining o'rni Yuz urug'i qozonining boshida  
bo'lgan. Unga qozondagi taomning eng shirin eri nasib etardi.  
Turdining rahnamoligisiz Yuz urug'ining qozoni qaynamas edi.  
Indi esa bu qozon quridi. Turdi bo'sh qozon tagida qolgan  
yuvindidek qadrsizlik chohiga tushdi. Bu o'rindagi qozon ramziy  
ma'noga ega. Shoiru donishu davronining tushkun taqdiri o'sha  
Yuz elati inqirozini aks ettiradi.

Qismatning jabru jafo, azobu uqubatlari kibor bir davlat  
arbobini tavbasiga tayangan, taqdiriga tan bergen faqiru haqir  
holiga keltiradi:

*Men kimam ? Gumnому nokомуjahon ovorae,  
Diyda namnoku giribon choku bag'ri porae,  
Noqabuli marhamu nosur, bitmas yorae,  
Bekase, mushti xase, bir bandayi bechorae,  
Sobiram, rozi qazo, tiri balog'a ko 'ndiman.*

Suvsanib yelib yugurgan shoir sarobga yo'liqadi va o'zini benomu nishon, maqsad-muddaosiga erishmagan, jahon ovora, ko'zlarì giryon, yoqavayron, yurak-bag'ri jarohatli holatda ko'radi. Uning ruhi ravoni xastahol, dil yaralariga malham topilmas, topilsa-da ta'sir etmas, ko'ngli noshod ahvolda edi. Lirik qahramon kimsasiz, xasday xokisor, chorasiz bir banda ekanligini iqror etadi. U sabru bardosh kasb etadi, o'zini balo o'qlariga nishon deb biladi, taqdirming eng so'nggi hukmiga rozilik izhor etadi.

Muxammasning so'nggi bandi shoir Turdining ijtimoiy mavqeい, shaxsiy qismati haqidagi yakunlovchi ma'lumot – umumlashmani mujassamlashtirgan.

*Yuz farozidin oshib, tushdum nishebi qirqqa,  
Xavfu biymu vahm arosinda qaribi qirqqa,  
Dona deb pobast o'kub, domi firebi qirqqa,  
Voy, yuz ming voy, yuz bo'ldum g'aribi qirqqa,  
Hokimi Dizzax mutei, payravi jurqundiman.*

Bu o'rinda gap Turdi asarlarining badiiyati haqida bormayotgan bo'lsa-da, ta'kidlash zarurki, shoir radif uchun "qirq" so'zini ko'zlagan mazmuniga juda muvofiq tarzda tanlagan. Turkiy urug' nomlarini ifodalovchi raqamlar o'sha urug' mavqeini ham belgilagan, albatta. Birinchi misrada shoir *Yuz yuksakligidan Qirqning quyiligidiga* tushib qoldim, degan timsoliy ma'noni bayon etadi. Bu Yuz urug'iga mansub Turdi Qirq urug'ining oldida past tushgani, unga tobe bo'lib qolganini ham bildiradi. Ikkinchi misra shoir xavf, qo'rquv, vahima va tahlikali holga qirq yosh tevaragida tushganidan darak beradi. Shu o'rinda "qirq" muxammas yozilgan yoshga ham ishora etadi. Uchinchi misrada shoir o'zini don ilinjida qirqoyoqqa o'xshagan tuzoqqa ilingan qushga qiyoslaydi. To'rtinchi misrada shoir qirq yoshda yuz yil yashagan choldek qartayib qoldim, deya nido chekadi. So'zni Turdi Jizzax hokimi, bir jurqundiga mute va payrav bo'lib qolganidan o'ksinish bilan saranjomlaydi.

Demak, mazkur muxammas shoir hayotiy sarguzashtlarini badiy aks ettirishi bilan nodir va qimmatli asardir. Turdi tarjimai holini o'rganishni mana shu asarning mufassal tahlili asosiga qurish batta ilmiy-uslubiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qadrsizlik,adolatsizlik bor joyda, albatta, isyon bo'ladi. Biz Turdi she'riyatida ana shunday isyonni ko'ramiz. Ma'rifatsizlik va jaholat vatanni, xalqni inqirozga etaklovchi omillardir. Turdi ijodkor sifatida buni yaxshi tushungan. Va butun umri davomida ma'naviy qashshoqlikka, uning asoratlariga qarshi kurashgan. Vatan manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'ya olgan beklar, amaldorlarni ayovsiz fosh etgan. "Kenglik qiling", "Bu mulk" g'uzallari, "Subhonqulixon" hajviyasi ana shunday jasorat bilan yozilgan asarlardandir.

*Turdi ijodiyotidavatan va millat qismati* eng asosiy mavzulardan biridir. Shoirning otashin asarlari ana shu mavzu ijodiqidan yuzaga kelgan. "Bu mulk" radifli g'azali Vatan va millat uchun shoir o'ttanishlarining shu'lavor yolqinidir. Ushbu asar XVII ast, Subhonqulixon saltanati davrida Buxoro xonligi, elu yurt ahvolining ne ko'y larga tushib qolganidan kuyinib yozilgan. Shoirning ona yurti uchun kuyinish iztiroblari ifoda etilgan.

*Bir sari azm ayla joyi nomusulmondur bu mulk,  
Fitnayi avboshu zulmu kufru tug'yondur bu mulk.*

Turdi talqinicha, mustabid hukmdor qo'l ostida mulku millat shu darajaga etganki, unda oliy insoniy orzu va fazilatlar bilan yashash imkonini qolmagan. Mamlakat bebos, daydi, sayoq, bezori kishilar fitnasi avj olgan, zulm zo'raygan va kufr, ya'ni jayriislo miy faoliyat tug'yon urgan. Oqibatda, mamlakat nomusulmonlik maskaniga aylangan. Turdidek ko'plab imonli insonlar bunday mamlakatda jon saqlashdan ko'ra. Tarki diyor etishni ma'qul ko'rganlar. Yuqoridaagi matla fuqaroning ana shunday kayfiyati badiy aksidir.

"Bu mulk" – keskin tanqidiy ruhdagi asar. U davrning hayotiy haqiqatini tanqidiy nuqtayi nazardan aks ettiradi. Vatan haqidagi

faxriya asarlarning har bir satr va baytlari mulku millatning biron fazilatini ulug'lashga bag'ishlansa, ushbu g'azal foje illatlarni izchil fosh etishga qaratilgan.

*Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,  
Mutlaqo kirdori xayli kofiristondir bu multk.*

Turdi zamonasida ulus e'tiqodi va davlat rusumlari islomga tayangan edi. Biroq, Turdining tanqidiy fikriga ko'ra, e'tiqod inqirozi sababli nomigagina islom mamlakati bo'lib turgandi. Birgina "islom" kalimasi hurmati mamlakatga tayanch bo'lib turardi, xolos. Ammo, mohiyatda davlat ishlari kofirlar to'dasining qilmishlariga o'xshab qolgan edi. Shu o'rindagi "**kofiristondir bu multk**" iborasi e'tiborni alohida jalb etadi. Turdi yashab o'tgan davrda diyorimizni hali Rossiya istilo etib ulgurmagan, shu orzu ilinjida turli tadbir-tadorik ko'rар edi. Dinu imonidan putur ketgan, qilmish-qidirmishi kufrga yuz tutgan mamlakat bosqinchining niyatiga ayni muddao, hamlakor tajovuziga mahtal edi. Shunday bo'ldi ham, Turdi bashorat qilgan ekan shekilli, Rossiya bosqinidan keyin mamlakat rasmona kofiristoniga aylandi. Mana, asriy qullikdan keyin, mustaqillikning dastlabki yillarda ham "**kirdori xayli kofiriston**" dan mutlaqo qutulish juda qiyin kechdi.

G'azalda o'zbek ulusi fe'lidagi ayrim qusurlar xolis jonkuyarlik bilan oshkor etilganki, bu istiqlol va istiqbol uchun ham saboq bo'larlidir:

*Durahdu, tangchashmu besaru ya 'juvaz',  
Muxtalifmazhab guruhi o'zbekistondur bu multk.*

Tanqid qilinayotgan insoniy kamchiliklar bugungi butun o'zbek xalqining umumlashma sifatlari emas, albatta. Odamlar orasida Vatanimiz O'zbekistonning nomini birinchi bo'lib Turdi qo'llagan, degan yanglish tushuncha bor. Agar g'azal faxriya bo'lganida, "**O'zbekistondur bu multk**" iborasi, shubhasiz, mag'rur jaranglagan bo'lardi. Afsuski, g'azal taassufnomasi ruhida bitilgan.

Bundan tashqari, “o‘zbekiston” bu o‘rinda bugungi shakllangan o‘zbek millati vatanini emas, balki XVII asrdagi turkiy xalqlarning o‘zbek urug‘ini anglatadi. Binobarin, Turdi tomonidan mana shu o‘zbek urug‘i tabiatidagi ba’zi qusurlar qoralanayotir. Turdi davri o‘zbeklar guruhি fe‘lidagi mazkur illatlar batamom barham topmag‘an, ularning urug‘ yo belgilari bugungi hur o‘zbek qonida ham ma‘hum darajada saqlanganki, bu hamisha mulku millat ravnaqiga xavf solib turadi. Shuning uchun ham ulardan Turdi aylodlari ogoh bo‘lmoqlari zarur: *durahd – o‘z ahdidan uzoq bo‘lish, ahdiga amal, vafo qilmaslik; tangchashm – ko‘zi tor (ham jismoniy, ham ma‘naviy ma’noda), xasis, qitmir bo‘lish; besar – boshisz (bosh bo‘ladiga hukmdorga itoat etmaslik), bebosh bo‘lish; ya’juvaz’ – ya’juj ko‘rinishli, ya’ni afsonaviy yovuz, yirtqich maxluq singari, uning sifatida, vaziyatidagi; muxtalifmazhab – mazhabi, ya’ni yo‘li, ta’limoti kelishmovchilik, qarama-qarshilik, janjaldan iborat.* Mana shu manfiy sifatlar Turdi davri o‘zbek ulusidan insofu diyonatni, xayru barakani ko‘tardi, elni parokandalikka giriftor aylab, mamlakatni asriy mustamlakachilikka mahkum etdi. Turdi satrlaridagi alam-iztirobning boisi shu.

Shoir zamonasida oddiy fuqaro, ayniqsa, haqgo‘y va xalqchil ijodkorlarning taqdir-nasibasi ayanchli edi:

*Naqdi jon bersang, topilmas, istasang, bir dona aysh,  
Mehnatu anduhdin so‘rsang, farovondur bu mulk.*

Nasibasi mehnatu anduhdan iborat ijodkordan, tabiiyki, anduhgin she’larlar meros qoldi.

Raiyatuv mamlakat ma‘murchiligi sultonning siyosatiga munosib edi. Turdi talqinicha, Subhonqulixon sultanatidan rohat-farog‘at istash, islomu musulmonchilik barqarorligini orzulash xarobga umid bog‘lashdek bo‘lardi:

*Joyi islomu musulmonlig’, Farog‘iy, istama,  
Poytaxti kishvari Subhonqulixondur bu mulk.*

Mulku millat taqdiridan taassuf tortib yozilgan bu g'azal o'zining ixcham shakli, nihoyatda aniq va mag'zi to'q ifodalari bilan go'zaldir. Unda birorta ortiqcha so'z yo tagzamini bo'sh misra yoxud tahlil doirasiga tortmaslik mumkin bo'lgan bayt yo'q. G'azal asr haqiqatini yoritish, dardchil va xalqchil ruhi bilan mustaqil O'zbekiston avlodlariga qimmatlidir.

O'zbek xalqining bugungi kamoloti, Vatanning uzil-kesil istiqloli Turdi Farog'iyning ezgu orzu-armonlaridan edi. Turdi yashagan davrda o'zbek urug'larining tarixiy tarqoqligi, milliy kuchlarning parokandaligi shoirni qattiq qayg'uغا solardi. Bu qayg'u qatralari uning she'riyati qatlariga qattiq o'mashgan. Shoirning bir necha she'ri mazkur mavzu tevaragida jipslashadi va bir-birini to'ldirib, muallifning yaxlit nuqtayi nazarini ifodalab turadi. *"Tor ko'ngullik beklar..."* ana shunday she'rлar turkumidandir. Turdi vatanparvarlik ruhidagi asarlarida vatandoshlarini goh tanqid, goh tanbeh, goh nasihat, goh hajv yo'li bilan ijtimoiy-milliy birlik va totuvlikka targ'ib etadi. Yuqori ijtimoiy mavqedan turgan oqsoqol adibgina ulusning katta-kichigiga quyidagi she'ridagidek yuzma-yuz murojaat etishi mumkin:

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,  
To'qson ikki bovli o'zbek yurtidur, tenglik qiling.*

Badavlat va sarmoyador beklar orasidagi raqobat, ixtilof, nifoq, shaxsiyatparastlik, xudkomalik asrlar mobaynida milliy muhitning osoyishtaligi hamda totuvligiga rahna solib kelgan. Xalqda "Keng fe'l, ketmas davlat bersin" degan duo bor. Shoir ham tor ko'ngilli beklarni kengfe'llikkda vat etadi. Haqiqatan, kengfe'lllik bo'lsa, ketmas davlat o'z-o'zidan keladi. Shoir o'zbek yurtining bir-biriga qarindosh bo'lmish to'qson ikki urug'ini tenglikka chaqiradi. Shoir nazdida, to'qson ikki o'zbek urug'ining barini barobar ko'rish, ularning birortasini sig'dirmaslik qilmay, bag'rikenglik bilan teng tutish katta davlat garovidir.

Ayirmachilik, mayda mahalliychilik ofati tarixning talay sinovlarida o'zbek xalqiga pand bergan. Xalq tarixining bunday

Joje tahifalaridan xabardor Turdi jigarso'zlik bilan ahillikdan saboq beradi:

*Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirqu yuz, ming son bo'lib, bir xon oyinlik qiling.*

Turdining ushbu sabog'i hozirgi zamon o'zbek avlodlari uchun ham o'z qadr-qimmati, o'mni va kuchini saqlab qoladi. Negaki, biz o'zbeklar, inshoollo, yagona istiqlol bayrog'i ostida birlashdik, urug'larimizning urf-udummlari nari tursin, hattoki, nomlarini-da umutayozgandik. Milliy mustaqilligimizning dastlabki chorak orida o'zligimizni anglab etdik. Biroq, viloyat va shaharlararo, mayda mahalliy chilik xastaligidan hali tamomila qutulganimizcha yo'q.

Birlikda hikmat ko'pligi uchun, shoir uni g'azalning markaziyo'yasiga aylantiradi. Ushbu g'oyani mustahkamlash va asoslash uchun yana bir bayt bitadi:

*Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,  
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yago-englik qiling.*

Turdi – fikriy she'riyat ijodkori. Shoir turli tasvir vositalarini qo'llashсан'atpardonlik qilishdan ko'ra, nazmidagi g'oyaviy salmoqdorlikka ko'proq e'tibor bergan. Lekin mazkur bayt, asosan, g'oya ifodaviyligiga xizmat qilib turibdi. Shoir badiiy g'oyaning salqichilagini ta'minlash uchun fikrga muvofiq, xalqona ifodalar izlagan. Xalq og'zaki ijodiyotidan baytda bir yo'la birlikni anglatuvchi besh iborani tanlab qo'llagan. Ular quyidagilar: 1. "**Bir roqadan bosh chiqarmoq**". Bu – besh iboraning eng mashhuri. U hozirgi nutqimizda keng qo'llanadi. Shuning uchun ham shoir uni biringchi keltirgan. 2. "**Barcha bir to'nga kirmoq**". Bu ham fikran, ruhan, maslakan birlashishni o'ng'ay ifodalay oladigan nisbatan mashhur iboralardan. 3. "**Bir o'ngurlik**". "**O'ngur**" so'zi hozirgi tilimizda, ba'zi shevalarda "*etak*", "*to'nning etagi*" ma'nosini anglatadi. Xalqda yaxlitlik, butunlikni ifodalovchi "**bir etak**"

iborasi ham bor. Demak, “*bir o‘ngurlik*” ham milliy birlikning o‘ziga xos ifodasidir. 4. “*Bir tirizlik*”. “*Tiriz*” – shevalardagi to‘nning astarini anglatuvchi so‘z bo‘lib, u ham asosiy maqsadni ifodalashga xizmat qilgan. Keyingi bu ikki ibora, albatta, juda kam qo‘llangan. Shuning uchun shoir ularni mashhur iboralarga chirmab bergen. 5. “*Bir yaqo-englik qilmoq*”. Bu ibora xalq tilida ancha keng qo‘llanib, u insonlarning biri yoqa, biri eng bo‘lib, bamisolli bir to‘ndek birlik hosil qilishini anglatadi. “*Barcha bir to‘ng‘a kirib*” va “*bir yaqo-englik qiling*” iboralarining bir o‘rinda – misralar oxirida kelishi, ostin-ustun joylashtirilishi ham ular o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni, o‘zaro bir-birini sharhlayajagini ko‘zlab yaratilgan badiiy qurilmadir. Milliy birlik g‘oyasini ilgari surgan ikki markaziy baytda “*bir*” so‘zining sakkiz o‘rinda qo‘llanishi ham tasodifiy emas. Bu o‘ziga xos lafziy-ma’naviy ta’kid usulidir. Shoirning mahorati shundaki, u raqamlar bilan belgilangan urug‘ nomlaridan ham so‘z o‘yini yaratib, g‘oyaviy muddao ifodasiga yo‘l topadi: “*Qirqu yuz, ming son bo‘lub, bir xon oyinlik qiling*”. Asosiy g‘oyaga shunday qo‘srimcha ma’no yuklanadiki, urug‘lar birlashsa, ularning nomlarini bildiruvchi raqamlar qo‘silsa, miqdor jihatidan ham katta kuch hosil bo‘ladi-ku.

O‘z bekligi mulkiga qanoat qilmay, hududini imkon qadar kengaytirishga, bir necha beklikni ishg‘ol etishga ishqivozlik “*tor ko‘ngullik beklar*”ning badnafslik illati edi. Turdi bunday tamoyilni keskin qoralaydi va beklarni bu yo‘ldan qaytishga chorlaydi.

*Kim qo‘yubdur uhdayi o‘z mulkingizdin chiqmayin,  
Ikki, uch, to‘rt da ‘visin etmakni, ko‘tahlik qiling.*

O‘zgalar mulkiga hirsu havas bog‘lash, ko‘z olaytirishdan ko‘ra, avvalo, o‘z bekligini uddalab obod etish g‘oyasini ilgari surib, shoir beklardan istilochilik yo‘lidan qaytishni talab etadi. Bu ham milliy birlik, osoyishtalik, totuvlikni ta‘minlovchi omillardan biri edi.

Turdi mardi maydon beklar yo'qligi ham milliy muvaffaqiyatsizlik sabablaridan biri ekanligini teran his etgan. Shoir g'azalning so'nggi baytida xalqaro maydonda milliy muddabolarni uchun kurashmay, o'z qobig'iga o'ralib, mahbubparastlik bilan mashg'ul bo'lgan beklarni ayovsiz tanqid biliq orqali hajv etadi:

*Mardlar maydon chekib, rangin ko'torib zaxmlar,  
Sizga yo'q ul javhare, yuzga upo-englik qiling.*

Turdi nazdida mard insonlar o'z maishiy turmushlari, shaxsiy yutuqlari bilan ovunibgina o'tirmaydilar. Ular xalq, Vatan, millat muddabolari uchun katta janggohlarda javlon uradilar. Ular ro'ng'larni kurash zahmatlari olishidan qo'rqlmaydilar. Chunki yuraklaridagi mardlik javhari mangu barhayot. Turdi tor ko'ngillik beklarda ayni shu mardlik javhari etishmasligini ro'y-rost fosh etadi. Xalqning "Do'st achitib aytadi" maqoli mumtoz adiblarimiz orasida ko'proq Turdiga xosdir. Shoir mardlik javharidan mahrum bolalarga ayollar singari yuzlariga upa-eliq surib yurishlarini boyuradi. Turdidagi bunday qahri qattiqlik ona xalqiga bo'lgan mehri kuchliligi nishonasidir.

Xullas, "Tor ko'ngullik beklar..." milliy o'zlikni anglash, qodiriyatlarni qat'iy himoya qilish ruhida yaratilgan mumtoz aytadir.

Beklar faoliyatini fosh etish Subhonqulixon hajviga bap iahlangan muxammasnning avj pardasida yanada yangilanadi. Turdi "Tor ko'ngullik beklar..." g'azalida qanday shashtu shiddat bolan, keskin murojaat etgan bo'lsa, ushbu muxammasma xuddi shu ruhda davom etadi.

*Ey yuzi qora, ko'zi ko'r, qulog'i kar beklar,  
Bilingiz bu so'zimi pand sarosar, beklar,  
Aylangiz payravi shar'i payambar, beklar,  
Si.ga darkor bu yurt, ey gala zang'ar beklar,  
Bu qadim naql erur: "El rabotu to'ra qo'noq".*

Jamiyatning muayyan toifasiga bu qadar yovqur munosabat izhor etish garchi nafis adabiyotning xos fazilati hisoblanmasa ham, bu she'rxonni ranjitmaydi, aksincha, unda hamdardlik tuyg'usi tug'yon uradi. Chunki shoirning muddaosi – el manfaatlari. Shoir xalqning dodiga ko‘zini ko‘r, qulog‘ini kar qilib faqat hokimiyat va amalga talpinuvchi beklarni achchiq haqiqatdan ogoh etadi. U bu haqiqatni, ya’ni beklar har qancha amal talashmasin, el rabot singanri muqim va abadiy, amaldorlar esa mehmon kabi o‘tkinchiligin xalq maqoli orqali beradiki, bu she’g‘oyasining hayotiy, ishonarli, ta’sirchanligini ta’milagan.

O‘z zaminini toptagan bu qo‘noq to‘ralarning xalqqa o‘tkazgan beedad zulmini o‘z tanasida sezgandek nido chekadi shoir. Chinakam xalqchil shoирgina xalqqa otilgan nayzaga ko‘ksini qalqon qila oladi va uning himoyasida baralla na’ra tortadi:

*Yedingiz barchangiz itdek fuqaroni etini,  
G‘asb ila molin olib, qo‘ymadingizlar bitini,  
Qamchilar dog‘i solib bo‘yni, qanotib betini,  
Yordingiz zahrasini (ich)idin olib o‘tini,  
Bo‘lmadi kam bu raiyat boshidin hech tayoq.*

Yurt boshida yurgan beklar o‘zaro amal talashib janjallahadilar, soliqlar soladilar, ziyofatu zarofatlar uyuştirib maishatbozlik qiladilar, lekin oxir-oqibatda, tayoq xalq boshida sinadi.

Turdining ijtimoiy ruhdagi bu she’rlari mutolaa mobaynida Vatan va xalqning foje qismatiga qayg‘urish, el-yurtga muhabbat, milliy birlik va totuvlikka intilish, hurriyat va istiqlolni qadrlash tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Yaqin o‘tmish mobaynida xalqimizning ota-bobolari sanalmish xonu beklarimizni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, tarixiy siymolari hamda ularning faoliyatlarini bирyoqlama, hatto, haqoratomuz talqin etish g‘ayrimilliy mafkuraga o‘ng‘ay ravishda xizmat qilib keldi. Subhonqulixon to‘g‘risidagi muxammas ham o‘zbek elatinig o‘tmishi hamda hukmdorlariga nafrat, ilmiy atama

bilan nytganda, milliy nigilizm ruhiyati tarbiyasi uchun muvaqqat mafkura qo'lida muhim dalil va dastak vazifasini o'tadi. Bunga Turdi muxammasi to'la asos berar edi. Endilikda Turdining "Subhonqulixon" muxammasida *Subhonqulixon qiyofasining badiiy tasviri va tarixiy haqiqatni* xolis o'rganish maqsadga muvofiqdır. Muxammasda yaratilgan Subhonqulixon siymosi hukmdorning siyosiy faoliyati haqidagi tarixiy ma'lumotlarga muvofiq keladi. Muxammasdan Subhonqulixon siymosi, ma'lumotlardagiga qaraganda, keskin hajviy ruh tamoyili bilan muhobilig' aliroq va masxaraomuz tasvirlangan. Endilikda bunday tavirni xolis nuqtayi nazar mahsuli sifatida qabul qilish qiyin. Turdi va Subhonqulixon munosabatlari asosida shaxsiy, ijtimoiy kolishmovchilik, qarama-qarshilik, tor mahalliy manfaatlar turgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Muxammasdagi biryoqlama murakkab talqin shu zaminda shakllangan bo'lsa kerak. Ular o'tasida har qanday nizo kechgan bo'lmasin, bu shoh va shoirning har ikkalovi ham o'zbek elatining ulug' bobolaridir. Ikki oradagi lekin murosasizlikni kechmish milliy kulfatimiz sifatida qarab, bundan buyon masalani xolis nazar bilan yoritish yo'lidan borishimiz lozim.

Ma'lumki, o'tmishdagi o'zbek hukmdorlarining ko'pchiligi ma'rifiy-madaniy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Ular faoliyatining bu insoniy qirrasi nazardan chetda qolmasligi, oksincha, qadrlanmog'i joiz. Subhonqulixonning ana shunday ijobiy va ijodiy faoliyati haqida ham muhim ma'lumot mavjud. Biz bunday ma'lumotni keltirish bilan zinhor Subhonqulixonning qabib qilmishlarini oqlash tarafdoi emasmiz. Faqat uning yaxshi ishlari unutilmasligi, u murakkab bir shaxs sifatida o'rganilishi va o'rnatilishini istaymiz.

1961-yili "Fan" nashriyotida bosilib chiqqan "O'rta Osiyolik qirq olim" kitobida (92-93-betlar) Subhonqulixon to'g'risida quyidagi ma'lumot mavjud. Kitob mualliflari, sharqshunos olimlar Abdusodiq Irisov, Abdulla Nosirov, Ilyos Nizomiddinovlarning birlamchi mo'tabar manbalar asosida aniqlashlaricha, Subhonqulixon o'z saroyiga ko'zga ko'ringan ilm ahlini yiqqan,

o‘zi tib ilmi va badiiy ijod bilan shug‘ullangan, Nishoniy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Darvesh niqobi ostida Markaziy Osiyoga sayohat qilgan Venger sharqshunosi Vamberi o‘z xotiralarida Subhonqulixon yozgan bir qo‘lyozma tibbiy kitobni Hirotda qo‘lga tushirgani haqida hikoya qiladi. Bu qo‘lyozma asar muqaddimasida Subhonqulixon o‘z maqsad-muddaosini shunday yozgan ekan: “*Shunga diqqat qilmoq zarurki, avvalgi zamонlarda o‘tgan hakimlar arab va fors tillarida tibbiy kitoblar yozib qoldirganlar Turkiy tilda yozilgan tib kitobi hozirgacha menga uchramadi. Shuning uchun men abdu, haqir Sayyidmuhammad Subhonqulixon ibn Sayyidnodirmuhammadxon, bu kitobni yozdim. Bunda har xil kasallikkarni davolash choralar ko‘rsatildi, shoyad ko‘p kishilar foydalansalar*”.

Subhonqulixon turkiy tabobaтда mashhur bo‘lgan “Tibbi Subhoniy” asarini yozgan. Bu kitobni yaratishda muallif qadimgi hakimlardan Ibn Sino asarlaridan, Galen va Gippokrat asarlarining arabcha tarjimasidan foydalangan. Vamberining ma’lumotiga ko‘ra, “Tibbi Subhoniy” asarining olmon tiliga tarjimasi bilan birga asl matni ham nashr etilgan. Subhonqulixon tabobatga oid “Tibbi Subhoniy”dan tashqari, fors tilida “Ihyo ut-tibbi Subhoniy” kitobini ham yozgan. Bu asarning qo‘lyozma nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida (2101-raqam, 301 varaq) saqlanadi. Asar sakkiz bobdan iborat bo‘lib, unda turli dorilar haqida ma’lumot beriladi. Muallif o‘z asarini yozishda “Shifo ul-alil”dan keng foydalangan. Mahalliy tabobat ravnaqi yo‘lida Subhonqulixon boshqa tadbirlarni ham ko‘rgan. Subhonqulixon davrida tibga oid ko‘p asarlar arab tilidan fors va o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Ko‘p nusxada ko‘chirtirildi. 1697-yilda Buxoroda “Buq’ayi dor ush-shifo” nomli o‘n sakkiz hujrali madrasa bunyod qilindi. U erda yetuk mutaxassislar mudarrislik qildilar. “Dor ush-shifo” qoshida kasalxona, ambulatoriya va dorixona hamda kutubxona bo‘lgan. Dorixonada dori tayyorlovchi ikkita xodim ishlagan. “Dor ush-shifo” xarajatlari vaqfdan keladigan daromad hisobiga yiliga qirq ming tanga miqdorida tayinlangan.

Subhonqulixon folga oid “Ramli Subhoni” (Subhon foli) nomli asar ham yozgan. Uning farmoniga binoan, “Fatovoyi Subhoni” nomli fatvolar to’plami ishlab chiqilgan.

Demak, o’zbekning eng zolim deb qoralab kelingan xoni moliyatiga e’tibor bilan yondashilsa, uning ham ancha-muncha mohabbati ishlari borligi ayon bo’lar ekan. Xon bu ishlarni faqat shuhrat-shon uchun qilmagan, albatta. Subhonqulixon davri, muhim ko’proq ma’lumotni qo’lga kiritish mumkin. Ammo, markur dalillarning o’ziyoq aytib turibdiki, Turdining Subhonqulixon to’g’risidagi muxammasiga tanqidiy yondashmoq, taliqona tahlil va talqin etmoq zarur. Ushbu muxammas Turdining eng ijtimoiy salmoqdar va muhim asarlaridan biri sifatida adabiyot tarixida qoladi. U faqat Subhonqulixon hajvi bilan cheklanmagan. Uning g’oyaviy qamrovi kengroq. Unda shoirning hayot, olam haqidagi, shohlik haqidagi falsafiy mushohada va xulosalari ham u’zifodasini topgan.

Turdi she’riyatining mavzu qamrovi keng. U yuksak axloq uchun, ma’naviy kamolot uchun qayg’urgan, lirik she’rlarida inayuttiy mohiyat ustuvor. U tabiat go’zalliklarini ziyraklik bilan bo’na olgan. Ulardan teran falsafiy xulosalar chiqargan. “Joyi oyinib emas hech kima bu ko’hma ravoq”, deya kuylagan Turdi hony dunyoning mohiyatini, o’tkinchiligini chuqrur anglagan. Yaxshiliklarini bundan ogohlantirishga, ularni yaxshilikka, orgulikka raq’batlantirishga harakat qilgan.

Turdi Farog’iying “Muxammasi turkiyi Turdi” sarlavhali muxammasi ma’rifiy ruhda yozilgan bo’lib, insonlarda islomiy ijjod va madaniyatni shakllantirishda, ularni komil insonlikka ibarat etishda o’ziga xos xizmat qila oladi.

Turdi Farog’iy g’azal bilan birga muxammas janrining ham urasi edi. U teran ijtimoiy-falsafiy mazmundagi muxammaslar yaratib qoldirgan. Turdi, asosan, mustaqil muxammaslar ijodkori. “Muxammasi turkiyi Turdi” sarlavhali muxammas Turdi asarlari orasida falsafiy-axloqiy mohiyati jihatidan alohida ajralib turadi. Islam va tasavvuf ta’limoti, timsollari Turdi ijodiyotida ham

muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, mazkur muxammas matnida Turdi mutasavvuf shoir sifatida namoyon bo‘ladi. Muxammas *islom va tasavvuf ma‘rifatining badiiy talqini*, axloqiy aqidalari tavsifi bilan sug‘orilgan. Asar pandu nasihat uslubida bitilgan. Ammo, u quruq va kitobiy yo‘sinda emas, hayotiy kuzatishlardan chiqarilgan xulosalarning tasavvuf nazariyasi asosidagi talqinidan vujudga kelgan. Bunday sog‘lom nasihat har bir mo‘minni to‘g‘ri yo‘lgan da‘vat etadi.

*Jismi qonundin nafas tori uzilmasdin burun,  
Boshinga davri qazo davri qurulmasdin burun,  
Jaybayi jon tiyri rihlatdin so ‘kulmasdin burun,  
Ey ko ‘ngul, qasri asosi tan buzulmasdin burun,  
Toqi abro’, kursiyi dandon to ‘kulmasdin burun –*

*Qil nazar osori sun ‘illoh chashmi did ila,  
Kir haqiqat yo ‘lig‘a... (qo ‘lyozmada misra shunday),  
Qurbi vuslat istasang, bo ‘l vosifi tamhid ila,  
Uqdayi labdin gireh och nuktayi tawhid ila,  
Ko ‘z ochib, sanga dahonin harza kulmasdin burun.*

Shoir insonni haqiqat yo‘liga da‘vat etishning nihoyatda ta’sirchan, timsoliy ifoda uslubini topgan. U inson jismi – qomatini qonun deb nomlangan musiqa asbobiga o‘xshatadi. Go‘yo tiriklikni ta’minlovchi nafas ushbu musiqa asbobining torlarini tashkil etadi. Nafas torlari tebranib turarkan, qomatning qonunidan hayotbaxsh navolar taralaveradi. Nafas tori uzilar ekan, jism qonunida hayot so‘nadi. Ya’ni, inson nafas bilan tirik. Turdi vujud qonunidan nafas tori uzilmasdan burun Haq yo‘liga kirish, islomiy imon-e’tiqodni qabul qilishga chorlaydi. “*Boshida davri qazo bazmi qurilmoq*” – inson hayotdan ko‘z yumganidagi motam marosimini anglatadi. Ushbu misrada ham shoir inson hayotdan ko‘z yumishdan ilgari Tangri oldidagi burchini bajarishga, toat-ibodat qilishga ulgurishi lozim, degan fikrni ilgari suradi. *Jaybayi jon* – jonning yoqasi. Bu o‘rinda shoir jonni inson tanasi tirikligini muhofaza etib turuvchi,

longlarda kiyiladigan zirhli libosga o‘xshatgan. *Tiri rihlat* – o‘lim hamonidan otiladigan o‘q. Tiri rihlat shunday qudratli va ayovsizki, uning hujumidan har qanday zirhli kiyimning yoqasi so‘kilib ketadi hamda hayot mahv o‘ladi. Shoир shu yo‘sinda muqarrar va barhaq o‘limning turli ko‘rinishlarini ayon gavdalantiradi. Keyingi misralarda uni “*tan asosining qasri buzilishi*”, *qosh mehrobi, tish kursllartning to‘kilishi* tarzida tasvirlaydi. Shoир o‘limning dahshatli ko‘lankasini gavdalantirib, sovuq suvratini shakllantirib ko‘rsatish bilan odamlarga tiriklik aziz va g‘animat, ammo abadiy emas, umrning qadriga etish, fursatni boy bermay, imon-e’tiqod bilan halol-pokiza hayot kechirish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Hayot so‘ngidagi pushaymon, ohu vohlar va tavba-tazarru oxirat uchun najot berolmaydi. Shuning uchun Turdi tanbeh beradiki, yoshlikdan did va tab‘i nozik ila ilohiy qudratni idrok etmoq, haqiqat yo‘liga kirmoq vojib. Haqiqat yo‘li – tasavvufda suluk deviladi. Haqiqat yo‘liga kirgan xudojo‘y, taqvodor inson – solik nomlanadi. Yor visoliga, Ollohn diydoriga yaqinlik istagan inson haminha Ollohn madh etishi, uning vasfi – ta‘rifu maqtovini keltirib turishi joiz. Solikning lablari tuguni, chigili hamma vaqt Ollohnning borligi va yagonaligi haqidagi kalima bilan yechilishi, ya‘ni u Tangrining tavhidi – vohidligi xususidagi nozik, sehrli, qirra so‘zlar so‘zlab yurishi lozim. Asarda iqtibos keltirilmasa da, muallif Ollohnning yakkayu yagonaligi, borligini tan olish to‘g‘risidagi imon kalimasini qaytarib turishni nazarda tutadi.

... *Sindurub isyon xumini, to ‘k nadomat ashkni,*  
*Tavba jomin no ‘sh qil, paymona to ‘lmasdin burun.*

Bayon – insonning Ollohga itoatsizligi, uning biru borligi va bo‘libqa sifatlariga shak keltirish kabi gunohlarini anglatadi. Odamzod dunyoga kelib, o‘zligini anglab, komil inson bo‘lib atgunicha uning bunday gunohlari majmui bir xumga sig‘mas darajaga etadi. Turdi islom ta‘limoti yo‘rig‘i bilan ana shu xumni sindirishni, kechirgan noshar‘iy faoliyati uchun mudom yig‘lashini, pushaymon va afsus-nadomat ko‘zyoshlari bilan gunohlarini

yuvishini buyuradi. Biroq afsus-nadomatning o‘zigina kifoya emas. Kechirimli zot oldida tavba-tazarru farz. “*Tavba jomini no’sh qilmoq*” – tavba qadahidan sharob simirmoq. Bu – ramziy talqin Uning zamirida Olloh oldida qilgan gunohlari, qilmishlari uchun tavba-tazarru qilmoq, kechirim so‘ramoq, poklanmoq ma’nolari yotadi. Paymona – umr qadahi. Tavba jomini umr qadahi to‘lganida – o‘lim oldida emas, balki “*paymona to’lmasdin burun*” no’sh etish alohida izohga muhtoj. Islom ta’limoti e’tirof etadiki, Olloh marhamatli, rahm-shafqatli, kechirimli zot. Ammo, bandalari yo’l qo‘ygan gunohlari uchun umr mobaynida tavba-tazarru qilib borsalargina, parvardigor barini kechiradi. Umr paymonasi to‘lib, jon taslim etayotgan chog‘ida Olloh esiga tushib, oxiratni o‘ylab qolib, jannatga xomtamalik bilan chekkan tavba-tazarrulari esa inobatga o‘tmaydi.

*Lobaqodur qalbiy, qalbing bog’lama iqbolinga,  
Bo’lma g’arra oriyat dunyovu mulku molinga,  
Yod etib go’ru qiyomat, yig’la doim holinga,  
Bur nazar moumanidin, yonib o’z ahvolinga,  
Ibrat ila boq, ko’zung tufroqqa to’lmasdin burun.*

Qalbiy, ya’ni qalbakilik, soxtagarchilik abadiy emas, uning umri qisqa. Qalbiy, qalbakilik, qalloblik sifatlari qalb faoliyati bilan bog‘liq ravishda kelib chiqqan. Bunda qalbning o‘zgaruvchanligi nazarda tutiladi. Shuning uchun e’tiqod ilmida qalbga ishonch bilan qaralmaydi. Qalb amri bilan ish qilish hamisha ham ezgulikka olib boravermaydi. Turdining qalb haqidagi misrasida qalbning hist tuyg‘ulari, ehtiroslariga asir bo’lma, qalbingga doimo quloq solaverma, uning hoyu havaslariga uchma ma’nosidagi o‘git o‘rnashgan. Ikkinchisi misrada so‘filikda mudom qoralanadigan dunyoparastlik illatidan ogohlantiriladi: Ortirgan dunyo va molu mulkingga mag‘rur bo’lma, chunki u senga vaqtincha, omonat berilgan. Ko‘pchilik odamlar mol-dunyoga muhabbat, e’tiqod bog‘laydilar, hirs qo‘yadilar. Oqibatda, imonni, Olloho ni unutadilar. Manmanlik, mulkparastlik, to‘ymaslik, qizg‘anchiqlik, baxillik,

Xusnligik, xudbinlik qusurlari – bari shundan shakllanadi. Bunday yovuz sifatlardan forig‘ bo‘lish uchun tasavvuf ta’limotining Yassaviya tariqati mol-dunyodan butunlay voz kechishni talab etadi. Naqshbandiya tariqati esa bu dunyoning mulki, nozne’ matlari inson manfaatlari uchun yaratilganini e’tirof etib, undan bahramand bo‘lishni, ammo o‘ziniki emas, Ollohniki deb bilishni, unga to‘q nazar, saxovat, kamsuqumlik bilan yondashib, ehtiyoj va chitriyot yuzasidan tasarruf etish, shukronalik va muhofazakorlik bilan egalik qilishni ma’qul ko‘radi. Turdi dunyo molu mulkiga ana hu nuqtayi nazardan yondashgan. O‘z ahvoliga yonib, doim holiga yig‘lamoq, manmanlikdan yuz o‘girmoq, go‘ru qiyomatni yod etmoq – hammasi dunyo hirsu havaslariga ko‘ngil bermaslik u oyasini ilgari surishga qaratilgan. Chunki osiy banda ochko‘zlik bilan qancha mol-davlat yiqqan bo‘lsa, shuncha ko‘p gunohga botgan. U o‘z ahvolini anglab etishi va shunday holga tushib qolganidan faryodu fig‘on chekishi lozim. Zotan, yiqqan molini ro‘riga orgalab ketolmaydi, qiyomatda esa har birining hisobkitobini qilishi kerak. Ko‘zi ochlik insonga hamroh bo‘lgan shuytoniy xislat bo‘lib, yorug‘ dunyodan ko‘z yungandagina undan xalos bo‘ladi. Uning ko‘zlarini tuproq to‘ydiradi yoki, boshqacha aytganda, ko‘zlar tuproqqa to‘ladi. Odamning jasadi lahadga qo‘ylgan chog‘da ham shunday ramziy ma’noda uning yuzlariga bir hovuch tuproq sochib qo‘yadilar. Alhosil, Turdi aytmoqchi, hayotning azaliy qonuni shunday muqarrar ekan, dunyo ishlariiga ibrat ko‘zi bilan qaramoq lozimdir.

*Bevafo foni yahonni bilmagil sen joyi bud,  
Erta dur, oxshom ketarsan selu barqu bodu rud,  
Qil bu kun tanglo ishi, bo‘lmaz pushaymon anda sud,  
Qil duto pushtung rukug‘a jabbayi jondin sujud,  
To ajalning boridin qadding bukulmasdin burun.*

Inson ruhiga hushyorlik va ogohlik baxsh etuvchi ushbu satrlar bunday saboq beradi: ey bandayi ojiz, sen bu dunyo hamda uning noz-ne’ matlari-yu huzur-halovatlariga qattiq mehr bog‘lamagin.

Ulardan vafo tama qilma. Ular o'tkinchi, yo'qoluvchi, bituvchi mavjudotlardir. Bu omonat jahonni mukammal, barqaror, abadiy maskan, deb o'ylama. Ushbu bevafo dunyodagi umr shu qadar qisqa, tezo'tarki, go'yo ertalab uyg'onasan, oniy kun kechirib, kechqurun sel, chaqmoq, yel, tezoqar anhor singari shiddat bilan boqiy dunyo sari ketib borasan. Shuning uchun lahzalik hayot fursatini g'animat bilib, qiyomat kuni hamma to'planadigan mahshargoh maydonida Olloh oldida so'roq beradigan, javobgar bo'ladigan ishlaringni bugun qilib qo'ygin, aks holda, u erdag'i pushaymon aslo naf bermaydi. Qiyomat kuni Ollohnинг huzurida sharmanda va jannatdan benasib bo'lmaslik uchun kunda besh mahal namoz o'qishni kanda qilma. Namoz sajdasiдан sarkashlik qilsang, kuning bitganida ajalning og'ir yukidan qadding bukilishi aniq. Shunday ekan, ey mo'min, ajal qaddingni egmasidan burun namoz chog'i rukuga borib, jonu dilingdan sajda qil. Bunday purhikmat nasihat aslo tarkidunyochilik va tushkunlik kayfiyatlarini tug'dirmaydi, targ'ib ham etmaydi. U insonlarni bir marta beriladigan umrni g'animat bilish, qadrlash, halol va faol kechirish, hayot oldidagi mas'uliyatni, Tangri oldidagi javobgarlikni sezish ruhida tarbiyalaydi. Shoир solikni haqiqat yo'liga yo'llar ekan, unga kechayu kunduz riyozat chekishni, yo'ldoshsiz yurmaslikni, ma'naviy rahnamo istasa, hamisha Ollohnи dilida saqlashi, safarda yolg'iz yurmasligi, u bilan birga hamroh bo'lishi lozimligini uqtiradi. Negaki, haqiqat yo'lli purxatar, mahbubi mutlaq – Haq manzili uzoq:

*Kecha-kunduz, tolibi jo 'yoyi piri rohbar,  
Qo 'yma beyo 'ldosh qadam, manzil uzoq, yo'l purxatar.*

Haqiqatan, Olloh men bilan birga, degan tushuncha insonga ma'naviy-ruhiy tayanch bo'ladi. Bunday e'tiqod solikni yomon yo'llardan, noshar'iy harakatlardan, shayton xurujidan saqlaydi.

Mana bu bandda Turdining naqshbandiyona tariqatdag'i tafakkur tarzi yaqqol aks etgan:

*Aylama fosid xayola sarf solu mohni,  
 Kir shariat yo 'lig'a, ayningda ko 'r Ollohnii,  
 Hoziri dam bo 'l, talab qilg'il dili ogohni,  
 Naqsh bog'la dilda muhri mehri illallohni,  
 Jon etib labg'a, og'izda til tutulmasdin burun.*

Ushbu misralar Turdi so'fi va mutasavvuf shoir sifatida Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahovuddin Naqshband tariqatini tutganini, ular aqidalarining amaliyotchisi va targ'ibotchisiga aylanganini ko'rsatadi. Dastlabki misralarda shoir: "Umringni buzuq, yaramas o'y-xayollarga sarf, zoe etma. Yaxshisi, shariat yo'liga kirgin-da, ko'zing, ya'ni ko'ngling oynasini Olloh nuridan ravshan etgin" mazmunidagi pandini izhor etadi. Anglashiladiki, ko'nglida Olloh zikri mavjud insongina dunyoga ravshan nazar bilan boqadi va Haqni taniydi. Keyingi baytlarda xo'jagoni naqshbandiya tariqatidagi "Hush dar dam" aqidasi ilgari suriladi. "Dam" so'zi nafasni anglatadi. "Hush dar dam" yoxud "**hoziri dam bo'lmoq**" har nafasda dilni Olloh yodidan ogoh etib turmoq demakdir. Naqshbandiylikda Ollohnинг yodi bilan nafas olishning qatl'iy tartibi amal qilgan. Bunda nafaslararo "Lo iloha illallohu Muhammadur rasululloh" kalimasini uzluksiz qaytarish qoidasi mavjud edi. Solik nafas olganda "Lo iloha illallohu", nafas chiqarganda "Muhammadur rasululloh" so'zlarini takrorlardi. Buni ovoz bilan yoxud tovush chiqarmay, hattoki, pichirlamay, shuurda bajarish ham mumkin edi. Bu Abduxoliq G'ijduvoniy ta'limotidagi ko'ngil zikri talabiga mos kelardi. Shunda Olloh yodi nafas orqali tolikning qoniga, tomirlariga, miyasiga, qalbiga yugurardi. Shu yo'sinda uning qalbiga Olloh mehri muhrlanardi. Turdi talab etgan **muhri mehri illallohdan dilda naqsh bog'lash** shu tarzda kechardi.

Oldingi baytda umrni bekorga sarflamaslikdan saboq bergen shoir endigi baytda uni nimaga sarf etish muhim va zarurligidan ogoh etadi:

*Boqiyi umringni sarfi mardumi fahmida qil,  
Maqdaminda bosh qo'yub, pobo'si mardum diyda qil,  
Poktiynat, sofdir, xulqi hasan bigzida qil,  
Munda xo'b ilmu amalni chirmavu sanjida qil,  
Hashrda mezon tarozusi qurulmasdin burun.*

Umrning mazmuni, hayotning qadr-qimmati uni nimaga sarf etish, qanday o'tkazish, berilgan imkoniyatdan qanday foydalana olishga bog'liq. Sermazmun umr kechirish muhimni nomuhimdan ajratishni va nozik fahmu farosatni talab etadi. Hayotni qanday odamlarga fido etish ham hal qiluvchi ahamiyatga egaki, bu masala Turdi pandnomasidan chetda qolmagan. Uning xulosasi bunday: "Butun umrni ahli dillarga – insonni tushunadigan, qadrlaydigan, hurmatlaydigan odamlarga sarf et. Shunday odamlarning qadamiga bosh qo'yib, oyog'ini o'pib, bosgan izini ko'zlaringga surtsang arziydi. O'zingga turmush tarzi uchun pokiza tabiatlilik, sofkillik, xushfe'lllik hamda chiroyli xulq fazilatlarini saylab ol. Hayotda eng yaxshi ilmu amallarni omuxta qil, lekin ularni me'yorida qo'lla. Umuman, qiyomat kunida gunoh va savob ishlar o'lchanib, hisob-kitob qilinadigan taroziga etmasdan, ya'ni o'lmasdan burunoq faoliyatningni me'ylashtirib tur".

Turdi pandu hikmatlarini tadrijiy takomillashtira borib, so'nggi misrada eng hayotiy va yakunlovchi xulosani ifodalaydi:

*Fursating favt etma, Turdi, ish qil o'lmasdin burun.*

Fursatni qo'ldan chiqarmay, ish qilish, yaratuvchilik bilan umr o'tkazish ko'hna Sharq dunyoqarashi, ayniqsa, naqshbandiya ta'limotining eng oliy haqiqatlaridan biridir. Muxammasdag'i bunday shoh misralar naqshbandiya falsafasidagi umumlashma shior – "Dil ba yoru dast ba kor" g'oyasining o'ziga xos badiiy sharhiday taassurot qoldiradi. Turdining ushbu muxammasi odamlarni islomiy imon-e'tiqodga rag'batlantirish, hayotni sevish va qadrlashga o'rgatish, poklik va halollikka da'vat etish, hayotni falsafiy idrok etish jihatidan katta ma'naviy-axloqiy, ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. *Shoirning so'z qo'llash mahorati qirralari.* Turdi she'rlari mavzu jihatdan rang-barang

bo'lishi bilan birga badiiy barkamol asarlardir. Bu borada Fitratning mulohazalari ham ilm uchun muhimdir: "Bu davning ma'lum shoirlari bo'lgan Mashrab, Huvaydo, Majzub, So'fi Olloyor va Turdilarni tekshirganda, tilda soddalik, nazmda ohangszizlik, san'atda zaiflik kabi hollarni oz-ko'b hammalarida ko'rish mumkin. Lekin Turdining ularning hammasidan yaxshiroq ro'ganini e'tirof qilishimiz lozim keladir. Turdi yolg'iz so'zlarni emas, o'xshatishlarni, majozlarni ham soddalashtiradi. Uning she'rlarida saroy doiralariga kira olmayturgan, lekin omma tomonidan yaxshi qabul qilishga iste'dodli bo'lgan o'xshatmalar, majozlar ko'bdir"<sup>175</sup>.

Shuni e'tirof etgan holda yana bir jihatni nazardan soqit etib bo'lmaydiki, o'zbek fors, tojik, arab tillarini mukammal bilish va bu til boyliklaridan nazmda mahorat bilan foydalanish shoir she'riyatini go'zallashtirish barobarida ma'lum darajada murakkablashtirgan ham. Tasavvufiy timsol, atama va iboralarning q'llanishi ham Turdi badiiy tiliga o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun hozirgi o'zbek kitobxonasi Turdi she'rlarini lug'at, izoh, sharhlarsiz tushunishi qiyin.

Turdi o'zbek mumtoz she'riyati til va uslubini to'la saqlagan holda, boshqalardan yaqqol farq qiluvchi badiiy uslubini yarata olgan so'z san'atkoridir. Uning uslubi ohangida qardosh xalqlar adabiyotidan Fuzuliyning adabiy ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Xalqdan ulug' san'atkori yo'q. Buni yaxshi bilgan shoir asarlari ona tilimiz boyligini o'z bag'rida asrab kelgan, badiiy sayqal bergan qomusdir. Asarlarini o'qib shoirning so'z xazinasi boshqa mumtoz shoirlardan katta farq qilishini ko'rish mumkin. Shu jihat bilan she'rlari til tarixini o'rganishimizda, bugungi so'zlar xazinamizni boyitishda ham ulkan manbadir. Biz Turdi g'azallari tahlili davomida muallifning xalq so'z-iboralarini mohirona qo'llash san'atiga guvoh bo'lgan edik. Shoir "El rabotu to'ra qo'nog", "Yog' ishqordin oluru qaro suvdin qaymoq" kabi ko'plab xalq maqollaridan ham foydalanadiki, bu asarlarining hayotiyligi va ta'sirchanligini ta'minlagan. Turdi she'riyati urug'chilikka oid

<sup>175</sup> Ўша асар, 70-71-бетлар.

so‘z-atamalarga boyligi bilan elshunoslik nuqtayi nazaridan qimmatlidir. Turdining so‘z xazinasidan, hatto, bugungi ona tilimizni boyitishda ham foydalanish mumkin. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida sartaroshlik kasbini anglatadigan turkiy so‘z yo‘q. “Sartarosh” so‘zi fors-tojik tilidan olingan. Turdi muxammaslaridan birida “Ro‘yi kor keldi qalin bangiyu qilchi, qaltoq” misrasi borki, undagi “qilchi” so‘zi sartaroshlik kasbining turkiy ifodasidir.

Turdi asarlarida vazn va qofiyadan ham mahorat bilan foydalanadi. U, ayniqsa, qofiya uchun butunlay yangi so‘zlarni tanlaydi. Bu Turdining an'anaviy me'yorlar qobig‘ini sindirib o‘tgan, yangicha yo‘l izlagan ijodkor ekanligidan dalolat beradi. U qo‘llagan qofiya, avvalo, ohangdorlikni, keyin tasvir, ifoda kulminatsiyasini ta‘minlab beradi:

*Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko‘rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman.  
Halqayi ushshoqda bazmi majolis qurdiman,  
Mushti xokam, davri davronlar kuzatkan Turdiman,  
Xushdimog‘ etgan mayi softi hariflar durdiman.*

Fitrat shoir she’rlarini talqin eta turib, ayrim nuqsonu kamchiliklarga ham e’tibor qaratadi: “Turdining she’rlarida uning zamondoshlarida ham ko‘b uchralgan nuqsonlar, kamchiliklar bor: Ko‘rdi, surdi, qurdi so‘zлari bilan ko‘ndi, yo‘ndi so‘zлarini qofiya qiladir. Jumla buzuqliklaridan ham qo‘rmaydir”<sup>176</sup>.

Ko‘rinadiki, Turdi hayoti va ijodi adabiyotshunoslikda hali yetarli o‘rganilmagan. Shoir ijodini butun balog‘atu nafosati bilan namoyon etish uchun, albatta, qo‘srimcha izlanishlar, maxsus tadqiqotlar olib borish taqozo etiladi.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Ashtarxoniyolar, irsoli masal, fano, dorush-shifo, tibbi Subhoniy, ma’rifat.*

<sup>176</sup> Ўма асап, 71-6.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Turdi Farog'iy tarjimai holining tiklanish tarixini so 'zlang.
2. Adib yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot qanday edi?
3. Adabiy merosining aniqlanishi va manbalaridan so 'zlang.
4. Shoir asarlarining janriy tarkibini aniqlang.
5. Nima sababdan shoir she'riyati isyonkor ruh kash etgan?
6. Adib she'riyatidagi o'ziga xosliklar nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Turdi she'riyatiga xos badiiy barkamollik qirralarini ta'riflab bering.
8. Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki maqola kim tomonidan, qachon, qaerda chop etilgan?
9. Turdining "Turkiy muxammas"ini o'qing va uning moliyatini izohlab bering.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Turdi. Tanlangan asarlar. T.: 1951.
2. Turdi. She'rlar. T.: 1971.
3. Jumaxo'ja N. Turdi nazmi badiiyati. T.: 1995.
4. Jumaxo'ja N. Milliy mustaqillik maskurasi va adabiy meros. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 1999.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik tadqiqot, 3-jild. "Fan", T., 212-234-betlar.
6. Fitrat. O'zbek shoiri Turdi. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: 2000.

## SO'FI OLLOYOR VA «SABOT UL-OJIZIN» ASARINING G'OYAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI (1663 – 1721)

### *Reja:*

1. *So'fi Olloyor hayoti va ijodi manbalari*
2. *Adabiy merosi va «Sabot ul-ojizin» asari.*
3. *Noyob badiiyat namunasi.*

*So'fi Olloyor hayoti va ijodi manbalari.* Birinchi Prezidentimiz

I. A. Karimov "Ma'naviyati yuksak xalq buyuk davlatdir", degan edilar. Elning ma'naviyatini yuksaltiradigan, kamolga etkazadigan eng kuchli vositalardan biri esa adabiyotdir. Mustaqillik sharofati bilan millatga ma'naviy barkamollik baxsh etuvchi hadisi sharif kabi mo'tabar manbalar, Ahmad Yassaviy, Huvaydo, So'fi Olloyor kabi o'nlab ijodkorlarimizning asarlari ta'lim dasturlariga kiritildi. Ularni chuqur o'rghanib, yoshlар ongiga singdirish yo'lga qo'yildi.

So'fi Olloyor 1663-yili Samarcandning Minglar qishlog'ida Olloquli ismli taqvodor kishi oilasida tug'ildi. U boshlang'ich ma'lumotni uyda va masjid huzuridagi maktabda oldi. So'fi Olloyor o'n yoshlarida Buxoroga borib, o'n besh yillar mobaynida Jo'ybor shayxlardan ilm o'rgandi, kasb-hunar orttirdi. Buxoroda oila qurib, Muhammadsodiq, Amina, Halima ismli farzandlar ko'rdi. Olloyor yigirma besh yoshida Buxoro bojxonasida ishlay boshladi. Lekin, ko'p o'tmay, bojgirlikni tark etib, tariqat yo'liga kirib, shayx Habibullo huzurida o'n ikki yil tahsil ko'rdi. Tahsil va tariqat riyozatlari natijasida So'fi Olloyor ma'naviy komil inson, alloma, karomatgo'y avliyo sifatida etildi. U islom aqidalari, tasavvuf ta'limoti, ma'naviy kamolot muammolarini yorituvchi qator asarlari orqali dunyoga tanildi.

Ilmda yurtimizning jahonga mashhur ulug' farzandlaridan biri So'fi Olloyorning hayoti va faoliyati haqida turlicha qarashlar, bir-biridan farq qiluvchi ma'lumotlar mavjud. Uning tarjimai holi haqidagi fikrlarning asosiy qismi Tatar olimi Tojuddin Yolchiquyl o'g'li (XVIII-XIX asrlarda yashagan) tomonidan "Sabot ul-ojizin"

ning sharhi sifatida yaratilgan “Risolayi Aziza” dan olingen. Ammuno unda juda ko‘p chalkashlik va xatoliklar borligi olimlarimiz tomonidan isbotlangan<sup>177</sup>. Ayniqsa, professor Sh. Sirojiddinov, R. Zohidov kabi olimlarimizning bu boradagi izlanishlari chuqur ilmiy asosga egaligi bilan muhim qimmatga ega. Ular turli iqlisiga manbalar va ko‘plab nashrlarni qiyosan o‘rganib, So‘fi Olloyorning, ma’lum ma’noda, ilmiy biografiyasini yaratishga hissasi qo’shishdi. Bu borada ko‘plab oydinliklar kiritib, shoirning top ilgan yili 1663, vafot yili 1721-yillar ekanligini e’tirof etishdi<sup>178</sup>. “Risolayi Aziza”dagi ma’lumotlarning ko‘pi usozuzligini isbotlab, ko‘plab manbalar, xususan, “Tazkirayi Abdulmatlab Fahmiy” asariga tayanib, shoirning biografiyasini quyidagicha belgilashdi: “So‘fi Olloyor Samarqandiy shayxi dilasro’z So‘fi Navro’zning taniqli xalifalaridan. Hol ibtidosida yipoh bo’lgan. Otasini Olloquli va inisini Farhod otaliq deydilar. Ulari o’zbeklarning Samarqand va Buxoro Miyonkolidagi xitoyi qabilasining boshliqlaridan bo’lganlar. Farhodbiy Abulfayzxon davrida Samarqandda hokim va amirlik mansablariga erishgan. So‘fi Olloyor shayx Navro’zga irodat va inobat qilgandan so‘ng unga zohir va botin ilmlari eshkllari ochildi. Xosu avomga maqbul bo’ldi. Olimlar va amirlar uning suhbatiga oshiqdilar. Miyonkoldan Hisorning Dehinav tomoniga ketdi. Maylono Zohid Vaxshiyorining fayzosorli mozoridan yuqoriroqdagi Vaxshivor qishlog’iga bordi. U erda xonaqoh va uy qurdi. Uning qutlug’ quchimidan o’sha mintaqani ilonlar tark etdilar. O’sha erda 1136/1724-yilda dunyodan o’tdi”<sup>179</sup>. Olimlarimizning ta’kidlashlaricha, Sayyid Muhammad ibn Oxund Qozi Kamol tomonidan yozilgan “Tuhfat ul-ahbob” asarida 1696-yillardan boshlab So‘fi Olloyor haqidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarga kirib kela boshlaydi. Ularga asosan, So‘fi Olloyor Hoji Muhammad Habibulloh va Xalifa Navro’z Keshiy xizmatiga kelib, tariqat yo‘liga kiradi. U

<sup>177</sup> Ш. Сиројиддинов. Сўфи Оллоёр илоҳиети. Имом ал-Бухорий ҳалқаро жамгармаси наприёти. Ташкент, 2001. Риннид Зоҳид. Сабот ул-ожиззин. Т.: Туров замин зиё, 2015.

<sup>178</sup> Гўлзим. Ҳалқаро илмий анжуман материаллари. Техрон-Тошкент, 2005, 42-43-бет.

<sup>179</sup> Карапиг. Р. Зоҳид. Ўна асар, 14-бет.

shayx qo'lida 12 yil tahlil oladi. Sharq mamlakatlarida mashhur olim, karomatlar ko'rsata oluvchi vali darajasiga ko'tariladi.

So'fi Olloyor dini islam qonun-qoidalarini, tasavvuf ta'limoti mohiyatini, go'zal insoniy axloq mezonlarini yorituvchi bir qancha asarlar yaratgan. Uning, e'tirof etilishicha, 4ta asari bizgacha etib kelgan:

1. *Maslak ul-muttaqin*.
2. *Sabot ul-ojizin*.
3. *Maxzan ul-mutein*.
4. *Murod ul-orifin*.

Shoir 1699-yilda dastlabki asari hisoblanayotgan "Maslak ul-muttaqin"ni yozib tugatadi. Keyingi uch asarini 1700-724-yillar oralig'ida yaratgan. Bu davrlarda u Kattaqo'rg'on, Samarcand, Buxoro, Kesh, Nasaf, Vaxshivor kabi hududlarda umrguzaronlik qilgan. Umrining oxirgi damlarida Vaxshivorda yashagan. Shu erda vafot etgan. Qabri ham o'sha erda.

So'fi Olloyor diniy adabiyotning yirik namoyandasidir. Uning butun ijodiyoti islomiy ma'rifat bilan sug'orilgan. U o'zi sevgan tasavvuf ta'limotini o'zbekona sodda so'zlarda ifodalashga juda mohir. So'fi Olloyor Yassaviy va Mashrab singari o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lgan faylasuf allomadir. Shoir dunyonи islom nuri hamda tasavvuf timsollarini ko'zgusida ko'radi va u orqali badiiy aks ettiradi.

Adibning "Maslak ul-muttaqin" asari ilmda eng salmoqli merosi ekanligi e'tirof etiladi. U fors tilida yaratilgan fiqhga oid asardir: "So'fi Olloyorning kitoblari ichida eng salmoqlisi "Maslak ul-muttaqin" ekanligi ulamolarimiz tomonidan tan olingan. Chunki unda 100 dan ortiq fatvo kitoblaridan foydalananligan"<sup>180</sup>.

2009-yilda So'fi Olloyorning "Hidoyat ut-tolibin" asari tabdili vatanimizda chop etildi. U Farg'onada tug'ilib, keyinchalik Afg'onistonda yashagan Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon tomonidan "Sabot ul-ojizin"ning sharhi sifatida maydonga kelgan<sup>181</sup>.

*Adabiy merosi va «Sabot ul-ojizin» asari.* So'fi Olloyorning eng mashhur asari "Sabot ul-ojizin"dir. U Saudiya Arabiston, Pokiston, Turkiya kabi ko'p chet mamlakatlarda ham chop etilgan.

<sup>180</sup> Маслак ул-муттақин. Т.: Мовароңнахр, 2007, сўзбоши.

<sup>181</sup> Ҳидоят ут-толибин. Сабот ул-ожизин шархи. Напра тайёрловчи Озодбек Алимов. Т.: 2009.

lli ki marta sharh yozilgan. Bu asar dunyo xalqlarida katta qiziqish uyg'otganini ko'rsatadi.

"Sabot ul-ojizin" madaniy merosimizda muhim o'rin tutgan diniy-axloqiy va didaktik asar. U uzoq yillar XX asr boshlarigacha O'rta Osiyo maktab, madrasalarida darslik sifatida qo'llanib kelgingan.

Uning dunyo kutubxonalarida ko'plab variantlari mavjud. Xususan, O'zbekistonda – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 131ta – 78ta qo'lyozma, 53ta toshbosma nusxalari saqlanadi. Ulardan eng qadimiy qo'lyozma milodiy 1810-yilga, toshbosmaning eng qadimiysi esa 1847-yilga tegishli.

Asarning yaratilish tarixi, yozilish sabablari, mazmun-mohiyati haqida muallif tomonidan ancha ma'lumot berilgan. Jumladan, asarda islom dinining asosiy qoidalari, eng yuksak insoniy fazilatlar, tasavvuf ilmi borasida mubohasaga kirishilushi haqida axborot beriladi.

"Sabot ul-ojizin" dastlab fors-tojik tilida yozilgan. U "Maslak ul-muttaqin"ning o'zbek tiliga o'girilgan qisqartma variantidir. Keyinchalik turkigo'y qavmlar ehtiyoji va iltimosiga binoan So'fi Olloyorning o'zi uni o'zbek tiliga she'riy uslubda tarjima qilgan. Asar hajmi 12.000 baytdan ortiq. U katta-kichik bir qancha boblarga ajratilgan.

"Sabot ul-ojizin" muallifning o'zi ham ta'kidlaganidek, aqida kitobidir. "Aqida" so'zining lug'aviy ma'nosi bir narsani boshqasiga mustahkam bog'lamoqdir. Istiloh sifatida esa "aqida" musulmonlarni Qur'on va hadisi sharifda keltirilgan voqeahodisalar, tushunchalar bilan bog'laydigan e'tiqodlar (imon, i'shonch) majmuidir.

"Sabot ul-ojizin" keng xalq ommasi uchun mo'ljallangan aqoid (aqidaning ko'pligi) kitobidir. Shu sababli ham fiqhga oid aqoidlar munojot, rivoyat, hikoyatlar bilan muzayyanlikda, axloqiy pindnomaning go'zal namunasi sifatida yaratilgan. Shundan kelib chiqib olimlarimiz uni ilmiy-adabiy manba sifatida baholashgan. R. Zohidov asarni aqoidning ilmiy manbalari bilan qiyosan o'rganib,

So‘fi Olloyor hukmlari ularga har tomonlama mutanosib ekanligini aniqlagan<sup>182</sup>.

“Sabot ul-ojizin” asarining qurilishi ham o‘ziga xos. Unda yaxlit syujet chizig‘i yo‘q. Ammo, fikr-g‘oyalarni umumlashtirib, birlashtirib turuvchi mustahkam ildiz bor. U komil inson masalasi. Asardagi barcha hikoyatlar, mav’izalar, rivoyatlar aqoid bilan muzayyanlashgan holda kamolotning mohiyati, shartlari, belgilarini yoritishga qaratilgan. Shuning uchun ham bu asarni ma’naviyatimiz juda chanqoq, zamon va makon chig‘irig‘idan munosib o‘tgan axloqiy qobusnama, axloqiy qomus deb baholashimiz mumkin. Jumladan, asardagi Ismoil alayhissalom haqidagi hikoyatda insonning odamiyligini, ma’naviy boyligini ko‘rsatuvchi lafzida turish, so‘zga vafo qilish fazilati ta’sirli tasvirlanadi. Savbon hikoyatida kamtarlik, tamasizlik borasida ibratli saboq beriladi. Abdulloh Muborak hikoyatida o‘quvchi sabr va tavakkulga da’vat etiladi. Bu kabi asar tarkibidagi kichik hikoyatu rivoyatlar odamiylik mezonlarini belgilab berishga xizmat qiladi.

“Sabot ul-ojizin” kitobining oxirida So‘fi Olloyorning bir qancha ruboiy va g‘azallari ham kiritilgan. Ular shoir dunyoqarashi, shaxsiyati va iste’dodi borasidagi tasavvurlarimizni boyitadi. Tarjimai holi sahifalaridagi kemtikliklarni to‘lg‘azishga, kamolot tarbiyasiga xizmat etadi.

“Sabot ul-ojizin” ma’naviy ma’rifat beruvchi asar. U bugungi kun o‘quvchisi ko‘nglini ham uyg‘oqlikka, tiriklikka, bedorlikka, tozalikka boshlovchi buyuk kuchga ega. U insoniyatni g‘aflatdan ogohlantiradi. Uni engish sir-sinoatidan xabardor etadi.

*Noyob badiiyat namunasi.* Chuqur g‘oyalarni targ‘ibiga bag‘ishlangan “Sabot ul-ojizin” asari badiiy balog‘atning ham nodir namunasidir. Asarning o‘ziga xosligi o‘quvchiga aqidalar mohiyatini aniq, ta’sirli, ishonarli etkazib berishida va badiiyatida, yangicha topilmalarda namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Shoir nazmida inson ma’naviy kamolotining asosiy omili sifatida muhabbat tasvirlanadi. Uning nazarida muhabbat har

<sup>182</sup> Р.Зохидов. “Сабот ул-ожизин” – илмий-забарий манба. Т.: Мухаррир, 2012.

qanday ezgulikning elchisi, muhabbatsizlik esa har qanday yovuzlikning doyasidir. So‘fi Olloyor kuylagan ishq – Ollohga muhabbatdir. Zotan, Ollohga muhabbatdan e’tiqod, muhabbatsizlikdan esa e’tiqodsizlik tug‘iladi.

*Kel, ey tolib, ko‘zing ibrat bilan och,*

*Muhabbatsiz kishidin qush bo‘lib qoch.*

*Muhabbat ahlining jo‘yoni bo‘lg‘il,*

*O‘shalkim uchradi, qurboni bo‘lg‘il.*

*Kishining ko‘nglikim begona bo‘lsa,*

*Erur dushman agar hamxona bo‘lsa.*

*Muhabbatsizki bo‘ldi har qayu zot,*

*Agar farzandi shirindur, erur yot.*

Ushbu sodda va samimiyl misralar falsafiy fikrlarning hayotiy tajribadan o‘tib quyulgan badiiy umumlashmasidir.

Ma’naviy kamolotning asosiy sharti o‘zlikni anglamoqdir. O‘zlikni anglamoqlikning birlamchi belgisi esa Haqni tanimoqdir.

*Nedur qulluq, aning mushitoqi bo‘lmoq,*

*O‘zidin foni, Haqg‘a boqiy bo‘lmoq.*

*Tanimoq Tangrini – tonmoq havodin,*

*Keyin turmoq fioli noravodin.*

Olloyorning fikricha, o‘zlikdan kechish, o‘zlik g‘ururini tark etib, Haqning inon-ixtiyoriga o‘tish abadiylik saodatidir. Kibru havodan, manmanlik mag‘rurligidan voz kechish Tangrini tanishdan boshlanadi. Tangrini tanigan o‘zligini anglaydi va noravo faoliyatdan, insoniylikka nomunosib xatti-harakatlardan albatta tiyiladi.

Insonning ma’naviy faoliyatini uning ruhiyati boshqaradi. Ruhining mazhari esa ko‘ngil. Shunday ekan, odam faqat yaxshi faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun uning ruhiyati musaffo, ko‘ngli pok bo‘lishi kerak. Bu haqda Olloyor quyidagicha badiiy talqin beradi:

*Hama a'zo raiyatdur, ko 'ngil shoh,  
Amonlig' bo 'lg'usi shoh adlidin roh.  
Agar sulton o'zi qilsa yamonlig',  
Qachon bo 'lg'ay raiyatda amonlig' ?!*

Shoir inson vujudini harakatdagi bir jamiyatga o'xshatadi. Vujudning barcha a'zolarini xalqqa, ko'ngilni esa xalqni boshqaruvchi shohga qiyoslaydi. Agar shoh adolatli bo'lسا xaloyiqni to'g'ri yo'lga boshlaydi, davlat va jamiyat ravnaq topadi. Agar shohning o'zi adolatsiz bo'lسا, fuqaroni noto'g'ri yo'lga yo'naltiradi, davlat va jamiyat tanazzulga uchraydi.

Demak, ezgu faoliyat ko'ngilni poklashni taqozo etadi. Ko'ngilni poklash esa uzlusiz riyozatni talab qiladigan hayotiy jarayon. Ma'naviy kamolotni orzulagan inson, qanchalar mashaqqatli bo'lmasin, riyozatni ixtiyor etadi. Chunki riyozat, oxir-oqibatda, inson ruhiga rohat-farog'at etkazadi. So'fi Olloyor ushbu falsafiy fikrni badiiy libosda hadya etadi.

*Riyozat mevasidir misli yang 'oq,  
Agarchi zohiri shax, botini yog'.  
Maishat zohiri narm, oxiri qahr,  
Yilonni toshi yumshoqdir, ichi zahr.*

Shoirning ajoyib o'xshatishicha, riyozatning mevasi bamisli yong'oqdir. Riyozatning tashqi ko'rinishi mashaqqat, ammo ichki mohiyati rohat bo'lganidek, yong'oqning po'chog'i qattiq, ammo mag'zi yog'day yumshoq va yoqimlidir. Aysh-ishrat esa ilonga o'xshatiladi. Maishatning tashqi manzarasi yoqimli, dilkash, biroq oqibati qahr-g'azab, mast-alastlik mojarolari bilan yakunlanadi. Ilonning ham badani yumshoq va chiroyli, ichi esa to'la zahar Shuning uchun shoir riyozat tuprog'iga har kun bosh qo'yishga - ibodat qilishga chorlaydi.

*Riyozat xokiga har kecha ur bosh,  
Yurak qon bog'lasa, la'l otanur tosh.*

Zotan, muhabbat dardida riyoza tashqagan yurak qon bog'lab, hozir toshidek qip-qizil tus oladi. Ko'ngil mulki dard mazhargohiga aylongach, insonning hamma uzvi poklanishga kirishadi. Shoir shuni tilab munojot etadi:

*Yomon ishdin hama uzvimni pok et,  
Ko'ngil mulki maqomi dardnok et.*

So'fi Olloyorning aksariyat she'rlari sermag'iz yong'oqqa o'shiydi. Ularda mag'zi to'q hayotiy, falsafiy fikrlar nasihat tozida lo'nda ifodalangan. Bu nasihatlar ma'naviy barkamol insonni kamol toptirishga qaratilgan. Xususan, sharqona odob, nutq va muomala madaniyati alohida o'rinn tutadi.

*Agar bo 'lmasa sanda so 'zg'a yetmak,  
Na davlatdur sukut etmak, eshitmak.  
Eshit, ammo qayu so 'z bo 'lsa behroq,  
Qulog'ingga ani halqa qilib toq.*

Ushbu baytlarda nutq odobining go'zal sabog'i mujassam. Shoirning fikricha, davrada yoxud anjumanda so'zlashga fursat yo'nib yetmasa, sukut saqlab tinglamoqlik ham katta davlat ekan. Darvoqe, suhbatdoshni tinglay bilish, muhim gapni nomuhimididan ayrib o'zlashtira olish ham zarur qobiliyat. Buning uchun sabr-toqat, fahm-farosat kerak. Hamma gapni xotiraga joylab olish shart emas. Lekin eng muhim gapni uqib, doimiy hamroh halqadek qulog'qa "taqib" olish muhimdir.

Kerak joyda so'zdan saqlanish nutq madaniyati bo'lgani angari, kamgaplik, me'yorida so'zlash ham nutq odobidir.

*Kalidi ganji ma 'nikim, "zabon" dur,  
Anga bir nuqta ko 'b bo 'lsa, "ziyon" dur.*

Til ma'no xazinasining kalitidir. Lekin arabi yozuvdagisi "zabon" so'ziga ortiqcha bir nuqta qo'yilishi bilan, u ziyonga

aylanadi ( ). Nutq, suhbat, munozaradagi ortiqcha gap-so‘zlar ham faqat ziyon keltiradi. Til orqali inson ko‘ngliga duru gavharlar sochiladi. U tufayli dunyo mohiyati zabonga ko‘chadi. Mohiyat go‘zal liboslarga burkanadi. Ammo til o‘z me’yorini unutsa, so‘zni behaddu hudud ishlatsa, zararga aylanadi. Shoir bu mazmunni juda original misralarda ifodalaydi. Kamu xo‘b so‘zlash donolikning va behuda ko‘p so‘zlash nodonlikning belgisi ekanligini “**zabon**”ning arab alifbosidagi yozuv shakli orqali juda chiroyli aks ettiradi. Shoir so‘zning tashqi o‘zgarishidan chuqur ma’noli mohiyatni, donishmandona xulosani ifodalashda ustalik bilan foydalangan. So‘fi Olloyor o‘z ijodida bu kabi harfiy san’at (kitobat) turlaridan juda ko‘p foydalangan. Adabiyotni o‘ziga xos topilmalari bilan boyitgan. Bu san’at orqali hikmatli so‘z darajasidagi go‘zal fikrlarni, xulosalarni bayon etgan.

Badmuomalalik, sanchib-sanchib gapirish kishini eldan chiqaradi, el undan yuz o‘giradi:

*Kishi sanchiq so‘z aytsa, san chiq ondin,  
Yomondin qoch, yomondin qoch, yomondin.*

Olloyor sabog‘icha, xushmuomalalik do‘stlikning eng muhim shartlaridandir. Shoir bu boradagi har bir pandini noyob badiiy tamsillar bilan izohlaydi.

So‘fi Olloyor ijodida mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan ko‘plab badiiy san’atlardan unumli foydalanadi. Ayniqsa, shoir inson xarakterini yoritishda tabiatdan dalillar izlaydi. O‘ziga xos, kutilmagan o‘xshatishlar, jonlantirishlar topadiki, ulardan hayratlanamiz. Tabiatga yana bir qadar yaqinlashgandek bo‘lamiz:

*Kulub mehmon qoshig‘a chiqg‘il, ey qul,  
Shajar mevadin oldin ko‘rsatur gul.*

Mehmon kutar ekansiz, mehmondorchilikdan avval mehmonga peshvoz chiqib, tabassum hadya eting. Avval xushmuomala izhor

qiling, keyin taom va nozu ne'matlar torting. Zotan, tabiatdan o'nak oladigan bo'lsak, daraxt meva berishdan avval gul ochadi.

"Sabot ul-ojizin" badiiyatida eng yaqqol ko'zga tashlanadigan jihat bu shoirning tajnis san'atidan nihoyatda keng foydalanganidir. Bu san'at omonim so'zlarni qo'llashga asoslangan. Asarning har bir tahifasida o'nlab tajnis bilan muzayyan misralarga duch kelamiz:

*Qanoat ma'daniga och ko'zing och,  
Tama' bo'yi ko'rinxay bo'yidin qoch.*

Ushbu baytda tolib sabr-qanoatga da'vat etiladi. Birinchi mi'radagi "och" so'zi avval ochlik, ochko'zlik, keyin esa ochmoq, bo'zni ochish ma'nolarida ishlatilgan. Ikkinci misrada "bo'y" so'zi bilan tajnis yaratilgan. Dastlabki "bo'y" tamaning qaddi basti, tumigirlik tuyg'usi ma'nosida, keyingi "bo'y" – hid ma'nosida qo'llanilgan. Baytda bu san'atdan foydalanish muallifga qisqa hajmda yirik mazmunni ifodalash imkonini yaratgan.

Bu san'at asardagi ixchamlikka, tilining sodda, ravon bo'lahriga, xalqona qisqalik va donolikka erishishga sabab bo'lган. Ajar o'quvchini o'ylashga, fikrlashga majbur etadi. Uni hayratlantira oladi. Ko'ngilda hayratning uyg'onishi esa faqat ozgulik belgisidir. Shunday ekan, shoir o'z maqsadiga erishgan. Zoro, uning muddaosi ham insoniyatga yomonlikdan qochish yo'llarini ko'rsatish va uni abadiy yaxshilikka oshno etish edi.

Xushmuomalalik mo'min-musulmonlik madaniyatidir.

*Yamon til shumlig'iki, jong'a urg'ay,  
Gahe jordin o'tub imong'a urg'ay.  
Musulmon o'g'lig'a yaxshi qiliq qil,  
Tilingni xush, chiroyingni iliq qil,*  
deydi So'fi Olloyor.

Uzoq muddat arazlab yurmoq, kina tutmoq musulmonlik odobidan emas:

*Yomonlarning ishidur kina tutmoq,  
Musulmonlik – yomonlikni unutmoq.  
Otang erdur, sanam erdek qiliq qil,  
Yomonlig‘ aylaganga yaxshilik qil.*

Bular So‘fi Olloyorning shohbaytlaridir. Ular sharqona insonparvarlikning So‘fi Olloyorona oliy ifodalaridir. So‘fi Olloyor saboqlarini ma’naviyatimizga singdirish komil inson bo‘lishning garovidir.

**Tayanch tushunchalar:**

*Shariat, haqiqat, aqoid, sirot, tajnis, tariqat, ma’rifat.*

**Savol va topshiriqlar:**

1. *So‘fi Olloyor ijodining mumtoz adabiyotdagi o‘rni haqida so‘zlang.*
2. *“Sabot ul-ojizin” asarini mutolaa eting.*
3. *So‘fi Olloyor dunyoqarashining o‘ziga xosligi nimada?*
4. *“Qissai Mashrab” asaridagi So‘fi Olloyor va Mashrab uchrashuvi haqidagi epizodni sharhlang.*
5. *Adibning adabiy merosi ko‘lami haqida nimalarni bilasiz?*
6. *Shoir asarlarining mavzu ko‘lami va g‘oyaviy xususiyatlarini aniqlang.*
7. *So‘fi Olloyor “Sabot ul-ojizin” asarining badiiy talqini.*
8. *“Sabot ul-ojizin” asarining kompozitsiyasi va unda hikoyatlarning o‘rni.*
9. *Quyidagi baytda qanday badiiy san‘at qo‘llangan?  
Kalidi ganji ma‘nikim, zabondur,  
Anga bir nuqta ko‘b bo‘lsa ziyondur.*

**Asosiy adabiyotlar:**

1. *So‘fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. T.: 1991.*
2. *Hidoyat ut-tolibin. / “Sabot ul-ojizin” sharhi. Nashrga tayyorlovchi Ozodbek Alimov. T.: 2009.*
3. *Tojuddin Yolchiqu. Risolayi Aziza/ Tuzuvchi B.Hasan. T.: Xalq merosi. 2000.*

4. So'fi Ollohyor. Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. Tehrondashkent, 2005.
5. Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti. T.: 2001.
6. Suvonqulov I. So'fi Olloyor. T.: 1995.
7. Suvonqulov I. So'fi Olloyorning hayoti va ijodi. F.f.d . ilmiy darsayini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.
8. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T.: 1991.
9. Adizova I. Boqiylik saodati. Risola. T.: 1997.
10. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: 2000.
11. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. T.: Fan, 2006.
12. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. T.: Ma'naviyat, 2003.

## BOBORAHIM MASHRABNINGHAYOTI VA IJODI (1640 – 1711)

### *Reja:*

1. *Boborahim Mashrab hayoti va ijodi manbalari.*
2. *Boborahim Mashrabning hayoti, avliyolik xislatlarining namoyon bo‘lishi va sarguzashtlari.*
3. *Mashrabning ilohiy kechinmalari va umuminsoniy fazilatlari.*
4. *Mashrab she’riyatining g‘oya va mavzu ko‘lami, ruhi uslubi, badiiy xususiyatlari.*

***Boborahim Mashrab hayoti va ijodi manbalari.*** O‘zbek mumtoz adabiyotimizda o‘ziga xos uslubga, ijodiy yo‘lga ega bo‘lgan shoirlarimizdan biri Boborahim Mashrabdir. Boborahim Mashrabning lirikasi maxsus devon–tarzida tartib berilmagan. Uning merosi bizga “Qissai Mashrab”larning ko‘plab nusxalarini orqali etib kelgan. U Rindiy, Umam, Mahdiy, Zinda va Mashrab taxalluslari bilan she’rlar yozgan.

Mashrab taxallusining ma’nolari har xil izohlanib kelingan. Shulardan ikkitasi haqiqatga yaqin keladi. Ular bir-birining mazmunini to‘ldirish uchun ham xizmat qiladi. “Mashrab” so‘zi – maslak, maslakdosh degan ma’nolarni ifodalaydi. “Qissai Mashrab”da ham shunga yaqin izohlanadi: “Har kishi manga rafiq bo‘lsa, man anga rafoqat qilurman. Har qozonga tushsam qaynaydurman, aning uchun otim Mashrab qo‘ydum”<sup>183</sup>. Demak, kimki, menga do’st bo‘lsa, man ham unga do’stdirman. Bu erda ham g‘oyaviy yo‘lning birligi, maslakdoshlik haqida fiki bildirilyapti. Taxallusni yana “Ilohiy sharobdan nasibali” degan ma’noda ham sharplash mumkin, ilohiy ishq bilan oshno yurak, albatta, insonlarni ezgulik sari etaklaydi. Ularning to‘g‘ri yo‘l topishida rahbar-rahnomalik qiladi.

Shoir faoliyatiga karomatpesha bir avliyo, darvesh, qalandar sifatida xalq katta ixlos va ehtirom bilan qaragan. Shuning uchun

<sup>183</sup> . Qissayi Mashrab. T., 1992, 32-bet. Mashrab hayoti va shaxsiyatiga oil barcha ko‘chirmalar shu manbadan olinadi.

o‘z xamonasidan boshlab Mashrabning asarlari keng yoyilgan. U bujudi ko‘plab rivoyatlar yaratilgan. Majzub Namangoniyning “Tazkirat ul-avliyo”, Is’hoq Bog‘istoniyning “Tazkirai qalandaron”, Maleho Samarqandiyning “Muzakkiri as’hob” kabi tazkiralarda, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Mirzo Olimming “Ansabus-salotin” asarlarida ham shoir haqida ayrim ma‘lumotlar, mulohazalar uchraydi. Mashrabning shaxsiy siyomosi, ijodkor sifatidagi qiyofasi haqida mukammalroq tasavvur hosil qiluvchi manba bu – Pirmat Setoriy tomonidan tuzilgan “Qissayi Mashrab”dir. U XX asr boshlariga qadar “Devonayi Mashrab”, “Shoh Mashrab”, “Eshon Mashrab”, “Qissayi Mashrab” kabi nomlari bilan juda ko‘p nusxalarda kitobat qilingan.

Mashrab ijodi, faoliyati bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida mu‘sharqshunos olimlari qiziqashoshchilik namunasi sifatida jiddiy o‘rganishga loyiq ijodkor shaxsiy siyosiy shohi bilan nashr ettirdi. 1895-yilda N. I. Veselovskiyning “Vostochnye zametki” asarida ham Mashrab shohi bilan nashr ettildi. 1910-yilda N. S. Likoshin shoir haqidagi qissani rus tiliga tarjima qildi. Sharh, izohlar bilan nashr ettirdi. 1923-yil V. L. Vyatkin shoir haqida maqola e’lon qildi. Unda Mashrabning xalq orasida mashhurligi, asarlari keng tarqalgani ta’kidlandi. Shu maqolada ilk bor ikki Mashrab masalasi ko‘tarildi.

Shoir hayoti va ijodi borasida o‘zbek adabiyotshunos olimlarimizdan Izzat Sulton, V. Zohidov, I. Mo‘minov, G‘afur Qulom, A. Hayitmetov, A. Abdug‘afurov, E. Shodiyev, V. Abdullayev kabilar ham bir qancha maqolalar e’lon qilishgan. Ularda Mashrab shaxsi, ijodi bilan bog‘liq turli masalalar yoritib berilgan.

Mashrabshunosligimizni kuzatib, uzoq yillar siyosiy mu‘tamlaka ta’sirida shoir ijodi soxta talqinlarga duchor etilgанинг guvohi bo‘lamiz. Jumladan: 1. Mashrab ijodidagi shohiy muhabbat dunyoviy muhabbat sifatida talqin etiladi. 2. U dinni rad etuvchi – dahriy, deya baholanadi. 3. Shoir she’riyatidagi jo‘shqin isyon ham sinflar manfaati bilan bog‘lab izohlanadi. Adib qiyofasi kambag‘allar sinfi vakili sifatida talqin etiladi.

Ammo, mustaqilligimizning benazir sharofati bilan Boborahim Mashrab ijodi o‘zining xolis bahosini ola boshladi. Olimlarimiz uning asarlariga teranroq nazar tashlashga imkon topdilar. Jumladan, N. Komilovning “Kamoli nuri rahmatman”<sup>184</sup> maqolalarini, N. Jumaxo‘janing “Milliy istiqlol mafkurasi va adabiy meros” nomli doktorlik dissertatsiyasidagi Mashrabga oid ma’lumotlarni aytish mumkin. Mashrabning hayoti va ijodi mustaqillik davri darsliklarida yangicha tahlil va talqin etildi. Masalan, umumta’lim maktablarining 10-sinf “O‘zbek adabiyoti” darsligida Mashrabning hayoti va ijodi birinchi marta keng yoritildi<sup>185</sup>. Mazkur ilmiy-ma’rifiy ishlarda shoir dunyoqarashi, falsafasini atroflicha yoritishga harakat qilingan.

Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish borasida matnshunoslik yo‘nalishida ham ancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1958 yil birinchi bor P. Shamsiyev va A. Hayitmetovlar tomonidan Mashrabning “Tanlangan asarlar”i –nashr etildi. Bu 1960-yilda qayta nashr bo‘ldi. 1963 va 1971-yillarda A. Abdug‘afurov Mashrab asarlarining to‘laroq nashrini yaratdi. 1979-yilda V. Rahmonov tomonidan yana mukammalroq nashr tayyorlandi. Unga yozilgan “So‘zboshi” ham ma’lumotlarining yangiligi, shou asarlariga chuquarroq yondashilganligi bilan katta ilmiy qimmatga ega. Mashrab asarlarining nisbatan to‘liq nashri 1990-yilsamarqandlik adabiyot muallimi Jaloliddin Yusupov tomonidan amalga oshirildi. Kitobda keltirilgan “So‘ngso‘z”da ushbu nashrning oldingilaridan tafovutlari, afzallikkleri batafsil sharhlab berilgan. Mashrab hayoti va ijodiga oid muammolarga birlanishi manbalar vositasida aniqliklar kiritilgan. Mashrabning taxalluslari, “Mabdayi nur”, “Kimyo” asarlarining muallifi masalasi, O‘tta Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlariida Mashrab taxallusi bilan ijod etgan shoirlar borasida yangi xulosalar bayon qilingan, ravshanliklar kiritilgan.

Ko‘ringanidek, Mashrab hayoti va ijodi xususida ancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo, biz hali shoir shaxsini,

<sup>184</sup> . N.Komilov. Tasavvuf. Ikkinci kitob. T. 1999, 131-bet.

<sup>185</sup> . Б. Қосимов, Н. Жумахұжа. Ўзбек адабиеті. 10-сinf учун дарслик. 1997-2003 жилдардагы 4 нашри.

dunyoqarashiyu falsafasini, asarlari mohiyatini to'laligicha o'rganganimiz yo'q. Bu borada hali echimini kutayotgan muammolar juda ko'p. Boborahim Mashrabning adabiy merosi bo'ga alohida va mukammal devon holida etib kelmagan. U "Devonayi Mashrab" qissalari, bayozlar va turli majmualar tarkibida parokanda holatda saqlangan. Mashrabning tarqoq she'riy merosi 1958-1980-yillarda filologiya fanlari doktorlari, professorlar Abduqodir Hayitmetov va Abdurashid Abdug'afurov, filologiya fanlari nomzodlari Vahob Rahmonov hamda Komiljon Ibroilovlar tomonidan umumlashtirilib, asarlar to'plami tarzida bir necha bor nashr etilgan.

Mashrabning nisbatan mukammal asarlar to'plami Jaloliddin Yulupov tomonidan G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti orqali "O'zbek adabiyoti bo'stoni" sirasida "Mehrbonim, qaydasan" nomi bilan 1990-yili nashr etildi. Kitobdan shoirning g'azal, mustazod, murabba, musaddas, muabba turlaridagi asarları o'rın olgan.

Boborahim Mashrabning bizgacha she'rlaridan tashqari "Mabdayi nur" va "Kimyo" asarları ham etib kelgan, deb taxmin qilinadi. Adabiyotshunosligimizda bu ikki asar muallifi borasida uzoq yillar bahs-munozara olib borildi. Ayrim olimlarimiz ularni Boborahim Mashrabga nisbat berishsa, ayrimlar ular Mashrabi nomiy taxallusi bilan ijod etgan Mullo Ro'ziboy Oxundning ajaridir, deyishgan. Ammo, so'nggi yillarda bu munozaraga biroz oydinlik kiritilgandek bo'ldi. Bu asarlar tuzilishi, mazmuni va jroyaviy yo'nalishiga ko'ra, tili, badiiy vositalarining ishlatilishiga ko'ra va Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida qaylanayotgan ayrim qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga ko'ra Boborahim Mashrabnikidir, degan xulosa etakchilik qilib turibdi. Biroq bu borada uzil-kesil va qat'iy hukm chiqarishga hali erta. Huning uchun manbalarni juda chuqr taqqoslab tekshiradigan jiddiy ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi taqozo etiladi. O'shandagina "Mabdayi nur" va "Kimyo" asarlarining muallifligi masalasida aniq bir to'xtamga kelish mumkin. 1997-yilda "Mabdayi nur" asari

professor Ismatulla Abdullayev tomonidan hozirgi yozuvimizda nashr etildi. Ammo mualliflik masalasi hamon bahsli.

*Boborahim Mashrabning hayoti, avliyolik xislatlarining namoyon bo‘lishi va sarguzashtlari.* Boborahim Mashrab hijriy 1050, milodiy 1640-yili<sup>186</sup> Namanganda kambag‘al kosib Valibobo bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan. U otasidan yosh etim qoldi. Boborahim maktab ta’limini namanganlik taqvodor muallim qo‘lida oldi. Uning bolaligi, tahsil yillari haqida “Qissayı Mashrab”da ko‘p rivoyatlar keltirilgan. Ulardan biz Boborahim yoshligidan ilohiy jazba tekkan, g‘ayrioddiy, g‘ayb asroridan voqil bir inson bo‘lganini ko‘ramiz. “Qissayı Mashrab”da hikoya qilinishicha, ilk tahsil kunlarining birida ustozi bilan Boborahim o‘rtasida quyidagicha suhbat bo‘lib o‘tadi.

“Ustozlari aydilar: “Ey o‘g‘lim, Bismillohir rahmonir rahum, “Alif” deng!” Shoh Mashrab “Alif” dedilar. Ustozlari: “Be” deng, dedilar. Shoh Mashrab ustozlaridan so‘radilarki: “Alif”ni ma’nosi nima va “Be”ning ma’nosi nimadur, ey domla?” Ustozlari achchig‘lanib, dedilarki: “Ey bachchayi nodon, san kim, bu ma’nini so‘ramoq kim?” Shoh Mashrab aydilar: “Ey domla, “alif”ni ma’nosini siz aytmasangiz, man aytarman”. Ustozlari aydilar: “Ey o‘g‘lum, “alif”ni ma’nisi nimadur?” Shoh Mashrab aydilar: “Domla, “alif”ni ma’nisi birdur. Ul sababdin “Be demasman. Mundin o‘tmak xatodur”. Ustozlari bu so‘zni eshitib, hayronbo‘lib qoldilar”. Chunki shunday yoshda olam va odamning mohiyatini bunchalik teran anglash g‘ayri odatiy hol edi. Bu rivoyat bizni Mashrab dunyoqarashining eng muhim asrori bilan oshno etadi. U butun borliqni Ollohnning zuhuri deb bilishini, Olloh bitta boshqa barcha mavjudot uning tajallisi deb tushunishini anglatadi. Ushbu suhbatda etti yashar bolaning ustozini hayratda qoldirishi Mashrabdagagi valilik xislatining ilk belgisi edi. Mashrabning bu so‘zлari juda chuqur falsafiy ma’noga egadir. Ma’lumki, arab alifbosidagi birinchi harf – “Alif” abjad hisobida bir raqamini anglatadi. Bu hol Mashrab nigohida ramziy ma’no kasb etadi. U “Alif”ning birligida Ollohnning yakkayu yagonaligini ko‘radi. “Be”

<sup>186</sup> Илмда Майрабнинг түғилган йили тўғрисида турли баҳсли қарашлар бор. Бу муаммо 53 ечимини топганича биз мазкур санада тухтадиб турамиз.

harfi ikki raqamini bildiradi. Binobarin, “Be” harfini talaffuz qilish yosh Mashrabga Ollohn ni ikkilantirish, shirk keltirish, uni sherikdor qilishdek tuyuladi. Boborahimning “Alif”dan o’tmaslik, “Be” demuslik haqidagi qat’iyati bo’lajak avliyoning Islom dinidagi moniy tayanch rukn -- Tangrining biru borligini iqror etuvchi imon-tiqodning ramziy ifodasidir. Keyinchalik Mashrab ulug’ shoir va avliyo bo’lib etishganida, bu imon uning badiiy asarlarida mukammal dunyoqarash tarzida aks etgan. Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul-avliyoyi turkiy” kitobida shunday suhbat keladi: “So‘radilarkim: - Vali kimdur? Shayx Abu Hafz dedi: - Vali ildurkim, anga karomat martabasini bergaylor, ammo o‘zining u birla ishi bo’lmaq ‘ay”. Mashrab karomat martabasiga muyassar bo’lgan valiyulloh adabiy siymo edi.

Mashrab yoshligidanoq majnuntabiat, qalandarvash, so‘fisurat qiyofa kasb etib boradi. Uning g‘ayritabiyy odatlari, so‘zları, yurgan yo‘lida aytadigan baytu g‘azallari ota-onasi va xaloyiqni hayron qoldiradi. Onasi ne orzu-havaslar bilan o‘g‘liga yangi liboslar kiygizza, Mashrab duch kelgan ojiz bechoralarga kiyimlarini echib berar va o‘zi yalang‘och yurar edi. Ota-onasi intirob bilan buning sababini so‘raganlarida, u “men onadan libos bilan tug‘ilmaganman. Shunday ekan, yalang‘och yuraveraman” qabilida javob berardi. Bu so‘filik tariqatidagi qalandariya ulukining zohiriyl alomati edi. O’n besh yoshga etgan Boborahim qaerda go‘riston bo‘lsa, ziyorat qilib, odamlarning suyaklarini ko‘rib: “Ey odamzod, oxir o‘lub boshingga tushadurgon ish budur”, deya yig‘lab yurar edi. Inson oxiratini idrok etish, dunyo moliga hamda vafosiga e’tiqod qo‘ymaslik kabi bu amallar yosh Mashrab yujudidagi mavjud avliyolik xislatlardan dalolat berardi. O‘g‘illaridagi bu xislatlarni tushunmay, ota-onas xavotir va tashvishga tushib, Mashrabni o‘scha davrdagi yirik taqvodor, piru murshidlardan biri – mullo Bozor oxundga uchrashtiradilar.

Mashrabning o‘tkir zehnini ko‘rgan zamonasining eng ulug’ shayxlaridan bo’lgan mulla Bozor oxundunga alohida e’tibor bilan qaraydi. Mashrab pirning huzurida diniy va tasavvufiy falsafani o‘rganadi. Mansur Halloj, Farididdin Attor, Nasimi, Ibrohim

A'dham dunyoqarashi bilan tanishadi. Hofiz, Lutfiy, Navoyi she'riyatining fayzosor navolaridan bahramand bo'ladi. Ularning ko'plab asarlarini yod oladi. Ulardan ilhomlanib, o'z tuyg'ularini ruhiyatining rang-barang manzaralarini ifodalab o'ziga xos asarlar yarata boshlaydi. Mashrab "xosayi Xudoyi taolo" bo'lmish ilmi g'aybdan "zo'r masala" so'rab, mullo Bozor oxundni ham lol qoldiradi.

Mashrab Tangri taoloning muhabbat yo'lida o'rtangan chinakam devonavor oshiq ekanligini birinchi bo'lib mullo Bozor oxund payqaydi. Chunki Mashrab yurgan yo'lida oshiqona baytug'azallar aytib, muhabbat bozorini qizdirayotgan qalandar bo'lib etishayotgan edi.

Ayni paytda, Mashrab ham mullo Bozor oxunddan zo'r ixlos bilan ta'lim oladi. "Qissayi Mashrab"da keltirilgan bir g'azalda ustod Haq yo'lida jon bergen, ichlari nurga to'lgan oshiqlarning piri murshidi sifatida vasf etiladi:

*Ma'rifatni gulzori mullo Bozor devona,  
Oshiqlarni sardori mullo Bozor devona.  
Yo'qtur aslo kinasi, bahri urfon siynasi,  
Nuri Haq oyinasi, mullo Bozor devona.*

O'ziga xos fe'l-atvorga ega bo'lgan Mashrab tabiatini mullo Bozor oxundgina yaxshi tushunadi va hatto, darveshtariat shoirning qismat tilsimi Qashqardagi Ofoq xoja qo'lida echilishini ham bashorat qiladi: "Har kim Mashrabga ozor bersa, man ul kishidin ozor toparman. Hargiz daxl qilmanglar. Isoyi ham o'z yo'lig'a, Musoyi ham o'z yo'lig'a. Ammo Mashrabning piri ruxsat kunandasи Qashqardadur. Ishi anda tamom bo'lur". Mashrab Namanganda har tomonlama puxta bilim olgandan keyin, undagi g'ayritabiiy layoqatni ko'rgan ustozi uni Qashqarga Ofoq xoja huzuriga bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida yuboradi.

Boborahim Mashrab Qashqarda istiqomat qiluvchi mashhur Ofoq xojaga g'oyibona ixlos va muhabbat paydo qiladi. "Qissayi Mashrab"da Ofoq xojaning tasavvuf tariqatidagi mavqe-martabasi

to‘risida quyidagicha ma’lumot beriladi: “*Ma’niyi Ofoq uldurki, Chatbul Olam*” degan bo‘lur. Dunyoda ikki Ofoq o’tubdurlar: birlari Xoja Abduxoliq G’ijduvoniy, yana birlari hazrati Ofoq o‘qandurlar”. Mashrab pir axtarib, murid tutinish uchun Qashqarga boradi. Baliqchi, Andijon, O’sh shaharlarini manzil-bamanzil kezarkan, shoh Mashrab qalandarvor zikri samo qilib, baytu g’azal o‘qib, xaloyiqni hayronlikda qoldirib, Qashqarga etadi. Ofoq xojaostonasida xokipo bo‘lib, unga qo‘l berib, murid intinadi:

*Qo‘lum oling, yo pirim, manda toqat qolmadi,  
Yo‘lg‘a soling, yo pirim, manda holat qolmadi...*

Kimyonazar Ofoq xoja Mashrabdag'i ilohiy iste'dodga ravnaq bag'ishlaydi. “*Shul podshohim Mashrabni boshini tizzalariga olib, hotindin xabar oldilar ersa, Mashrabni dilini charog‘ig‘a yog‘ qiyib, filitasini tayyor qilib, ravshan qilg‘oni bir piri komil tobmay surgan ekan. Hazratim aydilarki: “Ey so‘filar, sizlar guvoh bo‘linglar, bu devonaning otini Mashrab qo‘ydum, ollohu akbar”, dedilar”*”. Shundan e’tiboran, Boborahim – Mashrab taxallusi bilan mashhur bo‘ldi.

Mashrab Ofoq Xoja dargohida 1665-yildan boshlab 7-yil sizmat qildi. Uch yil o‘tin tashidi, yana uch yil mashkda suv tashidi. Bir yil ostonada yotdi. Bu etti yilni u atigi bitta po‘stin kiyib o‘tkazdi. Yozda uning charmini kiysa, qishda yungini kiyar edi. Muridlik burchi, pirning parvarishi va Tangri muhabbatiga miyuassar bo‘lish shunday riyozat chekishni taqozo etardi.

Mashrab ilohiy ishqning shunday javonmard oshuftasiga aylanib boradiki, uning turish-turmushi faqat ma’shuqi mutlaq – Tangri taolo hajrida fig‘onu nolalar chekish, uning visolini cheksiz o‘ttanish va armon bilan orzulash, jamolini sog‘inib, tinimsiz vasf etib, zikru samoga berilish, riyozat chekish, yodini dilida takrorlab, dargohiga yo‘l izlab, mudom safarda bo‘lishdan iborat edi.

Shu yillarda u tariqat bosqichlarini, amaliyotini bosib o‘tdi. Tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini she’riyatiga olib kirdi. “Qissayi

Mashrab”dagi rivoyatlar orqali biz Mashrabning ruhiy takomil bosqichlari haqida ham xulosalar chiqarib olishimiz mumkin. Tasavvuf ta’limotida Olloh asrorini o’rganishning ikki yo’li mavjud:

1. Ilmi qol. U mantiqiy tafakkurga asoslangan.
2. Ilmi hol. U ruhiy takomil darajalariga tayanadi.

Mashrab Ofoq Xoja huzurida ana shu ilmi hol tahsilini oldi. Shu erdag'i hayoti paytida shoir buni e'tirof etgan o'rinalar bor. “*Bildiki, ilmi holni oldida ilmi qol bir kasb*”.

Ofoq Xoja kanizagi bilan Mashrab o'rtasidagi munozara ham har xil sharhlanadi. Kimdir bu munozarada dunyoviy mazmun ko'rsa (buni tushunish qiyin emas), kimdir unda ilohiy ishq darajalarini ko'radi. Valiyi karomatgo'y bu zot ishqning purxata u dovonlaridan oshgach, Haqning visoliga vosil bo'lishiga ishonardi. Ammo visol chog'ida Haqning diydoriga to'ymay qolishdan xavotirda edi. Oshiq Mashrabning Ko'ngil qushi fano maqomiga talpinardi. U Mansuri Hallojdek ishq yo'lida shahid bo'lish, o'lim vositasida fanoga erishish ilinjida shunday xayol surardi: “*Ey Mashrab, bu dargohg'a kelgoningg'a etti yil bo'ldi, piring bir yo'l Mashrab dedi, yana bir yo'l Mashrab desalar, ishing tamom bo'lur erdi. Kel, endi bir gunoh qilg'il. Xudoyi taolo begunohni so'ramas ekan. Shoyadki, gunoh qilsam, gunohkorni so'rasalar kerak Shoyadki, shul tufaylidin pirim aytsalar, eltinglar, u Mashrabni osinglar desalar, o'lsam, armonim yo'q erdi*”.

Darvoqe, shunday bir gunoh qilib, jazoga mahkum bo'lish Mashrabning peshonasiga azaldan bitilgan bahonayu sabab ediki, ko'nglidan kechirgan zamoniyoq yuz beradi: “*Shoh Mashrab yig'lab, charx urub, samo qilib turub erdilarki, podshohimizga obi tahorat beruvchi bir kanizaklari bor erdi, ul kanizak ravоqdin boshini chiqarib, nozu karashma birla dediki: “Ey Mashrab, to etti yildirki, seni dog'i ishqining mani siynamg'a joy olibdur. Bukan mening birla bir erda o'lturnmasang, qiyomatda mani qo'lim sening etagingda bo'lg'ay”. Shoh Mashrab ko'rdilarki, bir nozanin mohtal'at jilva qilib turibdur. Ani ko'rub bexud bo'ldilar. Yana hushlariga kelib aydilarki: “Ey bor Xudoyo, muningdek ofati jon*

*bandalaring bor ekan*", - deb yana bexud bo'lub yiqildilar. Bu voqeа hazrati podshohimg'a ayon bo'ldi, qizil libos kiyib shamshiri barahna birla ro'baro' bo'ldilar...

Eshoni Ofoq xojam aydilar: "Ey so'filar, Mashrabni tutunglar, andin Mansuri Hallojning bo'yi keladur". So'filar Mashrabni tutub bog'ladilar. Shoh Mashrab Xudoyi taolog'a nolalar qilib aydilarki: "Emdi to tirikman, mundog' gunoh qilmag'ayman, bir gunoh qilg'onimg'a bandangni bandalari muncha tahqiqlab so'rasalar. Tongla qiyomat bo'lg'onida o'zung qozi bo'lub, shul gunohimni so'rog'oningcha ham diydoringg'a to'yaman...". Andin so'ng, shoh Mashrabni podshohimni oldiga olib keldilar. Shoh Mashrab Ollohi taolog'a munojot qilib aydilarki: "Iloho, poko parvardigoro, Ahado, Samado, Ma'budo, agar sandin amr bo'lmasa, bandalarinigni ayog'larig'a bir tikan ham kirmas, bas, bu karashmalar sanga ma'lum..." .

Podshohim buyurdilarki, "Devonani bosinglar", - deb. So'filar shoh Mashrabni bostilar. Hazrati Ofoq xojam kissalaridin muhurlarini olib, o'tg'a tashlab, qizitib, Mashrabni gardonig'a bostilar. Valiyulloh karomat birlan toptilarki, odamzodning shahvatining joyi bandi gardan tamuridadur. O'shal tamurni topib muhr bostilar".

Shunday qilib, Mashrab shahvoniy nafs xuruji xavotiridan butkul ozod, uylanish, farzand ko'rish baxtidan benasib bo'ldi. Zotan, u baxtni bunda emas, balki Haq taolo diydoriga tuyassar bo'lishda ko'rardi. Shuning uchun Mashrab dunyo manfaatlari, orzu-havaslaridan butunlay yuz o'girgandi.

"Ranglar so'fi ruhiy holatlari, Olloh tomon safaridagi darajabosqichlarini bildirib turadi... Qizil rangda solikning ruhi vujuddan ajrala boshlagani, ma'rifatga yaqinlashgani, ma'naviy mohiyatlar olamini anglagani ma'lum qilinadi. Ammo, bu bosqich hali hirs qutqusidan xalos bo'Imagan bir holatdir"<sup>1</sup>.

Demak, Mashrabning goh xud, goh bexud bo'lishi, Ofoq Xojuning qizil libosda tasvirlanishidan shoirning ma'rifatga yaqinlashganini xulosa qilishimiz mumkin. Xuddi shunday ruhiy

<sup>1</sup> Н. Комилов. Тасаввўф. 2-китоб. Т., 1999, 175-бет.

darajada solikka pirning rahnamoligi zarur bo‘ladi. Shuning uchun ham Ofoq Xo‘ja Mashrabga peshvoz chiqadi (Uni to‘g‘ri ruhiy manzilga yo‘naltirish uchun shahvat tomiriga muhr qizdirib bosadi). Bu borada shu vaziyatda aytilgan ayrim she’riy parchalarda ham ishora bor:

*Bir oh urubon Laylini Majnun qilayozdim,  
Pirsiz kishilar borgusidur nori adamga.*

Tasavvuf lug‘atlarida soch – zulf Olloh bilan dunyo o‘rtasidagi parda sifatida izohlanadi. Quyidagi baytda devonalik – bexudlik shu pardani parishon qilishi, to‘zitishi haqidagi fikr singdirilgan Mumtoz adabiyotda Layli va Majnun oshiq va ma’shuq timsoli hisoblanadi. Mashrabning shu o‘rinda keltirilgan ushbu g‘azalida oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi masofa yo‘qoladi, ya’ni oshiq ham ma’shuqaga aylanadi. Yagonalik, birlik paydo bo‘ladi. Buni “Analhaq”likning talqini deyish mumkin:

*Bir hu chekibon Laylini Majnun qilayozdim,  
Devonalig‘im shona urur zulfi sanamga...*

Qissaning shu o‘rnida Mashrab yuqoridagi she’riy parchalarni aytgandan so‘ng Ofoq Xoja uning shu paytdagi ruhiy holati haqidagi hukmni bayon etadi: “Ey so‘filar, Mashrabni tutinglarki, andan Mansuri Hallojning bo‘yi keladur”<sup>187</sup>

Shundan so‘ng Mashrab riyozat, ziyyarat va sayru sayohatda davom etib, g‘amginu parishon ahvolda Yorkentga boradi, hazrat Ali karramullohu vajhaning avlodlaridan hazrat imom Ja‘fari Sodiq raziyallohu anhuni ziyyarat etish uchun Xo‘tan viloyatida musofir bo‘ladi. Xo‘tan oxundlarini ilmi hol – ilohiyot sirlarini bilish ilmidagi salohiyati bilan dog‘da qoldiradi. Mashrab Iylaga borganida, uning boshidan Navoyining qahramoni Shayx San’on sarguzashtidek ishq savdosi Iyla hukmdori Kuntojixonning qizi Ofoq bilan munosabatda kechadi. Mashrabdagi sidqu safo

<sup>187</sup> Киссаи Машраб. Т., 1992, 36-бет

turmazodalarni maftun etadi, unga ixlos va muhabbat samarasi u'laroq Kuntoji, uning xotini, qizi Ofoq Islom diniga imon keltirib, monulmonchilikni qabul qiladilar. Kuntoji shoh Mashrabga qizi hamda shahrini nazru niyoz etadi.

Mashrab Yorkentga, Ofoq xoja xizmatiga qaytadi. Mashrabning riyoza ziyoratlari, savob ishlari qabul bo'lib, Ofoq kojaning hurmatini qozonadi. "Ey Mashrab, Rustamona ish qilding, jon chekmaguncha jonona qaydadur. Ey Mashrab, yunohingni kechtim", - deydi piri komil. Mashrab tariqat pirining alvijagini emas, iltifotiga ham musharraf bo'ladi: "Ey Mashrab, uni iching torlik qildi. Ma'nini oshkora qilding. Og'zingni och", - deb Mashrabni og'ziga tupurdilar. Mashrab oni yutub, ko'zlarini oshib, "Lo taqrabus-salota va antum sukaro" deb qarasalar, tamimi osmon junbushga kirib, hama zikru samog'a mashg'ulurlar. Hazrati podshohim aydilar: "Har kishi Mashrabg'a qo'shuldi, Xudog'a qarib bo'ldi". Mashrabni Xudoga yoqin valiyulloh zot sifatida tanish, unga ixlos va muhabbat bo'yash xalqda ana shunday rivoyatlar asosida shakllangan.

Ofoq xoja Mashrabning Mansuri Halloj maqomiga etganini bashorat qiladi. "Qissayi Mashrab"da rivoyat qilinishicha, Mashrab Ofoq xoja topshirig'i bilan borayotib, Xizr alayhissalomga yo'liqadi. Xojayı Xizr duoyi xayr qilib, ma'rifikat va tariqatdan bir necha nukta bayon etadi. Pir va payg'ambar duosini olgan Mashrab xoja Nuriddingga xuruj qilayotgan shayton bilan kurashadi, uni mag'lab etib, zafar qozonadi, xoja imonini salomat saqlab qoladi.

Piri karomatgo'y Ofoq xoja Mashrab Mahmud Qatag'on qo'lida halok bo'lishini ham bashorat qiladi: "Hazrati podshohim marhamat qilib aydilar: "Ey Mashrab, anongni ziyorat qilg'il. Saming kushandang Balx shahrida, podshoh Mahmuddur". Rivoyat qilinishicha, o'n sakkiz yillik ayriliqdandan keyin Mashrab Andijonga qaytib, onasi va singlisi bilan diydor ko'rishadi. Onasi bilan vidolashadi. 1673-yilda Mashrabning onasi vafot etadi. Mashrab onasining qabrida qirq kun qur'on tilovat qiladi, so'ng bir kecha tushida ayon bo'ladiki, Buxoroda ko'kaldosh madrasasida Mavlaviyi Sharif yetti tuman kishiga dars berayotgan emishlar. Piri

buzruk vor Mavlaviyi Sharifni ziyorat qilish ishtiyoqi Mashrabni o'rtab, u Buxoro safariga otlanadi. Safar davomida u Xo'jandga borib, Oqbo'tabiy bilan uchrashadi, Toshkent va Turkistonga sayohat qiladi. Yana Turkistondan Toshkentga, Toshkentdan Xo'jandga kelib, Oqbo'tabiy bilan uchrashadi. U shundan keyingi hayotini qalandarlik bilan o'tkazadi. Ko'p viloyat va shaharlarga boradi. Hamma joyda xalq uni ulug' avliyo, so'fi shoir sifatida qabul qiladi. U qaerga bormasin, zamondoshlariga olamning va hayotning mohiyatini tushuntirishga xizmat qiladi. To'g'ri yo'lidan adashgan, nafsiga mag'lub kimsalarni hushyorlikka, uyg'oqlikka da'vat etadi. Insoniyatni mudroqlikdan, ma'naviy so'qirlikdan ogohlantiradi.

Mashrab qaerga bormasin, muridlari bilan birga xalqning qurshovida bo'lib, ajoyib karomatlar ko'rsatadi. Karomatlaridan eng ajoyibi shuki, Mashrab Haj orzusini qilib, Makkaga bormay qaytganida, ergashib borgan muridlari: "biz Koshg'ardin ergashib kelib, Makkani tavof qilolmay qaytarmizmu ? Bizlarni mahrum yondurdingiz", deya afsus-nadomat chekadilar. Shunda Mashrab karomat ko'rsatadi: "Shoh Mashrab aydilar: "Ey boliklarim, ikki qo'lumni orasig'a boqinglar !" Boliklar boqsalar, Makka ikki qo'llarini arosida jilva berib turibdur. Shoh Mashrab boliklari bilan Makkayi muazzama va Ka'bayı sharifni ziyorat qilib, Hindiston tarafga ravona bo'ladilar".

Hindistonga borib, Mashrab Hotam podshosi sohibqironning huzurida uch yil xizmat qiladi, Abulg'ozixon bilan muloqotlarda bo'ladı. Buxoroga borib, Naqshband ostonasini ziyorat qiladi. Ko'kaldosh madrasasida Mashrab Mavlaviyi Sharifdan "Mushkoti Sharif" tahsilini oladi. Abdullaxon huzurida bo'lib, uni ham a'yonlari bilan birga karomatlariga lol qoldiradi.

Ayniqsa, Mashrabning mashhur mutasavvuf So'fi Olloyor bilan muloqoti va unga ko'rsatgan karomatları diqqatga sazovordir. Muloqotda bu ikki zabardast so'fining o'ziga xos yo'li dunyoqarashlaridagi tafovut karomatlar bahsida yaqqol ochilgan. "Alqissa, shoh Mashrab Qabodiyong'a keldilar. Eshoni So'fi Olloyor ham shunda erdilar. So'fi Olloyorg'a xabar ettiki, shoh

*Mashrab keldilar deb. So'fi Olloyor xushnud bo'lub, oldilarig'a poshwoz chiqtilar. Ikkovlari bir-birlarig'a muloqi bo'ldilar. Shoh Mashrab So'fi Olloyorning qo'llarini tutub, aydilar: "Ey Olloyor, Haqurly degan buzurg do'zaxga xushomad qilibdurlar. Siz Puli Nirotg'a xushomad qilibdursiz. Keling, man sizni o'tkarib qo'yay". So'fi Olloyor aydilar: "Ey Mashrab, putingizni arosig'a qarang". Shoh mashrab qarasalar, etti do'zax og'zini ochib turubdur. Shoh Mashrab do'zaxlarni ko'rib aydilarki: "Ey so'fim, bu do'zaxlarni ko'rib, muncha qo'rqaqasiz? O'zini topqondin so'ng, ani qo'lidin nima keladir? Himmatni baland tutung".*

Ma'lumki, bir davrda yashagan So'fi Olloyor va Boborahim Mashrab tasavvuf tariqatiga mustahkam e'tiqod bog'lagan so'fiysi siymolar edilari. Ularning dunyoqarashlari o'zaro keskin ziddiyatdan xoli, ammo haqiqatni tahqiq etish, dunyoni anglash, Haqqni intilishdagi yo'llari har xil. So'fi Olloyorning Ollo, uning do'zaxi va jannatiga ham e'tiqodi kuchli. U bu dunyoda gunohga botgan bandalar muqarrar ravishda do'zaxda yonadilar va Ollohnning rahmatidan benasib qoladilar, deb qaraydi. Mashrabga esa bunday dunyoqarash tordek tuyuladi. U hayotga nisbatan himmatni baland tutish tarafdori. Uning muddaosi Haqning o'ziga erishish. O'zini topgan bandaga jannah ham, do'zax ham hechdir. Haqning rahmatiga Mashrabning umidi va ishonchi shu qadar komilki, uningcha, "dargohi Haq chun rohi navmidi emas", ya'ni Haqning dargohi umidsizlik yo'li emas, "Etti do'zax mardi Haqni oltida gulzordir", ya'ni mard Haq agar bandasini afv etmoqchi bo'lsa, etti do'zaxni jannah gulzoriga aylantirishi hech gap emas.

Avliyolar bahsi davomida dunyoqarashlar mohiyati yanada lengroq ochiladi: "Alqissa, shoh Mashrab aydilarki: "Ey so'fim, ikki qo'limning arosiga qarang". Filhol, So'fi Olloyor shoh Mashrabni ikki qo'llarini arosiga qarasalar, farishtalarni ko'rdilarki, ba'zilari qiyomda va ba'zilari rukuda va ba'zilari suqudda va ba'zi quudda va ba'zilari munojotda duo qilib turubdurlar. Har qaysilari bir murodda turubdurlar. Ko'rdungizmi bu farishtalarni? Kechavu kunduz bularga emaku ichmak va uqlamak yo'qtur. Hamisha toat va ibodat qiladurlar.

*Alarning tilaklari shuldurki, iloho, Muhammad alayhissalomning ummatlarini etti jannatga doxil qilg'aysan. Shunday farishtalar sizning uchun toat va ibodat qilsalar, besh kunlik umringizga himmatingizni baland tutung".* Bunday mubohasa Mashrabning o'ziga xos mustaqil maslak sohibi ekanligini yana bir bora tasdiqlaydi. Shuningdek, unda Mashrab dunyoqarashida diniy bag'rikenglik mujassamligini ham ko'rishimiz mumkin.

Qissadagi ayrim rivoyatlar insoniyat tabiatidagi uni tanazzulga etaklovchi qusurlar, xislatlardan ogohlantiradi. Jumladan, manmanlik, takabburlik kishini nazardan qoldiradi, Ollohdan uzoqlashtiradi. Bunga Mashrabning munosabati qisqagina rivoyatda yorqin ifodalab beriladi. Mashrab Buxoroyi Sharifda bu qalandardan otini so'raydi. "Mani otim Ponsadmandur. Shoh Mashrab aydilar: Shayton bir marotaba manlik qilib bo'yning'a tavqi la'nat tushti, san besh yuz manni (ponsad – fors-tojikchada besh yuz demakdir) ko'tarib yurursan. Munosib shulki, sandin gochmoq kerak".<sup>188</sup>

Mashrab insoniyatni mol-dunyo, nafs, hirsu havo to'g'ri yo'ldan ozdirishini juda teran anglagan. O'zi tushungan mohiyatni zamondoshlariga uqtirishni farz deb bilgan. Quyidagi rivoyat Mashrabning dunyoga, boylikka munosabati haqida xulosa chiqarishimizga asos beradi. Buxoroda Mashrab bir g'arib bechorani chaqirib aytdilar: "Agar belimdagи fo'ta tushib qolsa, saning baxtingdur, agar qo'lum birla bersam dunyo ayturki, mani Mashrab qo'li birla tutti, ammo yerga tushsa, san yerdin olg'il, minnatdor bo'lsun yer".<sup>189</sup>

Mashrab bir necha chaqirim minib yo'l bosgan otini oyog'ini chopishni buyuradi. Muridlari sababini so'rashganda: "To o'rdadin registoni Buxorog'a kelguncha ushbu otni minib, Ollohi taolodin g'ofil bo'ldum. Yna har bandayi mo'min bu otni ustig'a minib, xudoyi taolodin g'ofil bo'lmasun, shu sababdin o'ldurunglar, dedim", -deb javob beradilar. Bu bilan Mashrab qanday mansab

<sup>188</sup> Ўша асар, 36-бет.

<sup>189</sup> Киссайи Машраб, Т.: 1992, 142-бет.

marhubada bo'lsada, insonning "oyog'i yerdan uzilmasin", ko'ngli Olohdan uzoqlashmasin degan fikrni ilgari surmoqda.

"Qissayi Mashrab"da shoirning ilohiy ishq kuychisi ekanligi, bu ishq otashining me'yoru hadisi borasida ham bir qancha rivoyatlar keltiriladi. Shulardan birida hikoya qilinishicha, Mashrab Yorkentga borganda, chilim so'rab chekadi. Nafas tortib tutun chiqarganda, butun olam qorong'u bo'ladi. Ammo, chilimning taxxonasini olib erga qoqqanlarida, xalq bir dona ham giyoh huymaganligining guvohi bo'ladi. Bu, albatta, bir tomondan Mashrabning karomatpeshaligini ko'rsatsa, ikkinchidan, shoir ishqini shorasining o'tkirligini namoyish etadi. Bir o'rinda Mashrab namoz o'qib, "hu" deb nafas chiqarganlarida kuygan kabobning isi kelardi, deyiladi.

Ko'rinish turibdiki, "Qissayi Mashrab" rivoyat tarzida yaratilgan bo'lsa ham, bizga shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, yurularining mazmun-mohiyatini anglashimizda muhim manba yuzifasini o'taydi. Undagi rivoyatlardan mantiqiy xulosalar chiqarishimiz mumkin. Shoир asarlari bilan qissadagi fikrlarni muqoyasa etib, ayrim muammolarga oydinlik kiritishimiz mumkin.

Qazo hukmiga muvofiq, Mashrab o'z ajalini izlab Balx shahriga boradi va Mahmud Qatag'on saroyida xiyla karomatlar ko'rsatadi. Mashrab, o'ziga ayon bo'lganidek, kushandasini Mahmud Qatag'on ekanligini unga takror va takror ochiq-oydin aytadi ham: *"I y Mahmudxon, g'alat aytursan, mani sarnavishtimda ajalim mening qo'lingda bitilgan. Mani shahid qilursan. Maning vasiyatim yanga shulki, mani jasadimni bir balandroq erga chiqorib qo'yg'il, iki har kim ko'rsa, yiroqdan duoyi xayr qilib o'tgay"*. Mahmud Qatag'on garchi shoh Mashrabning biror tola sochini xam qilishni sohlamasa ham, jahl ustida uni 1711-yili Balx shahrida dorga o'tirib yuboradi. Mashrabning bashoratiga ko'ra, Mahmudxonning o'zi ham uch kundan keyin halokatlari o'lim topadi. Mashrabning qabri Ishkonmish degan erdadir.

Boborahim Mashrabning hayoti, avliyolik xislatlari, turguzashtlari haqidagi hodisalar haqiqatga qanchalik yaqinligi

noma'lum. Harqalay, ular Mashrab ijodidagi badiiy mazmunga muvofiqdir.

*Mashrabning ilohiy kechinmalari va umuminsoniy fazilatlari.* Boborahim Mashrab she'rlari dunyoni o'ziga xos falsafiy-badiiy idrok etishning yorqin namunasidir. Uning har bir asarida otashin oshiq shoirning tuyg'ulari yuksak falsafiy tafakkur bilan yo'g'irilgan. Ko'plab g'azallar lirik qahramoni timsolida biz uchun murakkab tuyuladigan Mashrab siyrati yaqqol tasvirlangan. Ayniqsa, "Sig'mamdur" radifli g'azal shoirning o'ziga xos mushohada tarzini aks ettiradi. Lirik qahramonning dunyoqarashi bizning bugungi dunyoviy tasavvurimizga sig'mas darajada kengdir.

*Ajab majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur,  
Dilim dunyoyi nurdur, mavj urub\_dunyog'a sig'mamdur.*

Ushbu lirik qahramon ilohiy ishq jununiga mubtalo bo'lgan majnunsifat oshiq. Ammo uning oshiqligi ishqini tushunmagan jamiyatga sig'masdan qochib, sahroyu biyobonlarda makon qurgan afsonaviy Majnun ishqidan ham o'zgacha. U ushbu mahdud dunyoning dasht ila sahrolariga ham sig'maydi. U Nasimiyning "Manga sig'ar ikki jahon, man bu jahona sig'mazam", deguvchi lirik qahramoniga ma'naviy maslakdosh. Mashrab shunday bag'ri keng shoirki, uning dili daryosida limmo-lim nur oqadi. Ushbu nur azbaroyi sermayjligidan dunyo qirg'oqlariga siqqulik emas. Mashrab qalbi ummonida shariat, tariqat, haqiqat nurlari po'rtanavor mavj uradi.

*Shariat ham, tariqat ham, haqiqat mendadur mavjud,  
Chu sultonni azaldurmanki, arshi a'log'a sig'mamdur.*

Agar ushbu baytdagi har bir tushuncha tilsimini echsak, Mashrab lirik qahramoni ajdodlar orzusidagi komil inson darajasiga etganligini fahmlashimiz mumkin. Xo'sh, komil inson

o'zida qanday sifatlarni mujassamlashtirishi, qanday bosqichlarni bogib o'tishi lozim edi ?

Musulmonlik kamolotini kasb etish uchun, avvalo, shariatni idrok etish, unga amal qilish zarur edi. Shariat Islom dinining yo'l-yo'nqlari, qonun-qoidalari nizomnomasidir. Shariatni tugal bilmay, unga amal qilmay turib, insoniy kamolotning keyingi bosqichlariga qadam qo'yish qiyin. Chunki Haqni tanigan, unga erishgan insongina komil hisoblangan. Tasavvufda Haqni tanish yo'lidagi birinchi bosqich esa shariatdir. Haqni izlash, idrok etish, tanishning esa o'ziga xos yo'llari bor. Ana shu yo'l tasavvufda tariqat istilohi bilan ifodalanadi. Tariqat – tasavvufda Haqqa erishish yo'lidagi ikkinchi daraja. Tariqat – Ollohg'a borishning maslak, mazhab va rohlarini bildiradi. Haqiqat – borliqning miliyati, qandayligi, mohiyat, rostlik va to'g'rilikdir. U tasavvufda – Xudoni izlash, Ollohni kashf etish, uning vasliga erishishning ilmi, intihosi hisoblanadi.

Mashrabning lirik qahramoni Haqning visoliga etishish uchun qonuniy uchala bosqichni ham mardonavor bosib o'tgan, shariatu tariqatu haqiqatni o'zligida mujassamlashtirgan barkamol siymo. Shuning uchun Mansuri Halloj singari "*chu sultoni azaldurman*" deya istixor etadi. "*Sultoni azal*", ma'lumki, yagona Tangriga taalluqli sifatdir. Demak, bundan lirik qahramon Haqqa erishgan, azalning podshosii – Xudo bilan ruhan-vujudan vahdat – birlik bo'jal qilgan, butun borlig'i bilan Unga singib ketgan, degan xulosa kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, uning ruhi mutlaq ilohiyotning bir bo'lagi edi. Bu inson asl vujud bilan birlashish, butunlik hosil qilish uchun shariat, tariqat, haqiqat bosqichlarini bosib o'tib, ruhan tozalandi, poklandi, kamol topdi – orif inson bilan Illoh o'rtasidagi to'siq, tafovut qolmadi. Endi bu dunyoga ham, arshi a'loga ham aq' mas darajada ulug'vor mohiyat kasb etib, Men – Haqman, Haqiqatman – Analhaq deyishga noil bo'ldi.

Ushbu shohbayt Mashrab dunyoqarashining eng yuksak va murakkab g'oyasini aks ettiradi. Boshqa ko'p baytlar shu g'oyani turli ko'rinishlarda sharhlash, rivojlantirishga xizmat qiladi.

*Xaliloso bu yo 'lda otashi Namrud – me 'rojim,  
Hamon durri haqiqatmanki, har dunyog'a sig'mamdur.*

Bu o'rinda lirik qahramon o'zining ilohiy xislatlarini talmeh san'ati vositasida izhor etayotir. Talmeh badiiy fikrni biror tarixiy hodisa, afsonaviy rivoyat yoxud maqolni eslatish yo'li bilan ifodalash usulidir. Xalil – Ibrohim payg'ambarning laqabi. Namrud – afsonaviy yovuzlik timsoli. Otashi Namrud – Namrud olovi. Naql etishlaricha, Namrud Ibrohim payg'ambarni olovda kuydirmoqchi bo'lган. Ammo ollohnning karomati bilan olov gulzorga aylanib, Ibrohim omon qolgan. Me'roj – yuqoriga, ko'kka ko'tarilish ma'nosini bildiruvchi so'z bo'lib, u payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallallohi alayhi vassallamning Makkadan Quddusga borib, Quddusdan ko'kka safar qilganlari tarixini eslatadi. Shoir tarixga tagzaminli ishora orqali: "*Men haqiqatning shunday noyob durimanki, har qanday dunyoga sig'avermayman, balki Xalilulloh – Ollohning do'stu yori Ibrohim payg'ambar singari boqiy dunyoga, Visol qasriga parvoz etish qudratiga egaman*", - deya izhori fazl etmoqda.

*Rizo mulkidaman, halqumni tuttum tig'i Akbarga,  
Bu yo 'lda siynayi poki zabekullog'a sig'mamdur.*

G'azalning mazkur baytida Mashrab lirik qahramonining tariqatdagi so'nggi maqomi – rizo mulkidagi holati badiiy sharhlangan. Lohijiydan ma'lumot keltirishlaricha, "rizo – bandaning o'z rizosidan chiqib, Mahbub rizosiga kirishi, ilohiy qismatga zarra e'tiroz qilmasligidir". Rizo maqomida solik, ya'ni haqiqat yo'lida izlanayotgan oshiq qalb va ruhini tan chirkidan tozalaydi, nafs xurujlaridan butkul ozod bo'ladi, taqdiri azalning har qanday hukmiga tantilik, rozilik kayfiyatiga tushadi. Dunyo manfaatlari bilan bog'liq ehtiroslardan osoyish topadi. Akbar so'zi bu o'rinda katta va ulug' ma'nolarini ham, Jabroyil alayhissalomini ham anglatadi. Oshiq Mashrab rizo mamlakatida ilohiy taqdirning ulug' va keskir tig'i oldida qutlug' qurbanlik uchun bo'g'zini

tantilarcha tutib turibdi. Zabehullo – Ollohh yo‘lidagi qurbanlikni bildiradi. Lirik qahramon shunday qurban bo‘lmoqchiki, u odatiy qurbanlik tushunchasiga sig‘magaydir. U siynani – qalbni tan qilishidan butunlay pok, ozod etish uchun vujud yukini qurban qilmoquechi. Shuhbaga o‘rin yo‘q. Bunday ahli tavakkal devonavor oshiq che riyatida bot-bot uchraydi:

*Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,  
Charx urub yig‘lab tururman ushbu dam dor ostida.*

Hundi ham shoir antahur – poklanish sharobini ichib, qurbanlikka shay turibdi.

*Agarchande ziyyarat qilmadim men Ka‘bayi zohir,  
Tariqat hojisidurmanki, Baytullohg‘a sig‘mamdur.*

Ma‘lumki, Mashrab Makkaga borib, Ka‘bani ziyyarat etmagan. Vojon, u Haj marosimini zohiran bajarmagan. Lekin tasavvufda bu mualaga kengroq qaraladi. Bunda zohiriyl (tashqi) ziyyaratdan ko‘ra, botiniy (ichki) ziyyarat ustun turadi. Tariyat soliki Ka‘ba – Ollohnning uyini o‘z ko‘nglida quradi. Solik zohiriyl Ka‘baga etib borolmasligi, unga “sig‘masligi” mumkin. Ammo Baytullohni ko‘ngil koshonasida mujassamlashtira oladi. Bu ham “Menga o‘tikki jahon...” tushunchasiga uyzash. Naqshbandiylikdagi “Dil bayoru dast ba kor” shiorini shu ma’noda ham tushunish mumkin. Ko‘ngilni Yorga – Ollohga butunlay topshirib qu‘yigandan keyin, solik hamisha ko‘ngil ka‘basida sajdada, ibodatda, ziyyaratda bo‘ladi. Ayniqsa, valiyulloh zotlar ko‘ngil ka‘bani bor uchun “Ka‘bayi zohir”ga hojatmand bo‘limganlar. Zotan, Alisher Navoyi xojagoni naqshbandiya silsilasining sohalqasi Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniyl haqida: “Valiliklari shu surʼiyaga etgan ediki, namozga Ka‘baga borar edilar”, - deganida uni shunday sohibi qudratlikni nazarda tutgan.

Mashrabdekl majnunvor oshiq uchun qaysi ijtimoiy toifaga manzublik ham ahamiyatsiz bo‘lgan.

*Gahi bo'l dum faqiru, gahi shohu, gah gadodurman,  
Ajab devonaman, fardoki mahshargohg'a sig'mamdur.*

Baytdagi “goh-goh” so‘zlaridan Mashrab har zamonda o‘zgarib, turlanib turgan ekan, degan xulosa chiqarmasligi kerak. To‘g‘ri, mashrab majnunvor shaxs bo‘lgan. Mashrabning fe'l-atvorida chindan ham devonalik ko‘zga tashlanadi. Endi bir shaxs qiyofasida faqirlik, shohlik, gadolik kabi bir-biriga zid sifatlarning bir yo‘la tajassum topishi tilsimiga kelsak, Mashrabning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli faqirlik – kambag‘alchilikda kechgan; siyratda – ichki ma’naviy olamda himmatda, saxovatda, tafakkurda, insonparvarlikda shoh bo‘lgan; shuning uchun xalq orasida Shoh Mashrab nomi bilan shuhrat qozongan; tashqi ko‘rinishda u miskin, g‘arib, xokisor, manzil-bamanzil kezuvchi gado, qalandar qiyofasida yurgan. Bişso‘z bilan aytganda, Mashrab andozadagi zot bo‘limgan. Uning savobu gunohlari ham oddiy insoniy o‘lchamlarga sig‘maydi. Shuning uchun ham u o‘z chigal qismatidan iztirobdagi Mashrab: “Bu dunyoda goh faqir, goh shoh, goh gadolikda kechgan hayotim bilan andozalarga sig‘mamdur, evohkim, tongla mahshar kuni Yaratganning oldida butun xaloyiq so‘roq berayotganida ham o‘zimning o‘lchamsiz savobu gunohlarim bilan mahshar maydonig‘a sig‘masman”, - deya faryod chekib turibdi.

Mashrabning ushbu asari tasavvufning bir necha maqomi darajalari haqida tasavvur beruvchi g‘azaldir. Keyingi baytda Shoh Mashrabni hayrat maqomida, istig‘no vodiysida ko‘ramiz.

*Maqomi hayrat ichra gohi xudman, gohi bexudman,  
Junun bozorida mastmanki, istig‘nog‘a sig‘mamdur.*

Hayrat maqomiga Mashrab kabi yuzlangan solikning ahvolini Alisher Navoyi “Lison ut-tayr” dostonida bunday sharhlaysdi: “Unda hayrat tilni gungu lol etadi. Odam so‘zlayolmay qoladi. Aql yo‘qoladi. Hush toptaladi. Solik kecha va kunduzga har qancha boqmasin, uning kunduz yoxud kechaligini anglab etolmaydi.

*Norliq va yo'qlikni ham ilg'ayolmay, tobora hayratlanadi. Hayrat vodiysiga qadam qo'yan kishining hayronlikdan boshqa ishi qolmaydi. U qadam tashlagan sari hayronu sargardon bo'lib boraveradi. Undan "Sen bormisan yoki yo'qmisan yoxud ikkalasimisan – ham boru ham yo'qmisan ?" deb so'rasalar ham, aniq javob bera olmaydi. U o'zining o'tkinchiligini ham, abadyligini ham, zotining ma'lum yo noma'lumligini ham, e'ming oshiq ekanligini va kimga oshiq ekanligini ham tushunib olmaydi. Ushbu maqom ichra biri tugamay, yana ming jumboq hayratga solib kelaveradi".*

Ishq bozorida goh o'zidan ketib, goh o'ziga kelib turgan oshiq Mashrabning sarmastligi asli istig'no vodiysidan boshlangan edi. Chunki oshiq hayrat maqomidan oldin istig'no maqomini bosib o'tadi. Istig'no vodiysidagi manzara bunday: Istig'no yellari har dum qo'zg'alarkan, olamga yuz g'avg'o soladi. Istig'no bulutidan yog'in yog'sa, yuz tuman olamni suv olib ketadi. Etti dengiz unda bir qatra yomg'irga barobar, etti osmon esa ko'knor urug'idek maydadir. Bu erda etti yonayotgan do'zax bir uchquncha kelsa, takki jannat bir shudring kabidir. Etti mamlakatning qahramon podbosи ham, bir gado ham u erda tengdir. Nogahon odam sharaf tojini kiyganida, minglab farishtalar to'dasi nazardan qoladi. Bu markanda yuz ming bolaning qoni to'kilishiyu Kalomulloning sharaf tojiga tuyassar bo'lishi, yuz ming dindor beliga zunnor bog'lashi va Masihning nafasidan o'liklar jon topishi, boru yo'ning barobarligiyu kufru din ahlining tengligi kabi hodisalar hayratga sazovordir. Istig'no vodiysidagi hayratomuz manzaralar dunyoviy mantiq va me'yirlarga sig'maydi. Mashrabning hayronu sargardon qolishi shundan.

*Giah o'russ, goh cherkas, gohi mo'min, gohi tarsoman,  
Ne kavnayni miyonli lou illollog'a sig'mandur.*

Ma'shuqi mutlaq – Olloh yo'lidagi riyozatlar barcha din va mazhab, millatu elat namoyandalari uchun birdir. Shuning uchun ta'vvuf tariqati vodiylari sari sayr etib borayotgan solik

umuminsoniy qiyofa va dunyoqarash kasb etadi. Mashrabning mazkur baytdagi da'vosi sargashta va jahongashta solikning ikki dunyo mohiyatini bir nuktada mujassamlashtira olgulik piri komil darajasiga erishganligidan dalolat beradi.

Biroq shu qadar nuroniy va mo'tabar siymo o'zini ma'shuqi kabir – Tangri oldida ojiz, xokisoru notavon sezadi:

*Mudom miskin erurman chun g'uloming – Mashrabingdurman,  
Meni bechora bu dunyo bilan uqbog'a sig'mamdur.*

Ushbu misralarda insonni anglash, insonlardagi loqaydlikdan bezish tuyg'ulari aks etgan. Bu timsol o'quvchini fikrlashga hushyor tortishga undaydi. Ushbu bayt oxiridagi "sig'mamdu" radifi endi avvalgilaridan farqli o'laroq, kamtarinlik ma'nosini ifodalaydi. Lirik qahramon o'zini miskin, quldek bechora gunohkor hisoblaydi. Shu boisdan bu dunyoga ham, oxirat dargohiga ham sig'masligini iqror etadi.

Mashrabning yuqorida tahlil etilgan g'azali juda murakkab bo'lishiga qaramay, shoir dunyoqarashi va tasavvufiy falsafasining asosiy mohiyatiga xos xususiyatlarni aks ettirishi jihatidan o'rganishimiz hamda o'zlashtirishimiz zarur bo'lgan asarlardandir. Bu g'azalning mag'zini chaqish boshqa o'nlab g'azallarning tilsimli dunyosiga yo'l ochadi.

Inson umrini ulkan, poyonsiz bir to'qayzorga o'xshatish mumkin. Chunki, hayotda hech kim uchun tayyor, silliq yo'l yo'q. Har kim o'z yo'lini o'zi izlab topadi. Bu asnoda ba'zan to'siqlar uchraydi. Ba'zan ravon yuriladi. Ba'zan adashishlar, xatoliklar ichra iztirob chekiladi. Inson o'zini to'rt qadam narida nima kutayotganini bilmaydi. Bizni ana shu chigalliklardan olib o'tuvchi rahnamolardan biri adabiyot. Ajqdodlarimizdan qolgan dono fikrlarga muzayyan meros.

Hazrati Shayx Sa'diy inson hayoti haqida armon bilan mushohada etib, "Qaniydi odamzodga ikki karra umr berilsa. Birinchi marta xatoliklardan, adashishlardan xulosa chiqarib,

biriba o'rganib, ikkinchi marta ko'ngildagiday, armonsiz yashasa", degan ekanlar.

Hazrati Alisher Navoyi ham shunga yaqin fikrni bayon etikanlar:

*Yorub, eshigingda ul gadomen*

*Kim, boshdin oyoqqacha xatomen.*

Shunday ulkan aql sohiblari, donishmand allomalarimiz ham dunyoning g'alatliliklaridan afsus-nadomat chekishgan. Va butun umularini yurtdoshlariga to'g'ri yo'l ko'rsatishga bag'ishlashgan. Ohani bushyorlikka, tiyraklikka da'vat etishgan.

Boborahim Mashrab ham ana shunday dono ijodkorlardan. Ammo uning donoliqi, dunyoni anglashi o'ziga xos. She'riyatidagi lirik qahramonning ruhi baland. Olam va odam mohiyati, munosabati haqida gapirganda, ishonch bilan qat'iy xulosalar chiqaradi. U ham dunyoning xatolardan, armonlardan, yolg'onlardan iboratligini biladi. Ammo, bu shoir lirik qahramonini to'hlilikka tushirmaydi. Chunki, u ana shu xatolar zaminida idhom va suyansa bo'ladigan birgina haqiqat borligini ham anglaydi. Bu – Olloh:

*Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdур, Mashrabo,*

*Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay?!*

Demak, Xudoga ishonish, unga muhabbatda bo'lish insonni xatolardan asraydi. Hayotiga go'zal mazmun baxsh etadi. Muhammal axloqli, halol, pok bo'lishga boshlaydi.

Mashrab she'riyatidagi asosiy g'oyalardan biri dunyoning ikkinchi ekanligi. Hayotda buni anglash juda muhim. Chunki, bolozlik narsalarni g'animat bilish lozim. Mashrab asarlarida shu jahonchumul muammoga katta e'tibor beradi. Insoniyatni g'ollatdan, mudroqlikdan ogoh etadi. Ko'ngillarni tiriklikka, ovozlikka da'vat qiladi. Shoir fikrlari bilan tanishgan har bir

o'quvchi o'zida g'ayrat, kuch-quvvat paydo bo'lganini his etadi.  
Atrofga tiyrakroq nazar tashlay boshlaydi:

*Hasratimga tog'u tuzlar yig'lagay,  
Hech kim yo'qtur so'zimni anglagay.*

Mashrab yuragida armon uyg'otgan narsa bu – insonlardagi loqaydlik, beparvolik. Mashrab “Dili g'amgin”, dardchan xaloyiqni xush ko'radi. Dardsizlar uni hasratga giriftor etadi. Uning yuragidagi cho'ng darddan metin toshlardan iborat tog'lar, tilsiz zabonsiz dala-tuzlar yig'laydi. Ammo, afsuski, insonlar uni anglamaydi, beparvo. Shoir ana shu birgina baytda chuqur ruhiy manzarani chizib bera olgan. Asosiy mazmun – ruhiy, ma'naviy yolg'izlik. Hamisha yolg'izlik bilan sukunat yo'ldosh. Tog'lar esa qanchadan-qancha zamonlar asrojini o'z bag'rida, sukunat qo'ynida asraydi. Uning mangu ertaklarini tinglay va anglay bilish lozim. Demak, shoir tog' timsolini bejiz qo'llamagan. U ana shu sokinlikning mangu saltanatini shoir qalbi bilan tushunadi. O'zining yolg'izlik iztiroblari tasvirini unda ko'radi. Bag'ridan oqayotgan jilg'alarmi uning ko'z yoshlariga mengzaydi. Ne-ne avlodlar kechmishini ko'rgan tog'larni o'ziga hamdard, hamroz deb his etadi. Insonlar orasidan ham o'zini anglaguvchi sirli, dardli ko'ngillarni sog'inadi. Ana shu sog'inch unga yolg'izligini eslatadi. Ammo, bu tushkunlik belgisi emas. Bizga mahzunlik bo'lib tuyulgan shu sog'inch lirik qahramon ruhini yuksakka ko'taradi. Tor – vujudiy, nafsoniy intilishlar dunyosini tark etadi. O'zini aslidan, Ollohdan uzoqda g'arib sezadi, yolg'iz his qiladi. Natijada, uning maqsad manzili, intilish hududi kengayadi. Vujudini olloh bilan birlashish ishq qamraydi.

*Mashrab she'riyatining g'oya va mavzu ko'lami, ruhi,  
uslubi, badiiy xususiyatlari.* Mashrab she'riyatining g'oyaviy olamida insonparvarlik eng yuksak o'rinda turadi. U so'fi shoirdir. Uning she'riyati asosida tasavvufiy g'oyalari talqini turadi. Xo'sh, tasavvufning o'zi nima? Tasavvuf – bu inson o'zini tanish orqali Ollohni tanish va sevish ilmidir. U “Insonning ichki olami, ya'ni

*botinini tadqiq etuvchi ilmdir*"<sup>1</sup>. Inson umri tadriji ikki qaramaqshu qutb – ezbilik va yovuzlikning kurashidan iborat. Tasavvuf ta'limotining mohiyati odamzodga o‘z vujudida mavjud nafsoniy intilishlarni fosh etish, ularni yengish yo‘llarini ko‘rsatish, ruhidagi dohiy fazilatlarni uyg‘otish, taraqqiy toptirishdan iboratdir. Chunki insonning yashashdan bosh maqsadi ilohiylashish, asl mohiyatga etishdir. Buning yo‘li esa bitta. O‘zini engish, o‘zidan o‘tish va o‘ziga etishdir. Bu borada “Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilgan Boyazid Bistomiyning xulosasi ibratlidir: “...Boyazid dediki, Olloh nuoloni tush ko‘rdum, so‘rdumki, bor xudooyo, yo‘l sanga ne nav duri? Dedikim, o‘zungdin o‘ttung, etting”.

Mashrab “Anal – Haq” – “Men – Xudoman”, ta’limotini yaratgan Mansuri Halloj yo‘lidan borib, inson martabasini Illoh dorajasida yuqori ko‘targan adabiy siyodir. Mashrabning insonga muhabbati umumbashariy mohiyatga ega.

*Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,  
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar Ka‘ba buzulmazmu ?*

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Mashrab she’riyatining asosiy maqqudi – insonlarni mudroqlikdan uyg‘otish. Bir-biriga muhabbat bilan boqish, bir-birini anglash va bu orqali Ollohnangi anglashga yo‘naltirishdir. Shoir har bir ko‘ngilni sirli bir olam deb tushunadi. Zamondoshlarini uni sevishga chaqiradi. Biror dilni og‘ritishni, unga ozor berishni yuzlab Ka‘bani vayron etishga tenglashtiradi.

Xo‘sh, Mashrab nega shunday fikrda? Bizda paydo bo‘lgan bu involga Hazrat Navoyi ijodidan aniq javob topamiz:

*Ka‘baki olamning o‘lub qiblasi,  
Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka‘basi.  
Kim, bu xaloyiqqa erur sajdagoh,  
Ul biri Xoliqqa erur jilvagoh.*

<sup>1</sup> Н. Комилов. Тасаввувф, 2-китоб. Т., 1999, 194-6.

Navoyi fikricha, Ka'ba xaloyiqning sajdagohi, ko'ngil esa Xoliqning – Ollohnning jilvagohi, makon tutguvchi maskani Shuning uchun ham, u mo'tabardir.

Jahongashta Mashrabning dunyoqarashicha, har bir insonning dil olami tavof etishga, e'zozlashga sazovor. Chunki Tangri jamiki mavjudot ichra eng mukarram zot etib insonni yaratgan. O'zida eng go'zal fazilatlarni unda mujassamlantirgan. Inson dilida o'ziga nisbatan otashin muhabbat uyg'otgan. Binobarin, odamizod yuragida Olloh muhabbat mavjud ekan, u Ka'ba singari muqaddas muborakdir. Odamning dil olamiga kirishi Ka'bani ziyorat etishdek savob. Odamning dilini og'ritish Ka'bani vayron etishdek gunohni azim. Mashrabning insonparvarlik nuqtayi nazaricha, insonni sevish Ollohga muhabbat bog'lash, insoniy kamolotga erishish Haqning sifatlarini hosil qilish, haqiqatga etishish bilan barobar.

Insonga mehr, dili g'amgin xaloyiq xaylini sevish Mashrabiga azaldan bag'ishlangan tuyg'udir: "Azaldan men dili g'amgin xaloyiq xaylini sevdim". Nima uchun shoir dili g'amgin xaloyiqni sevadi? Chunki g'amginlik ham ijobjiy insoniy fazilatlardandir Asli, g'amli, dardli odam imonli, e'tiqodli, maqsadli, maslakli kishilar toifasiga mansub. Dili g'amgin inson faqat o'z g'amiga emas, o'zgalar g'amiga ham qayg'uradi. Aksariyat g'amsiz odamlar esa hech narsa haqida qayg'urmaydigan, dard chekmaydigan, loqayd va befarq bo'ladiilar. G'amsiz dilga ishq-muhabbat ham oshyon qurmaydi. Zotan, "dard chekmak, ashik to'kmak ishq eliga xosdur". O'z g'amiga ega bo'limgan odam o'zgalar g'amini emaydi. G'am chekmaydigan odamning xalq g'amidan ham g'ami bo'lmaydi. Shuning uchun Alisher Navoyi "Odami ersang, demagil odami Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami" deya xalq g'amini emaydiganlar odamiylikdan yiroq ekanligini ta'kidlaydi. Boborahim Mashrab esa unday toifali kishilarni "dilda darding bo'lmasa, dardi sarimni kavlama!" deya rad etadi.

Bunday satrlarida Mashrab xalq dardini, vatan dardini, dimu diyonat, Haq va haqiqat dardini nazarda tutadi. Shoiring dardparvar ruhida xalqparvarlik g'oyalari etiladi:

*Muhabbat dardida ovvora bo'lgan xalqni ko'rdim,  
Ko'zi vaqt sahar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdim,  
Tani dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdim,  
Dili tig'i sitamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdim,  
Zulm tug'yon etibdur – har birisi bexabar tanho.*

Mashrab bu misralarda Haqni, haqiqatni, dinu diyonatni izlab, muhabbat vodiylarida sarson-sargardon kezgan xalqni kuylayotir. Tong saharlab Haqning jamolini sog'inib, dilda g'amu ko'zda nam bilan ajdaga bosh qo'ygan, ko'zlar haqiqat nurilaridan yulduzdek charaqlagan xalq timsoli mujassam bu satrlarda. Bu xalq haqsizlik, tongizlik, imonsizlik, e'tiqodsizlik, diyonatsizlik dardlaridan yurak bag'ri jarohatlangan kishilar. Ularning dillari shaytoniy nafs suriji, hirsu havas sitamlaridan yuz ming pora bo'lgan. Ushbu saloyiqning erktalab, baxttalab, hur va mo'min ruhiyatiga jamiyatning nosog'lom muhitida tug'yon urgan zulm o'z ta'sirini o'tkazgan. Shuning uchun Mashrab o'rtaqib, xaloyiq dardiga chora izlaydi.

Xalqning dardiga malham bo'lish Mashrab xalqparvarligining bo'li muddaosidir.

*Maqomi qurbat o'tig'a agar kirsang – huzur topsang,  
O'zung zahroba yutgil, xalqni komiga shakkar tut.*

Qurbat – haqiqatga yaqinlik, etishganlikni anglatadi. Shoир аytmoqchiki, agar haqiqat maqomiga erishsang, Haqning huzuriga bahramandlik baxtiga muyassar bo'lolsang, faqat o'zingni o'yinmay, birinchi galda xalqni ma'naviy-ruhiy balog'at shaklidan bahramand etgil. Asar xalqning ma'naviy-ma'rifiy divolini yaxshilash fikri bilan yo'g'irilgan. Insonning ma'naviy o'lumi boyitish, imoni butunligiga najot berish Mashrab xalqparvarligining xos xususiyatlardandir.

*Imoning sham'ini ravshangaridur hamdamni qobil,  
Qo'lingdin kelsa, doim yaxshi xalqlarni birodar tut.*

Mashrab aytmoqchiki, insonning imonli bo'lishi, imonini umrbod salomat saqlashi uning hamdamlari, hammaslak do'stlariga ham bog'liq. Qobil do'stlar imon sham'i ravshanroq yonishiga xizmat qiladi. Shuning uchun Mashrab doimo yaxshi xalqlarni birodar tutishni maslahat beradi.

Mutafakkir shoirning insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari odamgarchilik to'g'risidagi pandu nasihatlarida ham mujassum Shoир ma'naviy-axloqiy etuk insonda kamtarinlik, xokisorlik, dardmandlik kabi oliy fazilatlarni ko'rishni istaydi.

*Boshing gardunga etsa, bo'l magil zinhor xursande,  
O'zungni har xasu xoshokdin, ey banda, kamtar tut.*

Mashrabning dunyoqarashicha, ma'naviy kamolotga talabgor odam, har qancha ulug' martabalarga ko'tarilmasin, mag'rurlanib ketmasligi, o'zini xasu xashakdan ham kamtar – tuproq bilan teng tutishi lozim.

*Ulug'man, deb takabbr pesha qilma mushtiparlarga,  
Sarafrozi topay desang, davomat diydani tar tut.*

Ba'zi ulug'lik darajasiga etgan kishilar kibru havoga berilib, beva-bechora, etim-esirlarni nazar-pisand qilmay, ularga nisbatan kalondimog'lik, takabbrlik bilan munosabatda bo'ladir. Mashrab odamlarni ana shunday xulq-atvordan saqlanishga da'vat etadi.

Nafsga qarshi kurash, uni mag'lub etishga intilish tasavvuf ahli axloqining asosiy xususiyatlardan bo'lган. Nafs, hirsu havasning xuruji hamisha ma'naviy poklik va mukammallikka rahna solib kelgan. Shu boisdan Mashrab o'z she'riyatida nafs va hirsu havasdan poklanishga, saqlanishga qayta-qayta da'vat etadi. Hayot chorrahalarida nafs insonni shu qadar mag'lub etadiki, bandayi ojizligidan Mashrab faqat Tangridan najot va panoh so'raydi:

*Nafsi sarkash muddaosidin xudo bersun panoh,  
Bul zamona muttakosidin xudo bersun panoh.*

Mashrab zamonasi va jamiyatining suyanchiq, tayanch arboblari ham nafs shaytanatiga mubtalo ekanligini ayamay fosh etg'an.

*Jahon shayxi, kibori olimu qoziyu mufti,  
Hama o'z nafsi birla sargaron, men – bevatan keldim.*

Jamiyatning hamma ustunlari nafsga berilgan bir vaziyatda bir shoir nafsga qarshi ayovsiz kurash e'lom qilsa, u albatta, hukmfarmoni doiralarga yoqmasligi, quvg'in-qatag'onga uchrashi tuyin. Mashrabning nurli, ayni paytda, foje qismatiga mana shunday qarama-qarshi nuqtayi nazar sabab bo'lgan.

Mashrab ijodiyotida ishq madhi mo'tabar martabada turadi. Shoir ishqini imon belgisi, imon garovi yanglig' ulug'laydi:

*Qaysi tanni ishq yo 'q bo 'lsa, oni imoni yo 'q,  
Har kishini dardi gar bo 'lsa, oni qurbaniman.*

Shoir nazaricha, ishq-muhabbat dard ahligagina xos. To kishiga Olloh dard bermas ekan, uning yuragida ishq otashi shu'lalanmaydi. Demak, muhabbat har kimga nasib etmaydi. Ko'ngli muhabbat otashgohiga aylangan oshiq esa Mashrabdek salobat kasb etadi:

*Barchaga molu johini, ne 'matu mulku joyini,  
Menga beribdur ohini – ushbudurur salobatim.*

Lirik qahramon barchaga beriladigan molu mansab, ne'matu mulku joh o'rniga olloh ishq izardorlaridan chekiladigan oh bergenligi uchun shukur etadi, ko'ngli faxru iftixorga to'ladi. Chindan ham, Mashrabning oshiqona va shoirona salobati uning yeri osmonni o'rtovchi ohlarida mujassamdir. Biror shoir oh tasvirini Mashrab singari haddi a'losiga etkaza olgan bo'lmasa

kerak. Biz bunga “O’rtar” radifli g’azal mutolaasida ham imon keltirgan edik. Ammo mana bu baytdagi oh tasviri Mashrab mahoratining tengsiz namunasidir:

*G’am shomi firoqingda kabob etti falakni  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.*

Shoir bu misralarda shunaqangi mubolag‘ali manzara tasvirini yaratganki, uni xayolotga, tasavvurga sig‘dirish qiyin. Xohi ishoning, xohi ishonmang, oshiqning saharlab chekkan ohi shu qadar kuchliki, u yashin tezligida falakka ko‘tariladi, falakni kun bo‘yi o‘z otashida qovuradi va kechga borib falakdan kabob tayyorlaydi.

Oshiqlikning shart-sharoitlari, riyozaatlari, visol va hijron mashaqqatlarining mushkulkushodi, oshiqning xulq-atvori, ma’naviy qiyofasi Mashrab g‘azaliyotida ta’sirchan tasvirlangan.

*Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmay,  
Riyozaat chekmaguncha yor vasliga etib bo‘lmay.*

Oshiqlik kamolotini kasb etish, yor visoliga tuyassar bo‘lish riyozaatlар tortishni taqozo etadi. Shoirning badiiy mahorati shundaki, bu fikrni jo‘ngina bayon etib qo‘ya qolmay, uni qator hayotiy tafsillar bilan asoslaydi: tikansiz gul o‘smanydi, gulni qo‘lga kiritish uchun tikanining og‘riqli sanchishlariga bardosh berish kerak; sadafsiz dur bo‘lmaydi, durni sadafdan ayirib olishning ham riyozaoti bor; hunar o‘rganish uchun uning mashaqqatlarini sabot bilan engib o‘tish lozim.

Boborahim Mashrab badiiy mahorat sirlarini mukammal egallagan san’atkor shoirdir. Uning mahorati badiiy san’atlarni qo‘llash bilan emas, balki lirik asarlarni quyuq falsafiy fikrlar bilan yo‘g‘irishda ko‘rinadi. Mashrab asarlari badiiyati o‘ziga xos falsafiy tafakkur salmog‘i bilan o‘lchanadi. Ko‘p ma’noni oz so‘z bilan ifodalash san’ati nuktadonlik, nuktasanjlik deyiladi. Nukta san’atini ko‘pchilik, ayniqsa, kaltafahm kishilar, Mashrab ta’biri

bilan aytganda, "ko 'tohnazar el" tushunib etmaydi. Mutafakkir shoir xos ma'nilarni xos kishilarga qarata aytgan. Ularni avom – "ko 'tohnazar el" bilmas edi. O'ziga xos dunyoqarashini bu toifa kishilar fahmlashi hurfikr Mashrab uchun xavotirli ham edi. Bu hol Mashrab dunyoqarashining badiiy mohiyati murakkab shaklda ibodalanishiga ham sabab bo'lgan.

*Ko 'tohnazar el bilmasa deb xasta bu Mashrab  
Ming ma 'nini bir nukta bila muxtasar ettim.*

Darvoqe, Mashrab she'rlaridagi bir nuktada ming ma'ni mujassamligini xosu avom baravar tushunmagan. Xos fahmlagan, avom fahmlamagan. "Ko 'tohnazar el" g'aflatda qolgan.

Mashrabning ko'pchilik asarlaridagi har bir bayt chuqur fahmiy fikrlar bilan sug'orilgan.

*Garchi osiyman, aning dargohidin navmid emam,  
Bir gul uchun suv berurlar sad hazoron xorni.*

Shoir "garchi gumroh va gunohkor bo'lsam ham, ma'shuqi mutlaq visolidan noumid emasman" degan fikrni tagzamini juda baquvvat hayotiy tafsil bilan izohlaydi. Chindan-da, bog'bonning gulga bergen suvidan uning tanasidagi tikันlar ham bahramand bo'ladilar. Shoir o'zini tikandek kamtarin va xokisor tutib, umidvorligini izhor etgan. So'zaro shuni ham qistirib o'tish kerakki, Mashrabning dardchil she'riyatidan umidsizlik emas, umidvorlik ruhi ufurib turadi. Mashrab umidsizlikni kufr hisoblaydi: "Noumidlik kufr erur, do'stilar, umid qilmoq kerak !"

Lirik qahramon ma'naviy qiyofasida musulmonlarcha sabr-toqat, itoatkorlik, qanoatpeshalik sifatlari bo'rtib turadi.

*Ahvoli dilim aytg'ali bir mahrame topmay,  
Zulmingni qarindoshu g'amimgni padar ettim.*

Mo'min oshiq ahvoliga qanday azob yuzlanmasin, u yori azizining inoyati deb qabul qiladi. O'zining nasibasidek o'zlashtiradi. Ma'shuqaning zulmini qarindoshdek, g'amini esa padari buzrukvoridek qarshi oladi.

Mashrab e'tiqodida ko'ngil tahirati, dil namozi eng muhim ma'naviy omillardan hisoblanadi. Mashrab maslagida xuddi nafis singari gina-kudurat, hasad-xusumat, fisq-fasod ham mo'minning ashaddiy dushmani sanaladi.

*Oxiri manzilga etmasdur kuduratlik ko'ngul,  
Dilga jo bermoq na hojat dushmani g'addorni.*

Tasavvuf e'tiqodicha, dilni faqat yorga bermoq kerak. Ko'ngildan yuqorida sanalgan g'addor dushmanlarga o'rinn berilat ekan, unday maskanni yor tark etadi. Kuduratli ko'ngil sohibi visol ko'shkiga ko'tarilishdan mahrum bo'ladi.

Shoirning fikricha, to dilda ma'rifatdan nuri imon bo'lmasa, so'fining ishq da'vosini qilishi behuda. Orif oshiqqina dunyo manfaatlaridan forig' bo'lib, yor muhabbatini qozonishi mumkin.

*Xotiri pokingni mashg'ul qilma hargiz dunyog'a,  
Dil g'uboroluda bo'ldi, ul ko'rolmas yorni.*

Dunyo manfaatlariga mehr bog'lash, mol-mulkiga hirs qo'yish so'fining musaffo ko'ngil ko'zgusiga gard yuqtiradi. Oshiq ko'ngil ko'zila yorni ko'rolmay, diydordan benasib bo'ladi. Ko'ngilni anglash va uni poklab borish insonni Ollohga yaqinlashtiruvchi vositadir. Chunki, g'uborlardan tozalangan qamish-naydan ruhbaxsh navo taralganidek, pokiza ko'ngilda ham ilohiy ishq hayotga muhabbat, go'zallikka oshuftalik mujdalari una boshlaydi.

Mashrab she'riyatida biz ana shu ilohiy ishq talqinini kuzatamiz. Ammo, uzoq yillar ilohiy ishq mohiyatini inkishof etuvchi asarlari tor ma'noda, ya'ni majoziy ishq tasviri sifatida baholanib kelindi. Shoir ijodidagi "dinga qarshi motivlar" ham bir yoqlama talqin natijasidir.

Mashrab ijodidagi ishq talqini o‘ziga xos. U Ibrohim Adham, Mansur Halloj, Attorni o‘ziga g‘oyibona pir deb biladi. Ularning yo‘lidan boradi. Mansur Halloj kabi o‘qli ilohiy ishq otashida yonib yashaydi. U hayotning, tirklikning mazmunini shunda ko‘radi. Uning asosiy maqsadi Olloho sevish va u bilan birlashish. Chunki u insonni g‘uborlardan, vujudiy, nafsoniy qafaslardan faqat shu idhiqqina ozod etishiga ishonadi. Shoир tasavvuricha, bunday muhabbatga oshno bo‘lмаган ko‘ngil haqiqiy go‘zallikni his qilolmaydi. Borar manzillari torayadi. Ko‘rar ko‘zлari xiralashadi. Quyidagi baytlar ham shoирning xuddi shunday nuqtayi nazari natijasi sifatida maydonga kelgan deyishimiz mumkin. Uning tasavvuricha, Olloho yodisiz, ishqisiz Makkaga borish besamar, Ka‘ba eski do‘kon yanglig‘ bee’tibor:

*Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?*

*Ibrohimdan qolg‘on ul eski do ‘konn ni na qilay?!*

*Urayinmu boshima sakkiz bihishtu do ‘zaxin,*

*Bo ‘lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!*

“Sig‘madim” radifli g‘azalida shoир ruhiy manzaralarining eng yuksak cho‘qqisi ifodalangan. Unda tavhid holatining insvirlariga duch kelamiz. Ilohiy birlikka vosil bo‘lgan lirik qabramon bir lahzalik foniy olamga, o‘tkinchi olam uning ruhiy tengliklariga sig‘maydi. Bu sig‘maslikning cheksizlikning sababi “analhaqlik”dir:

*Onqadar nurga to ‘libman osmonga sig‘madim,*

*Toqi Arshu kursiyu lavhu jinonga sig‘madim.*

*Kimga soyam tushsa, bir nuri yaqin bo ‘ldi u ham*

*Daftari ruhi qudsdurman, zabonga sig‘madim.*

Mashrab ilohiy ishq sarhadlarida zohidlar bilan kelisha olmaydi. Chunki unga zohid jannat ilinjida yurgan tamagir bo‘lib tuyuladi. Shuning uchun ham u zohidning riyoxalash namozini bir kora may – Ishqqa almashmaydi:

*Zohid, manga bir shishada may, senga namozing,  
Ming taqvini bir kosai mayga sota qoldim.*

Umuman, zohidlikni rad etish mumtoz adabiyotimizda an'ana. Buning mohiyatini ulug' Ozar shoiri Nasimiyning quyidagi bayti yanada oydinlashtiradi, deb o'yaymiz:

*Zohidin bir barmag'in kessen do'nub Haqdan gachar,  
Ko'r, bu Miskin ashigi, sarpa so'yarlar ag'lamaz!*

Mashrab tasavvuf g'oyalarini targ'ib qiluvchi etuk mutafakkir, mutasavvuf shoir bo'lishi bilan birga, oddiy insoniy kechinmalar kuychisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning asarlarida Vatan sog'inchi, ona oldida qarzdorlik tuyg'usidan iztiroblanish kabi kechinmalarning samimiy ifodasini ko'ramiz.

Oshiq uchun hamma narsadan aziz va eng muhimi – yorga etish. Ba'zi dindorlar musulmonlik takomilining eng oliv maqomi Hajga borib, Ka'bani ziyorat qilish, deb tushunishgan. Lekin imoni mukammal bo'lmay, e'tiqodi Haqning muhabbatiga munosib darajada shakllanmay, Islomning dastlabki shartlarini bajarmay turib, Ka'baga borib kelaveradiganlar ham ko'p. Mashrab mana shunday soxta, notugal, dunyoviy manfaatlар bilan qorishgan taqvodorlikka qarshi. U Tangrining muhabbatiga tuyg'usidan bo'lmay turib, ya'ni yorsiz ham bodasiz – dilda yor jamolim jilvalantirmay, Ka'baga borish Ibrohim payg'ambar qurgan ko'hna bir imoratni ziyorat qilib kelish bilan barobar, deb tushunadi. Mashrabning oliv e'tiqodicha, Ka'ba – Ollohnning uyi ekan, uni dilda limmo-lim muhabbat bilan tavof etish shart. Aks holatdagi ziyorat riyodir. Mashrabdek pok e'tiqod kishisi uchun yor vasliga tuyassarlik bo'lmas ekan, nafaqat Ka'ba ziyorati, balki sakkiz jannatu do'zax, ikki jahon manfaatlari tatimaydi. Mashrabona e'tiqoddagi solik uchun eng oliv muddao tanho Xudodir. Qolgan barcha unsurlar – Ka'bayu Madina, jannatu do'zax, namozu ro'za – hammasi g'alat, ikkilamchi, zohiriy narsalardir. Chunki ularning barchasidan murodu maqsad, oxir-oqibatda, oliv haqiqat

Xudodir. Shoirning ramziy talqiniga ko'ra, Xudo – gul, qolgan hamma narsa – uning vujudidagi tikanlar. Tikanlarga andarmon bo'lib, gulga etisholmay qolish, uni qo'ldan chiqarish, benasib qolish mumkin. Hamma narsaga intilib, erishib, asosiy maqsaddan chalg'ib ketish, Xudoni unutish yoxud unga etisholmaslik xavfi yo'q emas. Ammo asl muddao – gul qo'lga kiritilsa, tikanga ehtiyoj qolmaydi. Afsuski, bunday dunyoqarashi tufayli Mashrab ko'p kulfat ko'rdi, uzoq davr mobaynida noto'g'ri tushunildi. Dahriylikda ayblandi.

Mashrab she'riyatidagi asosiy g'oyalardan biri – insonni o'ziga tamitishdan iboratdir. U ko'p yurtlar kezib, kishilarning yashash tarzi, tabiatini kuzatib, barcha fojialariga, iztiroblariga sabab ularning nafsi degan xulosaga keldi. Ibrat sifatida, o'zi anglagan dunyo mohiyati borasidagi tasavvurlaridan zamondoshlarini ogoh etish maqsadida qalandarlik yo'lini tanlaydi.

Qalandariylik yo'li adabiyotshunoslikda mukammal talqin etilgan emas. Ammo, ayrim manbalarda, ayrim ilmiy tadqiqotlarda ba'zi chizgilar, mohiyatini yorituvchi mulohazalar bayon etilgan. Navoyi asarlari lug'atida ushbu istiloh quyidagicha izohlanadi: "Qalandar – dunyoning hamma bordi-keldilaridan voz kechib, daydib yuruvchi darvesh; devonatabiat kishi, loqayd". Bu izoh istilohning mohiyatini qisman oydinlashtirsada, to'liq tasavvur berolmaydi.

Qalandariylik borasida adabiyotshunoslikda turli bahsmunozaralar mavjud. Ba'zi olimlar u XIII-XIV asrda shakllangan deyishsa, ayrimlari, jumladan, Fitrat Yassaviylikdan keyin XII-XIII asrlarda paydo bo'lgan deydi.

Qalandariylikning o'ziga xosligini izohlash borasida ham illomalarining bir-birini to'lg'azuvchi turli qarashlari mavjud. Jumladan, "Haft qulzum"da: «Qalandar butun rasmiy takliflardan, butun qaydlardan (kishan – N. J., I. A.) ozod bo'lgan, har turli diniy imal va odatlardan ayrılgan, butun moddiy, hayotiy aloqalarni tark qilgan, ibodat va odatlarning hammasini buzg'uvchi kishining ismidir», deydi.

Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarida esa “Qalandarlar diniy ibodatlarning farz bo‘lgan qismlarinigina ado qiladilar. ...Malomatiylar diniy ibodatlarni ijro qiladilar, biroq ijro qilganlarini xalqdan yashiradilar. Qalandarlar esa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri diniy ibodatlarni va odatlarni buzadilar”, deya baholanadi.

“Bahori Ajam”da quyidagi bayt keltiriladi:

*Sanamoroi qalandar, sardor, ba man namon  
Ki, base daroz didam rahu rasmi porsoyon.*

(Mazmuni: Taqvo yo‘li juda ham uzoq ekan, ey qalandarlarning piri, menga qalandariylik yo‘lini ko‘rsat).

Agar qalandarlar faoliyatini kuzatsak, ular haqida aytilgan fikrlarni umumlashtirsak, ularning yo‘lida bir nechta tariqatlarga xos xususiyatlar birgalikda mujassamligini ko‘ramiz. Jumladan, ularning hayot tarzlarida yassaviylikka xos jahriylikni, malomatiylikning ayrim belgilarni, naqshbandiylikka xos umumbashariy, gumanistik g‘oyalar mutanosibligini ham kuzatamiz.

Qalandarlarning o‘ziga xos yurish-turish, axloq va kiyinish odobi bo‘lgan. Ular amal qilishi, riosa etishi lozim shartlari mavjud. O‘z R FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi ShIda 9175 raqami ostida saqlanayotgan tasavvufga oid qo‘lyozma tarkibiga “Risolai qalandariy” ham kiritilgan. Unda qalandarlik va qalandarlar riosa etishi lozim shartlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Ayniqsa, fe’l-atvorida shakllanishi zarur bo‘lgan faqr tushunchasi haqida alohida to‘xtalinadi. Uning 3 ta muhim belgisi ta’kidlab ko‘rsatiladi: “Tariqat mashoyixlari faqrning uch nishonasi: quyosh kabi shafqatli, yomg‘ir kabi saxovatli, er kabi tavozeli bo‘lish deb aytganlar”<sup>190</sup>. Xirqa kiyish va faqr maqomini egallash tariqatda muhim hisoblangan.

Qalandarlarning janda, kuloh, kamar, aso, kachkul, sepoja qo‘yish, suyanchiq qo‘yish, po‘stin kiyish kabi maxsus kiyinish odoblari bo‘lgan. Bularning har birining ramziy mazmuni va qat’iy

<sup>190</sup> Рисолайи қаландарий. “Ёшлик” журн., 2000, 3-сон, 46-б.

mas'uliyati bo'lgan. Risolada, ayniqsa, darveshlarning bosh kiyimi hisoblangan kulohga keng izoh berilgan. Uning eng muhim mohiyati sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: "Va bilginki, kulohning to'rtta xonasi bor. 1. Shariat xonasi. 2. Tariqat xonasi. 3. Ma'rifat xonasi. 4. Haqiqat xonasi. Va yana shuki, kulohning to'rt tarki bor. 1. Nafs tarki. 2. Xalq tarki. 3. Dunyo tarki. 4. Oxirat tarki"<sup>191</sup>.

Ma'lumki, qalandarlik bilan gadolik chambarchas bog'liq. Risolada gadolikning uch turi ko'rsatiladi va izohlab beriladi: "Agar gadolik necha xil, deb so'rasalar, uch xil deb javob ber: 1. Shoh gadolik. 2. Nar gadolik. 3. Xar gadolik..."<sup>192</sup>.

Barcha ko'rsatmalar, ma'lumotlardan so'ng risola so'ngida qalandariylik tariqatining mohiyati umumlashtirib beriladi: "Ey darvesh, qalandarlik tariqati shuki, haqiqat yo'lida ikkilansin va odamlarga behuda so'zlamasin. Va yana kachkulini ko'tarib yurish odobi shuki, avvalo, to uyiga kelguniga qadar tahoratli va ro'zador bo'lsin. Va yo'lda chor-atrofga ko'z tashlab, nomahramga nazar qilmasin. Va tilini yolg'on so'zlashdan asrasin, piriga beadablik qilmasin, faqirlarga rahm qilsin va hamma a'zolarini pok tutsinki, Xudoning qutbi Xoja Bahoul Haq vaddin qaddasallohu ruhahu shunday qilganlar va ham shunday buyurganlar"<sup>193</sup>.

Etuk adabiyotshunos Fitrat qalandariylik tariqatiga oid ko'p manbalar bilan tanishgan. Hayotda o'zi guvohi bo'lgan holatlarni eslagan. Ularning hammasini umumlashtirib, quyidagi xulosalarni bayon etgan: "Qalandarlik musulmon tasavvufining sho'basidir. Bu maslak bizning o'lkamizda so'ng kunlargacha davom qildi. O'zbekiston shaharlaridan har birining tashqarisida "qalandarkona" ismli go'zal bog'cha holiga keltirilgan bir joy bor edi. Qalandarlar shunda turar edilar. Bular qisman mahalliy, qisman musofir, yersiz, xususiy mulklari bo'limgan kishilardan iborat bo'lib, asosiy kasblari tilanchilik edi. Haftada ikki daf'a tilanchilikka chiqib, shahar va bozorlarni aylanar edilar. O'zlariga maxsus qalandariy kuylari bor edi. Oralaridan eng yaxshi tovushlisi shu kuylarda Yassaviy, Mashrab kabi shoirlarning she'rlarini o'qur

<sup>191</sup> Ўна ақап, 47-бет.

<sup>192</sup> Ўна ақап, 47-бет.

<sup>193</sup> Ўна ақап, 47-бет.

va boshqalari uning naqoratini qaytarib turar edilar. Oralarida bir boshliqlari bo'lib, munga "bobo" derlar. Tilanchilik chog'ida to'plangan pulni shu bobolari terar va shundan ularni ta'min qilib turar edi"<sup>194</sup>.

Yuqorida manbalardan keltirilgan fikrlar bizga qalandariylikning mazmun mohiyatini anglashimizga yordam beradi. Ularning tashqi qiyofasi, botiniy olami haqida tasavvur uyg'otadi. Qalandariylikning bardavomligi haqidagi Fitrat fikriga qo'shimcha ravishda shuni aytishimiz mumkinki, qalandarlar va qalandarxonalar XX asrning etmishinchi yillarigacha ham barhayot bo'lgan. Xususan, biz o'tgan asrning oltmishinchi yillari oralig'ida Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanida tirik qalandarlar va qalandarxonalarini ko'rganmiz.

Mumtoz adapiyotda ayrim ijodkorlar qalandarlikning maqsadi va mohiyatini yorituvchi badiiy asarlar ham yaratishgan. Jumladan, Mashrab ham uning insonparvar g'oyalarini oydinlashtiruvchi izohlab beruvchi g'azallar yozgan. Mashrab boshqa tasavvuf tariqatlariiga nisbatan yanada musaffo e'tiqodga erishish uchun qalandarlik yo'lini tutgan. Qalandarlik falsafasi juda sodda, amma bugun biz uchun to'liq ochilmagan qo'riqdir. Tasavvufdagi qalandarlik yo'li haqidagi sodda tasavvurlarni bizga Mashrab she'riyati beradi.

*Havas bozorini dur aylagil zinhor boshingdin,  
Qo'lungi ikki dunyodin uzub, dilni qalandar tut.*

Mana shu baytning o'ziyoq qalandarlik falsafasining asosiy mohiyatini aks ettira oladi. Anglashiladiki, qalandar shunday insonki, uning boshida dunyoning ming bitta orzu-havasi aylanmasligi, tafakkuri manfaat iskanjasidan ozod, xotiri tirikchilik g'am-tashvishlaridan, mojarolaridan osoyishta bo'lishi kerak. Havas bozoriga aylangan boshga ro'zg'orning ming bir savdosi tushadi va u erkin bo'lolmaydi. Qalandar esa fikran, qalban, ruhan erkin, ikki dunyo manfaatlaridan qo'l tortgan, dilida faqat Oolloh

<sup>194</sup> Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд.Т.: 2000, 50-бет.

ziki bilan mashg'ul insondir. Mashrabning "Qalandar bo'l, qalandar bo'l" radifli g'azali qalandarlikning, ham Mashrab ijodining o'zak-mohiyatini anglashimizda asos bo'ladi. Bunda lirik qahramon solikka Asl maqsadga etish, ruhan ozod bo'lish yo'lini ko'shatib beradi. Lahzalik fony ashylardan g'olib kela olish va boqiyilikka musharraf bo'lish sinoatidan saboq beradi. Qalandarlik yo'lining xosiyati, shart-sharoitlari, g'oyaviy muddaosi g'azalda jinda ravshan ochilgan.

*Murodingga etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,  
Sitam ahlin yutay lesang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Riyozatsiz bo'lay desang, tanim ozod yuray desang,  
Jahonni sayr etay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.  
Bu taqvodin kechay desang, xonaqohdin qochay desang,  
Haqiqatni ochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.*

Solikning maqsad-murodi Haqning diydoriga tuyassar bo'lish, haqiqatni ochishdir. Bu asl va oliv muddaoga erishish uchun qalandarlar dunyoning barcha huzur-halovatiyu ayshishratidan, orzu-havasidan voz kechganlar. Ular Haqni telbalarcha izaqanlar. Ular dunyoning boshqa lazzatlari qatori, oila qurish baxtidan ham qo'llarini yuvib, qo'ltiqlariga urganlar. Dunyoning barcha mashaqqat va riyozatlaridan bir yo'la qutulganlar. Qalandarlar tanlarini-da ozod tutganlar, xonaqohlarni tark etganlar, taqvoning zohiriy chegaralarini yorib o'tganlar, shaharma-shahar, yurtma-yurt kezib, ezbilikdan ma'rifat qilganlar. Ular yaktan, valangto'sh bo'lib, xaloyiq o'rtasida dunyoning vafosizligidan, ijtimoiyadolatsizlikdan faryod qilib, haqiqat yo'lini, dinni, pag'umbaru avliyolarni talqin etib, ilohiyot ilmi haqida baytu g'azalu hikmat, dostonu rivoyatlar aytib, ma'rifatning bozorini qizitganlar. Ular jahonni sayr etib yurib, o'z hurriyatlar, ma'rifatlari bilan sitam ahlini yutganlar. Qalandarlar har qanday dunyoviy iskanjadon ozod bo'lish uchun doimiy makon ham qurmag'anlar. Qalandarxonalarda uyushib, tarqalib jon saqlaganlar. Shoir lirik qahramonining o'y-fikrlari, ahvoli ruhiyasi, "Shoh

Mashrab” qissasidagi sarguzashtlar Mashrabning o‘zi mana shunday qalandartabiat inson bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mashrab asarlari badiiyati ham o‘ziga xos. Uning g‘azallari kutilmagan xalqona ifodalar bilan sayqallanadi. Timsollar tizimining ham o‘z silsilasi mavjud.

Shoirning quyidagi baytini o‘qib, yuragingda hijronning za’far rangini his eta boshlaysan, kishi:

*Sarig‘ sadbarg shirin so ‘zluk yuzingni kunda bir ko ‘rsam,  
Yuzungdin yuz o ‘gurmasman agar yuz ming balo ko ‘rsam.*

Xalq orasida sariq gul hijron-ayriliq timsoli deyishadi. Demak, bu baytda “sariq sadbarg” – atirgul haqida gapirilishi tasodifiy emas. Bu kabi yangicha qiyosu tashbehlarni, timsollar tizimini shoir she’riyatidan ko‘plab keltirish mumkin.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, Boborahim Mashrab valiyona karomatlar sohibi, o‘ziga xos dunyoqarashli mutafakkir shoir edi. Shu bilan birga, ko‘pgina she’rlar Mashrab oddiy bir inson ekanligidan guvohlik berib turadi. Masalan, mana bu misralar Mashrab onani beqiyos darajada ulug‘lab seuvuchchi, onaning mehrliga zor, diydoriga tashna o‘g‘lon ekanligini gavdalantiradi:

*Jamoling ko ‘rgali keldim, ayo ey mehribon onam,  
Mening uchun ado bo ‘lgan yuragu bag‘ri qon onam...  
Ajoyib mehribonimsan, meni oromi jonimsan,  
Murodi du jahonimsan, behishti jovidon onam...  
Seni ko ‘p intizor ettim firoq o ‘tig‘a, ey Ka ‘bam,  
Tavofi Ka ‘bai maqsuda keldim, dilkashon onam.*

Bu baytlarni o‘qiganda, beixtiyor Mashrabga hamdardlik tuyamiz, sog‘inch hislarimiz tug‘yon ko‘taradi, dilda farzandlik mehrimiz gupurib toshadi, onamiz oldidagi qarzdorlik burchimizni yana bir bor anglaymiz. Ona bag‘rini Ka‘ba kabi muqaddas sajdagoh, abadiy jannah darajasida ulug‘lashni Mashrabdan o‘rganamiz.

Mashrabning “tanbur” radifli g‘azalida ham munglismushavvash ruhimizga hamisha hamroh tuyg‘ular mujassam.

*Bir necha raqiblar so 'zidin g'amzada bo 'lsam,  
Hamdard bo 'lubon og 'ushima kirguchi tanbur.  
Ko 'tohnazar el buni hech qadrini bilmas,  
Dargohi azaldin xabare berg'uchi tanbur.*

Mashrab tanbur timsolida vasf etgan sifatlar uning nazmiy soziga ham xosdir. Mashrab she’riyati bizga doimiy hamdard, hammaslakdir. Mashrab she’rlaridagi har bir so‘z “*dargohi azaldan*” ruhimizga mujdalar etkazib turadi.

#### *Tayanch tushunchalar:*

*Shariat, qalandariylik, tariqat bosqichlari, vahdat ul-vujud, anal haq.*

#### *Savol va topshiriqlar:*

1. *Qissayi Mashrab* "ni to 'liq o 'qib chiqing.
2. *Mashrabning bolalikdagи xulq-atvorida qanday ilohiy belgilar namoyon bo 'ladi ? Rivoyatlar asosida izohlang.*
3. *Shoir taqdiriga Mullo Bozor Oxund va Ofoq Xojanining ta 'siri haqida so 'zlang.*
4. *Tariqat nima, u haqda qanday asarlar o 'qigansiz?*
5. *Mashrabning dunyoqarashidagi o 'ziga xoslik haqida so 'zlang.*
6. *"Qissayi Mashrab" dan shoir qiyofasini qanday tasavvur etdingiz?*
7. *Mashhur SHayx Mansur Halloj bilan Mashrab taqdirini taqqoslang, ular qismatidagi o 'xshashlikning sababi nimada?*
8. *"Sig'mamdur" radifli g 'azalni sharhlang.*
9. *"Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?"*
- “*Bir xudodin o 'zgasi barcha g 'alatdur, Mashrabo*” misralarini qanday tushundingiz?

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. *Boborahim Mashrab. Mehribonim, qaydasan. Asarlar.* T.: 1990.
2. *Qissayi Mashrab.* T.1992.
3. *G'afur G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar.* T.:1973.
4. *M.Zokirov. Erk va ma'rifat kuychilar.* T.: 1984.
5. *E.SHodiev. Mashrab.* T.: 1990.
6. *A.Abdug'afurov. Erk va ezentlik kuychilar.* T.: 1979.
7. *N.Komilov. Tasavvuf.* 2-kitob. T.: 1999.
8. *Jumaxo ja N. Milliy mustaqillik maskurasi va adabiy meros. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.* T.: 1999.

## XO'JANAZAR G' OYIBNAZAR O'G' LIHUVAYDO (Tug'ilgan yili noma'lum, 1780/1781 yillarda vafot etgan)

### *Reja:*

1. *Huvaydoning hayoti va ijodi manbalari.*
2. *Shoirning adabiy merosi.*
3. *Huvaydoning dunyoqarashi va she'riy mahorati.*
4. "Xoki poyi yaxshilar bo'l..." g'azali tahlili.
5. *Astlyatga qaytish ma'rifati.*
6. *Shoirning "Rohati dil" dostoni va uning adabiyot tarixidagi o'mi.*

*Huvaydoning hayoti va ijodi manbalari.* XVIII asrda yashab ijod etg'an mashhur shoirlardan biri Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydodir. O'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, mutasavvuf shoirlar silsilasida Huvaydo muhim o'rin tutadi. Uning hayot va ijod yo'lli haqida juda kam ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Biz u haqdagi ayrim ma'lumotlarni V. Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida, "O'zbek adabiyoti tarixi" 5 jildli tadqiqotning 4-jildida, N. Jumaxo'janing "Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati" kabi asarlarida uchratamiz. 1994-yilda, shoirning 290-yillik yubileyi arafasida, u haqdagi dastlabki disertasiya himoya qilindi<sup>195</sup>. "Rohati dil" dostoni chop etildi<sup>196</sup>.

Huvaydoning tarjimayi holi haqida juda kam ma'lumot etib kelpan. Huvaydo o'zining manzil-makoni, kelib chiqishi haqida bunday yozadi:

*Kaminaning oti Xo'janazardur,  
Atosining oti G'oyibnazardur.  
Nasabda O'shiyu mavludi Chimyon,  
G'aribu xokisoru dil parishon<sup>197</sup>.*

<sup>195</sup> Абдуллоев Нурбеков Абдуллоев Худойбердиев. Хувайдо ҳаёти ва ижоди. Филология фанлари номзоди илмий оқиғаси учун ёкилган диссертация автореферати. 1994.

<sup>196</sup> Х. Хувайдо. Роҳати дил. Т. 1994.

<sup>197</sup> Х. Хувайдо. Дисен. "Янги аср авлоди", Тошкент, 2005 йил, 3-бет. Кейинги иқтибослар ёнида оғизи туттилиди.

Ushbu misralar Huvaydoning ismi, otasining oti, sulolasiga asli o'shlik bo'lib, shoir Chimyonda tug'ilganidan dalolat berib turibdi Haqiqatan, Huvaydoning otasi G'oyibnazar Ernazar o'g'li 1104-hijriy yilda bir guruh marg'ilonlik qarindoshlari bilan birga Chimyonga ko'chib kelib, chimyonlik bir qiz bilan oila qurgan Huvaydo shu oilada, shu maskanda tavallud topgan. Huvaydoning tug'ilgan yili aniq emas. Qarindosh-urug'larining xotiralariga suyaniladigan bo'lsa, u taxminan 1704-yili tug'ilgan. Otasi G'oyibnazar Sharq olamida mashhur Qashqarlik piri murshid Ofoq Xojaning muridi bo'lган. U ilmli, ma'rifatli, donishmand, oril mullo kishi edi. Chimyonda maktabdor eshon bo'lган Xo'janazarning ismini ham piriga ixlos va hurmatining ramzi sifatida qo'ygan. Huvaydo shoirning adabiy taxallusidir. "Huvaydo" so'zining lug'aviy ma'nosi: ayon, ravshan, paydo, zohir, belgili, oshkor demakdir.

Huvaydo boshlang'ich ta'limni Chimyondagi maktabda oladi. So'ng bilimini takomillashtirish maqsadida Qo'qon madrasalarida tahsilni davom ettirdi. O'z ma'naviy olamini Sharq mumtoz adabiyoti, falsafasi, islom va tasavvuf ilmi durdonalari bilan boyitdi. Tahsilni tugallab, Chimyonga qaytgach, Huvaydo muallimlik bilan shug'ullandi, xonaqohlarda va'zzxonlik qildi. Tasavvuf va tariqat talablaridan kelib chiqib, tariqat ahli, albatta, biror hunarni egallaganlari singari, Huvaydo ham to'quvchilik hunari bilan mashg'ul bo'ldi. Huvaydo umrining asosiy qismini xalq ta'limiga bag'ishlaganini shoir Noseh bunday tavsif etadi:

*Tutub suhbat davom umrin boricha,  
Bayoron ta'lim erdi fikru yodi.  
Dabistonda sa'y aylab tunu kun,  
Yozilg'on necha tolibning savodi.  
Muningdek olihimmat er anodin  
Dubora tug'mag'aydur hech bilodi<sup>198</sup>.*

<sup>198</sup>. Хувайдо. Девон. "Янги аср авлоди", Тошкент, 2005 йил. 267-268-бетлар. "Баёрон" сўни девонда "баёни" шаклида берилган, сўз бошқа манбалар асосида ислоҳ этилди.

Huvaydo umrbod Chimyonda yashadi. Zamondoshlari Noseh va Sadoyilarning marsiya-ta'rixlaridan shoirning 1780-81-yillarda vafot etgani anglashiladi.

*Shoirning adabiy merosi.* Huvaydoning keyingi avlodlaridan Maylaviy Sirojiy, Samarbonu, Salohiddin Soqib kabi sohibdevon shoitlar etishib chiqqan. Shulardan Soqib bobosi asarlarini jamlab, muxammal bir devon holiga keltirgan. U qayta-qayta ko'chirilgan. Devoniga shoirning 351 g'azali, 28 ruboysi, 41 to'rtligi, 3 muxammasi, 1 musaddasi, 1 musammani, 1 mustazodi, 3 masnaviyi va "Rohati dil" dostoni kiritilgan. 2005-yilda Huvaydoning "Devon"i filologiya fanlari doktori, professor Imatulla Abdullayev va falsafa fanlari doktori Qodirqul Bo'zmatzoda tomonidan joriy yozuvda to'liq nashr etildi<sup>199</sup>. Devoniga so'zboshi yozilgan va lug'at ilova qilingan. Nashrdan Huvaydoning 370 g'azali, 5 mustazodi, 3 muxammasi, 41 banddan iborat murabbasi, 28 ruboysi o'rinni olgan. Shoir asarlariga Noseh Chimyoniyning Huvaydo vafoti tarixi haqidagi nazmiy asari ham ilova qilingan.

*Huvaydoning dunyoqarashi va she'riy mahorati.* Huvaydoning asarlari xalq orasida mashhur edi. Qashg'ar, Yorkent, Oqsu, Xo'tan, Balx, Buxoro, Xorazm, Farg'ona viloyatlarida keng tarqilgan. Huvaydo ustozlari g'oyalarini, dunyoqarashini badiqlagan, takomilga etkazgan shoirdir. Uning asarlarida Navoyi, Mashrab, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. Shoir she'riyatida, ayniqlsa, Mashrabona ruh ustuvor. Uning "o'tti", "o'zum", "kuyar" radifli g'azallari qofiya va radif uchun tanlangan so'zlar jihatidan ham, mazmun, g'oya va falsafiy dunyoqarash jihatidan ham Mashrab asarlariga juda yaqin.

Devon mutolaasida Huvaydo g'azal, mustazod, ruboiy, chiston-g'azal kabi ruhbob she'r turlari, masnaviy singari epik nazim namunalarining mumtoz ustasi sifatida namoyon bo'ladi. Huvaydo g'azaliyoti, asosan, oshiqona, orifona ruhdagi g'azallardan tashkil topgan. Oshiqona g'azallarda ishqil komil yo'liga insoniy kamolot sari sabot bilan intiluvchi oshiq

<sup>199</sup> Узбекистон Хувайдо. Девон. "Янги аср авлоди" нашриёти. Тошкент, 2005 йил. 303 бет.

kechinmalari va qiyofasi ta'sirchan tasvirlangan. Orifona g'azallarda esa Huvaydo donishmand faylasuf siymo sifatida gavdalanyadi. Bunday g'azallar insonni ma'naviy kamol toptiruvchi so'fiyona ma'rifikat g'oyalari bilan yo'g'irilganki, buni tahlil jarayonida alohida kuzatamiz.

Huvaydo ham olam va odamning mohiyatini teran anglaydi. O'zi bilgan haqiqatlar bilan zamondoshlarini oshno etishga harakat qiladi. Ularni o'z nafslaridan g'olib, kamtar, kamsuqum, qanoatli, muhabbatli ko'rishni orzu qiladi. Huvaydo insoniyatning barcha ranju falokatiga bois keng ma'nodagi nafs ekanligini e'tirof etadi. Shoир uning qilmishini ajdarhoga o'xshatadi:

*Nafsing seni qattig' balo, albatta, urgil poy ango,  
Har dam seni o'tqa solur, zinhor berma roy ango...  
O'z royiga qo'ysang oni, bir da'mda ajdarho bo'lub  
Boshing yutarg'a o'g'rog'ay, erkingni berma boy ango (28).*

Manmanlik, takabburlik ham nafsga mag'lublikning bu ko'rinishidir. Inson tabiatidagi bu nuqsonning oxiri qanday xotima topishini shoир ibratli, hayotiy xulosalar orqali bayon etadi:

*Chandon kishilar "dunyo mening" deb quchub o'tti,  
Dunyo talashib bir-biridin qon sochib o'tti...  
Man-man dedilar, sig'madilar ushbu jahong'a,  
Ko'rgilkim, ani uch qari erni quchub o'tti (245).*

Huvaydo g'azallari, asosan, oshiqona va orifona ruhdagi g'azallardir. Orifona g'azallarida shoир dunyoning qorong'u kechmishlarini fosh etish bilangina cheklanib qolmaydi. Balki undan qutulish, ozod bo'lish yo'l-yo'riqlarini ham ko'rsatadi. Uni yengish tamoyillari bilan tanishtiradi. Shoирning fikricha, dunyoni tanishning yo'li bitta – kamolot hosil qilish, Olloohni tanish – mardi Xudo bo'lish:

*Dunyoni bilib, ravzanidin<sup>200</sup> mardi Xudolar,  
Solmay nazarin anga, yiroqdin qochib o'tti.*

Ammo, bu kabi fikrlar shoir kishilarni uzlatnishinlikka da'vat  
olgan, degan xulosaga olib kelmaydi. Chunki, u odamzodni,  
tirklikni, insonlarni g'animat bilishga, umrni yaxshilar va  
yashuliklar ichida xushbaxt o'tkazishga chaqiradi:

*Tirklikni g'animat bil, may ich, umringni xush o'tkar,  
Tepib o't dunyo molini, hama ranju falokatdур (83).*

Huvaydo she'rlaridagi dunyo, yor, may, ishq, oshiq, kabi ko'p  
o'zlar keng ma'noda qo'llanilgan. Ularni anglashimiz uchun  
islom, tasavvuf ta'lomitidan, ilmiy-nazariy manbalardan  
sabordor teran tafakkur iqtidoriga ega bo'lishimiz kerak. Ammo,  
ayrim o'rnlarda bu masalalarni oydinlashtirishda bizga shoirning  
o'zgartari ham yordam beradi. Jumladan, Alisher Navoyining:

*Ashraqat min aksi shamsil-ka'si anvorul-hudo,*

*Yor aksin mayda ko'r, deb jomdin chiqtி sado*

bayti bilan boshlanuvchi g'azali ta'sirida yaratilgan bir asarida  
shoirning falsafiy dunyoqarashi, olam va odamga munosabati, yor  
va may timsollarining mohiyati aniq ifodalanadi. U zohid  
dunyoqarashiga qarama-qarshi o'laroq, toat-ibodatning eng  
yashilini nafsni engishdir, deb tushunadi:

*Zohido, savmu salot ettim deyu ko'p urma lof,  
Behtarini toat uldur, bo'lsa nafsingga xilof (116).*

Ushbu g'azaldagi lirik qahramon o'zligini yengib shunday bir  
robiy yuksaklikka ko'tarilganki, o'z vujudini unutgan – bexud va  
mataona. Ammo, odamlarga katta muhabbat bilan qaraydi.  
Ularning har birini Ollohning elchisi – abadiy barhayot Xizr  
payg'ambardek suyadi.

200 Некон наприда "равзанидин" сўзи "раҳзани дин" дега хато берилган.

*Bexudu<sup>201</sup> mastona yurmishman o 'zimni bilmayin,  
Kimni ko 'rsam Xizr deb ilgin tutub, qildim tavof.*

Keyingi baytda qadah, yor, may timsollari bor. Ularni Navoyining yuqorida eslangan g'azali va Huvaydo talqinidan kelib chiqib quyidagicha sharhlash mumkin: Qadah – ko'ngil, yor – Olloh, may – ilohiy ishq. Ushbu izohlar vositasi bilan shoir bayti mohiyatini anglash engillashadi. Demak, Olloh visoliga etish ishq darajalari bilan bog'liq ekan:

*Bir sado chiqdi<sup>202</sup> qadahdin: yorni ko'r mayda deb,  
Ko'ra olmassan dedi to etmaguncha mayni sof.*

Yuqorida eslaganimizdek, shoir ijodida yor timsoli keng ma'noda qo'llangan. Shoir fikrlari, xulosalari, dunyoqarashidan kelib chiqib, quyidagi baytdagi "bevafo yor" timsolini biz fomiy dunyo, molu dunyo ramzi sifatida anglashimiz mumkin. Chunki birinchi misra shunday tushunishimizga asos beradi.

*Bevafo yorg'a ko'ngul bergen kishi odam emas,  
Mehnatu javru jafo andin zamone kam emas (99).*

Huvaydo din aqidalarini, shariatni mukammal egallagan, tasavvuf ta'limoti g'oyalarini ijod va hayot yo'lida dasturilamal deb bilgan shoir.

Ulug' mashoyixlarimiz qisqa qilib "tasavvuf o'zingdin o'lib, Olloh bilan tirilmoqdir", deya ta'rif berishgan. Bunday maqomga erishish vositasi esa – ishq. Ishq yo'li – ko'ngil yo'li. Bu yo'l og'ir, mashaqqatli, dardu armonlarga to'la. Ishqqa giriftor oshiq jondan, o'zlikdan kechmaguncha mushkuli oson bo'lishi dushvor:

*Ignada choh qazlag'ondek, oncha mushkul kori ishq,  
Toki jondin o'tmog'uncha kori oson topmadim (158).*

<sup>201</sup>. Нашпурда "бехуду" сўзи "бехуда" тарзидаги като кетган.

<sup>202</sup>. Нашпурда "чиқди" сўзи "ниқса" деб берилган.

Uluvaydoning turli oshiqona g'azallarida turli darajalardagi ishq shiddati o'z ifodasini topgan. Ayrim g'azallarda, falsafiy-qonariy ma'nolar bilan sug'orilgan ruboiylarida ishq va oshiqlik sokintlik bilan sharhlanadi:

*Gulzor kerak yo'q, manga gul ro'ying bas,  
Gulzor yuzungsiz manga monandi qafas.  
Na ayb, bu bog' ichra yuzung olida  
(iar aylamasam behisht bog'ini havas (258).*

Ayrim asarlarida esa ishq eng yuqori – jununvor pardalarda, mashrabona uslubda kuyylanadi. "Kuyar" radifli g'azali xuddi shunday asardir. U Mashrabning "chidayolmas" radifli g'azaliga juda hamohang. Undagi lirik qahramon ishq otashiga aylangan. O'z mahbubasi vasliga erishish uchun to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha xilqatni barbod etishga tayyor. Uning uchun Ollohdan o'zga mayjudlik yo'q. Faqat Olloh bor. Qolgan hamma narsa tanazzulga mahkum. Hatto, qalandarlar kiyimi – dalq ham, kulohu janda ham uning uchun tashqi zebu ziynat. Ularni ham rad etadi. Ushbu g'azal Uluvaydo ruhiy parvozining eng yuqori cho'qqisi deyish mumkin. Lirik qahramonni huru jannat, havzi kavsar ham qiziqtirmaydi. Uning maqsadi bitta – ilohiy vasl:

*Shiddati ohim o'tidin gunbazi axzaring kuyar,  
Shamsu qamar bila yana jumlai axtaring kuyar.  
Chiqsa tanimni uchquni, tushsa jahonni mulkiga,  
Vahshu<sup>203</sup> tuyuru<sup>204</sup> devu jin, mo'minu kofaring kuyar.  
G'arqayi o'tdurur tanim, kelma, tabib, qoshima,  
Nosuri g'amni yorg'oli qo'lдagi nashtaring kuyar.  
Kushtayi tig'i ishqman, kelma qoshima, qotilo,  
Chiqsa sharora<sup>205</sup>yi nafas, sayf<sup>206</sup> ila xanjaring kuyar.  
Kiy demang<sup>207</sup>, ey junun eli, manga kulohu jandani,*

<sup>203</sup> Вахш – ваххий, ҳайвонот.

<sup>204</sup> Гуор – кушлар.

<sup>205</sup> Шарора – учқун.

<sup>206</sup> Сайф – килич.

<sup>207</sup> Йи сўз девонда “дема” шаклида берилган.

*Otash erur tanim maning, dalq<sup>208</sup>i qalandaring kuyar,  
 Kelmading, ey humoyi baxt, boshima soya solg'oli,  
 Birga otarman oh o'qin, bol ila ham paring kuyar.  
 Qumriyu xasta dil bukun, sarv uzra nola qilmag'il,  
 Nolau ohi so 'zima sarvu sanubaring kuyar.  
 Bo 'lsa qiyomat ul kuni, dardingni aytibon sani,  
 Yig 'lasam el arosida, do 'zaxi mahsharing kuyar.  
 Hur ila jannating netay, anda yuzingni ko 'rmasam,  
 Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar (70-71).*

Huvaydo mumtoz adabiyotning o'ndan ortiq janrida qalam tebratgan. Har bir janrda o'zining san'atkorligi, mahoratini namoyish eta olgan. Ularning yangi imkoniyatlarini kashf qilishga intilgan. Jumladan, mustazod janrida o'ziga xos san'at asari yaratna olgan. Oddiy lirik mazmundagi fikrlarini voqeabandlik asosida yoritgan. Bu asarning tasavvur manzarasini kengaytingan Timsollar tabiatи chuqurroq tahlil etilishiga asos bergen.

Huvaydo mazmun-mundarija, shakliy-badiiy jihatlardan mukammal mustazodlar yaratib qoldirgan. Mana bu baytlar bilan boshlanuvchi asar shoirning mustazod bitishdagi mahoratini ko'rsatuvchi yaqqol namunadir:

*Ko 'rdum tuno kun ko 'chada bir mohligoni,  
                               hayron bo 'la qoldim,  
 Husnidin oni ko 'nglum uyi topti ziyoni,  
                               raxshon bo 'la qoldim.  
 Aydim: "Ey pari, qayda borursan jadal aylab ?"  
                               achchig 'lanib aytur:  
 "Sho 'xim, na so 'rarsan, na ishing bor bu zamoni ?"  
                               pazmon bo 'la qoldim (250).*

Shoirning san'atkorligi shundaki, nozik ruhiy kechinmани mustazod shaklida, voqeaband uslubda ifodalab bera olgan. Mustazodning mohiyati oshiq va ma'shuqaning uchrashuvi hamda

<sup>208</sup> Далқ – қаландарлар кийими.

shoham aytishuvining badiiy ifodasidangina iborat emas. U ta'vvufiy asar bo'lib, unda pir va muridning muloqoti, ishq odobi boqidagi munozara timsoliy tarzda aks ettirilgan. Masalan, naqshbandiya tariqatidagi oshiq axloqining "Xilvat dar anjuman" rohbari Huvaydo mustazodida mana bunday jilo topgan:

*Xilvatga kirib so'kti, menga qildi nasihat:*

*"Mundog' dema zinhor,*

*El oldida begonasifat ochma zaboni", -*

*qurbon bo'la qoldim.*

"Nasoyim ul-muhabbat"da Navoyi bunday deb yozadi:  
Pan'a (Naqshbanddan – N. J., I. A.) so'radilarki, sizning tariqingiz  
binosi ne ishgadur? Dedilarki, anjumanda xilvat, zohir yuzdin  
vah bila va botin tarafidin Haq subhonahu va taolo bila. Bayt:

*Az darun shav oshnovu va-z berun begonavash,  
Inchunin zebo ravish kam mebuval andar jahon".*

Ushbu forsiy bayting mazmuni bunday: "Ichki tomondan  
mahlub bilan oshno bo'lgin, valekin tashqi tomondan o'zingni  
begonavash tutgin. Ya'ni sevikli bilan ichki ittifoqda bo'lmog'ing  
kiloya, muhabbatingmi el aro namoyish etishing odobdan emas.  
Shunday go'zal xulq-atvor olam ahlida kamdan-kam uchraydi".  
Huvaydo o'z baytiga pirning muridga ana shunday sabog'ini  
tingdirgan.

Huvaydo murabbaoti ham falsafiy-ramziy ma'nolar bilan  
ing'orilgan:

*Ey bog'i nazokatda qadi sarv, yuzi gul,*

*Ul yuzdin erur ishq eli chun qumriyu bulbul.*

*Rayhonu binafsha xati zulfinigni asiri,*

*Shamshodu sanubar qading olida iki qul(260).*

Ishq elini qumriyu bulbuldek nola chektirgan ul yuz – ilohiy tal’at timsoli.

Huvaydo devonida uchraydigan chiston (she’riy jumboq) g’azal o’ziga xos san’at turi bo’lib, unda harflar va ularning zamirida yashiringan raqamlar tasavvufiy timsollar vazifasini bajaradi. Buni quyidagi bayt misolida ko‘rish mumkin:

*Boshi – etmish, yuz - oyog’, uch yuz badanlik qush kelib,  
Tan tuzida murg‘i jon sayd etmishin ko‘rdum bu kun(191)*

Bir qaraganda, bu baytning mazmunini anglash qiyinday tuyuladi. Baytda xayoliy manzara mujassamdek ko‘rinadi. Go’yo etmish boshli, yuz oyoqli, uch yuz tanali tasavvurga sig‘mas ulkan qush kelib, tan mamlakatidagi jon qushini ovlab ketgan emish. Lekin abjad hisobidan kelib chiqib ushman raqamlarni ifodalovchi arab harflari joy-joyiga o‘rinalashtirilsa, jumboq yechiladi. Abjad hisobi bo‘yicha sonlarni harflarga aylantirsak, masala oydinlashadi. Mazkur uch raqamni ifodalovchi uch harfdan iborat so‘zni yasa h kerak. Etmish raqamini “ayn” harfi anglatadi va u, shoirning ishorasiga ko‘ra, qushning bosh qismini tashkil etadi. Yuz raqamini “qof” harfi bildiradi va u qushning oyog‘i, demak, oxirgi harfi hisoblanadi. Uch yuz raqamini “shin” harfi izohlaydi va u qushning badani, ya’ni so‘zning o‘rtasiga tushadi. Shunday qilib, “ayn”, “shin”, “qof” harflari biriktirilsa, “ishq” so‘zi hosil bo‘ladi. Demak, tan mulkidagi jon qushini ovlab, o‘lja tushirib ketgan ishq qushi ekan. Ishq sarguzashtlarini harfiy vositalar orqali tasvirlash tasavvufdagи hurufiylik oqimining uslubiga xos san’at bo’lib, u Huvaydo mahorati zarvaraqlaridan ham o‘rin olgan ekan. Huvaydo she’riyati mazmun, g’oya jihatidan qanchalik o’tkir mushohadaga boy meros bo‘lsa, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan shunchalik o‘ziga xos va yangichadir. Bunga devondan istagancha misol keltirish mumkin.

O‘z dunyoqarashi, tafakkur tarzi, badiiy uslubi jihatidan Xo‘janazar Huvaydo Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoyi, Boborahim Mashrab kabi ulug‘ adabiy siymolarga yaqin turadi

Ullarni umuminsoniy g'oyalarni kuylashdagi hamohanglik hamda huvayvul maslagiga e'tiqod yaqinlashtirgan. Huvaydo dunyoqarashida, ayniqsa, Yassaviy va Mashrabga izdoshlik yaqqol oziladi. Illohiy ishqning bu uch otashin oshig'i Ollohgaga muhabbat bog'ish borasida birlashadilar. Yassaviy o'z hikmatlarida "Dunyo u hum g'um ema, Haqdin o'zgani dema" tarzida nido cheksa, Mashrab "Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo" deya hong uradi. Huvaydo esa ularga quyidagicha yakdillik izhor etadi:

*Dunyoda hoyu havas qilmoq abas,  
Bir xudodin o'zgani suymoq abas<sup>209</sup>.*

Bu faqat birxudolik, ya'ni Ollohni yagona va barhaq deya tan olish – imon haqidagi gap emas. Ulug' taqvodorlarning imonlari shak-shubhadan xoli. Aksincha, ularning imonlari shu qadar mukammal ediki, pok, tamasiz, riyosiz taqvoga intila borib, "bir xudodin o'zga"sin rad etish, undan, ya'ni mosivodan ko'ngil uzish maqomiga erishganlar. Ba'zi toifadagi taqvodorlar Ollohgaga inish barobarida dunyo ne'matlariga, orzu-havaslariga, manzab-martabasiga, shon-shuhratiga ham mehr bog'laganlar. Olloh ularning-da omadlarini bergen. Biroq yutuqlarga erishilgani dunyo hoyu havasi kuchayib borgan. O'sha taqvodorlar dunyo g'amini eb, Olloh g'amini unutganlar, dunyoga muhabbatlari tug'batlanib, Ollohgaga muhabbatlari susayavergan. Dunyoning naqd manfaatlari fido bo'lib, Xudoga baxshidalik nasiyaga aylanib qolgan. Bu taqvodorlar nopol, tamagir, riyokor kimsaga aylanib borayotganlarini sezmaganlar. Makkora nafs girdobiga tushib qolganlarini bilmayin, o'z taqvolarini Xudo bilan hisob-kitob mosiga qurib olganlar. Bunday taqvodorlar islomning besh arkonini rasman to'la-to'kis ado etganlar. Ammo amalda, mohiyatda Xudoning haqqoniy oshig'iga, do'stiga aylana olmaganlar. Negaki, manfaatparastlik bilan hisob-kitob qilganlar, islom va shariat ahkomlarini suiiste'mol etganlar. "Men Ollohning birligi va barhaqligiga, Muhammad payg'ambar uning elchisi

<sup>209</sup>. Ушбу газал девон наприда учрамади. Бошқа манбадан истифода этилди.

ekanligiga iymon keltiraman. Besh vaqt namozni kanda qilmayman. Ro'za tutaman, zakot beraman. Haj ibodatini bajaraman. Shuning evaziga Tangri meni jannat bilan taqdirlaydi va barcha gunohlarimni kechiradi", degan o'y bilan ish tutganlar ba'zi taqvodorlar. Bir qarashda bunda shariatga xilof hech narsa yo'qdek, u risoladagi musulmonning hayotiy dasturidek tuyuladi. Ammo Yassaviy, Mashrab va Huvaydolar dunyoqarashicha, unda manfaatparastlik, tamagirlik, riyokorlik bordek. Go'yo bunday taqvodorlar jannatga tamagirlik, jannatiy huzur-halovat manfaati bilangina Tangriga ibodat qiladilar. Bunday taqvo – riyokorlikdir. Shuning uchun Huvaydo maslagidagi so'filarni jannat va undagi huru huzur-halovatlar, havzi kavsar,boshqa manfaatlari qiziqtirmagan. Ular faqat va faqat Olloh muhabbatni, visoli orzusi bilan yashaganlar:

*Hur ila jannating netay, anda yuzingni ko 'rmasam,  
Xasta Huvaydo ohiga havz ila kavsaring kuyar.*

Ularningcha, Ollohgaga ibodat har qanday tama va manfaatlardan xoli, xolis taqvo bo'lishi kerak.

Riyosiz ham tamasiz taqvoga intilish, Olloh muhabbatini dilga naqshlab, sidqidildan ibodat qilish Huvaydo dunyoqarashining asosiy mezonlaridan edi. Riyokor va tamagirlar taqvodorlarni Alisher Navoyi rivo dengizida tama kemasiga tushib olib suzayotgan shayx timsoli vositasida tanqid qilgan edi. Soxta taqvodor suvratini Boborahim Mashrab bunday chizadi.

*Namozu taqvisin zohid qilur olam aro mashhur,  
O'gurub subhasin tinmay, ishi doim rivo er mish.*

Demak, namozxonlik taqvosi bilan shuhrat qozonish, tinmay tasbeh o'girish hali ibodatning yuzaki ko'rinishi bo'lib, faqat shu bilangina cheklanish ham rivo ekan. Huvaydo ustozlari fikrini rivojlantirib aytadi:

*Yorni istar esang, maxfiy ibodat qila ko 'r,  
Xudnamoliq bila bu qilg'on ibodat na bo 'lur (74)?*

Huvaydo dunyoqarashicha, taqvodorlik shon-shuhrati uchun, namoyishkorona, xo'jako'rsinga ibodat qilish xudnamolik – o'zini ko'natish, ko'z-ko'z qilishdir. Bunday xulq-atvor bilan yor – Olloh muhabbatiga sazovor bo'lish mumkin emas. Yorning visoliga mushtoq mo'min maxfiy ibodat qilmog'i, naqshbandiyona uslubda sifayn zikr bilan shug'ullanmog'i, zohirda xalq birla, botinda Haq birla anjumani shavq tuzmog'i lozim. Huvaydo o'z dunyoqarashini takomillashtirish maqsadida tasavvufning eng etakchi tariqatlari – yassaviya hamda naqshbandiyaning ilg'or insonparvar xususiyatlarini tuyg'un ravishda mujassamlashtirishga harakat qilgan.

G'ariblarning dillarini og'ritmaslik yassaviyada asosiy g'oyalardan bo'lsa, ko'ngil zikri, ko'ngil ziyorati naqshbandiyaning mohiyatini belgilovchi xususiyatlardandir. Bu maslakdagilar e'tiqodicha, inson ko'ngli Ollohga muhabbatning minqaddas oshyonidir. Shuning uchun ko'ngilga munosabat – Ka'baga munosabatday baholanadi.

Mashrab dunyoqarashicha, jahonda ko'nglida Olloh yodi yashaydigan har bir inson dilini tavof etib yurmoq kerak:

*Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,  
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar Ka'ba buzulmazmu ?*

Bir momin dilini buzish esa yuzlab Ka'balarni vayron etishdek gunohi azimdir. Zotan, bir inson dili jarohatlanishidan yuzlab yuraklar larzaga keladi.

Huvaydo ham ulug' savobli ibodat – Ka'ba ziyorati, Haj salinining yaqin va o'ng'ay yo'lini ko'rsatadi:

*Bir g'aribning ko'nglini shod aylasang,  
Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq abas<sup>210</sup>.*

Demak, Huvaydo fikricha, insonni e'zozlash Ollohnini zozlash qadar xayrli amaldir. "Yo'l bosib Ka'ba sari bormoq"qa imkon topolmagan momin g'ariblar ko'nglini shod aylash bilan

<sup>210</sup> Ушбу ғазал дэвон наширида учрамади. Башқа манбадан фойдаланилди.

mashg'ul bo'lar ekan, Tangriga muhabbat va sadoqatini bevosita emas, bilvosita izhor etadi. Unga Tangrining rahmat nurlari ham o'sha g'ariblarni siylagani uchun yog'iladi.

Islom ta'limoti, Navoyi va Mashrab dunyoqarashidan oziqlana borib, Huvaydo ulug' insonparvar shoir darajasiga ko'tariladi. Huvaydo gumanizmining haddi a'losini ko'rsatuvelu shohbaytlardan yana biri quyidagicha:

*G'aribni ko'nglini buzmak gunohi beedad ermish,  
Kaforat bo'lmag'ay yuz Ka'bani qaytib bino qilsang(136)*

Navoyi bir buzug' ko'ngilni shod etishni Ka'bani qayta qurishga tenglashtirgan, Mashrab bir dilni buzishni yuzlab Ka'bani buzishga barobarlashtirgan. Islomda "kaforat" tushunchasi bor. Uning ma'nosи qilingan gunohni yuvish uchun evaz qaytarish demakdir. Huvaydoning dilozorlikka nisbatan ustozlaridan da talabchan qarashicha, g'aribning ko'nglini buzish cheksiz, o'lchamlarga sig'maydigan, yuvish uchun evaz qaytarib bo'lmaydigan gunohdir. Yangidan yuz Ka'ba qurib bo'lsa-da, bu gunohni yuvishning iloji yo'q.

Tasavvuf ta'limotidagi ruh va tan o'rtasidagi qaramaqarshilik Huvaydo dunyoqarashida ham muhim o'rin tutidi. Mutasavvuflar fikricha, tanga bino qo'yish, unga oro va orom berish ruhni o'ldiradi. Ruhni o'zlik yukidan xalos etish, tanparvarlikni mag'lub qilish esa insonni ma'nан poklab, chinakum ilohiy ishqning arshi a'losiga ko'taradi. Ham tanparvarlikka mayl bildirib, ham ishq da'vosini qilish esa ayni riyoning o'zginasidir.

*Ey Huvaydo, tan semurtib, aylasang da'voyi ishq,  
Dilda darding, ro'yi zarding bo'lmasa, yalg'on erur (75)*

Dilida ishq dardi yongan oshiqning chehrasi ham za'faron bo'lib, u tan semirtishga ishtiyoq va maylu rag'bat sezmaydi.

Ishq yo'liga kirgan oshiq jondan kechmasa, jonon visoliga muyassar bo'lolmaydi:

*Tariqi ishq aro qo 'ysang qadam, jondin guzar aylab,  
O'lumdin ilgari o'lgil, taningni darkafan qilg'il.*

“O’limdin ilgari o’lmoq”, “Tanni darkafan qilmoq” o‘zlikni, sifdparastlikni mag‘lub etmoq, shaytoniy nafsu havo g‘ururini mahv etmoqdir. O‘z ijodiyotida ehtiros bilan kuylangan majoziy va haqiqiy ishqning murod-muddaosi, ishqdagagi o‘limning mohiyati haqidagi Alisher Navoyi bunday degan edi:

*Ikkisidin garchi oshiq o'lmaki lozim kelur,  
Bori ul o'lmakki, bo 'lg'ay zimnida yuz ming hayot.*

Huvaydo baytingning mohiyati ham Navoyi talqiniga hamohang. Undi umidsizlik, tushkunlik, badbinlik, tarkidunyochilik kayfiyatları emas, balki hayotsevarlik, kelajakka ishonch, umidvorlik tamoyili ustuvor. “Tanni darkafan qilmoq” – vujudni dunyo hirsu havaslari chirkidan poklamoq. Poklangan vujudda esa ruh sog‘lomlashadi, qushday engil parvoz etadi, yashash imkoniyatlari ochiladi. Huvaydo aytgan “o’limdin ilgari o’lmoq” tishunchasi zimnida ham Navoyi ta’riflagan “yuz ming hayot” mavj uradi. Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul avliyoyi turkiy” kitobida keltirilishicha, shayx Junayd Bag‘dodiy: “Tasavvuf uldurki, Xudoysi taolo seni o‘zingdin o‘ldirib, o‘zi birla tiltilrgay” demishlar. Demak, “o’limdin ilgari o’lma” zamirida Olloh bilan tirilmoq hikmati ham mujassam ekan.

Huvaydovor ishq mazhabida manmanlik, toifayu tabaqa ujratish, naslu nasab taroshlash solikni kibru havo vasvasasiga duchor etib, Haq yo‘lidan ozdiruvchi illatlardandir. Shoir siyrati komil oshiqning xulq-atvorini bunday vasf etadi:

*Ushbu tariqi ishq aro xo 'javu shayxliq na sud,  
Bandayi kamtarin kerak, oshiqi xokipo kerak(139).*

Tiynatida kamtarinlik va xokisorlik fazilatlar mujassamlashgan solikkina Huvaydo maslagidagi ishqil komilga muyassar, ma'shuqi mutlaq muruvvatiga sazovor bo'la oladi.

Huvaydo pand-nasihatlari biror insonni kamsitishga yo'l bermaydi. U har bir insonga ulug' odamdo'stik e'tiqodi, xayrixoh odamiylik madaniyati bilan muomala qilishni targ'ib etadi:

*Agar har kimni ko'rsang, Xizr bo'lg'ay deb tavof aylab  
Ki, haftodu du millat xalqi birla oshno bo'lg'il(154).*

Shoir inson hurmati va qadrini shunday martabaga ko'taradiki, har bir odamni uchratganda, Xizr alayhissalomga yo'liqib, katta baxt va davlatga muyassar bo'lgandek, uni e'zozlash lozim. Muhimi yana shundaki, Huvaydoning insonga muhabbatni millat tanlamaydi. Bu muhabbatning umuminsoniy va baynalmil dasturiga amal qilinsa, etmish ikki millat xalqi bilan do'stlashish baxti nasib etadi.

Shoir nazmidagi muhabbat tasviri boqiy yuzga, abadiy jamolga oshuftalik ishqidir. Huvaydo hayrati boqiy dunyo sirlari, sehminoatlarini ochishdagidan izlanishlar samarasidir.

*Boqiy yuzni foni ko'z birlan ko'rolmassan dedi,  
Vah, qachon bo'lg'umdurur bu chashmi foni ydin xalos.*

Darhaqiqat, Huvaydo nazmida va umuman, tasavvul adabiyotida madh etilgan manzur malohatini bugungi foni dunyo manfaatlariga tikilgan foni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi. Hayot tilsimlarini echish, dunyoni mukammal ko'rish, haqiqatni teran anglash, insoniy kamolot pillapoyalaridan sobitqadam ko'tarilish uchun Huvaydo ijodini doimiy hamrohimizga aylantirmog'imiz lozim.

**"Xoki poyi yaxshilar bo'l..." g'azali (279-280) tahlili**  
Xo'janazar Huvaydo she'riyatida islam va tasavvufning eng umuminsoniy masalalari orifona talqin etilgan. Islam ta'limotining har bir uzvi komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

Payg'ambaramiz Muhammad Mustafо sallallohi alayhi vassallamning hadisi shariflarida aytlishicha, "Din – nasihatdan iboradir". Komil insonlik maslagi, so'filik tariqatidagi o'nta maqomidan biri nasihat tinglamoqdir. Huvaydo nazmining mazmuni ham insonni nasihat orqali kamol toptirishdir.

Huvaydoning pandu adabdan xoli birorta asarini uchratish qiyin. Shoир she'riyatining yalpi mohiyatini pandu adab tashkil etadi. Uning nazmi shu fazilati bilan insoniyat, ayniqsa, yosh avlod uchun umriboqiy ma'naviy xazinadir.

"Xoki poyi yaxshilar bo'l..." g'azali komil inson uchun zarur fazilatlardan bahs etadi.

*Xoki poyi yaxshilar bo'l, xok bo'lmasdin burun,  
Bu qaro er qo'yni senga chok bo'lmasdin burun.*

"*Xok*" – inson tanasi azalda Tangri tomonidan yaratilgan oddiy ahiyo – tuproqdir. Poy – oyoq. "Xoki poyi yaxshilar bo'lmoq"ning asl mazmuni yaxshi odamlarga fidoyi, sadoqatli, muhabbatli bo'lmoqlikka da'vatdir. "*Xoki poyi yaxshilar bo'l*" nasihatni, ohimol, quruqdan-quruq aytilganida, yaxshi tushunarli va ta'sirli bo'lmasdi. Inson ruhiga ibratli ta'sir etish uchun shoир nasihatni taqdiri azal oxiratidan dalil keltirib izhor etadi. Qismat shundayki, odam hayotdan ko'z yumgach, qaro er qo'yni unga "*chok*" bo'ladi, ya'ni qabr qazilib, marhum dafn etiladi. Oxir-oqibatda, inson jasadi tuproq – xokka aylanadi. Binobarin, shoир so'zini ana shunday mantiqiy asoslab turib saboq beradiki, "Ey odamzod, baribir bir kuni tuproqqa qorisharkansan, undan burunroq tuproqsimon yaxshilarning fidosi bo'lgin".

Odamlarga yaxshilik qila olmasa, loaqlal, yomonlikni ham ravo ko'maslik mumtoz bobokalonlarimiz tomonidan bot-bot ta'kidlangan hikmatlardan. Islom madaniyatida mo'min uchun qattiq taqiqlangan yomonliklardan biri g'iybatdir.

*Mo'mineni g'iybatidin munda og'zing pok qil,  
Anda do'zaxni o'ti misvok bo'lmasdin burun.*

Tangri taborak va taolo Kalomi shariflarida insoniy munosabatlarni buzuvchi eng yomon illatlar qatorida g‘iybatni qoralab, insoniyatni undan qaytargan ekan: “*Ey mo‘minlar, ko‘p gumon(lar)dan chetlaninglar! Chunki ayrim gumon(lar) gunohdir. (O‘zgalarning ayblari ortidan) joususlik qilib yurmanglar va ayrimlaringiz ayrimlarni g‘iybat qilmasin! Sizlardan biron kishi o‘zining o‘lgan birodarining go‘shtini eyishni yaxshi ko‘rurmi? Ana, yomon ko‘rdingizmi?!* (Bas, gunohi bundanda ortiq bo‘lgan g‘iybatni ham yomon ko‘ringiz). Ollohdan qo‘rqingiz! Albatta, Olloh tavbalarni qabul qilguvchi, mehribondir”<sup>211</sup>. Biror kishining aybini yo kamchiligini, u ma‘naviy-ruhiy, aqliy, jismoni yxususiyat bo‘lishidan qat‘i nazar, o‘zi ishtirok etmagan davrada gapirish g‘iybatdir. Qur‘on ta‘limotida g‘iybat o‘lgan birodarining go‘shtini eyishdan ham og‘ir gunoh sifatida qoralanar ekan, g‘iybatchilik mutlaqo g‘ayriinsomiy odat ekanligini yaqqol tushunish mumkin. Hadis ilmida faqat g‘iybat qilishgina emas, balki, g‘iybatchining suhabatida ishtirok etish, momin birodarini g‘iybatdan himoya qilishga qodir bo‘la turib, himoya etmaslik ham og‘ir gunoh sanaladi.

Huvaydo g‘iybatni alohida baytda tilga oladi va undan saqlanishga da‘vat etadi. Huvaydo pandicha, bu dunyoda og‘izni g‘iybatdan pok tutish zarur. Misvok – tish va og‘iz bo‘shlig‘ini tozalovchi shifobaxsh ildiz. Agar odam og‘zini g‘iybat bilan bulg‘ab qo‘ysa, narigi dunyoda uning og‘ziga misvok o‘rnida do‘zax olovvari poklovchi vosita bo‘ladi. “*Do‘zax o‘ti*”, “*misvok*” obrazlari orqali Huvaydo axloqiy g‘oyani aniq va ta‘sirchan ifodalashga erishgan.

Komil inson uchun eng muhim fazilatlardan biri qanoat bo‘lib, u odamzodni badnafslik va ochko‘zlik ofatlaridan omon saqlashi mumkin. G‘azalning navbatdagi baytida shu mavzu yoritilgan

*Ko‘rsatib ganji qanoat, och ko‘zingni sayd qil,  
Ko‘zlarining kosasig‘a xok to‘lmasdin burun.*

<sup>211</sup>. Qur‘oni karim. Alouddin Mansur tarjimasи, “CHo‘lpon” nashriyoti, Toshkent, 1992-yil, 492-493 betlar.

Shoir Huvaydo o‘z g‘azalida ko‘z kosasiga tuproq to‘lmasdan burun och ko‘zni to‘ydirish tadbirini ko‘rsatadi. Och ko‘zning muddaosi ganj, ya‘ni xazina. Shunday ekan, uning og‘zini xazina bilan boylash kerak. Faqat och ko‘zni ovlash uchun mol-dunyo xazinasini emas, qanoat xazinasini safarbar etish lozim.

Navbatdagi nasihat kamtarlik, kamsuqumlik, betamalik xususida:

*Xoru xasni yostanib, qilma tamadin bir xase,  
Qabring uzra to ‘dayi xoshok unmasdin burun.*

Inson omonat dunyodan abadiy maskanga safar qilgach, uning qabri muqarrar ravishda o‘t-o‘lanlarga burkanadi. Mavsumi o‘tgach, ular qurib-qovjirab, xas-xashakka aylanadi. Inson jasadi xas-xashak ostida qolib ketadi. Huvaydo hikmaticha, oxir-oqibatda odamzod jisman xasdan ham past ahvolda qolar ekan, shundan burun dunyo molidan bir xaschalik narsa tama qilmasdan, xoru xasdek xokisorlik maqomiga erishishi naqadar oqilona yo‘l.

Mo‘minlarning ko‘ngliga ozor bermaslik, ularni g‘am o‘ti bilan o‘rtamaslik, aksincha, shodlik bilan sarafroz etish tasavvuf adabiyotining eng insonparvar g‘oyalaridandir. Alisher Navoyining “*Kimki bir ko‘ngli buzug‘ning xotirin shod aylagay, Oncha borkim, Ka‘ba vayron bo‘lsa, obod aylagay*” yoki Boborahim Mashrabning “*Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen, Agar bir dilni sen bursang, yuzar Ka‘ba buzulmazmu*” kabi baytlari ushbu g‘oya ifodasining oliy namunalaridandir. Mutasavvuf shoirlar mo‘minlar ko‘nglini Ka‘baga o‘xshatishadi. Chunki imonli inson ko‘nglida Olloh barhayot. Shuning uchun Olloh yashayotgan uyga aylangan mo‘min ko‘nglini shod etish Ka‘bani obod etishdek savob, mo‘min dilini og‘ritish Ka‘bani buzishdek gunoh sanaladi. Huvaydoning navbatdagi baytida mana shunday so‘fiyona dunyoqarash mujassam:

*Qilma g‘amgin mo‘mineni, ko‘nglini shod aylagil,  
Tongla mahshar dashtida g‘annok bo‘lmasdin burun.*

Huvaydo mo'min ko'nglini g'amga botirgan odam tongla mahshar kuni bu gunohi uchun Tangri oldida g'amgin qiyofada javob berajagidan ogohlantiradi. Demak, qiyomat kuni Olloh huzurida mulzam qolishdan burun mo'minlar ko'nglini shod etishga shoshilish lozim.

Muqaddas hadislardan birida shunday hikmat bor: "*Ogoh bo'lingki, umringizning qolgan qismi bamisoli yashab turgan kuningizning qolgan qismi kabidir*". Shu hikmat mazmunidan kelib chiqib, Huvaydo g'azalining tugallanma baytiga nazar solaylik:

*Ey Huvaydo, kechalar yig'lab yaqongni chok qil,  
Domani subhi qiyomat chok bo'lmasdin burun.*

Tun bilan tong orasida bir kechalik hayot bor. Ogoh bo'lmoq lozimki, bizga berilgan umr yoxud uning qolgan qismi tun bilan tong oralig'idagidek juda qisqa, tezo'tar fursatdir. Kecha oxirida falak yoqa yirtib, tong otadi. Kechani g'animat bilib, Tangri oldidagi qarz va gunohlarni qiyomatga qoldirmay, toat-ibodat, tavba-tazarru, poklanishlar bilan tongni qarshilashga odatlanmoq farzdir.

Umuman, tasavvuf adabiyotida ushbu g'azaldagidek mazmun va mavzu yoritilgan asarlar ko'p. Xususan, o'zbek adabiyotidagi bu g'azal Turdi Farog'iyning "*Jismi qonundin nafas tori uzilmasdun burun*" misrasi bilan boshlanuvchi turkiy muxammasiga hamohangdir. Mazkur g'azallar mavzu va g'oyaviy yo'naliishi jihatidangina emas, shakliy-badiiy xususiyatlari bilan ham bu biriga yaqindir. Turdi ham, Huvaydo ham zamon ma'nosini anglatuvchi "burun" so'zini radif sifatida qo'lllaganlar. Har ikkala shoir ham axloqiy fikr-nasihatlari hayotiy va ta'sirchan chiqishi uchun bandlar hamda baytlararo oxirat hukmini eslatib borganlar. Huvaydo g'azalining o'ziga xosligi shundaki, u ko'zlangan adabiy muddaoni Turdidek to'qqiz bandli murakkab muxammas doirasida emas, balki olti baytdangina iborat sodda g'azal shaklida amalga oshira olgan. Huvaydo g'azalining ruhi, uslubi engil. Bu g'azalning badiiy qimmati, shoir Huvaydoning mahorati shundaki, u mo'jaz

bir g'azalda komil inson axloqi uchun zarur bo'lgan olti fazilatni qamrab olib talqin etgan. Birinchi baytda xokisorlik, ikkinchi baytda g'iybat qilmaslik, uchinchi baytda qanoatpeshalik, to'rtinchi baytda tamasizlik, beshinchi baytda beozorlik, oltinchi baytda obidlik, ya'ni toat-ibodat bilan mashg'ullik amallari mo'min-musulmonga hayotiy dasturilamal sifatida uqtiriladi. Yagona g'oyani yoritishga qaratilgani va bu g'oya baytlararo izchil ochilib, yaxlit mazmun-mundarijani tashkil etganiga ko'ra, asarning badiiy qurilmasi yakpora g'azaldir. G'azal bir-birini uzviy quvvatlab turuvchi mustaqil mazmunli baytlardan tuzilgan. Umuminsoniy ma'rifiy mavzuni yoritishi nuqtayi nazaridan, asar orifona g'azalning ko'rkan namunasidir.

*Asliyatga qaytish ma'rifiati.* Orzulangan komil inson qiyofasining muhim belgilaridan biri o'z nafsi mag'lub etish matonatidir. Aslida, Tpngri taolo Odamni havoyi nafs balosidan long' bo'lganligi uchun ham tuproqdan yaratgan edi. Nosiriddin Rabg'uziyning yozishicha, Tangri taolo Odamni yarataman deb sitob qilganida, barcha narsalar odamni bizdan yaratgin, deya tunagirlik bilan bosh ko'targanlar. Tog' "Men qutlug'man", dengiz "Men haybatliman", oltin "Men azizman", osmon "Men adz" (yuksak)man" deya o'zlarini maqtaganlar. Faqat er tavoze bilan "Men barchadan zaifman, oyoq ostida yotgan xokisor narsaman, mening mag'rurlanadigan hech nimam yo'q", degan ekan. Shunda Olloh Odamni tuproqdan yaratgan ekan. Tuproqning xokisorlik xususiyati uning jismidagina emas, balki ismida ham mujassam. Qadimiy manbalarda uning nomi "tubroq" shaklida yozilgan. Nomlanishining o'ziyoq uning moddiy olam tubida, mayjud narsalarning baridan quyida maqom tutganini tasdiqlaydi. Alqissa, bir kuni Iblis yetmish ming farishta bilan ko'kdan Odam tuprog'iga kelibdi, qo'li bilan Odamning qornini qoqib, ichini kavak ko'ribdi va farishtalarga aytibdiki: "Muni yo 'ldan chiqarmoq o'ng'ay bo'lg'ay". Ehtimol, Odam havoyi nafsga ana shu bo'sh qorni tufayli mubtalo bo'lgandir. Odam zamonlar o'tib, Iblis boshqaruvidagi nafs devining xuruji bilan asliyatini tobora unutib, begona sifatlarni o'zlashtira boshladi. Olloh odamzodning

vaqt kelib Iblis tazyiqi va nafs qutqusiga uchishini, albatta, bilgan. Shuning uchun o‘z muqaddas kalomi – Qur’oni karimda bandalarini bundan qayta-qayta ogohlantirgan edi. Nafsning buzg‘unchilik va halok etuvchilik xususiyati mana bunday ta’kidlanadi: “Agar Haqiqat – Qur’on ularning havoyi nafslariga ergashsa edi (ya’ni, unda: “Ollohning sheriklari bor” degan gap kelsa edi), albatta, osmonlar, er va ularga bor jonzot buzilib, halok bo‘lgan bo‘lur edi...”<sup>212</sup>. Demak, havoyi nafsga ergashish Ollohga shak keltirish, uni sherikdor qilish bilan barobar gunoh. Havoyi nafs insonning ma’naviyati, mafkurasi, imonini g‘orat etuvchi manfur omildir. Ayniqsa, rahbarlarning nafs havosiga ergashuvi insoniyat uchun katta ofatdir.

Islom va tasavvufdagi nafsga munosabat masalasi Xo‘janazar Huvaydo ijodiyotida ham markaziy o‘rin tutadi. Huvaydoning “Nafsning seni qattig‘ balo” deb boshlanadigan g‘azali (28) o‘zbek mumtoz adabiyotidagi eng nodir pandnomalardandir.

*Nafsning seni qattig‘ balo, albatta, urgil poy ango,  
Har dam seni o‘tqa solur, zinhor berma roy ango.*

G‘azalning birinchi misrasidanoq anglashiladiki, Huvaydo dunyoqarashi Yassaviyning nafs ofatidan ogohlantiruvchi va “nafsn tebkil, nafsn tebkil” tarzidagi nuqtayi nazari bilan hamohangdir. *Nafsga poy urmoq* nafs itini, nafs devini tepmoq, undan ustun turmoq, undan g‘olib kelmoq demakdir. *Nafsga roy bermaslik* – nafs xurujiga yo‘l bermaslikdan saboqdir. Aksincha, uning royiga qarash esa, odamni qattiq baloga bo‘ysundiradi. Har dam yondiradi va abadiy do‘zax o‘rtoviga mahkum etadi. Mazkin g‘azalning o‘ziyoq ko‘rsatadiki, Huvaydo yassaviya tariqatining eng yaqin muxlislaridan, Yassaviy hazratlarining muhabbatli izdoshlaridan biridir.

Nafs o‘zbek mumtoz adabiyotida yovuz, ochofat, hukmravon dev qiyofasida tasvirlanadi. Ana shunday tasvirlardan badiiyatda “*nafs devi*” istioraviy iborasi paydo bo‘lgan. Nafs taqozosi bilan

<sup>212</sup>. Qur’oni karim. Alouddin Mansur tarjimasи, “Mo‘minlar” surasi, 71-oyat.

har yonga tinimsiz yelib-yuguruvchi kishilar nafs devi minib olgan bandalarga o'xshatiladi. Bilar-bilmas o'z elkasiga nafs devini mundirib olgan nafs bandalariga qarata Huvaydo aytadi:

*Aytur senga yuklab yukin: "Ul ishni qil, bu ishni qil",  
Aksini aylab so'zini, hech qilmag'il parvoy ango.*

Xalqda "Tentak bosh oyoqqa tinim bermas" degan naql bor. Darvoqe, nafs boshqaruviga berilgan bosh vujudni og'ir ahvolga soladi. Nafs devi o'z asirini imonidan ayiradi, undagi shukru qanoat tuyg'usini so'ndiradi. "Ul ishni qil, bu ishni qil", deya uni tobora yangidan-yangi yutuqlar, amalu martabalar, shon-shuhrat ilinjida hirsu havas qasri tomon tortadi. Jahoniy tashvishlarga chulg'angan odamzod bundayin xush yoqadigan narsalardan o'z nafsi tiyishga ojizlik qiladi. Aslida, Huvaydo nazdida, nafs deviga qarshi kurnashishning yo'li juda oddiy: iroda va imonni mustahkam tutib, nafs devi buyrug'inining aksini bajarish, uning qutqulariga parvo qilmaslik.

Nafsning so'ziga qulq solish uni e'zozlash bilan barobardir. Nafsga izzat ko'rsatish esa uni parvarishlashga teng. Parvarishlangan nafs semirib, shishib, kuchayib, isyon sari dadillashib, o'z egasini mag'lub etadi:

*Izzatg'a ul farbeh bo'lub, isyon sari bo'lg'ay daler,  
Aylab ayog' ostida xor, cho'g' nayzasini soy ango.*

Shuning uchun donishmand Huvaydo nafs manfaatlaridan baland turishni, uni oyoq ostida xor etishni, cho'g' nayzasi bilan shunchib, kuydirib yuborishni nasihat beradi.

Izzat ko'rsatish nari tursin, nafs xurujini sezgan hamono, uni o'z ixtiyoriga qo'ymaslik lozim.

*O'z royg'a qo'ysang oni, bir damda ajdarho bo'lib,  
Boshing yutarg'a o'g'rag'ay, erkingni berma boy ango.*

Nafsnинг shaytoniy hoyu havaslari manfaat iskanjasidagi insonlar uchun juda yoqimli va shirin tuyuladi. Uning xohishi-irodasiga bir damgina itoat etilsa, nafs rag'batlanib, ajdahoga aylanadi, insonning boshini yutishga chog'lanadi. Shuning uchun halokatga uchragan badnafs odamlarga nisbatan xalqda "falon kishining nafsi boshiga bitgan balo bo 'ldi", "falon kishining nafsi boshiga etdi", "falon kishining nafsi boshini edi" iboralar qo'llanadi. "Mening nafsim balodur, har kulfatga solodur" maqoli ham o'z erkini nafsga boy bergen kishilar fojiasi haqida aytilgan.

Ortiqcha havasga berilish nafsnı chaqiruvchi, uni rivojlantiruvchi xavfli omildir. Havas, asli, ijobiy tuyg'u. Ammo ular oly hakam – me'yor izmidan chiqmasagina ijobiyligini saqlab qoladi.

*Uzgil havasni xorini dil bog'idin aylab shitob,  
Resha olib mahkam bo'lur, bersang zamone joy ango.*

Voqeан, hoyu havasga ruju qo'yilgan yurak bog'ida nafsu havo tikanlari tomir yozib, barq uradi. Havas tikani uning chiqqanini sezgan zamon, uni dil bog'idan shitob bilan yulib tashlash har bir mo'min ma'naviy-ruhiy salomatligini saqlab qolishining chorasiiga ramziy ishoradir. Havas tikanini dil bog'iga aslo yo'latmaslik kamoli parhezkorlik belgisi bo'lib, bunday fazilat komil insonlargagina nasib etadi.

Huvaydo insoniy kamolotga uzlusiz intilgan va barcha mo'minlarni ham Haq yo'liga, hidoyatga chorlagan murabbiy siymo edi. G'azalning tugallanma bayti Huvaydoning shu muqaddas maslagagini yana bir bor tasdiqlaydi:

*Miskin Huvaydo, sen oni nogoh ko'tarsa boshini,  
Taqvi tayog'i birla chop, hargiz dedurma "voy" ango.*

Mazkur baytda pandnomadagi izchil mushohadalarga yakun yasalib, so'nggi nuqta qo'yilgan. Huvaydoning timsoliy tarzdagi ifodasicha, nafs devi banogoh bosh ko'tarsa, uni "taqvi"

tayyodotlik, din, e'tiqod tayog'i bilan chunon urish kerakki, toki u til fortmay o'lsin.

Antar mobaynida nafs o'z ta'sirini o'tkazib, odamzodning ma'naviy olamigina emas, jismoniy qiyofasi ham o'zgardi. U tuproqiflat kamtarlik va xokisorlikni tark etib, mag'rurlanib, *rog'dagi "qutlug'lik", dengizdag'i "haybat", oltindagi "azizlik", amonadagi "adizlik"* (yuksaklik)ka da'vogar bo'lib qoldi. Huvaydo g'azali a'liyatga qaytish, tuproq bo'lish ma'rifati bilan munavvar.

Huvaydoning ushbu g'azali badiiy qurilmasiga ko'ra, yakpora g'azal bo'lib, uning markazida inson tiynatidagi nafs illatiga qarshi borashdek yagona ma'naviy-axloqiy muammo turibdi. Muammo baytlararo izchil ravishda badiiy ifodalangan. Har bir bayt mustaqil va tugal mazmunga ega, ammo ularni bir-biridan ayri – parokanda hodaida tagavvur va tahlil etishning iloji yo'q. Insonning o'z sifatini poklashi, o'z-o'zi bilan ichki kurashi jarayonlari tasviri nihoyasida, mo'min odam qiyofasida islomiy e'tiqod, so'fiyona soflik ustuvor mayqeda turishi lozimligi ta'kidlangan.

G'azalda tasavvufiy fikr-g'oyalar ramziy-badiiy ifodalar vositunda, adabiy umumlashma tarzida bayon etilgan. Pandnomalaridagi g'azal shunday ixcham shaklni taqozo etgan. G'azalni o'rganih, o'rgatish jarayonida baytlardagi tasvirni hayotiy hikoyat va rivoyatlar bilan sharhlab tushuntirish maqsadga muvofiq.

*Shoirning «Rohati dil» dostoni va uning adabiyot tarixidagi o'rni*. Insoniyatni loqaydlik, jaholat, g'aflat tanazzulga etib laydi. Ezguliklardan yiroqlashdiradi. Ma'naviy qashshoqlikka mahkum etadi. Shuning uchun ham mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilishgan. Zamondoshlari uchun kamolot va ma'naviyat yo'lini ko'rsatishgan. Jumladan, Xo'janazar Huvaydoning masnaviy yo'lida yozilgan "Ibroati dil" dostonini va "Ibrohim Adham" qissasi o'z muallifining dostonnavislik salohiyatidan darak beruvchi yodgorlik bo'lib, shoirning o'zbek mumtoz pandnomasi xazinasiga qo'shgan immonib hissasidir. Ushbu doston xalq orasida mashhur. U Huvaydo she'rlaridagi mazmun va g'oyani to'ldiradi, toranalashdiradi. "Rohati dil" g'ofil yuraklarni nasihat nurlaridan

munavvar etuvchi ma'rifiy manzumadir. Huvaydo merosiga mansub "Ibrohim Adham" qissasi tasavvufiy ruhdagi asardir.

Huvaydoning "Rohati dil" dostoni ham So'fi Olloyor asarları kabi musulmonlik aqidalariga bag'ishlangan asardir. Unda shariat qoidalari, payg'ambarlar hayoti, xususan, hazrati payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayhissalom faoliyatları bilan bog'liq voqeа-hodisalar badiiy yo'sinda tasvirlanadi. Kitobxon komil axloq mezonlari bilan tanishtirib boriladi. Dostonda insoniyat moddiy boylik emas, balki ma'naviy boylik uchun intilishi kerakligidan ogoh etiladi. Shoir fikriga ko'ra, bu yo'lidan bormagan kishining hayvondan farqi qolmaydi:

*Talab qil ma'naviy ganj, ey birodar,  
Vagama sandin avlo gov ila xar...  
Kishi bo'lmasa ma'nidin xabardor,  
Ani odam dema, de naqshi devor...<sup>213</sup>*

Shoir dostonining yozilish sababiga alohida kichkina bob bag'ishlaydi. Undan biz shoirning naslu nasabi, tug'ilgan joyi, ismi sharifi haqidagi yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni bilib olamiz. Huvaydoning doston yaratishdan maqsadi, tarixi borasidagi fikrlari bilan tanishamiz:

*Kitobimning otidur "Rohati dil",  
Erur har bir so'zi tanbehi g'ofil...  
Ko'ngul shahriya yagona azm qildim  
Kitobim nasr edi, man nazm qildim.  
Bu Chimyon shahrining piri javoni,  
Tamomisi erurlar turkiyxoni.  
Alar garchi so'zga behunarroq,  
Dedim bo'lса kitobim turkiy behroq ...*

Demak, Huvaydoning "Rohati dil"ni yozishdan maqsadi zamondoshlarini ma'naviy g'aflatdan uyg'otish. U asarni dastlab

<sup>213</sup> Ўзбек адабиёти. З-том. Ўздавнашр. Тошкент, 1959 йил. 407-бет.

norda yozgan. Keyinchalik talab va takliflarni inobatga olib, uni na'm yo'li bilan qayta yaratgan. Shoiring butun umri kechgan Chimyon shahri aholisi turkigo'y bo'lgani sababdan dostonini turkiy tilda yozgan.

Doston 30 bobdan va Ibrohim Adham qissasidan iborat. Asar an'anaviy – Ollohga hamd va payg'ambarlarga na't bilan boshlangan. Keyin chahoryorlar – Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon va Alining ibratlari faoliyatları bayoni berilgan. Shariat qonun-qoidalari, talablari sharhlangan. Shundan so'ng bir qancha pandnomma-hikoyatlar keltirilgan.

"Rohati dil" aqoid kitobi. U diniy-didaktik asar. Unda islam va faravvus ta'limotining umuminsoniy g'oyalari, axloq masalalari ibratlari hikoyalar voseftasida tahlil etiladi. Mol-dunyoga hirs qo'yish, nafqa qul bo'lishning oqibatlari, bilim olishning ulug'ligi, ilm ahli izzatini o'miga qo'yish; ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etib, roziligini olish; qo'ni-qo'shnilarining bir-biriga mehr-oqibatli bo'lishi, eru xotinning mehr-muhabbatli bo'lib, bir-birining izzat-hurmatini joyiga qo'yishi; riyokorlik, xiyonat, tamagirlilik, tolabburlik, munofiqlik kabi inson tabiatidagi illatlarni fosh etish masalalari asarning markazida turadi. Bu muammolarning har biri qo'qa hajmili hikoyalarda xalqona uslubda sodda, tushunarli tilda bayon etib beriladi. Bu asar komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. Inson o'z-o'zini tanishga, tabiatidagi nuqsonlarni yo'qotishga do'vat qilinadi. Asar yaxlit syujet chizig'iga ega emas. Ammo, undagi fikr, g'oya, mazmunni birlashtirib turadigan yagona imtimonlashma – komil inson tarbiyasi masalasi bor.

Shoir ilgari surgan, aytmoqchi bo'lgan fikrlarning eng yuqori cho'qqisi Ibrohim Adham qissasida mujassamlashgan. Undagi mu'mum sayyor syujetga asoslangan. "Ibrohim Adham hikoyati"da behad mol-dunyoga ega bo'lgan, boylik, toju taxt, rohat-furog' atda yashashdan voz kechib, faqirlik yo'lini tanlagan Balx hokimi qissasi hikoya qilinadi. O'zbek mumtoz adabiyotida bu muvzuuni yorituvchi ko'p asarlar yaratilgan. Huvaydo ana shu an'anaviy hikoyatni o'ziga xos uslubda yangi tuyg'u va lechinimlar, yangi ruhiy manzaralar tasviri orqali ifodalashga

erishgan. Unda faqat Ibrohim Adham emas, balki bir qancha timsollar ishtirok etgan. Ayoli Zulhayo va o‘g‘lining ham ichki iztiroblari tasvirga olingan. Qisqa satrlar orqali bo‘lsada, cho‘pon va tuyakash timsollari ham o‘z chizgilariga ega. Qissa qahramonlarining tabiatи ularning o‘z so‘zлari, dunyoqarash va hayotiy falsafalari vositasida yoritib berilgan. Jumladan, quyidagi bir bayt Ibrohim Adham tutgan maqom haqida tasavvur bera oladi:

*Seni deb taxtu baxtimni kechibman  
Ki, men vahdat sharobidin ichibman.*

Bu so‘zlardan Olloh yodi uchun taxtu baxtidan voz kechgan ilohiy birlikka musharraf bo‘lgan muqaddas oshiq ma’naviyatini anglash mumkin.

Qissa so‘ngida shoir tomonidan keltirilgan bir g‘azal Ibrohim Adham faoliyatining mazmun-mohiyatini yaqqol sharhlovchi xulosa vazifasini bajara oladi:

*Dunyoni tark qiluvchi uqbog‘a yuz urg‘on kishi,  
Jannat ila hurni netar mavlo yuzin ko‘rgan kishi.  
Kim bexabardur Mavlodin mag‘rur erur dunyoyig‘a,  
Dunyoning mulkin naylasin ondin xabar olg‘on kishi.  
Fag‘furi Qaysar mulkni boshig‘a ursunmi oni,  
Netsun Sulaymon taxtini ishq taxtiga mingan kishi.*

Ushbu qissa Huvaydoning "Rohati dil" dostoni oldiga qo‘ylgan muhim vazifa, ya’ni komil inson tarbiyasi uchun xizmat qilgan. Butun Sharq mumtoz adabiyotida ibratli, haqiqiy oshiq bo‘lib kelgan Ibrohim Adham timsolining qayta yaralishi "Rohati dil"ning ahamiyatini yanada oshiradi.

*Tayanch tushunchalar:  
Oshiqona, orifona, may, qadah, faqir, sayyor syujet.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Huvaydoning qisqacha tarjimai holini gapirib bering.
2. Shoirning adabiy merosi haqida ma'lumotlarni so'zlang.
3. Huvaydo qanday janrlarda ijod qilgan? Uning mustazod, ruboyi va chistonlaridan misollar keltirib tushuntiring.
4. Huvaydo falsafiy dunyoqarashda qaysi shoirlarga yaqin turadi?
5. Tasavvuf adabiyotida pand-nasihatning o'rni haqida so'zlang.
6. "Rohati dil" dostonini o'qing. Uning g'oyalari, timsollar va hikoyatlar talqiniga e'tibor bering.
7. Dostonni "shoirning so'z qo'llashi, badiiy san'atlardan joydalish mahorati nuqtai nazaridan tahvil eting.
8. "Ibrohim Adham" qissasi, uning genezisini, mumtoz intabbiyotdagi o'rmini Navoyi asarlari bilan qiyosan o'rganib, belgilab berishga harakat qiling.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek adabiyoti. 3-tom. O'zdavnashr. T.: 1959.
2. Huvaydo. Rohati dil. T.: 1994.
3. Xo'janazar Huvaydo. Devon. "Yangi asr avlodi", T.: 2005. 103 bet.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.
5. Jumaxo'ja N. Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati. Respublika Ma'naviyat markazi. T.: 1995.
6. N.Xudoyberdiev. Huvaydoning adabiy merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 1994.

**QO'QON ADABIY MUHITI  
AMIRIYNINGHAYOTI VA IJODI  
(1787 -1822)**

*Reja:*

1. XVII-XVIII asrlarda *Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy hayot.*
2. *Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Amiriy hayoti va ijodi manbalari.*
4. *Tarjimayi holi.*
5. *Shoirning adabiy merosi.*
6. *Shoir she'riyatining mavzu ko'lami va g'oyaviy xususiyatlari.*
7. *Asarlarining janriy tarkibi.*
8. *Amiriy ijodida musammatning o'rni.*
9. *Shoirning badiiy mahorat qirralari.*

*XVII-XVIII asrlarda Qo'qon xonligidagi ijtimoiy-siyosiy hayot. Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari.* Qo'qon xonligi hududiga hozirgi Farg'onma, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo'jand, Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston kirgan.

XVIII asr boshlari (1702-1710)ga kelib Buxoro xonligida parokandalik kuchaydi. Bundan foydalaniб, keyinchalik Qo'qon xonligi deb atalgan hududda, Minglar urug'i oqsoqollari birlashib mustaqil davlat tuzishga qaror qilishdi.

1709-yilda Minglar Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Yo'lboshchilardan biri Shohruhbiy hukmdor deb e'lon qilindi. Shu tariqa Movarounnahrda Buxoro va Xeva xonligi qatorida mustaqil Qo'qon xonligi vujudga keldi.

Qo'qon xonligida Shohruhbiy (1709-1721), o'g'illari Abdurahimxon (1721-1733), Abdulkarimxon (1733-1750) hukmronlik qilishadi. Keyinchalik ularning avlodlaridan Erdona (1751-1762), Norbo'tabek (1763-1798), Olimxon (1798-1810),

Amir Umarxonlar (1810-1822) xonlikni boshqardilar. Ular o‘z faoliyatlari davrida hududni kengaytirishga, markazlashtirishga harakat qilishdi. Jangu jadallar olib borishdi. Qo‘sni davlatlar bilan hamkorlik va do’stona aloqalar o‘rnatishga intilishdi. Ba’zan yutuqlar qo‘lga kiritildi, ba’zan yutqazildi. Ijtimoiy hayotni yashilash choralar izlandi.

Olimxon davrida Qo‘qonning siyosiy mavqeい kuchaydi. Harbiy ijobhotlar o’tkazildi. Olimxon 1805-yili rasman o‘z davlatini Qo‘qon xonligi deb e’lon etdi. O‘ziga xon rutbasini qabul qildi. Olimxonдан keyin ukasi Umarxon o‘zini “xon” emas “amir” deb atadi. 1818-yili “amirul-muslimin” unvonini oldi.

Qo‘qon xonlari xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasini ko‘tarish choralarini izlashgan. Ijodkorlarga rahnamolik qilib, rag‘batlantirishgan. Adabiyot va san‘at rivojiga imkon yaratishgan. Ular vositasida xalqning ma’naviy kamoliga ta’sir o’tkazishgan.

XVIII asr I yarmida Qo‘qon adabiy muhitini tashkil topa bo‘hlagan. Jumladan, bu borada Mirzo Olim “Ansob us-salotin” ajarida 1732-1733-yillarda Abdulkarimxon davri haqida shunday yozgan: “*Abdulkarimxon... xizmatiga eshon, domullo, Olim Kombodomiy va domullo Vali Xo‘jandiy va Mashrabi devonayi Numangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiyligi va kashf yaqinig‘a olim va koshif bo‘lib kamolot hosil qildi*”<sup>214</sup>.

Qo‘qon adabiy muhitining eng gullagan, taraqqiy topgan davri bu – Amir Umarxon davridan boshlangan. Uning o‘zi shoir bo‘lgani sababli ijod ahliga imkoniyat yaratib bergan. Ularga homiylik va rahnamolik qilgan. Miyon Buzrukning 1930-yilda Toshkentda chop etilgan “O‘zbek adabiyoti tarixiga umumiyligi” kitobida bu davr Qo‘qon adabiy muhitini “Oltin beshik davri adabiyoti” deb ataydi. Bu ta’rif, birinchi navbatda, saroy tarischilari tomonidan to‘qilgan “Oltin beshik” va Bobur haqidagi

<sup>214</sup> А. Йонимов. Кўқон адабий мұхити. Т.: 1961, 41-б. (“Ансоб ус-салотин, 18-б варак”).

afsona bilan bog‘liq<sup>215</sup>. Ikkinchidan, adabiy muhitda yaratilgan qulay ijodiy sharoit va jarayon ham nazarda tutilgan.

Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan Amir Umarxon o‘zining siyosiy faoliyatidan tashqari adabiyot va san’at, ilm-fan rivojiga ham katta e’tibor bergen. Xonlik hududidagi barcha iqtidori ijodkorlarni saroyga jamlab, faol ijodiy jarayonni tashkil etdi. Ushbu adabiy jamoa o‘zini turli yo‘nalishlarda namoyon eta olgan

Tarixnavislik, tazkiranavislik, she’riyat, nasr, matbaa ishlari adabiy hamkorlikning noyob mahsullari dunyoga kelgan Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Avazmuhammad Attorning “Tuhfat ut-tavorix”, Is’hoqxon To‘raning “Tarixi Farg‘ona”, Mushrifning “Ansob us-salotin va tavorixi Xavoqin” Mutribning “Shahnomayi devona Mutrib”, Mushrifning “Shahnomayi Nusrat payom” kabi tarixiy asarlari, Fazliy Namangoniyning “Majmuayi shoiron” tazkirasi mazkur davrda yaratilgan, u haqqdagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. Umarxon tashabbusi bilan dunyoga kelgan Fazliy tazkirasi tazkiranavislikda yangi yo‘nalishni shakllantirdi. Keyinchalik bu an’ana boshqa adabiy muhitlarda ham davom ettirilgan.

Qo‘qon adabiy muhitida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘zlashtirishga, jamlashga, yozma adabiyot bilan uyg‘unlashtirishga katta e’tibor berilgan. Bu harakatning noyob mahsuli sifatida Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarini eslash kifoya Uvaysiy, Nodira, Fazliy, Ado, Maxmur, Amiriy kabi ijodkorlarning asarlarida ham xalqona hikmatlardan, iboralardan unumli foydalanish ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Qo‘qondagi matbaachilikning o‘z taraqqiyot tarixi mavjud Mazkur davrda ham ko‘plab qo‘lyozmalar qayta-qayta ko‘chirildi. Ayniqsa, ushbu davr matbaa tarixini adabiy aloqalar, adabiy hamkorliklardan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki, Bedil devonlari ko‘chirib, ko‘p nusxalarda tarqatilgan. Uning asarlariga shoirlar naziralar, muxammaslar bog‘lashgan. Lutfiy, Navoyi

<sup>215</sup> Унга кўра, гўё Кобул томон кетаётган Бобур энди тутилган чақалогини олтин бешинчи бозигурумда қолдириб кетган экан. Фарғона водийсидаги ўзбек қабила бошликлари бешинчи топиб олинини болани катта қиласдилар... Шоҳруҳбий “Олтин бешик”нинг 10-пушти хисобланган.-Н.Норкулов. У.Жураев. Ўзбекистон тарихи. 8-сinf учун дарслек. Т.: 2004.165-бет.

Amiriy devonlaridan iborat “Muhabbatnoma” majmuasi Turkiya mültoniga sovg‘a tariqasida yuborilgan. 1836-1837-yillarda Amiriy va Nodiraning o‘g‘li Muhammadalixon buyrug‘iga binoan xattot Dabir tomonidan Fuzuliy devoni ko‘chirilgan. XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida yashagan adiblarning ijodida Fuzuliyning adabiy ta’iri kuchli bo‘lgan. Shoир asarlaridagi so‘zlar xazinasidan foydalinishgan. Uning asarlariga naziralar, muxammaslar bog‘lashgan.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos o‘rnii bor. Madaniy merosimiz zalvorini u erda tarbiya topgan Gulxaniy, Uvaysiy, Nodira, Maximur, Fazliy, Ado kabi unoqsiz ijodkorlarning asarlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Atoqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat «XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash»<sup>216</sup> nomli maqolasida Farg‘ona adabiyotiga ham e’tibor qaratadi. Uning yutuqlari va noqisliklari borasida so‘zlaydi. Ta’kidlash kerakki, undagi Fitrat diqqatini tortgan barcha ijobiy jihatlarning hamda yuqorida sanab o‘tilgan adiblar ijodi ravnaqining homiysi va rahnamosi Amir Umarxondir.

Jumladan, uning taklifi va tashabbusi bilan yaratilgan Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarini nazarda tutib Fitrat, «bu davorda Farg‘ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotig‘a ayricha diqqat qilg‘anlari ham ko‘riladir»<sup>217</sup> deya ta’kidlaydi.

Tazkirachilik taraqqiyotida yangicha ko‘rinish va bosqichning shakllanishida ham Amir Umarxonning munosib xizmati bor. U payrov she’rlardan tazkira tuzish an’anasini boshlab berdi. Fitrat diqqat qilganidek, keyinchalik bu an’ana boshqa adabiy muhitlarda ham davom ettirildi: «Shunday bo‘lsa ham Farg‘ona shoirlarining xorazm shoirlari ustida katta ta’sirlari bo‘lg‘anini inkor etib bo‘lmaydi. Farg‘ona «Majmuat ush-shuar» sig‘a o‘xshatib, xorazmda ham bir «Majmuat ush-shuar» tuzumi buni ko‘rsatadir»<sup>218</sup>.

<sup>216</sup> Фитрат. Ташланган асарлар. 2-жилд. Т.: 2000.

<sup>217</sup> Фитрат. Ташланган асарлар. Т.: 2000, 2-жилд, 59-бет.

<sup>218</sup> Уш асар, 59-бет.

Amir Umarxon – Amiriylar faoliyati, ijodi «Adabiyot qoidalari» kabi boshqa asarlarida ham Fitrat e’tiborini jalb etgan. O’ fikrlarini, ilmiy-nazariy qarashlarini asoslashda uning asarlariiga murojaat qilgan.

Ko’ringanidek, Amiriylar o’zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ko’p tomonlama hissa qo’shgan mo’tabur mutafakkirlardan biridir.

*Amiriylar hayoti va ijodi manbalari. Tarjimayi holi. Shoirning adabiy merosi.* U 1787-yilda Qo’qon xoni oilasida dunyoga keldi To’liq ismi Amirsayyid Muhammad Umarxon. Taxallusi Amiriylar. U o’zining nasl-nasabi haqida devoni debochasida, «...vujudim gulbuni Temir Ko’ragon gulistonni shajarasini samarasidur ...Xilqatim niholikim, Bobur Sulton chamanining navbodasiidur»<sup>219</sup>, deya temurzodalar sulolasiga mansubligini e’tirof etadi.

Akasi Olimxon (1800-1809) xonlik hududini kengaytirishga harakat qildi. Farg’ona, Toshkent, Chimkentni qo’l ostida markazlashtirdi. Hukmronligi jangujadallar ichida kechdi.

1807-1808-yillarda Olimxon ukasi Umarxonni Farg’ona ga hokim etib tayinlaydi. Umarxon shu faoliyati davomida umaroju ulamolarning hurmatini qozondi.

O’zining tadbirli va donoligi, janjalli vaziyatlarni mohirlik bilan tinchitishi, amaldoru fozillar ko’ngliga yo’l topa olishi, muammolarni adolatli hal etishi bilan xalq e’tiboriga sazovor bo’ldi.

1808-yilda Umarxon Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylanadi. Ularning oilasi, bir-biriga muhabbatli munosabati, ijoddagi ustodu shogirdligi, farzandlari, ularning taqdiri haqida ko’p manbalarda ma’lumotlar yetib kelgan.

Olimxonning ketma-ket yurishlari, qon to’kishlari xalq noroziligiga sabab bo’ldi.

Bu norozilik fitna bilan yakunlandi. 1809-yilda Olimxon fitnachilar tomonidan o’ldirildi. Qo’qon taxtini ukasi Umarxon (1809-1822) egalladi.

<sup>219</sup> Амрий. Девон. Т.: 1972, 19-бет.

Shundan so'ng, Umarxon 12 yildan ortiq Qo'qon xonligida hukmronlik qildi. U devoni debochasida ta'kidlaganidek, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatdi. Zulmni bartaraf etdi. Adolatni barqarorlashtirdi. Xalqning iqtisodiy, ijtimoiy yashash sharoitlarini yaxshilashga intildi. Bu yo'lدا ko'cha va bozortlarni obod qildi. Muhtojlarga himmat ko'rsatdi. Xonaqoh va madrasalar barpo etdi. Ularda o'qitish ishlarini takomillashtirdi. Um ahli va tolibiimlarni qo'llab quvvatladi. Homiylik qildi. Ko'plab arig'u anhorlar qazdirdi. Bog'lar barpo qildi. Hammom, bardoba va guzarlar tashkil etdi. Sipoh va askarlar, mulozimu sodimlarga g'amxo'rlik qildi. Xonlik chegaralari va savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rdi<sup>220</sup>. Toshkent, Buxoro, Xeva karvon yo'llari tutashadigan joyda mustahkam Oqmachit qal'asini qurdirdi.

Umarxon hukmdor sifatida hukmronligining dastlabki yillardanoq qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni yaxshilash choralarini izlagan. Chor Rossiyasining ulkan mustamlakachilik rejalarini sezgan Umarxon ular bilan muzokaralar olib borgan. 1812-yilda Rossiyaga elchi yuboradi. 1813-yilda esa rus elchisi F. Nazarov rus podshosi topshirig'i bilan Qo'qonga keladi. Ammo, noyob mollar yuklangan karvon va qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan kelgan rus podshosi vakillarini, asosiy maqsadlarini bilgani sababli, Umarxon xushlamay qarshi oladi<sup>221</sup>.

1820-yilda Usmonli turk davlati sultonı Mahmud II ga ham bir maktub yozib elchi yuboradi. Umarxon, an'analarga ko'ra, Turk sultoniga ko'p sovg'a-salomlar jo'natadi. Ular orasida Lutfiy, Navoyi va Amiriyning she'rlaridan jamlangan «Muhabbatnoma» nomli she'riy devon ham bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Turkiyaga tashrifdan maqsad uch – Qashg'ar, Buxoro va Rossiya tomonidan xonlikka solinayotgan tahdidni bartaraf etishda madad so'rash edi.

Amir Umarxon ko'mak so'rab yozgan maktub Sulton farmoniga ko'ra saroy a'yonlari majlisida ko'rib chiqiladi va

<sup>220</sup> Амирий. Девон. Дебоча. Т.: 1972, 19-20-бет.

<sup>221</sup> Болғабоев Ҳ. Мумтоз сўз қадри. Т.: 2004, 59-бет.

muhokama etiladi. Ammo hech qanday amaliy yordam berilmaydi<sup>222</sup>.

Ko'rinaridiki, Umarxon xonlikni nihoyatda murakkab vaziyatda boshqarishiga to'g'ri kelgan. U shunday sharoitda ham siyosatda to'g'ri yo'l topib, qaltis holatni mo'tadillashtirish choralarini izlaydi.

Ammo, tarixiy ma'lumotlardan ko'rinaridiki, Umarxon ham ideal podshoh bo'lgan emas. Uning siyosiy faoliyatida ham qattiqqo'llik va shafqatsizlik bilan yondashilgan, hal etilgan vaziyatlar, voqeа-hodisalar ko'zga tashlanadi. Biz bunday holatlarni, albatta, xolis baholashimiz va to'g'ri tushunishimiz lozim. Umarxon 1822-yilda 35 yoshida kasallik tufayli vafot etadi.

XIX asr boshlarida adabiyot va san'atni, madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Buxoro, Xeva va Qo'qonda o'ziga xos xususiyatlarga ega adabiy muhitlar shakllandi. Qo'qondagi ana shunday adabiy harakatga Umarxon rahnamolik va homiylik qildi. Atrof viloyatlardagi barcha ijodkorlarni Qo'qonga to'pladi. Olimu fozi, shoiru san'atkorlar bilan suhbatlar uyuştirdi, mushoiralar o'tkazdi. Bu borada devoni debochasida shoirning o'zi quyidagicha ta'kidlaydi: «...gohi ulamo suhbatlarinda o'lturdim. Oyot va ahodis gavharlari birla qulqoq sadafin to 'ldurdim. Va gohi fazlu kamol ahl birla majolasat qildim. Ilmu donish nuridin babra oldim. Funumi maoniy javohirlarin ko'ngul xazinasig'a soldim»<sup>223</sup>.

Umarxonning ilmparvarligi, rahnamoligi natijasida shu davrda Qo'qonda kuchli adabiy jarayon vujudga keldi. Gulxaniy, Fazliy, Ado, Maxmur, Hoziq kabi shoirlar, Uvaysiy, Nodira, Mahzuma, Dilshod Barno kabi shoiralar etishdi. Biror adabiy muhitda ayollarga Umarxon davridagichaliko'z iqtidorini namoyon etish uchun imkoniyat berilmagan. Umarxonning o'zi ham Aniuri taxallusi bilan she'rlar yozib, adabiy muhitda ustod maqomida turgan.

<sup>222</sup>Ўша асар, 59-бет.

<sup>223</sup> Амирий. Девон. Дебоча. Т.: 1972, 20-бет.

«Bu davrda Farg'ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotiga nyricha diqqat qilg'anlari ham ko'rildir»<sup>224</sup>.

Buning natijasi o'laroq, Gulxaniyning «Zarbulmasal»dek noyob asari ham xon tashabbusi, taklifi va homiyligi tufayli maydonga kelgan.

Adabiy jarayon haqida muhim dalillarni o'zida jamlagan Fazliyning «Majmuayi shoiron» tazkirasi ham Umarxon tavsiyasi bilan yaratilgan. Bu tipdag'i tazkiralari keyinchalik Xeva adabiy muhitida ham ta'lif etilgan. Amiriy ulkan siyosiy faoliyat bilan band bo'lishiga qaramay, ma'naviy kamolotga, adabiyot va she'riyatga katta e'tibor bergen. Nazmni teran anglagan. Uni tushunish, his qilishni hammaga ham nasib etavermaydigan noyob fazilat deya qadrlagan:

*Gavhari nazm bahosizdur, Amir,  
Anga har sifla<sup>225</sup> xaridor o'lmas<sup>226</sup>.*

Anglashiladiki, Umarxonning O'rta Osiyo ijtimoiy tarmqiyotida, madaniy ravnaqida juda katta o'mi bor. Yaratgan she'riy merosi esa ma'no, mohiyat, badiiy tasvir usullari jihatidan o'z maqomiga ega.

Shu paytgacha Amiriy faoliyatining ayrim qirralari adabiyotshunos va tarixshunoslar tomonidan o'rganildi<sup>227</sup>. Asarlari antologiya, xrestomatiya va majmualarda chop etildi. Devoni nashr qilindi<sup>228</sup>. Ammo, uning ijtimoiy hayotdag'i xizmatlari, ijodkor sifatidagi o'zbek adabiyoti tarixidagi o'mni etarlichcha baholangan mas. She'riyati ma'no, timsol va badiiy san'atlar mutanosibligida o'z talqinini topgani yo'q. Bu borada birgina Z. Qobilova tomonidan yaratilgan "Amiriy hayoti va adabiy merosi"ni o'rjanishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiya tadqiqotini o'tirof etishimiz mumkin, xolos. Shoir adabiy merosi yuzasidan

<sup>224</sup> Фиграт. Танланган асарлар. Т.: 2000, 2-жилд. 59-бет.

<sup>225</sup> Сифла – тубви, паст, пасткам.

<sup>226</sup> Амирий. Девон. Т.: 1972. 92-бет. Кейинги шеърий парчалар шу манбадан олинади ва қавсарнида сифла рахами кўрсатилади.

<sup>227</sup> Каюмов П. Кўкон тарихи ва адабиёти. Т.: 1998; Каюмов А. Кўкон адабий мухити. Т.: 1961.

<sup>228</sup> Амирий. Девон. Т.: 1973.

chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish mustaqillik davri adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardandir. Chunki tarixning manfaatimizga mos keluvchi qismlarini tanlab o'rganish ob'ektiv xulosalar chiqarishimizga xalal beradi. Uni yaxlit o'rganish, muhim saboqlar chiqarish kelajak taraqqiyotini belgilaydi.

Amiri o'zbek va fors-tojik tilida lirik she'rlar yaratgan O'zbekcha va forsiy she'rlarini 2ta mustaqil devon holida tartib bergen. Unda g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, ruboiy kabi janrlardagi asarlari jamlangan. Devon debocha bilan boshlanadi. Shoирning jami 10000 misradan ortiq she'rlari bizgacha etib kelgan. Amiri devonining ko'plab qo'lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. O'zbekiston FA Alisher Navoyi nomidagi Adabiyot muzeyi Tekstologiya va publikatsiya bo'limining katalogida shoир devonining 26ta nusxasi hisobga olinib, ilmiy tafsif etilgan. Bu qo'lyozma devonlar Toshkent, Samarqand, Buxoro, Leningrad kutubxonalarida saqlanadi.

O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida shoир devonining 17ta qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Bundan tashqari, shu fondda XIX asr oxiri XX asr boshlarida chop etilgan bir nechta toshbosma nusxalar ham mavjud. Devonining 1881-1887-yillarda Istanbulda chop etilgan 8 nusxasi ham shu fondda. Ammo, shoир devonining avtograf nusxasi ma'lum emas.

*Shoir she'riyatining mavzu ko'lami va g'oyaviy xususiyatlari*  
Amiri devoni tarkibidagi g'azallar arab alifbosi tartibida joylashtirilgan. Boshqa janrlardagi asarlari ham devon tuzilishining asosiy tartiblariga rioya qilgan holda jamlangan. Devon maxsus nomlanmagan. Ammo, muallif tomonidan «debocha» yozilgan.

Shoir she'rlarining yaratilish tarixi, mavzu qamrovi, ma'nosi, timsollar mohiyatini to'g'ri anglashda «debocha»ning ahamiyati beqiyos. Chunki unda shoирning ijtimoiy faoliyati, ijodiy maqsadlari sharhlari, izohlari o'z ifodasini topgan. Bu ma'lumotlari bizga ko'p masalalarni to'g'ri anglash va xulosa chiqarish imkonini beradi. Debochaga shoирning ikkita ruboysi kiritilgan. Birinchisi

taronayi ruboiy bo'lib, *a – a – a – atarzida qofiyalangan*. Mavzu jihatidan hasbi hol yo'nali shida:

*Chun ma'dalat<sup>229</sup> ayvonini<sup>230</sup> bunyod ettim,  
Ehson ila el xotirint<sup>231</sup> shod ettim.  
Bas, judu<sup>232</sup> saxou<sup>233</sup> adl<sup>234</sup> ila dod<sup>235</sup> ettim,  
Andoqki, jahon mulkini obod ettim(20).*

Ushbu ruboiyda Umarxon-Amiriyning xon sifatidagi bohqaruv tamoyili sharhlangan. U jahonni obod etishning sirini adolat va saxovatda ko'radi. Shoир ruboiyda o'zi amalga oshirgan ihlarni sarhisob etish bilan cheklanmaydi. Balki, o'z faoliyatidan kelib chiqib, insonyatga olam va odamni mukammallashtirish yo'l-yo'riqlaridan saboq ham beradi.

Ikkinchи ruboiyda shoир she'riyatida asosiy mavzu bo'lган ishq talqinining sharhi berilgan:

*Agarchi hush diyorida g'olib o'ldi ko'ngul,  
Jununi ishqu muhabbatg'a rog'ib<sup>236</sup> o'ldi ko'ngul.  
Shuhud<sup>237</sup> bazmida paymonai<sup>238</sup> muhabbat ichib,  
Mudom sog'ari<sup>239</sup> sahbog'a<sup>240</sup> tolib<sup>241</sup> o'ldi ko'ngul (21).*

Ushbu ruboiyda shoh va shoир Umarxon tabiatidagi ziddiyat, shohlikning shoир tabiatiga, ruhiy holatiga ta'siri o'z aksini topgan. Lurik qahramon faoliyatida shoh sifatida hushyorlik, aql bilan ish yuritish etakchilik qilsa-da, ko'nglining ishq-muhabbat behushligiga, devonaligiga rag'bati, mayli ko'proq. Mushohada maqomida esa qizil may to'la qadahga talabgor. Ruboiy

<sup>229</sup> Мадалат – адолат.

<sup>230</sup> Айон – кўшка каср.

<sup>231</sup> Хотир – бу ўринда кўнгил маъносида.

<sup>232</sup> Жуд – иньом, эхсон.

<sup>233</sup> Сахо – саҳийлик.

<sup>234</sup> Адл – адолат.

<sup>235</sup> Дод – инсоф, адолат.

<sup>236</sup> Рогиб – моянл.

<sup>237</sup> Шуҳуд – кўз билан қуриш, мушоҳада қилиш.

<sup>238</sup> Паймона – қадах.

<sup>239</sup> Сонир – май қадахи.

<sup>240</sup> Сажбо – кизил май.

<sup>241</sup> Толиб – талаб қилувчи, изловчи.

mazmunidan ko‘rinadiki, u zohiriy va botiniy mazmunga ega. Junun, ishq, shuhud bazmi, paymonayi muhabbat, sog‘ari sahbo kabi ramzlarni qo‘llab, shoir o‘z she’riyatidagi ishq mohiyatini oydinlashtirib beradi. Bu timsollarning barchasi haqiqiy muhabbatni sharhlovchi ramzlardir. Bu erda timsollar markazida turgan may ilohiy ishq mohiyati bilan bog‘liq. Shunday ekan, Amiriy she’rlaridagi ishq talqinini, timsollar mohiyatini har doim ham majoziy ma’noda tushunish to‘g‘ri emas. Uning zamiridagi ko‘pma nolilik va botiniy mazmunni ham e’tiborga olish lozim. Bu fikrlarni «Devon»i debochasidagi shoirning quyidagi mulohazalarini ham tasdiqlaydi: «*Bovujud mucha shug‘lu taraddud va bu miqdor tajassusi taaddud ko‘ngul ishqu muhabbat zavqig‘a rog‘ib va zamirimda oshiqona, sho‘rangez g‘azallar shavqi g‘olib erdi. Parichehra gulandom shohidlari safhai orazida sun‘i qalami birla yozilg‘on xatti rayhoni g‘uborin va xol binafsha nuqtalari savodin mutolaa va mushohada birla haqiqat sarmashqin olur erdim... Va har gohkim, gulruxsor sanamlar husnining oyinasikim, mahbubi bemisl jamolini(ng) jilvasi mazharidur, xayolim nazarig‘a manzur bo‘lg‘och tab ‘im to‘tisi mushohada hayratgohida shirin ash‘orlar birla azal naqqoshining irodati xomasi chekkon bade‘ naqshlar ofarinonda surud qilur erdilar*»<sup>242</sup>. Demak, shoir sanamlar husni va yoki atrofidagi har bir tabiiy go‘zallikni o‘xhashi yo‘q mahbuba jamolining – Ollohning «jilvayi mazhari», ya’ni tajallisi degan tasavvurda.

Shoir she’rlari, o‘zi ta’kidlaganidek, asosan, oshiqona yo‘nalishda. Timsollar markazida turuvchi ham oshiq timsoli. Shoir asarlarida ishq chuqur mohiyatga ega. U zohiriy va botiniy ma’noni o‘zida mujassamlashtiradi. Agar biz faqat zohiriy ma’nolar haqida so‘zlasak, shoirning badiiy maqsadidan uzoqlashamiz. Chunki ijodkorning asl niyatini ifodalashi uchun zohirbinlik bir vosita, xolos. Agar botiniy mohiyatni anglamasak, shoir asarlari siyqa va jo‘n ijod namunalariga aylanib qoladi.

<sup>242</sup> Ўна асап, 20-21-бет.

Amiriy she'riyatida nazarda tutgan barcha ishoralarni tushunish uchun asarning ma'nosi va timsollar mohiyatini anglash lozim.

Ma'lumki, ishq asrori pinhoniydir. Uni hammaga oshkor etish albiy holat, irodasizlik belgisidir. Bunday xatoga yo'l qo'ygan oshiqni Mansur Hallojlar qismati ta'qib etardi:

*Vasldin dam urma, ey oshiq, agar Mansursen,  
Deding: asrori analhaq, dordin andisha qil (148).*

Shu sababli ham mumtoz adabiyotda, jumladan, Amiriyl ijodida ham ramziylik muhim ahamiyatga ega. Timsollar mohiyatidagi ko'pma'nolilik va sirlilik ishqning mumtoz talqini bilan izohlanadi.

Jaloliddin Rumiy ishq mohiyati haqida so'zlab, «*Ishq – usturlobi asrori xudo*», ya'ni ishq Olloh asrorini o'rganuvchi vosita, deya baholagan edilar. Amiriyl lirik qahramoni ham xuddi shunday nuqtayi nazarda turadi. U dunyo mohiyati, hayotning mazmuni va sir-sinoatini ishq orqali anglashga intiladi. Natijada, o'zi tushungan haqiqatlardan saboq beruvchi donishmandga aylanadi. Buni shoir «*Falotun ishq darsida menga shogird erur*», deya e'tirof ham etadi.

*Mulki ma'nida so 'zum shuhrati fosh o'ldi, Amir,  
Baski, shamshiri zabonim edi javhar afshon (182).*

Ushbu baytda ham shoir o'z so'zining mohiyatbinlikda shuhrat topganini eslatyapti. «*Mulki ma'ni*» deganda ham botiniylik nazarda tutilgan.

Shoir o'z she'rlarida ishq va oshiqlikning haqiqiy mezonlarini belgilab ko'rsatadi. Bu yo'lga tushgan solik uchun maqsad yo'lida hech narsa, garchi u shirin jon bo'lsada, to'siq bo'lolmasligi lozim:

*Oshiq uldurkim, labingni hasratida jon berur,  
Yo 'qsa ko 'pdur bulhavaslar ko 'nglida yolg'on havas (94).  
Yoki:*

*Kechgung o'zlukdin agar bazmi visolin izlasang,  
Qilmag'il, ey xasta ko'nglum, jon bila jonon havas (94).*

Farg'ona adabiy maktabida Mashrabdan keyin yashagan shoirlar ijodida uning ta'siri yaqqol seziladi. Bu Amiriylar she'rlarida ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, quyidagi bayt Mashrabning «Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak, Ibrohimdin qolg'on ul eski do'konni na qilay» misralari bilan nihoyatda hamohang:

*Rasmdur ahli junun bo'ynig'a tummor osmog'i,  
Dog'i dil gar bo'lmasa, bo'ynida tummori g'alat (104).*

Demak, shoir lirik qahramoni ham tashqi naqshu nigordan ko'ra ko'ngil naqshini ustun qo'yadi. U bu borada Mashrab lirik qahramoni bilan bir nuqtayi nazarda.

Asl maqsad manziliga etish vositasi – ishqda ikki yo'naliш mavjud. Biri sukra – bexudlik, ikkinchisi sahv – hushyorlik yo'li. Sukra yo'lida junun etakchilik qiladi. Aql rahnamoligi inkor etiladi. Sahv yo'lida esa aql etakchilik qiladi. Amiriylar adabiy faoliyatida o'zi mansub naqshbandiylik tariqati me'yorlariga o'z munosabatini ham bildirib ketadi. Jumladan, u aql va jununni birlashtirish tarafdoi:

*Aql man' aylar, junun tug'yon etar yuz ko'rgali,  
Bu ikovin eltid ul yora duchor aylay bukun (177).*

Yoki:

*Bulhavas<sup>243</sup> ishq ramuzin na bilur,  
Bexirad<sup>244</sup> mahrami asror o'lmas (91).*

Amiriylar she'rlarida ishq mazmunini yoritadi, sharhlaydi. Oshiqning bosh maqsadi – baqo. Fano baqoga ko'priklar. Shoir orif siymo sifatida unga erishish yo'llarini ko'rsatadi:

<sup>243</sup> Булхавас – бекарор, сингилтак.

<sup>244</sup> Бехирад – аклсиз, нодон.

*Ishq yo'lida fano o'lmak erur ayni baqo,  
Kimki o'ldi xanjari noz ila qurban topti jon (202).*

Yoki:  
*Manzili maqsad tariqini tay etg'aysen, Amir,  
Ciar bu yo'l ichra ko'ngul qonidin etsang, zodning<sup>245</sup> (135).*

Shoir she'riyatidagi oshiq timsoli tabiatini yoritishda zohid timolining ham ma'lum o'rni bor. Oshiqning ham, zohidning ham va maqsadi bitta. Diyordorga vosil bo'lish. Ammo, unga yetish yo'llari turlicha. Oshiq ishq orqali, zohid esa toat-ibodat orqali niyatiga etishga intiladi. Amiriy she'riyatidagi oshiq xuddi shu nuqtada zohid dunyoqarashi va tasavvurlari bilan kelisha olmaydi:

*Zohido, dersenki oshiqlig'da maqsuding nadur,  
Bo'limg'ay ishqidin o'zga hech dilxohim mening (132).*

Demak, oshiqning asosiy ko'ngil mulki, boyligi, boru yo'g'i hqidan iborat. U pirovardida biror egalikka da'vo qilmaydi. Hazrati Rumiy ham oshiqlarga baho berib, «Oshiqlar ushbu chehraga o'zlarini fido qilib, evaziga hech narsa istamaslar»<sup>246</sup>, degan edilar. Zohid esa o'z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan ushbu o'rinda oshiqni so'roqqa tutyapti. Demak, zohidning oshiqligi ortida da'vogarlik mavjud. Tamagirlik mujassam. Shuning uchun ham Amiriy she'riyatidagi bosh qahramon zohid bilan shiqisholmaydi. Uning tanlagan yo'lini inkor etadi. O'z qarashini tirol etish orqali unga engilgina, kinoyali tarzda tanbeh beradi:

*Men kimu zuhdi vara', ishqqu muhabbatdur ishim,  
Menga qoshing xamiyu zohida mehrob kerak (127).*

Zohid faoliyatida moddiyilik birlamchi. U qibla va mehrobga diqqatini qaratadi. Oshiq faoliyatida esa taxayyulot birlamchi. U qibla va mehrobni ko'rmaydi. U bevosita mahbuba bilan muloqotga kirishadi. Mahbubani ko'radi. Shoir she'riyatida

<sup>245</sup> Зод – Рух озиги, озик.

<sup>246</sup> Жаҳонлицин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Т.: 1997, 25-бет.

mahbuba timsolini, uning tavsifini izohlaydi. Mohiyatiga oydinlik kiritadi. Uni tor anglagan zohidga unga yaqin tushunchalar orqali izohlab berishga urinadi. Hatto, zohid sajda qiladigan mehrobning ham qibлага orqa o'girib turganini eslatib, u tanlagan yo'l noto'g'riliгини ta'kidlaydi:

*Zohid ar qoshingni inkor ayladi,  
Yuz o'girdi qibladin mehrobdek (123).*

Amiriy qahramoni zohid faoliyatida kibrni ham ko'radi. Uning nazarida zohid toat-ibodatdan shahodat beruvchi dastorini hammaga ko'z-ko'z etadi. U bilan kibrlanadi. Lirik qahramon zohid bilan muloqotga kirishib, unga dastor haqida eslatadi. Anna shu birlgina so'zni qo'llash orqali shoir zohid xulqidagi nomukammallikka e'tiborni tortadi. Komil oshiq tabiatiga xos xokisorlikni alqaydi:

*Yonar o'tg'a xusumat aylasa bo'lg'aymu, ey zohid,  
Muhabbat ahlig'a dam urma, dastoringni kuydurma (219).*

Amiriy ijodida dastor – salbiy timsol. U dunyoga mayl qo'yish mansab, martaba belgisi:

*Nega arbobi xirad ahli junundin ori bor?  
Kim bular uryon, alarning jubbau dastori bor (52).*

Ishq ahlining junundan, oshuftalikdan o'zga boyligi yo'q. Aql ahli esa ruhan zanjirband, bog'liq. Hashamatli to'n va salsa ularni asl mohiyatdan yiroqlashtiradi.

Lirik qahramon tabiatida shohlik va shoirlikning ziddiyatlari kechinmalari, tuyg'ulari ko'zga tashlanadi. Shoirlik–oshiqlik, haqiqiy oshiqlik–faqirlilikdir. Faqirlilik–hoyu havasdan g'olib kelishdir. Shuning uchun ham hoyu havaslarga berilish, toju taxtiga bog'lanishni shoir faqirlikka zid qo'yadi. Uni qoralaydi. Talabgorlikdan chekinish deb baholaydi:

*Saudat gavhari el qo'ynida pos<sup>247</sup> adabdindur,  
Kulohi faqr afsar<sup>248</sup> bo'lmosg'i tarki talabdindur (80).*

Amiriy she'riyatida ko'ngil timsoliga ham katta e'tibor beriladi. Uning Ka'ba yanglig' mo'tabarligi o'ziga xos ifoda tizimi bilan e'tirof etiladi:

*Ko'ngul uyi sari ehrom bog'la, qasdi haj etma,  
Biyobonlar kezib cho'x zahmatu dayri haram chekma (216).*

Shoir she'rlerida, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ishq etakchi mavzu. Ammo, uning zamiriga shoirning keng qamrovli hayotiy xulosalari, fikrlari ham singdirilgan. Ishq izardiroblari, kechinmalari, ma'shuqa ta'rifu tavsifi bilan bir qatorda chuqur donishmandona, orifona falsafiy mushohadalar ham bayon etilgan. U ishq vositasida dunyoni va asl mohiyatni yoritib bergan. Bu fikrlar ba'zan dunyoviy, ba'zan ilohiy talqinda o'z ifodasini topgan. Ba'zi she'rlerida shoirning zamon va zamondoshlariga munosabati aks etgan. Davlat arbobi sifatida siyosiy hayotdagi o'yinlardan og'rinib, kuyinib aytgan kechinmalarini his etamiz:

*Ey falak, yog'durma ko'p g'am jolasin,  
Jomi ayshim sindi toshingdin seni (253).*

Shoir davron izardiroblari haqida so'zlar ekan, so'zlar tizimini katta mahorat bilan tanlaydi. Bir qaraganda «aysh jomining falak to'hidin sinishi» oddiygina jumla. Ammo, aynan shu so'zlarning qo'llanishi lirik qahramon qalbidagi ozorlarni, his-tuyg'ularni aniq etkazib berishni ta'minlagan. Ruhiyat manzarasining noyob, original tasvirini namoyon etishga xizmat qilgan.

Amiriy she'rlerida atrofdagi oddiy ashylardan ham badiiy timor sifatida mahorat bilan foydalananadi:

<sup>247</sup> Пос – ўзбекбор, риоя, сайдап.

<sup>248</sup> Афсар – тож.

*Bo 'l'mag'on bo 'ls'a ayog'ing hajridin qolib tih<sup>249</sup>,  
Nega hayrondur ko 'zum yanglig' uzangu halqasi (235).*

Shoir ot uzangisining turishida ham mantiq ko'radi. Va undan oshiq ruhiy holatiga mutanosiblikni kashf qiladi.

Ma'shuqadan yiroq ko'z va ko'ngul -yo'lini yo'qotgan va hayron. Bo'm-bo'sh uzangi oshiqqa o'zining ana shunday ruhiy yolg'izlik holatini eslatadi. Uzangi shakli hayratdan kattalashgan ko'zga va bo'm-bo'sh ko'ngilga mengzaladi.

Amiriy ijodida Navoyi va Fuzuliy asarlarining ta'siri yaqqol ko'rindi. Uning, ayniqsa, ustoz Navoyi ijodiga ehtiromi baland. Uning 24 ta g'azaliga muxammas bog'lagan. O'zi yaratgan asarlarini esa kamtarlik bilan Navoyi merosi oldida bir mashq, havas deb hisoblagan:

*Bir paripaykar xati la 'lini sharh ettim, Amir,  
Bu g'azal ne zeri mashqidur Navoyi daftari (243).*

Xulosa qilib aytganda, Amiriy she'riyatida hayotning har jabhasidan so'z boradi. Asarlarining mavzu qamrovi keng. Olam va odam, ularning munosabatlariga oid barcha masalalar xususida fikr yuritiladi. Shoир asarlarining e'tiborli tomoni umumbashariy masalalarni ifodalashda o'ziga xos yangicha tasvir vositalaridan, badiiy timsol, tashbehu qiyoslardan, tarhi toza so'zlar qatlidan foydalanganidadir.

*Asarlarining janriy tarkibi. Amiriy ijodida musammatning o'rni. Shoирning badiiy mahorat qirralari.* Amiriy ijodi o'zbek adabiyotida kam o'rganilgan. Uning asarlari bilan tanishan ekanmiz, zamiridagi teran tafakkur ko'lami, falsafaga yo'g'irilgan hikmatlar qamrovi, badiiy tasvir vositayu shakllarining rang-barangligi, noyobligidan mazkur ijod oldida adabiyotshunoslikning naqadar qarzdor ekanligini his etamiz.

XX asr boshlariда izchil, ilmiy adabiyotshunoslikning asoschilari hisoblangan Fitrat, Vadud Mahmud kabi olimlar ham

<sup>249</sup> Қолиб тихи – ўлмоқ.

Amiriy merosiga yuksak she'riyat namunasi sifatida qarashgan. Adabiyotshunoslikning ilmiy nazariyasini yaratishda uning o'sarlardan asos sifatida foydalanishgan<sup>250</sup>.

Amiriy g'azal, muxammas, musaddas, musamman, ruboiy, tuyuq kabi 10ga yaqin lirik janrlarda ijod qilgan. Quyidagi jadvalda Amiriy devoni<sup>251</sup>dagi janrlar tarkibi tasniflangan:

Ab	<i>Turkiy devondagi janrlar tasnifi</i>					
	<i>g'azal</i>	<i>muxammas</i>	<i>musaddas</i>	<i>musamman</i>	<i>tuyuq</i>	<i>ruboiy</i>
1	318	39	4	1	16	7
<i>Forsiy devondagi janrlar tasnifi</i>						
1	142	18	2	1	-	-
JAMI:	460	57	6	2	16	7

Jumladan, bu borada Vadud Mahmudning "Bu kungi she'larimiz va san'atkorlarimiz" nomli maqolasida aytgan fikrlari nihoyatda ahamiyatli. U muxammas janri haqida so'zlayotib, "Muxammas... band-bandga ajralg'on va har qayusida bir-birovig'a aloqador, faqat ayri-ayri mavzular ishlataturg'on, ya 'ni butun sikrlar berilib, tugatib bir-birovidagi robitani mahkam bog'lab borish uchun eng mukammal shakldir"<sup>252</sup>, - deya ta'riflaganda haq edi.

Amiriy she'riyati o'ziga xos noyob uslub, kutilmagan badiiy tasvir vositalari, badiiy detallarning turlicha jilvalanishi, tovlanishi mahsulidir. Muxammaslar orqali shoirning teran, falsafiy tafakkur ko'lamin, betakror iste'dodining olmos qirralarini, badiiy topilmalarining nodir turfalogini his etamiz.

Muxammas janri Amiriy she'riy iste'dodini namoyon etishda "keng maydon" vazifasini bajargan. Uning O'zbekcha devonida 39ta, 1370 misra; forsiy devonida 17ta, 665 misra; jami 56ta, 2035 misra muxammasi bizgacha etib kelgan. Shoir o'zbek mumtoz

<sup>250</sup> Вадуд Махмуд. Таиланган асрлар. Т.: Маннинг, 2007; Фитрат. Адабиёт қоидалари. Г. Усмонович, 1995; Фитрат. Таиланган асрлар. 2-жидд. Т.: Маннинг, 2000.

<sup>251</sup> Амирий. Девон, Т.: Тамаддуз, 2017

<sup>252</sup> Вадуд Махмуд. Таиланган асрлар. Т.: Маннинг, 2007, 90-б.

adabiyotining Navoyi, Jomiy, Lutfiy, Zaliliy, Nobiy, Bedil, Fuzuliy, Mushfiqiy kabi eng mashhur ijodkorlarining g‘azallariga taxmislari bog‘lagan. Ular faqat son jihatdan emas, balki ma’no va badiiyat nuqtayi nazaridan ham Amiriyl salohiyatini namoyon eta olgan.

Quyidagi jadvallarda Amiriyl devonlaridagi muxammaslar tarkibi tasniflangan.

### *Forsiy devondagi taxmislarning tarkibi*

<i>Nº</i>							<i>JAMI</i>
1.	<i>Taxmislardagi bandlar soni</i>	<i>5bandli i</i>	<i>6bandli an dli</i>	<i>7 bandli</i>	<i>9 bandli</i>	<i>11bandli</i>	<i>12bandli i</i>
2.	<i>Taxmislarni</i>	<i>7 ta</i>	<i>2 ta</i>	<i>3 ta</i>	<i>1 ta</i>	<i>4 ta</i>	<i>1 ta</i>
3.	<i>Taxmislarga asos bo‘lgan g‘azal mualliflari:</i>						
4.	<i>Mushfiqiy</i>	<i>1</i>					<i>1 ta</i>
5.	<i>Bedil</i>	<i>1</i>		<i>1</i>		<i>4</i>	<i>1 ta</i>
6.	<i>Soib</i>	<i>1</i>			<i>1</i>		<i>2 ta</i>
7.	<i>Amir (tab‘i xud muxammas)</i>	<i>1</i>	<i>1</i>				<i>2 ta</i>
8.	<i>Xolis</i>	<i>1</i>					<i>1 ta</i>
9.	<i>Kamol</i>	<i>1</i>					<i>1 ta</i>
10.	<i>Jomiy</i>				<i>2</i>		<i>2 ta</i>
11.	<i>Sho‘xiy</i>	<i>1</i>	<i>1</i>				<i>2 ta</i>
12.	<i>Jami misrlar soni</i>	<i>175</i>	<i>60</i>	<i>105</i>	<i>45</i>	<i>220</i>	<i>60</i>
							<i>665 milar</i>

### Turkiy devondagi taxmislari tarkibi

								<i>jam'i</i>
1	<i>Taxmislardagi bandlar soni</i>	5	6	7	8	9	10	
2	<i>Taxmislari soni</i>	11 ta	3 ta	13 ta	2 ta	7 ta	2 ta	1 ta <b>39 ta</b>
3	<i>Taxmislargacha bo'lgan g'azal mualliflari:</i>							
4	<i>Lug'liy</i>	2		2				<b>4 ta</b>
5	<i>Nawoyi</i>	5 ta	2 ta	6 ta	2 ta	7 ta	1 ta	<b>24 ta</b>
6	<i>Furudiy</i>		1 ta	1 ta				<b>2 ta</b>
7	<i>Zaliliy</i>	2 ta						<b>2 ta</b>
8	<i>Nobiy</i>	1						<b>1 ta</b>
9	<i>Iab'i xud</i>	1		5 ta				<b>5 ta</b>
10	<i>Muxammas marxiya</i>					1 ta		<b>1 ta</b>
11	<i>Jomi misrlar soni</i>	275	90	455	80	315	100	55 <b>1370 misra</b>
12	<i>Jomi turkiy va forsyiyya muzammasti</i>	450	150	560	80	360	100	275 <b>2035 misra</b>

Amiriyning, ayniqsa, shoir Zaliliy g'azaliga yozgan taxmislari, ma'noviy teranlikning badiiy barkamollikka mushtarakligi bilan ajralib turadi. U Zaliliyning "Etar" va "Bor" radifli ikkita g'azaliga taxmin bog'lagan. Ikkala g'azal ham besh baytdan iborat. Muzammaslar ham besh bandli. Amiriy Zaliliy g'azallariga ulkan oltiron bilan yondashgan. Ularda o'z hissiyotlariga mutanosib hechimmalami tuyib, ixlos va mehr bilan beshlantirgan.

Ammo o'zbek adabiyotshunosligida shoir Zaliliy haqidagi ma'lumotlar aniq va yetarli emas. Uning shaxsiyati va ijodiy faoliyati borasida turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, Po'latjon Qayumovning "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti" nomli asarida Zaliliy haqida ma'lumot berilar ekan, uning Sharqiy Turkistonlik bo'lib, XI-XII asr shoiri ekanligi ta'kidlanadi: "*Bu shoir (Zaliliy-N. J., I. A.) Qoraxoniylarning Sharqiy Turkistondan to Buxoroga qadar istilo qilgan va rivojlangan davridagi shoirlaridan. Mashhur Sulton Satug' Bug'roxonning (998-1049-y.) davrida uning shoiri bo'lganligi ba'zi she'rлaridan bilinib turadi*".

Otabek Jo'raboev esa X1 va XVII asrlarda (2-Zaliliy turkman shoiri Maxtumqulining jiyani bo'lib, Xorazm tomonlarda o'tgandir. 1844-yilda vafot etgan) yashab ijod qilgan ikkita Zaliliy borligi haqida ma'lumot beradi. Tazkirada berilgan asarlar ham ikkiga bo'linadi. Ammo she'rлar matn jihatidan bir-biridan keskin farqqilmaydi. Til nuqtayi nazaridan бир-biriga juda yaqin. XVII asr adabiyotiga xos leksik ko'lamga egaligi aniq sezilib turadi. Shu sababli, bu masalaga oydinlik kiritish uchun, uni maxsus o'rganish taqozo etilishini e'tirof etish lozim. Bu borada O. Jo'raboyevning bir maqolasasi ham e'lon etilgan.

Tazkirada Amiriy muxammas bog'lagan "Bor" radifli g'azal matni berilgan. Ammo u negadir muxammas shaklida keltirilgan. Aslida, u g'azaldir. Mazkur taxmis Amiriy devonida "Mavlono Zaliliya muxammaslar" degan alohida sarlavha bilan keltirilgan. Tazkiradagi matn xuddi shu taxmisga asos bo'lgan g'azal ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Amiriy kabi rahnamo shoirning ham Zaliliy g'azaliga taxmis bog'lagani, Qo'qon adabiy jarayonida uning shoir sifatida ehtiromga sazovor ijodkorligini ko'rsatadi.

Mazkur taxmislari Amiriyning noyob iste'dodini yanada oydinroq ko'rsatishga xizmat qilgan. Ilmdan ma'lumki, taxmislari nazirachi ijodkor ko'nglidagi mutanosib kechinmalarni yuzaga chiqarish va ijodiy musobaqaqlashishning ulkan maydonidir. Bu, ayniqsa, Amiriy muxammaslarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodiy musobaqa shoir ijodining ma'noviy chegaralarini kengaytiradi.

Hadiy tasvirlash uslubining yangi qirralarini ko'rsatish imkonini yaratadi. Zaliliy g'azaliga bog'langan ikkala taxmis ham oshiqona iftoniy yo'nalishda. "Bor" radifli muxammidan asos g'azalni ajratib olsak, fikr-ma'no tor va tezis darajasida aytilganini ko'zatamiz. Amiriy bog'lagan misralar tufayli asar mukammallik kabi etadi. Har bir baytda aytilgan tezis yanada chuqur ma'noga ega bo'ldi. Sharhanadi, izohlanadi, teran mohiyatga aylanadi:

*Pariruxsorlar yuzini moh derman, ayb qilmanglar,  
Sih qadlar g'amidin oh derman, ayb qilmanglar,  
Harimi dilni Baytulloh derman, ayb qilmanglar,  
Ko'ngulni poytaxti shoh derman, ayb qilmanglar,  
Vujudim shahrida lashkarkashi sohibqironim bor .*

B'tibor bersak, Zaliliy g'azalidagi ma'no ramziylikka ega. Amiriy ana shu murakkablikni o'z misralari bilan oydinlashtirib yuboradi. U orqali xosga ham, avomga ham birday anglash imkoniyatini yaratadi. Oy yuzli pariruxsorlar haqida so'zlab kelib, ibiq manzili dilni Ollohning uyi, Olloh makon tutadigan manzil deb o'lon etadi. Bu lirik qahramonning vujudni bir shahar bilib, ko'ngilni uni boshqaruvchi zo'r podshohga mengzashiga mutanosib tushadi.

*Junun shahri sarosar ogibat vayrona bo'lmasmu?!*

*Ko'zum yoshi chu daryo, har taraf obi ravonim bor (412)*

baytini beshlantirish jarayonida Amiriying xalqona uslubi, teman tafakkur tarzi yaqqol namoyon bo'ladi. Asar hazaji mu'mmuni solim vaznida yaratilgan. Shoir g'azalning birinchi misrasiда qo'llangan tajohuli orif san'atini qo'shimcha uch misrada ham qo'llab, asarga ohangdorlik, betakror joziba va chuqur ma'no bog'i shilganining guvohi bo'lamiz. Xalq orasida mashhur bo'lgan "parilarni ko'rgan kishining esdan og'ishi" borasidagi misrlardan noyob badiiy detal sifatida foydalanadi. Natijada, lirk qahramon ruhiyati manzarasini nihoyatda aniq va ta'sirli chizib berishga erishadi. Shoir qofiya va radifning ma'noni

mukammallashtirish, o'quvchi diqqatini bosh mohiyat atrofiga jamlash vazifasidan unumli va mahcorat bilan foydalangan. Bunday tasvirlar orqali Amiriy har bir misrada ikki qatlamlari – ham oddiy hayotiy, ham chuqur ma'rifiy ma'noni birlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa asarga joziba va teranlik baxsh etadi. Lirik qahramon ahvoli ruhiyasini samimiy, tabiiy va ta'sirli ifodalashga ko'maklashadi:

*Qadam urgon muhabbat ko 'yig'a afsona bo 'lmasmu?!  
Parilar birla suhbat aylagon devona bo 'lmasmu?!  
G'ani yor istagon ag'yordin begona bo 'lmasmu?!  
Junun shahri sarosar oqibat vayrona bo 'lmasmu?!  
Ko 'zum yoshi chu daryo, har taraf obi ravonim bor (412)*

Zaliliy g'azaliga bog'langan "Etar" radifli taxmisni ham noyob adabiy hodisa darajasida baholash mumkin. U hazaji musammiyi mahzuf vaznida yaratilgan. Besh banddan iborat. Asar tasavvufiy yo'nalishda. Adabiyotshunosligimizda tasavvufning mohiyati, mutasavvuflarning maqomu darajalari yetarli talqin etilmagan. Bu ta'limot zamiridagi hayotiylik ko'lami, yashovchanlik shukuhini izohlab beraolganimiz yo'q. Bu borada Vadud Mahmudning yuqorida eslangan maqolasida e'tirof etgan fikrlari diqqatga sazovor: "...Sharqning eng buyuk kishilari eng buyuk mutasavvuflaridir va bashariyatning "urfoni koinot" haqidagi topg'on yo'llarining eng muazzami va bu kunga qadar ko'pchilikka nufuz e'tibori bilan eng umumiy va hayotiyasi tasavvufdir". Olim fikrini davom ettirib, mumtoz adabiyotdagi ishqning ikki turini izohlaydi: "bizda she'rning ikki jabhasi bordir. Chunki ishqimi, ikki jabhalidir. Haqiqiy, majoziy. Haqiqiy ishq ruhi umumiyiga hulul dardidirki, eng yuksak va orifona bir amaldir. Majoziy ishq esa oddiy va nafsoniy ehtirosdirki, umumiy va tabiiy bir mayldir". Shoimning maqsadi hayotning mohiyatini yoritish, tariqat solikini hidoyat yo'lidan ogohlantirish, unga yo'naltirishdan iborat.

*Tariqat ahlining andishasi qanoatdur,  
Vujud sham 'ini kuydurmak ango odatdur,  
Chu sof bo 'lsa ko 'ngul, anjumanda xilvatdur,  
Charog 'i xonaqahi so 'fiyon ne hojatdur,  
Sitorayi falaki gunbadi kabud yetar (411).*

Amiriy solikni moddiyat olamidan kechib, ruhiyat olamiga yuz burtibgina da'vat etadi. Shoir bu ikki olamni mohiyatan bir-biriga zillardanitirib tasvirlaydi. Vujud olamini toshlarga, ruhiyat olamini esa qubrlarga mengzab, erkin parvoz zavqi bilan tanishtiradi. Kuloh, sirqa, pashmina obrazlari orqali tashqi zebu ziynat ma'nisiz łożonligini ta'kidlaydi. Mazkur bandga Amiriy olib kirgan har bir obraz zaimirida keng qamrovli ma'no va noyob badiiy ifoda mijozlarni ko'ramiz. Shoir har bir so'zni mantiq tarozisidan o'tkazib, serqatlam ma'nolarni ifodalagan. Jumladan, quyidagi bandda "*Vujud kisvatin toshlarg'a xayr etgil*" jumlesi qo'llanadi. Shoir ustomonlik bilan shu o'rinda ikki ma'noni nazarda tutadi. Birinchisi, oddiy tosh ma'nosida bo'lsa, ikkinchidan, gap yuragi toshiga aylangan, yuraksiz kishilar haqida ketayotgani anglashiladi:

*Havoyi ishqida parvoz misli tayr etgil,  
Aning visoli umidida tarki g'ayr etgil,  
Vujud kisvatini toshlarg'a xayr etgil,  
Tamomi dashti tariqat barahna sayr etgil,  
Kulohi xirqayı pashminadin ne sud yetar (411).*

Shoir lirik qahramoni tasavvufning eng yuqori – fano bo'siqichini orzulaydi. Fano bu – visol demakdir. Oshiq va koinotning, borliqning yagonaligi, birligi demakdir. "*Umarxonning mayni tasavvufning yuksak nuqtasi bo 'lg'on umumiylu ruhga fano bo'lishi, quyulish, koinot ruhi bilan birlashish mavzuidir. O'shaning haxratidir*". Vadud Mahmud Umarxon asaridagi fano masalasini Amerikalik mashhur yozuvchi Edgar Poning "Qarg'a" dostonidagi o'lim mavzusi bilan qiyoslab baho beradi. Shoir muxammasidagi o'limning qanchalar keng va teran ma'noga egaligini, Edgar Po

asaridagi o'lim bilan qanchalar farqlanishini, uning asaridagi o'lim oddiy, bir xotinning o'limi ekanligini ta'kidlaydi: "Umarxonning ham qayg'usi, hasrati bor, lekin "bir xotunning o'lumi uchun" emas, koinotning umumiy ruhiga quyilish hasratidir. Ko'ringi, mavzu naqadar buyuk, naqadar oliydir". Haqiqiy oshiqhayotining mazmuni shundan iborat:

*Visolsiz bu chamandin ko'zumga zindon xo'b,*

*Nishot mahfilidin kunji baytul ahzon xo'b,*

*Agarchi bulbuli sho'ridag'a guliston xo'b,*

*Mango jahon elining bazmidin go'riston xo'b,*

*Navoyi navhayi har qabrdin surud yetar (411).*

Yuzaki qaraganda, bandning **mazmunida** tushkunlik kayfiyatı ustundek tuyuladi. Ammo solik ishqı, dunyoqarashi va nuqtayı nazari bilan qarasak, har bir misra qatida hayotning, yashashning asl mohiyati o'z ifodasini topganini ko'ramiz. Chunki unda ifodalangan haqiqiy ishq "ham mabdat va ham g'oya e'tibori bilan hayotiy va insoniydir. Chunki inson o'zining yaratilishini va yashashining g'oyasini tushunmak va bilmak istaydir". Asarning quyidagi baytidan esayotgan sovuq nasim, go'yoki, etingizni junjitadi:

*Mango jahon elining bazmidin go'riston xo'b,*

*Navoyi navhayi har qabrdin surud yetar (411).*

Ammo chuqurroq mulohaza yuritsak, bu misralar orqali "Ilohiy tarannumlar sohibi" shoir insoniyatga ulkan saboq beradi. Chunki bazm, xursandchilik yoqimli. Ammo unda ibrat, saboq yo'q. Har qabrdan fig'onli, nolali kuy kabi insoniyatning hayotdan olgan sabog'i va ibrati taraladi. O'lim insonni asliyatni ko'rishiغا, asliyatga yaqinlashishga o'rgatadi.

Lirik qahramonning maqsadi vujuddan xalos bo'lib, erkin ruhoniyat bilan koinotga quyilish, u bilan birlashishdan iborat. "Insonning erishgan eng yuksak daraja fardiyatchilik (individualizm) emas. O'zining fardiyatini yo'qotib, jamiyat

*hayotida yashashida... butun jonli narsalarni suyushda, bundan ham o'tsa jonsiz narsalarda o'ziga mushtarak hayot tasavvur etishda va ularning umumiy ruhlarini sezish uchun intilishdadir... Umarxon shu falsafaning bir namoyandasini bo'lg'onidan saharning nasimi, udning surudi, oyning nuri, yulduzlarning so'zlarini kichanining qorong'uligi unga gapi radir. Ularning so'zlarini sezadir. Ruhlari bilan sirlashadir".*

*Sahar chamanda qulog'img'a bongi udyetar,  
Bashorati karim vojibul vujud yetar,  
Bu kechakim to'lun oy sorig'a vujudyetar,  
Falak sitorasidin sharbati shuhud yetar,  
Savodi sarmadima ko'zlarimga dud yetar (411).*

Shu sababli ham shoir nuqtayi nazari, tafakkur tarzi noodatiy. Uni anglash uchun o'quvchidan o'tkir mushohada, mantiqiy tafakkur talab etiladi.

Shoир muxammas uchun g'azallarni o'tkir did bilan saralaydi. Har bir taxmisda g'azalnavis kechinmalarining mukammal takomil bo'shchiga ko'tarilganining guvohi bo'lamiz. Ijodkor shunchaki boshlik bog'lamaydi. U o'z tuyg'ulariga mushtarak hissiyotlarga doch kelganda, ularni yanada kengaytirish ehtiyojini tuygandagina manba tanlaydi. Shu sababli ham, Amiriyning har bir taxmisi badiiy ijodning nodir va yuksak namunasi darajasiga ko'tariladi. Shoир tomonidan bog'langan har bir misra uzukka qo'yilgan gavhar habi o'miga tushadi. Misralarning mantiqan izchilligi, so'zlarning bu-biridan o'sib chiqish tamoyillari, harf va tovushlar ritmidagi harmoniya, qofiya va radif, vazn bilan bog'liq simfoniyaga alohida o'tibor bergenligi seziladi. Amiriyning boshqa janrlardagi asarlari habi muxammaslarida ham badiiy detallar shunchaki qo'llanilmaydi. Ulardagi so'zlar, harflar, tovushlar o'ziga xos, yangicha, o'z hayotlari bilan yashaydi. Shoир asarlarining originalligini ta'minlaydi.

Amiriyligining takomillashuvida, ayniqsa, ulug' Navoyi maktabi saboqlarining o'mi beqiyos. Shoир uchun o'nlab buyuk

ustozlar ijodxonasi, xususan, Navoyi asarlari ulkan mezon, sarhadsiz darsxona bo'lgan. Uning o'zbekcha devonida hazrat Alisher Navoyi g'azaliga bog'langan 24 ta taxmis keltirilgan. Ular, asosan, falsafiy, tasavvufiy-orifona g'azallarga bog'langan. Shoir taxmislari orqali Navoyining murakkab fikrlarini soddalashtirish, izohlash, sharhlash yo'lidan borgan. Ko'rindiki, muxammal bog'lash orqali shoir ustozidan ilhomlanish, undan o'rganish, u bilan musobaqalashib o'z mahoratini charxlash bilan bir qatorda, ma'lum ma'noda, xalqqa Navoyi tafakkuri dahosidan saboq berishga, allomani anglash yo'lida ularga ko'maklashishga ham harakat qilgan. Chunki XV asrdan XIX asrgacha o'rtada 400 yil vaqt bor. Bu orada adabiy tildagi, tafakkur tarzidagi tafovutlar shuni taqozo etar edi. Shoир g'oyibona ustozining eng sara g'azallari baytlarini beshlantirgan. Shulardan biri "*Muvoſiq kiydilar, bo'lmish magar Navro'z ila-bayram, Chaman sarvi yoshil xil'at, mening sarvi ravonim ham*" bayti bilan boshlangan g'azalga bog'langan muxammasdir.

Navoyining mazkur g'azali 20 jildlik Mukammal asarlari to'plami 6-jildidan o'rin olgan "Favoyid ul-kibar" devoniga kiritilgan 420-g'azal. U 7 baytdan iborat. Asar Navoyining musaja g'azallaridan biri. U yuksak mahorat bilan, betakror badiiyat namunasi sifatida yaratilgan. Mazkur asar Navoyining eng yetuk, go'zal g'azallaridan. U Navro'z bayrami munosabati bilan hayotsevarlik, yashillik, shodlik, quvnoqlik, go'zallik targ'ibiga bag'ishlab yozilgan. Taxmis olti banddan iborat. G'azalning maqtasiga bog'langan band Amiriy devonida negadir tushirib qoldirilgan.

Navoyi MAT dagi g'azal matni bilan taxmis matni qiyoslanganda, ancha farqli o'rinlar borligi kuzatildi. Bu turlilikni 3ga bo'lish mumkin:

1. Ayrim so'zlar noto'g'ri o'qilgan.
2. Ayrim o'rinlarda baytlar o'rni almashgan.
3. Ayrim so'zlar tushirib qoldirilgan.

Quyidagi jadvalda g'azal va taxmis matnidagi transformatsiya (turli shakliy o'zgarishlar) jarayonlarini ko'rsatishga urindik (ikkala matnda bir xil bo'lgan baytlar keltirilmadi):

### *G'azal va taxmis matnidagi transformatsiya*

<i>Hayt raqami</i>	<i>Navoyi g'azali</i>	<i>Amiriya taxmisi</i>	<i>So'zdagi farq</i>	<i>So'z tushib qolgan</i>	<i>Baytlar o'rni almashgan</i>
1 bayt.	<u>Muvofiq kiydilar</u> , bo 'lmish magar Navro 'z ila bayram, Chaman sarvi yoshil xil 'at, mening sarvi ravonim ham.	<u>kiydilar</u>	<u>keldilar</u>		
2 bayt.	Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo 'lub dilbar, Ani el aylabon muztar, bu eldek sekretib adham.	<u>el din</u>	<u>eldekk</u>	<u>Mazkur bayt Navoyida 3-bayt sifatida kelgan.</u>	
3 bayt.	Chaman sarvi qolib hayron, mening sarvim qilib javlon, Aning shaydosi bir dehqon, munga shaydo bari olam.				
4 bayt:	<u>Qilib ohim sari parvo</u> , bu yon mayl <u>etmodinggat'o</u> , Sabodin, ey qadi ra 'no, bo 'lur ham sarv gah-gah xam.	<u>etmading parvo</u>	<u>etmoding parvoy</u>	<u>"aat'o"</u> <u>so'zi</u> <u>Amiriyya</u> <u>tushib</u> <u>qolgan</u>	
5 bayt:	Navoyi, ko 'yin et manzil, yuzu qaddig'a bo 'l moyil Ki, bog' etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.				
<i>Mazkur bayt taxmisdan tushib qolgan.</i>					

G'azal 7 bayt, taxmis esa 6 banddan iborat. G'azalning birinchi baytidagi "muvofiq kiydilar" jumlesi taxmisdan "muvofiq keldilar" ko'rinishida qo'llangan. 20 jildlikdagi "Favoyid ul-kibar" devoni nashrida 2- va 3- baytlar o'rni almashtirib qo'llangan. Buzningcha, Amiriya taxmisidagi tartibda ham mantiq bor. Chunki "chaman sarving hayrat"ga tushishi uchun sarvqomatning bir qancha fuzilatlari ma'lum va ta'riflangan bo'lishi lozim edi. Xuddi bu sababli, 1-2-baytda ularning bir qancha xislatlari bir-biriga ziddantirilib tavsiflanadi. Jumladan, ikkalasining ham tashqi

ko‘rinishi bir xil – yashil xil’atda. Chaman sarvi samarsiz, sarv dilbar esa go‘zalligi bilan maftunkor. Chaman sarvi eldan ojiz, ikkinchi sarv esa otni eldek sakratuvchi. 2-baytda dilbarning otni eldek choptirishi haqida gapirilmoqda. 3-baytda esa go‘zalning javlon urayotgani, chaman sarvining harakatsizligi bilan zidlanitib tasvirlanadi. Fikrdagi mantiqiy izchillik, ya’ni dilbarning ot choptirayotgani, keyin esa bu holatdan hayratning paydo bo‘lishi tabiiyligi shunday xulosaga kelishimizga asos bo‘ladi. Shou dastlab dilbarning fazilatlarini tavsiflab, keyin unga olam shaydoligi haqida so‘zlaydi. 3-baytda Navoyi devonida “eldin” so‘zi taxmisda “eldek” tarzida uchraydi. 5-baytda 3 ta farq kuzatiladi. Birinchisi, Amiri taxmisida “qat’o” so‘zi tushib qolgan. U “aslo, qat’iyan” ma’nosida kelib, bandda mantiqan va vazn nuqtayi nazaridan ham bu so‘z taqozo etiladi.

*Qilib ohim sari parvo, bu yon mayl etmoding qat’o,  
Sabodin, ey qadi ra’no, bo‘lur ham sarv gah-gah xam*

Taxmisda negadir g‘azalning so‘nggi, maqta bayti keltirilmaydi. Mumtoz taxmisanvislikda manba sisfatida belgilangan g‘azal to‘liqligicha qamralishi, yoki shoirning maqsadidan kelib chiqib, ijodkor niyatiga mos tushmaydigan yoxud asar badiiyatida turli qaytariqlarga, saktaliklarga boi bo‘luvchi, ayrim baytlar tushirib qoldirilishi ham mumkin. Yoxud kotiblarning xatosi tufayli ham asarning ayrim qismlari taxmis tarkibiga kiritilmay qolish ehtimoli mavjud. Amiriyning mutasavvuf shoirligidan kelib chiqadigan bo‘lsak, g‘azaldagi mazkur, so‘nggi bayt uni taxmis bog‘lashga otlantirgan bosh ma’noni o‘zida mujassamlashtirgan, deyishimiz mumkin. Chunki shoir oltala baytda chaman sarvi va yashil kiyimdagи dilbarning jozibasi, go‘zalligini parallel ravishda tasvirlaydi. Undan hayratlanadi. Shodlanadi. Ko‘tarinki kayfiyatda bahoriy iforlarga oshuftaligini izhor etadi. Ammo ularning birortasi uni qanoatlantirmaydi. So‘nggi baytlarga borganda, lirik qahramon tabiatи sokinlashadi. U bari olamning o‘tkinchiligi haqida fikrlay

boshlaydi. Soqiyga murojaat etib, sarv ham, gul ham boqiy, ahdida mahkam emasligini eslatadi. So'nggi baytda u xushnudlik ko'zhidan turib teran fikrlaydi. Maqsadni yuksak tarzda belgilaydi. Shoir tabiat fasli, go'zal dilbar tasviridan asl mohiyatga yo'l topadi. Tabiatni kuzatib, fikran, hodisadan asl mohiyatga yo'naladi. Olam, odam va ilohiylik robitasini topadi. Tabiatdan saboq oladi. Insonni to'g'ri yo'lga boshlovchi ulug' falsafani kashf etadi. Foniylilik bag'rida birgina abadiy Haqiqat – yor ko'yiligi angaydi va insoniyatni bundan ogohlantiradi. Shoir jomiz narsalarda, tabiat hayotida inson hayotining ramzini ko'radi. Tabiat ashyolarini tushunish insonni o'zini anglashga yo'naltiruvchi vositadir. U o'z mohiyatiga tabiat va moddiylikni anglash yo'li orqali boradi. Shu sababli, Navoyi ham, Amiriy ham o'z fikr, g'oyalarini tabiat hodisalari bilan izchil uyg'unlikda bayon etadilar. Davron tuni – furqat tuni, xazon fasli – ruxsori zard paralleliliklari – ruhiy holat manzaralarini tasvirlash va tasavvur etishni osonlashtiradi. Navoyi so'nggi misrada "Jamiyat, ya'ni umumlikka erishish uchun fardlik, yolg'izlik, yagonalik maqomiga ko'tarilish"ni shart qilib ko'rsatadi. Buni qanday tushunmoq lozim? Haqiqiy oshiqning niyati umumiylar ruhga quyilishdir. Buning uchun ya'ni butun moddiyat, ya'ni – ko'plikdan uzoqlasha olishi va yagonalik maqomiga ko'tarila olishi lozim. Amiriy maqtadan oldingi 6-baytdayoq, bu haqda o'ylanib, boqiylik va foniylilik borasidagi ayrim fikrlarini bayon etadi. Navoyi so'nggi ettinchi baytda esa muhim va teran, butun hayot va yashashning mohiyatini oydinlashtiruvchi, uning mazmunini o'zida mujassam etuvchi falsafiy xulosasini ifodalaydi. Ya'ni shoir majoziylik va haqiqiylikni bir-biriga zidlantiradi. Bahor tarovatidan olgan shukuhini fano va foniylilik maqomi bilan qiyoslab ko'radi. Va qat'iy xulosasini bayon etadi. Bog', gul, sarv – bularning barchasi o'tkinchi, baqosizdir. Shunday ekan, insonni, komillik va ruhoniy parvozlar sari yuksaltiruvchi, Haqiqiy yor ko'yini tanlashga yo'naltiradi.

*Navoyi, ko'yin et manzil, yuzu qaddig'a bo'l moyil  
Ki, bog' etmas seni xushdil, gulu sarv aylamas xurram.*

Mazkur bayt asar g'oyasining eng avj nuqtasini ifodalaydi. Shunday ekan, Amiri taxmisiga asos bo'lgan g'azalning shunday yetuk baytini e'tibordan soqit qilishi mumkin emas edi. Yuqoridagi turlichaliklar Amiriylar va "Favoyid ul-kibar" devoni noshirlari turli qo'lyozma manbalardan foydalangan bo'lishlari mumkin, degan taxminni ham yuzaga keltiradi. Uni, qo'lyozmalar asosida o'rganib, qiyoslab, g'azal va taxmisning sahih va to'liq variantini tiklashga harakat qilish lozim, deb hisoblaymiz. Ko'rinaradiki, ikkala asarni qiyoslash matndagi saktaliklarning bartaraf etilishida va sahih matn yaratilishida ham muhimdir.

Taxmisiga olingan g'azal musajja usulida yaratilgan Amiriyning mahorati shundaki, u taxmisda ham ana shu murakkab mahorattalab badiiy san'atni qayta yarata oladi. Har bir band misralari ikkiga bo'linib, qo'sh qofiya bilan ziynatlanadi. Bu esa o'z navbatida, fikrning sayqaldorligini oshiradi. Asosiy g'oyaga e'tiborni qat'iylashtiradi. Diqqatni jalg etib, ma'noni ta'kidlaydi.

*Iki ko'zi erur kofar, chekib mijgonidin xanjar,  
Xati la'ling erur axzar, dahoning chashmayi Kavsar,  
Xiromi o'lди jonparvar, qadi sarfitnai Mahshar,  
Chaman sarvi qolib bebar, mening sarvim bo'lub dilbar.  
Ani el aylabon muztar, bu eldek sekretib adham.*

Taxmis avvalidanoq, ko'tarinki, rubobiy kayfiyat bilan boshlangan. Bunga sabab, bahor kelib, olamning beg'uborlik iforiga chulg'anishida. Ko'ngillar shodligu xursandchilikka limmolim to'lishida. Amiriylar asarida lirik qahramonning xushnudlik kayfiyatini shunday ta'sirli tasvirlaydiki, u beixtiyor o'quvchi ko'nglini ham baxtiyorlikka, zavqu shavqqa oshno etadi. Shoir hayrat va hayajonga to'lib, tabiatning har bir ashyosida hayot nashidasini his etadi. Ular bilan birga yashaydi va yashnaydi. Toshqin hislari to'lqinlarida jo'shib suzadi. O'z tuyg'ulari bilan

muhbat quradi. Ularni chorlaydi, tashrifini olqishlaydi. Qayg'ularini quvlaydi. Ulardan uzoqlashib, ruhini yuksaklarga parvozga shaylaydi. Bunday ruhiy holat manzaralarini chizishda shoir tarhi toza so'zlar jilosidan, tovushlar qatidagi turli ritmik ohanglar imfoniyasidan unumli foydalanadi. Xususan, birinchi bandda takrorlangan "m" tovushining zamirida jaranglayotgan miriqmoq, mazza qilmoq kabi ritmik ohang jilolari (tavze san'ati vositasida) shoir nazarda tutgan xushnudlik ma'nolarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi:

*Bahor ayyomi keldi, o'lди olam tozavu xurram,  
Binoyi xonai ayshu nishotim ayladi mahkam,  
Beri kel, zavqilta ey shodmonliq, nari bor, ey g'am,  
Muvofig keldilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram,  
Chaman sarvi yoshil xil'at, mening sarvi ravonim ham (390).*

Ko'r nadiki, Amiriy rahnamolik qilgan adabiy jarayon bekorga "adabiyotning ikkinchi oltin davri" deb baholanmagan. Har bir ijodkor mahoratining oltin qirralarini namoyon etish mazkur adabiy muhitda asosiy talablardan biri hisoblangan. Xususan, Amiriyning o'zi ham mazkur shartni bekamu ko'st bajarishga harakat qilgan. Bugungi adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifa esa ana shu olmos, yombilarni izlab topish, kashf etishdan iboratdir.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Oltin davr, tarixnavislik, matbaachilik, muxammas, zohid, oshiq.*

### *Savol va topshiriqlar:*

1. *Qo'qon xonligi davridagi ijtimoiy-siyosiy hayotni sharhlang.*
2. *Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi va ravnaqi haqida so'zlang.*
3. *Amiriy hayoti va ijodi manbalarining bibliogarfiyasini tuzung.*
4. *Shoirning ijodiy faoliyati va adabiy merosi.*

5. She'riyatining mavzu va g'oyaviy qamrovi haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
6. Shoir mahoratining o'ziga xos qirralarini aniqlang.
7. Adib asarlarining janr tarkibi haqida so'zlang.
8. Muxammas janrining shoir ijodidagi o'rnnini belgilashiga harakat qiling.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. A.Qayumov. Qo'qon adabiy muhiti. T.: 1961.
- 2.P.Qayumov. Qo'qon tarixi va adabiyoti. T.: 1998
3. Amiriyy. Tanlangan asarlar. T.: 1972.
4. Amiriyy. Tanlangan asarlar. T.: 2017.
5. N.Norqulov, U. Jo'raev. O'zbekiston tarixi. T.: 2004.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: 2000.
7. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: 2004.
8. Rumiyy J. Ichingdagi ichingdadir. T.: 1997.
9. Qobilova Z. Amiriyning adabiy merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2010.

## GULXANIYNING HAYOTI VA IJODI (XVIII asrning 70-yillarida tug‘ilgan – vafot yili noma’lum)

### *Reja:*

1. Gulxaniy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.
2. Shoirning adabiy merosi.
3. Adib she‘riyati ko‘lami, mavzu qamrovi va mahorati.
4. “Zarbulmasal” asarining yaratilish tarixi. Asarning g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari.

**Gulxaniy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.** XVIII-XIX asr o‘zbek mumtoz adabiyotida Gulxaniyning o‘ziga xos o‘rnii bor. Bu davrlar nasri taraqqiyotini uning ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham shoir asarlari har doim adabiyot muxlislari va tadqiqotchilari diqqat markazida turgan.

Uning ijodi haqida ma’lumotlar, mulohazalar o‘z zamonasida yaratilgan tazkiralar, tarixiy asarlar, badiiy anarlardayoq bayon etila boshlangan. Jumladan, birlamchi, muhim manbalar sifatida Fazliy Namangoniyning "Majmuayi shoiron", Vozehnning "Tuhfat ul-ahbob..." tazkiralarini, Avazmuhammad Attorning "Tarixi jahonnamo" asarini, Dilshod Barnoning "Tarixi muhojiron" risolalarini ko‘rsatishimiz mumkin. P. Qayumovning keyinroq tasnif etilgan "Qo‘qon tarixi va adabiyoti" asaridan ham Gulxaniy haqida ma’lumot olish mumkin. Shoirning eng mashhur asari "Zarbulmasal". Uning 6 qo‘lyozma va 10dan ortiq bosma nusxalari mavjud. U bilan XIX asr oxirlarida rus sharqshunoslari ham qiziqa boshlagan. 1895-yilda rus tiliga tarjima etilgan.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Gulxaniy asarlari kirill alifbosida nashr etila boshlagan. Jumladan, "Namunayi adabiyoti tojik"(1926y.), "O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi " (1945y.), "O‘zbek poeziyasi antologiyasi"ni aytish mumkin. 1951-yilda "Zarbulmasal" alohida nashr etiladi. 1958,1960-yillarda ham qayta chop qilingan.

Gulxaniy ijodini o'rganish borasida bir qancha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilgan. Dastlabki ish Fitratning 1938-yil "Mash'ala" jurnalida chop etilgan "Zarbulmasal" nomli maqolasidir. 1948-yilda R. Muqimov yirik tadqiqot, ya'ni maxsus dissertatsiya yozdi. Taniqli adabiyotshunos olimlarimizdan H. Yoqubov, V. Zohidov, V. Abdullayev, M. Qo'shjonovlarning bu boradagi xizmatlari ham e'tiborga molik. A. Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti"(1961y.) nomli kitobidan ham Gulxaniy hayoti, ijodi, o'zbek mumtoz adabiyotidagi mavqeい bobida muhim ma'lumotlar olish mumkin. Shoир ijodi tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganila boshlangan. X. Nazarovaning bir qancha ilmiy tadqiqotlari ma'lum.

Gulxaniy ijodi hozirgacha ham olimlarimiz e'tiborini jalb etib kelmoqda. Maktab dasturlarida ham o'rganilmoqda. Ammo, shoир ijodini tadqiq etishimiz, kashf etib anglashimiz lozim bo'lgan jihatlari hali juda ko'p. Asarlarining til xususiyatlari, so'zlar xazinasi, badiiy mahorat qirralari, lirik merosining teran mohiyatini yoritish kabi masalalar adabiyotshunosligimiz oldidagi dolzarb muammolardir.

Gulxaniyning hayoti haqida mukammal ma'lumot etib kelmagan. Ma'lum dalillar ham manbalarda turlicha bayon etilgan. Bu xolis, yagona xulosa chiqarishimizni murakkablashtiradi. Shunday bo'lsada, biz mavjud fikrlarni umumlashtirishga harakat qilamiz.

Shoir XVIII asrning 70-yillarida Qo'qonda tavallud topgan Uning ajdodlari, turmush tarzi haqida "Qo'qon tarixi va adabiyoti" asarida shunday ma'lumot beriladi: "Shoir Gulxaniy. Bu kishining nomi Muhammad Sharif bo'lib, Qo'qonda tug'ilgan. Onasi o'zbek bo'lib, otasi tojik edi. Shohi Qushbegining yuzboshilaridan bo'lgan. Qorategindan kelgan, Xo'qandda uylangan. Onasi xon saroyida oddiy qora xizmatda kun kechirgan. Gulxaniy madrasani tamom eta olmagan. Keyinchalik askariy sipohlikda pastroq darajada turib, saroy doirasida kun kechirgan. Qora ko'z, qora

*girdob soqolli, bug'doy rangli ko'rinishda xushchehra bir kishi bo'lgan, jun chakmon kiyib yurar ekan*"<sup>253</sup>.

Vozehning ma'lumotiga qaraganda, Gulxaniy Namanganda hammomdorlik qilgan. Shunga tayanib, shoir hayotining ma'lum bir davri Namanganda ham yashagan, degan xulosaga kelamiz. Naimangan o'sha davrlarda Mulla Bozor Oxund kabi ulug' shayxlar, uning muridlari, din va tasavvuf ulamolari, Mashrab kabi ma'ruf shoirlar yashagan zamin edi. Gulxaniyning lirik she'riyatidagi mazmun, g'oya, falsafa va dunyoqarash talqinidan kelib chiqib, u ham shunday ulug'lar izidan borgan orif shoir bo'lganini anglash mumkin. Shunday ekan, Gulxaniy Namanganga tasavvuf, tariqat bobidagi bilimini chuqurlashtirish maqsadida borgan bo'lishi harfi mumkin, deymiz. Bu fikrimizni Fazliyning shoir tabiatiga "*devonafe'l*", "*otashtabiat*" deya bergen baholari ham tasdiqlashi mumkin. Biz ushbu fikrimizning tasdig'ini Dilshod Barnoning "Tarixi muhoxiron"<sup>254</sup> risolasida keltirilgan, Gulxaniy o'z umrining keyingi yillarida ham qalandarlarcha hayot kechirgan, shoirlar bilan hammom go'laxida kun o'tkazgan, degan ma'lumotlarda ham ko'ramiz. Uning so'fileri kiyimi bo'lgan jun chakmon kiyib yurishi haqidagi ma'lumot ham, hayot tarzi, ijodi mohiyatini bir oz oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. U umrining ma'lum qismini sipohiy sifatida, ma'lum davrini saroy shoirlari davrasida, so'nggi davrlarini esa darvesh, qalandar sifatida o'tkazgan. Hayotining poyonida dunyo mohiyatini teran anglagan shoir qolgan umrini Olloh yo'lida, qalandarlarcha yashagan, degan xulosaga kelish mumkin. Zamondoshlari Fazliy, Vozeh va Dilshod Barnolarning uning ijodiga katta hurmat va havas bilan baho berishlari ham bunga asos beradi.

Gulxaniyning vafoti, qabri haqida ham turli ma'lumotlar, rivoyatlar bor. Ayrimlarida shoir Muhammadalixonning odamlari tomonidan Sirdaryoga cho'ktirib yuborilgan deyiladi. Ayrimlarida shoirning qabri Qo'qon yaqnidagi Eshonqishloqda ekanligi ma'lum qilinadi.

<sup>253</sup> П. Қаюмов. Қўқон тарихи ва адабиёти. 45-бет.

<sup>254</sup> Дилшод Барно. Тарихи мухожирон, инв. №12076, 30-33- бетлар.

**Gulxaniyning she'riy merosi.** Gulxaniyning bizga ma'lum merosi hajm jihatidan uncha katta emas. "Tuhfat ul-ahbob"da shoirning devoni borligi haqida ma'lumot bor. Ammo, devon haligacha topilmagan. Shoirning bizgacha 12 g'azal , 1 qasidasi va "Zarbulmasal" asari etib kelgan.

Gulxaniyning qasidasi Amir Umarxonga bag'ishlangan. Shoir Umarxonga podshoh sifatida yurt ravnaqi, xalq kamoli yo'lida katta ishonch va umidlar bilan qaraydi. Haqiqatan ham, u ma'rifatli, shoir, ijodkor ahliga rahnamo kishi bo'lgan. Uning davrida, himmati bilan Qo'qon adabiy muhiti shakllandi. Shohning bu fazilatlari haqida ko'plab manbalarda, xususan, Nodira debochalarida, she'rlarida ham yozib qoldirilgan. Unga bag'ishlangan Gulxaniy qasidasi 52 misradan iborat. U quyidagi yuksak mahorat bilan yozilgan matla bilan boshlanadi:

*Sahargoh bulbuli sho'rida nolae sar kard,  
Zi xuni dida guli so'rx domane tar kard.*

(Mazmuni:

*Saharda bechora bulbul nola boshladi,  
Qon yoshidan qizil gul etagi nam bo'ldi.)*

Gulxaniy she'rlarini ikki – fors-tojik va o'zbek tilida yaratgan. U g'azallarini Gulxaniy va Jur'at taxalluslari bilan bitgan. Shoirning taxallusini zamondoshlari ikki xil izohlashgan.

Fazliy tazkirasida bu borada quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Gulxaniy bilimdon shoirdir. "Gulxan" emas "gulshan" dan ham chiroyliroqdir. Devonafe'lligi, otashintabiatligi tufayli u o'ziga "Gulxaniy" taxallusini olgan".

Rahmatulloh Vozeh esa: "Shoir hammomdorlik bilan shug'ullangani uchun "Gulxaniy" deb taxallus tanlagan", deydi.

Gulxaniy she'rlarida ham o'ziga xos ifoda uslubiga ega, chuqur mushohadali shoir sifatida namoyon bo'ladi. Shoir lirikasida asosiy mavzu – ishq. Lirik qahramon – oshiq. Uning barcha o'y-fikrlari, falsafiy dunyoqarashi ana shu an'anaviy mavzu talqinida yuzaga chiqadi. Undagi ishq keng ma'noda. Shoir borliq,

olamni u orqali anglaydi. Hayot, inson mohiyatini ishq vositasi-la o'rganadi. O'zini, ko'nglini uning sarhadsiz kengliklaridan izlaydi. Bu yo'lda mumtoz adabiyotdagi barhayot oshiqlar timsoli Farhod va Majnunlar ishqini tahlil etadi. Ularning nuqsonlarini fosh qilib, yutuqlariga havas bilan boqadi. Farhod – oshiqlikning eng yuqori murtabasiga ko'tarilgan obrazlardan. Ishq darajasini, otashini o'lchovchi me'yoriy bir timsol. Gulxaniy shu obrazga murojaat etganiida ham, o'ziga xosligi ko'rinadi. Ishqni hammaga oshkor etgani uchun uni behayoga chiqaradi:

*Dosha izhor ayladi Farhod Shirin dardini,  
Ishq oyinida uldur behayolardin biri.*

Majnun haqida esa, aksincha mushohada etadi. U junun ilmining cho'qqisida. Unga intilish, shu darajaga ko'tarilish shoirning orzusi:

*Senga, ey Majnun, junun ilmida taslim aylaram,  
Sen rasolardin biri, men norasolardin biri.*

"Etmaz" radifli g'azali shoir she'riyatining g'oyaviy ko'lami va badiiy mahorati borasida mukammal tasavvur hosil qiladi. Unda shoirning dunyo va inson mohiyati haqidagi anglamlari, yashashdan maqsadi, hayotda tutgan yo'li o'z ifodasini topadi.

*Ko'ngul ozodadur, dunyog'a arzi ehtiyoj etmaz,  
Tariqat soliki bu yo'lda mayli izdivoj etmaz.*

Ushbu baytdan biz shoir lirik qahramoni tabiatи haqida xulosa chiqara olamiz. Uning ko'ngli ozod, hur. U har qanday ma'naviy qafaslarni sindirgan, cheksiz ruhiy kenglikka musharraf. Bunga erishishning boisi bitta – dunyoga haris bo'lmaslik. Moddiyilikka chtiyojsizlik. Bular tariqat yo'liga kirgan solikning, komillikka intilayotgan, kamolot hosil qilgan kishining fazilatlaridan. Uning asl muddaosi – Olloh visoli. Bunga otashin ishq bilangina erishish

mumkin. Bu yo'lda lirik qahramonning eng katta boyligi – hijron U shundan ham mammun. Chunki, bu matoh faqat uniki. Uninggina ko'ngil mulki. Uni hech kim talon-taroj etolmaydi. Ushbu fikrlarni ifodalar ekan, shoir mahorati yana bir bor namoyon bo'ladi. Ishqu hijronning yoqimli va azobli dard ekanligini, uni hech kim o'g'irlay olmasligini, lirik qahramonning boru yo'g'i shular bilanligi o'ziga xos so'zlar, obrazlar va ifodalar tizimi orqali tasvirlab berilgan:

*Rahi ishqining dardu dog'i hijroning matoimdur,  
Qaroqchi aylamas toroq oni, kimsa boj etmaz.*

Lirik qahramon Ollohg'a yetish faqat ishq yo'li orqali amalga oshadi, degan fikrda. Shuning uchun ham u boshqa har qanday yo'lni rad etadi. Jumladan, unga zohid yondirgan ko'ngil shamchirog'i nuri xira tuyuladi. Undan qoniqmaydi va inkor etadi:

*Sen o'z diningni tuz, zohid, meni ko'p yo'ldin ozg'urma,  
Bu surat sha'm yondurdung ziyosi nur rivoj etmaz.*

Gulxaniyning bizga ma'lum kam hajmli lirik merosidan ham uning teran mushohadali, donishmand shoir ekanligini anglaymiz. O'ziga xos badiiy tasvir tizimlari, badiiy kuzatuvlari borligining guvohi bo'lamiz. She'riyati kamolida, ayniqsa, Navoyi va Fuzuliy maktabidan bahramandlik samarasi seziladi. Fuzuliyona so'z va iboralar qo'llanganini ko'ramiz. Quyidagi kabi Navoyivor misralari, timsollar, so'zlar talqiniga duch kelamiz:

*Bir dam ayla mardumlig' diydam ichra manzil qil,  
Durru la'l sochsunlar maqdamingga mijgonlar.*

Shoirning ko'p ilmiy adabiyotlarda tahlil etilgan "Ber" radifi g'azali bor. Uni biz uzoq yillar Gulxaniy she'riyatining yetuk namunasi sifatida talqin etib keldik. Ammo, uning ijodiga katta hurmat bilan qaragan, asarlariga yuqori baho bergan, havaslangan zamondoshlari bu kabi she'rlariga shoir ijodining sustroq mahsuli

isfatida qarashgan. Jumladan, Fazliyning "Majmuayi shoiron" tuzkirasida bir forsiy she'r keltiriladi. Uning mazmuni quyidagicha: "Jannatmakon amir davrida Gulxaniy benavolik asiri bo'ldi. Umrida durustroq non ushatmadi, yaxshi dasturxon atrofida o'tirmadi. Sipohigarchilik qildi-yu, rohat ko'rmadi. Mehnat va mashaqqat ilkidan osoyishtalik topmadı. Amir uning holiga muruvvat bilan boqmadi. Amiring iltifotsizligi tufayli faqir bir parcha nonga muhtoj bo'ldi. Qo'li qisqalik oxiri uning joniga tegdi. Kambag'allik fig'onini oshirdi. Yo'qchilik tufayli u xijolatchiliklar chekdi, tama yo'lini tutib, xo'rliklar ko'rdi". Ushbu fikrlar Gulxaniy hayot tarzi, hayot yo'lini ko'rsatadi. Uning iqtisodiy qiyinchiliklar iskanjasida yashaganligini anglaymiz. "Ber" g'azali mazmuni ham buni tasdiqlaydi. Ammo, tama ma'nosidagi g'azal shoir shaxsini xo'rlaydi. Yuksak intilishlar, ulug' maqsadlar haqida kuylagan ijodkor mavqeiga putur etkazadi. Balki, buni anglagan, shoirning o'zi ham, sipohigarlikni tark etib, qalandarona hayot tarzini ma'qul ko'rgan bo'lsa, ajab emas.

**"Zarbulmasal" asarining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari.** Gulxaniyning bizga etib kelgan yirik asari "Zarbulmasal"dir. Unda o'zbek xalqining, ijodkorning naqadar donishmandligi va zukkoligi namoyon bo'ladi. Bu asar Amir Umarxonning taklifi bilan yaratilgan. U bunday mas'uliyatlari, teran tafakkur va xalqona uslubni taqozo etuvchi yumushni Gulxaniyga ishonib topshiradi. Bu Gulxaniyning iqtidori va salohiyatiga zamondoshlari va Amir tomonidan berilgan yuqori baho edi. "Zarbulmasal"ning 6 qo'lyozma, 10 dan ortiq bosma nusxasi bor. Hozirgacha ma'lum eng qadimiy qo'lyozma 1855-yilda ko'chirilgan. "Zarbulmasal" arabcha "zarb" va "masal" so'zlarining qo'shiluvidan hosil bo'lgan bo'lib, "masal urmoq", "masal orttirmoq", "masallarning zarbi" ma'nolarini anglatadi. "Masal keltirib so'zlashmoq" mazmunida ishlataladi.

Fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida "Zarbulmasal" nomli ilmiy-badiiy asarlar ko'p bo'lgan. Ularning ayrimlari masal,

maqollar yig'indisi, ayrimlari bir tildan boshqa tilga tarjima lug'atlardan iborat<sup>255</sup>.

Gulxaniy "Zarbulmasal"i esa o'ziga xos uslub va mazmun, syujet va kompozitsiyaga ega. Uning g'oyalari va timsollar tizimi talqini o'ziga xos. Ammo, shoirning o'zi ta'kidlaganidek, unda Jomiyning "Silsilat uz-zahab", Sharq hikoyachiligining noyob namunasi "Kalila va Dimna"ning ta'sirini sezish mumkin. Undan tashqari, "Zarbulmasal"da Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Navoyi, So'fi Olloyor, Mashrab kabi ulug' ustozlar asarlaridan parchalar keltiriladi. Shoir o'z fikrlariga ulardan quvvat oladi.

"Zarbulmasal"ning voqealari juda puxta – xalq latifalaridek sodda, muxtasar o'yangan. U "Kalila va Dimna", "Ming bir kecha" kabi asar ichida asar tarzida yozilgan. Lekin ular bir-biri bilan uzviy bog'lanib yagona asarni tashkil etgan.

Gulxaniy mahoratini namoyish qiluvchi yana bir xususiyat, qahramonlar xarakterini tavsifiy tarzda emas, suhbatlar vositasida badiiy fosh qiladi.

Gulxaniy "Zarbulmasal"da 400ta xalq maqoli va hikmatli so'zlarini badiiy vosita sifatida qo'llaydi.

"Zarbulmasal" – murakkab asar. Uni anglash uchun Ko'rqush so'zi bilan aytsak, "botin ko'z" kerak.

"Zarbulmasal" – majoziy asar. Undagi shoirning g'oyalari, maqsaditurli obrazlar, maqol, matal, hikoyat va rivoyatlar vositasida pardali tarzda ifodalanadi. "Kordon Boyo'g'lig'a boqib aydi: Siz bila bir parda ichinda navo qilali va bepara so'zlashmayluk".

Asarda shoirning vatan, xalq qismati, insонning ma'naviy dunyosi borasidagi o'y-fikrlari, dardu armonlari, nola-fig'onlari o'z ifodasini topgan. Bu asarda ham e'tirof etilgan:

*Navo parda ichra navosoz bo'lur  
Ki, bepara ohang afg'on bo'lur.*

<sup>255</sup> а) Зоконий. Зарбулмасал; б) Заруби амсоли Туркия, Истанбул, 1893й.; в) Зуруби амсоли усмония. Истанбул, 1870й.; г) Рожий. Зарбулмасал.; д) Нозил Хужандий. Ҳажвиёт. ЎзФАНН. инв №12080.).

Gulxaniy "Zarbulmasal"da turlicha timsollar tizimi vositasida butun jamiyatning tirik, harakatdagi manzarasini yaratib bera oladi. Bizga zamonning ham moddiy, ham ma'naviy, ham siyosiy hayot tarzi haqida xulosalar chiqarishimizga imkon beradi. Shoira Dilshod Barno: "*Gulxaniyning "Zarbulmasal"larini o'qub, o'z diyorum qishloqlari borasida ajoyib oyinanamo masallar yozganlari ko'p ta'sir qildi*", -deydi.

Asarda turli timsollar tizimi mavjud. Bular:

- a) Boyo'g'li, Yapaloqqush, Ko'rquush, Gunashbonu, Kulonkir sulton, Hudhud, Sho'ranul, Kuykunak, Malik Shohin, Kordon, Turumtoy, Navozanda, Bozanda kabi qushlar;
- b) Tuya, bo'taloq, toshbaqa, chayon kabi hayvonlar;
- v) Xolboqi misgar, Yodgor po'stindo'z, Otaboy Amin, Safarboy bog'bon kabi kishilar obrazlaridir.

Ularning tabiatи orqali shoir turli toifa insonlarning ma'naviy qiyofasini fosh etib beradi. Ularning orasida amaldorlar, hunarmandlar, dehqonlar va boshqa kasb egalari ham bor. Shoirning asosiy maqsadi-kishilarni o'ziga tanitish, nuqsonlaridan ogoh etish. Chunki, o'zini anglash Ollohnini tanishga olib boruvchi vositadir. O'zini anglashgina olamni fojialardan asraydi. Shoir Kordon tilidan Boyo'g'liga bu borada shunday nasihat qiladi: "*Agar sening xirading diydasи xira va zamiring oynasi tiyra bo'lmasa edi, avval o'z aybingga boqib, o'zgalar aybini yashursang xo'b erdi*".

O'z nafsiга mag'lub Xolboqi misgar hikoyatidan so'ng quyidagi xalq maqollari xulosa o'mida keltiriladi: "*Sazovori nafsingizni bitkazing, yo sulton amrini*"; "*Ikki suyuklik bir ko'ngilga sig'mas*"; "*Ikki kema tutgan qoldi g'arqob ichinda, chiqmas ul dengizdin bir kema tutmaguncha*". Ushbu xulosalar zamirida shoir aytmoqchi bo'lgan ulug' niyatni anglash qiyin emas. Bu hikoyatda ham namoz o'qib, ham nafs kemasini mahkam tutgan Xolboqi misgar fosh etiladi. Shoir ushbu hikoyat orqali zamondoshlarini islom va tasavvuf ta'limotining "Olloh bitta. Faqat unga e'tiqod qo'yish lozim"ligi haqidagi falsafasi bilan oshno etadi.

Ko'rganimizdek, "Zarbulmasal"ning bosh g'oyasi – xalq maqollari, hikmatlari, matal va hikoyatlari orqali insoniyatni ma'naviy g'aflatdan ogoh etish. Uning nuqsonlarini fosh etib, kamolot yo'lini ko'rsatish. Komil insonni tarbiyalash. Asardan bu fikrimizni tasdiqlovchi dalillarni istagancha topish mumkin.

"Zarbulmasal"ning g'oyaviy ko'lami qanchalik teran va cheksiz bo'lsa, badiiyati ham shunchalik barkamol. Unda, nasriy asar bo'lsada, saj, irsolı masal, kitobat, husni ta'lil, o'xshatish kabi o'nlab badiiy san'atlarning yangi, o'ziga xos namunalari yaratilgan. Asar badiiyatini haqiqiy baholash uchun chuqur va maxsus tadqiqotlarni amalga oshirish taqozo etiladi. Ishlatilgan har bir so'zning zohiriya va botiniy yukini belgilash, ularning ma'noviy jilolarini anglash, so'zlar zamiriga safar talab etiladi. Undagi so'zlar xazinasi, timsollar tizimi mohiyatini o'rganish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardandir.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Zarbulmasal, Gulxaniy, ishq, majoz, irsolı masal, tamsil, kitobat, tazod.*

### *Savol va topshiriqlar:*

1. *Gulxaniy "Zarbulmasal" asarini to'liq o'qib chiqing.*
2. *Gulxaniy adabiy merosi haqida so'zlang.*
3. *Shoir she'riyatidagi lirik qahramon tabiatini haqida qanday fikr dasiz?*
4. *Shoirning she'riy mahorati nimalarda ko'rindi?*
5. *"Zarbulmasal"ning genezisi va yaratilish tarixi haqida so'zlang.*
6. *"Zarbulmasal"ning g'oyaviy ko'lami haqida qanday fikr dasiz?*
7. *"Zarbulmasal"ning timsollar tizimi va badiiy xususiyatlari haqida so'zlang.*

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. *Gulxaniy. Zarbulmasal. T.: 1958.*
2. *O'zbek adabiyoti. 4 jiddlik. 3-jild. T.: 1959.*

3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.
  4. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. T.: 1961.
  5. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhit. T.: 1961.
  6. Qayumov P. Qo'qon tarixi va adabiyoti. T.: 1998.
  7. Qo'shmoqov M. Mullo Gulxaniy. "Sharq yulduzi" jurn., 1991, 1-son.

## NODIRANING HAYOTI VA IJODI (1792 - 1842)

### *Reja:*

- 1. Nodira hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.*
- 2. Tarjimayi holi.*
- 3. Shoira she'riyatining mavzu va g'oyaviy xususiyatlari.*
- 4. Badiiy mahorati.*
- 5. Nodira nazmida ishqqa falsafiy munosabat va muhabbat tasviri.*

*Nodira hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.* Mohlaroyim Nodira yuksak badiiy iste'dod sohibasi, dilkash, samimiyl, ma'rifatparvar o'zbek ayolidir. Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod, Anbar otin kabi o'zbek mumtoz shoiralari safining sardori bo'lgan. Katta iqtidor sohibi bo'lmish o'zbek shoirasi Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodini o'rganish o'z davridanoq boshlangan. Xakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Avazmuhammad Attorning "Tuhfat ut-tavorix", Is'hoqxon to'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorixi Xavoqin", Mutribning "Shohnomayi devona Mutrib", Andalibning "Shohnomayi devona Andalib" kabi tarixiy asarlarida, Uvaysiyning "Voqeoti Muhammadalixon", Nodirning "Haft gulshan" nomli dostonlarida Nodiraning iqtidori, faoliyati borasida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Jumladan, "Haft gulshan"da uning ijodkor, davlat arbobi va oddiy o'zbek ayoli sifatidagi qiyofasi qisqagina parchadayoq mufassal yoritib berilgan:

*Hama boshdin ayog'i erdi idrok,  
Jahon ichra aningdek kelmagay pok.  
Agar har ishni ul etsa iroda,  
Karam bobida yuz erdin ziyoda.  
Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,  
Aning ko'ngli saxovat ichra doim,*

*Jahon gulzorida andog' sifatlik.*

*Topilmas xotun ichra oqibatlik.*

O'zbekistonda shoira haqidagi dastlabki maqolani Lutfullo Olim 1923-yil "Bilim o'chog'i" jurnalida e'lon etgan. T. Julolovning "O'zbek shoiralari", O'tkir Rashidning "Uch shoira", A. Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti", M. Qodirovaning "Nodira" kabi asarlarida ham Mohlaroyimning nodir shoirona alohiyati, davlat arbobi sifatidagi faoliyati yoritib berilgan.

**Tarjimayi holi.** Nodira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. Asl ismi Mohlaroyim. O'tkir zehnli qiz zamonasidagi tartibga binoan otinoyi qo'lida tahsil oldi, xususiy mutolaa bilan shug'ullandi. Sharq mumtoz adabiyotini jiddiy o'rgandi, she'rlar mashq qilib, yoshligidanoq shoira sifatida tanildi. Uning ulg'ayish yillari adabiyot ahli davrasida kechdi. 1808-yili Qo'qon xoni Norbo'tabiyning o'g'li, Marg'ilon hokimi Amir Umarxonga turmushga chiqdi.

1810-yildan Norbo'tabiyxondan keyin hukmronlik qilgan akasi Olimxon o'miga taxtga chiqqan Umarxon bilan Qo'qonga keldi. Umrining oxirigacha shu erda yashadi. Mohlaroyim Muhammadalixon (qisqartma shakli Ma'dalixon) va Sultonmahmudxon ismli o'g'lliar tarbiyaladi. Amiriyl taxallusi bilan ajoyib she'rlar yaratgan Amir Umarxon 1822-yilda vafot etib, umri yo'ldoshi Nodirani yolg'izlatib ketdi.

Umarxonning fojiali vafotidan so'ng Nodiraning 14 yashar o'g'li Ma'dalixon Qo'qon xonligini boshqara boshladи. Nodira oqila, dono va tadbirkor ayol edi. Yirik shoir Amiriyl bilan birga o'tkazgan hayot davri Nodira qismatining baxtli onlarini tashkil qildi. Bu davrda u turmush lazzatlaridan bahramand bo'ldi. Farzand tarbiyaladi, tabiat va hayot go'zalliklarini tarannum etuvchi ajoyib she'rlar yozdi. Biroq Amir Umarxonning nogahoniy o'rnini alam va ayriliq iztiroblari tasviri egalladi. Haqiqiy ishq tasviri kuchaydi, tasavvufiy ramzu timsollar chuqr ishlandi, sog'inch va armon nolalari rivoj topdi. Mohlaroyim badiiy ijod bilan astoydil shug'ullandi. Nodira,

Komila, Maknuna taxalluslari bilan she'rlar yozib, mukammal devon yaratishga tuyassar bo'ldi.

Mohlaroyim Umarxon saltanatidagi mavqeい bilan Bibixonimni eslatadi. Amir Umarxon vafotidan keyin Nodira davlat ishlarida ham bosh-qosh bo'ldi, bu borada o'g'li Muhammadalixonga homiylik qildi. O'g'li davrida mamlakatni baravar boshqardi. Ijtimoiy umrini ezgu ishlarga safarbar etdi. Shoiraning mana bu dono so'zлari uning ijtimoiy faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topdi:

*Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,  
O tar bu dayri fonyidin o 'zini neknom aylab.*

Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o'tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi. Ammo nosoz ijtimoiy muhit Nodiraga vafo qilmadi. Feodal jamiyatidagi ayovsiz kurash Mohlaroyim singari nodir san'atkorlarni o'z manfaati yo'lida qurbon qildi. Aqlu donish va ezgu fazilatlar sohibi Nodirayi davron nomi bilan shuhrat qozongan shoira 1842-yili Qo'qon bosib olingan paytda Amir Nasrullo tomonidan qatl etildi.

*Shoira she'riyatining mavzu va g'oyaviy xususiyatlari.* Sharq she'rshunosligida ijodkorlarning iste'dodi, kamolot darajasi va mahorat miqyoslariga baho berilganda, odatda, uning devon yaratgan-yaratmaganligiga asoslanishgan. Chunki so'z san'atkorlari yaratgan asarlari miqdori devon tartib etishga yetib borgan bo'lsa-da, she'r yozish mahoratlari, malakalari yetilgan, badiiy uslublari sayqal topgan davrlardagina devon yaratishga jur'at etganlar. Bunday yetuk shoirlarni "sohibi devon" iborasi bilan ardoqlashgan. Mohlaroyim Nodira ham sohibi devon shoira edi. Nodiraning she'riy merosi bir nechta devonlarining qo'lyozmalari orqali bizgacha etib kelgan. 1960-yilga qadar "dol" harfigacha bo'lgan 109 g'azalni o'z ichiga olgan bitta notugal devoni ma'lum edi. Uning debochasida Komila taxallusi bilan ham asarlar yozgani haqida ma'lumot bor. 1962-yilda Namanganda Nodiraning yangi devoni topildi. Unga 180 ta asari kiritilgan edi.

Hamkor va hamfikr ustozi Uvaysiy Nodiraning Maknuna taxallusi bilan ham ijod qilgani haqida xabar beradi. Sharqshunoslik institutida 333 g'azaldan iborat Maknuna taxallusi bilan yozilgan devoni ham bor.

Nodira – zullisonayn shoira. U o‘z asarlarini ikki tilde, forstojik va o‘zbek tillarida yaratgan. Nodiraning zullisonaynlik fazilati ham uning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Ikki til egasi bo‘lish til bilishnigina emas, balki ikki xalq madaniyatini o‘zlashtirganlikni ham anglatadi. O‘z tuyg‘u-kechinmalari, o‘yfikrlarini ikki tilda barobar badiiy tasvirlash zullisonaynlik mahoratini taqozo etadi. Nodira shunday mahoratli shoira edi va buni uning o‘z faxriyasi ham tasdiqlaydi:

*Bo‘lubdur Nodira mumtozi ma’ni,  
Kalomi ravshanu ash’ori farrux.*

Chindan ham, Nodira ma’ni mumtozi, so‘zi ravshan, she’ri murafshon so‘z san’atkori edi.

Nodiraning bizgacha 10 000 misraga yaqin merosi etib kelgan. U mumtoz adabiyotimizdagi g‘azal, muxammas, ruboiy, fard kabi ko‘plab janrlarda asarlar yaratgan. U Navoyi, Fuzuliy, Bedilni o‘ziga ustozi deb bilgan. Ularning asarlaridan ta’sirlangan, ijod sirlarini o‘rgangan. Asarlariga ko‘plab muxammaslar bog‘lab, ustozlari fikru g‘oyalarini rivojlantirgan.

Nodira Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan Umarxonni ham o‘ziga ustozi deb bilgan. Kamtarinlik bilan she’r yozish siru uslubini undan o‘rganib, nazm saltanatiga qadam qo‘yanligini e’tirof etadi: “Men ham alar mutobaatida nazm uslubidin bahra topib “As-suhbatu muassiratun” natijasi birla kam-kam she’r qonunidin xahardor bo‘lur, goho biror misra va goho biror bayt taqlid birla aytur erdim”.

Nodira – muhabbat, sadoqat va vafo kuychisi. Hamfikr ustozi Umarxonning fojiali vafoti Nodira ko‘ngliga, hayotiga katta zarba bo‘ldi. Uning she’riyatida mahzunlik kuchaydi. Darddoshi, hamxonasidan ayrilgan shoira she’rlari g‘amgin iztiroblar, mungli

navolar bo'lib ko'nglimizni dardnok etadi. Sharq ayollariga xos fidoyi vafodorlik, sadoqat, izzat-ikrom namunasi bo'lib tasavvurimizni, tafakkurimizni abadiy boyitadi.

Ammo, Nodira she'riyatini faqat Sayyid Umarxonidan ayriliq izhorlari deb baholasak, bироqlama tushungan bo'lamiz. Chunki shoira she'riyatining ildizi chuqr. Ma'no-mohiyati juda teran.

Furqat g'amida yolg'izlangan ko'ngil bir g'amgusorga ehtiyoj sezadi. Ana shu ehtiyoj shoira she'riyatini tafakkurning yuqori bosqichiga ko'taradi. Ya'ni hayotiy zamindagi oshiqlik ilohiy ishq sari yuksalib boradi.

Nodira zamonasida majoziy (ya'ni, dunyoviy) ishqni kuylash ham, haqiqiy (ya'ni, ilohiy) muhabbatni wasf etish ham ayol kishi uchun oson bo'limgan. Mana bu otashin bayt shundan nishona:

*Man'i muhabbat na qilursan menga,  
Ramzi haqiqat erur ishqni majoz.*

Shoiramiz yuragi turli malomatlardan kuyinib, "ey zamondosh, menga muhabbat" navosini man etma. Axir, Haq ishqini kuylashim uchun bu dunyo ishqni faqat ramzu timsoldir, xolos", deya nadomat chekadilar.

Shoira nazdida ilohiy ishq insonni kamolotga etaklaydi. Undan bexabarlik esa tubanlikka yuz tuttiradi.

Ezgu fazilatlardan mahrum etadi:

*Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et.....*

Oshiqlik – ko'ngil ishi. Bu yo'lda zohidlikni – dunyo ne'matlaridan butunlay voz kechib faqat taqvo bilan shug'ullanishni Nodira rad etadi:

*Ishq maqomida qabul istasang,  
Komila, qil zuhd elidin ihtiroz.*

Inson hayoti hamisha qarama-qarshiliklar iskanjasida kechadi. Ko'ngil xohishlari, maqsadlari turlicha el dunyoqarashlari ilo to'qnashadi. Yaxshiliklar tilagan yurakka ko'proq ozor etadi. Nodira she'riyatida ham beparvo, takabbur zamondoshlari zarbalaridan zaxmdor dil nolalari eshitiladi. Shoira loqayd, oshiqlikning fayzosor mujdalaridan bebahra kimsalar mavjudligidan taassuflar chekadi. Bundaylar bilan hamqadam bo'lish tuyg'ularingni o'ldirishi, ruhingni qashshoqlashtirishidan kuyinadi:

*Bevafolar mehrini tark ayla, ey shaydo ko'ngul,  
Yo 'qsa, bu yo 'lda alingda har na vor, aldin ketar.*

Nodira ana shunday zamondoshlari ko'ngliga dunyo, hayotning mohiyati borasidagi o'zi anglab etgan haqiqatlarni singdirishga ehtiyoj sezadi. Olam va odamning mazmuni, bir-biriga munosabati xususidagi falsafiy xulosalarni oshkor etadi. Natijada, asarlari teran mazmunli irfoniy maktab darajasiga ko'tariladi. Zamondoshlari hayot ne'matlarini g'animat bilishga, undan bahramand bo'lishga da'vat etiladi.

**Badiiy mahorati.** Shoira she'riyati mazmun jihatidan ham, badiiylik jihatidan ham barkamol asarlardir. U fikrlarini o'ziga xos, yangi topilmalar, qiyoslar bilan ifodalashga intilgan. Kuzatishlariga ayollarga xos noziklik va sinchkovlik bilan muqoyasalar topa olgan. Nodira badiiyat ilmidagi san'atlarni mukammal o'rgangan va she'riyatiga tabiiy tatbiq eta olgan shoiradir. U badiiy usul imkoniyatlaridan foydalaniib, aqlni hayratga soluvchi manzaralar ijod qilgan. Natijada, tazod, tajohul ul-orif, talmeh, husni ta'lil, tashbeh kabi badiiy san'atlar bilan muzayyan yangicha talqinlar, yangicha obrazlar, yangicha ifodalar yaratishga erishgan. Ayniqsa, mubolag'a san'atini go'zal ma'nolarni suvratlantirishga mohirona safarbar etgan.

*G'amimni sharhini yuz mingdan birini dedim,  
Falak ani ko'tarurda xam ayladi qomat.*

Shoira qismatiga tushgan g‘am yuki shu qadar og‘irki, uning yuz mingdan bir ulushi izhor etilganida, falak ko‘tarolmay, qaddi bukilib qolgan ekan. Bunday mubolag‘a vujudga kelishiga osmonning egilgan holatdagi ko‘rinishi asos bo‘lgan. Yerdagi ohning ko‘kkacha etib borishi-chi ? Bu ham mubolag‘a mo‘jizasi, albatta.

*Ohim o‘tig‘a qadim kamondur,  
Bu o‘qni nishonidur Surayyo.*

Ushbu bayt zamiridagi tashbeh – naqadar xayoliy qudrat mahsuli! Shoiraning ohlari koinotni o‘rtaydigan ohlar bo‘lganini bir tasavvur qilaylik ! Bu ohlar g‘am-alam epkinidan tarkib topgan shoira qaddi kamonidan falakka otilgan otashin o‘qlardir. Bu o‘qlar Surayyo sayyorasini mo‘ljalga oladi va bexato uradi. G‘am yuklaridan egilgan qomatni va iztiroblarga to‘lgan qalbni bundanda tiniq, aniq, go‘zal tasvirlash mumkinmi? G‘am yuki og‘irligidan alifdek qomat yoysimon shaklga kiradi, yoydek egilgan qad kamonidan falakka g‘am o‘qlari otiladi, olamdan oshgan ohlarning mingdan bir ulushini ko‘tarolmay, falakning qaddi kamondek egiladi!

Nodiraning mazkur baytlari Lutfiy hamda Mashrabning quyidagi baytlari bilan hamohanglik va hamdardlikda bahslasha oladi. Lutfiy yozadi:

*Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.*

Lutfiy g‘azaliga tazmin bog‘lagan Mashrab so‘zini ustozdan-da o‘zdiradi:

*G‘am shomi firoqingda kabob etti falakni  
Ohi saharim, xohi inon, xohi inonma.*

Nodira ijodida Turdidek isyonkor shoirlar bilan ham hamovozlik yaqqol yangraydi. Turdi “Joyi osoyish emas hech kima bu ko‘hna ravoq” deya dunyo va dunyoparastlikni rad etsa, Nodira:

*Jahon, ey Nodira, el maqtalidur,  
Emastur joyi osoyish bu maslax,  
deya hasrat chekadi.*

Mubolag‘aga muqobil san’atlardan biri kichraytirish bo‘lib, uning Nodira devonida qo‘llanish mahorati ham she’rxon idrokini schrlaydi:

*Belining borlig ‘in qildi kamarbandi ayon,  
Og‘zi yo‘q erdi, ani qildi padidor hadis.*

Sharqda belning ingichkaligi, og‘izning torligi tashqi go‘zallik belgilaridandir. Maqsad insondagi mana shu nazokatni insvirlash. Nodira g‘azalidagi manzurning beli ko‘z ilg‘amas darajada nozik ekanki, uni kamarbandi, ya’ni turkona aytganda, belbog‘i sezdirib qo‘yibdi. Og‘iz yo‘q darajada pinhon emishkim, borligini so‘zlagan so‘zlar oshkor etibdi.

Nodira o‘z she’rlarini quyuq falsafiy fikrlar bilan yo‘g‘irishga harakat qilarkan, badiiyatdagi nazmiy ko‘pma’nolikni yuzaga chiqaruvchi san’atlarni ishga soladi. Jumladan, shoira tajnis, ya’ni bir jins yo shakldagi so‘zlarni bir necha ma’noni ifodalashga bo‘ysundirish usulini erkin qo‘llaydi:

*Yor uldurkim – senga g‘am kunlarida bo‘lsa yor,  
Ulki mehnat kunlarida yor emasdur, yor emas.*

Ikkinchisi misrada takrorlanib kelgan “*yor emas*” larning biri zamirida “*yaramas*” – hamdard, hamnafas emas ma’nosini yashiringanini anglish qiyin emas.

*Bu ko‘zdin, Komila, ko‘p yosh to‘karsen  
Ki, bergay Tangri bir yoshingga yuz yosh.*

Ushbu baytdagi “*Komila*” va “*yosh*” so‘zlarida shoira tajnis qo‘llay olgan. “*Komila*” so‘zi birinchi navbatda taxallus ma’nosini, “*yosh*” esa ko‘z yoshini anglatadi. Ikkinchidan, “*Komila*”

asliyatda aynan, joriy yozuvda kichik harf bilan ajratib yozilsa “*kom ila*” – “*umid bilan*”, “*maqsad bilan*” ma’nolarini ham ifodalaydi. “*Yosh*” esa umrning yillik bosqichlarini ham bildiradi. Demak, baytdan “*Ey Komila, Haqning diydori orzusi bilan ko’p ko’z yoshi to’kasani, ilohi niyattingga etgin, Tangri bir tomchi ko’z yoshing evaziga yuz yil umr qo’shib bersin*”, degan mazmun anglashiladi. Nodira ilohiy husn tasvirida qo’llagan tasviriy vositalar, badiiy dalil va ashyolar hayotiy, tabiiy asosga ega:

*Yuzing oyini hayratdin erur badri tobon qaro dog‘liq,  
Qoshing “nun” idin voqif erdiki, ojizliq o’ldi hilola paydo.*

Manzur yuzining musaffoligidan hasadda osmondag'i oyning bag‘ri dog‘li. Boshqacha aytganda, ma’shuqa husni osmondag'i oyni-da dog‘da qoldirgan. Manzurning qoshi arab imlosidagi “*nun*” harfidek nozik va jozib. Bunchalar nazokatdan xabar topgan hilol – yangi oy go‘zallik da’vosiga ojiz qoladi. Bunday muqoyasa juda shartli, albatta. Maqsad chindan-da, badri toboning ko‘rkamligini, hilolning nozikligini kamsitish yoxud ularning yuksakligini rad etish emas. Aksincha, adabiy muddao mahbubani shu sifatlar sohibi yanglig‘ vasf etishdir.

Yuqoridagi baytda qoshning mubolag‘ali tasviri mujassam bo‘lsa, endigi baytlarda qoshning chehradagi joylashish o‘rniga ishora qilib pandomuz fikr ifodalash, qoshlarning o‘zaro payvasta harakatini dalil keltirib lirik qahramon qismatini asoslash juda maroqli:

*Adab elni balandiqbol aylar,  
Tavozudin erur ko’z ustida qosh...  
Bo ‘lub xam ikki qoshing bir-biriga  
Qilurlar qatlima payvasta kengosh...*

Egik holatdagi qoshning ko‘z ustida turishi insoniy odob, ta’zim-tavoze madaniyati xosiyatini ko‘rsatishga, ushbu fazilat odamning mavqe-martabasi iqbolini yuqori ko‘tarishi haqidagi fiki

ifodasiga asos qilib keltirilgan. Bu mumtoz badiiyat ilmidagi chiroyli asoslash – husni ta'lil san'atining yorqin namunasidir. Shuningdek, ikki qoshning bir-biriga bosh qo'shib, lirik qahramon qatlari to'g'risida maslahatlashishi, hukm chiqarishgandek jlonlantirilgan manzara ham badiiy tasvirdagi san'atpardonlik samarasidir.

Nodira she'riyatida o'zbek ayolining ichki tuyg'ulari, hayotiy qarashlari, milliy madaniyati va axloq-odobi, dardu hasratlari umumlashma ifodasini topgan. Unda faqat ayolgagina xos tasvir uslubi hamda vositalarini kuzatish mumkin:

*Besutun tog 'ida ko 'p jon chekmag 'il, ey Ko 'hkan,  
Ko 'kragimdin jo 'yi shir o 'rniga o 'tlug ' yora och.*

Lirik qahramon Ko'hkan, ya'ni afsonaviy Farhodga nido etmoqdaki: "Sut arig'i ochaman deb Besutun tog 'ida ko 'p jon chekavermagin, yaxshisi sut arig'i chiqarish uchun mening sitamdiyda ko 'ksimni chok etaqol. Shunda qalb o 'rtanishlarimdan sut arig'i emas, o 'tli jarohat paydo bo 'lganini ko 'rasan!" Bu, aslida, mazmun zalvori bilan ojiza, zaifu notavon ayolning emas, balki devonavor, zabardast bir pahlavonning olamni o'rtovchi va larzaga soluvchi na'rasidir. Lekin "**ko 'krakdan sut arig'i ochish**" iborasini faqat mehr suti bilan farzand o'stirgan ayolgina badiiy ifoda o'mida qo'llashi mumkin.

Shoiralar she'riyatida nafaqat tuyg'u-kechinmalar ifodasini, balki badiiy ramzu timsollar tizimida ham ayollargagina xoslikni ko 'rish mumkin. Masalan, Nodira g'azallarida "**mashshota**" va "**shona**" timsollari ko 'p uchraydi. Ular ayol turmush madaniyatiga xos bo'lib, "**mashshota**" – malika, qiz va kelinlarning sochlarni tarab, oro beruvchi, bezantiruvchi, pardozchi; "**shona**" – taroq demakdir.

*Ul zulfi dilovezini ishkolini ochmay,  
Behuda nadin til uzatib **shona** qilur bahs.*

*"Ilohiy mahbub sochining har bir jingalak halqalariga mahkam o'rnashgan (osilgan, o'lja tushgan, asir bo'lgan) oshiq ko'ngillar ishkalini (chigal qismatini yechmay, ozod etmay) bartaraf etolmay turib, taroq nima uchun "til uzatib", "bahs etib" yuribdi ?"* Mana, taroq timsoli qanday fikr ifodasiga imkon bergan. Boshqa bir g'azalda taroqning mushkulkusholik xususiyati e'tirof etilib, mashshotaga "dashnom" beriladi:

*Sirri zulfi girihi ochmoq emasdur oson,  
Besabab aylama, mashshota, bugun shonaga bahs.*

Shoiraning ramziy talqinicha, manzur sochi tugunlarini ochmoq mushkul, uning kushoyishkori faqat **taroq**, **mashshota** pardoza har qancha usta bo'lmasin, bu borada taroq bilan bahslari behuda. Soch tugunlarini taroq tarqatishi Nodira nazmiylashtirgan hayotiy ashyyodir.

*Ul zulfi tob dor havosida dam-badam  
Mashshota ishtiyogi bila shona qilur raqs.*

Nodira nigohicha, mahoratda **mashshota** qo'lidagi **taroq** raqsga tushadi. Manzara jonli va hayotiy: *mahbubaning burama sochlari pardozchining ishtiyoqli harakatlaridan havolanih, silkinadi. Silkinishlar sur'atida harakatlanib, taroq ham raqsga tushadi.*

Mumtoz nazm badiiyatida **sarv** va **shamshod** daraxtlari go'zal qaddu qomat timsoliga aylanib ketgan. Ammo Nodira nazmida ular raqobatga kirishadi:

*Ul sarvki, bordur ani mavzun qadi ozod,  
Mashshota uchun shona chekar zulfiga shamshod.*

*Sarvning ozod, tik, to'g'ri qaddiga asir bo'lgan **shamshod** mashshota o'mida uning sochlariiga taroq uradi. Sarv go'zal inson*

timслиеканлигидан келиб чиқыла, Нодира *taroqshamshod* даратидан ясалышини ham назарда тутганини тушуниш мүмкін.

*Yuz chok soching hasratidin shona yurogi,  
Mashshota erur turrai tarringa mushtoq.*

Mazkur baytdа tasvirlanishicha, taroqning bag'ri-yuragi ma'shuq сочи hasratida yuz chok, ya'ni yuz joyidan darz ketgan. Bu bilan shoira taroq ma'shuq сочига intiqligini ifodalashdan tashqari, taroq uchun tanlangan yog'och yuzlab joyidan tilinganligiga ham ishora qilgan. Ikkinci misrada esa mashshota ham ma'shuqning "tarrow", ya'ni ko'ngilni o'g'irlovchi сочига маhtal еканлиги tasvirlangan.

Shoiralar she'riyatining shoirlar nazmidan farqi, o'zgacha xosiyati ixlosmandlarni juda qiziqtiradigan muammo. Ushbu muammo kaliti badiiy mahoratni tadqiq etish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Izchil tahlillardan ma'lum bo'layotirki, Nodira yetuk mahorat sohibasi va uning nazmida ayollarga xos fikr-mushohada uslubi, ramziy timsollar tizimi mujassam.

*Nodira nazmida ishqqa falsafiy munosabat va muhabbat tasviri.* Mohlaroyim Nodira islom diniga samimiy e'tiqod qo'ygan, tasavvuf maslagiga mehr bog'lagan komila musulmon shoira edi. Nodira islom va tasavvuf yo'nalishida katta kitoblar yaratmagan, tafsakkur tarixida iz qoldirgulik kashfu karomatlar ko'rsatmagan bo'lsa-da, davlat arbobi sifatidagi faoliyatini bu ezgu yo'lda shu qadar fidoyilik bilan safarbar etdiki, uning sa'y-harakati natijasida din hamda millat takomili uchun tabiiy sharoit vujudga keldi. Shoiraning amaliy faoliyati nazariy va ma'rifiy yutuqlar omili bo'ldi. Nodira ushbu tarixiy xizmatlarini o'z debochasida iftixor va qoniqish hislari bilan yozadi: "*Ulamoyi din rivojlarig'a imod etkurdim, to shar'i sharif rivoj topti, zuhd ahlig'a ixlos va aqidatan zohir qildim, to din va millat kamol topti. Fazlu donish qabilasig'a shafqat va marhamatdin oncha inoyatlar ko'rguzdumkim, e'tibor darajasig'a taraqqiy qildilar. Soyil va gadolarni talablarig'a etkurub, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mus'hafi*

*sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko'p yozdurdum.  
Barchasin xolisanliloh vaqf qildim*". Bunday iftixor izhori Nodira  
g'azallaridan ham sado beradi:

*Din Nodiradin kamol topdi,  
Iqbol rafiqu mulki obod.*

Yuqoridagi singari savob ishlarni amalga oshirish Nodira  
faoliyatining qat'iy shioriga aylangan edi. Uning :

*Aylag'il obod tavfiq adolat mulkini,*

*Komila, Mavlo yo'lida himmati mardona tut*

bayti mazkur shiorning badiiy ifodasidir.

Darvoqe, bir mushtipar ayol shunchalar mardonavor  
himmatga qodir ekan, u har qancha iftixorga sazovordir. Biz  
Nodiradek qadriyatlarimizni ko'kka ko'tarishimiz, so'nggi asrda  
toptalgan va barham topgan milliy iftixorimizni avlodlar  
ma'naviyatida qayta tiklamog'imiz zarur.

Nodira devonida islom dini arkonlari, payg'ambaru sahabalar,  
shariat va hadisi sharif to'g'risida talay she'ru timsollar mavjudki,  
ularni o'rni bilan, imkon doirasida tadqiq etmoq zarur.

Nodira muhabbat tasvirining fidokor ustasidir. Uningcha,  
odam muhabbat ixtiyor etganidagina chinakam komil inson  
qiyoferini kasb etishi mumkin. Shoiraning ixlos-e'tiqodicha, "**gul  
sayri**" ham, "**fikri bahor**" ham, jahonning jami huzur-halovatlari  
ham "**vasli yor**" vositasida tuyassar bo'ladi.

*Na gul sayr ayla, na fikri bahor et,*

*Jahondin kech, xayoli vasli yor et.*

*Muhabbatsiz kishi odam emasdur,*

*Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et.*

*Kuyib, ey Nodira, olam eliga*

*Muhabbat shevasini oshkor et.*

Xo'sh, Nodira yona-yona ta'rifu tavsif etgani qanday muhabbat o'zi? Shoiraning bir toifa zamondoshlari bu ishqni majoziy, ya'ni dunyoviy muhabbat o'rnida tushunganlar va muallifni musulmon axloqiyu mafkurasiga itoatsizlikda ayblaganlar. Muhabbat madhini man etganlar. XX asrdagi vorislari esa shoira muhabbatnomasini zamonaviy darajada dunyoviylikka yo'yib ulug'ladilar. Aslida esa bu shoira ishqining biryoqlama talqini edi. Shoira mana bu baytda o'zi mansub ishqqa qisqa, ammo aniq, teran izoh va ta'rif bergan:

*Man'i muhabbat na qilursan manga,  
Ramzi haqiqat erur ishq'i majoz.*

Nodiraning ushbu sharhi ko'pgina ulug' mutasavvuf shoirlarimizning mumtoz adabiyotdagi ishqqa bergan izoh va ta'riflariga muvofiq keladi. Darhaqiqat, barcha mutasavvuf shoirlarimizdagi singari, Nodira ijodida ham ishq'i majoz, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbati ramziy ma'noga ega. Uning she'rlarida ishq'i majoz haqiqiy, ya'ni ilohiy ishqning ramzidir.

Nodiraning ishqqa falsafiy munosabati, qat'iy va barqaror nuqtayi nazari Alisher Navoyi dunyoqarashiga mos keladi. Navoyi o'zining ishqqa munosabatini shunday izohlagan edi:

*Gar Navoyi yig'lasa, ishqning majoziydur dema  
Kim, nazar pok aylagach, ayni haqiqatdurdur majoz.  
Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq,  
Nedinki, ahli haqiqatqa bu tariqat erur.  
Majozdin chu haqiqatqa yo'l topar oshiq,  
Qilur majozni naf' ulki behaqiqat erur.*

Navoyining ushbu izohlari butun o'zbek tasavvufiy adabiyotidagi ishq falsafasi nuqtayi nazari (konsepsiysi)ni sharhlay oladi. Mumtoz adabiyotimizda ikki xil ishq – majoziy ishq va haqiqiy ishq tushunchalari mavjud. Majoziy ishq – insonning insonga, tabiatga, borliqqa hayotiy, dunyoviy sevgisini anglatadi. Haqiqiy ishq esa insonning vujudi mutlaqqa, yaratganga, Ollohga

muhabbat tuyg‘ularini ifodalaydi. Bu ikkala ishq turini alohida ajratish yoxud bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish kabi yanglish nuqtayi nazar o‘tmishda ham bor edi, hozir ham mavjud. O‘tmishda ishqilohiy vasfini faqat majoziy ishq deya tushunib, shoirlarni dahriylikda ayblast tamoyili kuzatilsa, XX asrda, aksincha, ilohiy ishq kuychilarini o‘shanday bирyoqlama tushunib, dahriylikda ulug‘lash g‘oyasi etakchilik qildi. Soxta va sun’iy “*dunyoviy adabiyot*” tushunchasi hamda termini ana shunday g‘oya mahsuli sifatida maydonga keldi. Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Gadoyi kabi zabardast mutasavvuf allomalar faoliyat ko‘rsatgan butun boshli bir davr – XV asrning birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti (ilm-ma‘rifatda, maorifda) dunyoviy adabiyot deb yuritildi. Ushbu dunyoviylik tamoyili sun’iy ravishda tadrijiy takomil toptirilib, keyingi davr adabiyoti, Nodira ijodiyoti ham, dunyoviy lashtirildi. Aslida, dunyoga mehr bog‘lash, dunyodortlik, dunyoparastlik o‘zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari tab’iga tamoman teskari edi. XXI asrning dastlabki chorak qismida yana mumtoz adabiyotdagи ishqni faqat ishqilohiy haqiqatdan iborat deya talqin etilayotgan bирyoqlama yondashuvlar paydo bo‘ldi. Nazarimizda, bu vaqtinchalik jarayon bo‘ladi va adabiyotshunoslik o‘zining xolis tadqiq yo‘liga tushib oladi.

Mohiyatan, yaratilmishga ishq bog‘lash – yaratuvchiga muhabbatning ramzi edi. Negaki, zarrada quyosh aks etganidek, yaratilmishda yaratuvchi jamoli jilvagar va mujassam edi. Ya’ni, majoziy ishq haqiqiy ishqning ramziy bir ko‘rinishi, xolos. Navoyi aytmoqchi, nazari pok, ruhan va ma’nан barkamol insongina majoz ishqini ishqilohiy haqiqiy darajasida ulug‘ hamda mo‘tabar tuta oladi. Bunday kishi uchun majoz ishq Haq ishqining o‘zginasidir, chunki zarraga muhabbat uning asl manbai bo‘lmish Quyoshga muhabbatni ham aynan anglatadi. Insoniy ishqni kuylashdan maqsad ilohiy ishqni ulug‘lashdir. Tasavvuf ahli uchun bu – yo‘l, uslub edi. Majoziy ishq Haq muhabbatini qozonish yo‘lidagi bir bosqich bo‘lib, solik ishqilohiy haqiqiyga shu bosqich orqali yo‘l topgan. Savol tug‘iladiki, moddiy dunyoda yashagan, oila qurgan va farzandlariga mehr-muhabbat bilan yashagan ijodkorlar nahotki

faqat Haq yodi bilan ijod etgan yoxud tanho Tangri taolo vaslinigina kuylab o'tgan bo'lsalar ? Ayniqsa, Nodira singari oilaparvar siymolar ijodidagi ilohiy ishq talqini shunday qaltis savolga duchor kelishi mumkin. Bunga javoban, aytish mumkinki, Quyoshga muhabbat uning zarrasiga bo'lган ishqni inkor etmaydi, aksincha, Quyoshga muhabbat uning zarralariga muhabbatni ham qamrab oladi. Yaratuvchiga bo'lган muhabbat uning ijodiga, ya'ni yaratilmishga bog'langan muhabbatning takomillashgan, barkamol, oliy namunasidir. Navoyi ta'kidlashicha, oshiq majoz orqali haqiqiy ishqqa yo'l topadi. Haqiqiy ishq shaydolari bo'lмаган kishilargina majoziy ishqni ham inkor etadilar.

Nodira nazdida ishqsiz dinu mazhabga berilish komil musulmonlikka глиб bormaydi. Ishqu muhabbat oshiqning dinu mazhabiga aylansagina, u kamolot qozonadi:

*Qil, Nodira, tuyassar sho'ri junun jahonda,  
Ishqu muhabbat o'ldi oshiqqa dinu mazhab.*

Shoiraning lirik qahramoni parvonavor oshiqlik talabgori. Uningcha, chinakam oshiq quruq da'vo bilan cheklanmasdan, shamdek kuymoq, parvonadek olovda o'rstanmoq xislatiga, qudratiga ega bo'lishi kerak. Shunda uning muhabbati husni ishq darajasiga ko'tariladi, kuli ko'zlarga to'tiyo bo'ladi.

*Husni ishq aylar sening xokistaringni to'tiyo,  
Sham'din kuymakni kasb et, mazhabi parvona tut.*

Xo'sh, "**mazhabi parvona**" – ishq o'tida parvonavor o'rstanmoq ilmi nimadan iborat ? Bu sof tasavvufiy tushuncha bo'lib, uning tavsifini Alisher Navoyining ishqqi haqiqiy nizomnomasi yanglig' bitilgan falsafiy-badiiy dostoni "Lison uttayr" dan topish mumkin. Asarda "Parvonalar majmu'i sham'i haqiqiy sharhida" sarlavhali qism bor. Unda tasvirlanishicha, parvonalar to'dasi bir kecha haqiqiy sham (ya'ni, Haq taolo) vasliga erishmoqchi, uning nuridan nishon izlamoqchi, asl zotini

aniqlamoqchi bo'ladilar. Ulardan bir nechalari birin-ketin sham huzuriga parvoz etadilar, uning nuridan ko'zlarini munavvar qiladilar. Sham xosiyatini olamga yoyish uchun o'rtanib so'zlaydilar. Ammo, ular qanchalik ravshan yonib so'zlamasınlar, shamning mohiyatini boshqa parvonalariga etkaza olmaydilar. Shu ko'yи boshqa parvonalar ham o'zlarini shamga uradilar, qanot-quyuqlarini kuydiradilar, ammo shamshu'lasini sharhlay olmaydilar. Zotan, shu'lani til sharhlayolmas, kuymasdan turib, uning mohiyati anglanmas, shu'la nuriga yo'g'irilmasdan oshiқ poklanmas, vujudi yona-yona kulga aylanmay turib, haqiqiy sham vasli mohiyatiga yetolmas, u bilan birlik hosil etolmas ekan. Demak, mazhabi parvona – butkul fidoyi oshiқ bo'la olish san'atidir.

Tasavvufda parvonadek kuymak olam eliga muhabbat shevasini oshkor etmak demakdir. Nodira lirk qahramoni ruhiyatida bu omonat, o'tkinchi, foni dunyoga qattiq mehr bog'lamaslik, uning huzur-halovatlaridan voz kechish, asl moyaga intilish, Tangri diydoriga talpinish tamoyili kuchli. Bunday qarashning nozik badiiy ifodasini quyidagi satrlarda ko'rishimiz mumkin:

*Ey ko'ngul, fig'oniningdi tiyradur falak qasri,  
Bu binoni vayron qil, ishq uyini obod et.  
Dahr keshtzorida bir sharoru yuz xirman,  
Kuydururg'a olamni barqi ishq bunyod et.*

Nodiraning mutasavvuf siyratida haqni taniy borib, tavhid tamannosiga ruju qilish, vahdati vujud ishtiyoqida yonish, Mansuri Hallojona maqomga intilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning:

*"Analhaq" mojarosin aylading fosh,  
Kel, ey Mansur, istiqboli dor et  
satrlari mansurona jo'mardlik va jasorat belgisidir. Ushbu bayt boshqa bir mutasavvuf shoira Zebunnisoning "Bigzaraad az tan sare, k-oroyishi dore nashud", ya'ni "dorgaki zebu oroyish bo'lolmas ekan, bir dorni bezayolmas ekan, unday bosh tanani*

*tark etmog'i ma'qul*" mazmunidagi satriga qanchalar hamohang jaranglaydi.

Nodira she'riyatidagi ma'shuqa tasvirida tasavvuf dunyoqarashidagi tajalli falsafasining go'zal badiiy ifodalarini kuzatish mumkin:

*Ey, mehri jamoling olamoro,  
Zarrot yuzingga mastu shaydo.*

Ushbu bayt so'fiyona g'azalning matlasi. Unda tasavvuf ta'limotidagi tajalli falsafasi yaqqol aks etgan. Tajalli e'tiqodicha, oshiq shoir bevosita ma'shuq, ya'ni Tangri taologa murojaat etib, uning olamtob oftobdek jamoli jilvalanishidan olam oroyish topgani, koinotdagi jamiki zarralar uning yuziga mastu shaydo ekanligini izhor etayotir.

Tabiat manzarasi yor tasviriga badiiy zamin, vosita bo'lib xizmat qiladi.

*Yor la 'lin yod etarmen g'unchayi xandon ko 'rib,  
Sabzayi xat sog 'inurmen bog ' aro rayhon ko 'rib.*

Bu ham tajalli falsafasining o'ziga xos badiiy aksi. Tabiat qo'ynidagi har bir go'zallik ilohiy ma'shuq jamolining aksi – tajallisi sifatida talqin etiladi. Go'yoki, bog' – manzurning mazhari.

*Ko 'zlarim aylar yuzingni orzu  
Kim, erur ko 'zguya diydor ehtiyoj.*

Nodira nazmida ko'zning Olloh jamoli, nuri jilvalanuvchi mazhargoh ko'zgu yanglig' timsollashtirilgan bunday talqini ham ko'p uchraydi.

Nodira she'riyatida tasavvufning Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Mashrab yo'naliishlari uyg'un va mujassam tarzda aks etgan. Unda dunyo muhabbat, dunyoparastlik raddiyasining,

dunyoni yassaviyona idrok etishning badiiy namunalarini uchratish mumkin:

*Kel, dahrni imtihon etib ket,  
Sayri chamani jahon etib ket...  
Ey ashk, ko 'zimni maktabidin  
Hayrat sabaqin ravon etib ket...  
Maqsad na edi, jahona kelding,  
Kayfiyatini bayon etib ket.  
Fosh etma ulusqa ishq sirrin,  
Ko 'ngulda ani nihon etib ket.*

Yassaviyona teran falsafa bilan yo‘g‘irilgan xuddi shu parchaning oxirgi baytida naqshbandiylikdagi haqiqiy muhabbat ko‘ngilda pinhon tutilmog‘i, Navoyi ta‘biri bilan aytganda, “*Botinda haq birla bo‘lmoq*” g‘oyasi ajoyib aks etgan. Mana bu baytda esa mehr, avvalo, ko‘ngilda bo‘lishi lozimligi g‘oyasining boshqacha badiiy aksini ko‘ramiz:

*Bo‘lmasa mehr ko‘ngilda ne osig‘  
Manziling Yasrib o‘la yo Batho.*

Naqshbandiylikda Olloh nuri muhabbatini ko‘z va ko‘ngilda naqshlamoq falsafasi ham borki, bu quyidagi baytda yaqqol ifodasini topgan.

*To‘tiyodur manga naqshi qadaming  
Ki, ko‘zim oyinasi topti jilo.*

Umuman, Nodiraning naqshbandiylikka ixlos va muhabbatini uning butun hayoti, faoliyati, ijodiyoti “*Dil ba yoru dast ba kor*” (“*Ko‘ngil yorda, qo‘l mehnatda*”) falsafasiga asoslangani ham tasdiqlashi mumkin.

Nodira nazmidagi mashrabona ruh, ayniqsa, uning qalandar vasfida bitilgan g‘azallarida ayon ko‘rinadi:

*Harifi sog'aru sahbo qalandar,  
Muhabbat ko'yida shaydo qalandar.  
Xudodin o'zga yo'qtur takyagohi,  
Junun iqlimida yakto qalandar...*

G'azalning dastlabki ikki bayti qalandar siyratiga ta'rifdan iborat. Unda shoira qalandarning kimligi, uning dunyoqarashi, muhabbatga munosabati qandayligini vasf etadi. Undan qalandar muhabbat iqlimining peshvosi, yolg'iz Olloh panohi va diydoriga umidvor siymo ekanligi anglashiladi. Nodiraning bunday g'azallarida qalandarning dunyoga so'fiyona nuqtayi nazari yaqqol ifodalangan.

*Iki dunyo matoyi bo'lsa qo'lida,  
Qilur bir "hu" ila savdo qalandar...*

Qalandar shu qadar Xudoga berilgan, Xudo yo'lida tavakkalchi zot bo'larkanki, Tangrini bir marta yod etishni ikki dunyo davlatiga alishmas ekan. Yana bir g'azalda qalandar maqomi ajoyib madh etilgan:

*Mehri Xudo rafiqi, haq yodi oshinosi,  
Dunyo muhabbatidin begonadur qalandar.*

Dunyoparastlikdan, mol-dunyoga hirs qo'yish tuyg'ularidan butkul begona bir siymo tasvirlanayotirki, u Mashrab g'azallarida "Men" qiyofasida ko'rinvchi lirik qahramonga juda-juda monand. Ehtimol, u qalandarlarning umumlashma timsoli darajasida tugal tasvirlangani uchun ham Mashrab qiyofasidek jonli gavdalangandir.

Mana bu bayt Nodirabegim sultanati qalandarlar qadamjosi ham bo'lganligiga bir dalildir:

*Ey Komila, eshitsa nogoh bu so'zumni,  
Yuz charx urub junundin aylonadur qalandar.*

Ushbu baytdan Nodira saroyida charx urib zikri samo qilayotgan qalandarning jonli suvrati ko'z oldimizga keladi. Bunday satrlar Nodira hayotda qalandarlar sulukiga qanchalar yaqin bo'lganidan dalolatdir. Biz qalandar deganda, faqat erkak kishinigina tushunib o'rganganmiz. Ayol kishini qalandar qiyofasida tasavvur etolmaymiz. Ammo, shunday dalillar ham borki, ular qalandarlik sulukiga moyil, qalandarni muhabbat bilan kuylagan shoira o'zini ma'nан shu sulukka mansub deb hisoblamaganmikin, degan fikr uyg'otadi:

*Tilarmen, Komila, Tangri rizosin  
Ki, ermas tolibi dunyo qalandar.*

Harqalay, Nodira qalandarlikni ham o'z ichiga olgan tasavvuf ta'lomitiga tegishli mutasavvuf solik'siymo edi.

Xullas, Nodira she'riyatidan islom va tasavvuf dunyoqarashining hayotbaxsh, donishmand zakovati ufurib turadi. Kelajakda Nodira nazmi badiiyatini islomiy madaniyat asoslari, tasavvufiy timsollar tizimi vositasida tadqiq etish yaxshi natijalar berishi tabiiy.

*Tayanch tushunchalar:*

*Majoz, zohidlik, husni ta'lil, talmeh.*

*Savol va topshiriqlar:*

1. *Nodiraning tarjimayi holi haqida so'zlang.*
2. *Nodiraning adabiy merosi, qo'lyozma nuxxalar to'g'risida ma'lumot bering.*
3. *Nodira she'riyatida muhabbat talqinini qanday tushunasiz?*
4. *Shoira ijtimoiy faoliyatining she'riyatiga ta'siri haqida so'zlang.*
5. *Tasavvuf ta'lomitining Nodira she'riyatiga ta'siri qanday?*
6. *"Dahrni imtihon etib ket" g'azalini yod oling va falsafiy mohiyati hamda badiiy xususiyatlarini tahlil eting.*
7. *Nodiraning muhabbat falsafasini qanday tushundingiz ?*

*8. Qalandarlik sulukining Nodira talqini mohiyatini sharhlab  
bering.*

9. O'zbek adabiyoti va san'atida Nodira obrazı haqida so'zlang.

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. Nodira. Devon. T.: 1963.
  2. Nodira. Ey sarvi ravon. T.: 1992.
  3. Nodira. T.: 2004.
  4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T.: 1961.
  5. Qayumov P. Qo'qon tarixi va adabiyoti. T.: 1998.
  6. G'o'yiblar xaylidan yongan chiroqlar. "O'zbekiston", T.: 1994.296-303-b.

## UVAYSIYNING HAYOTI VA IJODI (XVIII asrning 80-yillarida tug‘ilib, 65 yoshlarida vafot etgan)

### *Reja:*

1. *Uvaysiy hayoti va ijodi manbalari.*
2. *Shoiraning adabiy merosi.*
3. *She’riyatining g’oyaviy xususiyatlari.*
4. *She’riy mahorat qirralari.*
5. *Uvaysiyning o’zbek dostonnavisligidagi o’mi.*
6. *Shoiraning dostonchilikdagi mahorati.*

***Uvaysiy hayoti va ijodi manbalari.*** Jahanotin Uvaysiy ijodi o’zbek mumtoz adabiyotida o’ziga xos mavqeda turadi. U XVIII asrning 80-yillarida (1780-yil) Marg‘ilonning Childuxtaron mahallasida tug‘ilgan. Ma’rifatli oilada tarbiya olgan. Otasi ikki tilda she’rlar yozgan, adabiyot muxlisi edi. Onasi Chinnibibi otin edi. Akasi Oxunjon Hofiz ham Jahanotinning tarbiyaviy kamoliga munosib hissa qo’shamdi.

Uvaysiyni Hojixon ismli kosibga uzatishadi. Hayoti yaxshi bo’lmay, Quyoshxon va Muhammadxon ismli bir qiz, bir o’g’li bo’lganda beva qoladi. U Nodira bilan hamhardlikda Qo‘qonda saroya ma’lum muddat yashaydi. Muhammadalixon o’g’lini Qashqarga sarboz etib yuboradi. Qizi vafot etadi. Mohlaroyim Nodira Buxoro xoni Nasrulloxon tomonidan qatl etilgandan keyin yolg’izlanib va keksayib qolgan Uvaysiy Marg‘ilonga qaytadi. 1845-yillarda 65 yoshlarida Marg‘ilonda vafot etadi.

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar uning asarlarida, ayrim tazkiralarda, hozir Marg‘ilonda yashayotgan qarindoshurug‘larining xotiralarida bizgacha etib kelgan. Uvaysiy yashagan davr adabiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi Fazliy Namangoniying “Majmuayi shoiron” tazkirasida ham shoira faoliyatiga ayrim munosabatlar bildiriladi. Ammo uning tarjimayi holi haqida to‘liq ma’lumot bizgacha etib kelmagan.

Shoira ijodini izchil ilmiy yo‘nalishda o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Cho‘lpon "Yorqin turmush" jurnalining 1933-yil 3-sonida "Uvaysiy" maqolasini e’lon qildi. Shoiraning she’rlari "O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi", "O‘zbek poeziyasi antologiyasi" kitoblarida chop etildi.

Uvaysiy ijodini o‘rganish 60-yillarda yangi bosqichga ko‘tarildi. Shoira asarlari alohida devon holida nashr etildi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, T. Jalolovning "O‘zbek shoiralari", A. Qayumovning "Qo‘qon adabiy muhiti", E. Ibrohimovaning "Uvaysiy" risolalarini aytish mumkin. So‘nggi yillarda yaratilgan I. Haqqulovning "Uvaysiy she’riyati", I. Adizovaning "Uvaysiy she’riyatida janrlar takomili" risololasi hamda "Uvaysiy she’riyatida poetik tafakkurning yangilanishi" monografiyasini ham diqqatga sazovor.

*Shoiraning adabiy merosi.* Uvaysiyning 15 ming misraga yaqin sheriylari mavjud. Shoira devonining bir nusxasi O‘zRFA Sharqshunoslik institutida 1837-inventar raqami ostida saqlanadi. Unda 269 g‘azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba bor. "Shahzoda Hasan" va "Voqeoti Muhammadalixon" dostonlari kiritilgan. U 1857-58-yillarda kotib Muhammadshoh Yunusxon tomonidan kitobat qilingan.

1960-yillarda Andijonda shoira devonining yana 3 ta qo‘lyozma nusxasi topildi. Ularning birinchisi 404 betdan iborat bo‘lib, shoiraning evarasi Xoljonbibi – Mag‘ziy tomonidan ko‘chirilgan. 5628 baytni jamlagan. Ikkinci nusxa 161 bet, 2093 baytdan iborat. Uchinchi nusxa 228 bet, 1870-71-yillarda kitobat qilingan. Ikkinci va uchinchi nusxalar tarkibi 1837 raqamli qo‘lyozmaga yaqin turadi. Birinchi nusxada esa, boshqa qo‘lyozmalarga kirmay qolgan 300dan ortiq asar bor.

Uvaysiyning 3ta dostoni bor. "Shahzoda Hasan", "Shahzoda Husayn", "Voqeoti Muhammadalixon".

*Shoira she’rlarining mavzu va g‘oyaviy qamrovi.* Jahonotin Uvaysiy she’riyati O‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos, mustahkam mavqega ega. U o‘nga yaqin lirik janrlarda qalam tebratgan. Shoira asarlарining mavzu va g‘oyalar qamrovi teran,

badiiyati barkamol. Ijodkor sifatida dunyo, olam mohiyatini anglashi, ular haqidagi xulosalari faylasufona.

Uvaysiy she'riyatining bosh mavzusi – Ishq. Moddiy ehtiyojsizlikning, ma'naviy ehtiyojning ulg'ayish ishqisi, haqiqiy ishq, majoziy ishq. Xullas, shoira asarlaridagi ishqning mohiyati juda keng.

Navoyi, Fuzuliy, Bedil, Zebunnisolar kabi faylasuf shoirlarni o'ziga ustoz deb bilgan, ularning an'analarini davom ettirgan Uvaysiy ham ishq vositasi bilangina haqiqatni, dunyo, yashash va tirkilik mohiyatini anglash mumkin, deb tushunadi. Ishq yo'liga kirmagan, Haqqa muhabbatsiz kimsaning yo'lidan adashishi muqarrar ekanligini inkishof etadi:

*Uvaysiy, olma boshing zikri fikri yor yodidin,  
Suluki ishq aro beyodi Haq yo'lidan adoshibdur.*

Ushbu misralar bizga Uvaysiy lirikasidagi ishq masalasini to'g'ri tushunishimizga asos beradi. Shoira asarlaridagi ishq – keng ma'nodagi yaralmish va u orqali yaratuvchiga bo'lgan muhabbatdir. U mahbuba, vahdati vujud, ilohiy birlik haqidagi tushunchalarini, qarashlarini izhor etar ekan, olam tashqi ko'rinishidan – moddiy, ichki mohiyati bilan esa – ilohiy, degan tasavvurda turadi:

*Mening mahbubim, ey dilbar, o'shal nom ichra yostanmish,  
Tafakkur qilmag'il, mazmuni payg'om ichra yostanmish.  
Nechukkim, orzu qilmay qo'lingdin jur'a ichmakni,  
Mayi vahdat sening ilgingdagi jom ichra yostanmish.  
G'azab ko'p qilma, piri dayr, ul yuz sori termulsam,  
Tajalliyi xudo ul husni gulfom ichra yostanmish.*

Bu zamiriga tasavvufiy g'oyalar singdirilgan gazal. Undagi may-ilohiy ishq timsoli. Mayi vahdat – iloh bilan birlashish ishqisi. Jom – bu dunyo, borliq, jahon ramzi. Demak, shoira ilohiy birlikka ushbu – foni dunyoni kechib o'tish, uning yaxshi-yomoniga qanoat

qilish orqali erishish mumkin, deb biladi. U jahoning eziguliklariga, go'zalliklariga muhabbatda bo'lish Tangriga ko'ngil qo'yish bilan barobar, chunki olamdag'i barcha mavjudot xudoning zuhuri, xudoning tajallisi, degan fikrni ilgari suradi.

Vahdatul-vujudning boshlanishi va oxiri bo'limganidek, Haq tajallisining ham ibtido va intihosi yo'qdir. Uning zoti har joyda zohir va mazharlari zoti bilan o'xshashdir. Uvaysiy olamga, go'zallikka xuddi ana shunday tasavvurila muhabbat bog'laydi:

*Ismi a'zamning sifoti dilbarim nomindadur,  
Bilsalar asli tajalli yuzi gulfomindadur,  
Men nechuk mastu alast bo 'lmay aming hijronida,  
Jur'ai vahdoniyat ilgindagi jomindadur...*

Tasavvuf ta'limotida ishq – Husni Mutlaqqa bo'lgan shiddatli sevgi. Hazrati Alisher Navoyi oshiqqa baho berib, "Haqiqiy oshiq deb sen shuni bilki, u dard bilan yashaydi. Uning tili ham, dili ham, ko'zi ham pok bo'ladi, Ishq uni o'z "men"idan pok qilib, hatto, fano o'tiga solgan bo'ladi", deydi. Biz Uvaysiy she'riyatidagi oshiq timsolida xuddi ana shunday jonfidolikni ko'ramiz. U haqiqiy tiriklikni faqat Olloh visolida ko'radi. Bu yo'lida barcha narsani unutadi:

*Xayoli kirsa ko 'nglumga chiqar dunyou din mehri,  
Qilibdur oqibat, ey do'stlar, ham bevatana nozuk.*

Shoira lirik qahramoni muqaddas maqsadiga erishish yo'lida o'ziga qat'iy talablar qo'yadi. O'tkinchi hoyu havaslarga berilmaslik uchun irodasini chiniqtiradi, toblaydi. O'zligini yengishda shafqatsiz bo'lishni, o'zini topish yo'lida esa matonatli, qanoatli bo'lishni sharaflaydi:

*Nigoro, hajra sol, men dilbari har jog'a mayl etsam,  
Seningsiz bir zamon bul ziynati dunyog'a mayl etsam...*

*...Nigorimning yuzu zulfiga hayron o'lmayin, Vaysiy,  
Ko'zim chiqsun, agar dunyou mosihog'a mayl etsam.*

Ushbu g'azaldagi oshiq haqiqiy tiriklikni faqat Olloh visolida ko'radi. U bir lahza Tangrini unutsa, uningsiz bir qadam tashlasa, o'tkinchi, fonyi dunyoga, uning farog'atlariga moyil bo'lsa, o'zini kechirmaydi. Bunday harakat uchun har qanday jazoga tayyor. Xususan, oshiq uchun eng iztirobli – hijron azobiga ham rozi.

Uvaysiy she'riyatining g'oyaviy yo'nalishini, mohiyatini o'zi sharhlab bergen o'rinalar bor, masalan, bir g'azalida:

*Gar kishi bo'lsa xaridori, Uvaysiy ichra bor-  
Ul matoyi ramzga bozordurman ishqida,-deydi .*

Ushbu misralar orqali shoira she'riyatining ramziy she'riyat ekanligini ta'kidlayotgandek tuyuladi bizga. Bozorda har bir xaridor istagan narsasini topadi. Demak, Uvaysiy asarida bozor so'zini bekorga qo'llamagan. Ishq asrorini anglashga ishtiyoqmand xaridor uchun lirikasida ishq ramzi, uning sir-sinoatlari borasida xohlagan savoliga javob topishi mumkinligini ta'kidlayapti.

Albatta, Uvaysiy ma'lum bir makon, zamon va jamiyatda yashagan. Shuning uchun ham asarlarida insoniy munosabatlar, ularning ezgu va dardchil kechinmalari, shodligi va qayg'ulari o'z ifodasini topgan. U imon-e'tiqodli, ezgu amallar yo'lida jonfido, dunyonи, insonlar ko'nglini musaffo ko'rish ishtiyoqida yongan dardchan yuraklar – dard eli bilan hammaslak, hamdard:

*Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyman,  
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.*

Dard, dardmandlik – shoira she'riyatining bosh mohiyati. Uvaysiyini mahzun, ko'nglini vayron etadigan narsa esa bu – e'tiqodsizlik , loqaydlik, riyokorlik. Uni butun umr qiyagan og'riq o'tkinchi olamning lahzalik farog'atlariga aldangan, qil bo'lgan "dardsizlar zaxmidin bemorlik":

*Istasam marham ajab ermaksi, sendin, ey tabib,  
Dardsizlar zaxmidin bemordurman ishqida.*

Uvaysiy she'riyati dunyo, olam, insonlar munosabati borasida chuqur tafakkur mezonlaridan turib mushohada yurgizuvchi falsafiy she'riyatdir. Shoiraning asosiy fikrlari dunyo va ishq ma'rifati xususida yuzaga chiqadi. U quyidagi baytda dunyo nima degan savolga qisqa va mukammal javob bera olgan:

*Demishlar sayyidi kavnayn, dunyo sijni mo'mindir,  
Agar oqil esang, dunyonи ko'ngling ichra zindon tut.*

Uvaysiyni butun umr qiynagan, iztirobli, og'riqli misralar yozishga undagan dard bu – ma'naviy so'qirlikdir. Shoira olamning, dunyoning asl mohiyatini anglamagan, o'zligini va rabbini tanimagan zamondoshlari uchun qayg'urgan. Tangriga muhabbatga da'vat qalbiga shavq, ruhiga qanot bermagan kimsalardan ko'ngliga ozor etgan. Shuning uchun shoira bundaylarning keskin bahosini beradi. Ular ma'naviyati haqidagi xolis hukmini e'lon etadi:

*Bugun bu dahri fonyida kimekim shodu xurramdir,  
O'zin ahvolidin bu bandani men bexabar ko'rdir.  
Nido kelgay xarobot ahlidin : "Kel, boda no'sh ayla!"  
Eshitmas hech kimsa, men alarni ko'ru kar ko'rdum.*

Shoiraning so'zları odamlarni ma'naviy bedorlikka, ishq, sadoqat va insoniylikka chorlovchi so'zlardir. Shoira nazdida eng oliy haqiqat dunyoning mehmoniy his-tuyg'ulariga aldanmaslik. Sharqona axloqiy fazilatlarga – kamolotga erishish.

Moddiy olamni kuzatib, Olloh taolo tomonidan yaratilgan har bir narsada mo'jizaga duch kelamiz. Ularning barchasi o'z shaklu shamoyili, mutanosib va mukammal me'yoru hadisidaligidan hayratga tushamiz.

Tabiat insoniyatning eng yaqin zarrasi, uzviy bog‘liq bir qismi sifatida unga hamisha o‘zligini eslatib turadi. O‘zligini anglash borasida, yashashning, olamning mohiyati borasida odamzod undan saboq oladi. Ko‘p falsafiy mushohadalariga undan yakuniy xulosalar chiqaradi. Bu uzviylik ifodasini biz, ayniqsa, mumtoz shoirlarimiz ijodlarida kuzatamiz.

Olloh taoloning, tabiatning go‘zal va mo‘jizaviy ne‘matlaridan biri anordir. Anor donalarining aqiq la’llardek bir tekisda terilganligi, nafis pardaga o‘ralganligi va bu sirli go‘zallikning anor po‘sti ortida pinhonligi Tangrining mo‘jizasi deyish mumkin.

Uvaysiy anorni olib unga she‘r yozar ekan, ko‘nglidan teran mushohadalar o‘tganini sezish qiyin emas.

*Ul na gumbazdur: eshigi tuymugidin yo‘q nishon,  
Necha gulgunpo ‘sh qizlar manzil aylabdur makon.  
Sindurub gumbazni, qizlar holdin olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortig‘liq, turarlar bag‘ri qon.*

Bu chistonda shoiraning bir qancha maqsadi bирgalikda mujassamlashgan. Avvalo, unda tabiatning noyob mevasi anor sifatlarini tasvirlash nazarda tutiladi. Ikkinchidan, o‘z davridagi ayollar qismatining murakkab manzarasiga e’tibor qaratiladi. Uchinchidan, shu paytgacha nazardan chetda qolib kelgan yana bir muhim masala, ya’ni anorni ramziy obraz darajasiga ko‘targan, dunyo mohiyati borasidagi shoira nuqtayi nazari badiiy talqin etiladi. Uvaysiy ijodida anor foniy dunyo tilsimlarini o‘zida mujassamlantirgan ramziy timsol darajasiga ko‘tariladi. Uvaysiy anorning tashqi ko‘rinishini cheku chegarasiz niliy gumbaz bo‘lib ko‘rinuvchi dunyoga qiyoslayapti:

*Ul na gumbazdur : eshigi tuynugidin yo‘q nishon.*

Tasavvuf ta’limotida gulgun rang, qizil rang, bag‘riqonlik – hijron, ayrılıq, Tangri vaslidan yiroqlikni ifodalovchi ramzlardir. Qizlar, insonlar ilohiy jamol zuhuri. Yuzlaridagi parda – solik yoki

oshiq bilan Olloh taolo vasli o'rtasidagi to'siq, ya'ni foniy dunyo timsoli.

Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Ushbu to'rtlikda shu paytgacha biz talqin etib kelgan zohiriylar mazmundan tashqari, teran falsafiy, botiniy g'oya ham mujassamlashgan. Shoira anorda dunyo timsolini tasavvur etyapti. Anor dunyoga o'xshaydi. U shunday bir gumbazki, na eshigi bor, na tuynugi. Unda ko'plab insonlar makon qurgan. Ularning holidan xabar olinsa, u erdag'i hayotning asl mazmuni haqida tafakkur qilinsa, haqiqat ayon bo'ladi: Ilohiy visoldan mahrumlik. Bu yo'lida moddiy dunyoning to'siq, parda ekanligi.

Shoira anor tuzilishida ilohiy visoldan foniy dunyo pardasi-la to'silgan, hijronu• ayrılıqdan bag'ri qon kimsalar taqdirini ko'rgandek bo'ladi. Demak, anor tilsimotini, asrorini anglash uchun qafasni, uning po'stini sindirib cheksiz kenglikka erishish kerak. Tabiatning bu mo'jizasi inson uchun dastur, namuna. Demak, u ham lahzalik olamning barcha to'siqlarini, moddiy manfaatu ehtiyojlarini, vujudiy qafasni yengib o'tibgina haqiqiy ozodlikka, ruhiy erkinlikka yetishi mumkin. Ana shundagina anor sirini anglaganimizdek, dunyo va mutlaqiyat mohiyatiga, haqiqatga etamiz. Shoira dunyoqarashining teranligi, falsafiy mushohadasining o'tkirligi bizni shunday xulosa chiqarishimizga asos beradi.

Uvaysiy she'rлarini g'oyaviy nuqtai nazardan uchg'a bo'lish mumkin: 1. Oshiqona. 2. Orifona. 3. Avtobiografik.

Shoira she'rлarining mazmun-mohiyati, badiiy o'ziga xos xususiyatlari borasida, A. Qayumov, E. Ibrohimova kabi olimlarimiz muhim tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Turlicha qarashlarni, nuqtayi nazarlarni bayon etishgan. Jumladan, A. Qayumov, shoira she'riyatining murakkab she'riyat ekanligiga e'tibor qaratadi: "... Uvaysiy ijodida she'r shaklining murakkabligi uning xarakterli xususiyatlaridan biridir. ... Uvaysiy g'azallarida mazmun ancha berkitib beriladi. Shu sababli bayt ma'nosini ancha

*qiyinlik bilan yechib olish mumkin. Bu hol she'r shaklini murakkablashtiradi, tushunishni og'irlashtiradi*<sup>256</sup>.

Shu qarashdan kelib chiqib olim, Uvaysiy she'riyatini murakkab, xos kishilarga mos she'riyat sifatida baholaydi: “*Uvaysiy she'rlari ko'proq adabiyot ahli, she'riyat muxlislari uchun mo'ljallangan. Shuning uchun ham uning devoniga kirgan g'azal va muxammaslarda xalq og'zaki ijodining ta'siri kam seziladi*

<sup>257</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki, Uvaysiy mutasavvuf shoira. U tasavvuf g'oyalariga e'tiqod qo'ydi. Buni olamni anglashning haqiqiy yo'li deb bildi va butun hayoti davomida uning aqidayu tariqini targ'ib etdi. Uvaysiyning o'zi ham bir qancha g'azallarida tariqat yo'lini, uning riyozatlarini bosib o'tgani xususida ma'lumot beradi:

*Necha kun to'ktim tariqat yo' Tidin ashkim suvin,  
Ishqqa bo'hton aylamaklik gardi rohimdin havo.*

Shoira ishqqa ilohiy ma'rifat, o'zni unutish, jazba holati deb qaraydi. U solik o'z maqsad manziliga faqat ishqning eng yuqori darajasi – ilmi hol vositasi-la etishi mumkin, degan fikrda:

*Vaysiy, ilmi qol o'qub, hech uqmading bu dahr aro,  
Piri dayr ichra borib sen ilmi holdin o'qu.*

Yoki:

*Muhabbat darsini takror etardin man'i "qol" etdim,  
Mudarris ahli bedardlig' ila holimg'a kulmishlar.  
Tavakkul peshasin po'shok etib cho'mdim haqiqatga  
Qo'lim sir domaninda, el bu af'olimg'a kulmishlar.*

Shoira tariqatning barcha suluklarini, maqomlarini, qonunlarini o'qish, o'rganish mumkin, ammo, ishqni o'qib o'rganish mumkin emas, degan fikrda. U ishqqa ilohiy mo'jiza yanglig' qaraydi. Shoira ishqni o'rganish emas, uni ruhiyatda

<sup>256</sup> А.Қаюмов. Кўкон адабий мухити. Т.:Фан, 1961, 248-бет.

<sup>257</sup> Ўша асар, 248-бет.

ulg‘aytirish kerak, u ko‘ngulda tug‘ilib, unib o‘sishi lozim, degan xulosada:

*Tariqat yo‘lida tay qildim ul jam ‘i suluklarni,*

*Tariqi ishqning oldida bir kasbi hunar ko‘rdim.*

Demak, shoira nazdida ishq insonni ilohiy kenglikka olib chiqa oluvchi birdan bir vosita. Olloh vasliga etish esa lirik qahramonning yagona maqsadi. U bu olis yo‘l dardu g‘amida yonishni o‘ziga vatan deb biladi. U shu dard bilangina yashaydi. Usiz ushlagani tikan, ko‘rgani baytul-hazan:

*G‘aming, unsu darding vatandur mengo,*

*Katon to‘n, seningsiz kafandur mengo.*

*Qaro kokuling bo‘ynima, ey shahim,*

*Ki, kufr etkali to rasandur mengo...*

*Dema: “Dahr bog‘idin uzding gule!”*

*Iligimda, vahkim, tikandur mengo!*

*Qocholmon firoqingdin, ey mug‘bacha,*

*Visoling umidi kishandur mengo.*

*Ulus ta‘n etar: “Aylading ro‘zgor!”*

*Bu kulbamki, baytulhazandur mengo.*

**Shoira lirik qahramoni.** Uvaysiy lirik qahramoni dadil, talabchan, matonatl, mardona tabiatli. U faqat oshiq emas, balki, ayol – ijodkor sifatida ham tasavvurimizda namoyon bo‘ladi. U atrofni, insonlarni ayollarga xos teran nigoh bilan kuzatadi. Ruhiga tiriklik, uyg‘oqlik baxsh etuvchi olamning yorug‘ ranglarini tez ilg‘aydi. Yurakda zaxmu jarohatlar ochuvchi g‘ofillik va jaholat belgilarini ko‘rib ko‘nglidan qon sirqib og‘rinadi. Insoniyatni ulug‘likka ko‘taruvchi mehr-oqibat, muhabbat, izzat-hurmat, halol-pokizalik,adolat, imon-e’tiqod kabi ezgu fazilatlarni sog‘inib iztirob chekadi.

Shoira asarlari orasida uning tarjimai holini to‘lg‘azuvchi, ona va ayol sifatida qiyofasini yorituvchi namunalar mavjud.

"Sog‘indim" radifli g‘azalida sarbozlikka ketgan olisdag‘ farzandini sog‘ingan, ko‘ngli ne hadiku xavotirda o‘rtangan, kecha-kunduz yo‘l qarab intizor yongan onaizorning qalb tug‘yonlari o‘z ifodasini topgan. Ammo, asarni o‘qiganda, umidsizlikka tushmaysiz. Chunki, onaning so‘z bilan ta’riflash qiyin bo‘lgan sog‘inchi farzandini asrab, eson-omon uning bag‘riga qaytarishiga beixtiyor ishonasiz.

Uvaysiyning o‘zligini, hayotdag‘i oddiy ayol sifatidagi tabiatini anglashimizda "Kafshim yo‘qoldi, sandamu?" radifli g‘azalining alohida o‘rnii bor. Bizningcha, ushbu asarda Farg‘ona ayollarining sho‘x-shaddod, hazil-mutoyibaga usta xarakter timsoli o‘z ifodasini topgan. Shoira hikoya qilishicha, Qo‘qondan Xo‘jandga sayru tomoshaga kelishadi. Ancha ko‘ngil chigillari yozilib, yengil tortishadi. Ammo, shu jarayonda lirik qahramon kovushini yo‘qotadi. Bu detaldan shoira ustalik bilan hazil-mutoyiba, askiya manbayi sifatida foydalanadi.

G‘azalning boshdan oxirigacha engil bir kulgi qo‘zg‘atuvchi humor singdirilgan. Shu usul bilan shoira kovush o‘g‘risini beozorgina tanqid ham etib o‘tadiki, bu uning oqila, dono va mahorat sohibiligidan dalolat beradi.

*Uvaysiy ijodida janrlar takomili. Fard janri.* O‘zbek mumtoz adabiyotida Jahonotin Uvaysiy ijodi o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. U nafaqat mazmun, ma’no va badiiy san’atkorlik nuqtayi nazaridan, balki janrlar takomilida ham takrorlanmas iqtidorini namoyish eta olgan. Xususan, mumtoz she’riyatdag‘i kichik janrlarda yaratgan asarlari bunga dalil bo‘la oladi.

Fard – adabiyotdag‘i eng kichik janr. U arabcha yakka, yolg‘iz degan ma’noni anglatadi. Adabiy istiloh sifatida esa, birgina baytdan iborat mustaqil asar demakdir. Unda kuchli mantiqqa ega bo‘lgan hikmatomuz fikr ifodalanishi shart. Chunki, "...*O‘tmishdag‘i qalamkashlar fardlar yaratishni bir san’at, san’atkorlik ishi, ma’nolar xazinasidan gavhar sochish deb bilganlar*"<sup>258</sup>. Adabiyotshunoslikda fard, uning paydo bo‘lish asoslari, xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar bildirilgan<sup>259</sup>.

<sup>258</sup> Р. Ортибеков. Лирикада кичик жанрлар. Т.: 1976, 119-бет.

<sup>259</sup> Карапг: ўша асар, 117-131-бетлар.

Ammo, janr sifatida uning hali hal etilishi, oydinlashtirilishi lozim jabhalari anchagina. Jumladan, fardning qofiyalanishi haqida adabiyotshunoslikda turli qarashlar bor. Ba'zi manbalarda “*fardlarda ikki misraning qofiyalanishi shart*” deyilsa, ba'zilarida “*fard misralari o'zaro qofiyalanmaydi*”, ba'zilarida esa “*qofiyalanishi ikki xil (a-a va b-a) bo'lishi mumkin*” deyiladi.

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy 1436-1437-yillarda yaratilgan “Funun ul-balogs” asarining janrlar bayoni qismida fardga to'xtalib shunday ta'rif beradi: “*Fard ikki misra bo'lur. Avvalg'i misrayida qofiya bo'lmas...*”<sup>260</sup>

Asarda Kamol Xo'jandiy, Salmon Sovajiy, Hofiz Sheroyziy, Xusrav Dehlaviy, Kirmoniy, Nosir Buxoriy, Sakkokiy, Sayroniy, Lutfiyi Shoshiylarning fardlaridan namunalar keltiriladi. Hammasi qofiyasiz, ya'ni **b-a** shaklidagi fardlar.

Sakkokiy va Lutfiyning devoniga ham qofiyasiz, ya'ni **b-a** shaklidagi fardlar kiritilgan. Demak, adabiy jarayondagi holatdan xulosa chiqaradigan bo'lsak, XV asr I yarmigacha fard janri yuqoridagi shaklga ega bo'lgan. Ya'ni ikki misradan iborat bo'lib, qofiya bo'lмаган. Ammo, juz'iy hollarda uning **a-a** shaklida qofiyalangan turiga ham manbalarda duch keldik. Lekin bu ko'rinish xos xususiyat darajasiga ko'tarilmagan.

Navoyi ijodidan boshlab, bu janrning yanada takomillashgan ko'rinishlarini kuzatamiz. Uning “Xazoyin ul-maoniy” devoniga 86ta fardi kiritilgan. Ularni kuzatib, quyidagi xulosalarga keldik:

Birinchidan, Navoyi o'z fardlarida g'oyaviy mundarijani teranlashtirishga erishgan. Ularda chuqur hikmatomuz mulohazalarni, hayotiy xulosalarni ifodalagan.

Ikkinchidan, Navoyiga qadar qofiya fard janri uchun xos xususiyat bo'lмаган. Navoyi bu janrning har ikkala misrasini qofiyadosh so'zlar bilan ziynatlagan. Bu esa o'z navbatida asarga ohangdorlik bag'ishladi. So'zlarning rang-barang ma'noviy qirralari orqali esa she'r g'oyaviy teranlik kasb etdi.

Uchinchidan, Navoyi devonlariga kiritilgan 86 farddan 79tasi qofiyali, 7tasi esa qofiyasiz shaklda yaratilgan.

<sup>260</sup> Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул балога. Т.: 1996, 69-бет.

Navoyidan keyin fard janri yana takomillashib bordi. Keyinchalik ayrim shoirlar ijodida tajnisli fardlar yaratilganligini ko'ramiz. Jumladan, Bobur devonida 26 farddan 2tasi tajnisli qofiya, 23tasi qofiyali, 1tasi qofiyasiz ko'rinishga ega.

Fard janri takomilida Uvaysiyning alohida o'rni bor. Bizga uning 4ta fardi ma'lum. Ularning barchasi tajnisli qofiya asosida yaratilgan. Shoira ularda hayotiy kuzatishlaridan anglagan chuqur falsafiy mulohazalarini ifodalashga erishgan. Har bir fardda shoiraning takrorlanmas kuzatuvchanlik, xayolchanlik inkishofini ko'ramiz.

Uvaysiy devoniga kiritilgan to'rtala fard ham ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Ularda shoira she'riyatiga xos bo'lgan teranlik va falsafiy mushohada sezilib turadi:

*Dilbaro, o 'ltur boshingdin aylanay,  
Pandim ol, o 'lsam so 'ngokim ayla nay<sup>261</sup>.*

**Chiston (lug'z)** Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida o'ziga xos sirli-sinoatli nazm namunasi hisoblangan. Har qanday so'z san'atkori ham she'rning bu noyob usulida kuch sinasha olmagan. U yuksak badiiy san'at namunasi sifatida baholab kelingan. Jumladan, Zayniddin Vosifiyining «Badoe ul-vaqoe» asarida eslanishicha, Qul Ubaydiy donishmandlar bilan bo'lgan bir suhbatda lug'zning adabiy jarayondagi mavqeini shunday baholagan: «... *lug'z she'ring shunday nav'iki, tab' tarozusida g'oyat mavzundir. Tab'i halol kishilarning unga mayli haddan ziyoddir...*». <sup>262</sup> Atoulloh Husayniy ham «Badoye us-sanoye» asarida lug'zni shunga yaqin izohlaydi<sup>263</sup>.

U arablarda lug'z, lug'az, fors va turklarda chiston<sup>264</sup> deb atalgan. «Lug'z, lug'az» so'zi mo'tabar izohli lug'atlardan biri «G'iyos ul-lug'ot»da shunday izohlangan: «*Lug'az - so 'roxi mushi*

<sup>261</sup> Увайсий. Девон. Т : 1963, 223-бет.

<sup>262</sup> Восифий З. Бадоу ул-вақое. Т : 1979, 48-бет.

<sup>263</sup>Хусайнин Атоулио. Бадоे ус-саное. Т. : 1981.105-бет.

<sup>264</sup> Кейнинг ўринларда чистон деб қўллаимиз.

*dashty; va on bag'oyat pechdor boshad, lihozo nomi nav'e az kalomi mubham, ki ba forsi chiston go'yand»<sup>265</sup>. Mazmuni: *Lug'az dasht sichqonining ini. U juda egri-bugri bo'ladi. Yana forschada chiston, deb ataluvchi jumboqli so'z turining nomi.**

Ko'ringanidek, lug'z so'zi istilohning maqsadini to'la ifodalay oladi.

Atoulloh Husayniy ham yuqorida tilga olingan asarida lug'z haqida batafsil to'xtaladi. Uning lug'aviy ma'nosi, istilohiy mohiyati o'z davri adabiyotshunosligidagi o'rganilish tarixini yoritadi. Rashididdin Vatvot, Qays Roziy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning fikrlari va ularga o'z munosabatini bayon etadi. Ular bilan bahs-munozaraga kirishadi.

Mumtoz adabiyotshunoslikka oid asarlarni kuzatar ekanmiz, barchasida lug'z mumtoz badiiy san'atlardan biri sifatida talqin etilgan. Qays Roziy, Rashididdin Vatvot, Atoulloh Husayniy, Ahmad Taroziy, lug'z va muammo haqida «*Hulali mutarraz dar fanni muammo va lug'z*» (*Muammo va lug'z Fani to'g'risida bezatilgan ipak kiyimlar*) deb nomlangan alohida asar yozgan Sharafiddin Ali Yazdiy ham lug'zni o'z asarlarining badiiy san'atlar qismida izohlashgan. Ahmad Taroziy «*Funun ul-balogs'a*» asarida lug'z san'atining xos xususiyatlarini aniq va sodda tushuntirib beradi: «*Bu aningtekbo'lurkim, bir narsaning otin va haqiqatin yoshurub, mushabbah /un/ bih lafze birla savol qilurlar*»<sup>266</sup>.

Har bir she'rni janr sifatida tasniflashda ma'lum belgilari inobatga olinadi. Ammo, lug'zni hajm, vazn, qofiya, radif nuqtayi nazaridan kuzatsak, xos xususiyatlar ko'zga tashlanmaydi. Binobarin, o'zbek lug'zlarini kuzatar ekanmiz, savol paydo bo'ladi: u janrmi yoki san'atmi? Ko'rib o'tganimizdek, mumtoz risololarda unga san'at sifatida baho berilgan. Ammo devonlar tarkibida janrlar tartibida keltirilishi unga janr deb qarash tamoyilini shakllantirgan. Shunga binoan, biz uni janr sifatida o'rganamiz.

O'zbek mumtoz adabiyotida uning g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy, fard shakllarida yaratilgan namunalari uchraydi. Alisher

<sup>265</sup> Фиёсси́ддин Муҳаммад. Фиёс ул-луғот. Жилди 2. Душанбе, нашриёти «Адаб», 1988, с. 211.

<sup>266</sup> Тарозий Аҳмад. Фунун ул-балога. Т.: 1999, 127-бет.

Navoyining «Xazoyin ul-maoniy» devoniga kiritilgan 10ta chistondan 8tasi qit'a shaklida, 2tasi to'rtlik shaklida<sup>267</sup>. Uvaysiy chistonlari g'azal, to'rtlik va ikkilik shakllarida yaratilgan.

Lug'z istiloh sifatida arablarda shakllangan. Ammo, turkiy adabiyotdagи chiston xalq og'zaki ijodidagi topishmoq janri bilan ham chambarchas bog'liq.

U XI asrda fors-tojik adabiyotiga kirib kelgan. Tojik adabiyotshunoslарining ta'kidlashicha, chiston dastlab qasida muqaddimmasida tashbib<sup>268</sup> tariqasida paydo bo'lgan va vasfning bir qismi sifatida taraqqiy topgan<sup>269</sup>. Fors adabiyotida birinchi chistonni Rudakiy yozgan degan taxmin bor.

Taniqli adabiyotshunos R. Orzibekov «Lirikada kichik janrlar» asarida chiston haqida to'xtalib, O'zbek adabiyotida dastlabki chiston Alisher Navoyi tomonidan yaratilganini ta'kidlaydi: «O'zbek xalq og'zaki ijodida Navoyigacha ham topishmoq usulidagi namunalar bo'lsa ham, lekin yozma adabiyot vakillari ijodida hozircha chistonshe'rlar uchramaydi. Alisher Navoyi o'zbek klassik shoirlari orasida birinchilardan bo'lib chiston aytishga kirishdi va uning yozma adabiyotdagи o'mini qonuniylashtirdi»<sup>270</sup>.

Ammo, izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiyotida Navoyiga qadar ham chiston namunalari uchraydi. Jumladan, 1436-1437-yillarda yaratilgan Ahmad Taroziyining «Funun ul-balogs'a» asarida o'zbek tilida ijod etilgan chiston keltiriladi:

*Nedur ul la'lki, paydo bo'lur andin guhar?  
Goh paydo bo'lur anda mayu gah shiru shakar?*<sup>271</sup>

Javobi «lab» bo'lgan ushbu chistonning badiiy pishiqligi uning o'zbek adabiyotida yagona hodisa emasligini ko'rsatadi.

<sup>267</sup> Навоий Алишер. Хазойин ул-маоний. III жилд. Бадое ул-васат. Т.: 1960, 713-716-бетлар.

<sup>268</sup> «Ташбіб – лугатта хотуя жамолининг сифатин вәүзининг ишкі ахволин демактур. Шуаро урғиңида эса ул шеър бағишланған кишининг мадху ё қажвидин ўзга шеър бошинда берилтган ҳар бир вәсфдин ибораттур». Ҳусайнин Атоуллоҳ. Бадое ус-саное. Т.: 1981, 270-б.

<sup>269</sup> Зекнин Т. Санъати сухан. Душанбе, наимрияти «Ирфон», 1979, сах. 134.

<sup>270</sup> Орзебеков Р. Лирикада кичик жанрлар. Т.: 1976, 151-бет.

<sup>271</sup> Тарозий Ахмад. Фунун ул-балога. Т.: 1996, 127-бет.

Ma'lum bir tarixiy takomil jarayoniga egaligi anglashiladi. Ammo, afsuski, alloma uning muallifini ko'rsatmaydi. «Funun ul-balogs'a»dagi an'anaga ko'ra, Taroziy qalamiga mansub bo'lishi ham mumkin.

Chiston har bir shoirning olam, odam va borliqni kuzatish, atrof-muhitni ilg'ash darajasini ko'rsatadi. Uning oddiy predmetlardan badiiy obraz yaratish salohiyatini aniqlash mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Uvaysiyning shoira sifatida shuhrat topishida chistonnaviglining alohida o'rni bor. Ilmda u o'zbek adabiyotida eng ko'p chiston aytgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning nashr etilgan devonlarida 13ta chistoni bor. Ammo, manbalarda uning "50dan ortiq chistonlari ma'lum"ligi bayon etiladi<sup>272</sup>. Akademik Avliyo Muhammadiyev o'z xotiralarida, hatto, shoiraning "Chistonlar to'plami"ni ko'rganini eslaydi. Bir nechta bizga noma'lum chistonlari nomlarini sanaydi: "Shoira enamning dugonasi bo'lgan. "Chistonlar to'plami"ni sovg'a qilgan. Afsus, 1930-yillarda jonimizni asraymiz deb arab alifbosida yozilgan juda ko'p qo'lyozmalarni yo'q qilib yuborganmiz. Men qovun tiligi, aravaning o'qi, qaychi, anor haqida o'nlab chistonlarni yod olganman"<sup>273</sup>.

Uvaysiy chistonlarining asosiy qismida savol qo'yish usuli yetakchilik qiladi. Jumboq, asosan, birinchi misrada keltiriladi. Shoiraning topqirlik bilan qo'llagan so'rog'i o'quvchi diqqatini bir nuqtaga jamlashga xizmat qiladi. Shundan so'ng, nazarda tutilgan predmetning sifat, belgi va xususiyatlari ta'riflanadi. Shoira chistonlarida nazarda tutilgan har bir predmet badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Ularning asosini metaforik o'xshatishlar tashkil etadi. Jumladan, eshigi tuynugi yo'q gumbaz, qanotu parlari qip-qizil, ko'zga ko'rinas qush, qonxo'r ikki daryo, cho'tir yuzli kelin, boshi bilan yuruvchi oyog'i yo'q mavjudot, jazirama yozda issiq, yashil to'nda yuruvchi jonzot va yana ko'plab noyob taxayyulot mahsuli bo'lgan timsollar. Ko'rindiki, shoira

<sup>272</sup> Р. Орзисбеков. Лирикада кичик жанрлар. Т.: 1976, 153-6.

<sup>273</sup> Мадаев О. Аллома Авишхон. "ЎзАС" газ., 2006. 22 сент.

chistonlarida nodir timsollar galereyasi bunyod etilgan. Ularning har biri o'tkir tafakkur mahsulidir.

Shoira deyarli barcha chistonlarida dastlabki misrada atalmishning shakliga e'tibor qaratadi. Uni tasvirlaydi. Keyingi misralarda esa uning holati, qilmishi, vazifasini ifodalashga o'tadi.

Ayrim chistonlarida shoira savol bilan bir qatorda abjad hisobidan ham unumli foydalanadi. Bu usul nazarga olingan predmetni aniqlash imkonini kuchaytiradi.

Uvaysiy uchinchi tur chistonlarida yanada boshqacha yo'l tutadi. Ularda savol ham, abjad hisobi ham uchramaydi. Bunday chistonlar qisqa hajmga (2 misra) ega. Birinchi misrada atalmish haqida xabar-ma'lumot berilsa, ikkinchi misrada uning tabiatiga xos qat'iy hukm, xulosa bayon etiladi. Bunday asarlar sirasiga "Qaychi" hamda "Kun va tun"ni kiritish mumkin.

*Harora g'azal*. Shayx Ahmad Taroziy she'riy balog'atda qofiya ilmining muhimligini ta'kidlaydi: "...tab'ning natijasi she'rdur. Va she'ming asli qofiya. Va qofiyasiz she'r mumkin ermas"<sup>274</sup>. Ulug' alloma Sharq mumtoz nazmi namunalari asosida ana shunday teran xulosaga keladi. Bu fikrlar she'riyatda qofiyaning o'rni, ahamiyatini belgilashimizda asos bo'ladi. Demak, misralarga badiiy sayqal, ohangdorlik va purma'nolik baxsh etuvchi unsurlardan biri qofiyadir. Uning she'riyatdagagi o'rnnini o'rganish, baholash borasida adabiyotshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan, muhim tadqiqotlar yaratilgan. Biz mulohaza yuritmoqchi bo'lgan masala bir oz boshqacharoq.

Ahmad Taroziy yuqoridaq asarning "Al-fann-us-soniy fi-l-qofiya va-radif" deb nomlangan II qismida qofiya va radif bilan bog'liq barcha muammolar xususida muhim fikrlar bayon etadi. Ular nazmning ajralmas va sayqalbaxsh qismlari ekanligi misollar bilan dalillanadi. Muallif qofiya va radifning zaruriy unsurligini isbotlash bilan bir qatorda bo'lim so'ngida qofiya ishtirok etmaydigan she'r turi ham borligi haqida ma'lumot beradi: "Bir tariqa she'r bo'lurkim, anda qofiya bo'lmas. Har baytning oxirinda radif-o'q keltururlar. Oni harora o'qurlar"<sup>275</sup>.

<sup>274</sup> Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балага. Т.: 1996, 61-бет.

<sup>275</sup> Уша асар, 83-бет.

Mo'tabar lug'atlardan biri "G'iyos ul-lug'ot"da "**"harora"** so'zi quyidagicha izohlanadi."Harora – ba ma'nii raqs kardan va tob dodan dafro az otash; va ovoze, ki az chand sozu chand xalq yak martaba baroyad va g'avg'oi mardum". Ya'ni, "Harora – raqsga tushish va doirani olovda toblast; ko'p cholg'u, ko'p kishilarning baravar birdan chiqargan kuchli ovozi va odamlarning jo'rovoz g'avg'osi ma'nosida". "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "**"harorat"** so'zining "**"ruhiy ko'tarinkilik, jo'shqinlik"** ma'nosiga ham egaligi ko'rsatilgan.

Demak, harora she'rlar, istilohning lug'aviy ma'nosidan ham anglashilyaptiki, ruhiy jo'shqinlik, ruhiy g'alayon, pafos mahsuli sifatida maydonga kelgan. "Funun ul-balogs'a" tadqiqotchisi va noshiri professor A. Hayitmetov she'rning ushbu turiga shoira Uvaysiyning bir g'azalini misol sifatida ko'rsatadi: "*O'zbek adabiyotida she'rning harora turiga Uvaysiyning "Ko'ngil dog' o'lди, dog' o'lди" radifli g'azali yaxshi misol bo'la oladi*"<sup>276</sup>.

Prof. A. Qayumov ham shoira she'rlarini tahlil etar ekan, shu she'rga e'tiborini qaratadi: "...*Goho iztirob to'lqinlari (she'rlarida – N. J., I. A.) shunday kuchayib ketadiki, shoira qofiya to'sig'ini bosib o'tib, o'z kechinma va hayajonlarini oq she'r tarzida ifodalaydi ("dog' o'lди, dog' o'lди" radifli she'r)*"<sup>277</sup>. O'zbek mumtoz adabiyotida boshqa biror shoir ijodida harora g'azal namunasi uchramaydi. Ammo, Uvaysiy devoni qo'lyozmasida 6ta shunday g'azal mavjudligini kuzatdik. Bu Uvaysiyning shoira sifatida o'ziga xos yo'llar izlashga, yangiliklar yaratishga, turli adabiy tajribalar qilib ko'rishga harakat qilganini ko'rsatadi. Bu esa uning ijodkor sifatida o'ziga ishonchi va mahoratidan dalolatdir.

***Uvaysiyning dostonnavislik salohiyati.*** Doston – mumtoz adabiyotimizdagi yirik va mukammal janr. Uni yaratish ijodkordan o'ziga xos badiiy tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli nazmda shoirning yetukligi dostonnavislikdagi mahorati bilan belgilangan.

Ma'lumki, o'zbek dostonchiligi xalq dostonlari va Sharq mumtoz adabiyotidagi dostonnavislik an'analari ta'siri ostida rivojlandi. "*XVIII-XIX asr dostonchilik maktabi namoyandalari*

<sup>276</sup>Ўша исар, 18-бет.

<sup>277</sup> А.Қаюмов. Қўқон адабий мұхити Т.: 1961, 247-бет.

*o'zlarigacha bo'lgan dostonchilikka novatorona yondashdilar. Mavzu va g'oyaviy jihatdan uni boyitdilar. Syujet, kompozitsion qurilishida yangi kashfiyotlar qildilar*<sup>278</sup>. Bu davning ayrim shoirlari (Nishotiy, Hoziq, Uvaysiy) umumsharq adabiyotida mashhur bo'lgan syujetlarni olib, ularga o'zlari yashagan davr ruhini kiritdilar<sup>279</sup> va shu asosda o'z dostonlarini yaratdilar. Bunday an'ana uzoq asrlardan beri Sharq xalqlari adabiyotida mavjud bo'lgan va davom etib kelgan. Jumladan, "Xamsa" tarkibiga kirgan dostonlar ham badiiy ruh va g'oyaviy talqin jihatidan ancha farq qilsa-da, lekin syujet jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Yusuf va Zulayho, Ibrohim Adham to'g'risidagi hikoyalari ham asrlar osha ana shunday sayyor syujetlar sifatida ko'p badiiy asarlar uchun asos bo'lib kelgan.

Hazrati payg'ambarimiz Muhammad salallohu alayhi vassallamning nabiralari, hazrat Ali va Bibi Fotimaning farzandlari shahzoda Hasan va Husaynlar qismati yoritilgan hikoyatu rivoyatlar ham ko'plab badiiyat namunalarining yaratilishiga asos bo'lgan.

Bu mavzudagi dostonlar adabiyotshunosligimizda umumiy nom bilan "Karbalonomalar"<sup>280</sup> deb yuritiladi. Ularning Sharq adabiyotida nasrda ham, nazmda ham yaratilgan juda ko'plab nusxalari mavjud. Ayrimlarining muallifi ma'lum, ayrimlarining muallifi noma'lum, ayrimlari xalq kitoblari shaklida yozilgan. Fuzuliyning "Hadiyat us-suado" nasriy asari ham shu mavzuda yozilgan. Bunday manbalarning eng mukammali va mashhuri Husayn Voiz Koshifiyning (1440-1505, Hirot) "Ravzat ush-shuhado" asaridir. U islom va hazrati payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vassallam tarixlariga bag'ishlangan. Shu tarix sahifalarida muslimonlar sha'nini, imon vaadolat sharafini himoya etish yo'lida jonini fido qilgan shahidlar qismatidan hikoya qilinadi. Asarda Qur'on, hadis va boshqa turli mashhur manoqiblar orqali yetib kelgan rivoyatlar ta'sirli uslubda, badiiy qayta bayon

<sup>278</sup> Э. Иброҳимова, М. Мирзаев. Достоннинг композицион ҳусусиятлари. Адабий мерос. Илмий асарлар туплами. Т.: 1986, 1 (33), 18-бет.

<sup>279</sup> А. Қаюмов. Қўқон адабий мұхити. Тошкент, 1961, 357-бет.

<sup>280</sup> Аслида бу йўналишдаги асарларга Имом Ҳусайн қисмати тасвирланган манбалар киритилади.

etiladi. Koshifiyning asari fors tilidan bir necha marta o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Muhammad Ayub Koshg‘ariy tomonidan “Tazkirayi anbiyo va avliyo va shuhado” nomli nasriy tarjimasi (XVIII asr, Koshg‘ar), Sobir Sayqaliy Hisoriy tomonidan (XVIII asr, Hisor) amalga oshirilgan nazmiy tarjimasi shular jumlasidandir.

Ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda bu yo‘nalishda asarlar yaratish keng tus oldi. Xolis Toshkandiyning “Qissayi Karbalo”, “Qissayi Imom Hasan va Imom Husayn”, “Qiyomatnama”, “Musibatnama” asarlari; Bibi Hojarning “Qissayi Imom Husayn”; Nisoning “Vafotnomayi Imom Hasan va Imom Husayn”; Xoniyning “Voqeayi hoyilayi Karbaloyi purbalo” asarlari noyob namunalardir. Xasta, Qul Sulaymon, qozoq shoiri Jusipbek Shayxul islom o‘g‘li kabi ijodkorlar tomonidan ham shu syujet asosida yaratilgan asarlar etib kelgan.

XVIII-XIX asr o‘zbek adabiyotining yetuk vakili Jahonotin Uvaysiy o‘ndan ortiq faol lirik janrlarda o‘z mahoratini namoyon eta olgan shoira. Shu bilan bir qatorda, u dostonchilikdagi iste’dodi ham lirik mahoratidan qolishmasligini isbotlay olgan.

Shoiraning shahzoda Hasan va shahzoda Husaynga bag‘ishlangan asarlari qo‘lyozma va toshbosma nusxalarda muallif tomonidan nomlanmagan. Shu sababli bu borada adabiyotshunoslikda turli-tumanlik ko‘zga tashlanadi. Shoira asarlari “Kitobi Uvaysiy”, “Karbalonoma”, “Qissayi purg‘ussa” kabi turlicha nomlanadi. Adabiyotshunos olima E.Ibrohimova “Shahzoda Hasan haqidagi doston”, “Shahzoda Husayn haqidagi doston” deb nomlashni taklif etadi<sup>281</sup>.

XIX asr birinchi yarmi dostonchiligi yetuk namunalaridan biri Uvaysiyning Shahzoda Hasan haqidagi dostonidir. Asarda shoira adolatli va sulhparvar hokim Hasan obrazini yaratgan. Dostonning asosiy mohiyati yaxshilik va adolatni targ‘ib etishdir. Asar mazmunan diniy mavzuga bag‘ishlangan. Shahzoda Hasanning hayot yo‘li tasvirlangan. Ammo, shoiraning asardan maqsadi faqat bu emas. Unda ham she’riyatidagi kabi zamondoshlarining ko‘zini

<sup>281</sup> Э. Иброҳимова. Увайсий достонлари жаҳида. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, 1960, 6-сон, 38-44-бетлар.

ochish, moziydan olingan saboq bilan ularga ko'zgu tutish shoiraning asosiy niyati edi. Asardagi bosh g'oya Hasan obrazida mujassamlashtiriladi. Timsolning ikki qirrasi bor. Birinchisi, podshoh sifatidagi xarakter tizimi bo'lsa, ikkinchisi oddiy inson, shaxs sifatidagi qiyoferasi.

Shoira bosh timsolning ikki yo'nalishdagi siyratini ham mukammal yoritib bera olgan. Asarda uni har tomonlama komil xulqu atvorga ega inson sifatida tasavvur eta olamiz. Bir o'rinda Hasanning shaxs sifatidagi fe'l-atvori shunday yoritiladi:

*Ilmu karamu suxan liynidin,  
Bo'ldiki manoqib ichra yaqin.  
Ham toatu ibodat angadur xos,  
Jonu dil birla xaloyiq etti ixlos.  
Xushxo 'yluqi kitoba sig'mas,  
Shirin so 'ziniki xalq bilmas.  
Ham erdi malihu, ham fasihdur,  
Yer yuzida go 'yoyo Masihdur<sup>282</sup>.*

Mazkur doston shoiraning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 1837-raqamli devoni yagona nusxasining oxirida kitobat qilingan. Devon qo'lyozmaning 187-sahifasida tugaydi. Uning tartib berilgan sanasi hijriy 1274, milodiy 1857-yil, kotibi Muhammadshoh Yunusxon ibn Eshonxoja Eshon ekanligi e'tirof etiladi:

*"Raqam qildi Muhammadshoh Yunusxon  
Ki, nuri chashm Eshonxoja Eshon- 1274/1857".*

Bir necha bo'sh sahifalardan keyin 189-bet qo'yilib, "Qissayi Imom Hasan" dostoni boshlanadi. Doston nomi kotib tomonidan emas, balki sahifalovchi tomonidan, qalamda yozilgan. 190-betdan boshlab asosiy matni basmala bilan boshlangan. Asar

<sup>282</sup> Киссай Имом Ҳасан. Ўзбекистон ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти кўлэзмалар фонди. Инв. рақам 1837/1, 201-202-бетлар. Кейинги парчалар мазкур манбадан олинниб, факат саҳифаси кўрсатилади.

aniq, chiroyli, savodli ko'chirilgan. Hoshiyalarda deyarli yozuvlar yo'q. Ba'zi o'rnlardagina ayrim imlo xatolari hoshiyada tuzatib ketilgan, xolos. "A" sahifada poygir qo'yilgan. Ammo, "B" sahifada bu hol ko'zga tashlanmaydi. Har sahifada 17 baytdan, faqat 1-sahifada (190-bet) 13 bayt, 2-sahifada (191-bet) 15 bayt matn berilgan.

Dostonning hajmi 1450 misra, 725 baytdan iborat. U 26 misra hamd va 20 misra na't bilan boshlanadi. Keyin 48 misrada chahoryorlar tavsiflanadi. So'ngra dostonning asosiy syujeti bilan bog'liq voqealar bayoni boshlanadi. Dastlab Imom Hasan va Husaynning tug'ilish tarixi, ism tanlash jarayonlari dramatik sahna darajasida mahorat bilan tasvirlab beriladi.

Uvaysiy doston manoqiblar asosida yozilganligini alohida ta'kidlaydi:

*Ko'bdurki manoqib ichra bu so'z,  
Gar ummat esang, eshit tikib ko'z<sup>283</sup>.*

Shoira ta'kidlaganidek, Imom Hasan va Husayn hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar juda ko'p manoqiblar orqali yetib kelgan. Xalq orasida ularning murakkab, zahmatli va sharaflı umr yo'llari borasida qiziqarli hikoyatlar keng tarqalgan. Shu sababli ular asos bo'lgan ko'plab nasriy va nazmiy yo'ldagi badiiy asarlar yaratilgan. Ularning dunyoga kelishiga tarixiy voqealar asos bo'lgan bo'lsa-da, ma'lumotlarni sof tarixiy aspektda qabul qilib bo'lmaydi. Chunki ular ijodkorlar tomonidan qayta ishlangan. Zamondoshlariga hayot mashaqqatlari, kemistikliklari oldida o'zini yo'qotmaslik, ularni jasorat va mahorat bilan yengib o'tish yo'llarini ko'rsatishda, aka-uka imomlar hayotini ibrat va saboq sifatida namuna etib tasvirlashgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu tipdag'i dostonlarning yaratilishida Koshifiyning yoki Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Sobir Sayqaliy dostonlarining ta'siri bo'lgan. Ammo mazkur dostonlar bilan qiyoslaganimizda, Uvaysiy asarlarining ulardan

<sup>283</sup> Ўна асап, 197-бет.

farqlanuvchi o‘rinlari ko‘pligini ko‘ramiz. Bu esa shoira yaratgan dostonlar original asarlar bo‘lib, unda ijodkor mahorati to‘la namoyon bo‘lganligini ko‘rsatadi:

1. Avvalo, ular turli vaznlarda yaratilgan. Sobir Sayqaliy asari (1793-1796) hazaji musammani maqsur (mafoilun - mafoilun - faulun), Uvaysiy dostoni esa hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yozilgan.

2. Sayqaliy dostonida tasvirlangan voqealar Uvaysiy asariga nisbatan qisqa. Uvaysiyda shahzoda Hasan hayoti bilan bog‘liq rivoyatlar son jihatdan ko‘proq va voqealar batafsilroq bayon etiladi. Jumladan, asar Hasanning tug‘ilishi, unga ism tanlanishi haqidagi rivoyatlar bilan boshlanadi. Sayqaliyda esa voqealar bir oz keyinroq, padari buzrukrori hazrat-Alining vafoti va o‘rniga shahzoda Hasanning Ko‘fa hokimi bo‘lishi bilan boshlangan.

3. Sayqaliy dostonida Hasanning Mavsilga do‘sti uyiga borishi, u erda 3 marta zaharlanishi; Keyinchalik xotini tomonidan 3 marta zaharlanishi va vafoti, ayolining jazolanishi voqealarini bayon etilgan. Uvaysiyda esa Hasanning hokim bo‘lgani, Shom hokimi Muoviyaning Ko‘fa ustiga 60.000 lashkar bilan hujum qilgani, Hasanning 40.000 lashkar bilan unga qarshi borgani haqidagi voqealar ham batafsil bayon etiladi. Shoira Hasanning sulh tarafdori bo‘lganiga katta urg‘u beradi. U o‘zining shon-shuhratini o‘ylamay, xalqning qoni behuda to‘kilmasligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Shu munosabatlar bilan shoira shahzodaning go‘zal xulqi, komil axloqini ta’riflaydi. Hasan tilidan zamondoshlari uchun ibratnomasi yaratadi:

*El sudini istagum shabi ro ‘z,  
Bu so ‘zni deyman shahi dilafro ‘z.  
Oldimda bu el salomat o ‘lg ‘ay,  
Yo ‘q xohishim o ‘lsa el parishon,  
To bo ‘lmasa fitna, bo ‘lsa imkon.  
Gar fitnalig ‘ sulh behroq,  
Har vaqt degan Imomi ofsoq<sup>284</sup>.*

<sup>284</sup> Yma acap, 204-бет.

Mazkur tasvirlar, ma'lum ma'noda, asar voqealarini shoiraning zamonasi bilan bog'laydi. Uning ijtimoiy jarayondagi toj-taxt uchun, davlat uchun kurashlarga munosabatini ko'rsatadi. El tinchligi, xotirjamligi, salomatligini muhim o'ringa qo'yganligi sezilib turadi.

4. Sayqaliyda Hasanning ayoli Asmo deb ataladi. Uvaysiyda esa Ju'da deya nomlanadi (shoirada Asmo shahzodalarining enaga – doyasi sifatida tasvirlanadi). Sayqaliyda Asmoning qattiq jazolangani tasvirlansa, Uvaysiyda bu jarayon yoritilmaydi. Shoira dostonida voqeа oldinroq – Hasanning zaharlanganidan so'ng Jo'da bilan xoli suhbatini tasvirlash orqali yakunlanadi. Hasanning vafot etishi ham tasvirlanmagan. Doston yakunini o'qiganda, dastlab mazkur asar ham tugallanmay qolganmikin, degan savol paydo bo'ladi. Ammo biz Uvaysiy dostonni, balki shunday yakunlashni ma'qul ko'rgandir, undan yakun va saboq chiqarishni o'quvchining o'ziga qoldirgandir, degan xulosaga kelamiz. Qo'lyozmada dostondan so'ng shoiraning yana bir asari "Voqeoti Muhammadalixon"ning keltirilishi ham "Shahzoda Hasan"ning yakunlanganligini ko'rsatib turadi.

Uvaysiy dostonida shahzodalarining hayoti bilan bog'liq rivoyatlardan bir nechtasi bayon etib beriladi. Dastlab ularning yo'qolib qolish hodisasi rivoyat qilinadi. Shoira mazkur rivoyat ibn Abbos tomonidan so'zlanganini ta'kidlaydi. Ibn Abbos uchta tafsir maktabidan Makkayi mukarrama maktabining ustozи, ulug'sahobalardan biri edi. Keyin Hazrati Alining shahid bo'lib, Ko'fa taxtiga shahzoda Hasanning o'tirishi, bundan foydalanib, doimiy ziddiyatda bo'lган Shom hokimi Muovoviya lashkar tortib kelishi voqealariga alohida e'tibor beradi. Ko'rindaniki, Uvaysiy rivoyatlarni aniq manbalar, aniq shaxslar bilan bog'liq holda, sahihligiga ishonch bilan keltiradi.

Doston kompozitsiyasi o'ziga xos. Asosiy syujet bayon etilar ekan, o'rni bilan lirik chekinishlar beriladi. Ular ba'zan shoir tilidan, ba'zan esa bosh qahramon – Hasan tilidan bayon etiladi. So'ngra xalq dostonlari uslubiga o'xshab, roviyga murojaat etilib, yana yetakchi syujetga qaytiladi:

*Roviy qalamingni tez yuritgil,  
Xunobayi jigardin oncha yutgil...<sup>285</sup>*

**Yoki:**

*Roviy yana so 'z boshig 'a kelg 'il,  
Shahzoda karomatini ayg 'il...<sup>286</sup>*

Lirik chekinishlarning dostonda muhim o'rni bor. Ular ham asar syujetiga xizmat qiladi, ham lirik munosabat vazifasini bajaradi. Go'yoki, voqealarni shoira zamoni bilan bog'laydi. Ularga shoiraning munosabatini ko'rsatadi.

Lirik chekinishlar turli janr va shakllarda berilgan. G'azal, masnaviy, fard ko'rinishlari uchraydi. Fard janri bir o'rinda qo'llanadi. U hazaji musammani solim vaznida (*mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun*; *V - V - V - V - V -*) yozilgan.

G'azal janrida berilgan lirik chekinishlardan so'ng ham fikrlar to'g'ridan-to'g'ri doston syujetiga bog'lanib ketaveriladi:

*Ammo dedilarki hol tilida  
Kechdiki bu bayt pok dilida:*

*"Vafo ko 'z tutmag 'il eldinki olamin vafosi yo 'q,  
G'arib o 'lmay netar ya 'ni kishi gar asnosi yo 'q.  
Tutub hurmat kanora, el arosidin vafo ketti,  
Bu kun uzgil ko 'ngil har ikkisidinkim baqosi yo 'q.  
Nazar solsang agarchandeki bu yolg 'onchi olamg 'a,  
Aning juz dardi ranji mehnat javri jafosi yo 'q "<sup>287</sup>.*

Mazkur lirik chekinish g'azal janrida yaratilgan. U hazaji musammani solim vaznida yozilgan. G'azalning bosh qahramon tilidan berilishi bejiz emas. Mazkur vazn Hasan dilidagi dard va iztirobni yetkazishda muhim vazifani bajaradi. Bosh qahramonning olam va odam borasidagi falsafiy fikrlari umumbashariy mazmunga ham ega bo'ladi.

<sup>285</sup> Уш асар. 212-бет.

<sup>286</sup> Уш асар. 210-бет.

<sup>287</sup> Уш асар. 207-бет.

Ba'zi o'rirlarda lirik chekinish shoir tilidan ham beriladi. Jumladan, do'sti tomonidan berilgan 3 marta zaharning ta'sir qilmagani, do'stining Shomga Muoviyaga xat yozishi, uni olib borgan kishini yo'lda bo'ri eb ketishi voqealaridan keyin berilgan lirik chekinishlar shoir tilidan beriladi. U Hasan va do'stining munosabati hamda uning oqibatlaridan umumlashtiruvchi xulosa, saboq chiqaradi. Bu barcha zamonlarda insonlar uchun ibrat va yo'llanma vazifasini bajaradi:

*Gar qilsa sitam kishi kishig 'a,  
Go 'yo sitam aylamish o 'zig 'a<sup>288</sup>.*

Bu o'rinda shoir tilidan berilgan lirik chekinish doston vazni bilan bir xil. Dostonda turli vaznlardan foydalanish asarning umumiyligi ritmiga, undagi ruhiy holat va jarayonlarni ochib berishga xizmat qilgan. Qo'llangan vaznlar va janrlar tasodifiy emas. Balki ularning barchasi ma'lum maqsadni nazarda tutib qo'llangan. Muallif fikrlarini yoritishda muhim o'rin egallagan.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida dostonlar, asosan, 7ta vazn doirasida yaratilgan. "Epik poeziyada keng qo'llangan vazn hazaji musaddasi mahzuf vazni" hisoblanadi<sup>289</sup> Ammo, Uvaysiy o'z dostoniga vazn tanlaganda, asar mazmunidan kelib chiqqanligini ko'ramiz. Bu borada shoira ustoz shoir Navoyi yo'lidan boradi. Bizga ma'lumki, "Layli va Majnun" dostoni syujet nuqtayi nazaridan tragik xarakterga ega. Shu sababli u mahzun ruhiy holatni ifodalashda qulay bo'lgan hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (*maf'ulu - mafoilun - fauvlun; - - VV - V - V - -*) vaznida yozilgan. Uvaysiy ham mazkur dostonidagi syujetning mahzun va fojiali tugallanmasini hisobga olib, uni "Layli va Majnun" yozilgan vaznda, ya'ni hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzufda yaratadi. Ayrim o'rirlarda esa ruhiy holatning turli tovlanishlarini ifodalash maqsadida hazajning boshqa shakllaridan ham foydalanadi.

<sup>288</sup> Ўша всар, 209-бет.

<sup>289</sup> Д.Юсупова. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунылги. Т.: Мумтоз сўнг. 2011. 98-бет.

Shoira dostonini yaratishda xalq dostonlari uslubi va kompozitsiyasidan foydalanish bilan birga, xalq maqollarini ham o‘rni bilan qo‘llaydi:

*“Chah qozsa kishi kishig‘a, ey yor,  
O‘zi yiqilur”, -degan masal bor*<sup>290</sup>.

Shoira dostondagi timsollar va voqealarni tasvirlar ekan, ularning har biriga o‘ziga xos nuqtayi nazardan, o‘zgacha maqomdan yondashganligi seziladi. Jumladan, Shahzoda Imom Hasan timsolini tavsiiflar ekan, mumtoz adabiyotdagi an’anaviy uslubdan foydalanadi. Uning qiyofasiga chizgilar an’anaviy tashbehtar, qiyoslar va badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi:

*Keldilar imomi shahsuvori,*

*Kun xira etardi guluzori.*

*Qul erdi sanubar ul xiroma,*

*Abro ‘sig‘a chok erdi xoma.*

*Mah erdi qoshida soya yanglig‘,*

*Lab olida la ‘l sangi xora yanglig‘.*

*Zulfin qoshida xas erdi sunbul,*

*Lafzi olida gung erdi bulbul*<sup>291</sup>.

Syujetdagi asosiy voqealar bayonida bunday hol kuzatilmaydi. Shoira so‘zning jimjimador badiiy tovlanishlarini qo‘llashdan saqlanganligi seziladi. Bizningcha, muallif o‘quvchiga syujetni aniq va tushunarli etkazib berish maqsadida shunday yo‘ldan borgan.

Adabiyotshunoslikda Uvaysiy dostonlariga turlicha baho berilgan<sup>292</sup>. Ayrim tadqiqotlarda shoira dostonlari lirik she’riyatiga qaraganda badiiy mahorat nuqtayi nazaridan sayozroq, degan qarashlar ham mavjud: *“Har ikkala doston ham badiiy jihatdan*

<sup>290</sup> Ушасар, 212-бет.

<sup>291</sup> Ушасар, 214-бет.

<sup>292</sup> В.Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: 1980; А.Қаюмов. Кўқон адабий мухити. Т.: 1961; Э.Иброҳимова. Увайсий ижодига доир. Филология фанлари номзоди илмий дарражасини олиш учун ёзишган диссертация. Т.: 1960.

*uncha yetuk asar emas. Ammo ulardagi she'riy parchalar anche diqqatga sazovordir*<sup>293</sup>. Ammo, bunday mezonlarning barchasini Oybekning xulosalari, ma'lum darajada, muvozanatga keltiradi. Uning asarlari haqidagi tasavvurimizni tiniqlashtiradi: "Ammo, badiiy jihatdan shoiraning dostonlari g'azallaridan past turadi deyish, menimcha, to'g'ri emas. Shoiraning Hasan va Husayn dostonlari g'oyat mohirlik bilan yozilgan badiiy yuksak dostonlardir. Diniy kayfiyat ko'p, lekin shoir samimi hislar, nozik tuyg'ular, chuqur kechinmalar egasi bo'lganligidan bu asarlarni yurak bilan yaratgan"<sup>294</sup>. Biz dostonni o'rganganimizda, Oybekning fikrlari asossiz emasligining guvohi bo'ldik. Balki, davr taqozosi bilan, uning diniy hikoyatlar asosida yaratilgani shunday baholanishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Ammo, asarni syujet, kompozitsiya, badiiy sayqaldorlik, mazmun va g'oyaviylik jihatidan kuzatsak, badiiyatning yuksak talablariga javob bera oladigan asar ekanligining guvohi bo'lamiz.

Doston voqealari tragik kayfiyatda yakunlanadi. Prof. A. Qayumov buni quyidagicha talqin etadi: "Dostonning asosiy g'oyasi yaxshilik va adolatni targ'ib etishdir. Ammo voqealarning mantiqiy rivoji yomonlikning yaxshilik ustidan g'alaba qozonishiga olib keladi. Bu, ma'lum darajada, Uvaysiyning o'zi yashagan zamonaga bergen xarakteristikasi edi"<sup>295</sup>. Go'yo, Hasanning vafot etishi bilan yovuzlik ezgulik ustidan g'olib kelgandek tasavvur hosil bo'ladi. Ammo, shoir tarixiy voqeа asosida yaratilgan dostonдан o'zining ezgulik haqidagi qarashlarini ifodalash maqsadida foydalangan. Shoir nuqtayi nazaricha, ezgulik, yaxshilik har doim g'olib. Uning g'alabasi mangu barqarorligida, boqiyligida. Yovuzlik hamisha mag'lub. Uning mag'lubiyati ezgulik tomonidan fosh etilishida Xalqning unga nisbatan cheksiz nafratida. Uvaysiy o'zining mahorati bilan ana shu qarashlarini o'quvchi ko'ngliga ko'chira olgan. Shu sababli doston yakunlanganda, ko'nglimizda ezgulikning boqiy g'alabasiga ishonch tuyg'usi ulg'ayayotganini his qilamiz. Bu esa shoira

<sup>293</sup> Ўша асар, 249-бет.

<sup>294</sup> Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами. Т.: 1985. XIII том, 402-бет.

<sup>295</sup> А.Қаюмов. Кўқон адабий мухити. Т.: Фан, 249-бет.

mahoratidandir. Qolaversa, shoira real tarixiylik tamoyiliga qat'iy amal qilgan. Voqelikni o'z holicha saqlab, uni real tarzda, badiiy ta'sirchan shaklda tasvirlashga erishgan.

Ko'rindiki, Uvaysiyning "Qissayi Imom Hasan" dostoni shu mavzudagi boshqa dostonlardan ko'plab o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Dostonda shoiraning vazn tanlash, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish tamoyillari o'z ifodasini topgan.

Doston bugungi kunimiz uchun ham xalq g'ami bilan yashash, ezzulik, saxovat, kechirimlilik, fidoyilik kabi umumbashariy komil axloq g'oyalarini targ'ib etuvchi asarligi bilan katta ahamiyatga molik.

"Voqeoti Muhammadalixon" dostoni Uvaysiy "Devon"i bilan birga bitta muqova ichida ko'chirilgan. U tugallanmagan holda etib kelgan. Sharqshunoslik institutida 1837-inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu dostonning matni 14 sahifadan iborat (233-246-betlar). Har bir sahifada 22 qatordan yozuv bor. Demak, dostonning bizga etib kelgan qismi 208 misra, 104 baytdan iborat. Asarning dastlabki baytlari hamd va na'tdan iborat. Keyin Muhammadalixon, uning nasl-nasabi haqida ma'lumot beriladi. Tarjimayi holidagi ayrim muhim nuqtalar eslanadi. Taxtga o'tirish sabablari aytib o'tiladi. Va nihoyat, doston yozilishiga sabab bo'lgan asosiy hodisa – Koshg'arga g'azot qilish voqeasiga e'tibor qaratiladi.

Asar uslubida xalq dostonchiligiga xos xususiyatlar ko'zga tashlanadi.

Ammo doston yakunlanmaydi. Buning sababi haqida hech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Ammo, taxminan aytish mumkinki, uning tugallanmaganligi mazkur urushda Muhammadalixonning mag'lubiyatga uchrashi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ushbu yurish borasida Hakimxon To'raning "Muntaxab at-tavorix" asarida batapsil ma'lumot beriladi: "*Falakning katta ayiq yulduzigacha boshini etkazib turgan baland tog'lardan oshib, necha bir azobu uqubatda yo'l bosgancha, ancha masofalarni ortda qoldirishdi va nihoyat Koshg'ar viloyatiga etib borishdi.*

*Durhol Koshg'ar viloyatini nazorat ostiga olib, ertasiga Gulbog' qal'asini uzuk qoshi kabi o'rab, qamal va urush ishlarini boshlab yuborishdi. Shu zayl kunlar o'tib, qamal muddati uch oyga cho'zildi. Hech bir tadbir bilan Gulbog' qal'asini egallash tuyassar bo'lavermadi. Noiloj bir necha ming xalqni ko'chirib, egik bosh bilan Xo'qandga qaytib ketishdi*<sup>296</sup>.

Dostondan anglashilishicha, g'azot urushiga yo'lga tushilishi bilanoq, Uvaysiy g'alabaga umidvorlik bilan asarni yozishga kirishadi. Ammo natija kutilgandek bo'lмаганидан keyin, bizningcha, shoira uni davom ettirishdan tiyiladi. Ammo shunga qaramasdani, doston Uvaysiyning dostonnavislik salohiyatini belgilash, mahorat qirralarini aniqlash borasida muhim manba ekanligi bilan qimmatga ega.

Dostonda bir nechta obrazlar bor. Ularning tabiatini, ayniqsa, Muhammadalixonning fe'l-atvori yorqin ifodalananadi.

### *Tayanch tushunchalar:*

*Tajalli, vahdat, ramz, may, Karbalonoma, an'ana, sayyor syujet, vazn, manoqib.*

### *Savol va topshiriqlar:*

1. Shoira hasbi holi haqida so'zlang.
2. Ijodkorning adabiy merosi.
3. She'riyati ko'lami, qo'lyozmalari borasidagi fikrlaringizni bayon eting.
4. Shoira she'riyatining g'oyaviy xususiyatlari haqida gapiring.
5. Lirik qahramon zamona va ijtimoiy muhitning tipik vakili ekanligini qanday tushunasiz?
6. Uvaysiy she'riyatida ishq talqini haqida so'zlang.
7. Shoira she'riyatida badiiy san'atlarning ma'no bilan uyg'unligi va ularning qo'llanilishidagi mahorat.

<sup>296</sup> Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтажаб ат-таворих. Т.: Янги аср авлоди. 2010, 629-бет.

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. *Uvaysiy. Devon.* T.: 1959.
2. *Uvaysiy. Devon.* T.: 1963.
3. *Uvaysiy. Ko'ngil gulzori.* T.: 1983.
4. *Uvaysiy. T.*: 2013.
5. *O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi. 3-jild.* T.: 1959.
6. *Uch shoira.* T.: 1958.
7. *T.Jalolov. O'zbek shoiralari.* T.: 1975.
8. *Bakir Yulduz. Karbalo fojiasi.* T.: 1993.

**XEVA ADABIY MUHITI**  
**ABULG‘OZI BAHODIRXON – YETUK TARIXNAVIS**  
**(1603-1664)**

**Reja:**

1. Xeva adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Manbalar. Ularni o‘rganish tamoyillari.
3. Abulg‘ozi Bahodirxon ijodining jahon va o‘zbek adabiyotidagi o‘rnii.
4. Tarjimayi holi.
5. Adabiy merosi.
6. “Manofe’ ul-inson” asari.
7. “Shajarayi tarokima” asari.
8. “Shajarayi turk” asari jahon ilmida e’tirof etilgan qomusiy asar.

Shayboniyxon bosqini arafasida Xorazmda qo‘ng‘irotlar qabilasidan chiqqan Chin So‘fi hukmdor edi. Uning mustaqillik uchun kurashi Muhammad Solihning “Shaybonynoma” dostonida badiiy ifodasini topgan. Chin So‘fi vatanining sodiq farzandi va himoyachisi, mard o‘g‘loni ekanligi, uning mazkur jangu jadalda ko‘rsatgan jasorati borasida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z “Boburnoma”sida havaslanib so‘zlaydi. Uni ko‘klarga ko‘tarib alqaydi<sup>297</sup>.

1505-1506-yillarda Shayboniyxon, Eron podshohi shoh Ismoyil tomonidan Xorazm bosib olinadi. Ammo, bu qadim va muazzam yurt xalqi mustaqillik uchun qattiq kurashadi. 1511-yilda Eron qo‘smini butkul mamlakat hududidan quvib chiqarildi. Taxtga Shayboniylar sulolasidan Berka Sultanning o‘g‘li Elbarsxon o‘tqazildi. Xorazm mustaqil davlatga aylandi. U endi Xeva xonligi deb atala boshlandi. Poytaxt Vazirdan Urganch shahriga ko‘chirildi. Arabmuhammadxon (1602-1621) davrida Amudaryo o‘zanining o‘zgarishi munosabati bilan poytaxt Urganchdan Xevaga ko‘chirildi.

<sup>297</sup> Бобур. Бобурнома. Т.: 1989.

*Xeva adabiy muhitining xususiyatlari.* Xeva adabiy muhiti Xeva xonligi saroyida shakllandi, taraqqiy topdi. Uning gullab yashnagan davri XIX asrga to‘g‘ri keladi. Bu asrda Xorazmda madaniyatning turli yo‘nalishlari rivojlana boshlaydi. Musiqa va musiqashunoslik takomili, teatr san‘atining ko‘rinishlari bazm, sayl, masxarabozlik, marosim shakllarida ko‘zga tashlanadi.

Kitobat va xattotlik san‘atining o‘ziga xos maktabi vujudga keladi. Ko‘p qo‘lyozmalar ko‘chiriladi. Kotiblar bu ishda ularning janr xususiyatlariga ham e’tibor berganlar. “Bayozi g‘azaliyot”, “Bayozi muxammasot” kabi alohida janrlardan iborat majmualar ham ko‘chirilgan. Devonlar jamlangan. Eng muhimi, xattotlik san‘atining nazariy-ilmiy qoidalariga bag‘ishlangan maxsus risolalar ham yaratilgan (Munis. “Savodi ta‘lim” risolasi ).

Tarjima ishlariga katta e’tibor qaratildi. Jahon adabiyotining ko‘plab nodir namunalari arab, fors, usmonli turk tillaridan o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girildi. XIX asrda 170dan ortiq noyob asarlar tarjima qilingan. Birgina Ogahiyning 20ga yaqin badiiy, tarixiy, ilmiy-axloqiy asarlarni tarjima qilishiyoq, bu davr tarjimachilik miqyosini ko‘rsatib bera oladi. Ogahiy Xorazmda erkin tarjima maktabini shakllantirdi. Tarjimachilikni takomillashtirdi.

Tarjima bilan bog‘liq ravishda adabiy aloqlar ham rivojlandi. Jomiy, Bedil, Fuzuliy, Sa’diy kabi qardosh xalq shoirlarining asarlari ham muxlislarni o‘ziga rom eta oldi.

Tarixnavislik yangi bosqichga ko‘tarildi. Ularni yaratish Munis, Ogahiy, Bayoni misolida silsilaviy tus oldi. Abulg‘oz an’analari munosib davom ettirildi. Daho shoirlarimiz mahorati tufayli tarixiy asarlar o‘zbek nasrining ham noyob namunalariga aylandi. Litografiya, kino san‘ati kirib keldi.

Tazkiranevislikka e’tibor berildi. Ahmad Tabibiy tomonidan yaratilgan «Majmuat ush-shuar» tazkirasи, Bayoni tuzgan “Haft shahzoda” nomli majmualar bu davr adabiy muhiti va adabiyot ko‘lamini yoritishda muhim ilmiy qimmatga ega. Laffasiy tomonidan yaratilgan tazkira ham, keyingi davrlarda yaratilgan bo‘lsa-da, davr adabiy jarayonini tasavvur etishimizda asosiy manbalardan. Shu bilan bir qatorda, ushbu tazkira, majmualar

adabiyotshunoslik tarixi, unga oid asarlarning yaratilish sabablari va jarayonlari haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan, Laffasiy o'z tazkirasida Muhammad Rahimxon II ning nevarasi Saidnosir To'ra Sultoniy hayoti va ijodi haqida yoza turib shunday xabar beradi: "*Feruzshohiy dog'i (Sultoniyning-N. J., I. A.) ko'b she'rlarini muvofiqi tab' ko'rub Muhammad Yusufbek Bayoniyg'a farmon qilib, tamomi "Haft shahzoda" ismida bir majmua – devon chof qildiradur*"(22-bet).

Xeva adabiy muhitida Navoyiga ehtirom, uning an'analarini davom ettirishga intilish kuchli edi. Navoyi asarlariga ko'plab tatabbular, taxmislar yaratildi. Dostonchilik taraqqiyotida ham Navoyi dostonlariga ergashish ko'zga tashlanadi. Shoir dostonlarining nasriy bayonlari (Umar Boqiy "Nasri xamsayi benazir") maydonga keldi. Xalq kitoblari yo'nalishidagi "Sanobar", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Yusufbek va Ahmadbek" kabi dostonlar ham yaratildi.

Xeva adabiy muhitining eng gurkiranigan davri Muhammad Rahimxon II-Feruz zamoniga (1845-1910) to'g'ri keladi. Uning rahnamoligi, homiyligi baquvvat adabiy jarayonning shakllanishini ta'minladi.

*Manbalar. Ularni o'rganish tamoyillari.* Mazkur adabiy muhitning adabiyotshunosligimizda o'rganilishi va asosiy manbalarini ham qisqacha sarhisob qilib o'taylik.

Laffasiy Hasanmurod Qorining "Xeva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari" tazkirasida Xeva adabiy muhitini yoritishga xizmat qiluvchi ishonchli manbalardandir. U 1944-yilda yozilib, O'zR FA Sharqshunoslik institutida A. Murodov tomonidan 1951-yilda ko'chirilgan nusxasi 9494-raqam bilan saqlanayotgan bo'lsa-da, mohiyatan, XX asr boshlarigacha bo'lgan Xeva adabiy muhitini yoritadi.

Tazkirada Xeva saroy adabiy muhitining keng manzarasi, adiblarning tarjimayi hol va sarguzashtlari, an'anaviy nazm namunalari aks ettirilgan. Tazkiradan 50dan ortiq shoirning hayoti, ijodi, o'zaro munosabatlari, adabiy muhitda tutgan o'rni,

xizmatlari, merosi haqida ma'lumot olish mumkin. Mazkur manba ixcham adabiy-qomusiy ma'lumotnomma vazifasini o'tab keladi.

Tazkira muallifining shoir va xon Feruz haqidagi mana bu so'zлari davr adabiy muhitining umumiy bir ko'rinishini gavdalantiradi: "*O'ziga Feruz taxallusi bilan bir rang g'azallaru muxammaslar yozib xeylig'ina adabiyotda mashq'ulot hosil qiladur. Shuning bilan birga Feruz musiqiyg'a ham havaskor bo'lub hamma vaqtlar xizmatida besh-o'n musiqashunoslar doimiy tanbur, g'ijjak, bulobonlar mashq etib, yaxshi, shirin, farahafzo ash'orlar aytishib o'lturadurlar. Shul sababli, Feruzning tab'ig'a muvofiq, Feruzg'a qo'shimcha payravona g'azal, muxammas, musaddas va hajviyotlar yozib turadurlar. Doimo Feruzning xizmatida o'ttuz-qirq nafar shoir va adabiyot suyuvchilar bo'lub, alardin ba'zilari doimiy kotiblig' qilib, har rang kitoblarini yozib va tarjima etib turadurlar*"(12-bet). Bundan anglashiladiki, san'at va adabiyotning turli qirralari baravar rivojlanishi uchun Xeva adabiy muhitida tabiiy sharoit muhayyo bo'lgan.

XIX asr II yarmi Xorazm adabiy muhitini maxsus yoritishga bag'ishlangan yagona kitob "Avaz va uning adabiy muhiti"<sup>298</sup>dir. Kitobning "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda madaniy va adabiy hayot" deb nomlangan birinchi bobি filologiya fanlari nomzodi N.Qobulov tomonidan yozilgan bo'lib, unda mavjud manbalardagi ma'lumotlar umumlashtirilgan, adabiy muhitning umumiy ruhini, ijodkorlarning adabiy qiyofasini yoritishga harakat qilingan. Ammo, tadqiqotda ko'ngil to'lmaydigan, shubhali o'rinalar ko'p. Badiiy parchalar asosidagina fikr yuritiladi. Chuqur tahlil etilmaydi. Masalan, Farrux, Murodiy kabi shoirlarning adabiy merosi yaxlit olinganda qanaqa ekanligi ochilmaydi. Adabiy muhit tadqiqotchisi daliliy xatolarga ham yo'l qo'ygan. Adabiyotni sun'iy ikkiga ajratish yo'lidan borib baholagan o'rinalar bor (15,21-betlar).

Xeva adabiy jarayonini yorituvchi manbalarning ba'zilari majmua, ma'lumotnomma ruhida, yana ba'zilari ilmiy tadqiqot yo'lida yaratilgan bo'lsa, Bayoniyning "Shajarayi xorazmshohiy" solnomasida tirik, harakatdagi adabiy muhitni kuzatish mumkin.

<sup>298</sup> Н.Қобулов ва бошк. Аваз ва унинг адабий мұхити.Т., 1987.

Bayoni bu asarda madaniy – adabiy muhitni maxsus tasvirlashni ko'zda tutmagan. Lekin u qalamga olgan voqelik sahnasida Xorazm madaniyatni namoyandalari bevosita hayot jarayonida ishtirok etadilar.

“Shajarayi xorazmshohiy”da Muhammad Rahimxon soniy sultanatining birinchi kuni tasviridayoq Xorazm xonligi saroyidagi adabiy muhit manzarasi bilan tanishish mumkin: “*Vaqtekim, Sayyid Muhammad Rahim bahodirxoni soniy sariri sultanatda qaror tutdilar, shuarov va fuzalo xayli juluslari uchun tarixlaru qasidalaru masnaviylar aytib, in'omi shohona va atoyi xusravonalaridin sarshor bo'ldilar*”(440-bet).

Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi xorazmshohiy” solnomasi qadim tariximizning mumtoz ko'zgusi bo'lishi bilan birga, XIX asr Xorazm ijtimoiy-madaniy muhitini ravshan aks ettiruvchi manba hamdir. U tarix va adabiyotshunoslik ilmiga muayyan aniqliklar kiritishga asos beradi. Asar ayrim siymolarimiz hayoti haqidagi qiziqarli tafsilotlarni ayon etadi. Xususan, hassos shoir Muhammadniyoq Komilning jasur jangchi, pahlavon sarkarda bo'lganligi hayotiy hodisalarda kuzatiladi.

Ayrim sahifalar saroy adabiy muhitidagi murosasiz kurash, raqobat, munofiqlik manzaralaridan guvohlik beradi.

Laffasiy tazkirasi “Shajarayi xorazmshohiy” ma'lumotlarini to'ldiradi. Har ikki asar birligida esa XIX asr Xorazmadabiy muhiti va undagi ijodkorlar haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi.

“Shajarayi xorazmshohiy”dan ijodi shu paytgacha deyarli o'r ganilmagan bir qancha shoirlar haqida ham ma'lumot olish mumkin. Jumladan, Iso To'ra ibn Rahimqulixon, ya'ni Xusraviy 1886-yili sayohatga chiqib ko'p mamlakatlarni sayr etgani, Istanbul, Makka, Quddus shaharlarini ziyorat qilib, 1887-yili Xevaga qaytib kelgani, 1889-yili vafot etgani, undan to'rt o'g'il qolgani haqida hikoya qiladi. Shu o'rinda muallif uning she'riy iste'dodiga baho berib o'tadi: «*Bu sayrlarida manzil-bamanzil borg'on erlarda ajoyibotu g'aroyibotdin ne ko'rsalar, kitobat qaydig'a kirguzub bir sayohatnomasi bitdilar va onda so'zni iboratoroliq bila bayon etib, balog'atning dodin berdilar. Ne*

*uchunkim, ul hazrat bir fozili suxandon va shoiri xushbayon erdilarkim, o'zlarin Xusraviy taxallusi bila mutaxallus etib, she'r ham aytur erdilar. Bayt ul-haramning ziyorati shavqida bir qasida ayitbdurlar, ushbu bayt andindur. Bayt:*

*Ey, xush ul davlatki, sa'y aylab safovu Marvda,  
Bo'lmoq Ismoyildek Minoda qurbanoni haram.  
Bu bayt ul qasidaning maqtaidur,bayt:  
Sayri gulshan Xusraviyga kelmasa xush,ne ajab,  
Orzu ko'nglidadur gashti biyoboni haram(497-bet).*

Ushbu parcha Xusraviyning badiiy iqtidori to‘g‘risida tasavvur uyg‘otishi bilan birga, o‘zbek mumtoz adbiyotidagi muhim adabiy janr – “Sayohatnoma” Xorazm adabiy muhitida ham mavjudligidan dalolat beradi. Xusraviy adabiy muhitida kattagina obro‘, martabaga ega bo‘lsa kerakki, uning vafotiga bag‘ishlab Komilday yirik shoir 20 baytli tarix yozadi.

“Shajarayi xorazmshohiy” bizni shoir Murodiy bilan ham tanishtiradi. Muarrix Murodiyning hayoti va vafoti haqida kuyinib yozar ekan, unga bag‘ishlangan bir g‘azalini keltiradi. 508 b varaqda joylashgan ushbu g‘azalning quyidagi ta’sirchan baytlarini e’tiborsiz qoldirish qiyin:

*...Bermading kimlarga sen yuz oli nayrang ila rang,  
Qilmading kimlarni yuz ming g‘adr ila turbatnishin?!  
Nomurod etting Murodiydek mukarram zotni  
Kim, edi gulzori ma‘ni ichra fikri xurdabin.*

G‘azalda jamiyat zulmidan, umrning nechog‘lik qisqaligidan (Murodiy 54 yoshida vafot etadi) fig‘on chekish, maslakdosh do‘sitan ajralish qayg‘usi, uning xotirasini e’zozlash tuyg‘ulari uyg‘un ifodalangan. Shuningdek, shoir bir satrda birgina ishora bilan Murodiy iste’dodining bahosini berib o‘tadi.

Xeva adabiy muhitiga Muhammad Rahimxon qanday ravnaq bag‘ishlaganini ham Bayoniy jonli bayon etgan: ”Xon hazratlari

*she'rga ko'p zavq paydo qilib erdilar. O'zлari ham burundin Feruz taxallusi bila mutaxallus bo'lib, she'r aytur erdilar. So'ngroq she'rga ko'proq haris bo'ldilar. Har kishining she'r aytmoqqa sahl qobiliyatları bo'lsa, nav'i she'r larini aytib dargohi oliyg'a olib bora berdilar. Shoirlarning adadlari kam-besh qirqg'a yovuq erdi" (509 a). Ma'lum bo'ladiki, Feruz tevarak – atrofdagi talantli shoirlarni shu erda to'plagan va ularga rahnamolik, homiylik qilgan. Natijada, o'ziga xos shoир, adib va san'atkorlar uyushmasi – madaniy-adabiy muhit barpo bo'lgan. Unda qalam tebratgan ijodkorlar madaniyatimiz tarixida muhim iz qoldirdilar.*

Masalan, Ahmad Tabibiydek yirik, sermahsul adibning yetishib chiqishi va "Majmuat ush-shuarо"deк nodir madaniy boylikning yaratilishi shu muhit yutug'i ediki, bu haqda ham Bayoniy qiziqarli shohidlik beradi: "Ali mahramning Ahmad otlig' bir o'g'li bor edi. U ham o'zini Tabibiy taxallusi bila mutaxallus etib, she'r aytmoq boshladи. Xon hazratlari o'z g'azallaridan 100 g'azalni shoirlarg'a berib buyurdilar: "Munga payravlik etib g'azal aytninglar". Shoirlarning har biri onga payravlik etib, 100 g'azal aytdilar. Xon hazratlari Tabibiyga amr etdilar, toki, ul g'azallarni masnaviy zimnida jam' qilib bir kitob etgil. Tabibiy farmoni mujibi bila amal qilib, ul g'azallarni jam' qilib, har g'azalni yozmoqchi bo'lg'onda, masnaviy bila ul g'azalni aytg'on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomi g'azallarni jam' qilib, tamom etib, ul kitobg'a "Majmuat ush-shuarо" ot qo'yuldi" (509 a).

Bayoniy "Majmuat ush-shuarо"ning yaratilishi tarixini nasriy yo'lda ifodalabgina qo'ya qolmay, bu hodisaga 26 misradan iborat nazmiy ta'rix ham bag'ishlaydi. Unda Tabibiy mazkur majmuani ikki yil mobaynida yaratganini aytib, bu adabiy hodisani "she'r dan qoldi olamda ot" deya baholaydi. Jamoaviy ijodiy mehnatning bunday umumlashtirilgan ko'rinishi umumjahon adabiyoti miqyosida ham kamyob hodisadir. Ammo, taassufki, adabiyotshunosligimizda u hanuzgacha e'tibordan chetda qoldirilib kelmoqda. Agar "Majmuat ush-shuarо" adabiy muhit mahsulini aks ettiruvchi manba sifatida tadqiq etilsa, XIX asr Xorazm adabiy

muhitining chinakam qiyofasi va saviyasi yanada oydinlashgan bo‘lardi.

Bayoniy Ahmad Tabibiyga ixlosini hurmat bilan e’tirof etadi. Uning inson va ijodkor sifatidagi qiyofasini qisqa satrlarda hayotiy chizib bera oladi. Asardan Tabibiy ijodkor sifatida qanday ishlarni amalga oshirgani, hayot tarzi qanaqa kechgani haqida ham qimmatli ma’lumotlar olish mumkin. Ushbu mo’tabar manbada adabiy muhit tirikligi, harakatchanligi bilan aks ettirilgan.

Mazkur adabiy muhitda ijodiy kamolotga erishgan yetuk allomalardan biri Abulg‘ozи Bahodirxondir. U o‘zbek xalqi taraqqiyoti va madaniyati tarixida muhim o‘rin tutgan davlat arbobi va ijodkor mutafakkirdir. Abulg‘ozи XVII asr I yarmida xalq manfaatini himoya qiluvchi, mamlakatni markazlashtirishga, har tomonlama rivojlantirishga intiluvchi – vatangashvar xon sifatida shuhrat qozondi. Umrini millat ravnaqi yo‘lida fido etdi. Qismatning murakkab zarbalariga mardona bardosh berdi. U ijodkor inson sifatida necha-necha avlodlarga ibrat bo‘lgulik iroda va matonatga, noyob va serqirra iste’dodga ega edi.

Abulg‘ozи taqdir yo‘lidagi g‘alayonli siyosiy talotumlardan ortib, g‘olib kelib, Xorazmda shajaraviy tarixnavislikka asos soldi. XVII asr o‘zbek ilm-fani, madaniyati, adabiyotining zabardast namoyandasasi sifatida Vatan tarixidan mustahkam o‘rin oldi. Uning izidan Munis, Ogahiy, Bayoniy kabi tarixchilar sulolasi maydonga keldi.

*Tarjimayi holi.* Abulg‘ozи Bahodirxon 1603-yil 23-avgustda Xorazm xoni Arabmuhammadxon oilasida tug‘ildi. U Arabmuhammadxonning yetti o‘g‘lidan biri edi. 1609-yil, 6 yoshligida onasi – Mehrbonuxonim vafot etdi. 1616-yil – 13 yoshligidan boshlab toj-taxt uchun kurashlar girdobiga tushdi. Shu yil og‘alari Habash va Elbors Sulton otalariga qarshi isyon ko‘tardilar. Otasi ularga Urganch yaqinidagi Vazir shahrini berib, fitnani tinchlantirdi.

Ammo, 1621-yil nizo urushga aylandi. Bir tomonda Arabmuhammadxon o‘g‘illari Asfandiyor, Abulg‘ozи, ikkinchi tomonda Habash va Elbors Sultonlar. Bu urushning oxiri fojia bilan

tugaydi. Habash va Elbors Sultonlarning qo‘li baland kelib, otalari Arabmuhammadxonning ko‘zlariga mil tortib, so‘ng qatl ettiradilar. Unga qo‘shib ukalari Xorazmshoh Sultonni (12 yoshda edi), Asfandiyorning 3 va 1,5 yoshli o‘g‘illarini ham o‘ldirtiradilar. O‘n yoshli ukalari Afg‘on Sultonni rus podshosiga surgun qilib yuborishadi. U Rossiyada 30yil yashab vafot etadi.

Asfandiyorxon qochib Eron podshohi Shoh Abbas huzuriga boradi. Abulg‘ozi oldida qolgan 10 kishisi bilan Mavarounnahrga ketadi. U Samarqandga Imomqulixon huzuriga boradi. U yerda ikki yil yashaydi.

Ikki yildan keyin Asfandiyorxon Habash va Elbors Sultonlardan Xorazmni qaytarib o‘z qo‘liga oldi. U xon deb e’lon qilindi. Ukalarini chaqiritirib Urganchni Abulg‘oziga, Vazirni Sharifmuhammadga berdi. O‘zi Xeva, Hazorasp va Katni boshqara boshladi. Ammo, bu bilan xonlik hududida osoyishtalik o‘rnatilmadi. Fitna, isyon, dushmanlik davom etdi. Hokimiyat uchun kurash to‘xtamadi. Parokandalik avjiga chiqqdi. Abulg‘ozi Xorazmdan bosh olib Turkistonga ketdi. Eshimxon huzurida uch oy turib, Toshkentga Tursunxon dargohiga bordi (Eshimxon taklifiga binoan). U yerda ikki yil turdi. Eshimxon Tursunxonni o‘ldirgandan so‘ng, Abulg‘ozi Buxoroga – Imomqulixon saroyiga qaytdi. Imomqulixonning Tursunxon bilan dushmanligi bor edi. Shu sababli bu gal u Abulg‘ozini xushlamay kutib oldi. Abulg‘ozi, natijada, u erda uzoq qololmadi.

Turkmanlar taklifiga ko‘ra, Abulg‘ozi Xevaga keldi. Ammo, Sharifmuhammad bilan Asfandiyor birlashib, Abulg‘oziga qarshi jang qildi. Hiyla va fitna bilan Asfandiyor, uni Eron hududiga bosqin qilishda ayblab, Eron shohi Safi’ I (1629-1642) huzuriga surgun qildi. Abulg‘ozi Eronda Obivard, Iroq, Hamadon, so‘ng Isfahonga yuborildi. Isfahonda unga bir hovli berilib, uy qamog‘ida saqlandi. U erda o‘n yil yashadi (1630-1639). O‘zining yozishicha, o‘n yil bo‘lganda, atrofida ishonsa bo‘ladigan uch kishigina bor edi. Ularning yordami bilan Isfahondan qochishga muvaffaq bo‘ladi. Uch yillik mashaqqatli sarson-sargardonlikdan so‘ng Orol o‘zbeklari orasiga yetib keladi (1642). 1643-yil ular

Abulg'ozini xon etib ko'tardilar. 1644-yil butun Xorazm xonligini egallahsga muvaffaq bo'ldi.

Shundan so'ng u umrining oxirigacha 20-yil hukmronlik qildi. Ammo, bu yillar ham unga osoyishta, halovatli umr kechirishga imkon bermadi. U goh Turkman urug'lari, goh Rus qozoqlari, goh qalmoqlar bilan kurashdi. 1663-1664-yillarda bir necha marta Buxoro hududiga yurish qildi. 1664-yilda Abulg'ozi xastalanib, taxtni o'g'li Abulmuzaffar val Mansur Anushaxon ibn Abulg'ozixonga topshirdi. Shu yil aprelda Abulg'ozi 60 yilu yetti oy umr ko'rib, vafot etdi.

*O'rganilish tarixi.* Abulg'ozining asarlari XIX asr I yarmidan boshlab, sharq, rus va g'arb olimlarining ham e'tiborini tortgan. «Shajarayi turk» Qozonda Rumyansev (1825), Sablukov (1854), Demezon (1871)lar tomonidan litografik usulda nashr ettirilgan. «Shajarayi tarokima» 1898, 1906-yillarda bir necha marta nashr qilingan.

1871-1874-yillarda P. N. Demezon «Shajarayi turk»ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Bu ishi unga shuhrat keltiradi. Asar Angliya va Amerikaga ham shu tarjima tufayli yetib boradi.

Abulg'ozi asarlarining tarixshunoslikdagi o'rni beqiyos. Ular turkman, tojik, o'zbek, mo'g'ul xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B. Ahmedov, Q. Munirov, K. Yusupov, Ya. G'u-lomov, M. Yo'ldoshev kabi olimlarimiz o'z asarlarida Abulg'ozi ma'lumotlaridan keng foydalanishgan. A. Kononov, A. M. Shcherbak, S. I. Ivanov kabi tilshunos olimlar ham tilshunoslikning turli muammolarini yechishda Abulg'ozi asarlariga suyanishgan.

O. Sharafiddinov, M. Yunusov, V. Abdullayevlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etishgan.

1950-yil K. Yusupov «XVII asrning I yarmida Xeva xonligi va Abulg'ozi» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi.

Abulg'ozi Bahodirxon asarlarining O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida bir qancha qo'lyozma nusxalari mavjud (inv. № 7668, 1228, 4017).

Mustaqillik yillarda «Tarixsiz kelajak yo'q» aqidasiga amal qilinib, Abulg'ozi kabi allomalarimiz faoliyati va asarlarini

o‘rganishga e’tibor kuchaytirildi. Tug‘ilgan yurti Xorazmda unga haykal o‘rnatildi. Asarlari chop etildi<sup>299</sup>. Halim Xudoinazarov Abulg‘ozи haqida bir qancha tadqiqotlar olib borib, risola va monografiyalar chop ettirdi<sup>300</sup>.

*Adabiy merosi.* Abulg‘ozи qat’iyatlар, talabchan hukmron sifatida mamlakatdaadolat va birdamlikni qaror toptirish yo‘lida fidoyilik ko‘rsatdi. Mayda manfaatlardan kelib chiqqan fitnalarni bartaraf etishga intildi. Uning xon sifatida mamlakat taraqqiyotida xizmati katta. Ammo, uni bizga qadrli etgan jihatlaridan biri tarixiy-adabiy merosidir.

Abulg‘ozи Bahodirxonning davlat arbobi – xon va tarixnavis olim, nafis san’at bilimdoni bo‘lib yetishuviga sabab, u yetuk ta’lim-tarbiya ko‘rish bilan birga, toj-taxt talashishlar taqozosiga ko‘ra, jahongashtalik qismatini ham boshidan kechirgan edi. U sarkarda sifatida toblanish yillarida Turkiston, Samarcand va Buxoroda bo‘ldi, Eron Isfahonida o‘n yil hayot kechirdi. Har xil elat, qabila, urug‘ vakillari bilan hayotiy muomala-munosabatda bo‘ldi. Fors-tojik, arab, mo‘g‘ul tillarini o‘zlashtirdi. Ushbu tillar namoyandalarining hayot tarzi, tarixi, dunyoqarashi, urfu-dumularini elshunos va tarixshunos nuqtayi nazari bilan o‘rgandi. Ana shu izlanishlarining samarasи o‘larоq, Abulg‘ozи Bahodirxon "Manofe' ul-inson", "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk" nomli uch tarixiy asarini yaratdi.

Abulg‘ozining iste’dod qirralari rang-barang. Bu haqda "Shajarayi turk" asari muqaddimasida uning o‘zi batafsил so‘zlaydi: "Bu faqirg‘a xudoyi taolo inoyat qilib ko‘p nimarsa berganturur. Xususan, uch hunar berganturur. Avval, sipohigarlikning qonuni va yo‘sunikim, nechuk otlanmoq va yurumak va yovg‘a yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do’stg‘a, dushmanq‘a nechuk so‘zlashmak. Ikkinchи, masnaviyot va qasoyid, g‘azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash’orni fahmlamaklik, arabiylar va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam

<sup>299</sup> Абулғози. Шажарай турк. Т.: 1992; Абулғози. Шажарай тарокима. Т.: 1995.

<sup>300</sup> Худойназаров X. "Шажарай турк" ва унинг урганилиши. Т.: 1993; Худойназаров X. Абулғози Баҳодирхон тарихини ва адаби. Т.: 1994.

*ahlidin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podshohlarning otlari va umrlarining va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik»<sup>301</sup>.*

**«Manofe' ul-inson»asari.** Abulg'ozining o'zi e'tirof etganidek, u mohir sipohigar, so'z mulkining nozik fahm muxlisi, jahon tarixining nodir bilimdoni bo'lishi bilan birga, tibbiyot ilmidan ham boxabar edi. Ayniqsa, 20 yilga yaqin hayoti Xorazmda kechgan Ibn Sino asarlarini yaxshi o'rgangan. Ulardagi tavsiyalardan amalda foydalangan. O'zi egallagan tibbiy malaka va bilimlarni ehtiyojmandlarga etkazishni savobli ish deb bilgan. Shu ulug' niyat mahsuli sifatida yaratilgan «Manofe' ul inson» (inson manfaatlari) asari tibga oiddir. U O'zbekiston FAShI qo'lyozmalar fondida 4107-inventar raqam bilan saqlanadi. Asar 1664-yilda yozilgan. Muallif asarning yozilish tarixi va sabablari haqida ma'lumot berar ekan, «*Kitoblarni nazarga keltirib erdik, maqsad goho topilur erdi va goho topilmas erdi, ulkim topilur erdi, hozir mashaqqat birla o'rtaga kelur. Shul sababdin, illatga iloj qilmoq uchun, mo'tabar kitoblardin xohlab jam qilib, ondin so'ng illatlarni bayon qildim*»<sup>302</sup>, deya e'tirof etadi.

«Manofe'ul-inson» to'rt bobdan iborat. Har bir bob tibbiyotning ma'lum bir yo'nalishiga bag'ishlangan. Abulg'ozini har bir xastalik haqida to'xtalar ekan, avval tabib va olimlar tomonidan aytilgan fikrlarni keltirib, so'ng o'zining munosabatini, mustaqil xulosalarini bayon etadi.

Asarda ko'z, jigar kasalligi, bel og'rig'i, isitma sabablari, buyrak, taloq kasalliklari kabi 120dan ortiq xastalik borasida ma'lumot beradi. Ularning kelib chiqish sabablari, davolash usullarini izohlaydi. «Manofe'ul-inson»da oddiy va murakkab dorilar, ularni tayyorlash va ishlatish yo'llari haqida ham muhim ma'lumotlar beradi.

Ko'ringanidek, Ushbu asar o'z davrida tabiblar uchun muhim qo'llanma vazifasini o'tagan. Hozirgacha ham undagi ma'lumotlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

<sup>301</sup> Абулғози. Шажарайи турк. Т.: 1992, 12-бет.

<sup>302</sup> Абулғози. Манофеъ ул-инсон. Ўзбекистон ФАШИ кўлёзмалар фонди, инв. № 4107, 48-бет (Худойназаров X. "Абулғози баҳодирхон тарихчи ва адаб" китобида 35-бет).

**«Shajarayi tarokima» asari.** Abulg'ozining «Shajarayi tarokima» asari turkman xalqining tarixiy etnogenezini yoritishga qaratilgan, o'g'uz qabilalari, ayniqsa, qardosh turkman xalqining ajdodlari kechmishi tasviriga bag'ishlangan. U bilan bog'liq ravishda muallif qadimgi tarix – Odam alayhissalom, Nuh payg'ambar, Qoraxon, O'g'uzxon kabilar qismati bilan bog'liq hodisalarni nihoyatda qiziqarli uslubda bayon etadi. Muallif e'tiroficha, asar hijriy 1071, milodiy 1660-1661-yillarda yozilgan. Uning o'nlab qo'lyozma nusxalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Toshkentdag'i O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Turkmaniston Fanlar akademiyasi kutubxonasi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limi, Istanbul kutubxonasi qo'lyozmalar fondlarida saqlanmoqda. Bu asar 1958-yilda tanqidiy matn va ruscha tarjimasi bilan akademik A. N. Kononov tomonidan chop etilgan edi. Mustaqillik sharofati bilan tarix va qadriyatlarimizni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Buning natijasi o'laroq, biz bebahra ko'p asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Jumladan, «Shajarayi tarokima» asari ham 1995-yilda Qozoqboy Mahmudov tomonidan nashr etildi.

Asarning yaratilish tarixi haqida Abulg'ozi Bahodirxon shunday yozadi: «...Mundin ko'p yillar o'tti, turkmanning mullolari... mening tarixni yaxshi bilurimni eshitibtururlar. Taqi bir kun barchalari kelib, arz qildilarkim: - "Bizning ichimizda "O'g'uznama" ko'pturur. Ammo hech yaxshisi yo'q, barchasi g'alat va birisi birising'a muvofiq ermas. Har qaysisi bir turluk va bir durust e'tibor qilg'udek tarix bo'lsa erdi, yaxshi bo'lur erdi", teb o'tun qildilar. Ersa, onlarning o'tunlarini qabul qildim»<sup>303</sup>.

Demak, Abulg'ozi «Shajarayi tarokima» asarini turkman xalqi ulug'lari iltimosiga binoan yozadi. Ammo, asarning dunyoga kelishiga Abulg'ozi yuragidagi turkman urug'lari oldidagi burchdorlik hissi ham turtki bo'lgan. Tarixdan ma'lumki, Xorazmshohlar turkman urug'larini bo'ysundirish uchun doimiy

<sup>303</sup> Абулғози. Шажарайи тарокима. Т.: 1995, 5-бет.

qattiq siyosat olib borishgan. Jumladan, Abulg'oz ham o'z jangovar faoliyatida ular bilan uchrashganini eslaydi.

Ma'lum yillardan so'ng o'z hayot yo'liga nazar tashlar ekan, qilgan ishlaridan afsuslangan payti ham bo'ladi. Asar yozilishidan 17-yil ilgari turkman avboshlari bilan bo'lgan jangdagi qatli omni ham Abulg'oz taassuf bilan xotirlaydi: Unda 20 mingga yaqin aholi qirg'in etilganini so'zlab, o'z gunohini yuvish yo'llarini izlaydi. Ular tarixini bitishi jangdan qolgan dildixiralikni biroz bo'lsada aritishiga umidvor bo'ladi; «...Avvaldin to oxirg'acha biz sababli yaxshi va yomondin 20 ming choqlig' kishilari o'ldi. Aning ichinda gunohkorlari ham bor erdi va begunohlari ham bor erdi. ...Xudoyi taolodin umidim borki, muning savobi agar ul qatli omda gunoh bo'lg'an bo'lsa, ang'a g'olib kelgay teb va taqi ulkim, bir kun bir kishi bu kitobni o'qub bilmaganini bilsa bizning ruhimizga fotiha o'qug'ay teduk. Taqi kitobni aytmoqqa ruju qilduq. Taqi bu kitobg'a «Shajarayi tarokima» teb ot qo'yduq»<sup>304</sup>.

Abulg'ozining yuqoridagi fikrlari bizga fe'l-atvorining ayrim qirralarini tasavvur etish imkonini beradi. Ma'lumki, siyosat o'rni bilan shafqatsizlikni ham taqozo etadi. Abulg'oz davlatboshi sifatida siyosatning shu qonuniyatiga amal qilishga majbur bo'ladi. Ammo, mavridi bilan o'z qilmishidan afsus chekadi. Vijdon azobida qiynaladi. Begunohlar ruhi oldida javobgarlik hissi uni iztirobga soladi. Bu kabi ruhiy holatlar Abulg'ozining qattiqqa'l siyosatchi, salohiyatli hukmdor bo'lishi bilan birga, mehrmuruvvat, shafqat va insoniylik tuyg'ularini unutmagan sohibkaram kishi ekanligidan dalolat beradi.

Tarixshunoslikda "Shajarayi tarokima" asarining qimmati beqiyos. Chunki XVII asrda moziyni bilishda Abulg'oziga teng keladigan sohibqalam kam edi. Asarda ham u tarix ilmining dono bilimdoni sifatida ko'rindi. Odam alayhissalom davridan to asar yozilgan kungacha bo'lgan tarixni ishonch bilan bayon etadi. Tarixnavislikdagi ayrim xato ma'lumotlarni to'g'rilaydi. Ularni asoslab izohlaydi: "...turkmanlarning tarix bilaturg'an kishilari O'gurchiq Aljni o'n olti orqada O'g'uzxonq'a etkarib, mundaq

<sup>304</sup> Ўша асар, 5-6-бетлар.

*sunab tururlarkim, bu so'z mazax, g'alatturur...*<sup>305</sup> Muallif bu fikrning g'alat – xato ekanligini muhim xulosalar bilan izohlaydi. O'z fikrini asoslash uchun muhim ilmiy qimmatga ega ucta sababni ko'rsatadi. "Shajaratyi tarokima"da Abulg'ozining bu kabi munozaralarga kirishuvini bir necha o'rinda uchratamiz.

Asarda O'g'uzxon avlodlari, ismlari, ularning ma'nolari, fe'l-atvorlari, davlat ramzlarining ma'nolari va shaklu shamoyili haqida ham ma'lumotlar beradi. Bu qisqa chizgilar ularning davlatni boshqarish usullari, maqsadlari, ma'naviy dunyoqarashlari haqida mukammal xulosalar chiqarishimizga imkon yaratadi. Masalan: "*Avsharning ma'nisi ishni yildam ishlaguchi temak bo'lur, tamg'asining suvrati buturur: qushi chora Lochin. Chebnining ma'nisi bahodir temak bo'lur, tamg'asining suvrati bu turur: qushi humoy*"<sup>306</sup>.

Asarning ifoda uslubi o'ziga xos. Tarixiy hodisalarni bayon etar ekan, muallif undagi tarixiy shaxslar siyimosini badiiy timsol darajasida tasvirlay oladi. Ularning tabiatini oydinlashtiruvchi o'ta nozik holatlarni ilg'ab, nihoyatda ta'sirli qilib ifodalab beradi. Ko'z o'ngimizda tirik tarix qayta jonlanadi. Ularning ko'z qarashlari, tafakkur tarzları, yurak urishlariyu xo'rsiniqlarigacha his qila boshlaymiz: «*Kunlardan bir kun Gulerkixon o'rgada o'lturub erdi. Tuman taqi anda hozir erdi, Qonli Yovli eshikdin kirib keldi va o'rta erda o'lturdi. Taqi Gulerkiga boqib aytdi: Ey bobo, bu o'lturg'an taxting ulug' otam Duyli Qayiningturur, bu vaqtg'acha otam Tumanni yoshturur teb bermading. Emdi ne uchun bermagayturursen, tedi. Gulerkixon boshini quyi solib ko'p o'lturdi. Taqi bir fursatdin so'ng boshin ko'tarib aytdi...*<sup>307</sup>.

Asarda bizga qadimgi O'rxun-Enasoy bitiklaridan ma'lum bo'lgan qadimgi turk xoqonlari Bug'raxon va uning o'g'illari El tegin va Qo'zi tegin (Kul tegin deb kelinadi)larning hayot yo'llarini kengroq yorituvchi yangi ma'lumotlarga duch kelamiz. Bug'raxondan so'ng hukmronlikni Qo'zi tegin o'z qo'liga oladi. Abulg'ozni tafsilotlari orqali biz uning fe'l-atvori, a'mollari haqida

<sup>305</sup> Ўма асап, 40-бет.

<sup>306</sup> Ўма асап, 22-бет.

<sup>307</sup> Ўма асап, 29-бет.

tasavvurga ega bo‘lamiz. Saroyida sodir bo‘lgan oddiy insoniy, kundalik tashvishlari, kechinmalari bilan oshno bo‘lamiz. Bu tasvirlarning tabiiy uslubi bizni moziyning tirik nafasini his etishga muyassar qiladi.

Asarning yana bir muhim tomoni shundaki, unda O‘g‘uz elida beklik qilgan qizlar – begoyimlar zikriga alohida bob ajratiladi. Unda yetti begoyim haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ularning mohir elboshi ekanliklarini sharhlaydi: “*Turkmanning tarix bilaturlar on yaxshilar va yaxshilar ayitbururlar: etti qiz barcha o‘g‘uz elini og‘zina baqindurub, ko‘p yillar beklik qildilar*”. Ular Oltun Ko‘zacha, Barchin Salur, Shabati, Kunin Ko‘rkli, yana bir Kunin Ko‘rkli, Kercha Bulodi, Qug‘adlibegimlar edi. Ushbu ma’lumotlardan qadim momolarning shijoati, matonati va donishmandligidan xabardor bo‘lamiz. Odatda, tarixiy kitoblarda ayollar haqida ma’lumot berishdan tarixnavislarimiz saqlanishgan. Abulg‘oz shu an’anadan voz kechib, asarida to‘marissiyrat ayollar haqida so‘zlashga jasorat va jur’at topadi. O‘zining bu matonati bilan tarixning biz uchun juda muhim, ammo qorong‘u sarhadlarini yoritishga muhim hissa qo‘sadi.

Asarning adabiy, lisoniy o‘ziga xosligi shundaki, Abulg‘oz Bahodirxon o‘zi iftixor etganidek, u turkona xalqchil tilda tarix yozish mahoratini namoyish etgan. Tarixnavis adibning “Shajaratayi tarokima” asari ana shunday xosiyati bilan milliy nasrimizning noyob namunasi hisoblanadi.

«*Shajaratayi turk*» asari. Abulg‘oz serqirra iste’dod sohibi, ayniqsa, tarix ilmida noyob qamrovga ega. U o‘tmish va tarixning kelajakdagagi, davlat boshqaruvidagi o‘rnini chuqur tushungan. Mashhur ingliz yozuvchisi Paulo Kelonning «Beshinch tog» romani bosh qahramoni Ilyos payg‘ambar o‘z nutqida «*Hayotdagi hamma jangu jadallar bizga biror narsani o‘rgatmoq uchun zarur. Hatto, biz boy beradigan jangu jadallar ham*»<sup>308</sup>, degan edi. Abulg‘oz shu haqiqatni anglagan, beqiyos siyosatdon sifatida o‘z xatolari, yutuqlari saboqlarini kelajak avlodga etkazishning ahamiyatini to‘g‘ri tushungan.

<sup>308</sup> Пауло Козло. Бешинчи топ. Роман. “Жаҳон адабиёти” журн., 2004, апрель, 61-бет.

Abulg‘ozi Bahodirxon 1663-yilda “Shajarai turk” asarini yoza boshladi. Ushbu solnoma o‘zbek urug‘lari tarixiga bag‘ishlangan to‘qqiz bobdan tashkil topgan. Muarrix ushbu asarini oxiriga yetkazolmay, 1664-yili vafot etdi. Uning o‘g‘li Anushaxon zamonasining tarixchilaridan Mahmud binni Muhammad Zamor Urganjiyga buyurib, Abulg‘ozi Bahodirxon boshlagan “Shajarayi turk”ning qolgan 21 sahifasini yozdirib tamomlatdi.

Abulg‘ozi o‘zidagi salohiyatdan foydalanib, ajdodlari tarixini yozishga jazm etadi. Uning o‘z xonadoni tarixini o‘zi yozishidan o‘zga iloji ham yo‘q edi. Chunki mamlakatda tarixning komil bilimdoni va ravshanbayon adibi yo‘q edi. Buni muallif shunday izohlaydi: «*Bizning ota va aqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdulloxonning otalari birlan to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali teb fikr qilduq. Hech munosib kishi topmaduq. Zarur bo‘ldi, ul sababdin o‘zimiz aytduq. Turkning masaliturur: “O’ksuz o‘z kindigin o‘zi kesar”, tegan*»<sup>309</sup>.

«Shajarayi turk»da asarning yozilish tarixi, sabablari va maqsadi haqida ma’lumot beradi. Shu o‘rinda muallifning ko‘p fazilatlari ochiladi. Tarixni, tilni mukammal bilishi, til sofligini saqlash madaniyati yaqqol ko‘rinadi.

Tarixiy asarlardagi ma’lumotlardan bizga ma’lumki, tarixni yoritish xolislikni taqozo etgan. Bu qonuniyatni yaxshi bilgan Abulg‘ozi ham unga qat’iy amal qilgan. So‘zining avvalida bu masalaga kitobxon diqqatini qaratgan. O‘z hukmronlik davrini o‘zi yoritgani uchun uzrxohlik etgan: «*Hech podshoh va amir va hech hakim va donishmand o‘z tarixini o‘zi aytg‘an emasturur. Bizningyurtimizning havosindin va ahli Xorazmnинг behizoatligidin hech zamonda bo‘lmag‘an ish bo‘ldi. Emdi ko‘nglingizga kelmasunkim, faqir taraf tutub yolg‘on aytg‘an bo‘lg‘ayman va yo o‘zumni g‘alat ta’rif etgan bo‘lg‘ayman*» (11-12 -betlar).

<sup>309</sup> Абулғузи. Шажарайи турк. Т.: 1992, 11-бет. (Кейинги парчалар шу нашрдан олинади. Қавсда саҳифаси кўрсатилади).

Ko‘rinadiki, Abulg‘ozи chuqur tarixiy bilimga ega, bu borada nihoyatda talabchan ijodkor. Shu sababli ham mazkur “Tarix”ni o‘zi yaratgan. Tarixnavislik uchun muhim hisoblangan xolislikka qat’iy amal qilgan. Bu muallif asarlarining ilmiy qimmatini yanada oshiradi.

«Shajarayi turk» asari muallif ma’lumotiga ko‘ra hijriy 1074, milodiy 1663-1664-yillarda yozilgan. Asar 9 bobdan iborat. Birinchi bobda Odam Atodan Mo‘g‘ulxongacha, ikkinchi bobda Mo‘g‘ulxonidan Chingizxonning bo‘lgan tarix muxtasar yoritilgan. Uchinchi bob Chingizxonning hayot yo‘li haqida. To‘rtinchi bob Chingizxonning uchinchi o‘g‘li Ugaday Qoon va uning avlodlari podshohligi tasviriga bag‘ishlangan. Beshinchi bob ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon sulolası hukmronligi bilan bog‘liq hodisalar tasvirini qamrab olgan. Oltinchi bob kichik o‘g‘li To‘lixon, ettinchi bob katta o‘g‘li – Jo‘jixon, sakkizinchi bob Jo‘jixonning o‘g‘li Shaybonxon avlodlari haqida. To‘qqizinchi bob esa Shaybonxon avlodidan Xorazmda podshohlik qilganlar zikriga bag‘ishlangan.

Asar Abulg‘ozи Bahodirxonning davlat arbobi sifatida naqadar keng qamrovli bilim va faoliyat sohibi ekanligini ko‘rsatadi. Davlat boshqaruvi bilan barobar ilmiy-ma’rifiy izlanishlar olib borish natijasida Abulg‘ozи Bahodirxon barkamol elshunos va tilshunos alloma bo‘lib etishgan edi. Buni “Shajarayi turk” solnomasidagi “Mo‘g‘ulning va o‘zga turklarning uruqlarining zikri. Asli ne va otlari ne va laqablari ne erdi” sarlavhali bob avvalidagi muallif so‘zlaridan ham bilib olish mumkin: “Bizning ulug‘ otamiz Xulaguxon Mo‘g‘ulistondin kelgandin beri ikki-uch orqa o‘tdi. Emди bizdin so‘ng dunyog‘a kelganlar mo‘g‘ulning tilini, yo‘sunini, erini va yurtini va uruqlarini unuturlar. Bilmashlar, mo‘g‘ul yurtinda o‘lturg‘an el ko‘pturur. Onlarning qaysisisining so‘ngi mo‘g‘ulturur va qaysisi mo‘g‘ul ermas. Munlarning barchasini bir ergajam’ qilg‘il, teb hukmqildi. Men arz qildim, bir kishining qo‘lindin bir ish kelur. Menga ulug‘ xidmat buyuribsiz, teb. Xon aytdi, bu ish sendin o‘zga kishining qo‘lindin kelmas. Bizda mo‘g‘ul tili birlan bitigan kitoblar bor. Bitilmagan so‘zлarni

*yod bilaturg'on kishilarimiz bor teb, besh-olti mo'g'ulning qari so'zini bilaturg'on kishilarni mening qotimda qo'ydilar. Taqi xonning bir ulug' begi bor erdi. Po'lod va laqabi Chingsang. Anga alohida buyurdilarkim, bu vaqtida mo'g'ulning asl va nasabini sendin yaxshi bilur kishi yo'qtur ham mo'g'ulning tilin bilursen, ham kitobni o'qursem teb hukm qilgandin so'ng Po'lod Chingsang bahodir boshliq ul jamoat aytdilar, tarix hijriy etti yuz taqi ikkida erdi, men bu tarixni bitdim va otini "Jami' ut-tavorix" qo'ydum. Shul tarix faqirning oldumda bor kitobning avvalinda ham aytib erdim. Mundin boshqa o'n etti Chingiznoma hozir turubturur. Onlar yuzindin bititururman... Bu faqir turkiy va forsiyning tilini va lug'atlarini va istilohlarini bilmaklikda Xudoyi taolo ul miqdor nasib berib turur. Bu vaqtida turk va tojikda kerakkim faqirg'a bergancha bergen kishi bo'lmag'ay. Taqi bir nimarsa sabab bo'lib, Qalmaqq'a borib, anda bir yil turdum. Mo'g'ulning tilini va rasmini va istilohlarini yaxshi o'rgandum. Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun, teb turkiy til birlan aytdum. Turkiyni ham andaq aytubmankim, besh yashar o'g'lon tushunur. Bir kalima chig'atoy turkisidin va forsiy va arabiyydin qo'shmayman, ravshan bo'lsun teb". So'nggi so'zlar yana shundan dalolat beradiki, Abulg'ozi Bahodirxon ona tilining tozaligi, tiniqligi, ravshanbayonligi uchun amaliy faoliyatini bilan kurashgan vatanparvar siymo edi.*

Abulg'ozining bu asari tarixshunosligimizda va jahon tarixini o'rganishda eng ishonchli manba sifatida katta qimmatga egaligi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Chunki Abulg'ozi asarini yaratishda mo'tabar manbalardagi ma'lumotlarni qiyosan o'rganib, xatolarni tuzatishga harakat qilgan. Xulosa chiqarishda aniq dalillarga asoslangan. U 18 ta qimmatli kitobdagagi ma'lumotlarni o'rgangani haqida so'zlaydi. Ayniqsa, Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Rashididdinning «Jome ut-tavorix» kabi asarlarini ehtirom bilan eslaydi.

Abulg'ozining asosiy maqsadi o'z sulolasining mukammal tarixini yaratish. Shu bilan bog'liq holda Odam Atodan boshlab insoniyat, xususan, turkiy xalqlar, shajaralar haqida ma'lumot

berish. Bu vazifalarni u yuksak darajada bajargan. Abulg'oz, yuqorida eslatganimizdek, xolis bo'lishga harakat qiladi. Ko'p podshohlar tarixini yoritar ekan, ularga obyektiv baho beradi. Ijobiy tomonlarini ham, salbiy fe'l-atvor va amallarini ham oshkora bayon etadi. Habash, Elbors, Sevinchxon kabi sultonlarning noshudligi, siyosatdagi pala-partishligi fosh etiladi.

Chingiz, Ugaday Qoonlarning qonli yurishlarini ham, mavridi bilan ko'rsatgan muruvvatlarini ham xolis ifodalaydi. Bunday tasvirlar o'quvchiga ularni murakkab shaxslar sifatida tasavvur qilish imkonini yaratadi.

Asarda chingiziylar bosqini mufassal yoritiladi. Ayniqsa, Xorazm, Marv, Hirotni bosib olish manzaralari juda jonli bayon etilgan. Ko'z o'ngimizda mustamlaka jarayoni butun dahshati va fojiasi bilan namoyon bo'ladi. Hirotning egallanishi haqida yozar ekan, "*Ming - ming olti yuz ming kishini darajayi shahodatga etkurdilar. Hirotning qal'asini er birlan yakson qildilar. Hirotda o'n besh kishi tirik qoldi. Andin o'zga bir kishi qolmadi*" (78-bet) deb hikoya qiladi.

Marv bosqinida ham xuddi shunday qirg'inbarot tasvirini ko'ramiz: "... o 'lganlarni o'n uch kunda xatg'a olib bo'lildilar. Ming martaba ming taqi uch yuz ming kishi erdi. Alqissa, mo'g'ullar xon hukmi birlan Marvning qal'asini va imoratlarini andoq vayron qildilarkim, hech nishona qolmadi" (76-bet).

Termizning ishgi ol qilinishidagi quyidagi hodisa ham Ushbu bosqin dahshatini tasavvur qilish imkonini beradi: «*Ul xotun aytti: «meni o 'lturmang. Men sizlarga bir yaxshi dur berayin»*», tedi. Alar tedilar: «*during qaydaturur?» ul xotun aytdi: «durni yutqanturman, dur qornimdaturur».* Mo'g'ullar ul xotunning qornini yorib durni oldilar. Ul sababdin hech o'luk qolmadi, tamomining qornini yordilar» (70-bet). Bunday shafqatsizliklar tasviriga asardan ko'plab misollar keltirish mumkin.

"Shajarayi turk"da ulug' bobokalonlarimiz matonati, ularning yuragidagi ulkan vatanparvarlik tuyg'ulari ifodasini ham ko'ramiz. Va shunday jasur, mard ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz. Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi

mashhur va mashhur bo'Imagan qanchadan-qancha qahramonlar jasorati bizni hayratga soladi. Kubro chingiziylar taklifini qabul qilmay, so'nggi nafasigacha xalqi bilan birga bo'ladi. Eng oldingi safda turib yovga qarshi kurashadi. Temur Malikning qopqoqli, zirhli kema yasab, zarbalarni qaytarishdagi kashfiyotchilik salohiyati, sipohigarchilikdagi noyob iqtidoriga qoyil qolamiz. Jaloliddin Manguberdi yuragidagi vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi Chingizxonni umrining oxirigacha tashvishlantirgan. Undan hayiqqan. U tirik ekan, qasos olishi mumkinligini hisobga olib ish yuritganini asardagi dalillar asoslaydi. Hatto, Chingizxon Jaloliddin jasoratiga tan berib, "*Otadin o'g'ul tug'sa, shundag' tug'sun*" deganining guvohi bo'lamiz. Asarni o'qir ekanmiz, bu kabi dalillarga duch kelganda, faxrlanamiz.

"Shajarayi turk" – qomusiy asar. Unda tarix, etnografiya, iqtisodiyot, etimologiya, kemasozlik, konchilik, qishloq xo'jaligi, sipohigarchilik kabi o'nlab sohalarga oid qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Undan temir rudasini olishning dastlabki, ibridoiy texnologiyasi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Asarda turkiy urug'lar, ularning joylashish o'rnlari, geografiyası, nomlanish tarixi bilan tanishamiz. Har birining o'ziga xos tabiatи, iqtidor va salohiyat miqyoslari haqida ma'lumot olamiz. (Masalan, uyg'ur urug'iga mansub kishilarning hisob-kitob ishlariga mahoratlil bo'lishgani va boshqaruvda ularga ko'proq shu soha ishonib topshirilishi haqida yozadi). Ayrim bayramlarning kelib chiqish sabablarini, shaharlarning paydo bo'lish tarixlarini yoritadi. Xitoy devorining qurilishi, u bilan bog'liq ungut elining kelib chiqish sababları haqida ma'lumot beriladi.

Mashhur venger sharqshunosi Herman Vamberi Abulg'ozijodiga yuksak baho berib, "*Abulg'ozи Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi. Jahon "Shajarayi turk" nomli tarixiy asari uchun undan minnatdordur*"<sup>310</sup>, deydi. Haqiqatan ham, Abulg'ozining hayot yo'lidagi murakkab jarayonlar, yoshligidanoq toj-taxt uchun kurashlar girdobiga tushishi, ko'p sarson-sargardonliklarni boshidan kechirishi Bobur qismatini eslatadi.

<sup>310</sup> Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Т.: 1992.

Uning asari ham "Boburnoma" singari tarixiy-memuar janrida yaratilgan. "Shajarayi turk" ifoda uslubi jihatidan ham "Boburnoma"ga yaqin. Muallif ko'p ellarni ta'riflaganda, ularning hayot tarzi, shaharlari, boyliklari, podshohlari, mashg'ul sohalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Asarning ana shunday izchillik jihatlari "Boburnoma"ga o'xshaydi. Ammo, farqi shundaki, "Boburnoma"da Bobur, asosan, o'z zamoni va yaqin o'tmish haqida so'zlaydi. "Shajarayi turk"da esa qadimiy, umumiy tarix ham eslanadi. Asarning so'nggi 9-bobidagina Abulg'ozi o'zi bilan bog'liq tarixni yoritadi. Ammo, har bir hodisaga nisbatan muallifning fikrini, munosabatini va u tomondan berilgan baholarni sezib boramiz.

Abulg'ozi asarlarini yaratishda ularning tiliga katta e'tibor beradi. Fikrlarini sodda, tushunarli, ravon uslubda ifodalaydi. O'zigacha yaratilgan tarixiy asarlar tilsining murakkabligi, forsiy, arabiyligi so'zlarning ko'p qo'llanilishi unga ma'qul kelmaydi. Turkiy xalqlar uchun aytilgan asarlar chinakam turkona bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Turk, fors, arab va mo'g'ul tillarini yaxshi bilgan Abulg'ozi o'zining shu prinsipiga sodiq qoladi. Jumlalarni so'f turkiy so'zlar bilan tushunarli bayon etishga intiladi: «*Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqonlar arabiylug' atlarni qo'shibtururlar va forsiyni ham qo'shibtururlar va turkiyni ham saj' qilibtururlar. O'zlarining hunarları va ustozliklarini xalqqa ma'lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduq. Aning uchunkim, bu kitobni o'qug'uvchi va tinglag'uvchi, albatta, turk bo'lg'usiturur: bas, turklarga turkona aytmoq kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar*» (29-bet). «... Turkiyni ham andoq aytubmankim, besh yoshar o'g'lon tushunur» (29-bet).

"Shajarayi turk"ni ham tarixiy, ham badiiy asar sifatida o'rganamiz. Muallif tarixiy hodisalarini tasvirlaganda jonli, harakatdagi manzaralarni ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Asardagi tarixiy shaxslar qismati ifodalaran ekan, ular badiiy obraz darajasiga ko'tariladi. Voqealar rivoji esa dramatik sahna ko'rinishida namoyon bo'ladi. Har bir o'simlik, daraxt, har bir maysaning shiviri qulog'imizga eshitilganday bo'ladi. Ulug'

bobokalonlarimiz yuragini g'ururga to'lg'azgan o'rik, bodom, shaftoli gullarining mayin iforlari, tip-tiniq suvlarning, namxush maysalarning, beda gullarining, bug'doy sabzalarining sarxush jilolari bizning ko'nglimizda ham Vatanga muhabbat tuyg'usini ulg'aytira boshlaydi. Ushbu asarning ta'sir kuchi ham ana shunda.

Abulg'ozi bu asari orqali o'zbek nasri tarixida o'ziga xos o'rinn qoldirdi. «Shajarayi turk» nasrda yozilgan bo'lsada, ko'p o'rinnlarda o'zbek va fors tillaridagi she'riy parchalar ham kiritilgan. Ular asardagi badiiylikning kuchayishiga sabab bo'lgan.

Abulg'ozi xalq og'zaki ijodidan yaxshi xabardor. Asarda xalq rivoyatlari, naqllari, maqollaridan unumli foydalangan. Asarda xalq og'zaki ijodi ifoda uslubini eslatadigan o'rinnlar ko'p. Mumtoz merosimizga xos badiiy tasvir vositalarini o'z o'rniда ishlatgan. U Islom dini tarixini yaxshi bilgan. Asarida hadis, Qur'oni karim oyatlaridan o'z mavridi bilan foydalangan. Yog'ingarchilik chaqiruvchi yada toshi kabi marosim folklori an'analari haqida ham ma'lumotlar bergen.

Solnomada so'zning kelib chiqishiga oid (etimologiya sohasiga oid) bir qancha jajji tadqiqotlarni kuzatish mumkin. Ularda Abulg'ozi Bahodirxonning elshunoslik va tilshunoslik borasidagi fikrlari uyg'un ifodalangan. Qarluq, Qipchoq, Uyg'ur, Ungut, Buxoro, Do'rman kabi yuzlab so'zlarning ma'nolari, etimologiyasi haqida ishonchli xulosalarni bayon etgan. Masalan, mo'g'ul elating nomini ifodalovchi so'z shunday sharhlanadi: "Asl lafz mo'g'ul – "mungul" turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora "mo'g'ul" tedilar. "Mung"ning ma'nosini barcha turk bilurlar, qayg'u ma'nosina turur. "Ul"ning ma'nosini sodadil, ya'ni "qayg'uli soda" temak bo'lur".

"O'zbek" atamasining kelib chiqish tarixi haqida ham muhim fikr bildiradi: «To'qtag'uxon (1290-1312) o'lgandin so'ng 13 yoshinda O'zbekxon (1312-1342) xon bo'ldi. Taqi elni otabobosining dasturi birla zabit qildi. Har kimning martabasina loyiq hurmat qilib, in'omlar berdi. El-ulusni dini islomg'a kirguzdi... Andin so'ng Jo'ji elini O'zbek eli tedilar» (36-bet).

Ba'zi so'zlarning turk, tojik, arab, mo'g'ul tillaridagi ma'nolarini qiyosiy yo'sinda sharhlaydi: «*Oqib boraturg'an ulug' suvni turkiy tilinda soy der. Tojik kichikin rud vauluqin ruxdona derva arab vodiy der. Mo'g'ul muran der*» (36-bet).

Jahonni zir titratgan mo'g'ul sarkardasi Chingizxon va XX asrning olamga mashhur yozuvchisi Chingiz Aytmatov ismlarining ma'nosini quyidagi izohdan ilg'ab olish mumkin: “*Ching”ning ma’nosi ulug’ va katta temak bo’lur. Chingiz aning jam’i turur*”. Demak, buyuklik ma'nosidagi ism qo'yilgan insонning chindan-da buyuk bo'lib etishuvi ismning ilohiy mohiyatidan dalolat berib turibdi.

Milliy davlatchiligidan asoschisi Amir Temur urug'inining kelib chiqish ma'nosi quyidagi jumalalarda juda aniq va ixcham ifodalangan: “*Oqsoq Temur ushbu uruqdin erdi. Barlosning ma’nosi sipohsolar temak bo’lur. Turkiysi cherik boshlab yuriyturg'an kishi*”. Darhaqiqat, barlos urug'i nomining ma'no-mohiyati temuriyzodalar sulolasi faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan.

Abulg'ozining joy nomlari haqidagi qarashlari ham hayotiydir: “*Buxoro” temakning ma’nosi mug’ tilinda ilm va ahli ilmning jam’ bo’laturg'an eri temak bo’lur*”. Chindan-da tarixda Buxoro hamisha ilm va ahli ilmning vatani bo'lib kelgan.

"Shajarayi turk" daliliy ma'lumotlarga juda boy asar. Unda boshqa tarixiy asarlarda uchramaydigan ko'plab muhim ma'lumotlar uchraydi. Mo'g'ul, Turon, Eron xalqlari tarixi ko'z o'ngimizda mufassal jonlanadi. Chingizxon bosqini, O'rta Osiyo va Rossiya munosabatlari haqidagi tasavvurlarimiz tiniqlashadi.

XVI-XVII asrdagi Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid qimmatli dalillar keltiriladi. Keyingi davrlarda yaratilgan tarixiy asarlarda ayollar haqida deyarli ma'lumotlar berilmaydi. Bu shariat qoidalari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Ammo, Abulg'oz o'z asarlarida tarixning yaxlitligini saqlab, ma'lumot berish yo'lidan borgan. Tarixni yoritishga aloqasi bo'lgan ayollar haqida mufassal to'xtashga harakat qilgan.

"Shajarayi turk"dan Abulg'ozining ulkan ijodiy niyatları ham bo'lganligi haqida ma'lumot olamiz. Bir o'rinda keng qamrovli "yirik tarixiy asar yozishni orzu qilgani, ammoxastalik tufayli maqsadini muxtasar amalga oshirishga majbur bo'lgani, to'rt kotibga aytib turib yozdirganini so'zlaydi: «*Biz tarixni mo'g'ulda, o'zbekda o'tgan yaxshi podshohlar va kengashli biylarning aslini va qilg'an ishlarini va aytqan so'zlarini barchasibir-bir aytib ulug' kitob qilmoq ko'nglimizda bor erdi. Aytayin teb yurugan vaqtda xasta bo'ldum... Taqi to'rt navisandani o'lturtdum va aytdim...*» (50-bet).

Umr baqo qilsa, ushbu asarni fors tiliga o'girish niyati ham borligini aytadi: «... ushbu kitobni forsiy tili birlan murassa' aytmoq ko'nglumda bor» (31-bet).

Xullas, «Shajarayi turk» asari tariximizni, xususan, Xorazm tarixini tasavvurimizda qayta jonlantirishi bilan, tarix haqidagi fikrlarimizni kengaytirishi bilan qimmatli asardir. Uning adabiy manba sifatidagi maqomi ham yuksak. O'zbek nasri tarixi va taraqqiyotini Abulg'izi asarlarisiz tasavvur qilish, mukammal deb bilish mushkuldir. Abulg'izi Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asarlari o'zbek tilshunosligi, elshunosligining asl manbalari, o'zbek adabiy-badiiy nasri tarixiy takomilining muhim bosqichini aks ettiruvchi o'lmas obidalardandir.

### **Tayanch tushunchalar:**

*SHajara, etimologiya, qarluq, qipchoq, o'zbek, uyg 'ur.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Xeva adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlang.
2. Uni o'rganuvchi manbalar bibliografiyasini tuzing.
3. Abulg'izi Bahodirxon ijodiy merosi ko'lami haqida ma'lumot bering.
4. "Manofe' ul-inson" asari haqida qanday tushunchaga egasiz?

5. "Shajarayi tarokima" asarining yaratilish tarixi va boshqa tarixlardan farqlari haqida so'zlang.
6. "Shajarayi turk" Abulg'ozining dunyo tan olgan qomusiy asari ekanligini izohlang.
7. Abulg'ozining salohiyat qamrovi va badiiy, ilmiy mahorati borasida ma'lumot bering.
8. Abulg'ozasi asarlarini to'liq o'qib chiqing.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abulg'ozasi. Shajarayi turk. T.: 1993.
2. Abulg'ozasi. Shajarayi tarokima. T.: 1995.
3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.
4. Xudoyberdiev H. Abulg'ozasi asarlarining o'r ganilish muammolari. T.: 2000.
5. Xudoyberdiev H. Abulg'ozasi. T.: 2004.
6. I. Adizova. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2009.

## MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING HAYOTI VA IJODI

(*Taxminan 1701 yilda tug'ilgan – vafot yili noma'lum*)

### *Reja:*

1. *Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodining o'r ganilish tarixi.*
2. *Tarjimai holiga oid ma'lumotlar.*
3. *Shoirning adabiy merosi, qo'lyozma nusxalari.*
4. *Shoir lirik she'r larining o'ziga xos xususiyatlari.*
5. *Lirik qahramon tabiat.*
6. *"Qushlar munozarasi" asarining mumtoz adabiyotdagi o'rni.*
7. *Nishotiy "Husn va Dil" dostonining yaratilish tarixi.*
8. *Dostonning mavzu va g'oyaviy ko'lami.*
9. *Timsol yaratishdagi an'ana va novatorlik.*
10. *Dostonning badiiy xususiyatlari.*

*Shoir hayoti va ijodi manbalari.* O'zbek mumtoz adabiyoti va madaniyatimiz tarixida munosib o'ringa ega bo'lgan Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodini o'rganish borasida tadqiqotchilarimiz bir qancha ishlarni amalgalashdi. Bular bir necha yo'nalishda olib borilmoqda.

1. Matnshunoslik yo'nalishi. Matnshunoslik izlanishlari mahsuli sifatida Nishotiy asarlari bir necha marta nashr etildi<sup>311</sup>.

Ushbu ishlar Nishotiy ijodi bilan o'zbek kitobxonini tanishtirishda muhim. Ammo, bular hali yetarli emas. Kelajakda Nishotiy ijodining yanada mukammalroq nashriga ehtiyoj katta.

2. Adabiyotshunoslik yo'nalishi. Nishotiy ijodining ilmiy tadqiqini sarhisob etib qaraganimizda, ancha ishlar amalgalashirilganining guvohi bo'lamiz<sup>312</sup>. Ammo, bular hali yetarli emas.

<sup>311</sup> а) Нишотий. Танланган асарлар. Тошкент, 1960й.

б) Нишотий. Хусну Дил. Тошкент, 1967й

в) Нишотий. "Кушлар мунозараси". "Гулестон" журн. 1970. 1-сон.

<sup>312</sup> а) Косимова М. Мухаммадниёз Нишотий. Тошкент, 1975.

б) В. Абдуллаев. Нишотий лирикаси. Хоккор ва Нишотий. Самарқанд, 1960.

в) Валихўжаев Б. Узбек эпик поэзияси тарихидан. Тошкент. 1974.

г) Абдуваҳидова М. Нишотийнинг "Шоҳбоз ва булбул" мунозараси. "Адабий мерос" журн., 1976

й., 3-сон.

д) Айёмий. Ўт чақнаган сатрлар. Тошкент, 1983.

е) Узбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик, 3-жилд. Тошкент, 1978 й.

Chunki, Nishotiy ijodi chuqur falsafiy mezonga ega. Uni mukammal tahlil etish, g‘oyaviy-badiiy qimmatini baholash adabiyotshunoslarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardandir. O‘ylaymizki, mustaqillik sharofati bilan yangi bosqichga qadam qo‘ygan o‘zbek adabiyotshunosligi Nishotiy asarlarining mohiyatini obyektiv, to‘g‘ri yoritib bera oladi.

Muhammadniyoz Nishotiyning hayoti, ijodiy faoliyati haqida Xorazm tarixiga bag‘ishlangan Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlarning asarlarida ayrim, qisqa ma’lumotnomalarga duch kelamiz. Bu borada shoirning o‘z asarlari-she‘riyati, "Husnu Dil" dostoni ham muhim qimmatga ega. Ularda mualliflar Nishotiy qismatining ayrim muhim kechmishlarini qalamga olishgan.

Uning yirik va umr sahifalarining eng ziddiyatli davrida yaratilgan "Husn va Dil" dostonining kirish qismlaridan anglashiladiki, shoir Xorazmda tug‘ilgan. Umrining ancha-qismi shu erda o‘tgan. U yurtining go‘zal tabiat, xushxulq xalqi, adabiy-ma’rifiy muhitining yuksakligi haqida faxr bilan yozadi:

*Bor edi Xorazmdiyo – erim,*

*Andin edi yaxshi - yomon guharim...*

*... Xalqi aning barchasi ishratfizo,*

*Xulqi xushu nutqi dag‘i dilkusho.*

*Ilm elining vasfi jahondin fuzun,*

*Har ne guman aylasang ondin fuzun.*

Nishotiy dostonning yozilish sanasini quyidagi baytda ta’rix san‘ati vositasida ko‘rsatib o‘tadi:

*Muddati tarixini etsam bayon,*

*Xatmi Dilu Husndur, ey nuktadon.*

Bu tarixdan doston milodiy 1778-yilda yozilganligi ayon bo‘ladi. Ayyomiy "O‘t chaqnagan satrlar" kitobida Nishotiy dostonni 77 yoshida yozgan deydi. U bu ma’lumotning manbaini ko‘rsatmaydi.

Agar shu dalil ishonchli bo'lsa, demak, Nishotiy 1701-yilda tug'ilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Nishotiy Xevadagi maktab, madrasalarda o'qib bilim olgan. Ko'p ilmlarga, jumladan, she'r san'atiga alohida qiziqish bilan qaragan. Zamonasining ma'rifatli kishisi bo'lib yetishgan.

Nishotiyning saroy doirasida nufuzli obro'ga ega do'sti bo'lган. U shoirning qiyinchilik kunlarida ko'p yordam bergen. Yuqorida ko'rsatilgan tarixiy asarlarda va Nishotiyning o'zi tomonidan ta'kidlanishicha, saroy a'yonlari bilan yuzaga kelgan jiddiy to'qnashuv natijasida xavf ostida qolgan hayotini do'stining yordami, g'amxo'rligi tufayli saqlab qolishga erishadi. Va Buxoroga ko'chib ketishga majbur bo'ladi. O'z yurtida hamdam, hamfikr topolmagan shoirning musofir yurtda yanada og'ir kunlari, ruhan ezilgan damlari boshlanadi:

*... Xullas, o'lub mulku vatandin judo,*

*Soldim o'rum g'urbati shiddat aro.*

*Toki Buxoro sari qo'ydim qadam,*

*Oh, bu xori aro bo'ldim adam.*

*Garchi erur manzili dilkash base*

*Lek musofirg'a emas xush base.*

Shoir Buxoroda ham uy-joysiz, iqtisodiy qiyinchilikda, ruhan yolg'izlanib yashadi:

*Ne mango ma'voyu, ne manzil ayon,*

*Vah, ne dedim turg'ali qayda makon.*

*To'ma uchun shomu sahar nolishim,*

*Tifl kibi barmog'i so'rmoq ishim.*

*Garchi ulusning hadu poyoni yo'q,*

*Tonimog'im birini imkon yo'q.*

Shunday og'ir kunlarda shoir ijodi bilan ovundi, qalami bilan sirlashdi. Buxoroda yaratgan lirik she'rлarida hayot mashaqqatlarini aks ettirdi. Yirik hajmli "Husnu Dil" dostonini yaratdi.

*Nishotiy lirik she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari.* Nishotiyning lirik she'rlari bizga "G'azaliyot va muxammasoti Nishotiy", "Bayozi mutafarriqa", "Bayozi majmuayi ash'or" kabi manbalar orqali etib kelgan. Muhammad Yusuf Chokar tomonidan 1903-yilda ko'chirilgan devoni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

U o'zbek va fors tillarida ijod qilgan. Nishotiyning lirik she'rlari, asosan, ishq-muhabbat mavzusida. Bosh timsollar oshiq va mashuqa. Lirik asarları ko'proq ma'shuqa tavsifiga bag'ishlangan. Shoir she'riyatida mumtoz adabiyot an'anasi saqlangan holda, ham majoziy, ham ilohiy ishq kuyylanadi. Nishotiy ijodining asl mohiyatini belgilovchi g'oyalar barchasi ana shu tavsifiy asarlar zamiriga singdirilgan. Hasbi hol yo'nalishidagi lirik she'rlarida tarjimayı holining ayrim jihatlari yoritiladi. Yurtidan olisda, musofirchilikda kechgan hayoti sahifalarini tasavvurimizda qayta jonlantiradi. Nishotiy lirik qahramoni hayotni, go'zallikni seuvuchi, rindona kayfiyatdag'i oshiq, ilohiy ishq kuychisi, riyokor shayxu zohidlarni tanqid etuvchi, rad etuvchi munaqqid siymo, ba'zan borliqdan voz kechuvchi, yolg'izlikka oshufta obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Nishotiy she'riyati mazmunan naqadar boy, rang-barang bo'lsa, badiiyat jihatidan ham o'ziga xos, Sharq badiiy san'atlari bilan muzayyan she'riyatdir. Shoiring asarlarida tashbeh, mubolag'a, istiora, tajohul ul-orif, irlisol masal, husni ta'lil kabi badiiy san'atlar mohirlik bilan qo'llangan.

Nishotiy an'anaviy obrazlarning yangicha tasviriy detallarini topa oladi. Masalan, ma'shuqa qoshining doimiy qiyoslari bizga ma'lum. Shoir buni tajohul ul-orif san'ati vositasida yangilashga erishadi:

*Vo 'smadin ul mahliqo qoshig'amu tazyin erur,  
Husn devoni uza yo matlai rangin erur.*

Shoir oddiy, kundalik kechmislardan hayratlanarli badiiy namunalar topadi:

*Oy, kun shomu sahar yer yorilib yerga kirar.  
Uyalur baski, ruxi oyina pardozingdin.*

**Yoki:**

*Bihamdillohki, jononim meni masti nigoh etti,  
Ko 'zim bog'in niholi qomatiga jilvagoh etti.*

**Yoki:**

*Surmalig' sohir ko 'zing ustida minayi qoshing,  
G'amzayi xunrez shamshirig 'a yoshil qin erur.*

Dialog-munozara g'azallar g'azal janri imkoniyatlarini kengaytiradi. Lirik obrazlar tabiatini, ruhiy holat miqyoslarini mukammalroq yoritadi. Tasavvurimizda timsollarning jonli, dramatik muloqot manzarasi namoyon bo'ladi. Nishotiy ham shunday g'azallarning o'ziga xos namunalarini yaratishga tuyassar bo'lgan:

*Dedim: "Ey gulrux, yuzing nazzora qil, oyg'a boqib,"  
Dedi: "Ko'rman orazim bu tiyraro' ko'zgu bila".*

**Yoki:**

*"Husn devonig'a tug'romu qoshing", -dedim, dedi:  
"Kotibi taqdirdin bu matlayi rangin erur".*

Nishotiy she'riyatining o'ziga xos va kitobxon yuragiga yaqin bo'lishi uning katta ijodiy mактаб o'tagani bilan ham bog'liq. Shoir asarlari bilan tanishib, adibning qadimiyligi an'analarga ega ulug' Sharq madaniyati, tarixi, adabiyotining chuqr bilimdoni bo'lganining guvohi bo'lamic. Shoir badiiy ijodda, ayniqsa, Navoyi, Fuzuliy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviyarni o'ziga ustoz deb biladi. Ularning ko'plab g'azallariga naziralar, muxammaslar bog'laydi. Salaflari ijodidagi ko'ngliga yaqin tuyg'ular, kechinmalar, dardu armonlar tasvirini munosib davom ettiradi. Navoyi g'azaliga yozilgan quyidagi muxammas Nishotiy mahoratini Navoyivor mezonda o'lchashga izn beradi:

*Bo 'ldi xoki tan quyun ul sarvi xushraftorsiz,  
Bo 'lmag'ay olamda mandek baxti barxurdorsiz,  
Bir qurug'on naxldekkim, bo 'lsa bargu borsiz,*

*Navbahor ayyomi bo 'lmish man diyoru yorsiz,  
Bulbul o 'lg'ondek xazon fasli gulu gulzorsiz.*

Diyoru yorga muhabbat insonni yuksaltiruvchi vosita. Bu ikkisi z u yo'ldan adashadi, xarob bo'ladi. Ildizsiz, mevasiz daraxtga o'xshab qoladi. Nishotiy kichkina hayotiy misol orqali buning chuqu'i mohiyatini yoritib bera olgan: Daraxt sahroda qumni ko'chishdan, to'zishdan saqlaydi. Muxammasning birinchi misrasida shunga ishora qilingan. Xoki tan-vujud ul go'zal sarvsiz quyun yanglig' barbob bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Nishotiy ustozlariga ulkan ehtiromini saqlagan holda, o'z so'zining ham qadri balandligini, ilmi donishda, nazm mulkida munosib shogirdlik mezoni bilan o'z she'rlariga faxriya usulida baho beradi. Biz bunga Nishotiy asarlarida asos bor deya olamiz:

*Dedi altofi so 'zig 'a ko 'z solib ul sho 'xi shang,  
Bahri ma 'nida Nishotiydur agar changi nahang,  
Gohi donishda Navoyi ham erur g 'arron palang,  
Gar Sulaymon mulkicha bordur Navoyig 'a ne tong,  
Chunki bil qaysi zamon nazmini tahsin aylamish.*

Yoki:

*Emas erdim so 'z ahli siridin bo 'lmaklikka voqif,  
Ani istab jahon mulkida bo 'ldum har taraf toyif,  
Nishotiy, she 'ri ranginin ko 'rub bo 'ldi ko 'ngul xoyif,  
Dedim: "Nazm ahlining sarxayli kim bo 'lg 'oy? "-dedihotif:  
"Navoyi bo 'lg 'oy, ulkim sen tilaydursan agar bo 'lg 'oy".*

**"Qushlar munozarasi"** asari. Nishotiyning axloqiy-ta'limiy g'oyalarini ifodalovchi "Qushlar munozarasi" asari ham e'tiborga molikdir. Shoirning bu asari allegorik- majoziy xarakterga ega bo'lib, 300 misradan iborat.

Shoir g'oyalarini 14 qushning o'zaro bahsu munozaralari orqali bayon etadi. Asarda go'zal bir bog'da laylak, qumri, zog', bulbul, to'ti, tovus, humo, hudhud va boshqa qushlar bahsi aks ettiriladi. Qushlarning hammasi o'z fazilatlarini maqtashadi. Laylak, tovus

o'zlarining go'zalliklarini, qumri, bulbul xushxonliklarini, humo  
ozoruzligini pesh qilib o'zlariga ta'rifu tavsif berishadiki, shoir bu  
mijqanchoqlik va kibru havoni rad etadi. Odob, kamtarlik, samimiylik  
ta'litalarini targ'ib etadi va ulug'laydi. Hudhud ijobiy obraz sifatida  
talqin etiladi. U barcha qushlarga o'z kamchiliklarini fosh etib  
bosblaydi:

*Dedikim, ey g'alatnamo qumri,  
Yuzingga kelmadi hayo qumri.  
O'zingni taniyu haddin oshmagil,  
Haddingni bilu taqi taloshmagil.*

"O'zingni taniyu haddin oshma". Hudhud tilidan aytilgan bu  
o'zlarda shoirning asosiy g'oyalari o'z ifodasini topgan. Bu orqali har  
bir inson o'zligini anglashga, kamolotga erishishga targ'ib etiladi.  
Asarning tili sodda, ravon. Nishotiyning ijodiy faoliyatida Navoyi  
m'malariga ergashish, uni davom ettirishga intilish kuchli. "Qushlar  
munozarasi"da ham uning "Lison ut-tayr" asarining ta'siri yaqqol  
uziladi. Shoirning shu yo'nalishdagi bir asar yaratishni maqsad etgani  
ko'rinib turadi.

**Muhammadniyoz Nishotiyning "Husn va Dil" dostoni.**  
Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asr o'zbek adabiyotining  
xonuzmdagi ko'zga ko'ringan, iste'dodli vakillaridan biridir. Uning  
eng yirik asari "Husn va Dil" dostonidir. U 1778-yilda Buxoroda  
yozilgan. Asarning yozilish tarixiga oid ba'zi fikrlar dostonning kirish  
vi xotimasida berilgan. Unda e'tirof etilishicha, bir do'stining  
maslahati bilan besh oyda yozilgan ekan:

*Baytki taxminan erur etti yuz,  
Etti mingu to'qson iki bo'lди tuz.  
Kisvati nasr ila bo'lub ziynati,  
Yona arab lafzi edi xil'ati.  
Rum eli ham nasr ila onga nigor,  
O'z tilidin etkon ekon ixtiyor.  
Dedi mungo nazm duri birla zeb,  
Bergil, ulusdin olib avval shikeb.*

*Bo'yla degoch fotiha qildim talab,  
Tutgum o'zimga neki erdi taab.  
Qildim oni nazm qilurg'a qiyom,  
O'tti mashaqqat bila besh oy tamom.*

Yuqorida shoirning o'zi ta'kidlaganidek, Husn va Dil sarguzashtining syujeti Sharq adabiyotida mashhur bo'lib, bu yo'nalishda fors-tojik, arab, turk tillarida bir qancha nasriy asarlar yozilgan.

XV asr fors-tojik adabiyotining yirik vakili Fattohiy Nishopuriy "Hikoyati Husnu Dil" asarini yozgan.

XVI asr oxirida Mushfiqiy shu syujet asosida "Gulzori Eram" asarini yarattdi. Bundan tashqari, Ali Ohiy, Shayx G'oliblar ham shu mavzuda asarlar yaratishgan. Bularning har biri o'zicha yangi, mazmun-g'oya jihatidan ham, badiiylik jihatidan ham mustaqil asarlardir.

"Husn va Dil" mazmun va tuzilish jihatidan ancha murakkab. Shoirning o'zi e'tirof etganidek, doston 15584 misradan, 62 bobdan iborat. Dastlabki boblar kirishni o'z ichiga oladi. 6-bobda shoir o'zining musofirchilikdagi g'arib hayotini aks ettiradi. 7-bobda dostonning yozilish sabablari haqida so'zlaydi. 8-bobda so'z qudrati borasida fikrlarini bildiradi. 9-bobda esa, "besh xazina" - "Xamsa" yaratgan ustoz shoirlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoyilarning so'z mulkidagi ulug' xizmatlari e'tirof etiladi:

*Ul birisin Shayxi Nizomiy degil,  
Mamlakatu mulki nizomi degil.  
Bu biridir Xusravi olijanob,  
Torami nazm uzra munir oftob.  
Ul birisi hazrati Jomiy erur,  
Dahr elining pok kalomi erur.  
Yana biri bulbuli dostonsaro,  
Ya'ni Navoyi erur ul xushnavo.  
O'zga erur donishu farhang anga,  
Etti falakdir etti avrang anga.*

*Etti aqolim uzadur moh ul,  
Etti qalam ahlig'adur shoh ul...*

Shoirning dostonda keltirilgan ayrim fikrlaridan "Xamsa"navis ustozlarga ehtiromini his etamiz. Nishotiy ham "Xamsa" yaratishni niyat qilgan. Besh dostondan iborat "Xamsa" mualliflari soni ham beshta bo'lishini orzulagan. "Husn va Dil" asarini dastlabki doston sifatida yaratgani:

*Deguchi ham besh bo 'lubon qiylu qol,*

*Etsa mutobiq tushar anga bu hol.*

*Besh o 'lubon gulshanu besh andalib,*

*Har biriga birisi bo 'lsun nasib...*

*To 'rt kitob andaki mazkur erur,*

*Xamsalig' oti bila mashhur erur.*

*Har birining avvalida bir kitob -*

*Bor edikim, anda edi fathi bob.*

*Birining oti "Maxzani asror"i shavq,*

*Ul birisi :"Matla'i anvor"i shavq.*

*Yona biri "Tuhfatul-ahror" edi,*

*Biri aning "Hayratul-abror " edi.*

*Man dog'i anlarg'a demaklik javob,*

*Istabon ayttim bu so'zi irtikob.*

10-bobda shoirning qalamga murojaati beriladi. 11-bobdan boshlab dostonning asosiy qismi boshlanadi. Har bir bobda, xuddi "Xamsa" sarlavhalari kabi, avval qisqa nasriy mundarija berilib, keyin she'riy mazmun bayon etiladi. Doston syujetini, shoir g'oyalarini mukammallashtirish maqsadida asar tarkibiga: 1. "Sahboz va Bulbul"; 2. "Gul va Daf"; 3. "Nay va Naxl"; 4. "Kosayi Chin va Nargis"; "Binafsha va Chang" nomli beshta munozara va lirik chekinishlar ham kiritilgan.

Shoirning butun maqsad va g'oyalari Husn va Dilning ishqiy sarguzashtlari dramasi zaminiga singdirilgan.

Shoir voqealar bayonida sof muhabbatni, yaxshi insoniy fazilatlarni kuylaydi. Sevishganlar dahshatli voqealarni boshdan kechiradilar. Maqsad yo‘lidagi to‘siqlarni sabr-bardosh va kurash bilan yengib tinchlik, birdamlik, mehr-oqibat, muhabbat, baxt tantanasiga erishadilar. Bu doston uzoq yillar insoniy muhabbatni kuylovchi, markazlashgan davlatni quvvatlovchi asar deb baholanib kelindi. Bu fikr to‘g‘ri. Ammo, faqat shu bilan cheklansak, shoir nuqtayi nazarini to‘liq anglamagan bo‘lamiz. Dostonning mohiyatiga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, uning g‘oyaviy (mafkuraviy) miqyosi kengroq ekanligini tushunamiz.

“Husnu Dil”da shoir ham majoziy, ham haqiqiy ishq tilsimlarini so‘zlashga erishadi. Asardan xos va avom barobar manfaat topadi. Tasavvuf ta’limotining bosh g‘oyasi – Olloh diydoriga yetish. Asarda bu yo‘l badiiy obrazlar vositasida bayon etiladi. Bu esa o‘z navbatida murakkab nazariy ma’lumotlarni tushenishni osonlashtiradi. Buni Nishotiyning o‘zi ham e’tirof etadi:

*Husn ila Dildin qilib guftugo,  
Bergil anga tozau tar rangu bo‘,  
Ya‘ni majoz ila haqiqat qarin<sup>313</sup>,  
O‘yla so‘zung bo‘lg‘usidur dilnishin.  
Ahli haqiqat topib ondin navo,  
Xayli majoz oni ko‘rub xushnavo.  
Ikkisining ko‘nglig‘a marg‘ub o‘lub,  
Ikki jahon ahlig‘a matlub o‘lub.  
Toki sening so‘zinga bo‘lg‘oy rivoj,  
Ikki jahon qilg‘ay ani boshga toj.*

Demak, shoir o‘zi ta’kidlaganidek, doston tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini ham targ‘ib etuvchi asardir. Donishmandlarimiz tasavvuf o‘zidan o‘lib, o‘zi birla tirilish yo‘lidir, deyishgan. Bu inson o‘zligini anglashi, o‘zligini topishi uchun nafsoniy intilishlarni, vujudiy qafaslarni sindirib borishi kerak, demakdir. Inson ana shundagina g‘olib keladi. Kamolotga erishadi. Barkamollik esa kishini mo‘tabar

<sup>313</sup> Қарин – ЯКИН

martabaga ko'taradi. U olamning va odamning mazmun-mohiyatini anglash sharafiga muyassar bo'ladi:

*O'zlukidin qolmasa oning asar,  
Bilgusidur parda ichidin xabar.*

Bunday ogohlilik darajasiga olib boruvchi vosita ishqdir.

*Har kishi gar etmas o'zidin guzar,  
Ishqdin ul bo'lg'on emas bahravar.*

Barkamollik – nafsoniyavaslarni yengish yo'li. Bu esa yengil ish emas. Uning uchun kishida ulkan jasorat, qanoat, iroda, sabr, intilish va intihosiz ishq mavjud bo'lishi kerak. Shundagina mashaqqatli yo'lni yengib o'tib, oliy maqsadga yetish mumkin. Nishotiy ana shu kamolotga erishish bosqichlarini voqealar rivoji orqali ifodalashga harakat qilgan. Bosh obraz Fuodning Husn diydoriga yetishguncha boshidan kechirgan mashaqqatli sarguzaschlari dostonning asosiy g'oyasini yoritishga xizmat ettirilgan. Hatto, «Husn va Dil» timsollarining nomlanishi ham chuqur mazmunga ega. Ular majmuuni yaxlit bir jism deb qarashimiz mumkin. Masalan, Fuod (arabcha-ko'ngil) – ko'ngilning "Qal'ayi jism"da yashashi, Husnning "Qal'ayi diydor"da yashashi. Ko'ngilga tushgan ishq-muhabbatning husnga, diydorga erishgunicha orada turgan to'siqlar, iztiroblar – bularning hammasi ramziy ma'nolarni anglatishi o'z-o'zidan ayon ko'rinish turibdi. Aql, Husn, Ishq, Dil, Nazar, Himmat, Sabr, Vafo, Xayol, G'amza, Raqib, Nomus va boshqa obrazlar nomlanishida ham buni sezish mumkin. Dostondagi "Obi hayot" obrazi ham ramziy ma'no kasb etadi. Abadiy hayot baxsh etuvchi suv "Shahri diydor"da. Qachonki, riyozatlarni yengib Diydorga erishgandagina abadiylikka muyassar bo'lish mumkin:

*Ya'ni qaro qayg'ug'a qilg'on sabot.  
Topg'usidur istasa obi hayot...*

Nishotiyning mahorati faqat doston syujetidagi ko‘pma’ nolilikda, teranlikda emas, balki asarning badiiy barkamolligida ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘plab she’riy san’atlardan mohirona foydalanadi. Xalqona, hikmatomuz iboralarni, maqollarni o‘rinli ishlatadi. Tabiatdan takrorlanmas, yangi o‘xshatishlar topadi. Tazod, husni ta’lil, tashbeh, mubolag‘a san’atlarining nodir namunalarini yaratadi:

*Tutmasa gul xori balo ichra xo,  
Bo‘lmas edi anga bu rangu bu bo.*

Yoki:

*La‘l agar qolmas esa sang aro,  
Bo‘lmas edi mehr kibi rang aro.*

Yoki:

*Har kishikim, ilgini davlat o‘par,  
Ko‘kda nekim istasa erdin topar.*

Yoki:

*Ishq ila boronni huvaydo qilib,  
Oh o‘tidin barqni ifsho qilib...*

### **Tayanch tushunchalar:**

*Matnshunoslik, an‘anaviylik, dialog-munozara g‘azal, tajohul ul-orif, komil inson, ishq, allegorik, ramziy.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nishotiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi haqida so‘zlang.
2. Shoir she’riyatidagi lirik qahramon tabiatini talqin eting.
3. Nishotiy she’riyatida an‘ana va novatorlik munosabati borasida muhokama yurgizing.
4. “Qushlar munozarasi”da an‘ana va badiiy yangilik haqida so‘zlang.
5. “Husn va Dil” dostonini mutolaa eting.
6. “Husn va Dil” dostonining yaratilish tarixi borasida mulohaza yurgizing.
7. Dostonning muqaddima qismlarini tahlil eting.

8. Asosiy qism tarkibi, kompozitsiyasi, timsollar olami haqidā fikringiz?

9. Dostonning mavzu va g'oyaviy ko'lамини muhokama eting.

10. Asar tarkibidagi munozaralar va ularning ahamiyatini qanday tushunasiz?

11. Shoirning dostonnavislikdagi mahorati borasida mulohazalariningizni bildiring.

### *Asosiy adabiyotlar:*

1. Nishotiy. Tanlangan asarlar. T.: 1960.

2. Nishotiy. Husn va Dil. Lirika. T.: 1967.

3. Nishotiy. Qushlar munozarası.

4. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. T.: 1975.

5. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyası tarixidan.

6. Abduvohidova M. O'zbek adabiyotida munozara.

7. Ayyomiy. O't chaqnagan satrlar.

8. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild.T.: 1978.

## NURMUHAMMAD ANDALIB

*(Taxminan 1710-1711- yillarda tugilib, 1770-yilda vafot etgan)*

### *Reja:*

1. Nurmuhammad Andalib hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
2. Adibning tarjimayi holi.
3. Adabiy merosi.
4. "Zaynularab" dostonida an'ana va novatorlik. Obrazlar tizimi.
5. O'zbek mumtoz adabiyotida shoirning "Yusuf va Zulayho" dostonining o'rni.
6. "Layli va Majnun" dostonida an'ana va o'ziga xoslik.

**O'rganilishi.** Nurmuhammad Andalib mumtoz adabiyot tarixida turkman va o'zbek xalqining mushtarak adibi sifatida tan olingan. Uning lirik she'rlari, dostonlari o'ziga xos sahifani tashkil etadi. U shoir va tarjimonlikda noyob salohiyatga ega edi. Shu sababli ijodkor merosi har doim adabiyotshunos olimlar e'tiborini jalb etib kelgan. Ularni o'zbek, turkman, rus va g'arb olimlari tadqiq etishgan, nashr ettilishgan.

Shoirning "Yusuf va Zulayho" dostoni 1904-1912-yillarda 6 marta chop ettirilgan. 1867-yilda "Sa'd Vaqqos" dostoni Venger sharqshunosi H. Vamberi tomonidan nashrga tayyorlanib, "Chig'atoy adabiyoti xrestomatiyasi"ga kiritilgan. 1916-yilda "Layli va Majnun" dostoni Toshkentda nashr etildi. "Zaynularab", "Sa'd Vaqqos" dostonlari ham bir necha marta chop etilgan. Shoir dostonlari Turkmanistonda ham qayta-qayta nashr etilgan.

XX asr I yarmida Fitrat tuzgan xrestomatiyaga va 1959-yilda jamlangan "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasiga ham shoir ijodidan namunalar kiritilgan.

O'zbek adabiyotshunosligida prof. V. Abdullayev Andalib ijodining tabiatini, o'ziga xos xususiyatlarini, dunyoqarashini, mahoratini chuqr yoritishga harakat qilgan. B. Valixo'jayev, Q. Tohirov, S. Nazrullaeva kabi adabiyotshunos olimlar ham shoir merosiga oid muhim xulosalar bayon etishgan. Andalib ijodini o'rganishda, ayniqsa, turkman adabiyotshunoslarning mehnati

ulkan. B. Axundov, A.Ulug'berdiev, G.Nazarov, N.Xo'jaev, B.Shomurodov kabilarning tadqiqotlarida shoir merosi chuqur tahlil va talqin etilgan. E.E.Bertels, H.Arasli kabi mashhur olimlar ham Andalib ijodi haqida qimmatli mulohazalar bayon etishgan.

Andalib haqidagi ma'lumotlarni qiyoslaganda ba'zan munozarali o'rnlarga ham duch kelamiz. Jumladan, shoir dostonlarining nomlari va miqdori turli tadqiqotlarda turlicha ko'rsatiladi. Mumtoz adabiyotda Andalib taxallusi bilan bir qancha shoirlar ijod qilgan. Shulardan biri Nurmuhammaddir. Balki dostonlari bilan aloqador bahsli muammo shu bilan bog'liqdir. Xullas, o'zbek adabiyotshunosligida Andalib ijodini o'rganish borasida vazifalar bisyor. Shoir dostonlarining mavzu va g'oyaviy xususiyatlari, mahorat qirralari , mualliflik borasidagi qat'iy xulosalar o'z yechimini topishi, o'rganilishi zaruratdir.

*Tarjimayi holi.* Andalib haqidagi ma'lumotlar bizgacha, asosan, uning asarlari orqali etib kelgan. Uning ismi Nurmuhammad. Taxallusi Andalib (Bulbul). Ko'hna Urganchning Qoramizi qishlog'ida tug'ilgan. U Xevada Shohg'ozixon hukmdorligi davrida (1765-1767) "Yusuf va Zulayho" dostonini yozganini aytadi. O'sha paytda 55 yoshdaligi haqida ma'lumot beradi:

*Barcha xaloyiq ichida bad ishim,  
Yetdi ellik beshga mening bu yoshim.*

Demak, u taxminan 1710-1711-yillarda tug'ilgan. 1770-yilda vafot etgan.

*Adabiy merosi.* Andalib ijodida Navoyi, Fuzuliy, Mashrab an'analarining ta'siri va davomiyligini ko'ramiz. Ulardagi g'oyalar mutanosibligini, timsollar uyg'unligi va dunyoqarash hamohangligini his qilamiz.

Andalibning lirik she'rlari bizgacha 20ga yaqin to'plam va bayozlar tarkibida etib kelgan. Devoni haqida ma'lumot yo'q. Bayozlarning eng qadimiylari 1198 raqamlisi (1792-yil) va 6973 raqamlisi (1793-yil) dir. Ushbu bayozlarning ikkalasida ham bir xil

– shoirning 6 ta muxammasi kiritilgan. Uning bizga bor-yo‘g‘i 35 ta she’ri ma’lum. Shundan 23 tasi taxmis, 3 tasi g‘azal, 5 tasi shoirning o‘zi yozgan mustaqil muxammas, 1 tasi musamman, 1 tasi musaddas, 1 tasi murabba, 1 tasi muvashshax. Ularning jami 1200 misraga yaqin.

Andalib epik yo‘nalishda ham asarlar yaratgan. “Zaynularab”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Sa’d Vaqqos” dostonlari shular jumlasidandir.

Andalib tarjimon sifatida ham o‘z salohiyatini namoyon eta olgan. U “Mirzo Hamdam” dostonini forschadan turkchaga o‘girgan.

Andalib dostonnavis sifatida shuhrat qozondi. Mumtoz adabiyotda, ayniqsa, uning “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” hamda “Zaynularab” dostonlari muhim. Shoir ularda xalqning sevimli timsollari taqdiri bilan bog‘liq an‘anaviy syujetlarni asos qilib oladi. Yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki ijodida ham qayta-qayta murojaat etilgan mavzularga Andalib yangicha ruhiy talqinlar, ijodiy yondashilgan timsollar tizimi asosida yangi hayot bag‘ishlaydi. Uchala doston ham nasr va nazm shaklida yaratilgan. Andalib dostonchiligining o‘ziga xosligi shundaki, u shakl jihatidan xalq dostonchiligiga juda yaqin. Jumladan, yozma dostonlar, asosan, nazmda yaratilgan. Har bir bobda qisqa nasriy mundarija berilgan. Ammo, Andalib dostonlarida nasr miqdori va vazifasi ottgan. Badiiy tasvirda nazm bilan nasr baravar ishtirok etgan. Nasr va nazmning o‘rin almashib turishi, o‘quvchi uchun doston syujetining aniq yetkazilishini, ruhiy holatlarni izohlash, sharhlab borilishini ta’minlaydi. O‘quvchini toliqtirmaydi.

“*Zaynularab*” dostoni Doston ikki nom (“Zaynularab” va “Jangnomayi Imom Muhammad Hanafiya”) bilan yuritilgan. U diniy-qahramonlik mavzusidagi doston. Undagi Ali va o‘g‘illari Imom Hasan, Imom Husayn, Imom Muhammad Hanifa diniy adabiyot timsollari. Bosh qahramonlardan biri Imom Muhammad Hanifa faoliyati muslimonlashtirish siyosati bilan bog‘liq. Muhammad Hanifa jasoratli, aqlii va komil axloqli inson sifatida

talqin etilgan. Ushbu timsol tabiatini yoritishda, Zaynularab timsoli muhim o'rin tutadi. Ular o'rtasidagi vafo, sadoqat, muhabbat kamolot belgisi sifatida talqin etiladi. Malika Tug'ro, Amloq kabi timsollar esa bosh qahramonlar ma'naviyatini sinovlardan o'tkazishda ishtirok etuvchi qo'shimcha timsollar sifatida yaratiladi.

Doston syujeti izchil va tig'iz voqealar tizimidan iborat bo'lish bilan birga, ruhiy tahlilning chuqurligi, badiiy ifodaning yuksakligi bilan ham mumtoz adabiyotda muhim o'rin tutadi. Muhammadning, ayniqsa, g'ariblikda zindonda yotgan paytdagi kechinmalari, o'y-fikrlari ta'sirli ifodalangan:

*Ne nayranglar bilan tazvir etibsan, ey falak, naylay,*

*Otam diydorini mastur etibsan, ey falak, naylay.*

*Tushabdur necha dushman ichra bu yolg'uz g'arib boshim,*

*Diyoru mulku eldin dur etibsan, ey falak, naylay.*

Dostonning badiiy uslubi xalq og'zaki ijodi namunalariiga, xususan, dostonlarga juda yaqin. Bu timsollarning tabiatи, bir-biri bilan munosabati, syujet tizimidagi voqealar jarayoni, rivojida ko'rindi. Jumladan, Muhammad va akalari oldidan uch yo'l chiqishi, u "borsa kelmas"ga ketishi, raqiblar bilan kurashib ularni yengishi, Zaynularabni dev olib qochishi va boshqa shu kabi tasvirlar xalq dostonlariga xos yo'nalishlar ekanligi ma'lum. Muhammadning zindonda Zaynularab bilan xayolan suhbatи tasviri ham bizga xalq dostonlari uslubini eslatadi:

*Sani istab chiqdim emdi buyona,*

*Bilmadim, jononim, holing ne kechti,*

*Yusufi Kan'ondek tushib zindona,*

*Zulayho nishonim, holing ne kechti.*

*G'amgin ko'nglum xayolingdin sovutman,*

*Sandin g'ayri dirlaboni yovutman.*

*San mani unutma, sani unutman,*

*Toza gulistonim, holing ne kechti.*

O'zbek mumtoz adabiyotida XVIII asrda yaratilgan dostonlarda ramziylik kuchli. Buning eng yuksak namunasi sifatida Nishotiyning "Husn va Dil" dostonini bilamiz. Andalib dostonlarida ham biz ana shu xos xususiyat belgilarini kuzatamiz. Jumladan, "Zaynularab" dostonida ham Kibr, Tahroq, Qatron, Anqo, Qo'rqoq va hatto Zaynularab ismlarida ham ramziylik ishoralariga duch kelamiz.

**"Yusuf va Zulayho" dostoni.** Hazrati Yusuf alayhissalom taqdiri bilan bog'liq sarguzashtlarning asosi "Qur'on"ga borib tutashadi. Kalomullohdagi Yusuf surasi asosida XX asrgacha ko'p asarlar maydonga keldi. Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostonining yaratilish asosi ham shu bilan bog'liq. Muallif asarda uning yaratilish tarixi, yozilish sababtariqa to'xtaladi. Uning e'tiroficha, doston turkigo'y qavmlar ehtiyojini inobatga olib yaratilgan. Asar oshiqi pokdomonni kamolga etkazishga, haqiqiy ishqdan saboq berishga mo'ljallangan:

*Dedi alar: Andalibi benavo,  
Ko'nglumiza tushti ajab mojaro.  
Bor "Qisas" ichra ajab doston  
Ne bo'ladur qilsang ani bo'ston.  
Yusufu Siddiqu Zulayhoni sen,  
Turki xaloyiqda qilib bir chaman.  
Eldin ela olib ani qilsa bo'y,  
Bir necha zebolar ichra guftugo'y.  
Ishqi haqiqiyni saboq aylasun,  
Bo'yla, erur oshiqe, pok aylasun.*

Hayot juda murakkab. Turmushning mashaqqatli sinovlari kimnidir tushkunlikka tushiradi. Kimnidir dovdiratadi. Kimnidir to'g'ri yo'ldan adashtiradi. Kimnidir iztirobga soladi. Yusuf qismati bilan tanish o'quvchi esa undan juda katta saboq oladi. U sabr - qanoat, iroda ramziga aylangan timsol. Jahon adabiyotida inson irodasining bunday mukammal tasvirini uchratish qiyin.

Andalib dostonidagi Yusuf timsolining badiiy talqiniga baho berishda “Yusuf surasi” qo‘l keladi. Chunki surada Yusuf, asosan, payg‘ambar sifatida ko‘rsatilgan. Zulayho timsoliga e’tibor berilmagan. Dostonda esa badiiy qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlari tabiiy, hayotiy yo‘sinda tasvirlangan. Tasavvurimizda timsollar voqealar jarayonida tirik va jonli harakatlanadi. Syujet tizimini yaxlit bog‘lab turuvchi timsollar majmui yaratiladi. Ularning o‘zaro munosabatlari va ishq tasviri yetakchi o‘ringa chiqariladi. Andalib o‘z dostonida davri uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy masalalarni, xalqning orzu-o‘ylarini ham singdiradi. Bu esa, avvalo, dostonning qimmatini oshirsa, ikkinchidan, asarni hamma zamonlar uchun eskirmaydigan g‘oyalar targ‘ibiga aylantiradi. Yusuf va Zulayhoning sevgi dostoni aspektida shoir insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega umumbashariy g‘oyalarni aytishga erishadi.

Dostondagi bosh qahramon Yusuf donishmandlik, aql-idrok, sodiqlik, vafodorlik, bir so‘z bilan aytganda, komillik ramzidir. U mehr-oqibatli farzand, uka va yor. Kechirimli inson. U faqat shaxsiy va qarindoshchilik rishtalari bilan cheklanmaydi. Tasavvurimizda xalq g‘amini yeyuvchi ulkan shaxs timsoli sifatida gavdalananadi.

Zulayxo timsoli doston syujeti davomida takomillashib boradi. Bu obrazlar bir-birini to‘lg‘azadi. Ularda biz dunyoviy real tasvirlarni ko‘ramiz. Ammo, dostonidagi turli taqdirlar kechmishida biz botiniy kamolot tadriji ifodasi ham borligini anglaymiz. Zulayxo ishqini dastlab avom ishqini bo‘lgani uchun ko‘p azoblarga duchor bo‘ladi. Keyinchalik u xos ishqiga aylanadi. Bu holat chuqur ruhiy jarayonlar tasvirida ko‘zga tashlanadi.

Yusuf dostonida «Misr Azizi» unvonini olishga tuyassar bo‘ladi. Buning sababi, u o‘z donoligi tufayli Misr aholisini yetti yillik ochlikdan saqlab qoladi. Faqat bir kishi ochlikdan olamdan o‘tadi. Yusuf shu bir kishi taqdiri uchun ham o‘zini mas’ul va gunohkor sezadi. Uzoq payt uni o‘ylab iztirobda yuradi.

“Yusuf va Zulayho” dostonida Andalibning o‘ziga xos badiiy mahorat qirralari namoyon bo‘ladi. U an’anaviy syujet bo‘lishiga

qaramasdan, shoir tomonidan yangi timsollar qo'llanadi. Jumladan, opasi xuddi shunday timsol. U mehribon, ukasi uchun qayg'uruvchi, jonini berishga ham tayyor ayol obrazi. Yuragi Yusufning mashaqqatli qismatini oldindan sezadi. Uning uchun qayg'uradi. Bu obraz asarda bir marta qisqa epizodda ko'rindi. Ammo, kuchli ruhiy holat tasviri uning o'quvchi tasavvurida mustahkam muhrlanishini ta'minlaydi. Unga xayrixohlik paydo bo'ladi. Boshqa dostonlari kabi "Yusuf va Zulayho"da ham xalq dostonlariga xos shakl va uslub yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, qahramonlarning tush ko'rish, taqdirdagi ayrim hodisalarini u orqali oldindan sezish holatlari xalq og'zaki ijodida faol qo'llangan badiiy vositadir. Andalib dostonida bundan ko'p o'rinda muvaffaqiyatli foydalangan. Ushbu vositani qo'llash shoирга timsollar tabiatini chuqurroq yoritish, syujetdagi dramatik talqinni kuchaytirish imkonini bergen. Asarda xalqona iboralar, so'zlar tizimidan ham unumli foydalaniladi. Jumladan, xalq orasida ishlatiladigan "tili kuymoq" ma'nosidagi "jigi-jigi" iborasini doston tarkibidagi bir g'azalda radif sifatida qo'llab, shoir Yusuf yuragidagi histuyg'ular, ruhiy g'alayonlarni aniqroq va ta'sirliroq etkazishga erishgan:

*Tutashdi yondi jonimiz, Zulayhojon, jigi-jigi*

*Quridi tanda qonimiz, Zulayhojon, jigi-jigi.*

*Olbu dunyo xirojini, menga ber husning bojini,*

*Baxsh etdim taxtu tojini, Zulayhojon, jigi-jigi.*

Doston tarkibiga murabba, g'azal kabi turli janrlardagi asarlar ham singdirilgan. Ulardagi chuqur ruhiy talqin imkoniyati timsollar tabiatini yoritishda qo'l keladi. Shoir asarda mumtoz badiiy san'atlardan ham o'z mavridida foydalana olgan. Yusuf tilidan aytilgan quyidagi g'azalda mubolag'a, talmeh, tashbeh, tarse, istiora kabi bir nechta san'atlarni yonma-yon qo'llaydi. Bu g'azalning ohangdorligi, ravonligini ta'minlaydi va qisqa hajmda katta mazmunni qamrash imkonini beradi. U esa o'z navbatida timsol ruhiy holatini chuqur ifodalaydi:

*Ishqingda beqaroram, qilg'il vafo, Zulayhom,*

*Hajringda intizoram, qilg'il vafo, Zulayhom.*

*Ashkim girdob xeliday, to'fon ila seliday,*

*Majnun birla Layliday, qilg'il vafo Zulayhom.*

*Za'far bo'lди ishqu hol, Sayfulmuluk, Karam lol,*

*Misli Badiuljamol, qilg'il vafo, Zulayhom.*

*Iqror bo'lib xaloyiq, diydora ko'r muvofiq,*

*Sansan Uzro man Vomiq, qilg'il vafo, Zulayhom.*

*Boqib nihon zohira, Bobo vazir Bohira,*

*O'xshab Zuhra Tohira, qilg'il vafo, Zulayhom.*

*Labing sharobi zamzam, yuz ming yaroga malham,*

*Gar qulingman, ey sanam, qilg'il vafo, Zulayhom.*

Asar syujetining izchilligi, voqealarning bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda berilishi uning kompozitsiyasidagi yaxlitlikni belgilaydi. Bunda shoir “sababsiz oqibat yo‘q” degan aqidaga amal qiladi. Har bir qilmishning javobgarligi borligini unutmaslikka e’tiborni tortadi. Jumladan, Ya’qubning farzand dog‘ida azoblanishiga bois o‘z kanizagi o‘g‘lini sotib yuborishi, Yusufning quduqqa tushishiga bir zohidning uning husnu jamolini ko‘rish ishtiyoqida quduqda ko‘p yillar yotishi, Yusufning 18 qora tangaga sotilishiga oynaga qarab husnidan mag‘rurlanishi, Zulayhoning og‘ir ishq iztirobiga duchor bo‘lishiga esa hirsga berilishi sabab qilib ko‘rsatiladi.

Xullas, “Yusuf va Zulayho” dostoni mumtoz adabiyotda dostonchilik bilan bog‘liq ko‘p muammolarning hal etilishiga xizmat qiladi. Uni nashr ettirish ham muhim vazifalardan.

**“Layli va Majnun” dostoni.** Layli va Majnunning ishqiy sarguzashtlari ham adabiyotda ko‘p murojaat qilingan mavzulardan. Bu yozma adabiyotda ham, xalq dostonlarida ham keng ishlangan. Ikki timsol ham adabiyotda oshiq va ma’shuq kamoloti ramziga, ishqdagи ular erishgan yuksaklik esa oshiqlar uchun maqsad manziliga aylangan.

Andalib mazkur mavzuda doston yaratish ekan, uning Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Navoyi, Hotifiy va Fuzuliyning shu

boradagi dostonlari bilan tanishligi ko‘rinib turadi. Ayniqsa, Fuzuliy “Layli va Majnun”ining tili, ifoda uslubi, timsollar qo‘llanishi va syujet tizimining ta’siri kuchli bo‘lganligi seziladi.

Ammo, syujetda yaqinlik bo‘lsada, Andalib dostonida shoirning o‘ziga xos badiiy ifoda uslubi, timsollar tizimiga xos ruhiy holatlar tasviri, ular tabiatini yoritish yo‘llaridagi ijodiylik yaqqol namoyon bo‘ladi. Dostondan ma’lum bo‘ladiki, Qaysning tug‘ilishi bu – Layli visoliga erishish yo‘lidagi birinchi qadam. U ishq va oshiqlik uchun yaralgan. Ishqdan tashqarida mavjud emas. Makon va zamonda ishq tufayli namoyon. U mavjudlikni ishqda ko‘radi. Hayoti ishqda mujassam.

Andalib dostonida Layli va Majnun taqdiriga o‘ziga xos yondashuv ko‘rinadi. Jumladan, tunda oshiq va ma’shuq tug‘ilgandan yonma-yon o‘sadi. Chaqaloqligidan bir-birisiz fig‘on chekadi. Shoir ularning 7 yoshgacha bo‘lgan hayoti va bir-biriga munosabatini ham tasvirlaydi. Bu jarayon Layli va Qays timsollarida mujassamlangan ifoda maqsadini oydinlashtirishga xizmat qilgan. Boshqa adiblar asarlarda esa ularning mакtabга chiqquncha bo‘lgan munosabatlari tasvirlanmagan.

Andalibda ikki timsol ham faol. Bir-biriga barobar intiladi. Layli passiv emas. Ularning maqsadga erishishida to‘siq bitta. U ham bo‘lsa, jamiyat. Ularga xalaqit beruvchi – atrofdagi nomukammal dunyoqarash. Ishqning mohiyatini anglamagan shaxslar majmui. Fuzuliyda esa Layli faqat ma’shuqa.

Andalibda Majnun Ka‘badan otasi bilan qaytmaganda, onasining uni izlash epizodi kiritilgan. Bu o‘rinda shoir ona timsolining, ruhiy holatlari tasvirining mukammal namunasini yaratishga erishadi.

Majnun sahroga chiqib ketadi. U zohiriy olamdan uzoqlashib, botiniy, ruhoniy dunyoda yashay boshlaydi. U kiyik, sher, qarg‘a, qushlar kabi til -zabonsiz maxluqot bilan do‘stlashadi.

Dostonda Layli va Majnun timsollarini bilan bog‘liq ko‘p timsollar ishtirok etadi. Ibn Salom, Zayd, Navfal, Majnunning ota-onasi, Laylining ota-onasi shular jumlasidandir. Ularning har biri doston syujetida dramatizmni kuchaytirishga, timsollar taqdiri va

tabiatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, asardagi onalar timsoli badiiy mukammal yaratilgan. Boshqa adiblar asarlarida epizodik ko‘rinishga ega ushbu timsollar Andalib dostonida onalarga xos shafqat, mehr va hamdardlik tuyg‘ularini o‘zida uyg‘unlashtirgan badiiy timsol darajasiga ko‘tarilgan.

Andalib dostonchiligi o‘ziga xos yo‘nalishni tashkil qiladi. U asarlarida yozma va og‘zaki adabiyot yutuqlarini ilmiy, tarixiy va islomiy donishmandlik va tafakkur hikmatlarini uyg‘unlashtira oladi. Badiiy tilda soddalik, ravonlik va aniqlikka rioya etish bilan birga, chuqur hayotiy hikmatlarni kashf etadi. Qisqa misralarda yashash qonuniyatlarini o‘ziga xos usulda ifodalab bera oladi:

*Yaxshi so ‘za uchar qushlar el bo ‘lar,  
Yomon so ‘za pashsha kuchi fil bo ‘lar.*

Shu birgina baytdayoq hayotning, inson umrining chuqur falsafasi mujassamlashtirilgan. Unda ezgulikning kuchiga, yomonlikning, zulm vaadolatsizlikning oqibatiga e’tibor jalb etilgan.

Dostonlar tarkibiga murabba, muxammas, g‘azal janridagi asarlar ham kiritilgan. Ular timsollar tabiatini, ruhiy holatlarini aniqroq ifodalashda muhim rol o‘ynagan. Shoirlarning mazkur janrlarda asar yaratish mahorati, so‘z qo‘llashdagi o‘ziga xosliklari, badiiy san’atlardan foydalanish uslubi borasida xulosalar chiqarishga asos beradi.

Andalib asarlari keyingi davr shoirlari ijodiga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Munis, Muxlis kabi shoirlar uning g‘azallariga muxammaslar bog‘ladilar. Maxtumquli, Rizoyi, Zoriy, Zavqiy, Furqat kabi adiblar naziralar yaratishdi. “Layli va Majnun” dostonida Majnun tilidan sayyodga qarata aytilgan “Sayding qo‘ya ber, sayyod, dilpora ekan mandek” misrasi bilan boshlangan muxammasdan ta’sirlanib, Furqat noyob musaddas yaratdi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Andalibning ijodiy merosi ko‘lami, mahorat qirralari, xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan

yeterli tadqiq etilmagan. Bu ishni amalga oshirish galdag'i dolzARB vazifalardandir.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Dostonchilik, majoz, sayyod, murabba, ramz, Misr Azizi, Yusuf surasi.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Nurmuhammad Andalibning mumtoz adabiyotdagi o'mni haqida so'zlang.

2. Hasbi holi, o'rganilish tarixini yorituvchi manbalar bibliografiyasini tuzing.

3. Shoir dostonlarini mutolaa eting.

4. Dostonlardagi an'ana va novatorlik munosabatini tahlil eting.

5. "Layli va Majnun" dostonini Navoyi dostoni bilan qiyoslab o'r ganib chiqing va xulosalaringizni referat tarzida taqdim eting.

6. Andalib ijodiy merosi ko'lami, mahorat qirralari, xos xususiyatlari borasida ilmiy tadqiqot olib borishga harakat qiling.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi. T.: 1959.

2. Valixo'jayev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan.

3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.

4. Abdullayev V. XVII-XVIII asrlarda Xorazmda o'zbek adabiyoti. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.

5. XVII-XIX asrlar turkman adabiyotining tarixi bo'yicha ocherklar. Ashxobod. 1967.

6. Turkman poeziyasi antologiyasi. Ashxobod. 1958.

7. Bertels Y. E. Nizami i Fuzuli. M., 1961.

## SHERMUHAMMAD MUNIS XORAZMIY (1778- 1829)

### *Reja:*

1. Shermuhammad Munisning hayoti, hasbi holi.
2. Hayoti va ijodining o'rganilish tarixi.
3. Tarjimayi holi.
4. Munisning adabiy merosi.
5. Shoир she'riyatining g'oyaviy, badiiy xususiyatlari. Janr tarkibi.
6. Qasida janrining shoир ijodidagi o'rni.
7. "Firdavs ul-iqbol"ning adabiy-badiiy manba ekanligi.

Shermuhammad Avazbiy o'g'li Munis XVIII asr oxiri, XIX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan yirik o'zbek shoiri, tarixchisi, tarjimonи va xattotidir. U "Munis ul-ushshoq" devoni, ilmiy-ma'rifiy ruhdagi "Savodi ta'lim" risolasi, "Firdavs ul-iqbol" hamda forsiydan o'zbek tiliga o'girgan "Ravzat us-safo" (Mirxond) asari bilan o'zbek madaniyati xazinasini boyitdi.

Shermuhammad Munis 1778-yilda Xeva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Avazbiy mirob oilasida dunyoga keldi. Otasi Avazbiy Xeva xonligida bosh mirob lavozimida ishlagan. Uning bolaligi to'kin-sochinlikda, mehr-muhabbat qurshovida o'tadi. U ibtidoiy ta'limni Qiyot qishloq maktabida oldi, Xeva madrasalarida tahsil ko'rdi. Shermuhammad bo'sh paytlarida sevimli mashg'uloti – mutolaa bilan shug'ullanadi. O'zining ta'kidlashicha, tarixiy asarlarni, she'rlarni o'qish unga huzur bag'ishlagan. Dunyoning mayda tashvishlaridan qutqazgan. Ruhiy ko'tarinkilik va umidvorlik baxsh etgan: "Agar falaki g'addorming gunogun hodisoti hujum qilsa, she'r mushohadasi bilakim,mahzunlar unsi va ma'munlar jalisidur, raf'i malolat qilur erdim. Agar zamoni nopoydorning rango-rang ofati g'uluv etsa, tavorix mutolaasi bilakim, avzoi ahli olam vuqufiga sabab va kayfiyati suluki bani odam ittiloig'a boisdur, daf'i kulfat qilur erdim". Munisning hayoti haqida bizgacha yaxlit va aniq ma'lumot etib kelмаган. Uning tarjimayi holi lavhalarini tiklovchi yagona manba asarlaridir. Ayniqsa, shoирning hasbi hol g'azallari va umuman,

she'riyati, "Munis ul-ushshoq" devoniga yozgan debochasi, tarixiy asarlari muallifning tarjimayi holi haqida ma'lumot beradi. Shoirning yoshlik yillari, jisman va fikran ulg'ayib, hayot murakkabliklari bilan to'qnashuvi, badiiy ijod maydoniga endi qadam qo'yan ijodkorning ijtimoiy ziddiyatlardan ta'sirlanishi manzaralarini ko'z oldimizda haqqoniy gavdalantiradi. Masalan, Munis "Debocha"da o'zining yoshlik yillarini quyidagicha tasvirlaydi: "*Ul ovoni saodatnishonda agarchi faqir vaqt muqtazosi va shabob ayyomining havosi bilakim, junundin sho 'baedur, lahvullaab kayfiyatig'a mash 'uf, rindlik va oshiqlik sifatig'a mavsuf bo 'lub, laylivash ma 'shuqlar visolining tamannosidin telbalik dashtig'a majnunvor qadam urdum va shirinmisol mahbublar jamolining tamoshosidin balo ko 'hsorig'a Farhod yanglig' o 'zumni eturdim. Masnaviy:*

*Qayon jilvagar bo 'lsa ahljamol,  
Boshimni qilib yo 'lida poymol.  
Qachon chiqsa bir uydin ovozi chang,  
Qilib raqs oning davrida bedbarang.  
Birov aylasa nay navozandalig',  
Kamar bog 'ladim qilg 'ali bandalig'...  
...Gahi maktab ichra kirib shokkom,  
Gahi madrasa sori aylab xirom.  
Qayu erda ahhob bazm aylasa,  
Tarab irtikobig 'a azm aylasa,  
O 'zumni alar ichra solur edim,  
Ko 'ngul qong 'ucha bahra olur edim.*

*Bu yo 'sunda ne zamон inqilobotidin zarrae g 'amim bor erdi, ne  
jahon hodisotidin lahzae alamim".*

Ko'rinish turibdiki, Munisning yoshlik, o'spirinlik yillari beg'am, beg'ubor o'tgan. Munis bu haqda tarixiy asari "Firdavs ul-iqbol"da ham mammuniyat bilan yozadi: "Kichiklik ovoni, yigitlik anfuwonikim, hayot olamining navbahori va umr navbahorining ayyomi xujastaosoridur, ul fasl havosi va bu mavsum taqozosi bila beparvolig' bodiyasidin jununtoz erdim va jaholat ma'rakasida

*arbadaboz, boshimda ishrat havosi vofir erdi, ko'nglumda nishot savdosi mutakosir".*

Shunday qilib, Shermuhammad Munisning o'spirinlik yillari yoshlik ehtiroslari, zavq-shavq, qizg'in va maroqli izlanish bilan kechdi. U madrasa ta'limi bilan cheklanmadni. Arab, fors tillarini mukammal egalladi. Sharq madaniyati boyliklarini tashnalik, tirishqoqlik bilan o'rgandi. She'r mutolaasi bilan shug'ullandi, zamonasidagi fozillar davrasida adabiy suhbatlarda ishtirok etdi. O'zi ajoyib she'rlar yozish barobarida Sharq adabiyotining qutlug'an'analarini mehr, ixlos bilan o'zlashtirdi. Keyinchalik Munis bir g'azalida Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroyziy, Lutfiy, Firdavsiy, Anvariyy, Sa'diy, Jomiy, Bedil va Navoyini ruhiy-ma'naviy ustozlari sifatida mammuniyat bilan xotirlaydi. Bu Munisning shoir va mutafakkir bo'lib etishuvida ularning har biridan katta fayz topganidan dalolat beradi.

Munis "Firdavs ul-iqbol" tarixiy asarida va "Munis ul-ushshoq" devoni debochasida yoshligini mammuniyat bilan eslaydi. Ammo, 1800-yilda otasining, keyinroq onasi va og'a-inilarining ketma-ket vafot etishi Munis yuragini g'amu kulfatga chulg'aydi:

*"Nasibim g'am uza g'am bo'ldi charxi gardondin,  
Musibat uza musibat etushti davrondin.*

*Andoqkim, ota va oqa-inimni bekaslik ibtilosig'a sazovor va  
motamkashlik balosig'a giriftor qildi..."*

Shoirning bir qancha she'rlarida shu alamli kunlardagi tushkun kayfiyatları, musibatlari o'z ifodasini topgan.

Otasi vafotidan keyin Munis saroyda farmonnavislik lavozimida ishlay boshladi. Bu davrda shoir Xeva ijtimoiy hayotida faol ishtirok etdi. Ustozi Navoyi kabi u ham Xorazm shahzodalari o'rtasidagi toj-taxt uchun kurashu nizolarni tinchitishga, vaziyatni m'tadillashtirishga harakat qildi. O'z asarlari orqali ularga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Bu, ayniqsa, Eltuzarxon (1804-1806) va Muhammad Rahim I (1806-1825) munosabatlarida yaqqol ko'rindi.

Muhammad Rahim 1 taxtga o‘tirgach, Munisni 1806-yilda bosh miroblik lavozimiga ko‘taradi. Saroyga yaqin bo‘lish, u erdag‘i ichki hayotni ko‘rish, mirob sifatida mehnatkash xalq turmushi bilan tanishish shoir asarlarida ijtimoiy ruhning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Jamiyatning ma’naviy-ruhiy jihatdan zil ketgan nuqtalariga zamondoshlari e’tiborini tortishga urindi. Kishilik jamiyatni tanazzuliga bois bo‘luvchi holatlarni fosh etadi.

Munis yoshlidan husnixat bilan jiddiy shug‘ullandi va xattotlik san‘atida beqiyos kamolot kasb etdi. Munisning kotiblik salohiyatini ko‘rsatuvchi dalillardan biri shuki, u Navoyining “Mezon ul-avzon” asarini 1794-yilda ko‘chirgan. Qizig‘i shundaki, 16-17 yoshlardagi Munis “Mezon ul-avzon”ni oldingi ayrim xattotlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatib, savodli ko‘chirgan. Bu Munisning ishga aruz ilmining xos bilimdoni sifatida ham yondashganligidan dalolat beradi. 1797-yilda Munis Navoyining “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” nomli asarini ham kitobat qildi.

Yigirma-yigirma ikki yoshlarida Munisning turli tashvishlar, g‘am-anduhular bilan to‘liq hayoti boshlanib, shoir adadsiz musibat va foje lavhalar girdobiga tushib qoladi. 1800-yilda otasining, keyinchalik og‘a-inilarining birin-ketin hayotdan ko‘z yumishi uning qalbini g‘am-hasratlarga to‘ldirdi. Shular tufayli Munis alam va umidsizlik hislariga berildi. “Munis ul-ushshoq” debochasidagi mana bu so‘zlar shundan guvohlik beradi: “*Andoqkim, ota va oqa va ini mani bekas ibtilosig‘a sazovor va motamkashlik balosig‘a giriftor qildi, nazm:*

*Tiyra qildim dudi ohimdin jahon koshonasin,  
Har birining so‘gi anduhidin aylab nolalar.  
Laxta-laxta ashki xunolud ila qildim ravon,  
Har biri hajrida bag‘rimni qilib pargolalar”.*

Bu baxtsizliklar shoir ijodiga ta’sir etmay qolmas edi, albatta. Shoirning shaxsiy musibatlari ijtimoiy hayotda ko‘rgan-kechirgan iztirobli sarguzashtlari bilan uyg‘unlashib, uning ijodiga alam va umidsizlik tuyg‘ularini muhrladi. Biroq kul ostida cho‘g‘

yashiringanidek, bu alam va umidsizlik zamirida kelajakda alangaga aylanishi muqarrar bo‘lgan hayotdan norozilik, yangi turmushga talpinishning otashin uchqunlari mujassam edi.

Otasining vafotidan keyin saroydagi farmonnavislik vazifasiga tayinlangan Munis o‘z xizmati va saroy mojarolaridan ortib, ijodga birmuncha imkoniyat topdi. 1804-yilda u o‘zining ilk devonini yaratdi. Ushbu devon sahifalaridan o‘rin olgan quyidagi she‘r shoir hayotidagi muhim nuqtani belgilaydi:

*Muniso, to ‘kmay yigirma etti yosh,  
Vah, yigirma etti uzra etti yosh.  
Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur  
Har qachonkim, suhbatingg‘a etti yosh.*

Ushbu tuyuq devon shoirning 27 yasharligida tuzilganidan dalolat beradi. Ma’lumki, Alisher Navoyining ilk devoni uning zamondosh do‘silari tomonidan shoirning 24 yoshlari davrida yaratilgan. Demak, Munis iste’dod quvvati va ijodiy balog‘atga erta erishishi jihatidan daho san’atkor – Alisher Navoyiga yaqin turadi.

Bu davrda Munis ijodiy ishga qattiq berildi. Lirik asarlardan iborat ilk devonini 1804-yil 11-noyabrda yakunlagan bo‘lsa, nazmda bitilgan ilmiy-ma’rifiy risolasi – “Savodi ta’lim”ni o‘sha yili 6 dekabrda tugalladi va devoniga o‘z qo‘li bilan ko‘chirib qo‘ydi.

1804-yilda Avazbiy inoq o‘lgach, 1806-yilgacha uning farzandlari o‘rtasida toj-taxt talashishlari bo‘lib o‘tdi. 1806-yilda Muhammad Rahimxon 1 taxtni egallagach, Munisni bosh miroblik lavozimiga tayinladi. Munis bu otameros kasb bilan umrining oxirigacha shug‘ullandi va miroblik tajribasi mahsuli o‘laroq, Xorazmning sug‘orilish tarmoqlari haqida “Ornalar” nomli asar yaratib qoldirdi. 1806-yildan Munis Xorazm tarixiga bag‘ishlangan “Firdavs ul-iqbol” (Baxtlar bog‘i) solnomasini yozishga kirishdi va unda qadimdan 1812-yilgacha bo‘lgan voqealarni qamrab oldi.

Munis 1814-1815-yillarda o‘z adabiy merosini hajman to‘liq aks ettirgan mukammal devon yaratdi. Bu devon shuning uchun

ham mukammalki, ilk devonni shoir debochasisz boshlagan bo‘lsa, bunga maxsus debocha yozdi. Ilk devoni nomlanmagan bo‘lsa, mukammal devoniga “Munis ul-ushshoq” deya maxsus nom qo‘ydi. Devon debochasi va nomida Munis ijodining dasturiy mohiyati mujassamlashgan.

Devonning ilk va mukammal nusxalari orasidagi janrlararo miqdoriy tafovut ham katta. Masalan, shoir ilk devonidagi 204 g‘azal mukammal devonga 679 ta, 72 ruboiy 77 ta bo‘lib ko‘chgan. Mukammal devonda jami 10 000 baytga yaqin she’riy asar mavjud.

Munisning oilaviy hayoti to‘g‘risida to‘la ma‘lumot mavjud emas. Ammo shoirning tarixiy va tarjima asarlari, ayniqsa, “Debocha”si oilaviy hayoti foje hodisalarga to‘lib-toshganligidan darak beradi. Jumladan, Munis Mirxonning “Ravzat us-safo” solnomasi tarjimasini tugallarkan, quyidagi hasratli baytlarni ilova qiladi:

*Agar so‘zlarimda topilsa xato,  
Itob etmayin, aylang isloh ango  
Ki, oni bitarda parishon edim,  
O‘g‘il dog‘ida xonavayron edim.*

Ravshanki, Munisning oilasi ham, o‘g‘li ham bo‘lgan. O‘g‘li fojiali vafot etgan. Bunday asarlar ayrim-ayrim olinganda, muallif tarjimayi holining turli lahzalarinigina gavdalantira oladi, xolos. Ammo, ularning silsilasi, mazmunan o‘zaro uzviy aloqadorligi shoir hayotining yaxlit manzarasini tashkil etadi.

Munis saroy tarixchisi, davlat arbobi va donishmand mutafakkir sifatida safarlarda xonga hamroh bo‘lar edi. U 1829-yilda, ijodining ayni gullagan chog‘ida, xonning Xuroson harbiy safaridan qaytayotganida, yo‘lda vabo kasaliga chalinib, 51 yoshida vafot etadi va Qiyotda otasi qabri yoniga dafn etiladi.

***O‘rganilish tarixi.*** Ijodkor sifatida mo‘tabar mavqega sazovor bo‘lgan Munis haqida tazkiralarda, tarixiy va badiiy asarlarda ma‘lumotlar yetib kelgan. Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro”, Laffasiyning “Xeva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari” tazkiralarda, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida Munis

ehtirom bilan eslanadi. Uning adabiyot va madaniyat taraqqiyotidagi xizmatlari qadrlanadi.

Munis Xorazmiy haqidagi dastlabki ilmiy maqola Rahmat Majidiy tomonidan yozilgan<sup>314</sup>. 1945, 1948, 1959-yillarda shoir asarlaridan namunalar chop etildi<sup>315</sup>. 1957-yil Yunus Yusupov tomonidan “Tanlangan asarlar”i, 1980-yilda «Saylanma”si nashr etildi<sup>316</sup>. 1997-yilda “Savodi ta’lim” risolasi N. Jumaxo‘ja tomonidan so‘zboshi va izohlar bilan to‘liq chop qilindi<sup>317</sup>.

Shoir asarlari, faoliyati A. Bobojonov, V. Zohidov, V. Abdulayev, J. Sharipov, A. Murodov, N. Jumaxo‘jalarning tadqiqotlarida tahlil va talqin etildi<sup>318</sup>.

*Adabiy merosi.* Shermuhammad Munisdan bizga katta meros qoldi. Uning “Munis ul-ushshoq” devoni, “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari, “Savodi ta’lim”risolasi, mashhur tarixchi Mirxon “Ravzat us-safo” asari 1-jildining to‘liq va 2-jildi ayrim qismlarining tarjimasi yetib kelgan. Xorazmning sug‘orilish tarmoqlari haqidagi “Ornalar” asari mavjudligi to‘g‘risida ham ma’lumot bor.

*Munis iste’dodining shakllanish omillari.* Shermuhammad Munis XIX asr Xorazm adabiy muhiti tepasida turgan yirik iste’dod sohibi edi. U badiiy ijodiyoti bilan ko‘p jihatdan Xorazm adabiy muhitiga ravnaq bag‘ishladi va umuman, o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Shuning uchun ham Munis asarlari o‘z davridayoq yuksak shuhrat qozongan edi. Shoir nazmi bilan tanishgan kitobxon uning quyidagi faxriyalari mubolag‘asiz aytilganiga astoydil ishonadi:

*Tomusaxxar ayladim so‘z birla ma‘ni kishvarin,  
Shohmen, ey Munis, ahli donishu idrok aro.  
Muniski, so‘z iqlimi bo‘ldi anga musaxxar,  
Surtarlar aning xoki rahiga shuaro ko‘z.*

<sup>314</sup>Мажидий Р. Мунис Хоразмий. “Гулистон” журн., 1935, 3-сон.

<sup>315</sup>Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. Т.: 1945; Ўзбек позициясининг антологияси. Т.: 1948;

Ўзбек адабиёти. Т.: 1959.

<sup>316</sup> Мунис. Таилangan асарлар. Т.: 1957; Мунис. Сайланма. Т.: 1980.

<sup>317</sup> Шермуҳаммад Мунис. Саводи таълими. Т.: 1997.

<sup>318</sup> Бобоҷонов А. Мунис Хоразмий. қит. газ., 1946, 21 июня; Зоҳидов В. Ўзбек адабиёти тарихидан. Т.: 1961; Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: 1980; Шарипов Ж. Ўзбекистонда таржима тарихидан. Т.: 1971; Жумахўжа Н. Мунис ғазалиёти. Т.: 1991.

Chindan ham, Munis XIX asr Xorazm adabiy muhitida rahnamo ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ogahiy, Komil, Avaz, Tabibiy, Bayoniy kabi o'nlab shoirlar Munis izidan borib, yirik san'atkor sifatida tanildilar.

XIX asr o'zbek adabiyotining Munis kabi yirik namoyandasini maydonga keltirgan ulkan adabiy maktabning ta'siri va tarixiy xizmatini ko'rib chiqish Munis iste'dodining shakllanish jarayonini yanada oydinlashtiradi. Shoир o'zi ta'lif olgan adabiy maktab namoyandalarini "Munis ul-ushshoq" devonining dastlabki sahifalaridagi g'azalidayoq iftixor bilan tilga oladi:

*Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur mango,  
Manzili ma'niga Xizri roh Jomiydur mango.  
Xotirimga Xusravidin har zamon sho're etib,  
Banda davronning bori shirinkalomidur mango.  
Piri Ansoriy so'zidin choshni nutqum topib,  
So'zda hosil sharbati yuhyil izomidur mango.  
Hofizi Sheroz lutfidin taraqqiyalar topib,  
Jilvagoh ahli tasavvufning maqomidur mango.  
Yuzima Attor har lahza do'koni fayz ochib,  
Doim andin atrparvar jom mashomidur mango.  
Fayzi Firdavsiy gahi ko'nglum ochibdur biydddek,  
Goh Hoqoniy futuhidin payomedur mango.  
Goh tab'im Anvariyl nuri bilan ravshan bo'lub,  
Goh Sa'diy jomingin fayzi mudomidur mango.  
Topibon ishqisi Iroqiydin zamirim nash'ae,  
Hosil ahli ishqning sho'ri tamomiydur mango.  
Nusxayi ta'bidi Bedildin topib fayzi suxan,  
Ma'ni ichra nomayi iqboli tomiydur mango.  
Qilsa hosid daxli bejo so'z aro, yo'qtur g'amim  
Kim, bu ma'nida Navoyi ruhi homiydur mango.  
Tong emas, Munis, agar bo'lsam kiromiyqadrkim,  
Ustodi zohiru botin Kiromiydur mango.*

G‘azalda qayd etib o‘tilgan nomlarning o‘ziyoq Munisning Sharq mumtoz adabiyotini nechog‘lik qamrovli mutolaa qilib borganligidan dalolat beradi. Munis adabiy merosini ilk bor o‘rganib chiqqanimizda, daf‘atan bizni uning ijodida an‘anaviylik kuchli ekanligi taassuroti chulg‘ab oladi. Buning sababi shuki, yuqoridagi g‘azalda tilga olingen ustozlarning har biridan Munis iste‘dodiga muhim fazilatlar o‘zlashgan.

*“So‘z ichra Navoyiki jahongirdurur, Munisg‘a maoniy yo‘lida pirdurur”* kabi so‘zlar shunchaki faxriya emas. Munis ijodining barcha jabhalaridan, shuningdek, shaxsiyati, dunyoqarashidan ham Navoyi ruhi ufurib turadi. Navoyi asarlari Munis uchun muqaddas ilhomchi bo‘lgan. Spuning uchun “Munis ul-ushshoq”dagi ko‘pgina g‘azallar navoyiyona uslubda yozilgan. Munisning qator nazira va muxammaslari Navoyi bilan maslakdosh,fikrdosh bo‘lish, badiiy so‘zga navoyicha yo‘sinda yondashish samarasi sifatida yuzaga kelgan.

Shermuhammad Munisning iste‘dodli shoir bo‘lib etishuviga ijobiy ta’sir etgan omillardan biri fors-tojik mumtoz adabiyotidir. Keltirilgan g‘azalda muallif Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Farididdin Attor, Anvari, Sa’diy kabi o‘nlab fors-tojik adiblarini ustod sifatida tilga olgan. Munis ijodiyotini o‘rganar ekanmiz, uning falsafiy dunyoqarashi, badiiy-tab‘iy tamoyillari hamda ijtimoiy nuqtayi nazarida bu ulug‘ so‘z san’atkorlarining izi borligini yaqqol sezamiz.

Sharq adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri zullisonaynlikdir. Fors-tojik mumtoz she’riyati saboqlarini o‘zlashtirish Munisga badiiy mahorat qozonishdan tashqari, zullisonaynlik an‘anasini egallahsga ham imkoniyat yaratdi. Munisning ilk devoniadagi asarlari uning yoshlikyillaridanoq o‘zbek va fors tillarida qalam tebroata boshlaganini ko‘rsatadi. Uning mukammal devoniidan yuzlab forsiy baytlar o‘rin olgan. Munis fors tilida yaxshigina g‘azal va ruboilar yozgan. Munisning forsiyzabon she’riyati Sharq lirkasining an‘anaviy muhabbat mavzusini rivojlantirishga bag‘ishlangan. Bu borada u zavqyob misralar

yaratishga muvaffaq bo'lgan. Quyidagi bayt ularning yaqqol namunasidir:

*Ruxashro mehr natvon xond, k-o ' bisyor besharm ast,  
Labashro qand natvon go 'ft, k-o ' behad mukarrar shud.*

Tarjimasi:

*Yuzin oftobga o 'xhatmoq g 'alatkim, ul hayosizdur,  
Dudog 'in qand demak mumkin emaskim, ul mukarrardur.*

Sodda va tushunarli uslubda yaratilgan bu g 'azal Munisning ilk devonidan o 'rin olgan. G 'azal misralari ma 'shuqa jamolini tasvirlash bilan birga an 'anaviy nazm tasvir vositalarining eskirib, turg 'unlashib borayotganligiga ham kinoya qiladi. Demak, Munis forsiy she 'riyatidagi an 'analar qobig 'ida cheklanib qolishdan ehtiyyot bo 'lgan. Yangi badiiy kashfiyotlar istagida izlanishlar olib borgan.

Munis she 'riyatidan buyuk ozarbajyon shoiri Fuzuliy rubobiyotining dardakash va huzurbaxsh navolari aks-sado berib turadi. Bu – Munisning Haq va haqiqat borasida, zamon va ahli zamon haqida, davrning ijtimoiy adolatsizliklari, muhabbat va vafo bobida Fuzuliy bilan hamroz qalamkah ekanligidan shahodatdir. Fuzuliy asarlariga bog 'langan muxammaslar shuni ko 'rsatadiki, Munisni uning shirali va rangin kalomi, jo 'shqin, ayni paytda, sodda uslubi, jozibali va ta 'sirchan ifodalari ko 'proq maftun etgan. Munis Fuzuliydan ravshanzamir, qisqa, ammo mazmundor g 'azallar bitish san 'atini o 'rgandi. Ma 'lumki, Fuzuliy ishqiy rubobiyot bilan birga falsafiy rubobiyotning ham mumtoz ustasidir. Uning rubobiyotida qahramonning ichki dardi bilan el dardi va zamon iktiroblarini omuxta ravishda kuylash mahorati ustuvor. Muhabbatdagi xususiy holatlardan tashqari, bu sohir tuyg 'uni umuminsoniy miqyoslarga olib chiqib ulug 'lash, uni falsafiy talqin etish tamoyili kuchli. Ustod shoирi iste 'dodining Munisda ixlos uyg 'otgan qirralaridan biri ham shu bo 'lgan. Munisning g 'azal janri ijtimoiy-falsafiy salmog 'ini oshirishdagi yutuqlari Fuzuliy kabi zabardast g 'azalsarolardan

o‘rganish samarasi edi. Munisning mana bu muxammasiga razm soling.

*Bir o ‘tdur ishqkim, so ‘zini nuqson aylamak o ‘lmaz,  
Ul o ‘tdin mushkulim cho ‘xdurki, oson aylamak o ‘lmaz,  
Alamlar jondadurkim, maxfiy, ey jon, aylamak o ‘lmaz,  
Bu ham bir g ‘amki, el ta ‘nidin afg ‘on aylamak o ‘lmaz.*

Ushbu beshlikdagi ustodu shogird satrlarini na lisoniy xususiyatlari, na ma’no salmoq dorligi, na badiiy quvvati jihatidan bir-biridan ajratish yoki pastu baland baholash mumkin.

*“Munis ul-ushshoq” devonida ishq iztiroblari , zamon, ahli zamon, shoir shaxsiyati tasviri.* Munis she’riyati mavzu jihatidan rang-barang. She’rlari oshiqona, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, hasbi hol yo‘nalishlarida ijod etilgan.

Shoirning 10.000 baytga yaqin she’riy merosi mavjud. Devonida g‘azal, muxamma, musaddas, ruboiy, tuyuq, qit’a, qasida, chiston kabi o‘ndan ortiq mumtoz janrlarda bitilgan asarlari jamlangan. Munis hayoti davomida ikki marta devon tuzgan. Birinchisi, 1804-1805-yillarda jamlangan. U ilmda “Ilk devon” nomi bilan yuritiladi. Ikkinchisi, 1813-1814-yillarda jamlangan bo‘lib, “Mukammal devon” nomi bilan yuritiladi. Shoirning o‘zi uni «Munis ul-ushshoq» (Oshiqlar do’sti) deb nomlagan.

“Munisul-ushshoq” devoni debocha bilan boshlanadi. Unga shoirning 8.446 bayt asari kiritilgan.

Shoir devonining 10dan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxalari O‘z R FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Munis she’riyatidagi tayanch mavzu - ishq. Mumtoz adabiyotdagi an'anaga ko‘ra, shoir ijodida ham ishq chuqur mazmunga ega. Shoir uning vositasida insoniyat ruhiy dramasini yoritib beradi. She’rlarida u bilan bog‘liq farahbaxsh tuyg‘ular ifodasini ham, iztiroblar, armonlar tasvirini ham kuzatamiz. Tuyg‘ularning ana shunday butun murakkabligi bilan yoritilishi shoir she’rlariga samimiylilik va tabiiylik baxsh etadi.

Munis she'riyatidagi ishq talqini borasida shoirning o'z izohlari bor: "Agarchi aksar g'azal va ruboilylarkim, majoz yo'sunida ishqu husn zohiri sifatida voqe erdi va lekin maoniyi haqoyiq bayonidin oriy<sup>319</sup> va mavoizi<sup>320</sup> daqoyiq<sup>321</sup> nishonidin xoli ermas erdi..." ("Munis ul-ushshoq" debochasidan).

Demak, shoirning o'zi ta'kidlaganidek, she'rlari zohiran majoziy ifodalar sifatida taassurot qoldirsada, ammo botinan chuqur, haqoyiq ma'nolaridan xoli emas.

Shoir lirik qahramonining birligina haqiqati bor. U ham bo'lsa – ishq. Qolgan barcha harakatlar unga o'zini ko'z-ko'z etish, kibr va yolg'on bo'lib tuyuladi. Zohid faoliyatidagi makr va riyoni nodonlikdan boshqa narsa emas, deya baholaydi:

*Nafyi<sup>322</sup> ilmi ishq etib, qilmoq nedur isboti zarq<sup>323</sup>,  
Kelmamish, zohid, jahong'a sen kibi johil hanuz*

Munis asarlarida bosh timsollar – oshiqliq va ma'shuqa. Ammo, ular bilan yonma-yon, parallel turuvchi yana ikki timsol mavjud. Bu – zolim va mazlum timsoli:

*Vahki, ul zolim meni mazlumga qotil hanuz,  
Ya'ni ag'yorimg'a yuz ming mehr ila moyil hanuz.*

Xo'sh, shoir bu ikki timsol orqali kimni nazarda tutyapti?

Ushbu baytda shoir lirik qahramonning ruhiy holatini juda aniq ifodalab bera olgan: lirik qahramon – mazlum. U jabrlangan. Qizg'in hayot jabhasidan siqib chetga surilgan. Ruhan yolg'iz. Butun e'tibor, mehr-muruvvat ag'yorga, raqibga qaratilgan. Shoir bu holatni hayotiy qonuniyatlardan kelib chiqib tasvirlaydi. Insonlar ruhiyatidagi ikki qarama-qarshi qutb to'qnashuvidan ruhiy g'alayonlar vujudga keladi. Buni shoir tazod san'ati vositasida ifodalaydi. Bu zid so'zlar va

<sup>319</sup> Орий – холи, бўш.

<sup>320</sup> Мавозиъ – жой, ўрин, ер.

<sup>321</sup> Дақоийик – нозик маънолар.

<sup>322</sup> Нафй – рад этиши.

<sup>323</sup> Зарқ – алдов. риёб, ёлғон.

misralar zaminidagi ma'nolar zidligi orqali tasvirlangan. Zolim va mazlum, mazlum va ag'yor. Mazlumga qotillik, ag'yorga moyillik.

Xo'sh, zolim kim? Biz bu savolga javobni Navoyining "bo'lg'usi" radifli g'azaliga shoir bog'lagan muxammasdan topamiz:

*Bordur manga zolim iki: gardun biri, dilbar biri,  
Ashkim ila ohim erur Jayhun biri, sarsar biri.*

Demak, shoir zolim deganda faqat oshiqqa sitam yetkazuvchi ma'shuqanigina nazarda tutmayapti. U timsolning mohiyati chuqurroq. Demakki, shoirning oshiqona she'rlarida qo'yilgan muammolar ham oshiq va ma'shuqa ruhiy dunyosi tasviridan ko'ra kengroq mohiyatga ega. Ularda zamin va zamon hamda insoniyat taqdiri bilan uyg'un umumbashariy g'oyalar o'z ifodasini topgan. Bu esa shoir she'rlarining ijtimoiy qimmatini oshiradi. Ishq ham sururbaxsh, ham iztirobli tuyg'u. Munis so'zlarni mahorat bilan tanlashi va qo'llashi tufayli uning ana shu xususiyatini aniq ko'rsatib bera oladi:

*Ko'ngluma bir gul g'amidin sonchilibdur xorlar,  
Ohkim, har xoridin jonimdadur ozorlar.*

Shoir bu erda timsollar vositasida so'zlaydi. Obrazlar orqali tafakkur qilib, fikr bayon etadi. U istiora san'atini qo'llab ma'shuqa timsolini gul so'zi, ishq ortidagi dardlarni xor va ozor so'zları bilan ifodalash orqali birgina baytda chuqur ruhiy holatni tasvirlashga erishadi.

Shoir she'rlarining mavzu ko'lami turli-tuman. Ammo, ular orasiga qat'iy chevara qo'yib bo'lmaydi. Masalan, hasbi hol yo'lida yaratilgan she'r ijtimoiy-falsafiy, orifona yo'lagini xulosalar bilan ham muzayyanlashishi mumkin. Munis she'riyatida lirik qahramon tabiatan mahzun. U taqdirning har bir zarbasini yuragiga juda yaqin oluvchi timsol. Uning nazdida hayotda turli-tuman dard bisyor. Falak va davron ahli – bevafo. Hajr – oshiqning qotili. Yor – oshiq ahvoldidan bexabar, g'ofil. Ammo, bunga qaramasdan oshiq – umidsiz timsol

emas. Chunki uni qayg‘ u girdobidan qutqaruvchi kuch mavjud. Bu – ishq. U hamma mahzunlikdan, tole qaroliklardan g‘olib kela oladi. Tariqatning so‘nggi maqomi fano esa oshiqni asl maqsadga, haqiqatga oshno etuvchi malham vazifasini o‘taydi:

*Ashk xun<sup>324</sup>, ruxsor zardu<sup>325</sup> dil hazin<sup>326</sup>, tole' qaro,  
Dard gunogun<sup>327</sup> falak dun<sup>328</sup>, ahli davron bevafo.  
Jon g‘amin<sup>329</sup>, xotir mushavvash<sup>330</sup>, aql masqudul-asar<sup>331</sup>,  
Hajr qotil, yor g‘ofil, ishq g‘olib borho<sup>332</sup>.  
Zaxm muhlik<sup>333</sup>, tiri g‘am parron<sup>334</sup> erur, romi<sup>335</sup> falak,  
Za'f mustavli<sup>336</sup>, badan majruh<sup>337</sup> erur, marham fano...*

Ushbu g‘azalda shoir oshiqning ijtimoiy va ruhiy ahvolini nihoyatda aniq tasvirlab bergan. Uni qiyagan dard va armonlar majmuini ketma-ketlikda jamlab, jüftlangan so‘zlar bilan laff va nashr san’atini qo‘llagan. Bu esa shoir maqsadini amalga oshirishda qo‘l kelib, oshiq ruhiy holatini to‘liq qamrab ifodalash imkonini bergan.

Munisning she’riy balog‘atga erishishida ulug‘ piru ustozlar ijodi saboq bo‘lgan. U shartli ravishda “Ustozlar e’tirofi” deya nomlangan g‘azalida buni ta’kidlagan. Munisning, ayniqsa, Navoyiga ehtiromi yuksak. Uning o‘nga yaqin g‘azaliga bog‘lagan muxammaslari shoir “Saylanma”si tarkibiga kiritilgan. Ularda ustozu shogirdning dunyoqarash jihatdan yaqinligi, bir-biriga mutanosib tuyg‘ularni qalamga olishi, mahorat bobida ham shogirdning ustozdan qolishmasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Munis ijodning sermashaqqat maydonida hamisha Navoyining ruhiy madadini his qiladi.

<sup>324</sup> Ашк хун – кўз ёши қон.

<sup>325</sup> Зард – сарик.

<sup>326</sup> Ҳазин – қайтули.

<sup>327</sup> Гуногун – хилма-хил.

<sup>328</sup> Дун – паст.

<sup>329</sup> Гамин – ғамгин.

<sup>330</sup> Мушавваш – ташвишли.

<sup>331</sup> Мафкудул-асар – асари, изи йўколгани.

<sup>332</sup> Борҳо – тақрор-тақрор, неча бор.

<sup>333</sup> Мұхлик – ҳалокатли.

<sup>334</sup> Паррон – учувчи.

<sup>335</sup> Роми – отувчи.

<sup>336</sup> Муставли – ёйилган.

<sup>337</sup> Мажрух – жароҳатли.

Munis Navoyining so‘z mulkidagi maqomiga intilib ijod qildi. Uning mahorat mактабидан saboq oldi. Natijada, she’riyatda navoyivor teranlikka erishdi. Xeva adabiy muhitida ustozlik maqomiga ko‘tarildi. Hattoki, Munis ustozи bilan ismlarining uyqashligida ham bir sinoat ko‘radi. U o‘z ismining Sher va Muhammad, Navoyi ismining esa Ali va Sher o‘zaklaridan iboratligiga e’tiborni tortadi:

*So‘z ichra Navoyiki jahongirdurur,  
Munisg‘a maoniy yo‘lida pirdurur.  
Yo‘q g‘ayriyat andin o‘zgakim ayturlar:  
Bu Shermuhammad, ul Alisherdurur.*

44

Munis e’tirof etmagan bo‘lsa-da, uning she’riyatida Bobur asarlari ta’siri ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, shoirning “Hanuz” radifli g‘azali bilan Boburning “Mening ko‘nglumki gulning g‘unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o‘lsa ochilmog‘i ne imkondur” matlasi bilan boshlanuvchi g‘azalida bir-biriga yaqin, mutanosib tuyg‘ular kuylanganligini kuzatamiz.

Birinchi baytda Munis lirik qahramoni ham Bobur lirik qahramoni bilan bir xil ruhiy holatda:

*G‘unchalar ochildiyu ko‘nglum ochilmaydur hanuz,  
Bulbuloso xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.*

Ikkala g‘azalda ham bahor, gul fasli bo‘lishiga qaramay, lirik qahramon – oshiqning ko‘ngli yorishmaydi. Bunga sabab – hijron. Ammo, keyingi baytlardan boshlab, har ikkala shoirning o‘z uslubi, o‘ziga xos xususiyatlari ajralib ko‘rina boshlaydi. Bobur g‘azalida oshiq timsoli ishtirok etadi. O‘zining mungli ahvolini sharhlab boradi. Munis asarida esa badiiy timsol kechinmalari keskinlashib boradi. Oshiq jangovarroq harakat qiladi. Uning tabiatidagi kuchli dramatizm o‘zini namoyon etadi. U faol shaxsga – ushshoq ahli uchun ibratga aylanadi. Tanlagan yo‘lida qat’iy va sobit turadi:

*Za'far o ushshoqg'a ibrat bo'lubman, ohkim,  
Ko'zga ahvoli nizorim yor ilmaydur hanuz.  
Ixtiyor etsa agar Munis yana sargashtalik,  
Pand qilmangkim, jununidin oyilmaydur hanuz.*

Munis g'azalida timsollar qamrovi kengayadi. Ma'shuqa timsoli, uning tabiatini yorituvchi chizgilar ham ko'zga tashlangan. Yor – jafokor. Murakkab fe'lli. Oshiq uni anglamay hayron. Mahbubanining vasl va'dasi bajarilmayapti. Buning sababi hayo–ibodenmi, oshiqni ko'zga ilmaganidanmi yoki uni unutganidanmi?

*Va'dayi vasl aylab erdi, ayladi ta'xir ko'p,  
Yo ibo qildiyu yo yodig'a kelmaydur hanuz.*

Yuqoridagi baytlarda ko'ringanidek, Munis g'azalida oshiq bilan yonma-yon mahbuba timsoli ham qo'llangan. Obrazlar miqyosining kengayishi, oshiq va ma'shuqa tabiatining oydinlashib borishi shoir tasvirlamoqchi bo'lgan ruhiy manzarani yanada tiniqlashtiradi. Shoir o'z maqsadini ifodalashda tajohulul-orifin, tazod, mubolag'a kabi ko'plab badiiy san'atlardan foydalanadi:

*Pesha aylab charx zoli tinmayin tun-kun dame  
Dilbarimcha javr oyinini bilmaydur hanuz.  
Yerni ashkim g'arq etib, zo'r etti ohim sarsari,  
Nedin erkandur falak toqi yiqilmaydur hanuz.*

Demak, ko'ringanidek, Munis g'azalining yaratilishida Bobur asarining ta'siri seziladi. Ammo, unda Munis o'z uslubiga xos xususiyatlarni namoyon eta oladi. Oshiq va ma'shuqa timsollarining tabiat, o'ziga xos qirralarini tasvirlaydi. Munisning she'riy mahorati mujassamlashgan yangi asar maydonga keladi.

Shoirning ruboiy, qit'a, tuyuq kabi kichik janrlardagi asarlari, asosan, falsafiy-didaktik yo'nalishda yaratilgan.

Ularda Munisning dunyoqarashi, ijtimoiy hayotning har bir juzviga munosabati, hayotiy xulosalari o'z ifodasini topadi. U, har bir

jarayonni to‘g‘ri anglab, donishmandona hikmatlar kashf etadi. U, o‘z ta‘biridan kelib chiqqanda, tabiatan bosiq, vazmin inson. Ammo, botinida olam hodisotlarini, jamiyat jarayonlarini taftish etuvchi qudratli tug‘yon mavjud:

*Purbarqmenu giyahg‘a tegmas zararim,  
Purra ‘dmenu quloqg‘a etmas xabarim,  
Purashkmenu etak tar o ‘lmas mendin,  
Purohmenu ko ‘ngulni buzmas asarim .*

Xalq Munisga o‘xshagan ming-minglab tug‘yonli fuqarolar majmui. U – buýuk qudrat. Buni yaxshi anglagan shoir zamon shohlariga ularga e’tiborsiz bo‘lmaslik lozimligini uqtiradi. Fuqaro – mehnatkash, jafoqash. Ammo, unga ozor etkazilsa, zulm qilinsa, butun olamni ostin-ustin qilib yuboruvchi otashdam kuchga aylanishidan ogohlantiradi:

*Shoho, fuqaroki, munisi g‘amdurlar,  
Bedordilu ko ‘zlari purnamdurlar.  
Zinhor alarni qilmag ‘il ozurda,  
Otashdamu barhamzani olamdurlar .*

Munisning lirik qahramoni fuqaroparvar. U xalqning ahvolini yaxshi anglaydi. Uning qudratini to‘g‘ri baholay oladi. Insonlar turli-tuman. Bir guruh borki, ular o‘z manfaatidan boshqa narsani o‘ylamaydigan, ko‘rmaydigan loqayd va beparvolar. Yana bir guruh borki, ular ko‘philik manfaatini ko‘zlab ish yurituvchi fidoyilar. Shoir ana shunday toifalarini bir-biridan yaxshi ajratadi.

*Anglakim, masti jomi davlatdur,  
Qon icharda faqirlar na xabar.  
Ore uyqug‘a borg‘on anglamag ‘ay,  
Uyqusizlarg‘a har na bo ‘lsa agar .*

Ushbu ruboiy zamiridagi fikr xalqning mashhur “*Qorni to ‘qning qorni och bilan nima ishi bor*” maqoli bilan juda mutanosib.

Ushbu qisqa hajmli asarda Munisning o‘ziga xos uslubi namoyon bo‘ladi. U sodda iboralar bilan xalqona donishmandlikka erishgan. U dastlab dolzarb axloqiy-ma’naviy muammolarga, ikkinchidan, kuchli ijtimoiy masala – jamiyatdagiadolatsizlikka e’tiborni tortgan. Bu qarashlarni bir qancha mumtoz badiiy san’atlar vositasida va chuqr mohiyatga ega so‘zlar tizimini qo‘llash bilan ifodalagan. Jamiyatdagi ziddiyatni ifodalashda tazod san’ati shoirga qo‘l kelgan. Davlatmandlik va faqirlik, uyquchanlik va uyqusizlik. Shoir asarda so‘zlarning chuqr ma’no qatlamlaridan ham mahorat bilan foydalangan. Jumladan, ikkinchi baytda dastlab uxlagan va uxlamagan inson haqidagi fikrni uqamiz. Ikkinchidan esa, undan chuqrroq – bedordillik va g‘aflatoyinlik ma’nolarini anglash ham qiyin emas.

Ushbu ruboiyda shoir jamiyatdagi ahvol borasida ma’lumot etkazar ekan, o‘quvchiga vaziyat haqida tayyor hukm bermaydi. Uni tahlil qilish va xulosa chiqarishni har kimning o‘ziga havola etadi.

Bunday yo‘l esa Munisga qaltis siyosiy hayot va ijtimoiy jarayonlarni fosh etish imkonini beradi.

Munis she’riyatida chuqr ma’naviy-axloqiy muammolarga e’tibor qaratadi. Asarlarida jamiyatdagi mehr-oqibat, insof,adolat, do’stlik, go‘zallikni anglash kabi insoniy fazilatlarni sog‘inish tuyg‘ularini ifodalaydi. Ularni avaylashga va zamondoshlar yuragidagi mudroqlikni uyg‘otishga intiladi. Hayotning mazmun-mohiyatini chuqr idrok qiladi:

*Mudom andisha<sup>338</sup> aylarman havasni,  
O‘zimga gulshan anglarman qafasni.*

Ushbu baytda lirik qahramon o‘zining misolida insoniyat hayoti va dunyoning mohiyatini sharhlaydi. Unda shoir tafakkur fabulasini uch so‘z tashkil etadi: havas, gulshan va qafas. Havas – foniy dunyoga intilish, unga mehr qo‘yish ma’nosida qo‘llanilgan. Qafas so‘zi orqali

<sup>338</sup> Андиша – фикр, ўйлов, хавф

shoir istiora san'atini yaratgan. Bu timsolda u moddiylikning torligini ruhoni kenglikka zid qo'yadi.

So'z – ilohiy. Uning qudrati buyuk. Olloh birlgina "Kun" so'zi bilan olamni yaratdi. Shunday ekan, uning har bir so'zi mohiyatan olamning o'zidan kam emas. Shuning uchun ham so'zning qadri baland, mo'tabar bo'lmos'i lozim. Ammo, har doim ham xohishimiz amalga oshavermaydi. Munisning lirik qahramoni fikrlovchi, fuqaroparvar va vatanparvar shaxs.

U she'r, shuaro, fuzalo haqida qayg'urib yozadi. So'z qadri haqida o'ylanadi:

*Dema, so'z atrofiga chekmish livoyi ishtihor<sup>339</sup>,  
Qadrdoñe topmay o'lmissi dahrda<sup>340</sup> ovora so'z.*

Ulamoyu fuzalo va ijodkor insonlarning har biri noyob hodisa. Buni anglamagan, qadrlamagan jamiyat sayoz va kelajagi tanazzulga mahkum jamiyat. Shunday ekan, so'z va so'z ahlining mavqeini ko'rsatish shoir uchun jamiyat saviyasini fosh etish, uning tushkun kelajagini bashorat qilish ijtimoiy hayotning ahvolini ko'rsatish demakdir:

*Shoiri sho'ridaga diljam 'liq qaydin etar,  
Daxli bejodin avom ollidadur yuz pora so'z.  
... Shoир o'z ahvolig'a darmondavu fazl ahli xor,  
Ohkim, topmas bu davron ichra bir g'amxora so'z.  
Qilma izhori suxanvarlik farog'e istasang,  
Siymu zar o'miga er boshig'a sangi xora so'z.*

"Munis ul-ushshoq" devonida insoniyat istiqboli uchun muhim turli ijtimoiy masalalar, shu jumladan, zamon, ahli zamon, shoir shaxsiyati va ishq izardiroblari tasviri salmoqli o'rin egallagan. Davr hamda davr ahli haqidagi mulohazayu xulosalar, qat'iy hukm va orzulangan ijobjiy qahramon adabiyotimiz tarixida birinchi marta Alisher Navoyi ijodiyotida keng ko'lamda o'z ifodasini topgan. Munis

<sup>339</sup> Ливойи иштихор – шуҳрат байроби.

<sup>340</sup> Даҳр – дунё.

bu sohada ham ustod san'atkorning sadoqatli davomchilaridan bo'ldi. U shoirlar ahvoli, badiiy so'z qadri va she'riyat taqdiri, adolat va jaholat, kambag'allik g'ami va tengsizlik alami, ma'rifatparvarlik, tabiatga muhabbat kabi dolzarb muammolarni dadil tasvirlab, ijtimoiy rubobiyotning mazmundor ham keng qamrovli taraqqiy etishiga xizmat qildi. Bunday asarlarda shoir o'z davrining ilg'or va otashin fuqarosi sifatida gavdalanadi. Bu asarlarning lirik qahramoni muallif yashab ijod etgan muhitning umumlashma vakili. Bu jonkuyar qahramon jamiyatning biror jabhasigabefarq qaramaydi. U – tirik, fikrllovchi, isyonkor. Fuqaroparvar, vatanparvardiyonatlari siymo o'z davridagi mazlumlarga achinadi, zolimlarga nafrat ifodalaydi. Jamiyatning nosoz tuzilganidan, tengsizlik va adolatsizlik hukmronligidan qayg'uradi.

She'riyat taqdiri Munis ijodiyotida katta ijtimoiy masala sifatida maxsus yoritilgan. Shoir bu mavzuni ayrim misra va baytlaridan tortib, tugal, yaxlit asarlarda yoritadi. Shoir o'z she'rlaridahukmronlik va saltanat haqida fikr yuritar ekan, badiiy so'z tavsifiga to'xtalib, she'riyat qadrini har qanday sultonlikdan ustun qo'yadi. She'ring jahongirligini madh etish vositasida shohlarni quroslaslahayu lashkarlar zarbi, xunrezlik, zo'ravonlik va buzgunchilik yo'li bilan dunyo orttirishdan ko'ra, qo'lga qalam olib, ijod qilishga da'vat etadi:

*She'r ul tig'i dudamduurki, jahonni fath etar,  
Chekmayin lashkar gar olsa ilkiga har podshoh.*

Munisning she'r badiiyatiga nisbatan tab'iy talabi go'zallik, yetuklik, teranlikdir. Shoir ko'p o'rinda ijodiy balog'at qozonganiga shukrona va faxriyalar aytadi.

Shermuhammad Munis ijodining o'ziga xos xususiyatlari uning qasida janrida yaratgan asarlarda ham namoyon bo'lgan. Shoir «Saylanma»sidan to'rtta qasida joy olgan. Ular noshirlar tomonidan shartli ravishda "Bahor", "Iyd", "Erur charx berahm", "Charog'i nola" deya nomlangan. Ko'rinib turganidek, shoir qasidalari, avvalo, mavzu jihatidan o'ziga xos. Ma'lumki, "Qasida eng kamida o'n ikki baytli

*madhiya, marsiya yoki didaktik mazmundagi she 'r janri... ”<sup>341</sup>*. Ammo, biz Munis qasidalarini kuzatsak, ushbu janr uning ijodida yangilanganini ko'ramiz. U asosida madh yoki pand-nasihat turuvchi janr mavzusini tubdan yangiladi. Ularga chuqur ijtimoiy mazmunni singdirdi. Jamiyat, zamin, zamon, insoniyat taqdiri va kelajagi bilan bog'liq muammolarni keng mushohada eta oldi.

Munis qasidalarda hayotning ikki – oq va qora ranglarini aniq ajrata oluvchi, uni jur'at bilan oshkora tahlil eta oluvchi ijodkor sifatida ko'rindi. “Bahor” qasidasida bu qarashini kunduz va tun timsoli vositasida bayon etadi. Kunduz va tun ziddiyati yorug'lik va zulmatni ifodalaydi. Taraqqiyot ana shunday ikki qutbdan iborat. Ammo, shoir hayotning shu qarama-qarshilik qurshovida o'tishiga qaramay, u baribir go'zal ham ekanligini turli ishoralar bilan ifodalab bergen:

*Kunduz o 'lub mustazod misrayi tadrij ila,  
Tun g'azali vaznidin kam-kam o 'lub muxtasar<sup>342</sup>*

Shoir ushbu misralarda bahor kelib, qishning uzun tunlari o'mini kunduz egallay boshlaganini ichki ko'tarinkilik bilan ifodalaydi. Ijodkor lirik qahramondagi ruhiy yengillik haqida so'zlamaydi. Ammo, kun va tunni g'azal va mustazodga, ular vaznidagi uzunlik va qisqalikka mengzab tasvirlaganligining o'ziyoq, ushbu ruhiy holatdan darak beradi. Shoir g'uncha, bulbul, gul, sunbul, rayhon, sabza, nilufar, chashma, chaman kabi ko'plab timsollar vositasida bahorning jannatiy ko'rinishini, jonli suratini so'zlar orqali chizib beradi. Bu tasvirlar o'quvchini hayotni sevishga, uni qadrlashga, g'animatligini anglashga da'vat etadi. Ammo, insoniyat tabiatini murakkab. Afsuski, mo“jizaviy mavjudlikning mohiyatini tor tushunuvchilar ham yo'q emas. Undaylar bir lahzalik foni y dunyo hoyu havasları uchun butun olamni sotishga ham tayyor. Ana shunday insonlar tufayli nafis ko'ngillar ozor chekadi. Falakning ayovsiz zarbalaridan yuraklar ezildi. “Bahor” qasidasining lirik qahramoni ham xuddi shunday ruhiy holatda:

<sup>341</sup> Узбек тилининг изохли лугати. М.: “Рус тили” нашриёти, 1981, 2-жилд, 559-бет.

<sup>342</sup> Мунис. Сайланма. Т.: 1980, 312-бет.

*Menki falak gardishi sog'aridin no'sh etib,  
Bodayi yoqutrang o'rniq'a xuni jigar.*

Asarda shoir o'z maqsadini bayon etishda vaziyatni zidlantirish yo'lidan boradi. Tabiatning yorug' ko'rinishiga ma'yus kayfiyatni parallel qo'yadi. Bu ruhiy holat talqinidagi dramatizmni kuchaytiradi. Qasidaning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Insonlar ko'zining ochilishiga, hayotning va bir-birining qadriga etishiga xizmat qiladi.

Ko'rindik, Munis qasida janri imkoniyatlarini kengaytira olgan. Undan inson ma'naviyati bilan bog'liq va ijtimoiy muammolarni ifodalashda faol foydalangan. Uni mazmun nuqtayi nazaridan yangilagan. Shu bilan birga, koinot va insoniyat borasidagi qarashlarini takrorlanmas badiiy tasvir yositalari bilan ifodalagan. U fikrlarini bayon etishda noyob, kutilmagan timsollar yarata oladi. Tabiat ashyolaridan topqirlik bilan go'zal muqoyasalar topadi.

"Erur charx berahm..." deya nomlangan qasida mazmunan chuqur ijtimoiy mohiyatga ega. Lirik qahramon tabiatni, kayfiyatini yoritishda shoir asarning boshdan oxirigacha shakliy va ma'noviy tazod san'atidan foydalanadi.

*Ulum ichra gar rif'ate topsa olim,  
Qilur xor, balkim giriftori johil .  
Aning ollida ilmdin jahl xushroq,  
Aning ollida haqdin ortuksi botil...*

O'z martabasi taqozosi bilan Munis hamisha xalq orasida yurgan. Shu sababli ham shoir lirik qahramoni xalqona fikrlaydi. Xalqning ko'nglidagini topib so'zlaydi. Qasidada biz ming yillar sinovidan o'tgan xalqona hikmatlar ta'sirini kuzatamiz. Asar lirik qahramoni ko'nglidan kechgan tuyg'ular "Suv keltirgan xoru ko'za sindirgan aziz" maqoli mazmuniga juda mutanosibdir.

Bir qaraganda, qasida lirik qahramoni tushkun kayfiyatli timsolga o'xshab ko'rindi. Ammo, sinchiklab kuzatsak, asar zamirida zamon noqisliklari tufayli yuzaga kelayotgan aziyatlarni fosh etish orqali u insoniyatni hushyorlikka, ezbilik uchun kurashga da'vat etganini his

qilamiz. Lirik qahramon tabiatida hayot ziddiyatlarini bartaraf etishda kuch-g'ayrat va jur'atni ko'ramiz. Bu fikrimizni qasidaning so'nggi baytlari ham tasdiqlaydi:

*Bu yanglig' jafosig'a yo'q haddu g'oyat,  
Zamone aning kunidin bo'lma g'ofil .*

Qasida 23 baytdan iborat. U qisqa hajmli asar bo'lsada, o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Zamon va zamondoshlar kirdikorlarini namoyon etish shoirning asosiy maqsadi. Buning uchun ijodkor dastlab holatga mutanosib ravishda tabiat tasvirini chizadi. Jonlantirish san'atini faol qo'llaydi. Uning nazarida charx – berahm qotil. Go'zallik ramzi bo'lib kelgan hilol (yangi oy) ushbu o'rinda qotilning qilichi. Qilich bor joyda qon to'kiladi. Xo'sh, kimning qoni? Falakda yorug'lik, nur manbai hisoblangan quyoshning:

*Erur charx bir turfa berahmu qotil,*

*Ki osmish qilich mohi navdin hamoil.*

*Shafaq demakim, mehr qoni to'kulmish –*

*Ko'mar chog'da yerga qilib nim bismil.*

*Bu motamda kunduz yuzin aylabon zard,*

*Anga tundin etmish qaro kiyz sarobil.*

*Kavokib dema,tun shabistoni ichra,*

*Jafo shu'lasidin yoqibdur mashoil.*

*To'kar ne uchun abr ashki farovon,*

*Chekar ne uchun ra'd faryodi hoyil ...*

Ruhiy holatni ifodalash uchun peyzaj o'ziga xos muqaddima vazifasini o'taydi. Topib qo'llangan tashbehlar lirik qahramon ko'nglidagi iztirobni ifodalashda, ruhiy talqinda katta ahamiyatga ega.

Asarda e'tibor qaratilgan asosiy timsol – charx. Lirik qahramon nazarida olamdag'i zulm va jaholat aybdori o'sha. Ammo, charxni harakatga keltiruvchi inson ekanligi ma'lum. Qasida falakka aybnoma sifatida bitilgan. Ammo, aslida ayblov ma'naviy nomukammal zamondoshlarga qaratilgan.

Munis hayoti Xorazm xonlari Avazbiy inoq, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon I va Olloqulixonlar davriga to‘g‘ri keldi. Ular zamonidagi ijtimoiy muhitning achchiq-chuchugini totdi. Ijodkor sifatida ularga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazishga harakat qildi. Xalq manfaatini himoya qiluvchi to‘g‘ri yo‘lga da’vat qildi. Ularga bag‘ishlab qasidalar yozdi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shoir qasidalari «Munis ul-ushshoq» devonining beshdan bir qismini tashkil etadi<sup>343</sup>. Ammo, devonning bugungi nashrlarida ularning bir qismigina qisqartirib kiritilgan. Bu ular borasida mukammal, tugal xulosalarga kelishimizga imkon bermaydi. O‘ylaymizki, shoir devonining mukammal nashrlarida bu kamchiliklar bartaraf etiladi.

*Nazm aro, Munis, to ‘kar kilkim balog ‘at shakkarin  
Kim, shakarlablar qilurlar orzu bu shakkaram.*

Balog‘at — fikrni ixcham, go‘zal va mazmundor qilib ifodalash, maqsadni bokira iboralar bilan anglatish demakdir.

Munis zamonidagi murakkab hayat, shoirlar qismatini kuzatar ekan, qalamidan norozilik, shikoyat, achinish, taassuf taronalari taraladi. O‘z zamonida she‘r qadrsizlanib, uning o‘rnini mol-dunyo egallaganidan g‘azablanadi:

*Rivoji she ‘r umidin bu davr aro, Munis,  
Ko ‘tarki, barchaga manzuri siymu zar bo ‘ldi.*

Shoir badiiy so‘zning qadrsizlanishi fojiasini ko‘rsatish uchun alohida asarlar yozadi. «So‘z» radifli g‘azal fikrimizning dalilidir. So‘zning tarixiy qismati g‘azalning matla baytidayoq bo‘rtib turibdi:

*Garchi avval bor edi mahbubi gulruxsora so ‘z,  
Lek erur holo base mankubu baxti qora so ‘z.*

«Shuar» radifli g‘azal esa shoirlar ahvolini mufassal aks ettiradi. Muallif shoirlar hayoti haqida yozaturib, shu asarda ham

<sup>343</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 4-жилд. Т.: 1978, 389-бет.

butun zamona qiyofasini gavdalantirishga erishgan. Nega mumtoz she'riyatda, xususan, Munis davridagi shoirlar ijodida ham ohu faryod ohangidagi hayotdan norozilik nolishlari mujassam? Bu nolon navolarning boisini Munis shunday ta'kidlaydi:

*Yutubon bu zamonda qon shuaro,  
Nazm etar gavhari fig'on shuaro.*

Nadomat bilan otilayotgan malomat toshlari ahli she'r chekayotgan jamiki uqubatlarning o'zani bo'l mish davrona yog'iladi. Chunki falak porloq oftobni erga kirgizganidek, davron ezgu orzular, shirin tilaklar, lazzatli hayat ishtiyoqida yurgan shoirlarni erga urar, do'stlar muruvvatidan mahrum qilib, dushmanlarga duchor etardi.

*Erga xurshiddek solur davron  
Qilsalar sayri osmon shuaro.  
Do'stlar lutfidin qilur mahjur,  
Baski bor dushman zamom shuaro.*

Munis ta'kidlashicha, shuaro «ahli davlat»ni har qancha madh etsa ham, baxtu iqbol nash'asini surish unga nasib etmaydi. Shuning uchun u dardi dilini «dardmandu jafokash elga» izhor etadi. Darhaqiqat, g'am-g'ussadagi shuaroning tillashadigan, dillashadigan xalqi she'riyati edi. Shuaro zamona hunarparvar emas, hunardushman bo'lgani tufayli o'z fazilatidan naf o'rniga ziyon ko'radi. Natijada, qashshoq bir holatga tushib qolib, hatto zamondosh shoirlar — do'stlari bilan bordi-keldi, mehmonnavozlik qilishga ham qurbi etmaydi.

Munis zamonasidagi ezgulik bilan yovuzlik kurashini yaxshi va yomonlar hayoti misolida mahorat bilan ko'rsatib beradi. Uningcha, shoir zamonasida yaxshilikka yaxshilik emas, yomonlik qaytishi muqarrar:

*Zamon ahlig'a qilsang yaxshilig', ko'z tut yamonlig'lar,  
Shajar shoxig'a tosh otmoqqadur bermak samar bois.*

Ijtimoiy ziddiyatning asosini shoir tabiatda ko'radi. Uning badiiy mushohadasicha, daraxtning shirin-shakar meva berib, evaziga toshbo'ronga mubtalo bo'lishi yaxshiliga yomonlik qaytgan insonga mutanosib keladi.

Shoir va uning hammaslak zamondoshlari yaxshilar kamayib, yomonlar ko'payishidan tashvishlanadilar. Munis yaxshilar bilan yovuzlar taqdiri haqida mushohada etarkan, yaxshilarni o'ksitib, yomonlarga madad beruvchi tuban charx,adolatsiz zamona zulmidan fig'on chekadi:

*Fig'onkim, yaxshilar ma'yus ulub, har dam yomonlarning  
Qilur charxi daniy komin ravon ohista-ohista.*

Shoir jamiyatda nodonlar mavqeい balandligidan qayg'uradi. Hukmronlik tufayli ular tobora keng qamrov bilan faoliyat ko'rsatayotgani, donolar yakkalanib qolayotganidan o'ksinadi:

*Jam'i nodon ollida donog'a ne miqdor o'lur?*

Mumtoz shoirlarda zamonni tasvirlashda ham an'anavy tasvir vositalari mavjud. Munis ijodida bu an'anaga ham izchil sadoqat seziladi. Bu jihatdan u ko'proq Navoyi ta'sirida bo'lgan. Navoyi she'rlaridan birida jamiyatni shohmot taxtasiga o'xshatadi. Jamiyatdagi yo'ltopar egrilarni farzinga, to'g'rilarni ruxga qiyos etadi. Bu sipohilarning biri uddaburonligi uchun shoh yonida er tutgani, ikkinchisi rostravligi tufayli zo'rg'a taxta qirg'og'idan o'rin olganligi misolida o'z davri kishilarini tavsiflaydi. Munis mana shu nazmiy timsollardan foydalanib, o'z ahvoli ruhiyasini tasvirlaydi:

*To shahyonida erdur farzindek egrilarga,  
Muniski rostravdур, dur uldi uylakim rux.*

Munisning zamon, ahli zamon, shoir shaxsiyati muammolari talqiniga doir asarlari o'zbek mumtoz she'riyatida ijtimoiy-g'oyaviy yo'naliш yuksalishiga xizmat qildi.

She'rlaridan birida «Junun tasvirining behzodi men-men, Balo ko 'hsorining farhodi men-men» deya faxrlangan shoir oshiqona g'azallari zaminida muhabbat madhi, ishq iztiroblari, oshiqlar dardi yotganligi uchun ham o'z devonini «Munis ul-ushshoq» deb atagan. Munis bu bilan o'z devoni oshiqlarga hamisha hamdard, hamroh bo'lishini nazarda tutgan. Munis muhabbat dunyosini «dard mulki» deb ataydi. Haqiqatan, muhabbatga mutbalo qalb og'riq va iztirob alangasida o'rtanib yashaydi. Ammo, bu hazin yurak shu dardu alam bilan masrur. Zero, muhabbat mehrli insonlargagina mansub:

❧

*Dard chekmak, ashk to 'kmak ishq eliga xosdur,  
Har ko 'ngulga dardu har ko 'zga emas nam oshno.*

Oshiqona gazallarida shoir oshiq qalblarning dardu iztiroblarini keng ko'lami, mukammalligi bilan ifodalab berdi. Bu haqda o'zi faxrlanib shunday deydi:

*To yozildi otima manshuri ishq,  
Munis, oldim dard mulkin yakqalam.*

O'rta asr ijodkorlari tushunchasiga ko'ra, odamda hamisha aql va yurak kurashadi. Goh biri ustun keladi, goh ikkinchisi. Ayniqsa, oshiq qalbi ziddiyatli kechinmalarga shu darajada to'lib ketadiki, tuyg'ular tug'yoni ba'zan aqlni mahv etadi:

*Aql ila ishq ixtilosidin ko 'ngul bo 'ldi xarob,  
Mulk vayron bo 'lg 'usi tushsa arog'a ixtilos.*

Munis mazkur baytda ishq ahli ruhiyatidagi ziddiyatni ijtimoiy hayot hodisasiga tashbeh qilgan. Badiiy mutanosiblik usuli orqali ham ko'ngul, ham mamlakatga doir fikrni aytishga erishgan.

Muallif «*mulk vayron bo'lishi*» kabi badiiy unsur vositasida davr ahliga hayotning muayyan haqiqatini uqtirmoqchi bo'ladi. U «*mulk vayron bo'lg'usi tushsa arog'a ixtilos*» deganida, xalqni qashshoqlik va mamlakatni xarobalikka mutbal o'tgan mahalliy urushlarga ishora etadi.

G'azalda oshiq ahvoli uning ayrılıqdagi iztiroblari orqali tasvirlanadi. Munis oshiqona g'azallarining asosiy xususiyatlaridan biri ham ularda hijron iztiroblarining ta'sirchan ifodalanishidir. Manzur ma'shuqa hajrida nolalar chekish, uning dardida ko'z yoshi to'kish holatlari tasvirlarini ko'p shoirlarda uchratamiz. Munis oshiq hayotidagi bunday holatlarni o'ziga xos yo'sinda, obrazli tasvirlashga harakat qiladi:

*Janobiig qu'llug'i tun-kun ishimdur,  
Separ ko'z suv, mijam gar ursa jorub.*

Oshiqning yig'laganlari, faryod chekkanlari aytimsa-da, uning harakatlaridan mahbub — Ollohg'a nisbatan cheksiz sadoqatini ham, ishq dardida namlangan ko'zu kipriklarini ham yaqqol tasavvur qilish mumkin. Bu — oshiqholatining kamtarin bir ko'rinishi. Munis she'riyatida hijron azobida o'rtanayotgan oshiq dardining mubolag'ali tasvirini ham ko'rishimiz mumkin:

*Oqizdi, vahki, ishqing seli ashkim birla to'fonlar,  
Anga etti falak gumbazlarin etti hubob aylab.*

Shoir ishq iztiroblarini yanada kuchaytirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida mubolag'aning oliv shakli — ig'roq san'atidan foydalangan. Baytda tasvirlanishicha, ma'shuqa ishqidan oshiq chunon ham faryod chekadiki, uning ko'z yoshlari selidan to'fonlar paydo bo'ladi. Bular shunday ulkan to'fonlarki, etti falak suv ostida qolib, ularning gumbazlari suv yuzida suzib yuruvchi pufakchalardek bo'lib ko'rindi.

Munis she'rlari xalq dahosining donishmandligi bilan sug'orilgandir. Shoir o'z asarlarining usluban sodda, samimiyl,

o‘qishli va mag‘zi to‘q chiqishi uchun xalq og‘zaki ijodiyoti durdonalaridan samarali foydalangan. Buni quyidagi birgina bayt misolida yaqqol ko‘rish mumkin:

*To ‘kub qonimni g‘amzang novaki o ‘lturdi qon ichra,  
Xabarsizdur magarkim: “Qonlig‘ alni tutg‘usidur qon”.*

Xalq orasida qotilni, albatta, qon tutishi (ya’ni, qotil qon to‘kkan eriga o‘z oyog‘i bilan kelib, qo‘lga tushishi) haqidagi naql keng tarqalgan. Lekin qatl va jinoyat hodisasi bilan bog‘liq bu hayotiy tafsilni muhabbat mavzuiga tortish, ma’shuqa obrazini yoritishga safarbar etish faqat shoirona idrok hamda mahorat nishonasidir.

Munisning osliqona g‘azallaridan inson ruhiyatidagi barcha his-tuyg‘ular o‘zining qaynoq tafti bilan ufurib turadi. Bu shoirning his-tuyg‘ularga boy qalb egasi ekanligini, muhabbatning lirikada aks etgan barcha mojarolari, qynoq va lazzatlari ana shu hassos qalbda tug‘yon urib, qalbga sig‘may, satrlarga sizib chiqqanligini ko‘rsatadi. Buni shoirning o‘zi iftixor bilan so‘zlaydi:

*Uzv-uzvimdin fig‘onlar bosh chekibdur til kibi,  
Ishq asrorig‘a mendin tarjimonroq yo‘q kishi.*

Haqiqatan, shoir ilohiy va insoniy muhabbatning achchiq-chuchugini o‘zi tatib ko‘rgani uchun ishqning sehru sinoatini she’riyatga ko‘chira olgan.

Adib axloqiy-ta’limiy g‘azallarida zamona zolimlarini insofga chaqiradi, ulardan «gulfom ulus qonidin ilgini gulgun qilmaslik»ni talab etadi. Aytmishi bilan qilmishi ters shariat peshvolarining riyokorligini pisanda qiladi, ularning poraxo‘rligini fosh etadi va diyonatga chaqiradi:

*Shafqat ilgi bilan ojiz fuqaro boshini siypa,  
Zo ‘rlig‘lar bila injitma alar ko‘nglini hargiz.*

*Hokimi shar'sen, o'lmoq nedurur moyili rishvat,  
Qaysi mazhabdadur ul hukmi shariat bila joyiz?*

Shoir umrining mazmuni va qadrini bilmaydigan, keksa bo'lishiga qaramay, yoshlarga xos ishlar bilan shug'rullanuvchi kimsalardan kuladi. Ularni aql-zakovat bilan ish tutishga undaydi. Uning axloqiy-ta'limiy g'azallaridan inson odobi borasidagi zakovatli misralar katta o'rinn egallaydi. Muallif ochiqko'ngillik, beozorlik va yumshoqtabiatlikni yaxshi xulqning belgilari deb biladi. Shuningdek, zeb-ziynatga berilmaslik, turish-turmushda kamtarlikka intilishni ham ibratli insoniy fazilatlar sifatida tasvirlaydi.

Munis kamtarinlik va kamsuqumlikni yaxshi insoniy fazilatlardan deb hisoblaydi. Qanoatsizlik va tamagirlik inson tabiatini bulg'ashini, kibru havo va tamadan yuz o'girgan qanoatparvar inson qudratli Iskandardek sharafliligin uqtiradi.

Demak, Munis hayotidagi va inson shaxsiyatidagi kamchiliklarni tanqid qilish bilangina cheklanib qolmay, balki inson tabiatidagi nuqsonlarni bartaraf etish, jamiyatdagi kamchiliklarni tuzatish ham mumkin deb o'laydi. Porloq kelajak, ideal jamiyat va ma'naviy barkamol insonlar haqidagi orzulariga chora izladi. Bu izlanishlarini o'z she'riyatida kuyunchaklik bilan ifoda etdi. Shoir porloq kelajak va orzulangan jamiyatni faqat oqil, odil, fozil insonlarga barpo etishi mumkin, degan xulosaga keldi. U insonlar, xususan, yoshlardan ongiga pand-nasihat yo'li bilan ta'sir qilib, ularni ma'naviy kamolot sari etaklashga intiladi. Kelajak nasllarga erk va ezmilik, olijanob odamiylik haqidagi samimiy she'riyatini meros qilib qoldirdi.

Munis nazmida *tabiat tasviriham* muhim o'rinn tutadi. Shoir she'rlarida tabiat fasllari va hodisalarining go'zal badiiy tasvirini kuzatish mumkin. Mumtoz asarlarda tabiat tasvirining o'zigina emas, balki tabiatning nodir lavhalaridan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanish mahorati ham tahsinga loyiqliq. Masalan, ona tabiatning quyosh, g'uncha kabi farzandlarining go'zal xususiyatlari, turfa holatlari, tovlanishlari Munisning dilbar she'rlar

yaratishiga asos beradi. Jumladan, Munis *quyosh timsoli* vositasida vafodorlik tuyg'ularini tarannum etadi. Tabiat falsafasidan hayotiy xulosalar chiqaradi. Lirik qahramon hamisha ma'shuqani vasf etadi, uning vasliga intiladi, uni bemehrlikda, vafosizlikda ayblaydi va vafodor bo'lishga chorlaydi:

*Vafo qilkim, vafo izhor — tarkidin quyosh topdi  
Falak uzra,yer ostida taraqqiy ham, tanazzul ham.*

Shoir lirik qahramon tilidan ma'shuqani vafodorlikka da'vat etib, uni quyoshning fe'l u atvordan ibrat olishga chaqiradi. Shoir bu go'zal bayt orqali faqat ma'shuqaga emas, balki butun insonlarga quyosh, vafodorligi — olamni yoritgani, isitgani, insonlar va erga yaqin bo'lgani uchun taraqqiy topgani, ya'ni falakning eng yuksak nuqtasiga ko'tarilgani hamda bevafoligi — yuksaklikka ko'tarilgani sari insonlar va yerdan uzoqlashgani, kibru havoga berilgani uchun tanazzulga yuz tutganidan saboq beradi. Chindan ham, agar inson kamtarin va mehru oqibatli bo'lsa, ma'naviy yuksaklikka erishadi, obro'li bo'ladi, xudbinlik va takabburlikka berilsa, tubanlikka yuz tutadi. Ko'ringanidek, Quyosh timsoli teran falsafiy va yuksak insonparvar g'oyani ifodalashda muhim vazifa bajargan.

Shoir falsafiy-axloqiy qarashlarini ifodalashda ham Quyosh timsolidan unumli istifoda etadi. Masalan, u pandomuz fikrlarini quyoshning xatti-harakatlari hamda pokizalik, nurafshonlik, yuksaklik, kamtarinlik, vazminlik kabi fazilatlari bilan asoslaydi. O'quvchini undan ibrat olishga da'vat etadi:

*Ochma nurafzo jamoling tiyradil ag'yor aro,  
Oftob olmas yuzidin kechalar ichra niqob.  
Har ishda tezlik qilmoq na hojat, ey ko'ngul, ko'rkim,  
Quyosh erdin chiqar so 'yi samo ohista-ohista.*

Munisning tabiatdan tanlagan va sevib ishlatgan timsollaridan yana biri *g'unchadir*. U shoirning o'z zamonasi bilan bog'liq fikr-

tuyg'ularini ifodalashda muhim vazifa bajargan. Juda ko'p san'atkorlar she'riyatidagidek, Munis nazmida ham uning xon saroyida bosh mirob lavozimida xizmat qilgan. Saroy va vohaningsuvtarmoqlari yaxshi bilgan. Xorazmdek yirik nihoyatda mas'uliyatli vazifa edi. Ana shu vazifa mirob shoirni dardu alamlaridan muttasil xabardor etardi. Keng xalq ommasini muhitni bilan ham hisoblashishga, kelishishga majbur bo'lar, ammo alamzadalikni yashirib, yutib yurolmasdi. Shoир o'z zamonasi vositasida izhor etadi. U isyonkor va haqiqatparvar fikrlari ifodasi muhitiga nisbatan tanqidiy fikrlari, ko'pincha, shoirning tabiat va namoyon bo'ladi.

*Agar amn istasang, bu bog' aro xomush bo'l doim  
Ki, ofatdin omondur sIRRin aylar to nihon g'uncha.*

G'uncha ochilib, gulga aylangunga qadar sehru jodusini pinhon tutadi. Sirini pinhon tutgani tufayli ham ofatlardan omon etkazmaydi, uni birov uzib ham ololmaydi. Shoир mana shu ijtimoiy muhitni «*bog'*», mazlum bechoralarni «*g'uncha*», ular ramziylashtiradi. Haqiqatan, Munis yashagan davrda erkin fikrlash, qattiq ta'qib qilinardi. Aks holda fosiq va munofiqlarning domiga ichiga yutib, xomush va xokis orona hayot kechirishdan o'zga yo'l

topolmasdi. Munisning ichki norozilik bilangina kifoyalanganining boisi ham shunda. U «Agar amn istasang, bu bog 'aro xomush bo'l doim» deganida, shunga ishora qiladi. Shoir zamonasi va bu zamonada yashash tarzi haqidagi fikrini esa g'uncha holatining tabiat «fe'li»ga mutanosibligi bilan asoslaydi.

Munis g'uncha timsolidan lirik qahramon qiyofasini, ruhiy holatlarini hayotiy gavdalantirish maqsadida ham juda o'rini foydalanadi.

*Abrdekkim, ashk to 'kkay, g'uncha bo 'lg'ay tangdil,  
Yig'lar osonliq bila el ko 'nglum ashkolin ko 'rub.*

Samoda bulut<sup>344</sup> (abr)lar paydo bo'lib, yomg'ir quya boshladи. Qiyg'os ochilib turgan g'uncha yopildi (bulutlarning behudud ko'z yosh (ashk) to'kayotganidan yuragi siqilib ketdi — tangdil bo'ldi). Yo'q, yo'q, yomg'ir yog'mayapti, lirik qahramonning hijron azobidagi ahvolini, uning g'unchadek tang bo'lgan ko'ngli shaklini (ashkolin) ko'rib, achinganidan, el yig'layapti.

G'uncha obrazi lirik qahramon dardi, qalb kechinmalarini mufassal ifodalashga xizmat etadi. Tabiat, nabototolami naqadar serqirra va murakkab bo'lsa, inson ruhiyati undan ham murakkabroqdir. Tabiatdan tanlangan timsollar san'atkorga ruhiyat tahlili uchun katta imkoniyat yaratadi.

«*Base g'am boridin chekmish og'irni*» g'azali. Shermuhammad Munisning butun ijodiyoti uning qismati chigal, hayoti nihoyatda og'ir kechganligidan dalolat beradi. Ifoda uslubiga kura sodda va samimi ushbu g'azalida shoir o'z hayotini haqqoniyl aks ettirishga erishgan:

*Base g'am bor<sup>344</sup>idin chekmish og'irni,  
Yog'ir bo 'lmish<sup>345</sup> hazin ko 'nglim yog'irni.  
Falak g'am yuklarin solg'onda elga,  
Yog'irn<sup>346</sup>img'a mening qo 'ymish og'irni.*

<sup>344</sup> Бор — юқ.

<sup>345</sup> Еғир бўлмоқ — яғир бўлиш, эзилиш.

<sup>346</sup> Еғирн — ягрин, сликা.

*Bilursen g'am yukin ko'p chekkanimni,  
 Yog'irnim ustida ko'rsang yog'irni.  
 Iting ko'rsam, manga uns aylasun<sup>347</sup> deb,  
 Berurman gah ko'ngulni, gah bog'irni.  
 Raqib ollingda bo'lmoqdin hazinmen,  
 Tilarmen ko'rmasam ul bo'lmosh'irni.  
 Zamor ahlig'a bo'l mish shikva<sup>348</sup> oyin<sup>349</sup>,  
 Netong, sevsam agar gungu sog'irni.  
 Najote istasang Munisg'a g'amdin,  
 Ayoqchi<sup>350</sup>, tut anga har dam chog'irni<sup>351</sup>.*

Bu «Munis ul-ushshoq» devonidagi o'ziga xos g'azallardan biridir. Uning o'ziga xosligi shunchalikki, bиргина шу г'азал мутолааси давомида Munisning shaxs va shoир sifatидаги siy whole one i aniq tasavvur etish mumkin. G'azal benihoya keng tarqalgan ixcham shakl — yetti baytdan iborat tarzda yaratilgan. Undagi samimiyat va ta'sirchanlik shoирning rasmiy-kitobiy uslubdan mutlaqo chekinib, hasbi holini dil-dilidan izhor etgani mahsulidir. Lirik qahramonning mahzun va dardmand hasbi holi g'azalxонни birinchi satrлardanoq sehrlab qо'yadi.

Zamona kulfatidan hamda g'ariblik g'urbatlaridan ezelgan ko'ngil hazin. Ushbu hazinlik yetmaganiday, adadsiz va og'ir g'am yuklarini tortaverGANidan hazin ko'ngilning yag'rin — yelkasi yag'ir bo'lib ketgan. Negaki, nobakor falak g'am yuklarini xalqqa taqsimlaganida, shoiri sho'ridaning yelkasiga og'irroq'ini ortmoqlagan. Lirik qahramon e'tiroficha, uning g'am yukini ko'p chekkanligini yelkasi uzra qotib yotgan yag'irdan ham bilish mumkin. Albatta, bu g'am yuklari, yag'rin va yag'irlar faqatgina moddiy ma'noga ega emas. Ular o'z zimmasida ramziy-ma'naviy ma'nolar ham tashiydi.

G'azal to'rtinchи baytidan boshlab hasbi hol tasviridan chekinib, an'anaviy g'azalhavislik uslubida davom etadi.

<sup>347</sup> Унс айламоқ — дўстлашмоқ.

<sup>348</sup> Шиква — шикоят, волиш.

<sup>349</sup> Ойин — расм, одат.

<sup>350</sup> Аёқчи — май қуюччи, соқий.

<sup>351</sup> Чогир — май, шароб.

To‘rtinchi bayt Alisher Navoyining «Qaro ko‘zum...» g‘azalidagi «*Itingga gamzada jon rishtasin rasan qilg‘il*» misrasiga ma’nodosh. Ma’lumki, manzurning iti Sharq she’riyatidagi an’anaviy obrazlardan biri bo‘lib, u goh ma’shuqa bilan oshiqni bog‘lab turuvchi, goh oshiq bilan ma’shuqa visoliga rahna soluvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ma’shuqa itiga iltifot ko‘rsatish, u bilan yaqin bo‘lishga intilishdan ilinj visolga erishishdir. Shu ma’noda, Navoyi g‘azalida ma’shuqa itiga g‘amdan zada bo‘lgan jon rishtasi arqon o‘rnida hadya qilingan bo‘lsa, Munisning lirik qahramoni ma’shuqa itini ko‘rsa, uni o‘ziga do‘stlashtirish uchun unga goh ko‘nglini, goh bag‘rini sug‘urib beradi, toki it visol yo‘lida oshiqqa monelik qilmasin, aksincha, moyil bo‘lsin. Beshinchi baytda an’anaviy raqib obraziga munosabat o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Bu o‘ziga xoslik shundaki, lirik qahramon o‘ta soddadillik va oshkor ochiqko‘ngillik bilan, raqib ma’shuqa bilan yonma-yon turishi, uni hazin kayfiyatga solishi, «*ul bo‘lmog‘irni*» ko‘rishni istamasligini izhor etadi.

An’anaviy it va raqib obrazlariga munosabatdan keyin yana g‘azal mundarijasidan zamona va Munisi g‘amdiyda dardi o‘rin oladi. Oltinchi baytda tasvirlanishicha, zamona ahli choraszizlikdan shu qadar shikoyatga, faryodu fig‘onga moyil bo‘lib qolganki, ularga chorasoz bo‘lishning ilojini topolmagan, nolishlardan yurakzada bo‘lgan lirik qahramon tilsiz, so‘zlayolmaydigan bechoralarni yoqtirish darajasiga etgan. Bu ham insoniyatning foje bir ahvolini anglatuvchi ayanch manzara. Bundayin bedodlikdan, davron g‘amidan najot topish uchun shoir so‘nggi baytda soqiyya murojaat qiladi va sharob bilan taskin-tasallli topishdan umidvor bo‘ladi.

Bu g‘azal ko‘p mavzuli bo‘lib, unda bir necha muammo ko‘tariladi. Shu asosda uning o‘ziga xos badiiy tarkibi yuzara kelgan. Mazkur asarda «*og‘ir*», «*bog‘ir*», «*yog‘ir*» (*hozirgi tilimizda “yag‘ir”*), «*yog‘irn*» (*hozirda “yag‘rin”, “elka”*) kabi o‘zaro ohangdosh so‘zlar vositasida muvaffaqiyatli chiqqan so‘z o‘yini misralardagi dardchil mazmunning ta’sirchanligini oshirgan.

Shoirning hasbi holiga oid bunday g'azallari muallifning qanday ahvol va kayfiyatda hayot kechirganini oydinlashtiradi. Shoir yashagan davr va davr kishilari haqida yorqin tavsifnoma beradi, zamondoshlarimizga hayotiy saboq bo'ladi.

**«Do'st uldurkim, yomon kun yuz evurmas do'stidin» g'azali.**

Munis she'riyatida do'stlik mavzusi izchil, go'zal va samimiylar yoritilgan. Balki, shoir sadoqatlari do'st izlab, ko'p dard chekkani, o'z jamiyati va hayotida do'stu do'stlikka vafodorlik topolmay qayg'urgani tufayli ham «Munis» degan taxallus olgandir. Darvoqe, «Munis» so'zi arab tilidan olingan va uning o'zagi «uns» bo'lib, u yaqinlik, ulfatlik, chin do'stlik ma'nolariga ega. Demak, Munis taxallusining ma'nosi insonlarga va Illosga ulfat, hamdam, chin do'st demakdir. O'zining taxallusi bilanoq do'stlik, birodarlikni shior qilib olgan shoir do'stlikni juda qadrlagan va boshqalarini ham shunga da'vat etgan. Ammo dog'uli davron bu orzularning amalga oshuviga imkon bermagan:

*Qilurlar bir-birining suhbatin garchi havas ahbob,  
Emaslar lek davron gardishidin dastras ahbob.  
Falak mundoqli, dushmankomlik zohir qilur har dam,  
Emaslar hech forig' g'am chekardii bir nafas ahbob.*

Hayot ba'zan shunday murakkab kechadi va tashvishlarga to'liq bo'ladiki, bir-birini sog'ingan, o'zaro hol-ahvol so'rashishga, suhbatlashishga, diydorlashishga intiq-intizor do'stu og'a-inilar turmush tashvishlaridan ortib, oddiy odamgarchilik rasmini bajo keltirishga muvaffaq bo'lmaydilar. Falak gardishi yoki zamonaning insoniylikka teskari fe'l-atvori tufayli do'stlikka moyil kishilar mudom g'am chekishga mahkum bo'ladi. Davr va ahli davr obrazlari shoir asarlarida izchil tasvir etiladi. Masalan, yuqoridaq misralarda davrning telba-teskariligi va dushmanfatiqligi qoralanadi. G'azal davomida shunday davrga mansub va muvofiq ba'zi kishilarning tuban qiyofasi ham fosh etiladi.

*Zamona ahlining manzuridur chun moli jam'iyat,  
Qachon topg'ay meningdek bir g'aribni hech kas ahbob.*

Zamona ahlini mol-mulkka o'ch, moddiy manfaatlarga hirs qo'ygan olomon tashkil etar ekan, ularning hech biri iqtisodiy jihatdan g'arib kishini do'st tutmaydi. Xoh u alloma, donishmandi zamona bo'lzin, xoh ma'nan komil murabbiy bo'lzin, uni yakkalab, yolg'izlatib qo'yishdan hayiqmaydilar. Undan uzlusiz ma'naviy madad va rag'bat olib turadilar, ta'limu tahsildan o'zlar hamda farzandlari bahramand bo'ladilar. Ammo o'zlariga monand naqd moddiy manfaat unadigan kishilar bilan do'stlashadilar. Bu — hayotning azaliy achchiq haqiqati.

Munisning ko'pgina g'azallarida kimsasizlik, yolg'izlik iktiroblari ifodalangan. Bu g'azalda esa yolg'izlikning tub sabablarini, do'stlik izhor etgan qallob kishilarning salbiy ma'naviy qiyofasini ochish yo'li bilan bayon qiladi:

*Erurman uyla bekaskim, borurga bog'lasam mahmil,  
Topilmas aylamakg'a nola andoqkim jaras ahbob.  
Tutay kimdin umidi marhamatkim, yoqg'oli jonim  
Urarlar otashi a'dovu solurlar xoru xas ahbob.*

Munis xaloyiq va jamiyatning do'stparvarligi uning hukmdoridan boshlanishini orzu etadi. Xalqi va hukmdori do'stparvar bo'lsa, davlat qudratli, mustahkam, dushmanbardosh bo'lishini bashorat qiladi:

*Desang, a'do shikasti davlatimg'a topmasunlar dast,  
Yig' atrofingg'a, ey shah, adl birla peshu pas ahbob.*

Shoir o'z g'azallarida qanday masalani ko'tarmasin, g'azalning keyingi baytlarida, albatta, zamondoshlariga, ko'pincha esa, hukmdorlarga murojaat etadi. Ularning e'tiborini shu masalaga tortishga, insonparvarlik g'oyalari orqali ta'sir etishga intiladi. Zero,adolatli, insonparvar hukmdor — Munisning ham yuksak

ijtimoiy orzusi edi. U yurt rahbari xayrixoh va ma'rifatparvar bo'lsa, xalq ham osoyishta, ma'rifatli bo'ladi, deb o'ylar edi. Shuning uchun ularni goh maqtash, goh tanqid, goh nasihat qilish yo'li bilan tarbiyalashga harakat qildi.

Jamiyatdagi kamchiliklar Munisni yoshligidan otashin etgan va dardli asarlar uning ilk devonidanoq joy olgan:

*Kimnikim do'st dedim, dushmani jon topdim oni,  
Neki ondin tiladim sud, ziyon topdim oni...  
Yor mehrin tilab, ag'yor jafosin ko'rdum,  
Mayki gulgun talab etdim, qaro qon topdim oni,  
Nekxohim deganim barcha bor erkan badxoh,  
Onikim onglat edim yaxshi, yomon topdim oni.*

Lirik qahramon hayotda orzu-o'ylariga batamom ters holatni ko'radi. Do'st deb o'yagan kishisi dushman, xayrixohlik kutgani badxoh, yaxshi gumon qilgani yomon bo'lib chiqadi. U insonlardan manfaat, madad, mehr kutadi. Ammo, nuqul zarar ko'radi. Ushbu g'azal hayot ziddiyatlarini teran aks ettirgan va boshdan-oyoq tazod asosiga qurilgan. U Munis hayotining muayyan sahifalarini yoritishi va shoir yashagan zamonaning manzarasini hayotiy gavdalantirishi bilan ham diqqatga sazovor.

Umri davomida Munis turli lavozimlarda ishlagan, avom xalq orasida ham kezgan, mansabduro ziyolilar bilan ham muomalada bo'lган. Uning she'rlari ana shu turli toifa kishilari ahvoli va ruhiyatini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. «Munis ul-ushshoq» debochasida shoirning o'zi qayd etishicha, uning yoshlik chog'lari beg'ubor va bedard kechgan. Keyinchalik esa ko'p donishmandlar davrasida bo'lib, ular bilan fikrlashgan, hayot va zamonni hushyorlik bilan kuzatgan. Olgan taassurotlarini ijodiga izhil singdirgan: «Valekin, ul asnoda gohi bexudlig'din ifoqat hosil bo'lub, mastliqdin hushyorliqqa vosil bo'lg'onda tabiatи jibilliyy va kayfiyat iqtizosi bilan ahyonan fuzalo xidmatig'a moyil va kitobxonlir suhbatig'a doxil bo'lur erdim. Sharafi xizmat natoyiji va asari suhbat mayomini bila tab'img'a kayfiyatlar yuzlanib va

*holatlar dast berib, nazm silkiga mubayyan va vazn zevari bila muzayyan bo'lur erdi». Hayot inson irodasi, tabiat uchun o'ziga xos bir sinov, ko'zgudir.*

Munis zamondoshlarining mana shu ko'zguda yaqqol ko'ringan qiyofasini o'z g'azaliyotiga ko'chirgan. Ayniqsa, shoirning «Oshno» radifli g'azali alohida e'tiborga loyiq.

*Davlating borida bordur ahli olam oshno,  
Qayiqach davlat, jahonda topilur kam oshno.  
Uyla bekaslik meni mahzunga top mish dastkim,  
Bir kishi yo'qdur mango juz kulfatu g'am oshno.  
Baski davron xohishi begonaliq solmoqdurur,  
Bir-biriga bo'la olmas ikki hamdam oshno.  
Kimki bo'ldi oshno, bot ayladi begonalig',  
Topmadim bu davr aro bir ahdi mahkam oshno.  
Gar vafo bo'lsa, parida bo'lg'ay erdi, ko'rmadim,  
Bo'ldilar har nechakim avlodni odam oshno.  
Hajr ranjidin o'larga etmishamkim, ko'rsalar,  
Holima tutg'ay azo begona, motam oshno.  
Ishq aro ul nav' erur vahshat meni majnung 'akim,  
O'zgani demay, bo'la olmas ko'ngul ham oshno.  
Dard chekmak, ashk to'kmak ishq eliga xosdur,  
Har ko'ngulga dard, har ko'zga emas nam oshno.  
Muniso, davron g'ami begona bo'lsa, tong emas  
Kim, senga bo'lmish biyik donishvar Akram oshno.*

G'azal matlasida shoir inson tabiatidagi nosamimiylidkan shikoyat qiladi, mol-davlat tufayligina oshno tutinadigan kishilarni qoralaydi. Taassuflarkim, Munisning bu «tutingan» soxta do'stlar haqidagi fikri faqat uning o'z zamonasigagina taalluqli bo'lib qolmay, balki barcha zamonlarda, hamisha barhayot bo'lib turibdi. Hamon oshnagarchilikka intiladigan kimsalarning ko'pchiligi yo davlatu mansabga, yo molu mulkka, yoki boshqa biror manfaat unadigan qadriyatga ishqiboz bo'lishadi. Ammo, aslo samimiy, dardkash, jonajon do'st bo'lishmaydi. Chinakam do'stlikka

da'vogar bunday kishilar amaldan tushganingizda, mol-mulkingizdan baraka uchganida, moddiy yoxud ma'naviy madadga muhtoj bo'lib, ko'mak istaganingizda, qorasini ko'rsatmaydi, hatto ochiq-oydin yuz o'girib ketadi. Munis mazkur g'azalida hayotning beshafqat hodisotlaridan bizni murabbiylarcha ogoh etayotir. Ushbu matla Munis xon saroyida ma'lum davrda davlatmand hayot kechirgan bo'lsa, keyinchalik qashshoqlik qiyinchiliklariga duchor bo'lganligini eslatadi. Shoirning mazkur xulosasiga shaxsiy hayot tajribalarigina emas, tarixchilik va insonshunoslik kuzatuvlari ham asos bo'lgan.

Insonlar orasida yashab turib, ruhan, qalban yolg'iz bo'lishdan ko'ra og'irroq dard bo'lmasa kerak. Mana bu baytda shoirni kimsasizlik va g'am-kulfatlar og'ushida ko'ramiz:

*Uyla bekaslik mani mahzung'a-topmish dastkim,  
Bir kishi yuqdur mango juz kulfatu g'am oshno.*

Ma'naviy-madaniy inqiroz girdobida qolgan tuzumda ma'naviyat kishisining qismati bekaslik — kimsasizlik, yolg'izlik. Uning dili majruh, ruhi yakson, tafakkuri tushovlangan. U g'amu kulfatdan o'zga hamdam, oshno topolmaydi. Xo'sh, Munis yoki zamon ahli bunday ahvolga tushishiga sabab nima? Buni shoir quyidagicha izohlaydi:

*Baski davron xohishi begonaliq solmoqdurur,  
Bir-birig'a bo'la olmas ikki hamdam oshno.  
Kimki bo'ldi oshno, bot ayladi begonalig',  
Topmadim bu davr aro bir ahdi mahkam oshno.*

Demak, shoir ikki narsani asosiy sabab qilib ko'rsatadi. Lirik qahramon — shoirning bechoraholligiga birinchi aybdor — davr, chunki uning «xohishi begonaliqsolmoq». Ya'ni davron o'zining ziddiyatlari turmushi, adolatsizligi bilan odamlar orasiga nifoq solib, ularni bir-biriga dushman qilib qo'yadi. Ikkinci aybdor esa davr ahli — Munisning zamondoshlari. Chunki ular beqaror, mehrsiz,

irodasiz kishilar. Voqean, zamona, siyosat istagan kuyini chalsा, unga raqqoslik qilavermaydigan, maslak va e'tiqodida sobit tura oladigan oshno orttirish oson emas. Ko'rinib turibdiki, shoirning shaxsiy kechinmalari ijtimoiy hayot voqeligidan kelib chiqqan.

Shuning uchun do'st va do'stlik zayli — zamon hamda ahli zamon mavzuining yorqin qirrasi sifatida talqin etiladi. Munis do'stlikka juda katta ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy masala sifatida yondashadi. Zotan, hayot naqadar mashaqqatli bo'lmasin, u mehribon, madadkor, xushchaqchaq do'stlar bilan yengil kechadi. Shoir esa samimi, jonajon do'stga ilhaq yashab o'tgan. Xalqda: «Ahmoq do'st — yovdan yomon» degan naql bor. Bu hikmat bejiz aytilmagan. Munis ham do'st bilan dushmanning farqiga bormaydigan, ezgu bilan yovuzni ajrata olmaydigan, xiyonatkor «do'stlar»dan mehr o'miga jabr ko'rgan va bu betayin kishilar, tund tuyg'ularning timsolu taassurotini o'z she'riyatiga muhrlagan.

Munisning do'stlik mavzuidagi aksariyat g'azallari ushbu insoniy tuyg'u haqida mulohaza yuritish, hukm-xulosa chiqarish yo'sinida yozilgan bo'lsa, quyidagi g'azal do'stlarga murojaat, iltijo etish tarzida yaratilgan:

*Do'stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,  
Siz ichib sahbo, meni xunxori hasrat qilmangiz.  
Gar muyassar bo'lsa bir mahbub ila bazmi nishot,  
Mensizin suhbat tuzarga maylu rag'bat qilmangiz.  
Topsangiz bazmi visole, anda yod etmay meni,  
Zor ko'nglumni asiri dog'i furqat qilmangiz.  
Men kibi yo'qdur aroda, mankubu maxmuri aysh,  
Kimsaga mendin ziyoda boda shafqat qilmangiz.  
Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,  
Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.  
Do'st uldurkim, yomon kun yuz evurmas do'stidin,  
Munis ahvolin ko'rub, tarki muhabbat qilmangiz.*

G'azaldagi nolakor iltijo, murojaatlar yolg'izlikdan ezligan lirik qahramonning hazin iztiroblari asosiga qurilgan. Hayotda

ishonib, sig'inib yashayotgan do'stlaring senga beparvo bo'lsalar, kimsasizlik kulfatiga tashlab qo'ysalar, bundan-da ortiq alam bormi? Bunday ko'rguliklardan yurakzada bo'lgan shoir yolg'izlikning yovuz changalidan qutqarib olishlarini do'stlardan o'tinib so'raydi. Do'stlari uni unutib, o'zлari maishat qilsalar, lirk qahramon hasratdan qon yutadi. Shuning uchun u biror lahma g'amu hasrat to'shagiga tashlab qo'ymasliklarini do'stlardan so'raydi.

«Dunyoning shodligi yig'ilsa butun, do'stlar diydoridan ustun bo'lolmasligi», dunyo dustlik bilangina bir butunligi haqida ne-ne donishmandlar benazir baytlar bitishgan. Bobur Mirzo ham «Do'stlarning suhbatida ne xush o'lg'ay bahsi she'r» deya zavqu surur bilan do'stlarning suhbatini sharaflagan. Do'stlar diydori, davrasi, gurungining mazasi Munisga ham oshno. Shoir umrining ma'lum fasllarini ushbu tuyg'udan masrur kechirgan. Uning do'stlarga ishonch, hayotga muhabbat ruhi bilan yo'g'irilgan ba'zi asarlari bunga shohid. Shoirning muruvvatli, sadoqatli do'stlari haqida yozgan ajoyib gazallari ham borki, ularda do'stlik mehrining hayotbaxsh qudrati, do'stlikning inson ruhiyatni tetikligi uchun naqadar muhim o'rin tutishi lirk qahramon qalbining chuqur ruhiy tahlili jarayonida ochib berilgan:

*Hajr sahosida zoru bekas erdim, shukrkim,  
Raxshi altofin mening sori sabuktoz etti do 'st.  
O'lturub yonimda yuz turluk navozishlar qilib,  
Do 'stlar ichra meni bu nav' mumtoz etgi do 'st.  
Iltifoti jomidin masti sharobi vasl etib,  
Dushmani badxohlar ichra sarafroz etti do 'st.*

Lekin Munis bunday do'stona muruvvatlardan butun umri mobaynida yolchimagan. U ko'pincha do'stlarning suhbatini sog'inib, do'stdorlikka tashna yashagan. Tahlil etilayotgan g'azalning 2, 3, 4-baytlarida shu boisdan shoir ulfatlariga uqtiradiki, bordiyu biror sevikli inson diydoriga muyassarlik nasib etsa, zinhor mensiz suhbat tuzmagaysizlar. Chunki men ham do'stlik suhbatiga zor-intizorman. Mening bu ahvolimni esda

tutinglar. Basharti visol bazmi nasib etib qolsa, meni yod etmay, zor ko'nglimni ayriliq, yakkalik dardiga asir etib qo'y mangizlar. Negaki, dunyoda meningdek ayriliqda, arosatda qolgan, ulfatchilik xumor etgan kishi yo'q. Shuning uchun men bir chetda qolib ketib, do'stlik sharobini o'zgalarga tutmangiz.

G'azalning yuqoridaagi baytlari shoirning shaxsiy dardu istaklarini ifodalasa, so'nggi baytlar umumning ijtimoiy dard va manfaatlarini ko'zlagan, falsafiy tus olgan istak-iltijoni ilgari suradi.

*Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,  
Jam'i nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.*

Naqadar nek'in nasihat, mazmundor, teran maslahat. Unga jamiyatning har bir a'zosi rioya etganida edi, millat allaqachon oliv rutbaga ko'tarilgan bo'lardi. Xalq orasida bazmi kitob — kitobxonlikning rasm bo'lishi Munis orzulagan ma'naviy mukammal insoniyatning sifat belgisidir.

Munisning xulosasiga ko'ra, do'stlikning sharti va talablari og'ir. Do'stlik murakkab, musibatli damlarda, yomon kunda sinaladi. Shoir hayotiy bu qonuniyatni juda sodda ta'riflaydi:

*Do'st uldurkim, yomon kun yuz evurmas do'stidin.*

Baxtli, farahli kunlarda, omad va daromad kulib boqqan pallada inson atrofida do'stlar parvona bo'lishadi. Bunday onlarda ularning madadi, ko'magiga ehtiyoj ham bo'lmaydi kishida. Lekin, bu odamlarning bariga chin do'st deya ixlos qo'yish mumkinmikin? Ha, odatda, odamlar shunday ish tutishadi. Ammo kuni kelib, ushbu «do'stlar»ning biri moliga, biri mansabiga, biri hunariga, biri yeriga ishqibozligini sezib qolishadi. Murodlari hosil bo'lgani sari, soxta do'stlarning safi siyraklashib boradi. Do'stning ahvoli og'irlashgani, muruvvat va madadga muhtoj bo'lgani sayin, ular muhabbatni tark etaveradilar. Do'stning kuni musibatga, yomonlikka yuzlansa, "do'stlar" undan batamom yuz o'girib ketadilar. Shundan yurakzada shoir «Munis ahvolin ko'rub, tarki muhabbat qilmangiz», deya iltijo etadi. Ushbu bayt falsafiy jihatdan teran, usluban sodda, ruhan samimiy bitilgani bilan birga,

san'atkorona yaratilgan ham. Birinchi misraning boshlanishi va tugallanishida «*do'st*» so'zining mavzu ham g'oya ta'kidi uchun qo'llanishi, ikkinchi misrada “*Munis*” so'zining shoir shaxsini hamda umumiy ma'nodagi do'stni ifodalashga safarbar etilishi ma'naviy-lafziy mutanosiblikning go'zal namunasidir.

Umuman, bu g'azal o'zbek adabiyotida do'stlik mavzusida bitilgan eng yetuk asarlar sirasida o'ziga xos o'rinn tutadi. Xalqning sevgisiga sazovor bo'lidan, u ashulaga aylantirilib, ko'p yillardan buyon nazardan qolmay, avj pardada aytilib kelinayotir. G'azalning vujudga kelishi, umriboqiylik kasb etishida, shubhasiz, Munis ustoz Alisher Navoyining o'z g'azallariga hamohang g'azallaridan ijodiy ibrat va ilhom olgani, ta'sirlangani ham asosiy omil hamda sabablardandir.

***MASLAKDOSHLIK VA IZDOSHLIK SALOHIYATI.*** Munisning qator g'azal, nazira va muxammaslari Navoyi bilan maslakdosh, fikrdosh bo'lish, badiiy so'zga navoyicha yo'sinda yondashish samarasasi sifatida yuzaga kelgan. Munis uchun nazira va muxammaslar yozish asil g'azal yaratish yo'lidagi o'ziga xos mashq, tayyorgarlik vazifasini o'tagan. Ustozlari g'azallariga muxammas bog'lash g'azalchilikda mahorat qozonishning asosiy omillaridan biri bo'lgan. Munisning Navoyi g'azallariga bog'lagan ajoyib muxammaslari mavjudki, umumiy tasavvur uchun ularga bir nazar tashlash zarur. Shunisi diqqatga sazovorki, Munis muxammas bog'lash uchun Navoyining eng bokira g'azallarini tanlab olgan, ustoz Navoyi bilan o'ziga xos ijodiy musobaqaga kirishgan, Navoyi mahorati darajasida qalam tebratishni o'zi uchun ijodiy sinov deb bilgan. Buning uchun shoir butun ichki imkoniyatlarini, iste'dod qudratini ishga solgan.«Xazoyin ulmaoniya»da Alisher Navoyining:

*Ishq ahli go'ristonida qabrim chu zohir bo'lg'usi,*

*Farhod oning toshin yo'nub, Majnun mujovir bo'lg'usi*  
matlali go'zal g'azali bor. Bu g'azalni o'qigan odam cheksiz ma'naviy rohat oladi, g'azal san'atining sehriga qayta boshdan asir bo'ladi. Ushbu g'azalga Munis bog'lagan muxammasni o'qiganda

esa, insonning ma'naviy-ruhiy olami yana bir nodir badiiy durdona bilan boyiydi. Muxammasni bandma-band qiyosiy mutolaa etish imkoniyatini muhtaram tolibi ilmlarda qoldirib, biz uning ayrim bandlarinigina tahlil etamiz, xolos.

*Kofir kuzingning xidmatin ixlos ila qilmish ajal,  
Xanjar mijangdin aylabon el bag'rini tilmish ajal,  
Qotillig'ingni, ey pari paykar, magar bilmish ajal,  
G'amzangdin o'lturmoq ishin ta'lim ola kelmish ajal,  
Bu nav' ustod o'lsa, ul oz chog'da mohir bo'lg'usi.*

Navoyi baytining birinchi satridagi oddiygina «*ajab*» so'zi Munis muxammasida radifga aylangan. Ajalning «*o'lturmak ishi*»ni ma'shuqa g'amzasidan o'rganganligi Navoyi baytida isbotlanmagan umumlashma fikrdek berilgan. Munis satrlarida esa «*ajab*» ma'shuqa g'amzasidan nimalarni o'rganganligi batafsil tasvirlangan. Birinchi misrada shoir ma'shuqa ko'zlarining mumtoz she'riyatda tasvirlangan ikki xislatini oshkor etishga erishgan. 1. Ko'zlar “*kofir*” deb sifatlanadi va ushshoq iymonini g'orat qilishda ayblanadi. 2. Ko'zlar “*qattol*”, “*har biri jon olg'uchi*”, “*xunxor*” deya tavsiflanadi. Munis an'anaviy bu tashbehlarga kinoyaviy tarzda ishora qilarkan, ayni paytda, ma'shuqa ko'zlarini o'ziga xos tarzda tasvirlashni niyat qilgan.

Kipriklarning xanjarga qiyoslanishi ham an'anaviy holat. Ikkinchisi misrada Munis shunga ishora qiladi va buning umumiyligi holligini, ya'ni (birgina ma'shuqa emas) butun ma'shuqalar ajdodi xanjarsimon mijgonlari bilan (birgina oshiqning emas, balki) «*el bag'rini tilmoq*»qa mashg'ulligini ta'kidlaydi. Asl muddao esa, yana o'sha mijgonlarni tasvirlash.

Uchinchi misra dastlabki misralarni umumlashtirish hamda ularni Navoyi baytiga mantiqan payvandlash uchun safarbar etilgan. Bu juda mushkul vazifa bo'lganligidan Munis «*ichki qofiya*» kabi nozik san'atlarni ishga solib, misraning jozibali chiqishiga erishgan.

Munis va Navoyi misralarini birlashtirishda, bandning tugal mazmundorligini yuzaga chiqarishda «*ajal*» radifining badiiy vazifasi katta. Munisning mahorati shundaki, «*ajal*» kabi sovuq o‘limdan darak beruvchi so‘zni insonning hayotbaxsh tuyg‘ularini tug‘yonga keltirishga bo‘ysundirgan.

Shogird misralari ustozi baytidagi kechinmalarni muayyanlashtirishga, izohlashga, badiiy asoslashga yo‘naltirilgan:

*Bordur manga zolim iki — gardun biri, dilbar biri,  
Ashkim bila ohim erur — Jayhun biri, sarsar biri,  
Behad g‘amim bor o‘lsa sabt, o‘lg‘usi ming daftар biri,  
Ko‘nglumdagи har nishdin gar bo‘lsa bir til har biri,  
Yuz til bila o‘z holining sharhida qosir bo‘lg‘usi.*

Navoyi baytidagi «*har nish*», ya’ni lirik qahramonni dardga soluvchi manbalarni ilg‘ab olish qiyin. Munis misralari esa ularni muayyanlashtiradi. Dastlabki misradan lirik qahramonni iztirobga soluvchi ikki manba: *falak* (davr ma’nosida) va *ma’shuqa* mavjudligidan voqif bo‘lamiz. Ikkinchisi misra ularning jabridan lirik qahramon *ko‘z yoshlaridaryo, ohlari sarsar* ekanligidan darak beradi. Uchinchi misra *lirik qahramon dardlarining behadligini* so‘laydi. Nihoyat, mana endi lirik qahramon qalbiga og‘riq beruvchi dardlarni aniq tasavvur qila olamiz. Shunisi hayratlanarlik, muxammas misralari Navoyi ruhiyatiga hamohang, Navoyi didi va saviyasi darajasida bitilgan.

Xullas, Shermuhammad Munis o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk shoir edi. U Sharq adabiyotining ilg‘or an’analarni mukammal o‘zlashtirdi. Ana shu boy meros va an’analardan oziqlangan holda barakali ijod etdi. U devon tuzish va g‘azal yaratish bilan bog‘liq so‘nib qolayozgan an’analarni jonlantirdi. Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni Sharq she‘riyatining azaliy an’analari va qoidalariga to‘la amal qilinishi jihatidan Alisher Navoyining «Xazoyin ul-maoniy»sidan keyingi eng mukammal devonlardan hisoblanadi. «Munis ul-ushshoq» davr nafasi va keng ko‘lamli ijtimoiy fikr-g‘oyalar bilan yo‘g‘irilganligi

tufayli ham o‘ziga xosdir. U katta ma’rifiy-ma’naviy obida, badiiy mahorat maktabi sifatida adabiyot ixlosmandlari uchun hamisha ardoqlidir.

**“Savodi ta’lim” risolasi.** Ma’rifatparvarlik Munis she’riyatining yetakchi g‘oyalaridandir. Munis iste’dodi qirralaridan biri xattotlikdir. U bu yo‘nalishni san’at darajasiga ko‘tara olgan. Hayoti davomida o‘ziga manzur bo‘lgan bir nechta noyob asarlarni, jumladan, 1794-yilda Alisher Navoyining “Mezon ul-avzon”, 1797-yilda “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarlarini kitobat qilgan.

Munis xattotlik ilmini nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham takomillashtirgan olim sifatida qadrli. “Savodi ta’lim” risolasi uning bu boradagi xizmatining salmoqli qismini tashkil etadi. Garchi bu asar asos e’tibori bilan xattotlik ilmiga oid bo‘lsa-da, unda Munisning ustod Ibn Hojib haqida, yozuvning madaniyat taraqqiyotidagi o‘rnini, xususan, husnixat ta’limi va, umuman, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qimmatli fikrlari mavjud.

Qalbida xat-savod o‘rganish, bilimdon kishi bo‘lib etishish istagi tug‘yon urgan Shermuhammad Munis ilmda kamolotga erishgach, ta’lim ishini osonlashtirishga qat’iyat bilan kirishadi va bu borada ko‘p izlanadi. Yoshlarga o‘zi ta’lim bera boshlaydi. U murabbiylilik qilar ekan, ta’lim usullariga ijodiy yondashadi, o‘z ta’biri bilan aytganda, “*bilgancha surub qalamni har yon, ta’lim ishin aylar erdi oson*”. Munis yetuk murabbiy sifatida o‘z toliblariga savod o‘rgatayotganida, sodda, tushunarli yo‘llarni izlagan. Uning maqsadi oson va qulay usullar vositasida savodxonlikka erishish edi. Lekin Munis bu bilan qanoatlana olmaydi, olijanob orzulari navqiron qalamkashni husnixat ta’limiga oid bir she’riy-ilmiy risola yaratishga ilhomlantiradi. Niroyat, u o‘z amaliy tajribalarini jamlab ushbu risolani yaratadi:

*Lekin ko‘ngul ichra erdi bu kom,  
Qilsam raqami ulumi arqom<sup>352</sup>.*

<sup>352</sup>. Улуми арком – ракамилар илмлари.

*Andin talab ahli bo 'lsa mahzuz<sup>353</sup>,*

*Ta 'lim fanin qilurda mahfuz<sup>354</sup>.*

“Savodi ta'lim” asari ana shu tarzda vujudga keladi. Haqiqatan ham, risola muallifi arab harflarining murakkab shakllarini juda sodda uslubda yoritish yo'riqnomasini yaratadi. U harflarning esda saqlanishini osonlashtiruvchi ashyolarni topadi. Ularni turli jonzotlarga, jihozlarga o'xshatib, talabalar tasavvurini tiniqlashtiradi.

“Savodning beshigi - alisbe” deganlaridek, Munis ham ta'limdagи muvaffaqiyatlarning garovi savod ekanligini tushungan va shuning uchun “ulumi arqom” – yozuv ilmini yaratishga bel bog'lagan. Muallif “Savodi ta'lim”ning yozilish sabablari, tarixi haqida asarning o'zida ma'lumot berishicha, u “jiddu jahd” bilan harakat qilib, manzumani hozirgi hisob bilan 1804-yil 6 dekabrda (hijriy 1219-yil, ramazon oyining uchinchisi – chorshanba kun) nihoyasiga yetkazgan:

*Bu nomaki bo 'yla topti tanzim,*

*Yozildi oti «Savodi ta'lim».*

*Ta'rxi oning bu nav' adodur,*

*Hijrat chog'idinki,g'amfizodur.*

*Ming ikki yuz o'n to'qquz edi yil,*

*Dog'i ramazon uchunchisi, bil.*

*Go'yoki chahorshanba erdi*

*Itmomi qalamg'a dast berdi<sup>355</sup>.*

Asarning hajmi 352 misradan iborat. Uni shartli ravishda uch qismga bo'lib o'rganish mumkin.

1. *Muqaddima qismi.* U o'n sakkizta kichik bobdan tarkib topgan.

Ularda hamd, na't va risola nazmining sabablari, qalam ta'rifi, xat ta'rifi, yozuv asboblarining qulayligi, yaxshiligi, ularni tayyorlash mahorati kabi masalalar yoritilgan.

2. *Asosiy qism.* U 22 ta kichik bobdan iborat. Ularda arab harflarini yozish yo'llari, usullari va mahoratiga e'tibor qaratilgan.

<sup>353</sup> Махзуз – баҳра олган.

<sup>354</sup> Махфуз – ҳофизага, хотирага олинган, ёдланган.

<sup>355</sup> Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. Т.: 1978, 389-бет.

**3. Xotima qismi.** Unda risola tarixi bitiladi. Uning toliblar ko'ngliga ilm rag'batini uyg'otishga xizmat etishi muallif tomonidan orzu qilinadi.

Sharqda, an'anaga ko'ra, shoir va olimlar qanday mavzuda asar yozmasinlar, gapni Tangriga hamd, payg'ambarga na't, hukmdorga madh, salaflari, ustozlariga tavsifdan boshlaydilar. Munis ham "Savodi ta'lim"ning dastlabki qismida husnixat ilmining ustozi madhiga to'xtaladi hamda uning fazilatlari haqida mehr bilan so'zlaydi. Ustozini mashhur arab tilshunosi va arab xatining koshiflaridan biri Ibn Hojibga o'xshatib ta'riflaydi:

*Har ilmda jomiul-fazoyil,  
Har hukmda voqiful-masoyil.  
...Ilm ichra adili Ibn Hojib,  
Ilm ahliga ehtiromi vojib.*

Shoir ustozining xushxatligini mubolag'ali ifodalar bilan tasvirlaydi:

*Xattidin o'lub xujasta ta'lim,  
Ta'lim fani xatiga taslim.*

Go'yo ta'lim Ibn Hojib husni xatining jozibasi tufayli qutlug' va muborak bo'lgan, go'yo uning bokira dastxati oldida ta'lim bosh egib taslim bo'lgan. Bu shogirdning ustozga nisbatan chinakam iftixon tuyg'ulari izhoridir.

Manzuma muallifi asarda qalam vasfiga katta o'rin ajratib, uning ahamiyati, qadrini zavq bilan kuylaydi:

*Ey ahli qalamliq etgan isbot,  
Lozimdurur aylasang mubohot.*

Munis qalam sohiblarini (shoir, xattot, kotib va h.k.) tabarruk, qutlug' va sharafli kasb egalari deb biladi hamda ularga murojaat qilib, o'z kasblari bilan faxrlanishlari lozimligini aytadi. Qalamni "**jon**"

so‘zi ( ) o‘rtasidagi alif ( ) harfiga nisbat berib, uni jondek aziz deydi, uni harfidan “*sharobi ma’ni*” oqib turuvchi nayshakarga o‘xshatadi.

Shoir qalamning ijtimoiy ahamiyatiga yuksak baho berib, deydi:

*Ilm ahli nasibi andin afzun,*

*Jahl ahli aning g‘amida mahzun.*

*Olam ishi intizomi andin,*

*Olam elining nizomi andin.*

*Ul bo‘lmasa, bo‘lmag‘ay kitobat,*

*Bu bo‘lmasa, qolmag‘ay hikoyat.*

Munis “Savodi ta’lim”da xat ta’rifiga alohida to‘xtalib, uni “*so‘z maxzanining nishonasi*”, “*ma’ni durining xizonasi*” deya ta’riflaydi. Yozuvni jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy bir zarurat sifatida baholaydi:

*Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,*

*Xat bo‘lmasa, bo‘lg‘ay erdi nobud.*

Muallif, husnixat o‘rganishdan maqsad, “*xatti xo‘b*”ni egallahash ekanligini uqtiradi va asar davomida chiroyli yozishning shart-sharoitlari, tadbirlari haqida bat afsil fikr yuritadi.

Munis xat yozuvchi va savod o‘rganuvchiga did bilan qalam tanlash hamda rangli qalamlar ishlatish to‘g‘risida qimmatli maslahatlar beradi. Ma’lumki, Munis yashagan davrda qalam qamishdan qo‘lda yasalar, to‘g‘rirog‘i, yo‘nilar edi. Binobarin, u qalam yo‘nish qoidalarini ham mufassal bayon etadi.

Asarning so‘nggi qismlarida Munis arab alifbesidagi har bir harfning yozilishini mahorat bilan tushuntirishga kirishadi, o‘quvchida aniq tasavvur hosil qilish uchun fikrlarini sodda va tushunarli bayon etishga harakat qiladi, harflarni turli shakldagi jism yoki jonivorlarga o‘xshatib tasvirlaydi:

*“Zo” ( ) uch nuqatu valek sarkash,*

*Qilsa bo‘lur oni qushg‘a o‘xshash.*

Ko‘p o‘rinlarda Munis savod ta’limi haqida risola yaratgan ustozlarining fikrlariga munosabat bildiradi, ular bilan mubohasa yuritadi va o‘z mulohazalarini dadil bayon etadiki, bu ham uning chinakam olimlik iste’dodidan dalolat beradi:

*To () zikrida dedi ba’zi ustod,  
Zebo alifiyu avvali “sod”.  
Bu nuqtaga men qilurman inkor,  
“Sod” osti erur satbar bisyor.  
Ta’lim budur, qilurman iymo,  
“Ro” favqida tutsa er nigun “ro”.  
Tutsa “alif” () ustida nishiman,  
Mingan kishidek samandi tavsan.  
Bir nuqta “alif”ning ittisoli,  
To “re” so’nigim bor erdi xoli.*

Munis o‘z asarini nihoyasiga etkazar ekan, undan ilm toliblari bahramand bo‘lishlarini orzu qiladi. Bu ezgu orzuning amalga oshganligi – “Savodi ta’lim”ning o‘zbek xattotligi tarixida muhim voqeа bo‘lganligi, bu asardan ko‘plab talabalar foydalanib, yetuk xattot bo‘lib etishganliklari bilan izohlanadi.

Muallif “zo” harfi haqida so‘zlab, uning shakli *qushga monandligini* ta’kidlaydi:

*“Zo” uch nuqatu<sup>356</sup> valek sarkash,  
Qilsa bo’lur oni qushg’a o’xshash.*

Ko‘ringanidek, muallif ayrim harflarni atrofdagi turli ashyolarga qiyoslab tasvirlagan bo‘lsa, ayrim harflarni esa o‘zaro qiyoslab tushuntirishga harakat qiladi:

*“Kof” uldurur, ey habibi dilband,  
“Bo” avvalidur “alif”g‘a payvand.<sup>357</sup>*

<sup>356</sup> Нуқат – араб ёзувидаги харфлар нукталар билан белгиланади.

<sup>357</sup> Пайванд – болганган.

Asar bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Uning arab alifbesiga oid amaliy qismi hali ham eski o‘zbek tili va husnixatini o‘rganuvchilar, sharqshunoslar uchun qimmatli qo‘llanma vazifasini o‘tay oladi.

Shermuhammad Munisning “Savodi ta’lim” risolasi nazmiy jozibadorligi hamda tasvirdagi obrazliligi bilan o‘quvchiga estetik zavq baxsh etadi. U ilmiy asar bo‘lishiga qaramay, Munisga xos shoirona mahorat namoyon bo‘lgan. Misralardagi fikr mukammalligi bilan birga so‘zlarning ishlatalish o‘rni va me’yori, ohangdorligi, qofiya va radiflarning o‘ziga xos yangiligi va mukammalligi o‘quvchini o‘ziga jalb etadi.

Umuman, Munis she’riyatini kuzatganimizda, shoir vazn tanlash borasida yuksak badiiy did egasi bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. Bu fikrimizning isbotini “Savodi ta’lim” misolida ham ko‘rishimiz mumkin. “Savodi ta’lim” aruzning hazaj bahri tarmog‘idagi “*Hazaji musaddasi axrabi maqbizi mahzub*” vaznida yozilgan:

*Maf’ulu mafoilun faulun,*

*Maf’ulu mafoilun faulun*

Munisning mashhur “Layli va Majnun” dostonlari yaratilgan bu vaznni tanlashi bejiz emas. Zero, o‘ynoqi va ta’sirchan vazngina Munis muddaosiga mos kelardi. Chunki musiqiy ohanglar silsilasini tashkil etuvchi bu vazn orqali o‘quvchi asar mohiyatini osonlik bilan idrok etadi va, hatto, xotirasida uzoq vaqt saqlab qoladi.

Shuni mammuniyat bilan ta’kidlash lozimki, she’riy yo‘l bilan ilmiy asarlar yaratish o‘zbek mumtoz nazmining go‘zal xususiyatlaridan biridir. Munis ham ana shu imkoniyatdan mahorat bilan foydalandi. Manzumani yaratish jarayonida shoir so‘z va harflarning yozilish shaklidan maroqli manzaralar ijod etadi, so‘z o‘yinlari, mubolag‘a, tazod, tashbeh, tarse’ kabi badiiy usul va vositalarni qo‘llaydi. Mazkur asarni chinakam ilmiy-ma’rifiy manzuma va yuksak she’riy mahorat mahsuli sifatida o‘rganish muhimdir.

**“Firdavs ul-iqbol” asari.** Munis Xoraznda Abulg’ozidan boshlangan shajaraviy tarixnavislik silsilasining eng mustahkam bo‘g‘inlaridan biridir. U Xeva xoni Eltuzarxon (1804-1806) taklifiga binoan “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asarini yozishga kirishgan. Asar 5 bobdan iborat. Ammo, Munis uning muqaddima qismini va asosiy boblarini yozishga ulgurgan, xolos. Asarni muarrixning izdoshi va jiyani Ogahiy oxiriga etkazgan.

Munis asarda qadimgi tarixdan boshlab, 1813-yilgacha bo‘lgan voqealar haqida ma’lumot bergen. Ogahiy yozgan qismlar 1825-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealarni qamrab oldi. Asar, ayniqsa, Abulg’ozidan (1663-1664) keyingi davr hodisalarining ilk bor yoritilishi bilan juda muhimdir. Unda qariyb 200-yilga yaqin davr tarixi borasidagi ma’lumotlarning yangiligi, aniqligi va dalillarning ko‘pligi katta qimmatga ega. O‘zbek, turkman, qoraqalpoq xalqining hayoti, taqdiri, urf-udumlariga oid noyob ma’lumotlar tadqiqotchilarimiz tomonidan ilmga tatbiq etilgan. N. N. Muravev, H. Vamberi, A. I. Butakov, N. I. Veselovskiy, V. V. Bartold, P. P. Ivanov, S. P. Tolstov, Y. A. G‘ulomov, M. Yo‘ldoshev, Q. Munirov kabi olimlarimizning asarlarida undagi ma’lumotlardan keng foydalanaligan. Asarning ilmiy qimmati baholab berilgan.

Xorazmda tarixnavislik shajarasini davom ettirgan Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar ham o‘zlarining asarlarida Munisning ustozlik maqomini yuksak baholashgan. Uning ulgurolmagan niyatlarini amalga oshirishga harakat qilishgan.

Ko‘ringanidek, “Firdavs ul-iqbol” o‘zbek xalqi tarixini yorituvchi eng mo‘tabar manbalardan biri. Shu bilan bir qatorda, u o‘zbek nasrinining noyob namunasi ham. Chunki undagi voqealar tasviri faqat dalillar majmuidan iborat emas. Balki, unda moziy qayta harakatga tushadi. Tarix uyg‘onadi. Undagi timsollar jonli, fikrllovchi. Ularning his-tuyg‘ulari hayotiy ziddiyat tug‘yonlari, ruhiy-ma’naviy kurash izziroblari asarda o‘z ifodasini topadi. Obrazli ifoda har bir tarixiy shaxsni badiiy timsol darajasiga ko‘taradi. Bular Munisning tarixnavis va nosir sifatidagi mahorati mahsulidir.

1988-yili amerikalik sharqshunos, xorazmshunos olim Yuriy Bregel “Firdavs ul-iqbol”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi.

Asarning qadr-qimmatini anglab etgan olim solnomaning bebafo mohiyat-mazmunidan jahon ziyolilarini ham bahramand etish maqsadida uning ingliz tiliga tarjimasini amalgalashdi va 1998-yilda nashr ettirdi. “Firdavs ul-iqbol” 2010-yilda filologiya fanlari doktori Nusratullo Jumaxo‘ja va xorazmlik olimlar Safarboy Ro‘zimboev hamda Abdulla Ahmedovlar tomonidan asl manbalar asosida Toshkentda, o‘zbek tilida nashr etildi. Asar to‘g‘risida bir qancha maqolalar yozildi, tadqiqotlar davom etmoqda.

Ko‘ringanidek, Munis XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan yetuk ijodkor. U serqirra iste’dod sohibi.

Shoir, adib, tarixnavis, olim, xattot. Bu yo‘nalishlarda yaratgan merosi muhim qimmatga ega. Munis o‘zidan keyingi iste’dod sohiblarining kamol topishida, adabiyot va madaniyatimiz tarixining takomilida ustozlik maqomida turgan ijodkor. Shunday ekan, uning adabiy-ilmiy merosini chuqur va maxsus tadqiq etish ilmda ko‘p muammolarning yechimiga xizmat qiladi.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Tarixnavislik, xattot, kitobat, hasbi hol, savodi ta‘lim, qasida, tabiat tasviri, ramziylik.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Shoir hayoti va ijodi o‘rganilishining bibliografiyasini tuzing.
2. Shoir adabiy merosiga annotatsiya yozing.
3. “Savodi ta‘lim” risolasining maqsad va vazifalarini aniqlang va taqriz yozing.
4. Shoir she’riy merosi, devonlari haqida so‘zlang.
5. Munis she’riyatining janriy tarkibini talqin eting.
6. Shoir she’riyatida kichik janrlarning o‘rnini.
7. G‘azalnavislikda an‘ana va novatorlik munosabatini aniqlang.
8. Munis ijodi va qasida janri takomili haqida so‘zlang.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi. T.: 1945.
2. O‘zbek poeziyasining antologiyasi. T.: 1948.
3. O‘zbek adabiyoti . T.: 1959.

4. *Munis. Tanlangan asarlar. T.: 1957.*
5. *Munis. Saylanma. T.: 1980.*
6. *Shermuhammad Munis. Savodi ta'lim. T.: 1997.*
7. *Jumaxo 'ja N. Munis g'azaliyoti. T.: 1991.*
8. *O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 4-jild. T.: 1978.*
9. *Firdavs ul-iqbol. "O'qituvchi", T., 2010.*

## MUHAMMADRIZO OGAHİY – SHOİR, TARİXCHI VA TARJİMON (1809 – 1874)

### *Reja:*

1. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodining manbalari.
2. Xorazm adabiy muhitida Ogahiyning o'rni.
3. Adibning adabiy merosi.
4. Ogahiy noyob iste'dodga ega shoir.
5. Tarixnavislik va Ogahiy.
6. Ogahiyning tarjimachilik maktabi.
7. Ogahiy she'riyatida ishq talqini.
8. Shoir asarlarida nafsga munosabat.
9. Shoir she'riyatida timsollar talqini.
10. Ogahiy she'riyatining badiiy mahorat qirralari.
11. Navoyidan bahramandlik badiiy balog'at garovi.

*Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va ijodiy merosi, o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni.* Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy barakali ijod qilgan san'atkor sifatida haqli ravishda Alisher Navoyiga qiyoslanadi. XIX asr Xorazm adabiyotining yirik namoyandasasi Ogahiy serqirra iste'dod sohibi bo'lib, u shoirlig iqtidori, tarixnavislik salohiyati, tarjimonlik mahorati bilan o'zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo'shgan. Uning she'riy merosini tashkil etuvchi "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) asari o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasidagi eng yirik va qimmatli devonlardandir. Ogahiyning tarixnavisligiga mansub "Firdavs ul-ifbol" (bu asarni Munis boshlagan, Ogahiy davom ettirgan), "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" asarları mamlakatimiz o'tmishi voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujatlardandir. Ogahiy forsiydan o'zbek tiliga o'girgan – Mirxondning "Ravzat us-safo", Muhammad Mahdiy Astrobodiyning "Tarixi jahonkushoyi Nodiriy", Zayniddin Vosifiyning "Badee ul-vaqoe", Mahmud binni Shayx Ali G'ijduvoniyning "Miftoh ut-tolibin", Muhammad

Muqim Hirotiyning “Tabaqoti Akbarshohiy”, Muhammad YUsuf Munshining “Tazkirayi Muqimxoniy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoyi Nosiriy”, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyot”, “Sharhi daloyil al-hayrot”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado”, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” kabi tarixiy, badiiy asarlari o’zbek tarjima adabiyotining ulkan boyligi hisoblanadi.

Hamma davrlarda Ogahiy ijodi namunalariga adabiyotshunos olimlarimiz katta e’tibor bilan qarashgan. Asarlarini qayta-qayta nashr ettilishgan. Jumladan, 1958-60-yillarda “Tanlangan asarlar”i, 1960-yilda “Ta’viz ul-oshiqin” devoni va nihoyat 1970-yillarda she’rlari, tarixiy va tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik “Asarlar” to‘plami chop etildi. Ammo, bular hali yetarli emas. Shoiring to‘la asarlar to‘plamini nashrga tayyorlash o’zbek mumtoz adabiyotimiz tarixining ko‘p muammolarini hal etishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Ogahiy ijodini ilmiy tadqiq etish borasida ham ancha ishlar amalga oshirildi. Dastlabki yirik tadqiqotlardan biri sifatida R. Majidiyning “Ogahiy lirkasi” asarini ko‘rsatish mumkin. Tarixiy asarlar haqidagi Q.Munirovning tadqiqotlarini eslash mumkin. Tarjimachiligi haqida N.Komilovning “Bu qadimiy san’at” monografiyalarini ta’kidlash lozim. Bulardan tashqari, Xorazm adabiy muhitidagi she’riyat, tarixnavislik, tarjimachilik tadqiqiga bag‘ishlangan barcha ilmiy ishlarda Ogahiyga munosib o‘rin ajratilganining guvohi bo‘lamiz. 1999-yil dekabrda Ogahiyning 190-yillik yubileyi nishonlandi. Eng so‘nggi tadqiqotlar, yangicha talqinlar sifatida ana shu anjuman munosabati bilan chop etilgan asarlarni e’tirof etish mumkin.<sup>358</sup>

Ogahiy haqida o‘zining tarixiy asarları, Bayoniyning tarixiy asarları, tazkiralar orqali ham ma’lumotlar yetib kelgan. Ushbu manbalarni kuzatib, Ogahiy Xeva adabiy muhitida navoyivor vazifani ado etgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu

<sup>358</sup> Ogahiy. Ishq ahlining tumori. T.. 1999.

hududda yashagan bir necha avlod Ogahiyni ustozni komil sifatida ulug'laydi. Donishmand shoir Komil Xorazmiy unga juda yuqori baho beradi. Ogahiyning fazlu donishda yagonaligi, so'zining qadri balandligi, ishqning tilsimlaridan, pinhon sirlaridan ogoh ijodkorligini e'tirof etadi:

*Ulki ogahlarning ogahidur,  
Fahmu donish sipehrining mahidur.  
So 'zi ortiqdur guhardin ham,  
Fazlu donishda olam ichra a 'lam.  
So 'zni har necha qilsa bozori  
Bordur olamda bir xaridori.*

Shu adabiy muhit rahnamosi Feruz Ogahiyni o'ziga ustoz deb oshkora e'lon etadi. Faqat ijoddha emas, balki, davlatni boshqarishda ham uning ma'naviy madadiga hamisha mushtoqlik sezadi. Shoirga ehtiromini quyidagi maxsus baytlarda izhor etadi:

*Komil ersam nazm aro Feruzdek, ermas ajab,  
Ogahiydur she'r mashq aylarda ustozim mening.*

Ogahiy 1809-yil 17 dekabrda Xeva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ildi. Uch yasharligida otasi o'lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi. Muhammadrizo bolalik va o'smirlik yillarini Qiyotda o'tkazdi, boshlang'ich ma'lumotni o'sha erda oldi. U dastlab maktab, keyin Xeva madrasalarida tahsil oldi. Ogahiy juda ko'p mutolaa qilgan. Dunyoviy va diniy ilmlarni o'rgangan. Munisning xonardonida adabiy davralarda ishtirok etgan. Yoshligidan o'zbek va fors-tojik adabiyoti namunalarining ixlosmandi bo'lgan. 1829-yili Ogahiy amakisi, ustozи Shermuhammad Munisdan ham ajraldi. Munis vafotidan keyin shu yili Olloqulixon Ogahiyni amakisi o'mniga bosh mirob etib tayinladi. Shu davrdan e'tiboran, Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan bog'landi. Qizg'in ijtimoiy-ijodiy mehnat bilan mashg'ul Ogahiy 1845-yili miroblik yumushlari bilan safarda

yurganida, otdan yiqilib shikastlandi va o‘z ta’biri bilan aytganda, “shakarlang” – oqsoq bo‘lib qoldi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo‘ldoshidan ham judo bo‘lib qoldi. Ogahiy 1857-yilda miroblik vazifasidan iste’fo berdi. Qolgan umrini ijodga bag‘ishlaydi. 1874-yili 65 yoshida hayotdan ko‘z yumdi.

*Shoirning adabiy merosi.* Ogahiy ijodiy faoliyati davomida devon tuzdi. 19 ta asarni tarjima qilib, 5 ta tarixiy asar yozdi.

Ogahiy shoir sifatida Navoyi an‘analarini davom ettirgan. Devon tuzish borasida ham ustozi izidan borib, devonga maxsus “Ta’viz ul-oshiqin” deb nom qo‘ygan. U 1852-yilda tuzilgan. Unda 18.000 misra she’ri jamlangan. Shundan 1.300 misrasi forsiy she’rlari.

Shoirning devoni debocha bilan boshlanadi. Debocha Ogahiy iqtidorini to‘g‘ri baholashimizga, ijodi mohiyatini teran anglashimizga yordam beradi. Unda asarlarining yozilish sabablari, g‘oyaviy xususiyatlari borasidagi shoirning o‘z nuqtayi nazari bayon etilgan. Bu adabiyotshunosligimiz uchun juda muhimdir. “Ta’viz ul-oshiqin” debochasi, avvalo, Ogahiyning hayoti, hasbi holi haqida ma’lumot beruvchi birlamchi manbadir. Unda shoirning orzu va rejalar, sarguzashtlari, hayotining turli davrlaridagi ruhiy holati izchil, maroqli aksini topgan. Debochada ijodkor dunyoqarashining shakllanishi, yosh, izlanuvchan Muhammadrizoning jamiyatdagi voqeа-hodisalarga, turfa toifa, guruh, amal namoyandalariga munosabatini kuzatish mumkin.

Mana bu so‘zlar Ogahiy devon yaratgunga qadar shoir sifatida tanilgani, uning asarlari xalq tomonidan yaxshi kutib olingani va sevib o‘qilganidan dalolat beradi: “... Ushbu sayr asnosida har toifaning holig‘a loyiq va har jamoaning af’oliga muvofiq bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko‘zgusida xutur qilsa erdi, gunogun iboratlar bila rangin nazmlar libosini kiydirib, dilkash suratlar bila xaloyiq nazarida namoyish berur erdim va har birining rangin ruxsori va mushkin gesusi tamoshosidin shavq va dard ahlining shaydo ko‘ngullarini volalig‘ va asirlig‘ maqomiga etkurur erdim, andoqkim, shavqangez g‘azallar va mav’izaomez qasidalar va muhabbatosor ruboiylar va diqqatparvar masnaviyilar

*va bazmoro muxammaslar va ruhafzo musaddaslar nazm silkiga chekib bir necha qog'oz poralarg'a musavvada qilur erdim. Alarning ko'prog'i xaloyiqning tillari azkorida mazkur, ko'ngullari avroqida mastur bo'lib, olam atrofi va falak aqtorida quyosh yanglig' shuhrat tutub, akobir majolisida rutb ul-lison va asog'ir mahofilida virdi zabon bo'lur erdi, tokim alardin, ba'zi musavvadasi juzdonda pinhon qolib, ba'zining musavvadasi beparvolig'im sababidin har tarafg'a sochilib, nobud va parishon bo'lur erdi".*

"Ta'viz ul-oshiqin" debochasi XIX asr o'zbek nasrinining go'zal namunasi hamdir. Debocha – mustaqil nasriy hasbi hol asar sifatida baholasa arzigulik durdona. Birgina XIX asrda yashab ijod etgan uch zabardast nosir – Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlari olib ko'rilsa, ularning nasri uslubi, badiiy tarovati, til xususiyatlari jihatidan bir-biridan farqlanib, ayricha jilolanib turadi. Ogahiy debochasining matni an'anaviy sayqaldor uslubda yozilgani, tilining shirador va samimiyligi, saj' usuli bilan muzayyanligi, fikr-mulohazalarining nazmiy parchalar vositasida dalillanib borishi bilan go'zaldir. Debocha Ogahiy tab'iy tamoyillarini aks ettirishi bilan ilmiy qimmatga ham egadir.

**"Ta'viz ul-oshiqin" – ma'naviyat tumori.** Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Muhammadrizo o'z she'riyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doimo hamroh bo'lishini, ishq ahliga dard-alamlardan xalos qiluvchi fazilatlarga ega bo'lishini istadi va devonini "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") deb atadi. Bu fikrni shoir ko'pgina she'rlarida faxriya usulida izhor etgan:

*Ogahiy, dilso 'z nazmingni eshitsa ahli ishq,  
Bo'ynig'a ta'vizdek aylarlar ash'oringni band.*

Xususan, "Ta'viz ul-oshiqin" debochasida Ogahiy o'z nazmi mohiyatini juda aniq va ravshan izohlab ketgan: "Toza she'r tafakkuri bodasin ichib, goho o'zimga keldim, goho o'zimdin ketdim. Va har hol bilan necha muddatlar ko'p mehnat va

*mashaqqatlar chekib, aksari ash'orimni jam' etib devon suratida bir necha avroq suturiga bitdim. Chun borchasi dardi ishq o'tining harorati bila og'ishta va shavqu muhabbat asarining siroyati bila sirishta va oshiqlar g'amining taskiniga sabab va dardmandlar alamining tahfifiga mujib erdi. Lojaram, agar ishq va dard ahlining qo'liga tushsa, ta'viz yanglig' ixloslari bo'yunlarig'a osib, izzat bila asrar erdilar va mutolaa qilib, shavqangez mazmunlari dorusidin ishq bemorliqi marazig'a nav'i shifo topar erdilar".*

"Ta'viz ul-oshiqin"da Sharq mumtoz adabiyotining 19 janridagi asarlar mujassam. Ular 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba, 4 musamman, 4 tarjeband, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston. 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavil, 1 munojot, 1 savol-javobi oshiq va ma'shuq, 20 ta'rix, 19 qasidadan iborat.

Ogahiy yirik zullisonayn shoir hamdir. "Ta'viz ul-oshiqin" devonida 1300 misradan ortiq asar "Ash'ori forsiy" nomi bilan alohida o'rinn tutadi.

Ogahiy lirikasidagi janrlar tarkibi o'ziga xosdir. G'azallari an'anaviy g'azalchilikdan farqli o'laroq, 7,9,11, ba'zan 15,17,23 baytdan iborat. 90ga yaqin muxammasi bor. Shundan 4-5 tasi mustaqil muxammaslar. Ogahiy Navoyi g'azallariga 30dan ortiq muxammas bog'lagan. Shoir Navoyi boshlagan an'anani davom ettirib, o'z g'azaliga 9ta muxammas bog'lagan. U o'zbek mumtoz lirikasidagi an'anaviy mavzu va g'oyalarni rivojlantirdi. O'z qarashlari, hayotiy xulosalari bilan ularni boyitdi, o'ziga xos yangi qirralarini kashf etdi.

Ogahiyning o'zbek adabiyoti janrlar takomilida ham katta xizmati bor. Jumladan, mustazod janridagi ikki ruknga (hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni) teng keluvchi bir qisqa misrani ikki qisqa misraga to'ldirdi. Bu asardagi lirik qahramonning tuyg'ulari, kechinmalarini yanada mukammalroq, ravshanroq ifodalashga xizmat qiladi.

Ogahiy devonidagi asarlar ijtimoiy mazmun salmoqdorligi, inson va xalq manfaatlari uchun kurash maslagi bilan ham

Sharqning o‘lmas obidalari qatorida turadi. Ogahiyning inson taqdiriga munosabati uning lirkasidagi davr va ahli davr tasvirida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Mavjud jamiyatda insonga munosabat hamda insonning jamiyatdagi hurmat-e’tibori haqida shoir kinoya va alam aralash mana bunday xulosa bayon etadi:

*Ey ko ‘ngul, hayvon kibi go ‘lu hamoqatpesha bo ‘l,  
Odam o ‘lmoq istasang gar ahli davron ollida.*

Ma’naviy inqirozga yuz tutgan jamiyat insonga faqat shunday yashash usulini ravo ko‘radi, xolos. Aks holda – inson “go‘lu hamoqatpesha” emas, hushyor, mustaqil fikrli, haqparast bo‘lsa, kibor jamoat uni odamgarchilik va odob doirasidan chiqarib, yakkalab, mudom g‘amu kulfat, mashaqqatu qadrsizlikka mubtalo qilib qo‘yadi.

Devonda yuqoridagi singari dardli baytlar silsilasidan yaralgan yaxlit g‘azallar borki, ular Muhammadrizoning o‘z hayotiy tajribasi zaminida yuzaga kelgan, muallifning dil-dilidan sizib chiqqan achchiq iztiroblari mevalaridir. Bunday g‘azallarda Ogahiyning badiiy umumlashma yaratish mahorati, lirk qahramon siyomasi orqali umumxalq dardu hasratini izhor etish san’atini kuzatish mumkin:

*Davrondin agar, ey dil, etsa sanga bir rohat,  
Chekmakka muhayyo bo ‘l yuz kulfatu ming mehnat.  
Gar dahr elidin olsang o ‘lmakka yetib bir non,  
Bir lahma qutulmassan o ‘lguncha chekib minnat.  
Yuz va ‘da bila xizmat har kunda buyurg‘aylar,  
Yer tutmas agar qilsang har va ‘daga yuz xizmat.  
Bu turfaki, yuz xizmat butkargali jon cheksang,  
Bir xizmat uchun ko ‘rgung har lahzada ming tuhmat.*

G‘azalda haq-huquqi va qadr-qimmati poymol etilgan insonning qalb og‘riqlari, umidsiz, tushkun kayfiyati, davron va davr elidan noroziligi baralla un tortib turibdi. Baytlarning g‘amdiyda inson toleiga bitilgan – “*mehnat*”, “*minnat*”, “*xizmat*”,

**"tuhmat"** so'zleri bilan yakunlanishi, qofiyalanishi asardagi hazin ruhni kuchaytirib, yanada mungli navo beradi.

Ayniqsa, ijodkor va ijod qadri haqidagi baytlar diqqatga sazovor:

*Har damda agar so'zdin yuz durru guhar sochsang,  
Bir ko 'hna hazaf chog'lig' topmas el aro qiymat.  
Gar kiprik ila qozsang yuz toza quduq, ondin  
Serobi murod o'lmoq ko 'rguzmagusi surat.*

Ilm-ma'rifat, badiiy so'z namoyandalari shundayin qadrsizlangan zamonda Ogahiydek sabot va bardosh, katta umidvorlik bilan tinimsiz ma'naviyat quduqlarini qazmoq, mukammal devon va qator tarixiy-badiiy kitoblar yaratmoq bukilmas iroda, fidoyilik nishonasidir:

*Go'yoki, seni Tangri mehnat uchun etmisht xalq,  
Yo'qsa, senga ham eldek bermasamu edi davlat.*

Do'stparvarlik ruhi bilan yo'g'irilgan misralar Ogahiy do'stlikka, muhabbatga ulug' e'tiqod bilan yondashganidan dalolat beradi. Ular, ayni paytda, shoir samimiy, mehribon, muruvvatli, xayrixoh do'stu yor topolmay qiyalganidan ham darak beradi. Ushbu misralar shoirning g'amgusor, mehribon yor istab yovuz kimsalarga yo'liqqa nining achchiq sabog'idir:

*Yori badni debdurlar mori bad,  
Qochmoq ondin keldi sunnat, ey ko 'ngul.*

Ezgulikka umid bog'lab, "*yori bad*"ga yo'liqqa shoir "**borcha avqotini behuda o'turgani**"dan o'ksinadi, zamon va zamon ahlidan omonlik istaydi:

*Muft bilgil boru yo'qingni berib,  
Xalqdin topsang farog'at, ey ko 'ngul.*

Zamona ziddiyatlari, zo'ravonligi,adolatsizligi bilan murosa qilolmagan shoir "yori baddan qochmoq"ni, "xalqdan farog'at topmoq"ni va "faqir go'shasini makon etmoq"ni ixtiyor aylaydi:

*Har kimki, faqir go'shasi bo'l mish makon ango,  
Xotir hamisha dahr g'amidin amon ango.*

Nima bu? Faollikdan chekinishmi, tushkunlikmi, umidsizlikmi, ojizlikmi yoki ruhiy mag'lubiyatmi ? Yo'q, aslo ! Ulug' ijodkorlarimiz dunyoqarashidagi bunday burilish zukko va muzaffar isyon nishonasidir. Maslagining markazida faqru fano g'oyasi turgan so'filik dunyoqarashi ham, aslida, ma'naviy tanazzulga, diyonatsizlikka,g'ayriinsoniylikka qarshi isyon tariqasida maydonga kelgan. Shu tariqa, Ogahiy ijodida ham kibor, dunyoparast, xudbin va amaldor zamondoshga qarama-qarshi darveshsiyrat, nekbin,xokisor, fano künjini maskan tutgan,dahr anduhidan forig', ozoda inson siymosi shakllangan. Ogahiyning shoh va gado, shohlik va gadolikka falsafiy munosabati ham mana shu siymo qiyofasida mujassam:

*Har kimki, dahr shohlig'in ayladi havas,  
Bordur nasib g'ussayi fikri jahon ango.*

Nasibi "g'ussayi fikri jahon" bo'l mish Ogahiy zamondoshlari Abdulla Oripov talqinidagi "jahoniy tashvishga chulg'angan zot"larga, oradan asrlar o'tgan bo'lsa-da, naqadar yaqin turadi:

*Sultodur ul gadoki, buzuq kulbasi aro  
Osudadur topilsa biror pora non ango.*

Mazkur baytda, Ogahiy talqinidagi shoh va gado nisbatidan tashqari,faqirlilik mazhabidagi insonning sobirlik va qonelik fazilati, musulmon ma'naviyatidagi sabru qanoat falsafasi tajassum topgan. Komil inson tarbiyasi yo'lidagi muhim axloqiy omildir bu. Sabru qanoatni tark etib, nafs itiga, hirsu havas devlariga duchor bo'lgan

inson tadrijiy kamolotdan to‘xtaydi, uning tolei kamoldan zavol tomon yuzlanadi.

Ishqqa falsafiy munosabatiga ko‘ra, Ogahiy insoniy ishqqa sig‘ingan, dunyoviy muhabbat eng yuksak pardalarda, tiniq va dilkash, ta’sirchan navolarda, ming yillik muhabbatnomadan o‘zgacha jozibada kuylay olgan, har g‘azaliga “*ishq xurram marg ‘zorining g‘izoli sho ‘xi*” yanglig‘ sehr-sinoat singdirgan shoiri sohir edi. Biroq Ogahiy she’riyati faqat majoziy ishq tasviridangina iborat emas.

“Ta‘viz ul-oshiqin”dan shoirning ishqqi haqiqiy tasvirida ham mahoratlari san’atkor ekanligidan dalolat beruvchi asarlar keng o‘rin egallagan. Ayniqla,

*Ogahiy, jahd et, musohib bo l haqiqat ahlig‘a,*

*Tobakay bo lg‘ay majoz ahli bila ulfat sango*

maqtasi bilan tūgallangan g‘azalda Ogahiyning ishqqa, haqiqat va majozga falsafiy munosabati yaqqol aks etgan.

Ilohiy ishq kechinmalari tasviri Ogahiy nazmining ta’sirchan sahifalarini tashkil etadi. Hattoki, shoir taxallusida ham ilohiyot sirlariga bog‘liq ma’no bor:

*Netong ogoh bo lsa Ogahiy ishqning siridinkim,*

*Onga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.*

Demak, Ogahiy taxallus tanlaganida, ilohiy ishq – Ollohga muhabbat sirlaridan ogohlilik, xabardorlikni ham nazarda tutgan. Bu – taxallusning bir ma’nosи.

Ogahiyning falsafiy asarlari ko‘rsatadiki, u o‘z salaflari singari, so‘filikning ko‘proq naqshbandiya tariqatiga e’tiqod qo‘ygan. Chunki u O‘rta Sharq falsafasidagi Eng taraqqiy parvar, hayotsevar, insonparvar, zakovatli maslak edi. Quyidagi baytda Ogahiyning naqshbandiya maslagiga ehtiromi “qatrada – quyosh” misol tajallli topgan:

*Hushing quloqini tutib, har dam bu pandimni eshit,*

*Sokin vatan ichra bo lib, atrofi olam sayrin et.*

Baytdagi ma'rifiy-axloqiy g'oyalar naqshbandiya tariqatidagi "Hush dar dam" (Har bir nafasing, xatti-harakating aqlu hushing tasarrufi, nazoratida kechsin, hushyor bo'l), "Xilvat dar anjuman" (Mayli, Haq birla xilvatda bo'l, ammo anjuman – xaloyiq ichra xilvatda bo'l), "Sayr dar vatan" (Safarda bo'l, biroq yurtma-yurt mazmunsiz kezmasdan, vatan ichra sayr etib, olamni mushohada qil) kabi aqidalarga asoslangan.

Bular Ogahiy dunyoqarashi an'anaviy sharqona falsafa ta'sirida shakllanganidan dalolat beradi. Lekin an'anaviy falsafiy tafakkur mahsullarini o'zlashtirish bilan cheklangan, mavjud falsafiy aqidalarni badiiy sharhlash,turfa talqinlarda takrorlash bilan mashg'ul bo'lgan hech bir ijodkor mustaqil,yangi erkin dunyoqarash sohibi maqomiga ko'tarila olgan emas.Falsafiy tafakkur tarixida iz qoldirgan har bir adibning o'zigagina xos tafakkur tarzi,dunyoqarashi bo'ladi. Əshbu misralar Ogahiyining Sharq falsafiy tafakkuriga qo'shgan xos nuqtayi nazarini ilgari suradi:

*Bu gulshan sayrin etsang, bosma gustohona tufroqni  
Ki, har gom ostida bir paykari ozoda madfundur.  
Bu g'ayratgoh sayrig'a adab birla qadam qo'ykim,  
Necha ozoda jismi har qadam ostidadur pinhon.*

Bir qarashda, baytlar zamirida odobli bo'lish, qadamini bilib bosish haqidagi o'gitlar mujassamlashgan. Naqshbandiyaning "Nazar bar qadam" (Har bir qadamingni ko'rib-bilib qo'y, bosayotgan qadaming aql-idroking nazoratidan ayrimas) aqidasini ham eslatadi u. Ammo mazkur pandnoma asosidagi falsafa kishini juda chuqrush mushohadalarga chorlaydi. Faylasuf shoир uchun tuproq oddiy yer emas, u marhum insoniyat jasadi, "*paykari ozoda*"larning xoki pok'i. Shoир nazdida tuproq hissiz,o'lik va mo'rt jism emas. U har hujayrasi tuproq zarralari shaklida vatanga aylangan inson timsoli. Tuproq Vatan uchun kurashgan shahidlarning qoni bilan qorishgan. Tuproqning har bir zarrasi insonning joni, yuragi, jismidan yaralgan. Shuning uchun u muqaddas. Uni e'zozlamoq, avaylamoq,pok saqlamoq,himoya

qilmoq har bir inson zoti uchun farz. Ona-Vatan, ona tuproq tushunchalari ham shunday falsafiy aqidaga suyanadi. Mana Ogahiy dunyoqarashi, pandnomalarining hayotiy mohiyati, insonparvarlik va vatanparvarlik mavqeい qanchalar yuksak.

Ogahiyning forsiy merosi tarkibida ham teran falsafiy satrlar uchraydi:

*Saropo chashm bosh, ammo hamesha mahvi hayratshav,  
Dar in gulzori ibrat in sifat bob ast shabnamro.*

Mazmuni:

*Boshdin-oyoq ko'z bo'l, biroq hamisha mahvi hayrat bo'l,  
Bu ibrat gulsitonida shu holatdur shabnamda.*



Bu satrlar mohiyatida bedilona falsafa ruhi ufurib turibdi. Oddiygina bir shabnam tomchisi timsolida insonga ibrat bo'l gulik – butun vujudi ko'zdan iborat bo'lmoq, bu ko'hna olam hodisalarini mudom hushyor, tiyrak, hayron nigoh bilan kuzatmoq fazilatlarini kashf etish topqir shuur, nozik did, hassos ko'ngil karomatidir. Besh kunlik o'tar dunyo mashvaratida inson bolasining boshdan-oyoq ko'zga aylanib, zamon oshublariga hushyor va hayron, nigoron bo'lib yashashdan o'zga iloji yo'q. Chunki inson hayoti ham charxi kajraftorning shiddatlari oldida shabnam umri singari oniy va omonat. "Ta'viz ul-oshiqin" dagi asarlarning umrboqiyligi boislaridan biri ma'rifat oziqasi bilan ta'minlab kelishi va ma'rifatga chorlab yashashidir:

*Ilm andoq ganji nofe'dur bani odamg'akim,  
Kimda ul bo'lsa, iki olam bo'lur obod ango.*

Ilm-ma'rifatni ixtiyor etmagan kishi olamni obod etishi ham dargumon. Ilm ganjini kashf etishga bel bog'lagan kishi esa o'z kashfiyotlarida toabad boqiy yashaydi. Bu bilan u o'z umrboqiyliginigina ta'minlab qo'ya qolmaydi, balki, bani odamg'a

naf keltiruvchi xazina yaratib qoldiradiki, ilm ganjini egallagan har bir insonning ham ikki olami obod bo‘ladi.

**OGAHIYNING BADIY MAHORATI.** Ogahiy “*til tiyg‘i tortib, maoni mulkini olgan*” mahoratli san’atkordir. Uning badiiy quadrati haqida fikrlashdan avval, shuni e’tirof etish lozimki, yosh Muhammadrizoning “*til tiyg‘i*” Alisher Navoyining mahorat maktabida charxlangan, sayqal topgan. Ogahiy nazmida Navoyidan o‘rganish izlari, ulug‘ san’atkor ta’siriga berilish, undan qutulolmaslik, ustozning turli g‘oya va ifodalarini o‘zgacha talqinlarda sharhlash ham ko‘rinib qoladi goho.

Navoyi:

*Ul quyosh hajrida, qo‘rqarmen, falakni o‘rtagay  
Har sharorekim, bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.*

Ogahiy:

*Barqdek kuydurgusi yetti falakning xirmanin,  
Har sharorekim, chiqar ko‘k sori afg‘onim aro.*

Navoyi:

*Ne navo soz aylagay bulbul guliston din judo,  
Aylamas to‘ti takallum shakkari stondin judo.*

Ogahiy:

*Gungu lol o‘lsam ne tong shirin kalomim topmayin,  
So‘z degaymu to‘ti o‘lgan chog‘da shakkardin judo.*

Bunday hollar shoirning kamchiligi sifatida emas, balki badiiy mahorat qozonish yo‘lidagi dastlabki tajribada, har bir ijodkor tabiiy va qonuniy ravishda boshidan kechiradigan ijodiy jarayon tarzida baholanmog‘i ma’qul. Ulug‘ Navoyiga ergashish, uning asarlaridan iqtibos olish, fikr-g‘oyalarini sharhlash barcha Navoyiga izdosh o‘zbek mumtoz shoirlari qatori Ogahiyga ham fazlu iftixor sanalgan:

*Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,  
Babra gar yo‘qtur Navoyining navosidin sango.*

Badiiy so‘zning ma’no miqyoslaridan keng foydalanish, ya’ni ma’no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoyidan keyin “eng ko‘p va eng xo‘b aytqon” shoirlardandir. U ataylab badiiy san’at qo‘llamaydi, uning qalamiga tushgan so‘z san’at bo‘lib muhrlanadi:

*So ‘z labidin ul ado birla chiqorkim, rashkidin  
Tushgusidur la ’li serobu duri maknung ‘a o ‘t.*

Mazkur baytda kamdan-kam san’atkor yaratishga tuyassar bo‘lgan nodir ma’naviy san’at – ihm yuzaga kelgan. “So ‘z” – til birligi, kalima ma’nosida qo‘llangani aniq, ravshan anglashilib turibdi. Shu ma’no bilanoq baytdan tugal mazmun chiqadi. Ihom san’ating sehri shundaki, shoir forsiy tildagi “so ‘z”ning ma’nolarini ham bir yo‘la mujassamlashtirgan. “So ‘z”ning yonish, kuyish, haroratlari bo‘sma ma’nolari yashirin ifodalangan. Aslida, shoirning bosh muddaosi “so ‘z”ning shu ma’nolaridan kelib chiqadi. Ihomning xosiyati shunda:

*G’oyib o ‘ldi aql ochg’och orazin, ne tong, so ‘rsam  
Kim, iki labi erdi ul mahalda hozirlar.*

Bu o‘rinda ham bayt badiiyatini ihm san’ati yuzaga keltirgan. Bunda san’at “so ‘rsam” so‘zida bo‘lib, uning ko‘rinib turgan ma’nosini “so ‘ramoq”, pinhona ma’nosini esa “bo ‘sa olmoq”dir. Bilmagan kishi yuzaki ma’noni tuyib ham zavqlanishi mumkin. Ziyrak kitobxon esa badiiy so‘zning ham zohiriylari, ham botiniy ma’nolarini tuyib, ikki hissa ta’sirlanadi.

Badiiy fikrni, xususan, pandnomasi mazmunidagi fikrni quruq va yalang‘och aytish Sharq adabiyotida rasm bo‘lmagan. Aks holda, bu adabiyot hayotiylik, ta’sirchanlik, donishmandlik kasb etolmasdi. Ushbu adabiyot uslubiga xos xususiyatlardan biri qiyosiy-istioraviy yo‘sinni qo‘llab, aytilajak har bir gapni hayot va tabiat tarozusida tortib aytishdir. Shunday uslub taqozosini tarzida tamsil, husni ta’lil singari badiiy san’atlar vujudga kelgan:

*Tavozeg'a xam o'lmoq sarbaland o'lmoqqa mujibdur,  
Falakka xamdurur ushbu jihatdin borho qomat.*

Tamsil san'ati talabiga ko'ra, shoir birinchi misrada hurmat, odob to'g'risidagi fikrini ifodalaydi va ikkinchi misrada shu fikrining hayotiy isboti tariqasida tabiatning hikmatli bir holatini misol keltiradi.

Husni ta'lil san'atida ham shunga yaqin usul qo'llaniladi. Shoir badiiy fikrni chiroyli asoslash yo'lidan boradi:

*Kelgil, ey o'tlug' ko'ngil, eski chopong'a qone' o'l  
Kim, hamisha jismig'a kuldin qilur axgar libos.*

Ushbu baytni nochor holda, eski chopon yopinib yashagan shoirning o'z-o'ziga tasallisi o'rnida ham qabul qilish mumkin. Ammo undan elga qaratilgan xokisorlikka, kamtarinlikka da'vat ham anglashilib turibdi. Ikkinci misrada hammaga ma'lum va mashhur hayotiy lavha – cho'g'ning kul bilan qoplanganligi aytilgan fikrga juda mutanosib, chiroyli badiiy asos tarzida keltiriladi. Ichida o'tlug' ko'ngul gupurib turgan eski chopon bilan bag'rida otash yashiringan kultepa qanchalar hayotiy muqoyasa !

“Ta'viz ul-oshiqin” XIX asrda gullab yashnagan Xorazm adabiy muhitining go'zal gultojidir. Undagi asarlar til xususiyatlariiga ko'ra tushunarli, sodda, jozibali, xalqchildir. Bu soddalik, ayniqsa, Xorazm adabiy muhitining ulug' rahnamosi, Ogahiyning ustozи Shermuhammad Munisning “Munis ul-ushshoq” devoni dagi asarlar qiyosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Munis adabiy maktabidan ilhom va rivoj topgan Ogahiy ijodi tobora jo'shqin va tiniq tus olgan. Uning har bir mavjida o'zgacha joziba jilolanaveradi. Masalan, irlsoli masal san'ati namunalariga uchrar ekansiz, shoirning xalq og'zaki ijodi boyliklarini nechog'li o'zlashtirgani va adabiy muddao ifodasi yo'lida ulardan qanchalik o'rinali foydalanish mahoratiga ishonch qilasiz:

*Xunob ichar vaqtimda xush kelding, ko'ngulkim, xalq aro  
Yaxshi masaldurkim: "Kelur yaxshi kishi osh ustina".*

Qiziqarli topilma – maqol qo'llashdan tashqari, lirik qahramonning og'ir ahvolini shundayin yengil, qochirimli kulgi, o'ynoqi ohang vositasida aks ettirishning o'zi bir san'at:

*Karam ahli diram ahli diramg'a sochsa, tong yo'qkim,  
Masaldur: "Yog' agar tomsa, tomar, albatta, yog' uzra".*

Ogahiydek mukarram zotlar tengsizlik va manfaatparastlik ustuvor zamonda karam ko'rmay, "**ahli diramg'a**" xor bo'lib yashagach, yana bir she'rda qoyilmaqom aytilganidek, "*Qovrilib o'z yog'iga boshdin ayog'i yonadur*". Zamon va ahli zamona dardu holini bundan-da nafis, ixcham,xalqona ifodalarda bayon etib bo'ladimi ?!

Ogahiy badiiy so'z imkoniyatlaridan bahramand bo'lgani va she'r ixlosmandlarini bahramand etganidan ogoh bo'ldik. Ammo mumtoz adiblarimiz tasarrufida yana shunday imkoniyat ham bor ediki, ular eski o'zbek alifbosidagi har bir harf shaklidan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalanish baxtiga tuyassar edilar. Ogahiy asarlari badiiyatida ham alifbo muhim o'rinn tutgan.

*Dog' uzra alifdurmu ko'ksim uza chekmish hajr,  
Yo dard sipehrida mehvarmu ekan oyo ?*

Mazkur baytda shoir "dog'" ( ) va "dard" ( ) so'zlarining yozilish shaklidan kelib chiqib, harf o'yini qilgan bo'lsa, keyingi baytda "**jon**" so'zining imlosi badiiy fikr izhoriga vosita bo'lgan:

*Qading hijronida jonim xarob o'lsa, tong ermaskim,  
Latofatda sanga zebo alifdur "**jon**" aro qomat.*

Harfiy san'at shunday mazmun ifodasini ta'minlagan: "**Jon**" ( ) so'zining butunligi "**alif**" ( ) bilan bo'lgani singari, sening

*go'zalliging boisi ham alifdek mavzun qomatingdir. "Alif" harfidan ajralgan "jon" so'zimuqarrar buzilganidek, sening qading (ya'ni, vasling) hijronida mening hayotim ham barbod bo'lishi tayin".*

Ogahiy o'zbek mumtoz adabiyotining badiiy timsollari tizimini mukammal o'zlashtirgan va ularni ma'no va shakliy tomondan takomillashtirishga harakat qilgan shoirdir. Birgina chumoli timsolining takomil tarixiga nazar solaylik.

An'anaviy *chumoli* yoki *mo'r* obrazining butun o'zbek mumtoz she'riyati, jumladan, Navoyi nazmida qo'llanish miqyoslari, ma'no doirasi, badiiy vazifasi muhtaram o'quvchiga ayon. *U* – *kamtarinlik*, *xokisorlik*, *mehnatkashlik*, *saxovatpeshalik timsoli*. Uning barcha sifatlari chumoli va *mo'r* atamalarida mujassam edi. Obrazning ma'no ufqini kengaytirish maqsadida Ogahiy oddiy "*mo'r*" emas, "*xasta mo'r*" – cho'loq chumoli timsolidan foydalanadi:

*...Yo'qki, g'alat ayladim, o'ylaki, bir xasta mo'r  
Chekkusi poyi malax tuhfa Sulaymon sori.*

"*Xasta*" sifati orqali shoir chumoli obrazida ulug'verlik, olivhimmatlik fazilatlarini mujassamlashtirgan. Ogahiy talqinidagi chumoli jismi ushoqqina, xasta (cho'loq) bo'lishiga qaramay, Sulaymonga sovg'a qilish uchun o'z jussasidan necha barobar kattalikdagi *malax* – *chigirtka oyog'*ni sudrab bormoqda. Sulaymonga loyiq tuhfa olib borish mas'uliyati, or-nomus, himmatning zo'ri xasta, zaif chumoliga g'ayrat-shijoat, ulug'verlik bag'ishlagan. Chumoli bilan Sulaymon munosabatlaridagi qaramaqshilik an'anaviy hol edi. Chumolining xasta bo'lishi va tuhfa uchun ulkan chigirtka oyog'ini tanlashi mavjud badiiy ziddiyatni yanada kuchaytirgan.

Ogahiyning adabiy merosi xalqimiz ardog'idagi mo'tabar ma'naviy xazina. Uning qadr-qimmati zamon o'tgan sari ortib boradi. Uning nasihatomuz, ma'shuqona, oshiqona, shahdomuz g'azallari, shavqangez qasidalari, shakarrez muxammaslari,

ayniqsa, bugungi tarixiy davrda insonning ma'naviy olamini qayta qurishda, milliy mustaqillik mafkurasini yaratishda jondek aziz , suv va havodek zarur. Zamondoshlarimiz va kelgusi avlod "Ta'viz ul-oshiqin"dagi durdona asarlarni, Ogahiy orzulaganidek, "oshiqlar tumori yanglig' ixloslari bo'yunlarig'a osib, izzat bila asrasalar", bu muqaddas tumor ularni ma'naviy-moddiy ofatlardan omon saqlaydi, kamolot sari eltadi.

**MUKAMMAL MUSTAZOD KASHFIYOTCHISI** O'zbek xalqining eng qadimgi va ajoyib she'riy shakllaridan biri mustazoddir. Adabiyotimiz tarixida mustazod yaratmagan shoir kamdan-kam uchraydi. Mustazod o'ziga xos murakkab, ammo jozibador she'riy shakldir. Shuning uchun ham u g'azal, muxammas, ruboiychalik ko'p yaratilgan emas. Mustazod yozish shoirdan juda katta tayyorgarlik va mahoratni talab etgan.

Lekin she'riyatimizning ulug' nazariyotchisi va amaliyotchisi Alisher Navoyi mustazodni bunday ta'riflagan: "Va yana bu xalq arosida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfusi mahzuf vaznida anga bayt bog'lab bitib, aning misrasidin so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a keltururlar ermish va ani "**"mustazod"** derlar ermish, andoqkim (mustazod):

*Ey, husninga zarroti jahon ichra tajalli,*

*Maf'ulu-mafoiylu-mafoiylu-faulun*

*mazhar sanga ashyo*

*maf'ulu-faulun*

*Sen lutf bila kavnu makon ichra muvalli,*

*olam sanga mavlo".*

Ta'rif va keltirilgan misoldan ma'lum bo'ladiki, mustazodning har misrasiga mustazod bitilgan vaznning ikki rukniga teng keladigan yarim misracha qo'shiladi. Navoyi mustazodni "**qo'shiq**" deb ataganida ham katta hikmat bor. Mustazod vazni ohangi qo'shiqning tayyor kuyidir. Mumtoz adabiyotimizdagi

birorta boshqa janr mustazodchalik musiqiy ohangdor emas. Mustazod o‘zining oshiqona mazmuni bilan ham qo‘shiqqa mosdir.

Mustazod janri ulug‘ Alisher Navoyigacha va undan keyin ham rivojlanib, sayqal topib keldi. Mustazodni, ayniqsa, shakl jihatidan takomillashtirishda Ogahiyning xizmati katta. Ogahiy o‘z mustazodida asosiy misraga qo‘shilib keladigan yarim misrani juftlashtirdi:

*Ey yor, sango ushbu jahon bog‘i aro gul  
bir oshiqi hayron,  
diydoringa shaydo.  
Bir sheftadur kokuli mushkininga sunbul,  
ham holi parishon,  
ham boshida savdo.*

Bu – mustazod janrining o‘tgan to‘rt asr mobaynida badiiy shakl va mazmun jihatidan ancha boyiganligini, ulkan san’atkor Ogahiy esa uni takomillashtirib, sifat o‘zgarishiga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi. Ogahiy kashfiyoti natijasida uzun misralarni to‘ldirib, xulosalab, alohida ohangdorlik kasb etib turadigan orttirma qo‘shmisralar professor Ye. E. Bertels ta‘biri bilan aytganda, “o‘ziga xos naqarot” darajasiga ko‘tarildi.

Ogahiy mustazodi sof oshiqona ruhdagi asar bo‘lib, uning boshdan-oyoq mazmuni oshiqning ma’shuqani vasp etishi, unga dil izhorini ifodalashiga bag‘ishlangan. U so‘fiyona asardir, chunki unda ilohiy ma’shuqa – Ollojamoli, visoli madh etiladi. Sho‘ir ilohiy ma’shuqani insoniyashtiradi va uni insonga xos sifatlar bilan madh etadi. Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, dunyodagi jamiki go‘zallik Ollohusnu jamolining aksi sifatida yaratilgan. Shuning uchun har bir mavjudot o‘zligiga, asliyatiga intiladi, unga oshiq, shaydo, intiq, intizor bo‘lib umr kechiradi. Shundan kelib chiqib, Ogahiy mustazodining birinchi misrasida jahon bog‘ining guli Haq diydoriga shaydo, oshiqi hayron sifatida tasvirlanadi. Ikkinci misrada qora tusli kokul – soch tolalari tavsiflanadi. Sunbul shakl jihatidan o‘shanga o‘xshatiladi. Parishon sunbul ishq shaydoligidan mast holatda. Uning boshiga ishq savdosi tushgan. “Savdo”

so'zining "qora" ma'nosi ham bor. Demak, sunbulning sochga rang-tus jihatidan ham monandligi tasvirga asos qilib olingan.

Keyingi baytlarda ilohiy tal'at ta'rifi davom etadi:

*Ham sarv qading jilvasini ko'rgali qumri  
har dam chekibon oh,  
bilkull borur o'zdin,  
Ham gul yuzinga mahvi jamol o'lg'ali bulbul  
tun-kun chekar afg'on  
tinmay dame aslo.*

Mahbubning sarvdek qomati jilvasini bir bora ko'rish uchun qumri har dam oh chekib, butunlay hushidan ketadi. Uning gulyuz jamoli shavqiga g'arq bo'lib, bulbul kechayu kunduz tinimsiz fig'on chekadi.

Mustazod mazmuni lirik qahramonning izhori va iltijosi bilan boyib boradi:

*To tushti firoqingg'a maning g'amzada ko'nglum,  
har lahzada yonodur  
yuz dard o'ti ichra,  
Emdi ango tortorg'a dame sabru tahammul  
yo'q, mehnati hijron  
rahm ayla, nigoro.*

Lirik qahramonning g'amdan zada bo'lgan ko'ngli ayriliq azobida har lahzada yuz dard olovlarich raqida. Intazorlik torta-torta oshiqning biror lahzachalik sabru bardoshi qolmaydi. Oshiq o'z ahvolidangina shikoyat qilmaydi, balki ma'shuqaning rahm-shafqatsiz va erka fe'lisi butun islam elini yakson etganidan faryod chekadi:

*Faryodki, islam elini qatl qilurg'a  
mastona surub ot,  
andoq qilich urding  
Kim,yetti dami tiyg'ing ila qatlg'a bilkull*

*majma'i musulmon,  
ey kofiri tarso !*

Ushbu bayt mazmuni xiyla murakkab. Unda musulmonlarga qirg'in keltiruvchi kofir bir inson haqida gap ketayotgani yo'q. Baytning ma'nosi Navoyining: "*Titrangiz, ey ahli din, islomingiz boshig'akim, G'orati din etgali nomusulmonim chiqar*" baytidagi mazmunga hamohangdir. Tasvirdagi ma'shuqani birgina diniy e'tiqod – Islom olamidan ko'ra ulug'ver, barcha diniy e'tiqodlarning asoschisi sifatidagi umuminsoniy ilohiy qudrat sohibi sifatida tasavvur etish mumkin:

*Chashmi karaming bir nigahi qilg'usi obod  
olamni sarosar,  
nedur bu sitamkim,*

*Chekmakni, darig', aylamatung tiyg'i tag 'oful  
bo 'lsa necha vayron  
ma 'murayi dunyo.*

Ilohiy ma'shuqa shu darajada qudratlari ekanki, bir hamla bilan Islom elini qatl etarkan. Endilikda uning qodirlik xislati yana shunday sharhanadiki, marhamatli qarashlarining bir farovon nigoji olamni boshdan-oyoq obod etadi. Lirik qahramonning larzali iltijosicha, hayhotki, uning tag 'ofulli bir qiyo boqishi dunyo mulki obodonchilagini barbod etishi ham mumkin. Ya'ni, yaratuvchi, obod etuvchi ham, vayronu barbod etuvchi ham o'zi.

Ushbu zotda mehr-muruvvat ham, qahru qahhorlik ham mujassam:

*Husningni tamoshlo qilibon, bahra olurlar  
ko 'zim bila ko 'nglum  
bir-biridin afzun,*

*Zinhorki, emdi yozibon yuz uza kokul,  
aylab oni pinhon,  
man 'etma tamoshlo.*

Ma'shuqa husnini tomosha qilib, ko'z va ko'ngli bir-biridan ortiq darajada bahramand bo'lishidan oshiq baxtiyor. Lekin u ma'shuqa yuzi uzra hijron pardasi – kokilini yozib, visolidan mahrum etishidan xavotirda. Shu boisdan, yurakzadalik bilan unga iltijo qiladi.

Keyingi baytda ilohiy timsol – Tangri taborak va taoloning razzoq, ya'ni rizq ulashuvchiligi hamda mannon, ya'ni ne'matbaxshlik sifatlari ulug'lanadi:

*Mankim, eshiking bandalari ojizidurman,  
shukr etmak ishimdur  
gar ochu va gar to'q,  
Lutfingga qilurman bori hol ichra tavakkul,  
yo roziqi mannon,  
sansan anga dono.*

Lirik qahramon ojizlik va xokisorlik izhor etib aytadi: Ey Olloh, men dargohingdagi bandalarining eng ojizidirman, xoh och, xoh to'q bo'lay, mening ishim shukr qilishdan iboratdir. Ey bani basharga rizq beruvchi, ne'matbaxsh zot, har qanday holatda ham sening iltifotingga umidvorman va sen buni bilguvchisan.

Tasavvuf adabiyotida dunyo go'zalliklari Tangri o'z husnu jamolining tajassumi sifatida yaratgan mo'jizalar sifatida kuylanadi.

*Hay-hay, ne tarovatlig' erur bog'i jamolingkim,  
tergusidur gul  
ondin hama olam,  
Mundindurur anvo 'i gulu lola bila mo'l  
ham jaybi guliston,  
ham domani sahro.*

Shoirning vasf etishicha, yaratuvchi ma'shuqa jamolining bog'i shu qadar tarovatliki, undan butun olam ahli gul teradi. Gulistonlar bag'ri hamda sahro etaklarining turli navdag'i gulu lolalar bilan to'liqligi shundandir.

Mustazod oshiqning munojoti bilan yakunlanadi:

*Hajring g'ami zahrini ichib Ogahiyi zor  
o'lmakka etibdur  
komig'a etushmay,  
Qilma nafase holini so'rmoqda taallul,  
ey Isoyi davron,  
qilg'il ani ihyo.*

Lirik qahramon: – Hajring g‘ami zahrini yuta-yuta Ogahiyi zor murod-maqsadiga etolmay o‘lmakka yaqinlashib qoldi. Ey, o‘likni-da tiriltirish xislatiga ega bo‘lgan isosifat zot, holimni so‘rashni bir nafas ham paysalga solmay, menga qaytadan hayot bag‘ishla, deya najot so‘raydi.

Xullas, ushbu mustazod ilohiy ishq tuyg‘ularini tarannum etuvchi go‘zal badiiy obidadir.

**“USTINA” G‘AZALI TAHLLILI.** “Ustina” radifli g‘azal Ogahiyning eng etuk va mashhur asarlaridandir. U ishq mavzuida, vasp va izhor uslubida bitilgan yakpora g‘azaldir. G‘azalning mashhurligiga, muxlislarning qiziqishi, hayratga sazovorligiga sabab uning yuksak badiiy mahorat bilan yozilganidir. Uning ashulaga aylanib, shuhrat qozongani ham shu boisdandir.

G‘azalning birinchi bayti teran mazmun va nodir she’riy san’at asosiga qurilgani tufayli husni matla darajasida sayqal topgan:

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jalloid ustina,  
Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina.*

Adabiy maqsad ma’shuqaning qoshi va ko‘zini vasp etishdan iborat. Lekin Ogahiy quruq madh va ta’rif yo‘lidan bormaydi. Hayratomuz badiiy manzara yaratadi. **“Mushkin qosh”**, ya’ni qora va nafis qosh tuklari **“chashmi jalloid”** – jalloid ko‘zlar atrofida hay’at a’zolaridek saf tortishgan. Ko‘zning qatl etuvchi, jon oluvchi jalloid sifatida tasvirlanishi an’anaviy holat. **“Mushkin qosh”** iborasi ham an’anaviy. Biroq mushkin qosh tuklarining hay’at

sifatida jonlantirilishi va jallod ko'zlar bilan ittifoq tuzdirilishi Ogahiyning ijodiy kashfiyoti – novatorligidan dalolatdir. Novatorlikning qiyomiga etgan hosilasi shundaki, qoshlar ko'zlar bilan ittifoq tuzib, oshiqni qatl etish uchun hukm chiqaradilar. Buning badiiy ifodasi ham juda maroqli. Bunda shoir harfiy o'yinlar san'atidan foydalanadi. Qoshning “*nun*” ( ) harfiga qiyoslanishi, ko'zning esa “*sod*” ( ) harfiga taqqoslanishi ham adabiy an'ana. Lekin kamdan-kam san'atkor ushbu an'anani uddalab amalga oshirolgan. Boz ustiga, Ogahiy qosh va ko'zning ittifoqini ifodalash uchun ularni (“*nun*” *eltibon* “*sod*” *ustina*) ostin-ustin joylashtiradi. Aslida ham, qosh bilan ko'z shunday joylashgan, hamjihat birikuvidan “*nas*” so'zi ( ) vujudga keladi. Arab tilidagi “*nas*” so'zi esa qatl uchun chiqarilgan hukm bayon etilgan xatni anglatadi. Baytning g'azalxon uchun sirli va sehrli jihatni ham shunda. Demak, qoshlar hay'ati jallod ko'zga oshiqni qatl etish to'g'risida shafqatsiz farmon-fatvo beradi. Baytdagi ushbu badiiy manzara hayotiyligi, tabiiyligi, ishonarliligi bilan ta'sirchan va go'zaldir.

Ikkinci bayt qomat va chehra tasviriga bag'ishlanarkan, shoir “*qomati zebo*” sifatlashi bilan qanoatlanmaydi. U o'xshatish uchun seviklining *bo'yi bilan yuzidek* yakvujud go'zallikni tabiatdan topolmaydi. Shuning uchun bog'dorchilikdagi payvand usulini g'azalga olib kiradi. *Gul* – yorning yuzidek yoniq va chiroyli, lekin unda shamshod daraxtidagidek ko'rkan qomat yo'q. *Shamshod* – qishin-yozin, umrbod yam-yashil yashnab turadigan xushqomat daraxt. Biroq yorning gulgun chehrasidek gul ochmaydi. Tabiatda gulni shamshodga payvand etib ham bo'lmaydi. Kitobxonda qaddi shamshod va gulgun yuzning bir vujudda mujassamligi tasavvurini uyg'otish kerak. Shunda shoir taxayyul qudratidan foydalanadi va g'azalxonga: “*Agar shamshodning ustiga gul payvand bo'lganini ko'rmagan bo'lsang, bunday mo'jizani tabiatdan izlamay ham qo'yaqolgin-da, yorning zebo qomatiga yarashiq gulgun yuzini tomosha qil !*” deya murojaat etadi:

*Qilg'il tamoshо qomati zebosi birlа orazin,  
Gar ko 'rmasang gul bo 'lg'onin payvand shamshod ustina.*

Yuqoridagi baytlar, asosan, yor go'zalligini vasf etishga qaratilgan bo'lsa, quyidagi baytlar izhor uslubida bitilgan. Ularda lirk qahramon ahvoli ruhiyasi ifodalangan:

*Nozu adovу g'amzasи qasdим qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo 'lur bir odamizod ustina.  
Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.  
Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shomu sahar  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.  
Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'lmag'ay  
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.*

Bu baytlarning bari mubolag'a san'ati bilan sug'orilgan. Oshiqning faryodu fig'on chekishicha, ma'shuqning nozu adovу g'amzasи bir odamzodning bardoshu saboti etmaydigan darajada qasd etib, uning ustiga dam-badam ofat yog'diradi. Birinchi baytdagi qatlga farmon olgan qotil ko'z yana jonlanadi, oshiqning xasta joniga tahlika solib, bedod ustiga bedod etadi. Boyagi gul yuz o'zining shavqi bilan shaydo ko'ngilni o'rtaydi va u kechayu kunduz bulbul kabi yuz navo, ming faryod chekadi. Mubolag'a misrama-misra kuchayib, oliv darajaga ko'tariladi. Besutun - Farhod qazigan afsonaviy tog'. Ogahiy lirk qahramoni chekkan g'am yuklari shu qadar og'irki, agar falak Farhodning ustiga yana ming Besutun yog'dirsa ham, oshiq chekayotgan g'am yukining mingdan biricha bo'lmaydi.

G'azalning 7-8-baytlarida lirk mundarijadan chekiniladi. Falsafiy umumlashma ruhidagi baytlar bitiladi. Ular birinchi baytdan kam bo'lмаган shohbayt darajasida vujudga kelgan:

*Ey shah,karam aylar chog'i teng tutyamону yaxshini  
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.*

*Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil  
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.*

Bu o'rindagi shohga murojaat Ogahiyning davr hukmdoriga qarata qo'llangan. Ogahiyning yuqoridagi satrlarda tasvirlangan ma'shuqadan chekkan sitamlari muayyan darajada, davrdan tortgan sitamlari timsoli ham edi. Demak, tushunish mumkinki, shoir izhori dard vositasida ko'nglini bo'shatib olgach, shohni adolatga chorlab, unga purhikmat pand aytadi. Nasihatni quruq bo'lmasligi uchun husni ta'lil san'atini qo'llaydi. Marhamat va muruvvat ko'rsatganingda, yomonu yaxshiga teng munosabatda bo'lgan, degan fikrni chiroyli she'riy asoslash uchun oftob o'z nurini vayrona va obod yerlarga teng sochishini misol qilib keltiradi. Quyoshdek yuksak martabada o'tirgan amaldorni Sulaymonshohdek shamol ustiga qo'ndirib, bu olamdan yeldek sayr etib o'tsa ham, oxir-oqibatda, tanasi tuproqqa aylanishi va yelga sovurilishidan ogohlantiradi. Ogahiyning bu saboqlari umrboqiy mohiyatga ega.

Shoir g'azalni yana ahvoli ruhiyasi izhori bilan tugallaydi:

*Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so 'z dergakim,*

*Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zori noshod ustina.*

Bu misralar g'amning yuz lashkari hujum qilib turganida, "zoru noshod" shoir g'azalxonlikni davom ettirishga jur'at topolmay, so'zni muxtasar qilib qo'yaqolganidan dalolat beradi.

Umuman. G'azal o'ziga xos ichki badiiy qurilmasiga ega, tashqi badiiy xususiyatlari – qofiya, radif, lafziy-ma'naviy san'atkorlik jihatidan ham mukammal asardir.

**Faqirligim – faxrimdir.** Payg'ambarimiz Muhammad Mustafon sallallohi alayhi vassallamning "*Al faqrin* - *faxrun*" – "**Faqirligim - faxrimdir**" degan hadisi shariflari mavjud. Ana shu hadisi sharif tasavvuf tariqatidagi faqr maqomiga ham asos bo'lgan. Faqru fano – tasavvuf tariqatining yettinchi, oxirgi va eng oliy darajasini anglatadi. Faqru fano maqomida so'fi foniylar dunyo

manfaatlaridan butunlay voz kechgan, nafs tuzoqlaridan batamom ozod bo‘lgan holatga yetadi. Faqr – tariqat sohiblarining muqaddas shioriga aylanadi. Muhammadrizo Ogahiy faqr maqomiga erishgan so‘fiyi sof siymolardan edi. Shoирning hozir tahlil etilajak g‘azalining har baytidan “Faqirligim – faxrimdir” shiori balqib turadi. Ushbu asar badiiy jozibadorligi, hurfikrligi, so‘fiyona shavqu shukuhi bilan shoирning an’anaviy g‘azallaridan keskin farqlanadi.

*Bizki, bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz,  
Boshimiz uzra ohimiz shu’lasidur kulohimiz.*

G‘azalning lirik qahramoni ruhiyatida tasavvufning barcha tariqatlari namoyandalariga xos eng muhim umumlashma fazilatlar mujassam. Uning badiiy siy whole, ayniqsa,darveshona, qalandarona kayfiyat, javonmardlik yaqqol namoyon.

Matlaning birinchi misrasida shoир jahonda faqirlik mamlakatining podshohimiz deya faxrlanayotir. Faqirona turmush tarzini tanlash darveshlikni ixtiyor etish demakdir. Dunyo hirsu havaslaridan voz kechish, nafsu havo qasrini tark etish, manfaatlar iskanjasidan ozod yurish qalandarlikdir. Faqru qano riyozatlarini anglangan zaruriyat sifatida qabul qilish, suvrati zoru zaif, faqiru haqir bir ahvolda bo‘lsa-da, siyratda o‘zini shohdek tanti,o‘ktam, mardonavor sezish javonmardlarcha jonbozlik nishonasidir. G‘azalda Mashrabdagagi olamni o‘rtaguvchi “oh” timsoliga yana ro‘para kelamiz. Bu bejiz emas. Ushbu asar Ogahiyning mashrabona ruhda yozilgan g‘azalidir. Bundan Ogahiy mashrabdan o‘rgangan yoki ta’sirlangan, degan ma’no chiqmaydi. Gap shundaki, g‘azallar har xil, mualliflar boshqa-boshqa. Lekin ruhiyat, timsol, lirik qahramon yagona, mushtarak. Bu ulug‘ shoirlarimizning maslakda yaqin, komil inson qiyofasi tasvirida hamkor ekanliklarini ko‘rsatadi. Bu o‘zbek tasavvuf she’riyatidagi badiiy tasvir uslubi hamda obrazlar olamining umumlashma xususiyatini ham aks ettiradi. *Mashrab lirik qahramonining saharda chekkan “oh”i kun bo‘yi olamni o‘rtab, “g‘am shomi”ga*

*borib falakni "kabobdek qovursa", Ogahiy lirik qahramonining "oh"i esa otashin oshiqning yurak alangasi bo'lib, uning boshi uzra kulohdek mudom shu'lalanib turadi.* Ogahiy lirik qahramoni shunday shohki, uning boshidagi kulohi – dildagi ohidir.

Lirik qahramon surati va siyratining jozib tasviri izchil davom etadi:

*Qasri rafe'imiz buzuq kulbayi ko'hnamiz bo'lub,  
Go'shayi ajzu maskanat tufrog'i taxtu johimiz.*

Faqirlik bilan faxrlanish – shaytonga yo'l bermaslik, nafsni jilovlashning o'ziga xos bir yo'lidi. Yo'qsa, buzuq va eski bir kulbani yuksak va baland qasrimiz deya iftixor etishni qanday tushunish mumkin? Bir burchakda ojizlik va bechoralikda turmush kechirishni ulug' infartaba, toju taxt deya faxrlanish ham nafsoniyatga tasalli berish, ma'naviy-ruhiy yuksaklikni saqlash usulidir. Ogahiyda faqirlikdan faxrlanish shu darajada komilki, lirik qahramon ojizu bechoralik maskani – tufroqni toju taxtim, mansab-martabam deya yuksakka ko'taradi.

Tasavvuf ahlining bosh maqsadi poklik uchun, ma'naviy kamolot uchun nafsga qarshi kurashdir. Keyingi baytlarda tasavvuf ahli nafs devlariga qarshi jangga otlangan poklanish lashkarlari sifatida tasvirlanadi.

*Markabi g'am samandimiz, doim alam kamandimiz,  
Nolayi zor tug'imiz, xayli balo sipohimiz.*

Bu lashkarning tarkibi, qiyofasi, qurol-aslahasi favqulodda boshqacha. "Jangovar" so'filar safining chiroqli, tezyurar saman otlari g'am ulovlaridan tarkib topgan. Alam ularga qurol o'rnila tuzoq yoki sirtmoq sifatida xizmat qiladi. Nolayi zor – bu lashkarning boshida munojot bayrog'i bo'lib hilpiraydi. Balo to'dalari ular uchun qo'shindir. Mana shunday obrazli tasvirga ko'ra, so'filar g'am otlarini minib, alam sirtmoqlari bilan quronanib, nolayi zordan boshlari uzra bayroq ko'tarib, balo askarlarini oldilariga solib kurashga kirishadilar. *Insonni ezadigan*

*g'amni – ot, alamni – quroq, nolayi zorni – bayroq, balolarni – lashkar* deya, salbiy narsalarini ijobjiy unsurlar sifatida ta'riflash ham o'ziga xos faqirona faxrdir.

Xo'sh, bunday qiyofadagi faqr lashkari kim bilan jang qiladi ? Bu keyingi baytda tasvirlangan.

*Lashkari kibru naxvatu nafs ila tuzgali masof  
G'amkadamiz, fazosidur arsayi razmgohimiz.*

Shoir yana iftixor ila tasvirlashicha, faqr eli insoniyatning eng yovuz ma'naviy dushmanlari bilan kurash olib boradi. Dushman lashkari quyidagi uch toifadan tashkil topgan: *kibr* – kiborlik, kalondimog'lik, mag'rurlik, g'urur, takabburlik; *naxvat* – xudbinlik, o'zbilarmonlik, o'zini katta tutish; *nafs* – insondagi turli maishiy orzu-havasga bo'lgan tabiiy mayl, istak. Mana shu unsurlarning bari insonning o'z vujudi va ruhoniyatida mujassam. Insonning o'z vujudi va ruhoniyati mana shu illatlar bilan kurash maydonidan iboratdir. Yovuzlikka rivoj beruvchi ana shu illatlarni yengish, mag'lub etish, ularni siqib chiqarib, vujudi va ruhoniyatini poklash jangchi so'fining muqaddas muddaosi. Shu unsurlar barhayot ekan, faqr ahlining o'zligi, jamiyatি, olam – g'amkada, g'amxona; ularni mahv etar ekan – odam ham, olam ham poklanadi. Bu boradagi mardona kurashda faqr ahliga taraf yo'q:

*Kim bo'la olg'usi taraf bizgaki, ashku ohdin  
Tutti eru sipehrni shavkatu dastgohimiz.*

Bu o'rindagi faqirlik faxrining mohiyati shundaki, lirik qahramon takabburlik, g'urur, nafs devlarini yengishda chekkan riyozatlarimiz ohu faryodi yero osmonni tutdi; poklanish, o'zlikni anglash, tavba-tazarru qilishda shon-shavkatimizga tarafkashlik eta oladigan kuch yo'q deya iftixor etmoqda.

*Martabayi urujimiz ajz ila o'yla tutti avj  
Kim, bo'la olmag'ay yeti charx g'ubori rohimiz.*

Kokisorlik tufayli, - deya faxrlanishda davom etadi lirik qahramon, - martabamiz, obro'yimizning ko'kka yuksalishi shu qadar avjlandiki, hatto, yetti osmon yo'limizning chang-to'zoniga tenglasha olmaydi.

Lirik qahramon yer va dunyo manfaatlardan yuksakda yuradi. Chinakam tariqat ahlining oliyhimmatligi mana bu baytda o'z aksini topgan:

*Himmatimiz baland erur o'ylaki, hech tushmagay  
Dahri dani arusining jilvasig'a nigohimiz.*

Uning himmati shu qadar balandki, tuban va nomard dunyo kelinchagi jilvasiga nazarini aslo past qilmaydi. **Dunyo kelini** – solik insonni yo'qdan ozdiruvchi mol-davlat va mayda-chuyda manfaatlar timsolidir. Odamzod dunyo boyliklariga qiziqqani sari, unga tobora mahkam mehr bog'lab, himmati pastlashib, odamgarchilikdan chiqib boradi. Faqirlikni faxr bilgan kishigina o'zining yuqori odamgarchilik mavqeini saqlab qola oladi. Bunday inson dunyo kelinchagi jilvasiga qiyo boqmaydigan, o'z nafsin mag'lub eta oladigan irodali javonmard siymodir.

Xo'sh, tasavvuf ahlicha, ushbu omonat dunyoning hirsu havasidan voz kechishning ma'nosi, mukofoti nimada?

*Olami faqr bazmida jomi sabuhi ichkali,  
Subhi safidimiz erur bizga shabi siyohimiz.*

So'filar tariqatning eng oliy maqomi – faqru fanoga ko'tarilganlarida Haqning vasliga tuyassar bo'ladilar. Ma'shuq bilan ma'naviy-ruhiy birlik hosil qilish "*olami faqr bazmi*"dir. O'z g'ururi va nafsin o'ldirib, fanofilloh bo'lib, Tangri ruhi bilan tongla tirilgan so'filar vahdat mayidan sipqoradilar. **"Jomi sabuhi"** – mana shu tirilish tongidagi vahdat mayidir. Haqning diydoridan ayrliliqda, omonat dunyoda kechirilgan umr – "*shabi siyoh*" – qorong'i kechadir. Mana shu hijron kechasini visol orzusi, ibodat, riyozat, poklanish bilan kechirgan so'fi subhi safid –

oppoq tongga erishadi. Haqning diydoriga musharraf bo‘lgan so‘fining “*ko‘zi vaqtı sahar sayyora*” bo‘lib, Olloh jamoli nuri bilan charaqlab ochiladi. Qorong‘i kechasi – oppoq tongga, ayriliqning achchiq sharobi – saharning musaffo mayiga evriladi.

Ilohiy ma’shuqa ishqini da’vo etgali chinakamiga riyozat chekuvchi oshiqlargina haqlidirlar. Ogahiy lirik qahramonining esa faxr etishga guvohlari bor:

*Shohidi ma ‘niyi vafo ishqini da ‘vo etkali  
Chehrayi zardu qaddi xam keldi iki guvohimiz.*

**Shohid** – Ollohnинг sifatidir. Diyordi vaslini va’da etgan mahbuba ramzidagi Olloh – “*shohidi ma ‘niyi vafo*” demakdir. Lirik qahramonning hijron iztiroblaridan sarg‘aygan chehrasi va ibodatu riyozatdan egilgan qomati Yorga chinakam oshiqligini isbotlovchi ikki guvohidir.

O‘tkinchi dunyoning yolg‘on rohatlariga aldanishdan saqlanish faqat faxriyaga emas, balki shukronaga ham sazovordir:

*Bizni bu dahr bog‘ining ishrati orzusidin  
Shukrki, forig‘ aylamish marhamati ilohimiz.*

Ayni paytda, shoir bu omonat olamning kayfu safosidan Ollohnинг marhamati saqlagani, bu borada ham ilohiy marhamatga musharrafligidan faxrlanadi.

Faqirlilik faxri bilan boshlangan g‘azal xuddi shunday tugallanadi:

*Ogahiy, bo‘lsa tong emas faqr eli gar muteimiz,  
Bizki, bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz.*

Darvoqe, kimda-kim jahonda faqirlilik mamlakatining podshohi ekan, “*faqr eli*” – fuqaro unga ixlos va itoat etsa, buning hech bir ajablanadigan yeri yo‘q.

Ogahiyning ushbu g‘azali katta tarbiyaviy, axloqiy-ma‘rifiy ahamiyatga ega. U badiiy xususiyatlari bilan ham maftunkor

asardir. G'azalning "Bizki, bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz" misrasi bilan boshlanib, shu misra bilan yakunlanishi radd ul-matla – matlaning qaytarilishi san'atidir. Ushbu badiiy san'at g'azal mundarijasi va badiiy qurilmasi yaxlitligi, tugalligini ta'minlab turibdi. "Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz", "Markabi g'am samandimiz, doim alam kamandimiz" misralaridagi ichki qofiyadoshlik g'azalning o'ynoqi ohangini, lirik qahramonning shaddod ruhiy qiyofasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Matnda yana o'nlab badiiy usullarni ko'rsatish mumkin, ular g'azalning shaklan va mazmunan mutanosib, jozibador chiqishiga omil bo'lgan.

**"ARZIMAS" G'AZALI TAHLILI.** Ogahiyning so'fiyona asarlarini tushkunlik va tarkidunyochilik tamoyili tarzida tushunmaslik kerak. Ularning zamirida hayot voqeligini rad etish yotmaydi. Balki, dunyo ne'matlariga, rohat-farog'atlariga haddan tashqari e'tiqod qo'yib, oxiratni, Olloohni unutmaslik sabog'i mujassam. Ushbu saboq Ogahiy ijodida faqat adabiy an'ana orqali emas, shoirning hayotiy tajribasi asosida ham shakllangan. Ogahiy qisqa umri davomida hayotning achchiq-chuchugini, dunyoning ranju alamini, davr ahlining ranju sitamlarini ko'p tatib ko'rgan. Ana shu hayotiy kechinmalarning xulosalari Ogahiy asarlarida o'zining mumtoz badiiy ifodasini topgan. "Arzimas" radifli g'azal Ogahiyning munglig', mushavvash, g'amgin suratda aytgan hayotiy sabog'idir.

*Dahr bazmu ayshi anduhi g'amig'a arzimas,  
Sharbati jonparvari muhlik samig'a arzimas.*

Lirik qahramon iqroricha, dunyoning bazmlari, aysh-ishratlari uning g'am-anduhlariga barobar kelmaydi. G'am-anduhlar oldida rohat-farog'atlar arzimas darajadadir. Dunyoning jonga rohat beruvchi sharbatlarini bearmon simirasiz, lekin bir kuni halok etuvchi zahriga ham duchor kelasiz. Shunda jonbaxsh sharbatlari jon oluvchi zahri zaqqumiga arzimay qoladi.

*Yuz yil o'lsang yor vaslining safolig' subhida,  
Bir zamonlig' hajri shomi muzlimig'a arzimas.*

Siz yor visolining nurli tonglaridan yuz yil bahramand bo'ling, lekin bu rohatingiz ham bir zamonlik ayrılıq tuni zulmati zulmiga bas kela olmaydi. Ayrılıq butun umr ro'shnoligini zulmatga aylantiradi.

*Yetsa davrondin sanga gar umrlar sur uzra sur,  
Bir nafas yetkan malolu motamig'a arzimas.*

Butun umr davomida davru davron surib, to'y ustiga to'y qilsang, to'xo'rlik bazmlari bilan sarafroz bo'lsang-da, shuncha shodlik, zavqu shavq muqarrar motam musibatiga arzimaydi.

*La'lidin gar jon topub quchsing muroding shohidin,  
Naz' vaqt paykaring pechu xamig'a arzimas.*

Baxtiyorlik kunlarida yoringiz vaslidan bahramand bo'lib, hayot nash'asini surasiz. Bu onlarda huzur-halovatdan yashnab, to'lg'angan vujudingiz o'lim tahlikasida jon berar mahalda azobdan to'lg'anib titraydi. Visol murodbaxshligi o'lim azoblari oldida arzimasdir.

*Madhinga ochsa ulus gar xush iborat birla til,  
Bir qabih alfov ila qilg'on zamig'a arzimas.*

Insonlararo muomala madaniyati juda nozik. Odamlar bir-birligiga shirinsuxanlik bilan muomala qilishadi. Suhbatdoshlarini lutf, marhamat, maqtovga chirmab tashlashadi. Lekin, kezi kelganda, shunchalik mehr-muruvvat beandisha aytilgan bir og'iz achchiq so'z yoki g'iybat, ig'vo, hasad, xusumat ohanglaridagi qo'pol muomalaga arzimay qoladi. Oldingi shirinsuxanlik, xushmuomala chippakka chiqib ketadi. Ogahiy qayg'urib, shundan ogohlantiradi.

*Teng tutamvoli jahon beshu kaminikim, oning  
Inbisoti beshi anduhi kamig'a arzimas.*

Ushbu baytda eng ajoyib xulosalardan biri mujassamlashgan. Inson zoti jahon moliga to'ymaydi. Ozu ko'piga qanoat qilmaydi. Kam bo'lsa, qanoat qilmaydi, ko'p bo'lsa, shukronalik etmaydi. Boyigan sari tobora boyigisi kelaveradi. Dunyoning o'zi miri kam bir ekanligini, qancha boyimasin, baribir kamiligini anglab etmaydi. Ogahiy insoniyat tajribasidan kelib chiqib, ajoyib pand beradi: "Dunyo molining kamu ko'piga baravar bardosh qil. Ko'pi bilan kerilib ketma, kamiga qayg'urma. CHunki ko'pining xursandchiligi kamining qayg'usiga arzimaydi".

*Istabon aysh, Ogahiy, g'am boshinga kelturmakim,  
Dahr bazmu ayshi anduhi g'amig'a arzimas.*

Baytma-bayt ta'kidlanib kelgan xulosalar maqta baytda umumlashtiladi va yakunlanadi. *Ey Ogahiy, -deydi lirik qahramon o'z-o'ziga murojaat etib, -bu dunyoda rohat-farog'at istab, o'z boshingga ortiqcha tashvish orttirma. Zotan, dunyo rohat-farog'atlari uning qayg'u-alamlariga arzimaydi.*

Ogahiyning ushbu g'azali boshdan-oyoq chuqur falsafiy hikmatlar bilan yo'g'irilgan. U bizni dunyoparast bo'lmaslikka, hayotni aql-idrok bilan kechirishga o'rgatadi.

**"BO'LMAZA BO'LMASUN, NETAY" G'AZALI TAHLILI.** O'zbek mumtoz adabiyotida ajoyib naziranavislik an'anasi mavjud. "Nazira" so'zining lug'aviy ma'nosi – o'xshash, monand, teng demakdir. Adabiyot atamasi sifatida esa "nazira" bir shoiring boshqa bir shoir g'azaliga o'xshatma, monand yoki tengkuchli yangi asar yaratishini anglatadi. Ogahiyning "Bo'lmasa bo'lmasun, netay" radifli g'azali naziranavislik san'atining mumtoz namunasidir. Ushbu g'azalni Ogahiy Alisher Navoyining:

*Gar alamimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay,  
Gar g'amima shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay*

matlali g‘azali asosida yaratgan. Uni shoir Navoyi g‘azalidagi vazn, qofiya, radif kabi shakliy-badiiy xususiyatlarni aynan saqlagan holda yozgan. Ogahiy ustozи Navoyining boshqa badiiy vositalari, so‘z va iboralaridan ham foydalangan. Lekin u Navoyi g‘azalining shunchaki o‘xshash bir nusxasiga aylanib qolmagan. Ikkala asarni izchil qiyosiyl tahlil etsangiz, buni yaqqol ko‘rishingiz mumkin.

G‘azal ishq mavzusida, izhor uslubida bitilgan. Badiiy qurilmasiga ko‘ra, u yakpora g‘azaldir. Ushbu g‘azalning eng o‘ziga xos xususiyati shundaki, u boshdan-oyoq yuksak ehtiros alangasi bilan, avj pardada izhor etilgan. G‘azaldagi oshiqona mazmun, zavqu shavq, ohang biror nuqtada pasaymaydi. Mazkur fazilat g‘azalning ashula variantiga ham aynan ko‘chgan. G‘azalni atoqli o‘zbek hofizi Komiljon Otaniyozov qo‘sinq san’atining o‘lmas obidasiga aylantirgan. Muhammadrizo Ogahiyning badiiy san’atkorligi va Komiljon Otaniyozovning ijro mahorati asarning umrboqiyligini ta’minlagan.

*Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay,  
Ohima ham shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.*

*Ashk* – faryod chekayotgan oshiqning ko‘z yoshlari. *Kanora* – qirg‘oq. Oshiqning izhoricha, uning hijron izardidan to‘kayotgan ko‘z yoshlari qirg‘oqlarga sig‘mas darajada cheksiz. *Shumora* – sanoq, hisob, miqdorni anglatadigan, mumtoz adabiyotimizda faol qo‘llaniladigan so‘z. Tasvirlanishicha, ko‘z yoshlari singari, oshiqning ohlari ham haddu hisobsiz. Ammo, ko‘z yoshlariga qirg‘oq bo‘lmasa bo‘lmasin, ohlariga sanoq bo‘lmasa bo‘lmasin, shaddod va qat’iyatli oshiq ishq yo‘lidan chekinmaydi.

*Har dam ulusg‘a lutf ila boqg‘usi, qahr ila vale  
Man sori bir nazora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay.*

Ma’shuqa ulusga, ya’ni oshiqdan o‘zgalarga har zamon iltifot bilan nazar soladi. Valekin oshiqqa tomon, iltifot nari tursin, qahr

bilan bo'lsa-da, bir bora qiyo boqmaydi. Muruvvatli ma'shuqa barcha ishq eli ko'ngli dardiga chora qiladi, ammo Ogahiy lirik qahramoni dilining dardiga chora yo'q:

*Ishq eli ko'ngli dardig'a chora qilur, vale maning  
Dardi dilimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Bu – sadoqatli oshiqqa nisbatanadolatsizlik, albatta. Ammo, bu oshig'imiz muhabbat, e'tiqodi shu qadar mustahkam va tamasizki, ilohiy ishq yo'lida u shundayin xolis va tavakkalchiki, iltifotlar bo'lmasa bo'lmasin, u vafodan sarkashlik etmaydi, visol sari umidvor intilaveradi.

Sabr-bardoshli oshiqning dardi ichida, yuragida ishq o'ti achchiq tutab yonadi.

*Hajr ila za'fim o'ylakim, ohi hazinim o'tig'a  
Shu'la bila sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Yor hajridan lirik qahramon xastaligi shu qadar zo'rayganki, shu'lavor oh tortishga ham uning majoli etmaydi. U shunday hazin. Ya'ni sokin va g'amli oh tortadiki, bu ohda shu'la ham, sharora – alanga ham yo'q. Biroq, bo'lmasa bo'lmasin, fidoyi oshiq ishq o'tida o'rtanishdan tolmaydi.

Ma'shuqi azal oshiqqa nisbatan shu qadar loqayd munosabatdaki, uni na qahr etib o'ldiradi, na rahm etib tiriltiradi:

*Jon labidin chu bermadi jismima, vahki, qoshidin  
Qatlima ham ishora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Oshiq nido chekadiki, yorim labidan bir bo'sa berib, joniimga hayot bag'ishlamadi. Evohkim, tirikligimga rivoj bag'ishlamadi-ku, o'limga ham mahkum etmadidi. Loaqlar, bir qosh qoqib, o'limga mahkum etsa ham, mayli edi. Tiriklikka rivoj, o'limga hukm bo'lmasa ham, lirik qahramon "o'lman jondan umid" qabilida ishqida sobit turadi.

Lirik qahramonning murodi va'daga vafo, ammo:

*Ko'yig'a borsam, etgusi vaslig'a va'da, ul dog'i  
Bo'lg'usi bora-bora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Oshiq yor ko'chasiga kirganda, visolga va'dalar oladi. Boshqacha aytganda, taqvo-yu toatga, Haq yo'liga kirishgan bandalariga ma'shuqi azalning visoli va'dalari bor. Ammo bu va'dalar vafosi dunyoviy hayotning quvonch va tashvishlariga ko'milib, bora-bora yo'q bo'lganday bo'ladi. Ammo bu ham oshiqni asl e'tiqodidan qaytarolmaydi.

Lirik qahramonning davr ahli bilan o'zi o'rtasidagi ziddiyatlari holat bir necha baytda izchil tasvirlanadi. Bu uning ruhiy holatini bo'rttirib ko'rsatadi:

*Tole'i ravshan o'zganining lutfi quyoshi nuridin,  
Men kibi baxti qora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Lirik qahramondan boshqalarning tolei ma'shuqa iltifotining nuridan munavvar. Faqat va faqat bizning oshiqi zorimizdek baxti qora yo'q. Bo'lmasa bo'lmasin, bu ham oshiqning parvoyiga kelmaydi. Eng muhimi, yorni u sevsu bo'Igani. Zotan, parvona ham shamning shu'lasiga emas, o'ziga oshiq va oxir-oqibatda, unga fido bo'ladi.

*Bo'ldi sitorasi isig' xulqiga mehri yori garm,  
Manda isig' sitora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.*

Sharq adabiyotining lirik qahramonida o'zini haddan tashqari xokisor ko'rsatish ba'zan o'zini kam sitish, aybsitish darajasiga ham borib etadi. Bunga ijobjiy hol sifatida qaraladi, chunki u ishqni va ma'shuqani ulug'lashga xizmat qiladi. "Sitorasi isig'" – yulduzi issiq degani bo'lib, hozirgi talaffuzimizda "istarasi issiq" shaklida o'zgargan. Shoir aytmochiki, yulduzi issiqlarga yorimning mehri

ham isidi, tovlandi. Evohkim, menda “isig‘ sitora” ham yo‘q. Bo‘lmasa bo‘lmas, nima ham qila olardim.

Ushbu g‘azalning o‘ziga xosligi shundaki, uning avjlaridan ham avjliroq nuqtasi yakunlovchi baytidadir:

*Dedim: “O‘lubdur Ogahiy ashki kanorasiz”, dedi:  
“Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay”.*

Oldingi baytlar lirik qahramonning yakkaxonligi asosiga qurilgan bo‘lsa, maqta bayt savolu javob tarzida bitilgan. G‘azal mundarijasi davomida lirik qahramon o‘z dardu holidan shikoyat qilib keldi. Uning shikoyatlari qaratilgan shaxs, ikkinchi lirik qahramon, ya’ni ma’shuqa tinglab, yuraklari to‘lib bordi. Nihoyat, so‘nggi baytda “O‘lubdur Ogahiy” degan nidoni eshitgach, u “yorildi”. U ham cheksiz-chegarasiz ko‘z yoshlariga olamni g‘arq etadi. Alisher Navoyida chinakam oshiq ma’shuqini oshiqqa aylantiradi, degan hikmat bor. Ogahiy lirik qahramoni ham sidqidildan yig‘lab, ma’shuqani o‘z dardiga hamdard etib yig‘latib yubordi. U ham “Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” deyish darajasidagi ruhiy holatga tushdi.

Tahlil etilayotgan g‘azal juda katta badiiy mahorat mahsulidir. G‘azaldagi mazmun va jozibadorlikni yuzaga chiqarishda qator shakliy-badiiy usullarning ham o‘ziga xos xizmati bor. Ulardan biri kompozitsion-stilistik san’at – radd ul-matladir. Bu g‘azaldagi matla birinchi misrasining maqtadagi ikkinchi misrada takrorlanishi o‘zgacha ahamiyatga ega. Bunda u odatdagiday, faqatgina kompozitsion tugallikni ta’minlamaydi. U birinchi misrada lirik qahramon dardi izhorini ifodalagan bo‘lsa, so‘nggi misrada uning aks-sadosini, ya’ni ma’shuqaning ham oshiqqa hamdard bo‘lib qolganini aks ettirgan. Ma’shuqaning ham oshiqqa mehr izhor qilishi asl muddao – ikki tomonlama muhabbatni shakllantiradi. Demak, radd ul-matla bu g‘azalda ibtido va intihonigina emas, maqsad va natijani ham qamrab ifodalagan.

G‘azaldagi muhim badiiy vositalardan biri radifdir. Radifning asosiy xizmatlari shuki, u she’rning pursayqal

ohangdorligini,baytlarning fikriy-mantiqiy tugalligini ta'minlab turibdi. "Bo'lmasa bo'lmasun, netay" radifi butun g'azal, ya'ni barcha baytlar uchun umumiy bir tugallanma mazmunni ta'kidlab turish bilan birga har bir baytga xos xususiy mazmunni ham yakunlab boradi. Shuningdek, radif o'rni-o'rni bilan lirik qahramonning alamzadalik, sarkashlik, fidoyilik, tantilik, tavakkalchilik,javonmardlik kabi turli qiyofa qirralarini aks ettirib turadi. She'rda tashbeh, istiora, tazod, tardi aks kabi badiiy san'atlar ham qo'llanganki, ular g'azal badiiyati quvvatini oshirgan.

*Noyob san'at jilosi.* Sharq mumtoz adabiyotida so'zga ilohiy ne'mat sifatida qaraladi. Bu beziz emas. Chunki "Kun" degan birgina ilohiy so'z olamning yaralishiga vosita bo'ldi. Shunday ekan, har bir so'z mo'jizalar yarata oladigan qudrat. Uning zamiriga olamlar singdirilgan.

Biz Ogahiy ijodini kuzatar ekanmiz, uning so'zga nuqtayi nazari xuddi shunday, o'ziga xos, yuksak maqomda ekanligini ko'ramiz. Biz adabiyotni daryoga qiyoslasak, so'zlar undagi durlardir. Ammo, Ogahiy ko'p ijodkorlardan farqli ravishda, daryodan durlar teruvchi emas, balki durlar zamirida daryolar kashf etuvchi alloma sifatida tasavvurimizda paydo bo'ladi. U qo'llagan har bir so'z daryodek shovullaydi. Goh shodon, goh mahzun kuylar kuylaydi. Har bir so'z bahridan jo'shqin ummonlar uyg'onadi. Bu holni shoirning har bir she'rida ko'rishimiz mumkin.

Ogahiy devonida 4 misradan iborat bir she'r uchraydi. U musoviy at-tarafayn deb nomlangan:

<i>Ul sho'xki</i>	<i>ochildi</i>	<i>xatu</i>	<i>ruxsori</i>
<i>Ochildi</i>	<i>rayohinda</i>	<i>yuzi</i>	<i>gulnori</i>
<i>xatu</i>	<i>yuzi</i>	<i>besabru qarori</i>	<i>man man</i>
<i>ruxsori</i>	<i>gulnori</i>	<i>man man</i>	<i>zori</i>

Mazkur she'r eniga ham, bo'yiga ham bir xil o'qiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida bunday usulda yaratilgan she'rler juda noyob. Mashhur iste'dod sohiblari ijodida ham uchramaydi. Hatto, Navoyi devonlarida ham yo'q. She'riyatdagи bunday usul mumtoz adabiyotshunoslikda murabba san'ati deb izohlanadi.

U lafziy san'atlar sirasiga kiradi. Ko'plab mumtoz adabiyot nazariyasiga oid manbalarda unga xos xususiyatlar sharhlangan. Jumladan, Atoulloh Husayniyning "Badoe us-sanoe" asarida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "*Murabba andin iboratturkim, to 'rt misra yoki to 'rt bayt aytilur, yozilg'annda ham bo'yig'a, ham enig'a o'qisa bo'lur. Misralar murabbayi andoqdur:*

<i>Az furqati</i>	<i>On dilbar</i>	<i>Man doyim</i>	<i>bemoram</i>
<i>On dilbar</i>	<i>Kaz ishqash</i>	<i>Bo dardam</i>	<i>U bedoram</i>
<i>Man doyim</i>	<i>Bo dardam</i>	<i>Be munisu</i>	<i>be yoram</i>
<i>Bemoram</i>	<i>bedoram</i>	<i>be yoram</i>	<i>g'amxoram</i> <sup>359</sup>

Ta'rifda ta'kidlanganidek, adabiyotimizda baytlar murabbasi ham uchraydi. Misra va baytlar yuqorida pastga va chapdan o'ngga qarab o'qilganda, keltirilgan misollardagidek bir xil shaklga ega bo'ladi. Husayniy asarida ushbu san'atni izohlar ekan, misra, bayt murabbasining bir necha namunalarini keltirib o'tadi. San'atning nomlanishida murabba so'zining lug'aviy ma'nosi nazarda tutilgan. U to'rtlik, to'rtburchak, kvadrat ma'nolarini bildiradi. Muallif bu san'atni olti bayt tarzida ham qo'llash mumkinligi va faqat uni musaddas deb atash munosib ko'rilihini ta'kidlaydi<sup>360</sup>.

Adabiyotshunoslik manbalarini kuzatib, bu san'at uzoq tarixga egaligini ko'ramiz. Nazariyaga doir qadimgi manbalardan XII asrda yaratilgan Rashididin Vatvotning "Hadoiq us-sehr" asarida ham ushbu san'at sharhi beriladi va misol keltiriladi. Bizga ma'lumki, Vatvot asari o'zidan keyingi adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Undan keyin yaratilgan barcha asarlarda uning mulohazalariga tayaniladi va munosabat bildiriladi. Shu sababli ham ushbu san'at talqinida barcha mualliflar uning xulosalarini inobatga olishgan. U o'z asarida keltirgan yuqoridagi namuna biz tanishgan barcha manbalarda takror keltirilgan va Rashididdin Vatvotdan deya e'tirof etilgan. Ammo, albatta, har bir asarda mualliflarning o'z nuqtayi nazarlari ham aks etgan. Bir

<sup>359</sup> Атоуллоҳ Ҳусайнӣ. Бадое ус-саное. Т., Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат наприёти, 1981, 108-бет.

<sup>360</sup> Ўша асар, 109-бет.

qancha yangi misollar ko'rsatilgan. Ushbu san'atning nazariy ishlanmasi o'z tarixiga ega. Ayrim o'rnlarda bir-biridan farqli mulohazalarga duch kelamiz. Ba'zi manbalarda qisqa, ba'zilarida esa keng, bat afsil sharhlanganligining guvohi bo'lamiz. Xos xususiyatlarning yangi-yangi qirralari kashf etilganini kuzatamiz. Jumladan, "Hadoyiq us-sehr", "Al-mo'jam", "Funun ul-balogs'a"da 4 misrali asarlarda murabba san'atining qo'llanilishiga namunalar keltirilgan. "Badoe us-sanoe" va "San'ati suxan"da esa 4 misra, 4 bayt (8 misra), 6 bayt (12 misra)li namunalari ham uchraydi. San'atning xosliklari kengroq muhokama etiladi. Manbalarda san'atning nomlanishida ham turli-tumanlik ko'zga tashlanadi. "Funun ul balog'a"da "al-murabba'", "Badoe us-sanoe"da "murabba", "San'ati suxan"da "San'ati chorxona" (to'rtburchak san'ati – N. J., I. A.) deb ataladi. Adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan eng mukammal asarlardan biri hisoblanadigan Atoulloh Husayniy "Badoe us-sanoe"sida esa bu masalaga keng to'xtalinadi. O'zidan oldingi mualliflar fikrlariga munosabat bildiriladi. Unda Shamsiddin Qays Roziyoning "Al - mo'jam" asarida ushbu san'at boshqacha nomlangani, uni muvashshah san'atining turlaridan biri sifatida keltirib, muzalla deb atalgani haqida ham ma'lumot beradi: "Shams-i Qays murabba va aning o'xshashlarin muvashshahqa kiritiptur va deptur: (uldurkim) katak shaklig'a andoq solurlarkim, ani ham bo'yig'a va ham enig'a o'qusa bo'lur. Ani muzalla derlar"<sup>361</sup>.

Ko'ringanidek, Qays Roziy ushbu san'atni muvashshah san'atining turlaridan biri sifatida taqdim etib, uning muzalla deb atalishini ta'kidlagan.

XIX asr shoirlaridan Ogahiyning yuqoridagi ruboysiida mazkur san'at qo'llangan va "musoviy at-tarafayn" deb nomlangan. Atoulloh Husayniy "Musovot uldurkim, lafzu ma'no teng bo'lur"<sup>362</sup>, deb izohlaydi. Tarafayn-taraflar. Demak, musoviy at-tarafayn – tomonlarning shakl va ma'noda tengligi, bir xilligi ma'nosini ifodalaydi.

<sup>361</sup> Ўма асап, 337-бет.

<sup>362</sup> Ўма асап, 175-бет.

Ko'ringanidek, murabba san'ati o'z shakllanish tarixiga ega. Uning dastlab 4 misra, keyinchalik, XV asr oxiriga kelib, 4 bayt, 6 baytli ko'rinishlari ham yaratilganligini kuzatish mumkin<sup>363</sup>. Bu ancha murakkab san'at. Shu sababli hamma shoirlar ham uni qo'llashga jur'at etisholmagan.

U dastlab arab va fors-tojik she'riyatida uchraydi. Shungabinoan, manbalarda, asosan, fors-tojik tilidagi namunalar berilgan. Faqatgina "Funun ul-balogs'a"da 2ta forsiy misol qatorida Unsuriyning bir o'zbekcha to'rtligi keltiriladi.

Izlanuvchan va nodir iste'dod sohibi sifatida Ogahiy o'z asri adabiyotida mazkur san'atni qayta jonlantirdi. Uning noyob namunasini yaratdi.

Bunday asarni yaratish keng tafakkur miqyosini, chuqur diqqat-e'tiborni talab qiladi. Chunki misralar yuqoridan pastga va chapdan o'ngga (arab yozuvida o'ngdan chapga) o'qilganda bir xil bo'lishi shart.

Ogahiy asari mahbuba ta'rifiga bag'ishlangan. Bosh timsol – oshiq. Uning diqqati mahbubaning xat va yuziga qaratilgan. Asarni ikki qismga ajratib talqin etish mumkin. Dastlabki ikki misrada mahbuba jamoli tavsifi beriladi.

*Ul sho'xki ochildi xatu ruxsori  
Ochildi rayohinda yuzi gulnori*

U sho'xning – mahbubaning xatu yuzi ochildi, ko'rindi. Go'yoki, rayhonda anor guli ochilganidek go'zallik namoyon bo'ldi. 1-misrada lirik qahramonning diqqat markazi xat va yuzga qaratilgan. 2-misrada 1-satrga parallel holda rayhon va anor gulidek yuz haqida gapirilyapti. Keyingi ikki misrada esa shoир oshiq kayfiyatini yoritishga harakat qiladi. Unda xatu yuz ishtiyoqida beqaror oshiq ruhiy holati ifodalananadi:

<sup>363</sup> Бу адабиёт назариясига оид манбаларнинг яратилишидаги фарқда ҳам кўринади: а) Рашидиддин Ватвотнинг "Ҳадойик ус-сехр" и XII asr бошларида; Шамсицдин Қайс Розийнинг "Ал-мўъжам" и 1218-1233 йилларда; Аҳмад Тарозийнинг "Фунун ул-балога"си 1436-37 йилларда; Атоуллоҳ Ҳусайнийнинг "Бадос ус-саное"си 1493 йилда; Т.Н.Зеҳнининг "Санъати сухан"и эса 1978 йилда яратилган. Улардаги мuloҳазалар мазкур санъатнинг тараққиёт тарихи борасида хуносалар чиқариш имконини беради.

*Xatu yuzi besabru qarori manman*

*Ruxsori gulnori(n) manman zori*

Bir qaraganda, asar tavsifiy yo‘nalishda bo‘lib, mahbuba vasliga bag‘ishlangandek tasavvur uyg‘otadi. Bu, albatta, to‘g‘ri taassurot. Ammo, shoirning maqsadi va she‘rning ma’no qamrovi bu bilan chegaralanmaydi. Unda shoirning oddiy dunyoviy tuyg‘ulari izhoridan tashqari, chuqur falsafiy-orifona g‘oyalar ifodasi ham talqin etilgan. Asarda shoirning diqqat markazi xat va yuzga qaratilgan. Bu bejiz emas. Tasavvuf istilohlari lug‘atlarida "xat" – Haq jamolining namoyon bo‘lishi sifatida izohlangan. Shu sababdan ham, mumtoz shoirlarimiz ijodida yuz va xat obrazi e’tiborga molik timsollardan sanaladi. Yuzu xatni ko‘rish, unga vosil bo‘lish yuksak maqom sifatida talqin etiladi. Bunday oshiqlar ilohiy kashf sharafiga tuyassar bo‘ladilar. "Mir‘ot ul-ushshoq"da xat istilohi izohlanar ekan, quyidagicha sharhlanadi:

*"Xat – taayyun vajhi haq va zuhuri tajalliyе jamole Mutlaqro go‘yand. Bayt:*

*Agar ro‘yu xatash bini tu beshak,  
Bedoni vahdatu kasrat yako yak"<sup>364</sup>.*

Ushbu talqin mumtoz adabiyotdagи yuz va xat timsolini mukammal izohlay oladi. Keltirilgan izohga binoan, yor yuzidagi xat – Haq jamoli. Haq jamolini ko‘rsang, vahdat (yagonalik, yagona zot) va kasrat (ko‘plik, ya’ni dunyo)ning nimaligini, uning mohiyatini ayon anglaysan.

Mazkur qisqa hajmli asarda Ogahiy o‘ziningg mahoratini namoyon eta olgan. Unda husni ta‘lil - chiroyli dalillash hamda laff va nashr san‘ati qo‘llangan. 1-misrada xat va yuz, 2-misradagi rayhon va anor guli (gulnor) orqali sharhlanadi. Shoir obrazlarni qo‘llaganda, ularga xos ranglar mohiyatini ham e’tiborga olgan.

<sup>364</sup> Таржимаси: Хат – Ҳақ жамоли ва Мұтлақ жамол тажаллиси зухурининг намоён бўлишидир, дейдилар.  
Байт:

Агар юзу хатини кўрсанг, бешак,  
Вахдату касратни билурсан тайин.

Tasavvuf ta'limotida yashil rang – ishonch, imon; qizil rang esa irfon ma'nolariga ega. Rayhondagi yashillik, yuz va anor gulidagi qizillikda ham dunyoviy go'zallik, ham ilohiy ishq darajalari ifodasini ko'ramiz. Shunday ekan, Ogahiy qo'llagan timsollar zohiriylar ma'nodan tashqari, chuqur botiniy mohiyatga ham ega. Chunki mahbubaning xatu yuzini ko'rish oshiq ishq riyozatining ma'lum bir yuqori maqomga ko'tarilganligini ko'rsatadi. Lirik qahramon o'z imon va irfon miqyosidan qanoatlanib, xatu yuzini ko'rish uchun beqaror va ishtiyooqmand. Demak, u ma'rifat yo'lining yuqori bosqichida, haqiqat bosqichiga o'tish uchun o'zini ruhan tayyor his etmoqda. Buni keyingi 2 misradagi xatu yuzi (haq jamoli)ni ko'rish uchun beqarorlik, gulnor yuzi ishtiyooqida intizorlik ifodasidan ham sezish mumkin.

Ko'rindiki, asar qisqa hajmli bo'lishiga qaramay, chuqur zohiriylar va botiniy mohiyatga ega. Lirik qahramon ruhiy holati esa ikki yo'nalishda ham yetarli darajada talqin etilgan.

Adabiyotshunosligimizda bu tipdag'i she'rlar borasida deyarli mulohazalar bildirilmagan. Yoki salbiy munosabat izhor etilgan.

Ogahiyning ushbu asariga ham olimlarimiz uncha e'tibor berishmagan. E'tibor qaratilganda esa quyidagicha salbiy ma'noda izohlangan: "*Haqiqatda esa bu misralar adabiyotda ma'noni shaklga qurbon qilishning, "san'at san'at uchun" ruhidagi mayllar ta'sirining mevasi edi*"<sup>365</sup>.

Ammo, tahlil jarayonida ko'rdikki, Ogahiy ma'noni shaklga qurbon qiluvchi shoir emas. U ushbu murakkab san'atni ham chuqur ma'no-mazmunni ifodalashga yo'naltira olgan. Bu asardan avom ham, xos ham o'ziga etarli bahracha ola oladi. Biz Ogahiy she'rлarining umumiyligi ruhi va mazkur asar ifodalab kelgan ma'no-mohiyatdan kelib chiqib shunday xulosa chiqarishga haqlimiz, deb o'yaymiz.

Asarda zohiran mahbuba vasfi, oshiq ishtiyooqi; botinan ilohiy ishq po'rtanalari, oshiqning riyozatu iztiroblari, maqomu darajalari Ogahiyona mohirlilik bilan tasvirlab berilganining guvohi bo'lamiz.

<sup>365</sup>. В.Абдуллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1980, 333-бет.

Asar 1960-yilda Xurshid tomonidan nashrga tayyorlangan "Ta'viz ul- oshiqin" devonida chistonlar rukniga kiritilgan. Bunga sabab, balki, she'rning o'quvchini fikrlashga yo'naltiruvchi tabiat bilan bog'liqdir. Ammo, u 4 misradan iborat bo'lib, ruboiy vaznida yaratilgan. U chistonning xos xususiyatlariga ham ega emas. Ruboiyning har bir satri alohida vaznda yozilgan. Uning taqtesi quyidagi ko'rinishga ega:

1-misra:

- - V V - - V V - -

*Maf'ulu mafoiylu mafoiylyn fa'  
hazaji axrabi makfufi solimi abtar*

2-misraning vazni ham 1-misranikidek.

3-misra:

- - V V - - V V - V - -

*Maf'ulu mafoiylu maf'ulun fa'  
hazaji axrabi makfufi mahbuzi abtar*

4-misra:

- - - - - V - - -

*Maf'ulun maf'ulu maf'ulun fa'  
hazaji axrami ahrabi abtar*

Birgina ruboiy – to'rtlik talqinida Ogahiy she'riy mahoratining betakror jilolarini kuzatdik. Uni yanada teranroq izohlash imkoniyati mavjud. Ko'rindiki, shoir merosining kashf etilmagan qirralari bisyor. Ularni o'rghanish, ishonamizki, millatning, xususan, yosh avlodning ma'naviy ravnaqiga xizmat qiladi.

**Ogahiy – tarixnavis.** O'zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon siyosatchi, tarixchi sifatida ham yorqin iz qoldirgan. Xorazm adabiy muhitida Abulg'ozzi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniylar asos solgan shajaraviy tarixnavislik bor. Shu shajaraning yirik bir qanoti bo'lgan Ogahiy "Riyoz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul voqeoti Sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohidi Iqbol" kabi beshta tarixiy asar yozdi. Bir qancha tarixiy asarlarni tarjima qildi.

Tarixiy asarlari qomusiy ma'lumotlar beradi. Tirik, harakatdagi adabiy muhitni tasavvurimizda qayta jonlantiradi. Tarixiy bilimlar samarasi o'laroq, Ogahiy donishmand-maslahatchi bo'lib maydonga chiqadi. Tarix saboqlarini jamlab, olamshumul xulosalar chiqaradi. Kelajak avlod ravnaqi, ona Vatan kamoli yo'riqnomalarini yaratishga musharraf bo'ladi.

Ogahiyning tarixiy asarlariga V. Bartold, Yahyo G'ulomovlar yuqori baho berishgan. Ogahiy tarixiy asarlarida tarixchi, siyosatshunos, shoir, yozuvchi sifatidagi iqtidorini mukammal namoyon eta olgan.

*Yetuk tarjimon*. Muhammadrizo Ogahiy tarjima sohasida ham katta ijodiy mактаб yaratdiki, bu Xorazm adabiy muhitida tarjima san'atini yuqori cho'qqiga olib chiqdi. XIX asrda 120dan ortiq asar tarjima etildi. 80dan ortiq kishi tarjima bilan shug'ullandi. Erkin tarjima o'ziga xos yangi pog'onaga ko'tarildi.

Ogahiy o'z ijodiy faoliyati davomida 19ta asarni o'zbek tiliga tarjima etdi. Ular Sa'diyning "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Mirxondning "Ravzat us-safо", Muhammad Mahdiy Astrobodiyning "Tarixi jahonkushoyi Nodiriy", Zayniddin Vosifiyning, "Badoe' ul-vaqoe'", Mahmud G'ijduvoniyning "Miftoh ut-tolibin", Muhammad Muqim Hirotiyning "Tabaqoti Akbarshohiy", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tazkirayi Muqimxoniy", Rizoqulixon Hidoyatning "Ravzat us-safoyi nosiriy", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyot", "Sharhi daloyil al-xayrot", Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Badriddin Hiloliyning "Shoh va gado", Nizomiyning "Haft paykar" kabi badiiy, tarixiy va axloqiy-falsafiy asarlaridir. "Qobusnoma" tarjimasini Feruz tavsiyasi bilan amalga oshirganini eslab aytgan o'z fikrlari, Ogahiyning bu boradagi faoliyati mohiyatini bizga sharhlab bera oladi: "Mazkur nasihatnomani ilkimga berib dedikim, bu nusxani turkiy tili birla tarjima qil, to turk tavoyisining avomi dog'i bu pandlardin bahra olg'ay va bizning otimiz, sening so'zing olam inqirozиг'acha zamon avroqida boqiy qolq'ay".

Shoirning tarjimalarini kuzatib, ular insoniyatni ma'naviy uyg'oqlikka da'vat etuvchi, ko'ngilni bedorlikka, hushyorlikka etaklovchi asarlar ekanligini his etamiz. Yuksak ma'naviyat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda Ogahiy tarjimalarining ahamiyati yana ham oshdi. Ularda keltirilgan fikrlar, nasihatlar, hikmatlar hech qachon eskirmaydigan xulosalar. Ular xuddi biz uchun, bugun uchun aytilganday dolzarb va qadrli: "Agar molsizlikdan qashshoq bo 'lsang, aqlidan boy bo 'lmoqqa sa'y ko'rguzg'ilki, mol bila boy bo 'lg'ondin, aql bila boy bo 'lg'on yaxshiroqdur. Nedinkim, aql bila mol jam etsa bo 'lur, ammo mol bila aql o'rganib bo 'lmas. Bilg'il, aql bir moldirki, uni o'g'ri ololmas. Uo'tda yonmas, suvda oqmas".

Ogahiy tarjimachilikni yuksak san'at darajasiga ko'targan ijodkor. U har bir tarjimaga o'zining o'y-fikrlarini, falsafiy qarashlarini singdirishga harakat qilgan. Ularga erkin yondashgan. Nizomiyning "Haft paykar" dostonini tashrifa tarjima qilgan. Undagi har bir jumlanı katta talabchanlik bilan tuzgan. Natijada, asar so'z qadrini baland etgan nasr namunasiga aylangan. Sa'diyning "Guliston" asari tarjimasida ham shoir erkin yo'l tutgan. U asarlarda yangi she'riy namunalar, turkigo'y xalqlar so'z xazinasidagi hikmatlar, hikoyatlardan unumli foydalangan. Bu, o'z navbatida, asarlarni ko'ngilga yaqin va oshno etishga xizmat qilgan: "Nasihat : mol umr osoyishi uchundir, umr mol jam' etmak uchun ermasturur".

Ogahiyning boshqa asarlari kabi tarjimalarida ham inson hayoti mohiyati har tomonlama sharhlanadi. Ezgulikka borish yo'l-yo'riqlari bayon etiladi. Noqisliklardan ogohlantiriladi. Ular ulkan ma'naviy boyligimizdir.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Debocha, mustazod, voqeaband g'azal, dialog-munozara g'azal, ishq, naqshbandiylik, safar dar vatan, xilvat dar anjuman.*

### **Savol va topshiriqlar:**

1. *Muhammadrizo Ogahiyning iste'dod qirralari va adabiy merosi haqida so'zlang.*
2. "Ta'viz ul-oshiqin" devoni debochasi qanday ahamiyatga ega?
3. *Mustazod qanday asar? Navoyi unga qanday ta'rif bergan?*
4. *Ogahiyning qanday tarixiy asarlarini bilasiz?*
5. *Ogahiyning tarjimachilikdagi o'ziga xos yo'li qanday?*
6. "Ta'viz ul-oshiqin" devonining janriy tarkibi haqida so'zlang.
7. *Ogahiy lirkasining ijtimoiy mazmuni haqida she'riy misollar bilan so'zlang.*
8. *Majoziy va haqiqiy ishq talqinini qanday tushundingiz?*
9. *Ogahiyning falsafiy dunyoqarashi va unda naqshbandiylik tariqatining tutgan o'rmini sharhlab bering.*
10. *Ogahiyga Navoyining adabiy ta'siri qanday?*
11. *Shoirning badiiy san'atlarni qo'llash mahoratini izohlang.*
12. *Ogahiy she'rларining badiiy tili va timsollari tarkibini tahlil eting.*

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. *Ogahiy. Tanlangan asarlar. T.: 1958.*
2. *Ogahiy. Ta'viz ul-oshiqin. T.: 1960.*
3. *Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-6 -jild. T.: 1971-77.*
4. *Ogahiy. Ishq ahlining tumorি. T.: 1999.*
5. *R. Majidiy. Ogahiy lirkasi. T.: 1963.*
6. *O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.*
7. *Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. T.: 1999.*
8. *Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. "O'qituvchi", T., 2010-yil.*

## AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

1. Boburning she’riy mahorati.
2. Muhammad Solih va uning “Shayboniynoma” asari.
3. Turdi she’riyatining o’ziga xos qirralari.
4. Farg‘ona adabiy muhiti. Amiriyl, Fazliy, Ado.
5. Xo‘janazar Huvaydo adabiy merosi.
6. “Qissayi Mashrab”da shoir qiyofasining yoritilish tamoyillari.
7. Mashrab she’riyatining g‘oyaviy va obrazlar tizimi.
8. Pahlavonquli Ravnaq ijodi.
9. Roqim ijodi.
10. “Boburnoma” o‘zbek nasri namunasi sifatida.
11. Amiriyning she’riy mahorati.
12. Fazliyning Farg‘ona adabiy muhitidagi o‘rni va merosi.
13. Adoning hayoti va merosi.
14. Fitrating XVI-XIX asr adabiyot haqidagi qarashlari.
15. Tazkirahavislik. “Muzakkiri ahbob” asarining ilmiy qimmati.
16. XVI-XIX asr adabiyotida munozara janri taraqqiyoti va badiiyati.
17. Majlisiy. “Qissayi Sayfulmuluk” asari.
18. Xoja ijodi. Asarlarining talqini.
19. So‘fi Olloyor hayoti, tariqati va asarlari.
20. “Shajarayi turk” tarixiy-badiiy asar sifatida.

### 1-MAVZU:

*Boburning she’riy mahorati.*

#### *REJA:*

1. Boburning adabiy merosi.
2. Bobur devonlari: qo‘lyozmalar, nashrlar tasnifi.
3. Bobur she’riyatining mavzu va g‘oyaviy qamrovi.
4. Shoirning she’riy mahorati.

#### *Adabiyotlar:*

1. Bobur. Asarlar. 3 jildlik. T.: 1965.
2. Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she’riyat. T.: 1991.

4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.
5. Valixo'jaev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: 1993.
6. Erskin U. Bobur Hindistonda. T.: 1995.
7. Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. T.: 1983.

## 2-MAVZU:

*"Boburnoma" o'zbek nasri namunasi sifatida.*

*Reja:*

1. "Boburnoma" -- tarixiy-memuar asar.
  2. Uning qo'lyozma nusxalari va nashrlari.
  3. "Boburnoma" – o'zbek mumtoz nasrining nodir namunasi.
  4. Uning janr xususiyatlari.
  5. "Boburnoma"ning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixini o'rghanishdagi ahamiyati.
  6. Asardagi timsollar.
  7. "Boburnoma"ning badiiy xususiyatlari.
- Adabiyotlar:*
1. Bobur. Boburnoma. T.: 2002.
  2. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. T.: 1996.
  3. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.
  4. Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.
  5. Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. T.: 1983.
  6. Erskin U. Bobur Hindistonda. T.: 1995.

## 3-MAVZU:

*Muhammad Solih va uning "Shayboniynoma" asari.*

*Reja:*

1. Muhammad Solih hayoti va ijodi manbalari.
2. Shoirning adabiy merosi.
3. "Shayboniynoma" dostoni.
4. Dostondagi Shayboniyxon timsoli.
5. Dostondagi temuriyzodalar va boshqa timsollar.
6. Dostonning badiiy xususiyatlari.

*Adabiyotlar:*

1. Muhammad Solih. Shayboniynoma. T.: 1982.

2. Nisoriy. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.
3. Vosifiy. Badoe ul-vaqoe. T.: 1979.
4. Alisher Navoyi. Majolis un-nafoysis. T.: 1975.
5. Bobur. Boburnoma. T.: 2002.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: 2000.
7. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.

#### **4-MAVZU:**

*Xoja ijodi . Asarlarining talqini.*

*Reja:*

1. Xoja hayoti va ijodi manbalari.
2. Uning adabiy merosi.
3. Xoja merosida kichik hikoyachilik takomili.
4. Adibning she'riy asarlari talqini. —

*Adabiyotlar:*

1. Xoja. Miftoh ul-adl.T.: 1962.
2. O'zbek adabiyoti. Xrestomatiya. T.: 1959.
3. Mirzaahmedova M. Xoja. T.: 1974.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.
5. Nisoriy. Muzakkiri ahbob.T.: 1993.
6. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. T.: 2002.

#### **5-MAVZU:**

*So'fi Olloyor hayoti, tariqati va asarlari.*

*Reja:*

1. So'fi Olloyor hayoti va ijodi manbalari.
2. "Sabotul-ojizin" asarining mavzu va g'oyaviy talqini.
3. Noyob badiiyat namunasi ("Sabotul-ojizin" misolida).

*Adabiyotlar:*

1. So'fi Olloyor. Sabotul-ojizin. T.: 1991.
2. Qissayi Mashrab. T.: 1992.
3. Sh. Sirojiddinov. Ollohyor ilohiyoti. T.: 2000.
4. Suvonqulov I. So'fi Ollohyor. T.: 1995.
5. Adizova I. Boqiylik saodati. T.: 1997.

6. Risolayi Aziza. T.: 2000.
7. O'zbek adabiyoti tarixi 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.

## **6-MAVZU:**

### ***Turdining hayoti va ijodi.***

#### ***Reja:***

1. Turdi Farog'iy hayoti va ijodi manbalari.
2. Shoir adabiy merosining o'rganilish tarixi.
3. Shoir asarlarining mavzu doirasi va g'oyaviy ko'lami.
4. Shoir she'riyatining mahorat qirralari.

#### ***Adabiyotlar:***

1. Turdi. Tanlangan asarlar. T.: 1951.
2. Turdi. She'rlar. T.: 1971.
3. Jumaev N. Turdi nazmi badiiyati. T.: 1995.
4. Jumaxo'ja N. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros.
- F.f.d. ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 1999.
5. Fitrat. O'zbek shoiri Turdi. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: 2000.
6. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.
7. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: 1980.

## **7-MAVZU:**

### ***Mashrab she'riyatining g'oyaviy va obrazlar tizimi.***

#### ***Reja:***

1. Shoir tarjimayi holi va ijodiy faoliyatini yoritishda "Qissayi Mashrab"ning o'rni.
2. Shoirning merosi.
3. Mashrab she'riyatining g'oyaviy xususiyatlari.
4. Mashrab she'riyatida ishq talqini.
5. Shoir ijodida dunyoviy kechinmalar ifodasi.
6. Mashrab asarlarida badiiy mahorat.

#### ***Adabiyotlar:***

1. Boborahim Mashrab. Mehribonim, qaydasan. T.: 1990.
2. Qissayi Mashrab. T.: 1992.

3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. T.: 1991.
4. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. T.: 1999.
5. Jumaxo'ja N. Milliy istiqlol mafkurasi va adabiy meros. F.f.d. uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 1999.

### **8-MAVZU:**

#### **"Shajarayi turk" – tarixiy-badiiy asar.**

*Reja:*

1. Abulg'ozи hayoti va ijodi manbalari.
2. Adabiy-ilmiy merosi.
3. Tarixiy asarlarining ilmiy-badiiy qimmati.
4. Asarlarining qo'lyozma nusxalari va nashrlari.
5. "Shajarayi turk"da tarixiy siymolar tasviri.
6. Asar badiiyati.

*Adabiyotlar:*

1. Abulg'ozи. Shajarayi turk. T.: 1992.
2. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.: 1990.
3. Xudoynazarov H. "Shajarayi turk" va uning o'r ganilishi. T.: 1994.

### **9-MAVZU:**

#### **Xo'janazar Huvaydo hayoti va ijodi.**

*Reja:*

1. Huvaydoning hayoti va ijodi manbalari.
2. Shoirning merosi.
3. Huvaydoning dunyoqarashi.
4. Shoirning "Rohati dil" dostoni va uning adabiyot tarixidagi o'mni.
5. "Ibrohim Adham" qissasi genezisi, badiiyati.

*Adabiyotlar:*

1. Huvaydo. Rohati dil. T.: 1994.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. T.: 1978.
3. Jumaxo'ja N. Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati. T.: 1995.
4. Is'hoqov Yo. Naqshbandiya ta'lomoti va o'zbek adabiyoti. T.: 1995.

## ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abulg‘oz. Shajarayi tarokima. T.: 1995.
2. Abulg‘oz. Shajarayi turk. T.: 1992.
3. Amiriy. Devon. T.: 1973.
4. Bakir Yulduz. Karbalo fojiasi. T.: 1993.
5. Bobur. Asarlar. Uch jildlik. T.: 1965.
6. Bobur. Boburnoma. T.: 2002.
7. Bobur. Muxtasar. T.: 1971.
8. Vosifiy Zayniddin. Badoe ul-vaqoe. T.: 1979.
9. Gulbadanbegim. Humoyunnomma. T.: 1998.
10. Gulxaniy. Zarbulmasal. T.: 1958.
11. Ishq daftari. Ruboiylar. T.: 2000.
12. Komila – Nodira. Devon. T.: 2002.
13. Mashrab. Mabdai nur. T.: 1994.
14. Mashrab. Mehribonim, qaydasan. Asarlar. T.: 1990.
15. Munis. Savodi ta’lim. T.: 1997.
16. Munis. Saylanma. T.: 1980.
17. Muhabbat taronalari. Ruboiylar. T.: 2004.
18. Nisoriy Hasanxoja. Muzakkiri ahbob. T.: 1993.
19. Nishotiy. Husnu Dil. Lirika. T.: 1967.
20. Nodira. Ey sarvi ravan. T.: 1992.
21. Ogahiy . Asarlar. 6 jildlik. T.: 1971-1976.
22. Ogahiy . Ishq ahlining tumor. T.: 1999.
23. So‘fi Olloyor. Sabotul-ojizin. T.: 1991.
24. Turdi. She’rlar. T.: 1971.
25. Uvaysiy. Ko‘ngil gulzori. T.: 1983.
26. Xoja. Miftohul-adl. T.: 1962.
27. Qissayi Mashrab . T.:1992.
28. Qul Ubaydiy. Vafo qilsang. She’rlar . T.: 1994.
29. Huvaydo. Rohati dil. T.: 1994.
30. O‘zbekadabiyotitarixi. 5 jildlik. T.: 1978-1983.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Adizoval. Boqiyliksaodati. T.: 1997.
2. Atoqlishoir, tarixnavis,tarjimon. T.: 1999.
3. Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: 2004.
4. Jumaev N. Munis g'azaliyoti. T.: 1983.
5. Jumaev N. Turdi nazmi badiiyati. T.: 1995.
6. Jumaxo'ja N. Huvaydo merosining ma'naviy-ma'rifiy mohiyati. T.: 1995.
7. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. T.: 1993.
8. Komilov N. Tasavvuf. T.: 1999.
9. Sirojiddinov Sh. So'fi Ollohyor ilohiyoti. T.: 2001.
10. Suvonqulov I. So'fi Ollohyor. T.: 1995.
11. Xudoynazarov H. Abulg'ozzi Bahodirxon tarixchi va adib. T.: 1994.
12. Xudoynazarov H. "Shajarayi turk" va uning o'rganilishi. T.: 1993.
13. Haqqulov I. Uvaysiy she'riyati. T.: 1982.
14. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. T.: 2000.
15. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. T.: 1993.

## TEST TOPSHIRIQLARI

1. Satiralari bilan mashhur bo'lgan shoirni toping.  
A. Yassaviy  
B. Lutfiy  
C. Turdi  
D. Nodira  
E. Uvaysiy.
2. "Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
*Qatlim uchun «nas» kelturur, «nun» eltibon «sod»*  
ustina" matlali mashhur g'azalning muallifi kim ?  
A. Mashrab  
V. Navoyi  
S. Ogahiy  
D. Nodira  
E. Bobur.
3. «Amirul-muslimin» unvoniga sazovor bo'lgan, Qo'qonda  
adabiy muhit tashkil qilgan hukmdor shoir kim ?  
A. Umarxon Amiriyy  
B. Fazliy  
C. Ado  
D. Munis  
E. Husayn Boyqaro.
4. Adabiyotda masal janri asoslanadigan badiiy tasvir  
vositasi qaysi javobda ko'rsatilgan ?  
A. Mubolag'a  
B. Majoz  
S. Jonlantirish  
D. O'xshatish  
E. Sifatlash
5. Uvaysiy quyidagi kichik janrlardan qaysi birida shuhrat  
topgan?  
A. Chiston  
B. Qit'a  
C. Fard

- D. Ruboiy  
E. G'azal
6. Munis Xorazmiy qaysi yillarda yashab ijod etgan ?  
A. 1758-1819  
B. 1768-1929  
C. 1778-1829  
D. 1788-1838  
E. 1805-1875
7. Tarixchi, tarjimon, xattot, mirob bo‘lgan taniqli o‘zbek shoiri kim?  
A. Munis  
B. Gulxaniy  
C. Furqat  
D. Amiriy  
E. Muqimiyy.
8. XV-XVI asr boshlarida o‘zaro urushlarda Qarshi, Hirot, Samarqand, Andijon kabi shaharlarning qamal qilinishi, ocharchilik, qahatchilik yuz berishi va boshqa adolatsizliklar, fojialar qaysi asarda real tasvirlangan ?  
A. Husnu Dil  
B. Saddi Iskandariy  
C. Qisasi Rabg‘uziy  
D. Mubayyin.  
E. Shayboniynoma
9. Mumtoz she’riyatda eng ko‘p uchraydigan obrazlarni toping.  
A. Olimlar  
B. Payg‘ambarlar  
C. Muallimlar  
D. Qo‘sishchilar  
E. Savdogarlar.
10. Qo‘qon adabiy muhitni namoyandalari ijodidan tuzilgan tazkira kimning topshirig‘i bilan, qaysi shoir tomonidan tuzilgan va qanday nomlanadi ?  
A. Amiriy topshirig‘i bilan, Fazliy «Majmuai shoiron».

- B. Husayn Boyqaro topshirig‘i bilan, Navoyi «Majolisun-nafoysi».
- C. Feruz topshirig‘i bilan, Munis «Tazkiratush-shuaro».
  - D. Amiriy topshirig‘i bilan, Gulxaniy «Zarbulmasal».
  - E. Amiriy topshirig‘i bilan, Fazliy «Tazkirkat ush-shuaro».
11. Bobur lirikasida etakchi o‘rin tutgan janrlarni ko‘rsating.
- A. G‘azal, tuyuq, ruboii.
  - B. Madhiya, qasida, masnaviy.
  - C. Muxammas, bag‘ishlov, qit‘a.
  - D. Mustazod, muvashshah, vasiyat.
  - E. Mutassa, murabba, fard.
12. *Shukrkim, homiyi din Komila sulton bo‘ldi,*  
*Adlidin bog‘i jahon ravzai rizyon bo‘ldi.*
- Ushbu bayt muallifi kim ?
- A. Mahzuna
  - B. Uvaysiy
  - C. Anbar Otin
  - D. Zebunniso
  - E. Nodira
13. Uvaysiy dostoni qanday nomlanadi ?
- A. Voqeoti Muhammadalixon
  - B. Anor
  - C. Yusuf va Zulayxo
  - D. Uvaysiyman
  - E. Haft gulshan
14. «Shoh Mashrab» qissasida Mashrabning ikkinchi, uchinchi taxalluslari qanday atalgan ?
- A. Shoh Mashrab, Qalandariy
  - B. Shohi Mashrab, Hazrati Eshon
  - C. Mahdiy, Piri Kan‘on
  - D. Zinda, Adham
  - E. Mahdiy, Zinda
15. «Tavorixi guzida nusratnomasi» asari qachon yozilgan, kimning tarixiga bag‘ishlangan ?
- A. 1502-1504, Shayboniyxon

- B. 1497-1498, Bobur
- C. 1505-1507, Husayn Boyqaro
- D. 1440-1442, Temur
- E. 1820-1822, Amir Umarxon

16. Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» asari qaysi janrda yaratilgan, unda qancha ijodkor haqida ma'lumot berilgan ?

- A. Manoqib , 160
- B. Memuar, 350
- C. Masnaviy, 250
- D. Tazkira , 250
- E. Majmua, 270.

17. Quyida qaysi asarning maqsadi bayon etilgan ?

«... *Amir Alisherning «Majolis un-nafoyis»idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va ularning yoqimli nafaslari isini təliblarning jon dimog'iga etkazish».*

- A. Shajarayi turk
- B. Sabot ul-ojizin
- C. Boburnoma
- D. Muzakkiri ahbob
- E. Badoeul-vaqoe.

18. «Muzakkiri ahbob» asarining xotima qismida kimlar haqida ma'lumot berilgan ?

- A. Muallifning avlod-ajdodlari haqida
- B. Chingiziy sultonlar haqida
- C. Chig'atoy sultonlari haqida
- D. Zamondosh shoirlar haqida.
- E. Zamondosh muarixlar haqida.

19. Turdi Farog'iy haqidagi dastlabki maqola kim tomonidan, qachon, qaerda chop etilgan ?

- A. Behbudiy, 1925, "Oyna"
- B. AbduraufFitrat, 1928, «Maorifvao'qituvchi»
- C. Cho'lpion, 1924, «Yorqin hayot»
- D. Abdulhamid Majidiy, 1925, "Zarafshon"
- E. Fitrat, 1928, «Hurriyat»

20. Turdining bizga qancha asari etib kelgan ?
- A. 434 misra, 18 ta
  - B. 434 misra, 17 ta
  - C. 450 misra, 12 ta
  - D. 444 misra, 16 ta
  - E. 455 misra, 14 ta
21. Turdining bizga ma'lum asarlari qaysi janrlarda yaratilgan ?
- A. Muammo, g'azal , tuyuq
  - B. G'azal, tuyuq, ruboiy
  - C. Fard, musaddas, masnaviy
  - D. G'azal, muxammas,fard
  - E. G'azal, muvashshah, qit'a.
22. Turdi ijodidagi asosiy mavzu qanday ?
- A. Ishq va muhabbat
  - B. Amaldorlarni fosh qilish
  - C. Vatan va xalq qismati
  - D. Pand-nasihat
  - E. Hasbi hol.
23. So'fi Olloyorning diniy-didaktik ruhdagi eng mashhur asari qaysi?
- A. Sabot ul-ojizin
  - B. Murod ul-orifin
  - C. Siroj ul-ojizin
  - D. Maslak ul-muttaqiyin
  - E. Mahbub ul-qulub.
- 24.«Sabot ul-ojizin»da fikr-g'oyalarni birlashtirib turuvchi bosh g'oya nima ?
- A. Ishq
  - B. Shariat
  - C. Komil inson
  - D. Tafakkur
  - E. Pand-nasihat.
25. Kalidi ganji ma'nikim, zabondur,  
Anga bir nuqta ko 'b bo 'lsa ziyondur

baytida qanday badiiy san'at qo'llangan ?

- A. Kitobat
- B. Tashbeh
- C. Mubolag'a
- D. Tazod
- E. Tamsil.

26. Mashrab haqidagi qissani kim, qachon rus tiliga tarjima qilgan ?

- A. Vyatkin, 1923
- B. Likoshin, 1910
- C. Veselovskiy, 1895
- D. Kononov, 1933
- E. Bartold, 1918

27. Mashrab Namanganda qaysi mashhur mudarris qo'lida tahsil olgan?

- A. Mulla Bozor oxund
- B. Ofoq xo'ja
- C. Ibrohim Adham
- D. Farididdin Attor
- E. Nasimiyy.

28. Nodira haqidagi dastlabki maqolani kim, qachon e'lon qilgan ?

- A. Fitrat, 1928.
- B. Abdulhamid Majidiy, 1925
- C. Lutfullo Olim, 1923
- D. Cho'lpion, 1925
- E. Uvaysiy, 1860.

29. Nodira qachon, qaerda tavallud topgan ?

- A. 1795, Marg'ilon
- B. 1792, Qo'qon
- C. 1792, Andijon
- D. 1795, Farg'ona
- E. 1808, Namangan.

30. Nodiraning asl ismi nima ?

- A. Komila

- B. Maknuna  
C. Jahonotin  
D. Mohlaroyim  
E. Dilshod Barno.
31. Nodiraning ustozi va turmush o'rtog'i kim ?  
A. Amir Umarxon.  
B. Amir Olimxon  
C. Amir Haydar  
D. Amir Sulton  
E. Amir Mahmud.
32. Mohlaroyim qanday taxalluslar bilan ijod etgan ?  
A. Komila, Nodira, Maknuna  
B. Dilshor Barno, Anbar otin, Mahzuna  
C. Ojiza, Maknuna, Nodira  
D. Komila, Nodira, Mahzuna  
E. Ojiza, Mahzuna, Maknuna
33. Nodiraning bizga qancha merosi etib kelgan ?  
A. 6000 misra  
B. 10000 misra  
C. 12000 misra  
D. 15000 misra  
E. 8000 misra.
34. Quyidagi bayt kimning qalamiga mansub ?  
*Man'i muhabbat na qilursan manga,  
Ramzi haqiqat erur ishqij majoz.*  
A. Uvaysiy  
B. Navoyi  
C. Ogahiy  
D. Nodira  
E. Munis.
35. Mutribiyning tazkiralari qanday nomlanadi?  
A. Nusxayi zeboyi Humoyun, Tazkiratush-shuaro  
B. Nusxayi zeboyi Jahongir, Tazkiratush-shuaro  
C. Majmuai shoiron, Me'yorul-ash'or  
D. Tazkiratush-shuaro, Tazkirayi Qalandaron

36. "Sabotul-ojizin" asarini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan, hajmi qancha?

- A. Huvaydo, 12000 bayt
- B. Vola, 10000 bayt
- C. So'fi Olloyor, 12000 bayt
- D. Shavkat, 11000 bayt

37. Qaysi tazkiralarda Mashrab haqida ma'lumot uchraydi?

- A. Tazkiratul-avliyo
- B. Tazkirayi qalandaron
- C. Muzakkiri ahbob
- D. A, B

38. Mashrab Qashg' arda kimning qo'lida tahsil olgan?

- A. Ibrohim Adham
- B. Mulla Bozor Oxund
- C. Ofoq Xo'ja
- D. Nasimiy

39. Qul Ubaydiy qaysi tillarda ijod qilgan?

- A. Turk, arab
- B. Fors, turk
- C. Fors, arab
- D. A,B,S

40. Xojaning "Maqsad ul-atvor" asari qaysi ijodkor asari ta'sirida yaratilgan?

- A. Nizomiy
- B. Jomiy
- C. Navoyi
- D. Dehlaviy

41. *Har qanda g'ami do 'st dili porani istar,  
To subh yaqo yirtmadi – mehr o 'lmadi paydo.*

Ushbu misralar muallifi kim?

- A. So'fi Olloyor
- B. Mashrab
- C. Turdi
- D. Huvaydo

42. "Boburnoma"ni Bobur qanday nomlagan?

A. Boburnoma

B. Vaqoe

C. Voqeanoma

D. Tuzuki Bobur

43. "Xoja" nomli monografiyaning muallifi kim?

A. Izzat Sulton

B. V.Zohidov

C. M.Mirzaahmedova

D. Fitrat

44. "Bu asar kichik-kichik hikoyalardan iborat. U yaxlit syujetga ega emas. 40ga yaqin hikoyalardan iborat". Ushbu ta'rif qaysi asarga xos?

A. Gulzor

B. Shajarayi turk

C. Shajarayi tarokima


D. Rohati dil



## MUNDARIJA

Uqtirish xati.....	3
Darslik imlosidagi ayrim xususiyatlarga izohlar.....	4
XVI-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy sharoit, madaniy hayot va adabiy-muhit.....	6
Zahiriddin Muhammad Bobur.....	52
Buxoro adabiy muhiti. Xoja ijodi. Asarlarining talmiqini.....	122
Ubaydiyning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'mi.....	136
TurdiFarog'iy.....	154
So'fi Olloyorva «Sabot ul-ojizin» asarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	188
Boborahim Mashrabning hayoti va ijodi.....	200
Xo'janazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo.....	243
Qo'qon adabiy muhiti.....	272
Amiriyning hayoti va ijodi.....	276
Gulxaniyning hayoti va ijodi.....	305
Nodiraning hayoti va ijodi.....	316
Uvaysiyning hayoti va ijodi.....	338
Xeva adabiy muhiti. Abulg'oz Bahodirxon – yetuktariq navis.....	369
Muhammadniyoz Nishotiyining hayoti va ijodi.....	395
Nurmuhammad Andalib.....	408
Shermuhammad Munis Xorazmiy.....	419
Muhammadrizo Ogahiy – shoir, tarixchi va tarjimon.....	474
Amaliy mashq'ulot mavzulari .....	522
Asosiy adabiyotlar.....	527
Qo'shimcha adabiyotlar.....	528
Test topshiriqlari.....	529

- 1088 -



Nusratullo Jumaxo‘Ja, Iqboloy Adizova

## O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI (XVI-XIX ASR I YARMI)

### DARSLIK

*Qayta ishlangan, to ‘ldirilgan ikkinchi nashr*

*Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” - 2020*

*Muharrir Xolsaidov F.B.*

*Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.  
Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.  
“Times New Roman” garniturasi.  
Ofset bosma usulida bosildi.*

*Shartli bosma tabog‘i 34. Nashr bosma tabog‘i 33,8.  
Adadi 100 nusxa.*

*“Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri Farhod ko‘chasi 6-uy.*



ISBN 978-9943-6790-7-8

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6790-7-8.

9 789943 679078